O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari

mavzusida
respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI



SAMARQAND-2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, falsafa fanlari doktori S.K. Karimovning 70 yillik yubileyiga bag‘ishlangan “ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB MUAMMOLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

(2026-yil 05-iyun)

SAMARQAND-2026

UO‘K: 101.1:111
Z 31
KBK: 87.3

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, falsafa fanlari doktori S.K.Karimovning 70 yillik yubileyiga bag‘ishlangan **“Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Samarqand: STAP-SEL” MChJ nashriyoti, 2026. - 534 b.

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman professor S.K.Karimovning ilmiy-tashkiliy, pedagogik hamda ijtimoiy faoliyati, zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari, global transformatsiyalar jarayoni, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy merosida ontologik, epistemologik, aksiologik hamda axloqiy qarashlarning namoyon bo‘lish shakllari, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning metodologik asoslari, zamonaviy ta’lim tizimida falsafiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi hamda raqamli texnologiyalar rivojlanishining falsafiy asoslari, ularning inson tafakkuri, ma’naviy qadriyatlar va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri masalalarini muhokama qilishga qaratilgan.

Mazkur to‘plamdan o‘rin olgan ilmiy maqola va tadqiqotlar oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarda kreativ va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim nazariy-metodologik manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur materiallar ta’lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish, innovatsion va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga samarali tatbiq etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining metodologik asoslarini mustahkamlash hamda yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish jarayonida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TASHKILIY QO‘MITA:

Po‘latov M.E.	-	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
Pardayev O.	-	SamISI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
Azizqulov A.A.	-	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, Falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Tahrir hay’ati:

Azizqulov A.A.	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.
Karimov S.K.	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori.
Ro‘zimuradov S.M.	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD).
Alimov A.N.	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD).
Xashimov Sh.J.	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD).
Yusupov M.S.	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa doktori (PhD).
Haqqulov N.Q.	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa doktori (PhD).
O‘rozov Sh.Z.	SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Kompyuterda sahifalovchilar: Ro‘zimuradov S.M., Haqqulov N.Q.

Ushbu to‘plam mualliflarning qo‘lyozmalari asosida o‘zgartirishsiz nashrga tayyorlandi va chop etildi. Konferensiya materiallaridagi ma’lumotlar uchun mualliflar javobgardirlar.

ISBN: 978-9910-225-99-4

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026

ZAMON LAHZALARIDA UMR AKS-SADOSI

Mazkur bo‘limda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori, “Turon” Fanlar akademiyasi akademigi Karimov Sayimnazar Karimovichning sermazmun hayot yo‘li va ko‘p qirrali ilmiy-pedagogik faoliyatini yorituvchi muhim tarixiy lahzalar foto-hujjatlar asosida jamlangan. Unda olimning talabalik yillaridan boshlangan ilmiy kamolot bosqichlari, ustozlik faoliyati, ilmiy anjumanlar va konferensiyalardagi ishtiroki, shogirdlari bilan ijodiy muloqotlari, mamlakatimiz hamda xorijiy davlatlarda amalga oshirgan ilmiy safarlari, shuningdek, yuksak e’tirof va mukofotlarga sazovor bo‘lgan unutilmas daqiqalari o‘z ifodasini topgan.

Taqdim etilayotgan foto-materiallar nafaqat bir inson hayotining muayyan sahifalarini aks ettiradi, balki olimning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, intellektual salohiyati, ma’naviy qiyofasi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ham yorqin namoyon etadi. Ushbu suratlarda professor Sayimnazar Karimovning ilmiy izlanishlarga sadoqati, ustozlik an’analariga fidoyiligi hamda ma’rifatparvarlik faoliyatining turli qirralari mujassamdir.





“Turon” Fanlar akademiyasi Prezidiumining 2023-yil 29-yanvardagi 2/01-23-son qarori bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, falsafa fanlari doktori Karimov Sayimnazar Karimovichga O‘zbekiston Respublikasi «Turon» akademiyasi «Akademik» unvoni berildi.





Karimov Sayimnazar 1956-yil 17-iyunda Ishtixon tumanining Bahrin qishlog‘ida kolxozchi oilasida tug‘ilgan.



Oila davrasida



O‘g‘li Feruz bilan

1962-1972 yillarda Bahrin qishlog‘ida joylashgan 51-o‘rta maktabni “Oltin medal” bilan tamomlagan.





1973-1978 yillarda Samarqand davlat universiteti tarix ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olgan





Talabalik oltin davrim



Kursdoshlar bilan

Kursdoshlar bilan 40-45-yillik yubileydan





Mehnat faoliyatini 1978 yili Samarqand davlat universiteti assistent lavozimidan boshlagan. 1978 yildan 1996 yilga qadar Ilmiy kommunizm kafedrasi assistenti, o‘qituvchisi, Siyosatshunoslik kafedrasi doktoranti, Sotsiologiya kafedrasi mudiri kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan





1996-2005 yillar Samarqand viloyati hokimligi tizimidagi mehnat jarayoni





1996-2005 yillar Samarqand viloyati hokimligi tizimidagi mehnat jarayoni





Mamlakatimizda 2000-yil 9-yanvarda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovida Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan nomzod Islom Abdug‘aniyevich Karimovning Samarqand viloyatidagi ishonchli vakili hisoblangan





2005-2010 yillarda Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashiga 24-Mitan saylov okrugi deputati sifatida faoliyat olib borgan





2005-2010 yillar Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha prorektori bo‘lgan.









2010-2013 yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, 2013-yildan 2018-yilga qadar kafedra mudiri va professori lavozimida faoliyat ko‘rsatgan





Shogirdlari bilan





2019-2020 yillar Samarqand davlat universiteti “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi professori, 2020-2022-yillar mudiri sifatida faoliyat yuritgan.





2022-yildan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori





I SHO‘BA. PROFESSOR S.K.KARIMOVNING TASHKILOTCHILIK, ILMIY, IJTIMOIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATI HAQIDA

MILLIY MA’NAVIYATIMIZNING FIDOIY TARG‘IBOTCHISI

Sharipov To‘lqin Saidahmedovich
SamISI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, professori
Azizkulov Akram Abduraxmonovich
SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri

Dunyoning geosiyosiy va mafkuraviy manzarasi tobora murakkablashib borayotgan, milliy va diniy nizolar oqibatida urush o‘choqlaridagi mojarolarning xalqaro miqyosda tus olayotgan bugungi informasion globallashuv sharoitida mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi ko‘p jihatdan fuqarolarimiz hamjihatligi va yoshlarimizni milliy ma’naviy qadriyatlarimiz ruhidagi tarbiyasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu bois milliy ma’naviy qadriyatlarimizni tadqiq etish va asrlar davomida sinovlardan o‘tgan ajdodlar merosidagi umuminsoniy g‘oyalarni keng miqyosda targ‘ib etish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Asl manbalar asosida boy ilmiy merosimizning umumbashariy ahamiyatini obyektiv tadqiq etish g‘oyat mashaqqatli hamda mas’uliyatli bo‘lib, tadqiqotchi olimdan fidoiylik va mashaqqatli mehnat talab etadi. Bugungi kunda mana shunday mas’uliyatli sohada tadqiqot olib borayotgan fidoiy olimlarimizdan biri, ustozimiz falsafa fanlari doktori, professor Sayimnazar Karimovdir.

Sayimnazar Karimov 1956-yil 17-iyunda Ishtixon tumanining Bahrin qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. 1962- 1972-yillarda shu qishloqdagi 51-o‘rta maktabda tahsil olgan. O‘quvchilik davridayoq o‘zining tirishqoqligi va iqtidori bilan tengdoshlaridan ajralib turgani bois o‘rta maktabni oltin medal bilan tugatgan. 1973-yili Samarqand Davlat universitetining Tarix fakultetiga o‘qishga kirgan. Talabalik yillarida uning ilmga bo‘lgan qiziquvchanligi va kreativ tafakkur tarzi universitetda har yili an’anaviy tarzda o‘tkaziladigan talabar ilmiy anjumanlarida dolzarb muammolarga bag‘ishlangan ma’ruzalari va maqolalari orqali namoyon bo‘lgan. O‘qish davomida doimo imtiyozli stipendiya sohibi bo‘lgan.

Ustozlari undagi iste’dod va qobiliyatni inobatga olib, faoliyatini SamDUda davom ettirishini taklif qiladilar. 1973-1978 yillarda Samarqand davlat universitetida tarix ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olgan. 1978-yildan 1988-yilga qadar kafedra assistenti, o‘qituvchisi, siyosatshunoslik kafedrasi doktoranti, sotsiologiya kafedrasi mudiri kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan.

1988-yilda Moskva shahrida Moskva Davlat Pedagogika institutining (MDPI) aspiranturasini tamomlab, “Kolxozchi dehqonlarning ijtimoiy faoliyatini oshirish

(O‘zbekiston misolida)” nomli dissertasiyasini himoya qilib, falsafa fanlari nomzodi bo‘lgan.

Samarqandga qaytib, 1992 yilgacha SamDUning Siyosatshunoslik va sotsiologiya kafedrasida katta o‘qituvchi sifatida faoliyatini davom yettirgan.

1987-1992 yillarda Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi, 1992-1994 yy. - Samarqand davlat universiteti siyosatshunoslik kafedrasi doktoranti, 1994-1995 yy. - Samarqand davlat universiteti sotsiologiya kafedrasi mudiri va ayni damda Toshkentdagi I.Mo‘minov nomli Falsafa va huquq institutining katta ilmiy xodimi sifatida davom ettirgan. 1998-yilda “XIV-XV asrlarda Movarounnahr ijtimoiy siyosiy fikrlar taraqqiyoti” mavzusida o‘zining doktorlik dissertasiyasini himoya qilib, falsafa fanlari doktori, professor unvoniga ega bo‘lgan.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda ilmiy tadqiqotlar rivoji bilan uzviy bog‘liq holda Sayimnazar Karimovning ilmiy-tashkiliy faoliyati ham yangi bosqichga ko‘tarilib, uning ilm-fan taraqqiyoti, ilmiy muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ilmiy kadrlar salohiyatini yuksaltirish borasidagi boshqaruv va tashkilotchilik qobiliyati yanada yorqin namoyon bo‘ldi. Ana shu salohiyat e’tiborga olinib, 1996-yilda u viloyat hokimligi tomonidan Viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari lavozimiga tayinlandi. Mazkur mas’uliyatli vazifada faoliyat yuritar ekan, u ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli ravishda tashkil etish, aholi, ayniqsa yoshlar orasida milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni targ‘ib qilish, jamiyatda ma’naviy muhitni mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirdi. 1996- 2000-yillar davomida uning rahbarligida viloyat miqyosida ko‘plab samarali targ‘ibot-tashviqot loyihalari va ma’naviy-ma’rifiy dasturlar hayotga tatbiq etilib, ularning ijtimoiy-ma’naviy samaradorligini ta’minlashda munosib hissa qo‘shildi.

2000-2005-yillarda Samarqand shahar hokimining ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida faoliyat olib bordi.

Mehnat faoliyati davomida, ya’ni, 2005- 2018-yillarda esa Samarqand Iqtisodiyot va servis institutining ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha prorektori lavozimida ishlab, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, kafedra professori sifatida ta’lim-tarbiya ishlarini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdi.

2018- 2022-yillarda Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrasi professori, mudiri va universitet huzuridagi ilmiy kengash raisi lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi.

Bugungi kunda ham Sayimnazar Karimov Turon fanlar akademiyasining akademigi, Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi professori sifatida faoliyat olib bormoqda.

Karimov Sayimnazar respublikamizdagi falsafa fanlari sohasining yetuk mutaxassislaridan biri. Falsafa, falsafa tarixi va tasavvuf masalalariga

bag‘ishlangan, umumiy hajmi 400 b.t.dan ortiq 30 dan ziyod kitoblar, chunonchi 2 ta darslik, 2 ta elektron darslik, 17 dan ortiq o‘quv qo‘llanmalar, 14 ta monografiya, 20 dan ortiq o‘quv-uslubiy ishlar, 200 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. U kishi tomonidan chop qilingan “Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan” va “Falsafa”, “Falsafa tarixi” darsliklari, “Inson qalbini poklovchi ta’limot”, “Ijtimoiy taraqqiyot: muammo va yechimlar”, “Amir Temur va temuriylarning tasavvufga munosabati”, ““Avesto”-sharq ijtimoiy fikrlar manbai” kabi o‘quv, amaliy va uslubiy qo‘llanmalari respublikamizning barcha iqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari talabalari, magistrantlari hamda amaliyotchilar tomonidan keng foydalanilmoqda.

Karimov Sayimnazar Samarqand viloyatida falsafa tarixi va tasavvuf yo‘nalishida o‘ziga xos ilmiy maktab yaratgan. Uning rahbarligida 4 nafar fan doktori, 5 nafar falsafa doktori (PhD) tayyorlangan, hozirgi paytda 4 nafar katta ilmiy xodimlar, izlanuvchilar va mustaqil tadqiqotchilar falsafaning turli sohalarida falsafa tarixi va tasavvufning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan doktorlik dissertasiyalari ustida ishlamoqda.

Sayimnazar Karimov o‘zining yuksak ishchanligi, olimga xos mas’uliyat hissi hamda chuqur ilmiy salohiyati bilan ilmiy jamoatchilik orasida munosib e’tirofga sazovor bo‘lib kelmoqda. Uning ilmiy faoliyati nafaqat tadqiqotlar olib borish, balki ilmiy kadrlar tayyorlash va ilmiy ekspertiza jarayonlarida ham faol ishtirok etishi bilan ajralib turadi. Xususan, u Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlaridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengashlar hamda ilmiy seminarlar faoliyatida a’zo sifatida muntazam qatnashib, dissertatsiya tadqiqotlarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish, ularga taqriz va xulosalar berish, shuningdek, rasmiy opponent sifatida ilmiy muhokamalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Mazkur faoliyat uning mamlakatimiz ilmiy muhitini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish va yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashga qo‘shayotgan munosib hissasini yaqqol namoyon etadi.

Sayimnazar Karimovning ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy faoliyati bilan bir qatorda, uning jamoatchilik hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki ham alohida e’tiborga loyiqdir. U 2005- 2010-yillarda jamoatchilik asosida faoliyat yuritib, 2010-yilda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 24-Mitan saylov okrugidan deputat etib saylangan. Deputatlik faoliyati davomida hududning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishiga oid masalalarni hal etishda, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish hamda davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlashda faol ishtirok etgan.

Uning mamlakat taraqqiyoti, ilm-fan va ma’naviyat ravnaqiga qo‘shgan munosib hissasi davlat tomonidan ham yuksak e’tirof etilgan. Xususan, 2006-yilda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligi” hamda 2011-yilda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi” esdalik ko‘krak nishonlari

bilan taqdirlangan. Ushbu mukofotlar Sayimnazar Karimovning ilmiy, ma’rifiy va jamoatchilik faoliyatidagi samarali mehnati hamda mamlakatimiz taraqqiyotiga qo‘shgan salmoqli hissasining e’tirofi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor Sayimnazar Karimov institut, shahar va viloyat miqyosida yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularda yuksak ma’naviy immunitetni shakllantirish hamda turli mafkuraviy tahdid va yot g‘oyalarga qarshi kurashish masalalariga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Uning bu boradagi sa’y-harakatlari yosh avlodning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan barkamol shaxslar sifatida kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Ustozning oilaviy hayoti ham o‘ziga xos ibrat maktabidir. Turmush o‘rtog‘i Toxira opa bilan birgalikda uch nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazganlar. Oila muhitida qaror topgan ilmiy-ijodiy an’analar va ma’rifiy qadriyatlar farzandlari faoliyatida ham o‘zining munosib davomchisini topgan. Xususan, o‘g‘li Feruzjon Karimov ham pedagogik va ilmiy faoliyat yo‘lini tanlab, oiladagi ma’rifatparvarlik an’analarini davom ettirmoqda.

Bugungi kunda Sayimnazar Karimov hayotining sermahsul va mazmunli davrini boshdan kechirmoqda. U ilmiy-pedagogik faoliyatini izchil davom ettirib, yosh tadqiqotchilar va shogirdlarga ilmiy rahbarlik qilmoqda, yangi ilmiy g‘oyalar, innovatsion loyihalar hamda istiqbolli tadqiqotlar ustida samarali mehnat olib bormoqda.

70 yoshingiz muborak bo‘lsin, aziz ustoz! Doimo sog‘-salomat bo‘lib, ilm va ma’rifat yo‘lidagi sharafli faoliyatingiz bilan barchamizga o‘rnak bo‘lib yuravering.

IBRAT MAKTABINING SOHIBI - SAYIMNAZAR KARIMOV IJODIGA BIR NAZAR

Mamayunus Qarshibayevich Pardayev,
SamISI professori, “Turon” FA akademigi, 1-darajali “Mehnat faxriysi”, “Ustoz” faxriy unvonining sohibi

Bundan 70 yil muqaddam, ya’ni 1956-yil 17-iyunda Ishtixon tumanining Bahrin qishlog‘ida kolxozchi oilasida tavallud topgan Sayimnazar Karimov bugungi kunda yoshlik bilan keksalikning o‘rtasida turibdi. Shu davrda u kishi buyuk olim va yetuk inson sifatida shakllandi. Bugungi kunda u kishida quyidagi fazilatlar barq urib turibdi. Birinchi galda, **chuqur tafakkur egasi** - falsafiy mushohada va tahlil qilish qobiliyati kuchli inson. Yana bir fazilati **ilmga sadoqatli -** umrini bilim va izlanishga bag‘ishlagan olim. Natijada **ustozlik fazilati yuqori darajada shakllandi, chunki** shogirdlarga mehr bilan yo‘l ko‘rsatadigan olim darajasiga yetgan shaxs sifatida tan olinadi. Yana bir muhim jihat shu yoshda odamlarda,

xususan, qahramonimizda ham **hayotiy tajribasi boy** bo‘lib, turli masalalarga chuqur mushohada bilan vazmin yondasha oladigan darajaga yetgan. Ushbu fazilatlar zamirida **madaniyatli va mulohazali** inson bo‘lib shakllangan. Zero u kishining so‘zida ham, munosabatda ham odob-axloq, sadoqat ustun turadi.

Agar u kishining tarjimai holiga nazar tashlasak, intiluvchanlik, qobiliyati yoshligidanoq namoyon bo‘lgan. Jumladan, 1962-1972 yillarda Bahrin qishlog‘ida joylashgan 51-o‘rta maktabni “Oltin medal” bilan tamomlagan bo‘lsa, 1973 yil Samarqand davlat universitetining Tarix fakultetiga o‘qishga kirib, ushbu fakultetda o‘sha paytda eng nufuzli stipendiya hisoblangan Lenin stipendiyasi bilan o‘qigan. Shu tariqa 1978 yilda mazkur fakultetni imtiyozli diplom bilan tamomlagan. Ko‘rinib turibdiki, Karimov Sayimnazardagi ilmga chanqoqlik va harakatchanlikni ko‘rgan universitet rahbariyati, uni o‘qituvchi kasbiga munosib ko‘rib, universitetga olib qolgan.

Shu tariqa 1978 yildan buyon Karimov Sayimnazar ustozlik qilib kelmoqda. “Ustoz - otangdan ulug‘”, degan haqiqiy qarash bizlarda shakllangan bo‘lib, qadriyat sifatida ifodalanib keladi. Shunga mos holda butun umrini shu muqaddas kasbga bag‘ishlab kelmoqda. Pedagogik faoliyatini boshlaganidan buyon dastlab o‘qituvchilik faoliyatini Samarqand Davlat universitetining “Ilmiy kommunizm” kafedrasida boshlagan bo‘lsa, 1978-1983 yillarda Samarqand Davlat universiteti kafedra assistenti bo‘lib ishlagandi. Shu davr mobaynida o‘ta **mas’uliyatli va prinsipial** ustoz sifatida shakllandi. Natijada haqiqat va adolatni qadrlaydigan shaxsga aylangan. O‘z mas’uliyatini **jamiyatga foydasi tegadigan inson sifatida his qiladi. Shu tufayli** ilm-fan rivojiga ham hissa qo‘shishni maqsad qilib olganligini butun hayotining kechinmalari ko‘rsatib kelmoqda.

Shu tariqa Sayimnazar Karimov 70 yillik hayot yo‘lini ilm-fanga, ma’rifatga bag‘ishladi. U nafaqat yetuk olim, balki yuksak ma’naviyat sohibi sifatida kamtarlik, donishmandlik va insonparvarlik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan ustoz dajasiga ko‘tarildi. U kishining hayot yo‘li, ilmga sadoqati va odamiyligi ko‘pchilikka ibrat bo‘la oladi va ibrat maktabi sifatida namoyon bo‘lib turibdi.

Hayot yo‘lining ilm yo‘lidagi holatiga nazar soladigan bo‘lsak, 1988-yilda Moskva shahridagi Moskva Davlat Pedagogika institutining (MDPI) aspiranturasini tamomlagan. Bunda “Kolxozchi dehqonlarning ijtimoiy faoliyatini oshirish (“O‘zbekiston misolida”) mavzusida dissertasiya yozib, muvoffaqiyatli himoya qilgan. Shu tariqa oddiy qishloqdan chiqgan iqtisorli yosh yigit falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan. Endigi faoliyati ilm yo‘liga bag‘ishlangan qahramonimiz 1988-1993 yillarda Samarqand davlat universitetida Siyosatshunoslik va Sotsiologiya kafedrasining katta o‘qituvchisi, dotsenti va 1993 yilda Toshkent shahridagi I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq institutining katta ilmiy xodimi bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan. 1998 yilda “XIV-XV asrlarda

Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy fanlar taraqqiyoti” mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qilib, falsafa fanlari doktori ilmiy darajasiga va professor ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan.

Sayimnazar Karimovdagi tashkilotchilik va harakatchanlikni sezgan viloyat hokimligi uni 1996 yilda Viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari lavozimiga tayinladi. Sayimnazar Karimov bu lavozimda 2000 yilga qadar ishladi. Ish jarayonida u butun viloyat ahli bilan tanishdi, qizg‘in targ‘ibot-tashviqot ishlari olib bordi. 2000-2005 yillar Sayimnazar Karimov Samarqand shahar hokimining ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida faoliyat ko‘rsatishga ham muvaffaq bo‘lgan.

Sayimnazar Karimovning asl tabiati ilm olamiga mos bo‘lganligi tufayli yana oliygohga, ilm dargohiga qaytganligiga guvohmiz. 2005-2010 yillar Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha prorektori bo‘lishi bilan birgalikda Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri vazifalarida, 2010-2013 yillarda mazkur kafedraning professori, 2013 yildan 2018 yilga qadar kafedra mudiri va professori lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. Mazkur kafedrani Sayimnazar Karimov 16 yil boshqarganligi ham tahsinga sazovor.

Xullas, ustoz Sayimnazar Karimov o‘z hayotini ilm-fan, ta’lim va ma’naviyat rivojiga bag‘ishlagan yetuk olimlardan biri sifatida tan olinadigan bo‘ldi. Uning 70 yoshlik muborak yubileyi nafaqat shaxsiy qutlug‘ sana, balki yurtimiz ilmiy jamoatchiligi uchun ham muhim voqeadir. Shu davrda 2 ta darslik, 2 ta elektron darslik, 14 ta monografiya, 17 ta o‘quv qo‘llanma, 190 dan ortiq ilmiy maqolalar chop ettirdi. Shulardan 30 dan ortig‘i chet ellarda nashr qilinganligi ham bu kishinng kimligini ko‘rsatib turibdi.

Professor Sayimnazar Karimovning ilmiy va pedagogik faoliyati bir necha o‘n yilliklarni qamrab oladi. U Samarqand davlat universitetida tahsil olgan, keyin esa shu dargohda ilmiy-pedagogik faoliyat olib borgan sadoqatli va intiluvchan inson. Uning mehnat yo‘li oliy ta’limda turli yo‘nalishlarda, xususan, ilmiy tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va rahbarlik faoliyati bilan ham chambarchas bog‘liq. Xususan, 2018-2021 yillar Samarqand davlat universiteti Falsafa kafedrasi mudiri va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/3012.2019.F02.02 raqamli ilmiy kengash raisi lavozimida faoliyat ko‘rsatganligi ham ilm sohasida o‘z o‘rni borligidan dalolat berib turibdi.

Ustozning ilmiy merosi ham salmoqlidir. XIV- XV asrlardagi Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy qarashlari bo‘yicha doktorlik dissertasiyasini himoya qilgan olim sifatida u milliy falsafiy tafakkurni chuqur o‘rganishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Uning qalamiga mansub monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar va yuzlab

ilmiy maqolalar bugungi kunda ham tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sayimnazar Karimovning ilmiy faoliyatida 2000 yildan boshlab burulish yili bo‘ldi. Uni tasavvuf ilmi o‘ziga rom etdi. Endi u tasavvuf ilmi, uning tarixi va tariqatlar bilan jiddiy shug‘ullandi. Natijada “Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan” (Toshkent 2016 yil.), "Ijtimoiy taraqqiyot: muammo va yechimlar” (Samarqand 2016 yil), “Amir Temur va temuriylarning tasavvufga munosabati” (Toshkent 2018 yil.), “Avesto”-sharq ijtimoiy fikrlar manbai (Toshkent 2016 yil.) “Inson qalbini poklovchi ta’limot (Samarqand 2023 yil) kabi asarlari dunyo yuzini ko‘rib, o‘quvchilarga taqdim etildi. Natijada, 2022-yildan Sayimnazar Karimov Turon xalqaro fanlar akademiyasi akademigi etib saylandi.

Professorning eng katta xizmatlaridan biri - yosh avlodni tarbiyalash, ularda mustaqil fikrlash va ma’naviy barkamollikni shakllantirishga qaratilgan ustozlik faoliyatidir. Uning rahbarligida 4 ta fan doktori va 5 ta fan nomzodi tayyorlanib, ularni ilm yo‘liga kiritib, fan nomzodi, doktori ilmiy darajalariga va dotsent, so‘ngra professor ilmiy unvonlariga erishgan. Bu esa ustozni nafaqat olim, balki haqiqiy ma’naviy rahnamo ham ekanligini ko‘rsatadi.

Inson sifatida ham Sayimnazar Karimov bebaho. Shu holatda uning kamtarligi, donishmandligi, mehribonligi va prinsipialligi tufayli el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan. U kishining hayot yo‘li - halol mehnat, ilmga sadoqat va Vatanga xizmatning yorqin namunasidir. Bunday olimlar hayoti hozirgi paytda yoshlar uchun ibrat maktabi hisoblanadi.

Hozirgi kunda Sayimnazar Karimov Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda. U bir qancha davlat mukofotlariga ham sazovor bo‘lgan. Mustaqillik ko‘krak nishoni, Mustaqillikning 10 yillik medali, Mustaqillikning 15 yillik medali bilan taqdirlangan. 2005-2010 yillar davomida 17-metan saylov okrugidan deputat bo‘lib saylangan.

Sayimnazar Karimovning 3 nafar farzandi, 8 nafar nabirasi bor. Bularni ham qadriyatlarimizga asoslangan holda elga xizmat qiladigan, uning koriga yaraydigan qilib tarbiyalamoqda.

Sayimnazar Karimovning hayotidan ko‘rinib turibdiki, 70 yosh - bu faqat sana emas, balki mazmunli umr sarhisobidir. Muhtaram ustoz, Sizning hayot yo‘lingiz, ilm-fanga qo‘shgan hissangiz va inson sifatidagi oliy fazilatlaringiz barchamiz uchun ibrat maktabidir.

Yubileyingiz muborak bo‘lsin! Qadirdonim Sayimnazar Karimov Sizni tavallud kuningizga 70 yil to‘lishi bilan samimiy tabriklayman! Rabbim Sizni tuzalmas darddan, nokasga va nomardga muhtojlikdan, faqirliklardan, ko‘rinmas balodan, quruq tuhmatu-hasadlardan o‘z panohida asrasin!! Barcha hayotingiz quvonchli va barokatli bo‘lsin, har doim Allohning panohida bo‘ling. Alloh Sizni

o‘zi suygan bandalaridan qilib, Jannatga hisob-kitobsiz kirishingizni nasib qilishini so‘rab, ehtirom bilan Sizga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, oilaviy baxt-saodat va yana ko‘p yillar davomida shogirdlaringiz, hamkasblaringiz va yurt ravnaqi uchun samarali faoliyat tilagan birodaringiz o‘zimman.

ILMIY IZLANISHDA TOBLANGAN OLIM

Shodmonov Kurbon Badriddinovich,
Buxoro davlat tibbiyot instituti professori, falsafa fanlari doktori

Faromush makun haqqi ustodi ilm.
Ki bar himmati ust bunyodi ilm.
Har kiro dar dil mehri ustod nest,
Ba dasti ummedash ba chuz bod nest.
Mirzo Bedil

Inson hayotga kelar ekan, ma’lum iz qoldirishga intiladi. Yorqin iste’dod sohibi bo‘lgan olim bosib o‘tgan yo‘l hamisha boshqalarga saboq bo‘ladigan yo‘l - nurli yo‘ldir. Ya’ni yillar - o‘tkinchi, hayot - abadiy. Muqaddas kitoblarda, hadislarda, xalqimiz rivoyatlarida aytilganidek, har bir inson bu oniy hayotida yaxshi nom va iz qoldirishi lozim. Buning uchun har bir inson o‘zidan yaxshi farzand, gullagan bog‘, yaxshi imorat, eng oliy ilm va bilim qoldirib, o‘z umrini ming yillar yashashga yo‘llamog‘i lozim.

Biz cheksiz hurmat va yuksak ehtirom bilan tilga olayotgan olim, falsafa fanlari doktori, professor Saimnazar Karimov nomi nafaqat o‘zbek falsafiy tafakkuri va falsafa ilmi vakillari, balki milliy ilm-fan va ma’rifat taraqqiyoti bilan yaqindan tanish bo‘lgan keng jamoatchilik uchun ham alohida qadr va e’tiborga sazovordir. Professor S.Karimov o‘zining serqirra ilmiy faoliyati, fundamental tadqiqotlari hamda ilmiy maktab yaratishdagi beqiyos xizmatlari bilan mamlakatimiz falsafa fanining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan yetuk mutafakkir olimdir. U ko‘plab fan nomzodlari va falsafa doktori darajasidagi shogirdlarni tayyorlab, ilmiy-pedagogik maktab shakllantirgan ustoz sifatida ham yuksak e’tirofga loyiqdir. Shu bilan birga, olim falsafa tarixi, til falsafasi, mantiq va bilish nazariyasi kabi murakkab hamda dolzarb yo‘nalishlarda chuqur nazariy bilim va boy ilmiy tajribaga ega bo‘lib, mazkur sohalarda yaratilgan ilmiy merosi o‘zining metodologik salmog‘i va ilmiy ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. Uning ilmiy qarashlari va tadqiqotlari bugungi kunda ham falsafiy tafakkur rivoji, ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish hamda yosh avlodni ilm-fanga yo‘naltirishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Odatda duoga qo‘l ochilganda har bir insonga, avvalo iymon, insof, diyonat so‘raladi, mana shu mushtarak tushunchalar kimda mujassam bo‘lsa, undan aslo yomonlik chiqmaydi. Insondagi guldasta kabi barcha ijobiy fazilatlar yig‘indisi uning ma’naviyatini belgilaydi. Odob-axloq esa ma’naviyatning eng asosiy qirrasidir: kishi odob-axloqli bo‘lsagina ma’naviyatning boshqa qirralarini ham o‘zida mujassam qila oladi. Shubhasiz, yetuk shaxslar yerga osmondan tushmaydi. Ular o‘z mehnati, iste’dodi va insoniyligi, bagrikengligi tufayli yerdan osmon tomon ko‘tariladilar. Professor Sayimnazar Karimov mana shunday shaxs, o‘zbek falsafasi tarixida yorqin siymo sifatida Samarqand zamini va tarixida o‘chmas iz qoldiradigan ziyolidir. Professor Sayimnazar Karimov ajoyib insoniy fazilatlar sohibidir. Men birinchi navbatda u kishiga xos kamtarinlikni nazarda tutmoqdaman. Unda sharqona odob mujassamlashgan. Serjahllik, serzardalik, birovga qattiq gapirish, jizzakilik u kishiga xos emas. Odamlar bilan muloqotda o‘z qadr-qimmatini saqlagan holda, hamma vaqt hurmat va ehtirom ko‘rsatadigan inson. Bu boshqalarda ham shunday fazilatning tarbiyalanishiga, shubxasiz, ta’sir qiladi.

Darhaqiqat, Sayimnazar aka komil inson, dono murabbiy, talabchan ustoz va fidoyi jamoat arbobi sifatida nafaqat falsafa ilmining, balki milliy ma’naviyat va madaniyatimizning ham yorqin namoyandalaridan biridir. U kishining sermazmun hayot yo‘li, ilm-fan ravnaqi yo‘lidagi fidokorona mehnati, insoniy fazilatlari va yuksak ma’rifatparvarlik ruhi bugungi kunda ham ilmiy jamoatchilik uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Olimning ilm sarhadlarini zabt etishga qaratilgan izchil sa’y-harakatlari, fe’l-atvoridagi mehr-muruvvat, adolat, talabchanlik va prinsipiallikning uyg‘unligi yosh avlod tarbiyasida muhim ma’naviy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, bu fazilatlar Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etayotgan yangi avlodni Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy ilm-fan va ma’naviy merosimiz bilan faxrlanish hamda uning porloq istiqboliga qat’iy ishonch ruhida tarbiyalashda samarali omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zero, ilm - ezgulik, taraqqiyot va ma’rifatning eng oliy timsolidir. Ilmga sidqidildan xizmat qilgan, uni hayotining bosh maqsadi va mazmuniga aylantirgan insonning nomi va ilmiy merosi esa vaqt sinovlaridan o‘tib, avlodlar xotirasida barhayot yashaydi. Shu ma’noda, professor Sayimnazar Karimovning boy ilmiy merosi, ustozlik maktabi va yuksak insoniy fazilatlari mamlakatimiz ilm-fani hamda ma’naviy hayoti taraqqiyotida munosib o‘rin egallab, kelgusi avlodlar uchun ham ilhom va ibrat manbai bo‘lib qolaveradi.

FIDOYI OLIM VA ZAHMATKASH USTOZ

Samadov Aktamqul Rafiqovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Falsafa kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirish, yosh avlodni yetuk mutaxassis va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘lda fidoyilik bilan xizmat qilayotgan ustoz va olimlarning o‘rni beqiyosdir. Ana shunday yetuk ilm sohiblaridan biri - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, falsafa fanlari doktori S.K. Karimovdir. Ustozning 70 yillik yubileyi nafaqat uning shaxsiy hayotidagi muhim sana, balki butun ilmiy jamoatchilik uchun ham e’tiborga molik voqeadir.

Professor S.K. Karimov o‘zining serqirra faoliyati bilan ilm-fan, ta’lim va jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan olimlardan biridir. U nafaqat chuqur bilim egasi, balki o‘z ilmiy qarashlari, hayotiy tajribasi va pedagogik mahorati bilan ko‘plab shogirdlarga yo‘l ko‘rsatib kelayotgan ustozdir. Uning ilmiy faoliyati zamonaviy falsafaning dolzarb muammolarini o‘rganish, ijtimoiy jarayonlarni falsafiy tahlil qilish, inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashga qaratilgani bilan alohida ajralib turadi.

Ustozning tashkilotchilik qobiliyati ham alohida tahsinga loyiq. U ko‘plab ilmiy loyihalar, anjumanlar, seminar va konferensiyalarni yuqori saviyada tashkil etishda faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, yosh olimlar va tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ilmiy izlanishlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish borasidagi sa’y-harakatlari e’tiborga molikdir. Professor Karimov rahbarligida o‘tkazilgan ilmiy tadbirlar nafaqat nazariy bilimlarni boyitish, balki amaliy tajriba almashish uchun ham muhim maydon vazifasini o‘tab kelmoqda.

Professor S.K.Karimov tomonidan 14 ta monografiya, 17 ta o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va 190 dan ortiq ilmiy maqolalar chop ettirdi. Chet elning nufuzli jurnallarida ham maqolalar chop ettirgan. Professor S.K.Karimov rahbarligida ko‘plab falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) himoya qildirgan. Olim XVIII asr Markaziy Osiyoda ilmu-urfon, tasavvuf ilmi rivojlanishi tendensiyalarini chuqur tahlil qilgan. Ayniqsa tasavvuf olimlari ilmiy merosini tahlil qilish va falsafa tarixi sohasida katta yutuqlarga erishgan.

Pedagog sifatida S.K.Karimov o‘zining sabr-toqati, talabchanligi va mehribonligi bilan talabalarning qalbidan chuqur joy olgan. Ustoz dars jarayonida murakkab falsafiy tushunchalarni sodda va tushunarli tarzda yetkazish, talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi. Uning har bir ma’ruzasi nafaqat bilim berish, balki hayotiy saboq olish maktabiga aylangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘plab shogirdlari bugungi kunda respublikaning turli

oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va davlat idoralarida samarali faoliyat yuritib kelayotgani ustoz mehnatining samarasidir.

Shaxs sifatida professor S.Karimov kamtarlik, halollik va prinsipiallik kabi insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan. U har doim haqiqatni ustuvor qo‘yadi, ilmiy masalalarda aniq dalil va mantiqqa asoslanadi. Ustoz bilan muloqot qilgan har bir inson uning samimiyligi, ochiqligi va mehribonligidan ilhom oladi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlashda uning insoniy yondashuvi, ularni qo‘llab-quvvatlashi va ruhlantirishi alohida e’tiborga loyiqdir. Ustoz haqidagi xotiralarimizdan biri shuki, u kishi har bir talabaning ichki salohiyatini ko‘ra oladi va uni rivojlantirishga harakat qiladi. Ba’zan oddiygina maslahat yoki dalda so‘zi ham inson hayotini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Professor Karimov aynan shunday ustozlardan - u inson qalbiga yo‘l topa oladi, uni ilhomlantiradi va katta maqsadlar sari undaydi. Bu esa haqiqiy pedagogning eng muhim fazilatlaridan biridir.

Professor S.K.Karimovning ilmiy merosi ham nihoyatda boy. Uning ilmiy maqolalari, monografiyalari va o‘quv qo‘llanmalari nafaqat respublikamizda, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan. U o‘z ilmiy izlanishlarida zamonaviy jamiyat muammolarini chuqur tahlil qilib, ularning falsafiy yechimlarini taklif etishga intiladi. Ayniqsa, inson qadri, ma’naviyat, ekologik tafakkur va global muammolar kabi masalalarga bag‘ishlangan ishlari bugungi kun uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ustozning hayot yo‘li yosh avlod uchun ibrat maktabidir. U o‘z mehnati, intilishi va fidoyiligi bilan katta natijalarga erishish mumkinligini amalda namoyon etib kelmoqda. Bugungi kunda ilm-fan sohasiga qadam qo‘yayotgan yoshlar uchun bunday shaxslar o‘rnak bo‘lishi shubhasiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, professor S.K.Karimov - nafaqat yetuk olim, balki mehribon ustoz, tajribali tashkilotchi va yuksak insoniy fazilatlar egasidir. Uning 70 yillik yubileyi munosabati bilan o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjuman esa ustozning ilmiy merosini yana bir bor tahlil qilish, uning faoliyatidan saboq olish va kelajak avlodga yetkazish uchun muhim imkoniyatdir. Ustozga uzoq umr, mustahkam sog‘lik, ilmiy va pedagogik faoliyatida yanada ulkan yutuqlar tilaymiz. U kishining boy tajribasi va hikmatli so‘zlari hali uzoq yillar davomida ko‘plab shogirdlar uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qilishiga ishonamiz.

“CHIN OLIM YOSTUQIN TOSHTIN YARATTI ...”

Isaqova Zamiraxon Ruxitdinovna
falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Namangan davlat universiteti, O‘zbekiston
E-mail: ms.zamiraxonisaqova@gmail.com

Annotasiya. Professor Sayimnazar Karimov - Samarqand falsafa maktabi asoschilaridan biri sifatida falsafa tarixiga beqiyos hissa qo‘shgan zabardast olimdir. Mazkur maqolada serqirra olimning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlanib, falsafa tarixidagi, xususan, Markaziy Osiyo falsafasi tarixiga qo‘shgan hissasi tahlil etilgan. Shuningdek, olimning ilmga sadoqati, tadqiqotlardagi novatorligi uning ilmiy ishlari asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: S.Karimov, olimlik sharafi, ilmiy mezon, falsafa, ma’naviyat, ma’rifat, ilmiy meros, ilmiy faoliyat, shogirdlar, jamiyat, chin olim, mas’uliyat.

Har qanday jamiyatning kelajagini yuksak salohiyatga ega, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, innovasion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq eta oladigan va islohotlarga munosib hissa qo‘sha oladigan yetuk mutaxassislar belgilaydi. Ilmiy hayot bilan uyg‘un yashash yuksak salohiyat egalariga xos bo‘lib, ilm izlash, fandagi yangiliklardan doimiy xabardor bo‘lish, sohaga oid ilmiy jurnal maqolalari va tadqiqot ishlari bilan muntazam ishlash, ijodiy tafakkur qilish, fanning hali tadqiqot markazida bo‘lmagan, yechimini kutayotgan muammolar ustida ishlash aqliy mehnat, jonbozlik, fidoyilik, mas’uliyat hissi va kuchli matonatni talab etadi.

Ilm ruhning ozuqasi bo‘lsa, inson ilm bilan Allohni taniydi, saodatga erishadi, ilm bilan yuksaladi. Ilm ahli “Payg‘ambarning merosxo‘rlari” deb ulug‘lanishida ham ulug‘ hikmat bo‘lib, Qur’onda “**...Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni** (baland) **daraja** (martaba)**larga ko‘tarur. Alloh qilayotgan** (barcha yaxshi va yomon) **amallaringizdan xabardordir” deyilgan. Bundan anglashiladiki, o‘zi egallagan ilmni boshqalarga o‘rgatgan ustozning sharafi ulug‘dir. Shunday ekan, oli**mning buyukligi uning ma’naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan olim ijtimoiy muammolarga farosat va zakovat bilan yondashib, haqqoniy yechim beradi. Jamiyatning elitar qatlami vakili sifatida olim barcha uchun bilimi, dunyoqarashi, idroki, iymon-e’tiqodi va xulq-atvori bilan axloqiy “barometr” bo‘lib, boshqalar olim axloqidagi fazilatlarni o‘zlashtirishga, u kabi bo‘lishga, undan o‘rnak olishga, uni o‘zlari uchun “ideal” (namuna) deb bilishga intiladilar.

Fikrimizcha, olimlik maqomi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

birinchisi, bilimga intilish bo‘lib, bilim olim uchun moddiy boylikdan ustun turadi. Olim tinimsiz izlanib, tadqiqotlar yuzasidan tajribalar o‘tkazadi. Olimning vazifasi, maqsadi bilimga ega bo‘lish va uni tarqatishdir;

ikkinchisi, aql va tafakkur bo‘lib, olim aql va tafakkur yordamida mavjud bilimlarni tanqidiy tahlil qiladi. Yangi g‘oyalarni ilgari surib, ilmiy nazariyalar yaratadi. Olimning donishmandona aqli va yuksak tafakkuri uning asosiy qurolidir;

uchinchisi, axloqiy mas’uliyat bo‘lib, olim ilm orqali insoniyatga foyda keltirishga intilib, uning zararli oqibatlaridan ogohlantiradi. Olimning axloqiy mas’uliyati uning faoliyatining asosiy mezonidir;

to‘rtinchisi, kamtarlik va sabr bo‘lib, olim bilimlarini “mutlaq” deb hisoblamaydi. U hamisha yangi bilimlarni o‘rganish va xatolarni tan olishga tayyor bo‘lib, ilm yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklarga sabr bilan dosh beradi.

beshinchisi, ijtimoiy faollik bo‘lib, jamiyatga xizmat qilish olimning asosiy maqsadidir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadiki, olimning mashaqqatli hayoti, ilm yo‘lidagi sabr-toqati va jamiyatga xizmat qilishga tayyorligini ifodalaydi. Olimlik sharafi esa olimning jamiyat tomonidan tan olinishi, hurmat qilinishi va qadrlanishidir. Chin olim ilmiy faoliyati bilan jamiyat farovonligi uchun xizmat qilib, shu orqali yuksak sharafga sazovor bo‘ladi. Olimning sharafi uning ilmiy yutuqlari, kashfiyotlari, yaratgan texnologiyalari va jamiyatga keltirgan foydasi bilan o‘lchanadi. Ana shunday zabardast olimlardan biri Samarqand falsafa maktabining yetuk namoyandalaridan biri, falsafa fanlari doktori, professor Sayimnazar Karimov bo‘ladilar. Olimning tasavvuf borasidagi ilmiy izlanishlari zamirida buyuk ajdodlariga vorislik ehtiromi jo‘sh urgan chuqur mushohada, teran tafakkur, intuitiv tafakkur, hassos qalb mujassamdir.

“Sahihi Buxoriy”da ta’kidlanganidek, “Ilm-hikmat mo‘minning yo‘qotgan xazinasidir, uni qayerda topsa, egallashga haqlidir”[1]. Zero, Alloh ilm ato etgan, uni haqqoniy qarorlar qabul qilishda qo‘llagan va boshqalarga o‘rgangan bilimlarini ulashishga safarbar etgan shaxsni ehtiromga sazovor zot sifatida e’tirof etish lozim. Ustozlik nafaqat yuksak martaba, balki insonga ato etilgan ilohiy ne’matdir. Bunday sharafga musharraf bo‘lish uchun inson ontologik izlanishlar, gnoseologik tafakkur va metodologik tahlillar jarayonida iroda, sabot, tinimsiz mehnat va sabr-toqat kabi fazilatlarni namoyon etishi zarur. Shu sababli ham bu yo‘lni har kim ham tanlayvermaydi. S.Karimovni haqli ravishda “chin” olim, “baxtli” ustoz deb atash mumkin. Uning ilmiy rahbarligi ostida o‘ndan ortiq doktorlik dissertasiyalarining muvaffaqiyatli himoya qilingani buning yaqqol isbotidir. Bu esa Sayimnazar Karimovning ilm-fanga bo‘lgan sadoqati, yuksak intellektual salohiyati va pedagogik mahoratidan dalolat beradi.

[1] Аҳодиси мунтаҳаба. Танланган ҳадислар / Таржимон Анвар Аҳмад. – Тошкент: 2016. – Б. 11.

Mustaqillik sharofati bilan Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Bahouddin Naqshband, xoja Ahror Valiy kabi valiy zotlarning poklik, haqiqat, ezgulik, adolat, e'tiqod, mehnatsevarlik va Vatanga sadoqat kabi umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan ma'naviy merosidan bahramand bo'lish imkoniyati yaratildi. Mamlakat taraqqiyotining strategik "vektori" bo'lgan yosh avlodni komil inson darajasiga ko'tarish, ularning qalbini ezgulik nuri bilan yo'g'rish, ma'naviy immunitetini shakllantirishda tasavvuf ta'limotiga murojaat etish, shu asosda yassaviya, kubroviya va naqshbandiya tariqatlarining genezisi, falsafiy-irfoniy qarashlari va antropologik konsepsiyalarini chuqur anglash, ularning asl mohiyatini yosh avlod ongu shuuriga singdirish bugungi kundagi eng muhim hayotiy vazifalardan biriga aylandi. Jumladan, olimning "Tasavvuf falsafasi" nomli o'quv qo'llanmasi belgilangan vazifalarning amaliy ijrosi hosilasidir. S.Karimov Sharq falsafasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan tasavvuf falsafasini mustaqil fan sifatida talqin etgan. Shu asosda, olim tasavvuf falsafasining predmeti, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tasavvuf falsafasining qonuniyatlari va kategoriyalarini ochib bergan.

O'quv qo'llanmada tasavvuf ta'limotining genezisi, tariqatlarning shakllanish tarixi, komil inson ideali, "vahdat ul-vujud" falsafasining asoslari, naqshbandiylik tariqatining o'ziga xos xususiyatlari, mehr-shafqat konsepsiyasining axloqiy-estetik qiymati, shariat va tariqat, tariqat va futuvvat munosabatlaridagi dialektik bog'liqlik kabi masalalar ham falsafiy kontekstda tahlil etilgan.

O'quv qo'llanmaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, unda tasavvufning hozirgi davrda zamonaviy insonning ma'naviy-ruhiy kamolotiga ta'siri har tomonlama ochib berilgan hamda uning ekzistensial va aksiologik ahamiyati asoslangan. Olim tasavvufning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi ahamiyati, uning jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashdagi o'rni va zamonaviy sivilizasiyaning ma'naviy muammolarini hal etishdagi salohiyati masalasini chetda qoldirmagan. Olimning ta'kidlashicha, tasavvuf falsafasini o'rganish milliy g'oya va mafkurani shakllantirish hamda komil insonni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida, tasavvufiy qadriyatlarni har tomonlama o'rganish, keng xalq ommasiga yetkazishni taqozo qiladi[1].

Inson ma'naviy dunyosi, ko'ngli hamisha komillikka, yetuklikka talpinib kelgan. Nasaflik mashhur mutasavvuf va komil inson tadqiqotchisi Shayx Aziziddin Nasafiy (vaf. 700/1300 y.) qayd etganidek, inson nafsini tarbiyalash bilan uni ma'rifatga olib chiqadi va ma'rifat tufayli komil inson darajasiga erishadi[2].

Zamonlar almashinuvi komillik haqidagi tasavvurlarga anchagina ta'sir ko'rsatdi. Bu haqiqatni inkor etish emas, aksincha, komillik mezonlarini ilmiy

[1] Каримов С.Тасаввуф фалсафаси.Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2021. – Б. 6.
[2] Комил инсон ҳақида тўрт рисола / Форс-тожик тилидан Н.Комилов таржимаси. – Тошкент: Маънавият, 1997.

maqola, tezis, tarjima, sharh, mushohada, ilmiy ma’ruza, shaxsiy namuna shaklida jamiyatga faol tatbiq etish oqilona yechimdir. Zero, komillik “statik” holat emas, balki dinamik jarayon bo‘lib, u doimo o‘zgarib, rivojlanib boradi. Har bir davr o‘zining komillik mezonlarini yaratadi va ularni jamiyatga singdirish orqali taraqqiyotni ta’minlaydi: “Aynan tasavvufning islom diniga asoslangan komil inson ta’limoti orqali musulmon olamiga keng tarqalgan islom dini ichki va tashqi go‘zalligini namoyon qilib, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma’naviy jihatdan poklash, ya’ni komil insonni tarbiyalashdir. Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma’naviyatli, barkamol shaxs - komil insondir”[1].

Tasavvuf falsafasida komil inson har tomonlama oliy poklikka erishgan, Allohni anglashga qodir bo‘lgan, barcha ilohiy va dunyoviy ilmlarni egallagan, Allohning barcha xislat va alomatlarini xuddi ko‘zguda aks etgandek ko‘ra oladigan, ruhi mutlaq ruhga tutash, qalbi va siyrati xotirjam pokiza zotdir. S.Karimovning tasavvufdagi komil inson fenomeniga bergan ta’rifi, xususan, komil insonning shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlaridan o‘tishi hamda ilohiy va dunyoviy ilmlarni egallashi shartligi haqidagi xulosalari diqqatga sazovordir. Afsuski, bugungi kunda ilm-ma’rifatga bo‘lgan e’tibor susayib, ilgarigi intilish va rag‘bat o‘rnini ilmsizlik, hafsalasizlik va beparvolik egallamoqda. Buning oqibatida ilmiy tahlilga asoslanmagan, plagiat bilan o‘zlashtirilgan, chuqur tanqidiy mulohaza, obyektiv baho va asosli xulosaga ega bo‘lmagan, “bunker” orqali amalga oshirilgan, soxta va “shishirilgan” taqrizlar bilan himoyalangan qo‘shtirnoq ichidagi ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘payishiga sharoit yaratilmoqda.

Son ko‘rsatkichlari hech qachon sifat parametrlarining o‘rnini bosa olmaydi. Oliy ta’limda ilmiy salohiyatni oshirishning miqdoriy o‘sishiga urg‘u berish, sifat evaziga son ortidan quvish tanazzulga olib kelmoqda. Natijada mavzular takroriy, dolzarbligi shubhali, tarixiy manbalar, arxiv materiallari, statistik ma’lumotlar, qo‘lyozma asarlar bilan boyitilmagan, metodologik va stilistik xatolarga to‘la, qisqa muddatda yozilgan, “kerak”siz va “foyda”siz “o‘rtamiyona dissertasiya”larning ko‘payishi kuzatilmoqda. Bu esa ilm-fan sohasidagi epistemologik inqirozning yaqqol ko‘rinishidir. Bunday sharoitda, komil inson konsepsiyasini qayta anglash, ilm-fanga munosabatni tubdan o‘zgartirish, sifatli tadqiqotlarni rag‘batlantirish va ilmsizlikka qarshi kurashish zarur. Faqat shundagina Yangi O‘zbekiston afkor ommasini ma’rifat yo‘lida taraqqiy ettirishga erishiladi.

Bugun ilm-fanning barcha sohalari falsafa fanining fidoyisi, jonkuyar bilimdoni, S.Karimovdek darg‘alarga ehtiyoj sezmoqda. Chunki, S.Karimov kabi olimlar o‘zlarining chuqur bilimi, ilmiy salohiyati, fidoyiligi va jamiyatga xizmat

[1] Каримов С.Тасаввуф фалсафаси.Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2021. – Б. 126.

qilishga tayyorligi bilan ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadilar. Ular yosh avlodga ibrat bo‘lib, ularni ilmga muhabbat ruhida tarbiyalaydilar hamda ularning ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yordam beradilar.

Olimning ilmsizlikning insoniyatni tubanlik va halokatga olib borishi muqarrarligini qalban anglaganliklari, mustaqil va tanqidiy fikrga ega bo‘lganliklari, **qat’iy prinsiplari, falsafa ilmiga sodiqliklari Samarqand davlat universitetida falsafa fanlari bo‘yicha faoliyat olib borgan Kengash faoliyatida “eng to‘g‘ri yo‘l haq va haqiqat yo‘li” degan aqidani mustahkam tutqich kabi ushlaganlari fikrimiz dalilidir.**

Hayotning asl ma’nosi kimgadir kerakligingni his etib yashashdadir. S.Karimov ana shu haqiqatni o‘zining hayot tarzi va ilmiy faoliyati bilan isbotlagan ustozlardan biridir. Uning falsafa fanlari bo‘yicha ilmiy kengashlardagi opponentlik, oliygohdagi pedagoglik, konferensiyalardagi ilmiy ma’ruzalari, hamrohlikdagi suhbatlardagi samimiyligi, hozirjavobligi ko‘pchilikning e’tirofiga sazovor bo‘lgan. S.Karimov yetuk olim va pedagog bo‘lish bilan birga, inson qalbining muhandisi hamdir. Olim har bir suhbatdoshining qalbiga “cho‘g‘” tashlashga, ularni fikrlashga, izlanishga va o‘zligini anglashga undashga muvaffaq bo‘lgan. Uning suhbatlari ilm-fan, falsafa, adabiyot va hayot haqidagi teran mushohadalar, o‘tkir savollar va jonli munozaralar bilan yanada sermazmun bo‘ladi. Zero, ustozlar suhbati haqiqiy inson bo‘lish, o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lish, jamiyatga xizmat qilish va har doim izlanishda bo‘lish kerakligini eslatib turadi.

Inson hayotga qadam qo‘yar ekan, o‘zini anglashga intiladi. O‘zlikni anglash esa umr bo‘yi davom etadigan jarayon bo‘lib, inson ichki dunyosi va tashqi olam o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishga harakat qiladi. Olam sirlarini bilishga intilish insonning tabiiy ehtiyoji bo‘lib, hayot ma’nosini anglash uchun borliqning asl mohiyatiga kirib borish zarur. Bu jarayon chuqur fikrlash, tafakkur chegaralaridan o‘tib, haqiqatga intilishni talab etadi. Professor S.Karimovning har bir ilmiy maqolasi, tezisi, monografiyasi va o‘quv qo‘llanmalarida uning hayot falsafasi aks etgan. Uning asarlarida ilmga sadoqat, insonparvarlik va jamiyatga xizmat qilish kabi yuksak qadriyatlar targ‘ib etilgan.

Globallashuv jarayoni jahon miqyosida shiddat bilan avj olayotgan bugungi kunda din va e’tiqod erkinligi kafolatlangan, diniy qadriyatlar esa ma’naviyatning uzviy qismiga aylangan hozirgi sharoitda, tasavvuf ilmining ravnaqiga katta hissa qo‘shgan allomalarning ma’naviy merosini tasavvufiy, irfoniy va islom falsafasining asl mohiyatiga muvofiq o‘rganishni taqozo etmoqla. S.Karimovning noyob fazilatlaridan biri uning tasavvuf falsafasidagi hozirga qadar ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lgan qarashlarni tahlil qilish va oydinlik qiritishdir.

Olimning “Tasavvuf ta’limotida “vahdat ul-vujud” falsafasining mohiyati”[1] nomli maqolasida ilk bor “vahdat ul-vujud” falsafasining borliqning bir butunligini anglatuvchi nazariya sifatidagi mohiyati ochib berilgan. Olimning fikricha, “vahdat ul-vujud” vujudning birligi ma’nosini anglatib, Allohdan boshqa borliq yo‘qligini bilish shuuriga sohib bo‘lishdir. “Vahdat ul-vujud” maslagiga ko‘ra, hamma narsa toq vujud bo‘lmish Allohning turli-tuman tajalliyoti, zuhuri, taxayyuli va ko‘rinishidan boshqa narsa emasdir. “Vahdat ul-vujud”ning mohiyati “zavq” ila kashf etilib, yashash yo‘li bilan bilinadi, mushohada etiladi”. Demak, Ibn Arabiy (1165-1240)ning falsafiy dunyoqarashi panteistik xarakterda bo‘lib, u hamma narsaning asosi diniy “substansiya” deb hisoblaydi.

“Vahdat ul-vujud” falsafasining asosiy tamoyili - “dunyo Xudo demakdir”, ya’ni butun borliq yagona ilohiy mohiyat, yagona ilohiy substansiyadan iborat. Yanada oydinroq aytadigan bo‘lsak, hamma narsa Xudoda ifodalanganidek, Xudo ham hamma narsada ifodalanadi Xudo birdan-bir haqiqiy borliq bo‘lib, qolgan hamma narsalar esa, uning sho‘lasi, nuridir. Demak, “vahdat ul-vujud” deganda moddiylikdan, shaklu shamoyildan xoli, munazzah, ammo ana shu O‘zi xalq etgan olamlar bilan doimiy birga bo‘lgan, bu olamlar mohiyatini qamrab olgan, ularga muhit bo‘lgan Zoti pokning yagona vujudi anglashiladi.

S.Karimovning “vahdat ul-vujud”ga bergan ta’rifi va talqini uning tasavvuf falsafasini chuqur anglaganini ko‘rsatadi. Bu nazariyaning mohiyatini ochib berish orqali olim tasavvufning murakkab va ba’zan noto‘g‘ri talqin qilinadigan jihatlariga oydinlik kiritadi. Olimning qiyosiy tahliliga ko‘ra, “vahdat ul-vujud” falsafasini anglashda G‘arb va Sharq panteizmining farqlarini ko‘rib chiqish muhimdir. Sharq panteizmida, xususan, Abu Nasr Forobiy (872-950) qarashlarida moddiy ibtido o‘zini Xudo orqali namoyon qiladi. Allohda moddiy ibtido yashirin holatda mavjud bo‘lib, keyinchalik noaniqlikdan to‘liq ozod bo‘lib, kuch-quvvatiga qarab namoyon bo‘la boshlaydi. Mashhur arab faylasufi Ibn Rushd (1126-1198) Abu Nasr Forobiyning panteistik qarashlarini davom ettirib, Yaratuvchini shahar hokimiga qiyoslagan: har qanday boshqaruv markazdan turib amalga oshiriladi, lekin hamma narsa ham bevosita hukmdor tomonidan bajarilavermaydi[2]. Bundan kelib chiqadiki, Sharq panteizmida Alloh borliqning ibtidosi va manbai sifatida talqin etiladi, lekin uning namoyon bo‘lishi moddiy dunyo orqali sodir bo‘ladi. Yaratganning roli shahar hokimiga o‘xshatilishi esa, uning boshqaruvi bevosita emasligini, balki vositachilar orqali amalga oshirilishini anglatadi.

[1] Karimov S. The Essence of The Philosophy “Vahdat Ul Vujud” In the Teaching of Sufism / Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. Volume 2, January, 2022. https://periodica.com.

[2] Фалсафа. Қомусий луғат / Қ.Назаров ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ нашриёт матбаа акциядорлик компанияси. 2004. – Б. 320.

“Vahdat ul-vujud” falsafasida “ta’ayyun” tushunchasi muhim o‘rin egallaydi. Unga ko‘ra, borliqdagi barcha narsalar yagona manba - Allohning namoyon bo‘lishidir. “Vahdat ul-vujud”ning mohiyati “dunyo Xudo demakdir” degan g‘oyada mujassamdir. Butun borliq yagona ilohiy mohiyatdan iborat bo‘lib, Alloh yagona haqiqiy vujuddir. Irfon falsafasida bu so‘zning ma’nosi “aniqlik”, “ko‘rinish” kabilarni anglatadi.

“Vahdat ul-vujud” falsafasiga ko‘ra, borliqning o‘zi Haqning vujudi yoki Haqning haqiqatidir. Butun borliq Xudoning jamoli aks etgan nur bo‘lib, barcha narsa Undan kelib chiqadi va Unga qaytadi. Aslida, barcha narsa Uning o‘zidir, chunki Usiz hech narsa mavjud bo‘la olmaydi. Borliqdagi mavjudotlar Uning nuridan taralgan zarralardir. Haq vujudining tajalliysi bir necha bosqichni tashkil etadi: Ahadiyatdan Vohidiyatga, Vohidiyatdan Rabubiyatga, Rabubiyatdan Kavniyaga, Kavniyadan Hazrat ul-insoniyatga. Mana shu tajalliy natijasida barcha moddiy va nomoddiy narsalar harakatda bo‘ladi va bu harakat tufayli olam doimiy ravishda o‘zgarib, rivojlanib boradi. Demak, “vahdat ul-vujud” falsafasi borliqning yagonaligi, Xudoning mutlaqligi va olamning doimiy o‘zgaruvchanligini ta’kidlaydi: borliqdagi har bir zarra Xudoning aksi bo‘lib, barcha narsa Unga bog‘liq va Unga intiladi. Haqning tajalliysi esa borliqning rivojlanishi va takomillashuvining asosiy sababidir.

S.Karimov “vahdat ul-vujud” falsafasining turli qirralarini chuqur tahlil etish va to‘g‘ri talqin qilish orqali hozirga qadar bahsli bo‘lib kelayotgan muammolarga oqilona yechim topishga muvaffaq bo‘lgan. “Vahdat ul-vujud” falsafasi chuqur falsafiy bilimlarni talab qilishiga qaramay, S.Karimov uning murakkab va ko‘p qirrali jihatlari, masalan, Xudo va olamning birligi haqidagi g‘oyadagi bahsli nuqtalarni atroflicha yoritib bergan. Uning tahlillari bu ta’limotning mohiyatini tushunishga yordam berish bilan birga, uning turli talqinlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga imkon beradi.

Zero, tasavvuf ta’limotini o‘rganish va uni yosh avlodga yetkazish - bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali mamlakat kelajagi bo‘lgan yosh avlodni ma’naviy barkamol, Vatanga sadoqatli va jamiyatga foydali insonlar qilib tarbiyalashga erishiladi. Bu borada, iste’dodli olim, S.Karimovning ilmiy tadqiqot ishlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Professor S.Karimov hayotini ilmga bag‘ishlagana holda, ham ilm yo‘lida har qanday mashaqqatga dosh berib, ham dunyoviy rohatdan voz kechib “tosh”ni “yostiq” qilgan chinakam olimdirlar.

SAMIMIY INSON VA ILM FIDOIYSI

Bozorov Mustafo Jabborovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi professori

Men 1971 yil o‘rta maktabni tugatib, O‘zbekistonda nufuzli oliygohlardan biri bo‘lgan Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi bo‘lish sharafiga muyassar bo‘ldim. Shu davrdan boshlab hozirgacha uzoq yillar orqada qoldi. Talabalik yillarida dars bergan professor - o‘qituvchilar hali ham xotiramdan faromush bo‘lgan emas. Ammo mendan oldin va keyin fakultetda tahsil olgan talabalarning hammasini aniq eslay olmayman. Biroq, shunday talabalar orasida diqqatni jalb qiladigan, e’tiborli, salom-alikni kanda qilmaydigan talabalar nazarga tez-tez tushib turardi. Shunday talabalardan biri Sayimnazar Karimov edi. Men 4-kursda o‘qishni boshlaganimda, Sayimnazar 1-kurs talabasi bo‘lgan edi. Universitetning salobatli binosida joylashgan Tarix fakultetining koridorida ba’zan uchrashib qolganimizda nafaqat shaklu-shamoyili, balki e’tibori bilan diqqatni tortardi. Kunlardan bir kun shu yigit bilan tanishish istagi menga tinchlik bermadi va nihoyat uni fakultetning koridorida to‘xtatib, o‘zimni tanishtirdim. Sayimnazar hayron bo‘ldi. Men Sayimnazarga: “Siz jiddiy tarbiya maktabini o‘tganga o‘xshaysiz, demak, bilim saviyangiz ham haminqadar bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman”, dedim. Bu kun uchrashuvimizning debochasi bo‘ldi. Shu lahzadan boshlab do‘stlik rishtalari bog‘landi va yillar davomida bu nihoyatda chuqur ildiz otdi.

Yillar o‘tdi. Birin-ketin universitetning Tarix fakultetini muvaffaqiyatli bitirdik. Hayot taqozosi bilan har ikkalamiz ham qo‘shni kafedralarda pedagogik va ilmiy faoliyatimizni boshladik. Ana shu o‘qituvchilik faoliyati davrida Sayimnazar Karimov o‘zining bilimi, iqtidori va qobiliyatini namoyon qildi va tez fursatda, jamoa, professor- o‘qituvchilar, talabalar nazariga tushib, hurmatga sazovor bo‘ldi.

Sayimnazar Karimov faoliyatida oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga rahbarlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu olim bilan bir necha bor talabalarning ilmiy anjumanlariga qatnashib, ma’ruzachilarga o‘z fikr va mulohazalarimizni bildirganmiz va maslahatlar berganmiz.

Sayimnazar Karimov nafaqat talabalar va magistrlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilgan. Bu olimning ilmiy faoliyati ko‘lami keng bo‘lib, u nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarga rahbarlikni ham qamrab oladi. S. Karimovning to‘rtta fan doktori va beshta fan nomzodiga rahbarlik qilganligi buning dalolatidir.

Sayimnazar Karimovning shogirdlariga nisbatan bo‘lgan munosabati tarozisi pallasida talabchanlik va samimiylik mujassamdir. Bu olimning xarakteridagi

qat’iyatlik va yumshoqlik shogirdlariga ilhom bag‘ishlaydi, ularni “ilm gulshani”ga sayr qilishga undaydi va zavq bag‘ishlaydi. Bir necha bor olimning shogirdlari bilan bo‘lgan muloqoti guvohi bo‘lganman. U shogirdlariga ravon, tushunarli tarzda gapiradi, mulohaza bilan fikr yuritadi. Shuni ham ta’kidlash joizki, u hech qachon shogirdlar uchun vaqtini ayamaydi, soatlab suhbat qilish, mulohaza yuritish, maslahat berish, dissertasiyalarni o‘qish va taqriz yozishlardan charchamaydi va shikoyat ham qilmaydi. Uning shiori shunday: “Mayli-da. Bizdan yordam so‘rab kelibdi-mi? Demak, biz yordam berishimiz zarur”. Mana bu olimlik salohiyati, burchi, mas’uliyati negizidir.

Professor Sayimnazar Karimovning qancha nomzodlik va doktorlik dissertasiyalariga opponent bo‘lganini va taqrizlar yozganini bilmayman. Menimcha, buning adog‘iga yetish mushkul bo‘lsa kerak. Shuni aniq bilamanki, maslakdoshim Sayimnazar Karimov dissertasiyalarni hijjalab o‘qiydi va tahlil qiladi. Dissertasiyadagi yangiliklar, gipotezalar, nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalarga jiddiy e’tibor qaratadi. Dissertasiyadagi mazmun va shakl mutanosibligiga jiddiy ahamiyat beradi. Ba’zan dissertantning fikrlarini boyitib, sayqal beradi. Mening nazarimda o‘zini go‘yo dissertasiya himoya qilayotgan tadqiqotchi kabi his qiladi. Shuning uchun uning falsafa “olami” da nufuzi, maqomi o‘ziga xosdir.

Dissertasiyadagi stilistik va orfografik noqisliklar uning nazaridan chetda qolmaydi. Dissertasiyadagi yutuqlar bilan birga kamchiliklar borligini ochiq-oydin, asosli tarzda bayon qiladi. Bu kamchiliklarni qanday bartaraf qilish yo‘llarini mantiqan va aniq tushuntiradi. Olimning amaliy yordami tufayli dissertasiya himoyaga tayyor bo‘ladi. Yana bir muhim jihat olimning nazaridan chetda qolmaydi. U dissertantga himoya jarayoni prosedurasi to‘g‘risida qimmatli maslahatlarni beradi. Diksiyaga jiddiy e’tibor berish, diqqatni jamlash, savollarga mantiqiy, qisqa va izchil javob berish masalalari borasida fikr va mulohazalarini bildiradi. Umuman olganda, professor Sayimnazar Karimovning dissertantlarga ko‘rsatadigan amaliy yordami beqiyos bo‘lganligi uchun, nafaqat jamoasi, hamkasblari, o‘z shogirdlari, balki boshqa olimlarning shogirdlari orasida hurmat-izzati va nufuzi balanddir.

Professor Sayimnazar Karimov dissertantga “ilm olami”ga shaxdam qadam qo‘yayotgan qat’iyatli inson sifatida qaraydi. U dissertanlarga quyidagi, ya’ni “Men ham edim sendek, sen bo‘lasan mendek”, degan jumlani bot-bot takrorlagani guvohi bo‘lganman. Bunda olam-olam falsafiy ma’no va mantiq borligi bejiz emas.

Bu olim doimo ustoz va shogird maqomi tamoyillarini nazardan soqit qilmaydi. Ustoz va shogird o‘rtasidagi subordinasiyani saqlash qoidalariga jiddiy rioya qiladi. U har doim tadqiqotchining hurmatini joyiga qo‘yadi, bo‘lg‘usi olim, fan fidoiysi sifatida alqaydi.

Professor Sayimnazar Karimov nafaqat salohiyatli olim, balki samimiy do‘st hamdir. Bizlar bob-bot alohida - alohida suhbat quramiz. Suhbatimizning asosi hayot mazmuni, falsafa olamidagi yangiliklardan iborat bo‘ladi. Bu suhbatlar bizga ma’naviy ozuqa beradi.

Xullas, professor Sayimnazar Karimovni 70-yillik yubileyi bilan tabriklayman. Sog‘liq va ilmiy ijodida muvaffaqiyatlar tilayman.

PROFESSOR SAYIMNAZAR KARIMOV FAOLIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI VA UNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Qo‘shaqov Shuxrat Solievich,
Samarqand davlat pedagogika instituti, Tarix kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada falsafa fanlari doktori, professor Sayimnazar Karimovning ilmiy, pedagogik va ijtimoiy faoliyati ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilingan. Uning Sharq ijtimoiy tafakkuri, tasavvuf ta’limoti va ma’naviy taraqqiyotga oid qarashlari keng yoritilgan. Shuningdek, olimning ilmiy merosining globallashuv sharoitidagi ahamiyati va uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga ta’siri asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tafakkur, Sharq falsafasi, tasavvuf, ma’naviyat, globallashuv, milliy o‘zlik, ijtimoiy taraqqiyot, falsafiy tahlil.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tub sifat o‘zgarishlari yuz berdi. Ilgari mafkuraviy cheklovlar ta’sirida bo‘lgan ijtimoiy fanlar bugungi kunda erkin ilmiy izlanishlar maydoniga aylandi. Bu jarayon, avvalo, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va ma’naviy qadriyatlarni qayta baholash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishda muayyan olimlar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat nazariy bilimlarni ishlab chiqqan, balki jamiyat ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan. Ana shunday olimlardan biri - falsafa fanlari doktori, professor Sayimnazar Karimovdir.

Professor S.Karimov o‘zining ko‘p qirrali ilmiy faoliyati orqali Sharq ijtimoiy tafakkuri, tasavvuf ta’limoti va ma’naviy taraqqiyot masalalarini chuqur tadqiq etgan. Uning ilmiy qarashlari bugungi globallashuv sharoitida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - S.Karimovning ilmiy merosini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish va uning zamonaviy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Professor Sayimnazar Karimovning ilmiy dunyoqarashi uning hayotiy tajribasi, ta’lim jarayoni va ilmiy muhit ta’sirida bosqichma-bosqich shakllangan. Uning bolalik va o‘smirlik yillari qishloq muhitida o‘tgan bo‘lib, bu holat uning ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida muhim o‘rin tutgan. An’anaviy muhit, oilaviy tarbiya va milliy qadriyatlar uning dunyoqarashida inson, jamiyat va ma’naviyat masalalariga jiddiy yondashuvni shakllantirgan.

Oliy ta’limni Samarqand davlat universitetida olishi uning ilmiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu yerda u tarix, falsafa, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlar asoslarini chuqur o‘zlashtirdi.

S.Karimov Samarqand davlat universitetida sotsiologiya fanidan ta’lim berishning dastlabki tamal toshini qo‘ygan olimlarimizdan biri sifatida alohida e’tirof etiladi.

Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari asarlari bilan yaqindan tanishuv uning keyingi ilmiy izlanishlariga kuchli turtki berib, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining shakllanishida muhim omil bo‘ldi.

Sovet davridagi ilmiy muhit ham uning qarashlariga ma’lum darajada ta’sir etgan bo‘lsa-da, mustaqillik yillarida yuzaga kelgan ilmiy erkinlik uning tadqiqotlarini yangi bosqichga olib chiqdi. U tarixiy merosni qayta baholash, milliy qadriyatlarni tiklash va ijtimoiy tafakkurni milliy asosda tahlil qilishga alohida e’tibor qaratdi.

Shu tariqa, S.Karimovning ilmiy dunyoqarashi turli omillar ta’sirida shakllangan bo‘lib, u o‘ziga xos sintetik xarakterga ega.

Professor S.Karimovning ilmiy faoliyatida Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixi markaziy o‘rinni egallaydi. U mazkur masalani o‘rganishda tarixiylik, izchillik va kompleks yondashuv tamoyillariga tayanadi.

Olimning fikricha, Sharq ijtimoiy tafakkuri uzluksiz ravishda rivojlanib kelgan bo‘lib, uning shakllanishida diniy, axloqiy va falsafiy omillar muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, islom sivilizatsiyasi davrida ijtimoiy fikrlar yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan. Bu davrda inson va jamiyat munosabatlari axloqiy me’yorlar asosida talqin qilingan.

S.Karimov Temuriylar davrini Sharq ijtimoiy tafakkurining yuksak bosqichi sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, bu davrda ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat o‘zaro uyg‘un holda rivojlangan. Bu esa ijtimoiy tafakkurning yanada chuqurlashishiga olib kelgan.

Shu bilan birga, olim Sharq ijtimoiy tafakkurini zamonaviy jarayonlar bilan bog‘lab tahlil qiladi. Uning fikricha, tarixiy merosni chuqur o‘rganmasdan turib, zamonaviy jamiyat muammolarini hal qilish mumkin emas.

S.Karimov tadqiqotlarida tasavvuf ta’limoti alohida ahamiyat kasb etadi. U tasavvufni faqat diniy ta’limot sifatida emas, balki inson ma’naviy kamoloti va jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida talqin qiladi.

Olimning fikricha, tasavvuf insonning ichki dunyosiga ta’sir ko‘rsatish orqali uning axloqiy kamolotini ta’minlaydi. Bu esa jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Karimov tasavvufdagi “insonni poklash”, “nafsni tarbiyalash”, “axloqiy komillik” kabi g‘oyalarni zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan ma’naviy inqirozlarni bartaraf etishda tasavvuf ta’limoti muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, olim tasavvufni ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi ma’naviy mexanizm sifatida baholaydi.

Professor S.Karimov ijtimoiy taraqqiyotni faqat iqtisodiy yoki siyosiy jarayonlar bilan emas, balki ma’naviy omillar bilan ham bog‘laydi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyotida ma’naviyat hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Olim ta’kidlaganidek, ma’naviyatsiz taraqqiyot barqaror bo‘lmaydi. Chunki iqtisodiy o‘sish insonning ichki dunyosi bilan uyg‘un bo‘lmasa, u jamiyatda ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Globallashuv sharoitida madaniy assimilyatsiya, axloqiy inqiroz va ma’naviy bo‘shliq kabi muammolar kuchaymoqda. Bu esa ma’naviy tarbiya va milliy qadriyatlarni saqlash masalasini yanada dolzarb qiladi.

S.Karimovning qarashlari shu nuqtayi nazardan muhimki, u ma’naviyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin qiladi.

S.Karimov globallashuv jarayonini murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida baholaydi. Bir tomondan, globallashuv ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyotiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy madaniyat va qadriyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Olimning fikricha, milliy o‘zlikni saqlash uchun tarixiy xotira va ma’naviy merosga tayanish zarur. Shuningdek, ta’lim tizimi orqali yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik hissini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Uning ta’limotida milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligi asosiy tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

S.Karimovning pedagogik faoliyati ham uning ilmiy qarashlari bilan uzviy bog‘liqdir. U talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni ilmiy izlanishlarga jalb qilishga alohida e’tibor qaratadi.

Uning rahbarligida shakllangan ilmiy maktab bugungi kunda ham faoliyat yuritib, yangi ilmiy kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa sifatida, professor Sayimnazar Karimovning ilmiy faoliyati ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning ilmiy merosi zamonaviy jamiyat muammolarini hal qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. - T., 2005.
2. Karimov S. Ijtimoiy taraqqiyot muammolari. - T., 2008.
3. Karimov S. Tasavvuf va jamiyat. - T., 2012.
4. Karimov S. Sotsiologiya fani xususida// Sotsiologiya dunyosi. - Samarqand, 2016.

USTOZLIK, ILM VA MA’NAVIY KAMOLOT TIMSOLI

Xandamova Ma’rifat Akramovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi professori, falsafa fanlar doktori (DSc),

Inson hayotida ilk uchratgan insonlari orasida tashqi ko‘rinishi, salobati va vazmin qiyofasi bilan bir umrga eslab qoladiganlari bo‘ladi. Ayniqsa, u kishi bilan bo‘lib o‘tgan suhbatlar, ilmiy mulohazalar jiddiy mushohadalar kishini o‘ylantirib qo‘yadi. O‘sha suhbatda ko‘tarilgan masalalar, ilmiy mulohazalar go‘yo senga ham tegishliday tuyuladi. O‘sha lahzada, hayotga, atrofga boshqacha qarayotganligingni, qaysidir ma’noda o‘zingizni donoroq, ma’nan boydek his qilasiz.

1993-yillar mening hayotimda unutilmas ilmiy-ma’naviy xotiralar bilan muhrlangan davr sifatida saqlanib qolgan. O‘sha paytda men Samarqand davlat universiteti Tarix fakultetining to‘rtinchi bosqich talabasi edim. Aynan shu yillarda ustoz Sayimnazar Karimov bilan ilk bor yaqindan tanishish, ayniqsa, Siyosatshunoslik va Sotsiologiya fanlaridan ma’ruza hamda ilmiy mulohazalaridan bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lganman.

Oradan yillar o‘tsa-da, ustoz va shogird o‘rtasidagi ilmiy-ma’naviy aloqalar izchil davom etib kelmoqda. Bu munosabatlar nafaqat ilmiy hamkorlik, balki ma’naviy meros va ustozlik an’analarining uzviy davomi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2022-yilda “Falsafa” fani bo‘yicha hammualliflikda o‘quv qo‘llanma tayyorlash jarayonida ustoz bilan birgalikda samarali ilmiy-ijodiy faoliyat olib bordik. Mazkur qo‘llanmani yaratish jarayonida ustozning chuqur nazariy bilimlari, falsafiy tafakkur madaniyati, ilmiy tahlildagi izchilligi va metodik mahorati men uchun katta tajriba maktabi bo‘ldi. Bu esa ustozning nafaqat yetuk olim, balki yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlovchi va ularni ilmiy kamolot sari yo‘naltiruvchi haqiqiy murabbiy ekanligini yana bir bor namoyon etdi.

Ilm yo‘li doimo izlanish, sabr va yuksak mas’uliyatni talab etadi. Ayrim hollarda esa birgina to‘g‘ri berilgan ilmiy yo‘nalish yoki asosli maslahat

tadqiqotchining keyingi ilmiy taqdirini belgilab berishi mumkin. Bir necha yil muqaddam “Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari” mavzusida doktorlik tadqiqotimni boshlash arafasida muayyan ilmiy ikkilanishlar mavjud edi. Chunki men asosan o‘rta asrlar tarixi sohasi bo‘yicha mutaxassis sifatida shakllangan bo‘lib, falsafa tarixi esa mutlaqo boshqacha metodologik yondashuv, chuqur nazariy tafakkur va keng falsafiy tahlilni talab etardi. Ana shunday murakkab va mas’uliyatli pallada ustoz Sayimnazar Karimovning qimmatli ilmiy maslahatlari men uchun muhim metodologik dasturilamal vazifasini o‘tadi. U kishi: «Siz o‘rta asrlar tarixini yaxshi bilasiz, ammo falsafa tarixi bo‘yicha tadqiqot olib borish juda nozik va murakkab jarayondir. Shu bois, avvalo antik davr falsafasini hamda Beruniy yashagan davr falsafiy muhitini chuqur va tizimli o‘rganishingiz zarur», deya beqiyos ilmiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan edilar. Mazkur tavsiya keyingi ilmiy izlanishlarimning nazariy-metodologik asosini mustahkamlashda, tadqiqot obyektini kengroq falsafiy kontekstda anglashda hamda Beruniy merosining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqurroq tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Aynan ana shu oqilona ilmiy maslahat va puxta metodologik yo‘l-yo‘riqlar samarasi o‘laroq, keyingi yillarda mening «Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy qarashlari» hamda «Beruniy va Ibn Sino o‘rtasidagi savol-javoblar» kabi turkum monografiya va ilmiy risolalarim dunyo yuzini ko‘rdi. Ayniqsa, professor Sayimnazar Karimovning ushbu ilmiy ishlarimni qo‘lyozma shaklida bir necha bor sinchkovlik bilan mutolaa qilib, ularga nisbatan o‘zining tanqidiy mulohazalari, xolis baholari va qimmatli tavsiyalarini bildirgani men uchun beqiyos ilmiy madad va katta ijodiy rag‘bat manbai bo‘ldi. Ustozning har bir fikri va ilmiy e’tirozi tadqiqot mazmunini yanada mukammallashtirish, nazariy xulosalarni chuqurlashtirish hamda mantiqiy yaxlitlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bugun o‘zining qutlug‘ 70 yillik yubileyini nishonlayotgan professor Sayimnazar Karimov mamlakatimiz ilmiy-ma’rifiy hayotida munosib o‘rin egallagan taniqli olim, malakali mutaxassis va fidoyi pedagog sifatida e’tirof etiladi. U kishi nafaqat falsafa fani rivojiga qo‘shgan salmoqli ilmiy hissasi, balki yuksak kasbiy madaniyati, ilmiy salohiyati, ustozlik mahorati hamda insonparvarlik fazilatlari bilan ilmiy jamoatchilik orasida alohida hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lgan.

Professor Sayimnazar Karimov rahbarligida yetishib chiqqan ko‘plab shogirdlar bugungi kunda ilm-fan, ta’lim va jamiyat taraqqiyotining turli yo‘nalishlarida samarali faoliyat yuritib, ustozning ilmiy an’analari va ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarini munosib davom ettirmoqdalar. Bu esa olimning ilmiy merosi, intellektual salohiyati va pedagogik faoliyatining barqaror hamda uzluksiz davom etayotganining yorqin dalilidir.

Muhtaram ustoz, Sizga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, oilaviy xotirjamlik va ilm-fan yo‘lidagi sermahsul ijodiy faoliyatingizga yangi muvaffaqiyatlar tilaymiz. Ilmiy va ma’naviy faoliyatingiz hamisha yurtimiz taraqqiyoti, yosh avlod kamoloti va milliy falsafiy tafakkur rivojiga xizmat qilishda davom etsin!

ILM YO‘LIDAGI HIDOYATCHI VA IXLOS SOHIBI

(Mehridaryo ustoz Sayimnazar Karimov siymosiga chizgilar)

Qodirov Davronbek Hoshimovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

Inson umrining mazmuni faqat yashab o‘tilgan yillar soni bilan emas, balki shu yillar davomida qoldirilgan ilmiy meros, tarbiyalangan shogirdlar va el-yurt koriga yaragan xayrli amallar bilan o‘lchanadi. Falsafa ilmining fidoyisi, tasavvufshunos olim, zahmatkash ustoz Sayimnazar Karimov ana shunday sermazmun umr sohiblaridan biridir. U kishining 70 yillik muborak dovonga ko‘tarilib kelishi nafaqat oila a’zolari, balki butun ilmiy jamoatchilik va shogirdlar uchun katta bayramdir.

Ustoz bilan ilk tanishuvimiz 2021 yilda, ilm-fan maskani - Samarqand davlat universitetida boshlangan edi. O‘shanda men “Falsafa tarixi” fanidan minimum imtihonini topshirayotgan edim. Inson hayotidagi ba’zi uchrashuvlar tasodifdek ko‘rinsa-da, aslida ular yuksak ma’naviy rishtalarning boshlanishi bo‘lar ekan.

Ustoz imtihon jarayonida mening dissertatsiya mavzuim bilan qiziqdilar. Men “Abu Homid G‘azzoliy ta’limotida tasavvufiy tajribaning ahamiyati” mavzusi ustida ilmiy tadqiqot olib borayotganimni aytganimda, Ustozning ko‘zlarida ilmga bo‘lgan cheksiz muhabbat va qiziqishni ko‘rdim. Savollarga javob berar ekanman, suhbatimiz oddiy imtihondan chuqur ilmiy muloqotga aylanib ketdi. O‘shanda bu samimiy suhbat kelajakdagi mustahkam ustoz-shogirdlik rishtalarining muqaddimasi ekanini xayolimga ham keltirmagan edim.

Ustoz Sayimnazar Karimov nafaqat bilim beradigan, balki shogirdning iqtidorini payqay oladigan va uni to‘g‘ri yo‘naltiradigan noyob farosat sohibi hamdir. 2022 yilning noyabr oyida, dissertatsiyamning dastlabki muhokamasi jarayonida Ustoz menga taqrizchi etib belgilandilar. U kishining ilmiy mulohazalari, matn ustida ishlashdagi sinchkovliklari va eng muhimi, tadqiqotchiga bo‘lgan ijobiy ishonchlari mening ilmiy izlanishlarimga qanot bag‘ishladi.

Taqdir meni ustoz bilan yana yuzlashtirishni nasib qilgan ekan. Mavloning ilohiy sirini qarangki, 2025-yilda Ustoz mening fan doktorligi darajasini olish uchun yozgan “Abulqosim Qushayriyning tasavvufiy axloq” mavzusidagi dissertatsiyamga yana taqrizchi etib belgilandilar va o‘zlarining qimmatli maslahatlarini berdilar. Bu

men uchun shunchaki ilmiy hamkorlik emas, balki taqdirning inoyati va Ustoz duosining ijobati edi.

Ustoz haqida so‘z borar ekan, professor Sayimnazar Karimovning ilmiy faoliyati o‘zbek falsafasi va tasavvufshunosligida alohida maktab hisoblanadi. U kishining qalamiga mansub asarlar bugungi kunda soha mutaxassislari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Olim Sayimnazar Karimov tasavvuf ilmi, uning tarixi va yurtimizdagi tariqatlar rivojiga doir tadqiqot va asarlari bilan keng ommaga tanilgan. Ustozning “Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan”, “Inson qalbini poklovchi ta’limot”, “Ijtimoiy taraqqiyot: muammo va yechimlar”, “Amir Temur va temuriylarning tasavvufga munosabati”, “Avesto” - sharq ijtimoiy fikrlar manbai” kabi muallafotlari ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini tizimli tahlil qiluvchi, tasavvufning asl mohiyati va axloqiy qiymatini ochib beruvchi hamda qadimiy ildizlarimizni tadqiq etuvchi ilmiy manbalar sanaladi. Ushbu asarlar mening ham falsafa tarixiga oid ilmimni boyitishda, dissertatsiyalarimni mukammal holga keltirishda beqiyos rol o‘ynagan. Ta’kidlash joizki, Ustozning yozish uslubidagi soddalik va teranlik har qanday o‘quvchini maftun etadi.

Sayimnazar Karimovdagi ilmga bo‘lgan tinimsiz chanqoqlik, harakatchanlik va izlanuvchanlik bizdek shogirdlar uchun haqiqiy o‘rnakdir. U kishi 70 yoshni qarshi olayotgan bo‘lsalar-da, hamon yoshlarga xos g‘ayrat bilan ijod qiladilar, yangidan-yangi g‘oyalarni ilgari suradilar.

Ustozning eng katta boyligi - bu uning samimiyligi. U kishi bilan suhbatlashgan inson qalbida ma’naviy xotirjamlik tuyadi. Samarqand va yurtimizning boshqa ilm dargohlarida minglab talabalar, yuzlab magistr va doktorantlar u kishining saboqlaridan bahramand bo‘lishgan.

Muhtaram ustoz Sayimnazar Karimovich, Sizning 70 yillik to‘yingiz - bu ilm va ma’rifatning bayramidir. Siz nafaqat falsafa fanlari doktori, balki inson qalbining muhandisi, ilm va ma’naviyat olamining zahmatkash g‘avvosisiz.

Sizga va oilangizga Xoliqdan salomatlik, xonadoningizga baraka va ijodiy ishlaringizda bardavomlik tilaymiz. Siz kabi fidoiy ustozlar bor ekan, yurtimizda ilm-fan va ma’naviyat hech qachon so‘nmaydi.

70 yoshlik tavallud ayyomingiz muborak bo‘lsin, aziz Ustoz!

ILMGA BAXSHIDA UMR

Samatov Xurshid Ulmasjonovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali kafedra mudiri, falsafa fanlari doktori (DSc)

Qutlug‘ 70 yoshingiz bilan samimiy muborakbod etib, biz uchun ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsoli bo‘lgan Sizdek mo‘tabar ustoz sha’niga ezgu tilaklarni izhor etaman.

Xalq o‘zining ilmsevar, zukko va dono, asl farzandlarini hamisha yuksak qadrlaydi. Siz nafaqat fan uchun, balki jamiyat uchun o‘ziga xos timsolsiz. Falsafa tarixidagi ilmiy maktablar va buyuk izlanishlarning asoschilaridan biri sifatida o‘z nomini zarhal harflar bilan yozib qoldirgan yetuk faylasuf, zabardast olim, mehribon ustoz, ta’lim va ma’naviyat jonkuyari sifatida el-yurt o‘rtasida hurmat-e’tibor qozondingiz. Zero, har bir shogirdini o‘z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun qalb qo‘ri, ko‘z nuri butun borlig‘ini baxsh etadigan ziyolilar tom ma’noda fidoyi kasb egalaridir. Buyuk Alisher Navoiy aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham Siz kabi ustozlarning olijanob mehnatlaringiz haqini ado etib bo‘lmaydi.

Yubilyar qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak deb, buyuk adib Rasul Gamzatovdan so‘rashgan ekan. Unga adib, albatta sochlariga oq tushgan bo‘lishi shart, dono bo‘lishi shart va nihoyat yubilyarning nevarasi bo‘lishi kerak. Undan tashqari yubilyarning ortida savob va yaxshi ishlar, sadoqatli va savodli shogirdlar bo‘lishi shart degan ekan.

Insonlar borki, ular bilan o‘tkazgan har bir daqiqa maroqli har bir jabhasi hikmat. Insonlar borki, ular katta bir xazina, ulardan o‘zing uchun nimani axtarsang o‘shani topasan. Ustozdagi shijoat, talabchanlik, zamon bilan hamnafas harakat qilish, fikrlash bizda ham havas, ham harakatga undaydi. Ziyolilar orasida ustoz Sayimnazar Karimov falsafa tarixi jumladan, tasavvuf falsafasi kabi yo‘nalishning umumnazariy va amaliy masalalari bilan shug‘ullanuvchi olim sifatida mashhurdir.

Siz, juda ko‘p qiyinchiliklarni yengib, ilmning baland cho‘qqisiga chiqdingiz. Yoshlik yillaringizdagi mehnatsevarlik va izlanishlarga bo‘lgan ishtiyoq bugungi kunda Siz o‘stirgan minglab shogirdlaringizda namoyon bo‘lmoqda. Ular nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro darajada sizga munosib shogird bo‘lib, ilmiy yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Sizning 70 yillik yo‘lingiz - bu faqatgina shaxsiy yutuqlar emas, balki fan, ta’lim va yoshlar uchun yorqin namunadir. Siz boshlagan ishlarni shogirdlaringiz munosib davom ettiradilar va Sizga o‘xshash yuksak maqsadlarga intilgan insonlar uchun ruhiy quvvat manbai bo‘ladi.

“Yaxshi farzand o‘z avlodlari bilan maqtanmaydi, balki o‘z ajdodlariga munosib avlod bo‘lish uchun xayrli ishlari bilan kelgusi avlodlariga ibratli nom

qoldiradi”, - degan edi hazrat Maxdumi A’zam Dahbediy. Bugungi kunda ustoz, Sayimnazar Karimov buyuk ajdodlarimiz kabi o‘zida javonmardlik sifatlarini shakllantirib, elning tashvishi bilan yashash, odamlarga doimo yaxshilik ulashish, ezgu ishlar qilib, ilm-fan fidoyisi bo‘lib, shogirdlar tarbiyalab, katta hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lmoqda.

Bugungi shodiyona kunda Sizga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, baxt-saodat, farzandlaringiz va nabiralaringiz baxti va kamolini ko‘rishingizni tilayman.

Hayot yo‘llaringizni el ishonchi, yaxshilarning hurmat-e’tibori yanada munavvar etsin. Jo‘shqin mehnat zavqi Sizni hech qachon tark etmasin.

PROFESSOR S.K.KARIMOV FAOLIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI VA UNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Isomiddinov Yuldosh Yusubboyevich,
Samarqand davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi mudiri, dotsent
E-mail: isomiddinov.1986@mail.ru

Bugungi globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni saqlash, uni rivojlantirish va yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri va uning ilmiy tahlili muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan professor S.K.Karimovning ilmiy va ijtimoiy faoliyatini o‘rganish alohida ahamiyatga ega.

S.K.Karimovning ilmiy qarashlarini tahlil qilishda uning metodologik yondashuviga alohida e’tibor qaratish zarur. U ijtimoiy hodisalarni o‘rganishda tarixiylik, tizimlilik va sivilizatsion yondashuvni uyg‘un holda qo‘llaydi. Bu esa ijtimoiy jarayonlarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Olimning mazkur yondashuvi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Professor S.K.Karimov o‘zining ko‘p qirrali ilmiy faoliyati bilan ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy izlanishlari ijtimoiy tafakkur tarixi, Sharq falsafasi, tasavvuf ta’limoti hamda jamiyat ma’naviy taraqqiyoti masalalarini qamrab oladi. Olim o‘z tadqiqotlarida tarixiylik va izchillik tamoyillariga tayangan holda ijtimoiy jarayonlarni tahlil qiladi.

Ayniqsa, S.K.Karimovning tasavvuf ta’limotiga oid qarashlari ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga ega. U tasavvufni faqat diniy ta’limot sifatida emas, balki inson ma’naviy kamoloti va jamiyat barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy institut sifatida talqin qiladi. Uning ta’kidlashicha, inson qalbini poklash va axloqiy tarbiyani

yuksaltirish orqali jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin. Bugungi kunda ma’naviy inqiroz sharoitida ushbu g‘oyalar yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

S.K.Karimovning ilmiy qarashlarini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy paradigmalar bilan qiyosiy tahlil qilish uning g‘oyalarining universal xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, G‘arb sotsiologiyasida keng tarqalgan ijtimoiy tizimlar nazariyasi (A.Giddens) hamda sivilizatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarga oid qarashlar (S.Huntington) bilan solishtirilganda, Karimovning yondashuvi ma’naviy omillarni ustuvor deb hisoblashi bilan ajralib turadi. Uning fikricha, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy drayveri iqtisodiy yoki siyosiy omillar emas, balki insonning ma’naviy kamoloti hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, S.K.Karimov ilmiy merosida “ma’naviy determinizm” konsepsiyasiga yaqin g‘oyalar kuzatiladi. Unda jamiyat rivoji inson ma’naviyatining holatiga bevosita bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi. Bu g‘oya bugungi kunda jamiyatda kuzatilayotgan ma’naviy muammolarni hal etishda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Olimning ilmiy ishlarida Sharq ijtimoiy tafakkuri rivojining tarixiy bosqichlari ham chuqur tahlil qilingan. U Sharq falsafasini alohida sivilizatsion hodisa sifatida baholab, uning rivojlanishini qadimgi davrlardan tortib, islom sivilizatsiyasi va Temuriylar davrigacha izchil tarzda o‘rgangan. Ayniqsa, Temuriylar davrini u ilm-fan va ma’naviyat yuksalgan davr sifatida baholab, uni Sharq renessansi sifatida talqin qiladi.

Professor S.K.Karimovning ilmiy merosi juda boy bo‘lib, u 14 ta monografiya, 17 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta darslik va 190 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifidir . Uning asarlari ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

S.K.Karimov nafaqat yirik olim, balki yuqori malakali pedagog sifatida ham tanilgan. U talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularni ilmiy izlanishlarga jalb etish va ma’naviy tarbiyani kuchaytirishga alohida e’tibor qaratgan. Uning rahbarligida bir necha fan doktorlari va nomzodlar tayyorlangan bo‘lib, bu uning mustahkam ilmiy maktab shakllantirganini ko‘rsatadi. Ushbu ilmiy maktab doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar olim g‘oyalarining davomiyligini ta’minlab, milliy falsafa ilmining rivojiga xizmat qilmoqda.

S.K.Karimovning tashkilotchilik faoliyati ham diqqatga sazovor. U turli rahbarlik lavozimlarida ishlab, ta’lim tizimi va ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Uning faoliyatida nazariya va amaliyot uyg‘unligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan bugungi davrda milliy o‘zlikni saqlash va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. S.K.Karimovning ilmiy qarashlari aynan shu jihatdan muhimdir. Uning

g‘oyalari yoshlarda milliy g‘urur, ma’naviy immunitet va mustaqil fikrlashni shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi ta’lim tizimida S.K.Karimovning ilmiy merosidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning tasavvuf va ma’naviyatga oid qarashlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish orqali talabalarda nafaqat bilim, balki yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Bu esa ta’limning faqat bilim berish emas, balki shaxsni tarbiyalashga qaratilganligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, professor S.K.Karimovning ilmiy, pedagogik va tashkilotchilik faoliyati O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojida muhim o‘rin tutadi. Uning ilmiy merosi va g‘oyalari zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT TARG‘IBOTCHISI

Alimov Akbar Narbayevich,
SamISI ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD)

Ma’naviyat va ma’rifatni o‘z hayotining bosh mezoni hamda faoliyatining mazmuniga aylantirgan taniqli faylasuf olim, murabbiy va jamoat arbobi Karimov Sayimnazar Karimovich joriy yilda o‘zining qutlug‘ 70 yoshini, muborak hayot yubileyini nishonlamoqda.

Ushbu tabarruk sana nafaqat inson umr yo‘lidagi muhim va sharafli dovon, balki butun hayotini ilm-fan, ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotga bag‘ishlagan fidoyi ziyolining sermahsul faoliyatiga berilgan yuksak e’tirof sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yetmish yillik hayot tajribasi, ilmiy izlanishlar va pedagogik faoliyat bilan yo‘g‘rilgan ushbu qutlug‘ sana ustozning jamiyatimiz ma’naviy hayotidagi o‘rni va xizmatlarini yana bir bor e’tirof etish imkonini beradi.

Sayimnazar Karimovich o‘zining chuqur ilmiy salohiyati, yuksak intellektual tafakkuri, falsafiy mushohadaga boy qarashlari hamda ma’rifatparvarlik ruhidagi faoliyati bilan ko‘plab shogirdlar va ilm ixlosmandlari qalbida alohida hurmat qozongan olimdir. Uning barkamol fikrlar bilan sug‘orilgan ma’ruzalari, teran falsafiy mazmun va ilmiy mushohadaga boy asarlari, ma’naviy qadriyatlarni ulug‘lovchi qarashlari yosh avlodning intellektual va ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutib kelmoqda.

Ustozning ilmiy va pedagogik faoliyati nafaqat bilim berish, balki inson qalbida ezgulik, Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat va ilmga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir. Shu bois Sayimnazar Karimovich bugungi kunda nafaqat yetuk faylasuf olim, balki ma’naviy kamolot, fidoyilik va ustozlik fazilatlarining yorqin timsoli sifatida ilmiy

jamoatchilik hamda keng jamoatchilik tomonidan yuksak ehtirom bilan e’zozlanmoqda.

Darhaqiqat, umrini ilm va ma’rifat yo‘liga baxshida etgan, o‘zining boy ilmiy merosi, yuksak insoniy fazilatlari va fidokorona mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan insonlarning hayot yo‘li kelajak avlodlar uchun ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. Sayimnazar Karimovichning sermazmun hayoti va faoliyati ham ana shunday yuksak ma’naviy va ilmiy qadriyatlarning yorqin ifodasidir.

Sayimnazar Karimovich nafaqat ilm-fan, ta’lim va ijtimoiy-ma’naviy hayot sohalarida, balki shaxsiy hayotida ham yuksak insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan ibratli shaxsdir. U mehr-oqibat va o‘zaro hurmatga asoslangan mustahkam oila bunyod etgan sadoqatli turmush o‘rtoq, farzandlari kamoloti va tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan mehribon ota hamda oilaviy qadriyatlarni yuksak darajada e’zozlaydigan oilaparvar inson sifatida atrofidagilar hurmatini qozongan.

U kishining hayot yo‘li va turmush tarzi yosh avlod uchun nafaqat ilmiy muvaffaqiyat, balki yuksak axloqiy fazilatlar, mas’uliyat, fidoyilik va insonparvarlikning ham yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, oilaga, yaqinlariga va shogirdlariga bo‘lgan e’tibori, mehr-muhabbati hamda insoniy munosabatlardagi samimiyligi uning ma’naviy qiyofasini yanada boyitadi.

Sayimnazar Karimovichni yaqindan bilgan, u bilan birga ishlagan yoki do‘stona muloqotda bo‘lgan har bir inson uning sadoqati, samimiyligi, bag‘rikengligi, yuksak madaniyati va insoniylik fazilatlaridan bahramand bo‘lganini alohida ta’kidlaydi. U kishining odamlar dardiga hamdard bo‘lishi, murakkab vaziyatlarda oqilona maslahat va ma’naviy madad bera olishi, do‘stlik va hamkorlikka sodiqligi ko‘plab insonlar qalbida chuqur hurmat va ehtirom tuyg‘ularini shakllantirgan.

Sayimnazar Karimovich respublikamizdagi oliy o‘quv yurtlari ichida uzoq muddat ma’naviyat ishlari bo‘yicha prorektor bo‘lgan inson hisoblanadi. Shu sohadan xabardor inson sifatida shuni aytishim mumkinki, bu sohada ishlash insondan nafaqat bilim, juda katta tashkilotchilikni ham talab qiladi.

Yurtimizda ayniqcha ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish, bilimli, salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda Sayimnazar Karimovich kabi fidoiy insonlarning hissasi katta. Siz uzoq yillardan buyon O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimini va unda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rivojlanishiga ulkan xissa qo‘shib, mehnat qilib, uning taniqli raxbarlaridan biri, falsafa fanining fidoiysi, taniqli olim, mehribon ustoz sifatida yoshlarga bilim berish, ularni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashdek mashaqqatli va sharafli ishda o‘z kuch-g‘ayratingizni ayamasdan kelmoqdasiz.

Sayimnazar Karimovich fikrlari teranligi, o‘z ustida tinimsiz izlanuvchan, katta ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan, respublikamizda falsafa fanining yetuk bilimdoni va o‘zining ilmiy maktabini yaratgan mehribon, yoshlarga g‘amxo‘r ustoz sifatida o‘zimga kashf etganman. U kishining menga bergan ustozlardek maslahatlari, taklif va tavsiyalari va tanqidiy yondashuvlari meni tadqiqotchi olim sifatida shakllanishimga katta omil bo‘ldi. Sayimnazar Karimoich bilan ilmiy, ijodiy, yaqin ustoz-shogird munosabatlarimiz bugungi kunda ham bardavom etib kelmoqda.

Bugungi kunda ustozning ilmiy salohiyati, ijodiy quvvati va intellektual imkoniyatlari yanada yuksalib, sermahsul faoliyatining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Shu bois, kelgusida ham u kishidan falsafaning turli yo‘nalishlari, ayniqsa, milliy va jahon falsafasi tarixi, falsafiy tafakkur taraqqiyotining dolzarb muammolari hamda zamonaviy metodologik masalalarga bag‘ishlangan, chuqur ilmiy tahlil va teran mushohadalar bilan boyitilgan yangi fundamental tadqiqotlarni kutishga to‘la asoslar mavjud.

Ishonchimiz komilki, Sayimnazar Karimovich bundan buyon ham o‘zining sermahsul ilmiy faoliyatini izchil davom ettirib, yangi ilmiy g‘oyalar va tadqiqotlari bilan falsafa fani taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi. Uning ilmiy izlanishlari, ustozlik faoliyati va yuksak insoniy fazilatlari nafaqat hamkasblari va shogirdlari, balki kelajak avlod tadqiqotchilari uchun ham ilhom va ibrat manbai bo‘lib qolaveradi. Darhaqiqat, ustozdan nafaqat ilmiy bilim, balki ilmga sadoqat, kasbga fidoyilik va insoniy komillik saboqlarini ham o‘rganish mumkin.

So‘zimiz yakunida ustozimiz, falsafa fanlari doktori, professor Sayimnazar Karimovichga mustahkam sog‘liq, uzoq va mazmunli umr, xonadoniga fayzu baraka, oilaviy farovonlik va xotirjamlik tilaymiz. U kishining ilm-fan ravnaqi, ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyoti yo‘lidagi sharafli faoliyati bundan buyon ham yangi yutuqlar bilan boyib, xalqimiz va ilmiy jamoatchilik e’tirofiga sazovor bo‘lib boraverishini chin dildan tilab qolamiz. Zero, ustozning boy ilmiy merosi, yuksak ma’naviy fazilatlari va ezgu ishlari uning nomini ilm-fan va ma’rifat tarixida munosib ravishda abadiylashtirishi shubhasiz.

USTOZLIK MAQOMIGA YETISHGAN UMR

Haqqulov Nabijon Qahramonovich,
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hozirgi global transformasiyalar davrida jahon sivilizasiyasi taraqqiyotining murakkab va ziddiyatli xususiyat kasb etishi, geosiyosiy munosabatlarning

keskinlashuvi, axborotlashuv va raqamlashuv jarayonlarining jadal sur’atlarda rivojlanishi, shuningdek, ekologik, demografik va ma’naviy-intellektual muammolarning umuminsoniy miqyosda tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgani zamonaviy dunyo manzarasini yangicha falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Bu esa ijtimoiy borliq va inson tafakkuri o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni chuqur ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish, taraqqiyotning konseptual mezonlarini qayta ko‘rib chiqish hamda mustaqil dunyoqarash paradigmalarini shakllantirishni obyektiv ehtiyojga aylantirmoqda.

Mamlakatimiz ilm-fani va ta’lim tizimi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ana shunday yetuk olimlardan biri - o‘zining sermazmun ilmiy-ijodiy faoliyati, yuksak intellektual salohiyati hamda fidokorona pedagogik mehnati bilan jamoatchilik e’tirofiga sazovor bo‘lgan inson - professor Sayimnazar Karimov hisoblanadi. U kishi uzoq yillik samarali ilmiy-pedagogik faoliyati davomida talaba-yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan yetuk, mustaqil tafakkur sohiblari bo‘lgan, zamonaviy bilim va innovasion yondashuvlarga ega raqobatbardosh mutaxassis kadrlar sifatida shakllantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Olimning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari va amaliy tajribasi nafaqat muayyan ilmiy yo‘nalish rivojiga, balki mamlakatimiz ta’lim tizimining intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga ham xizmat qilib kelmoqda.

Ustoz Sayimnazar Karimovning ilmu-fan zinapoyalarining eng yuqori pallasiga ko‘tarilishi, uzluksiz ilmiy izlanishlarning yakuniy natijasi bo‘lsada, u ilmiy tadqiqot ishlarini, amalda - hayotiy jarayonlar bilan uzviy bog‘lab amaliyotda tashkilotchilik, rahbarlik faoliyatini namoyon etib, ilmiy-amaliy ishlarini mutanosiblashtirgan holda davom etkazib, insonda kam uchraydigan va unda mavjud bo‘lgan talantini, qobiliyatini ham ilmiy izlanish, ham tashkilotchilik ishlari bilan bog‘lab olib borishga muvaffaq bo‘ladi.

Qadimiy Ishtixonning Bahrin qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida voyaga yetgan Ustoz S.Karimov o‘zining ilm-ma’rifatga bo‘lgan yuksak intilishi, ezgu axloqiy fazilatlari hamda jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan munosib hissasi bilan alohida e’tirof etiladi. U yosh avlodni ma’naviy-ma’rifiy va insonparvarlik g‘oyalari ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratib, Samarqand shahri hamda viloyat tumanlarida tashkil etilayotgan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, u xalqimizning boy tarixiy-ma’naviy merosi, milliy an’ana va qadriyatlari, ulug‘ alloma hamda mutafakkirlarimizning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini keng targ‘ib etishga qaratilgan tashviqot-tarbiyaviy faoliyatni izchil olib bormoqda.

Davra suhbatlari va uchrashuvlarda keng jamoatchilik ishtirokida nafaqat ma’ruza va suhbatlar o‘tkazib, balki savol-javoblar asosida muloqotlarni tashkil

etish orqali o‘tmish milliy ma’naviyatimiz namoyandalari bo‘lgan buyuk daholarning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, ular qoldirgan boy ma’naviy merosning mazmun-mohiyatini chuqur ehtiros va yuksak ruh bilan tushuntirib bormoqda. Ayni paytda, yosh avlodni ajdodlarimiz hayoti va faoliyatidan ibrat olishga, ularning ilm-fan hamda jahon sivilizasiyasi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan faxrlanishga, shuningdek, mazkur ma’naviy-ma’rifiy an’analarni munosib davom ettirishga da’vat etib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ustoz Sayimnazar Karimovning serqirra ilmiy faoliyati va boy ilmiy merosi zamonaviy o‘zbek falsafa ilmining nazariy-metodologik asoslarini yanada takomillashtirish, ijtimoiy taraqqiyotning murakkab va ko‘p qirrali jarayonlarini falsafiy jihatdan teran tahlil qilish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining konseptual asoslarini ilmiy nuqtayi nazardan yoritishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning mazkur yo‘nalishlardagi ilmiy qarashlari va amaliy faoliyati bugungi globallashuv, ma’naviy yangilanish va intellektual taraqqiyot sharoitida o‘zining dolzarbligi hamda nazariy-amaliy qimmatini saqlab qolmoqda.

Professor Sayimnazar Karimovning ilmiy izlanishlari falsafiy tafakkur taraqqiyoti, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy taraqqiyot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish masalalarini chuqur ilmiy mushohada asosida yoritishi bilan ajralib turadi. Shu bois uning ilmiy merosi nafaqat falsafa fanining rivojlanishiga xizmat qilayotgan nazariy manba, balki jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirishga ko‘maklashayotgan muhim intellektual resurs sifatida ham e’tirof etiladi.

Uch yarim asr oldin yashagan, Sharqda “ma’nolar otasi” (“Abul-maoniy”) nomini olgan shoir, faylasuf va mutafakkir olim Mirzo Abdulqodir Bedil quyidagi baytni bitganda professor Sayimnazar Karimovdek insonlarni ko‘zda tutgan bo‘lsa ajab emas;

Osmon bo‘lsang yerga egilmoq yaxshi,
Tuproq bo‘lsang ko‘kka intilmoq yaxshi.
Notavon, bechora bo‘lmog‘il zinhor,
G‘ayratda, himmatda bo‘l porloq, yaxshi.

Shu ma’noda, professor S. Karimovning ilmiy-pedagogik merosi, yaratgan ilmiy maktabi va ko‘p yillik ustozlik faoliyati yosh olimlar, tadqiqotchilar hamda ilm-fan yo‘lini tanlagan avlodlar uchun yuksak ma’naviy-intellektual tajriba, ilmiy mas’uliyat va fidoyilik namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilmga sadoqat, haqiqatga intilish va ma’rifatparvarlik ruhiga yo‘g‘rilgan hayot yo‘li hamda faoliyati kelajak avlodlar uchun ham ibrat maktabi bo‘lib qolaveradi.

USTOZLIK VA DONISHMANDLIK TIMSOLI

Abdivohidov Sunnatillo Abdinabiyevich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i (PhD), dotsent

Ma’naviyat va ma’rifatni hayotining bosh maqsadiga aylantirgan, ilm-fan va ta’lim taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan taniqli faylasuf olim, fidoyi pedagog va Ustoz Karimov Sayimnazar Karimovich bu yil o‘zining muborak 70 yoshini qarshi olmoqda.

Inson umri davomida bosib o‘tgan hayot yo‘li, amalga oshirgan ezgu ishlari va jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi bilan qadr topadi. Sayimnazar Karimovich ana shunday ziyoli insonlar sirasiga mansub bo‘lib, ko‘p yillik samarali ilmiy-pedagogik faoliyati, yuksak ma’naviy fazilatlari hamda yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlangan mehnati bilan hamkasblari, shogirdlari va keng jamoatchilik o‘rtasida chuqur hurmat qozongan.

Ustozning ilmiy izlanishlari, falsafa, falsafa tarixi, tasavvuf va ma’naviyat sohasidagi tadqiqotlari, ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlari mamlakatimiz ilm-fani rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Ustozning boy hayotiy tajribasi, keng dunyoqarashi va insonparvarlik fazilatlari uni nafaqat yetuk olim, balki ko‘plab yoshlar uchun haqiqiy ustoz va ma’naviy yo‘lboshchi sifatida tanitdi.

Bu kunlar u kishi o‘zining hayotbaxsh yo‘lini sharaf bilan qayd etar ekan, jamiyatimizning turli qatlamlaridan, hamkasblaridan, yoshlardan minnatdorlik va samimiy e’tirof so‘zlari yangramoqda. Bu esa, Sayimnazar Karimov singari ustoz va faylasuflarning mehnati, hayoti - ezgulik maktabi ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Ustoz Sayimnazar Karimov bilan yaqindan muloqot qilish va “ustoz-shogirdlik” munosabatlarida bo‘lish men uchun katta hayotiy va ilmiy maktab vazifasini o‘tadi. Men u kishini fikrlari teran, keng dunyoqarashli, o‘z ustida tinimsiz izlanuvchi, yuksak ilmiy salohiyat sohibi sifatida kashf etdim.

Ustozning menga bergan qimmatli maslahatlari, ilmiy taklif va tavsiyalari, ayniqsa, har bir tadqiqotga tanqidiy yondashishga undaydigan fikr-mulohazalari ilmiy faoliyatimda muhim ahamiyat kasb etdi. Ana shu e’tibor va g‘amxo‘rlik, ustozona talabchanlik meni tadqiqotchi olim sifatida shakllanishim va kamol topishimda muhim omillardan biri bo‘ldi. Shu ma’noda, ustoz Sayimnazar

Karimovning hayot yo‘li va faoliyati nafaqat shogirdlari, balki ilm-fan yo‘lini tanlagan yoshlar uchun ham haqiqiy ibrat namunasidir.

Bugungi kunda ustoz Sayimnazar Karimov ilmiy va pedagogik faoliyati serqirraliligi, mazmundorligi hamda yuksak samaradorligi bilan alohida ajralib turadi. Ustozning falsafa, falsafa tarixi, tasavvuf va ijtimoiy tafakkur masalalariga bag‘ishlangan umumiy hajmi 400 bosma taboqdan ortiq bo‘lgan 30 dan ziyod kitoblar, jumladan, 2 ta darslik, 2 ta elektron darslik, 17 dan ortiq o‘quv qo‘llanma, 14 ta monografiya, 20 dan ziyod o‘quv-uslubiy ishlar hamda 200 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifidir. Ayniqsa, ustozning ilmiy merosida ta’lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan”, “Falsafa”, “Falsafa tarixi” kabi darsliklar alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, uning “Inson qalbini poklovchi ta’limot”, “Ijtimoiy taraqqiyot: muammo va yechimlar”, “Amir Temur va temuriylarning tasavvufga munosabati”, “Avesto - sharq ijtimoiy fikrlarining muhim manbai” kabi o‘quv, ilmiy-amaliy va uslubiy qo‘llanmalari talabalar, tadqiqotchilar hamda keng kitobxonlar ommasi tomonidan qiziqish bilan mutolaa qilib kelinmoqda.

Ushbu asarlarda Ustozning chuqur ilmiy mushohadasi, falsafiy tafakkuri, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati hamda yosh avlodni ma’naviy kamolot ruhida tarbiyalashga qaratilgan ezgu g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Bu esa ustoz Sayimnazar Karimovni nafaqat yetuk olim, balki o‘z ilmiy maktabini yaratgan, yurtimiz falsafa fani rivojiga munosib hissa qo‘shgan ustoz sifatida e’tirof etish imkonini beradi.

Ustoz! Siz bugun sermazmun va sharafli umr yo‘lingizning muborak yetmishinchi dovonida turib, bosib o‘tgan hayot yo‘llaringizga mamnuniyat va shukronalik tuyg‘ulari bilan nazar tashlamoqdasiz.

Ko‘nglingizdagi qanoat va rozilik, ezgulik va ma’rifatga yo‘g‘rilgan hayotingizning fayzi yorug‘ chehrangizda o‘z aksini topib turibdi. Zero, inson uchun o‘z umridan, xalq va Vatan ravnaqi yo‘lida qilgan savobli ishlaridan rozi bo‘lib yashashdan ortiq baxt va saodat bo‘lmasa kerak.

SINFDOSH DO‘STIMIZ BILAN FAXRLANAMIZ

Qo‘chqarov Baxtiyor - sinfdosh do‘st

Inson dunyoga kelgan lahzada hali to‘liq shakllangan shaxs emas - u xuddi yorug‘likka intilayotgan maysa kabi, parvarish va e’tiborga muhtoj bir mavjudotdir. Tabiat unga jism ato etadi, lekin qalbini uyg‘otish, tafakkurini charxlash va ma’naviyatini yuksaltirish - bu jamiyatning, muhitning va eng avvalo, tarbiyaning vazifasidir. Shu bois inson hayoti - bu oddiy yashash emas, balki o‘z-o‘zini anglash, kamolot sari tinmay intilish sayohatidir.

Har bir bola dunyoga kelganda uning ko‘zlarida beg‘uborlik, qalbida esa hali noma’lum imkoniyatlar yashirin bo‘ladi. U qaysi muhitda o‘ssa, qanday so‘zlarni eshitsa, qanday mehr va tarbiya ko‘rsa - ana shu omillar uning kelajakdagi qiyofasini belgilaydi. Agar u ma’rifat va ezgulik bag‘rida ulg‘aysa, qalbida nur paydo bo‘ladi; agar befarqlik va johillik muhitida qolsa, u nur so‘nishi mumkin.

Ilmli inson esa shamga o‘xshaydi - u o‘zini yondirib, atrofga ziyo tarqatadi. Bu yongish - bu qurbonlik emas, balki ma’no topishdir. Chunki haqiqiy inson o‘z hayotini faqat o‘zi uchun emas, balki boshqalar uchun ham yashaydi. Uning qalbi xalq dardi bilan uradi, uning orzulari millat kelajagi bilan bog‘lanadi.

Shunday insonlardan biri - Sayimnazar Karimov edi. U Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi oddiy Bahrin qishlog‘ida dunyoga keldi. Qishloq saharlaridagi musaffo havo, mehnatkash odamlar muhiti, oddiylik va samimiyat uning qalbiga ilk izlarni qoldirdi. Bolaligidanoq u boshqalardan farq qilardi: ko‘zlarida qiziqish, qalbida esa izlanishga bo‘lgan cheksiz ishtiyoq bor edi.

U hali olti yoshga ham to‘lmay turib, bilim sari ilk qadamlarini tashladi. Maktab eshigidan kirgan o‘sha kichik bola qalbida katta orzularni ko‘tarib kelgan edi. Darslar, kitoblar, ustozlar - bular uning hayotida oddiy majburiyat emas, balki ma’naviy ozuqaga aylandi. U o‘qir, o‘rganar va har bir yangi bilim bilan go‘yo yanada yuksalardi.

Uning sinfdoshlarining ko‘pchiligi iqtidorli bo‘lganligi sababli ulardan ortda qolmaslikga harakat qilardi. Ayniqsa 7- sinfdan akasi Karimov Shokir domla sinf rahbari bo‘lgach unda qandaydir kuchli qobiliyat paydo bo‘ldi.

Vaqt o‘tgan sayin, u faqat bilimli emas, balki ma’naviy jihatdan ham boy insonga aylandi. Chunki u ilmni faqat shaxsiy yutuq uchun emas, balki jamiyatga xizmat qilish vositasi sifatida qabul qildi. Uning hayoti - bu bir shamning yonib, atrofni yoritishga bo‘lgan intilishidek edi.

Shunday qilib, insonning haqiqiy qiyofasi uning tug‘ilishi bilan emas, balki qanday yashagani, qanday qadriyatlarga amal qilgani va qanday iz qoldirgani bilan belgilanadi. Kamolot sari intilish - bu insonning eng ulug‘ yo‘lidir. Ana shu yo‘lni tanlaganlargina haqiqiy ma’noda “inson” degan yuksak nomga munosib bo‘ladilar.

Ana shunday yuksalish sari intilish Sayimnazar Karimov hayotida ham yorqin namoyon bo‘ladi. Unda bu kabi qobiliyat va intilishlarning shakllanishida, avvalo, oila muhiti va ustozlar tarbiyasining ta’siri beqiyos bo‘lgan. Akasi - Shokir Karimov uning ilk ustozi, hayotda yo‘l ko‘rsatuvchi ma’naviy tayanchiga aylangan bo‘lsa, maktab davridagi bir qator fidoyi o‘qituvchilar uning bilim olamiga keng yo‘l ochdilar. Jumladan, Xoljigit Abdujamilov, Rashida Abutolipova, Abduraim Hubbimov, Ulash Jabborov, Abduxalim Jabborov, Saydirasul Duvlayev, Abdualim Ziyodullayev, Abdulla Qosimov va Qayum Xudaynazarov kabi ustozlar uning tafakkurini charxlab, ilmga bo‘lgan mehrini mustahkamladilar.

Bahrin qishlog‘i o‘ziga xos ma’naviy muhitga ega bo‘lib, u yerdan ko‘plab bilim ahllari va yetuk shaxslar yetishib chiqqan. Bu zamin nafaqat oddiy qishloq, balki ma’rifat o‘chog‘i sifatida ham tanilgan. U yerda ulg‘aygan har bir farzand, go‘yo shu muhitdan ilhom olib, yuksak maqsadlar sari intilishga undar edi.

Jumladan, ushbu qishloqdan yetishib chiqqan Eliboy Qoraboyev, Nomoz Axmedov, Turdiali Jo‘rayev, Mamaraim Hubbimov, Raxim Rajabboyev va Bahriddin Karimberdiyev kabi shaxslar bu yurtning ma’naviy salohiyati qanchalik yuksak ekanini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, Karim bobo va Huvaydo ona kabi mehnatkash va ibratli ota-onaning tarbiyasi ham uning kamolotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Karim bobo halol mehnati, kasbi orqali el-yurt orasida hurmat qozongan bo‘lsa, Huvaydo ona mehr-muhabbat va sabr bilan farzandlarining ma’naviy dunyosiga asos solgan. Ana shu oilaviy muhit, ustozlar mehnati va jamiyat ta’siri uyg‘unligida kamol topgan insongina haqiqiy ma’noda barkamol shaxsga aylanadi.

Shunday qilib, inson kamoloti - bu bir insonning emas, balki butun bir muhit, oila va jamiyatning birgalikdagi mehnati samarasidir.

Sayimnazar Karimov hayoti va faoliyatida kamolotga intilish, ilmga sadoqat va jamiyat oldidagi mas’uliyat tuyg‘usi uzviy uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. U 1972-yilda o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, nafaqat o‘z tengdoshlari orasida, balki butun jamoatchilik orasida ham iqtidorli va intizomli o‘quvchi sifatida e’tirof etildi. Bu yutuq uning bolalikdan shakllangan mehnatsevarlik, izlanuvchanlik va bilimga chanqoqlik fazilatlarining mantiqiy natijasi edi.

Yillar o‘tsa-da, u o‘z ildizlarini, ta’lim olgan maskanini va ustozlarini unutmadi. Aksincha, u o‘zini tarbiyalagan maktab bilan ma’naviy aloqalarni yanada mustahkamlab, bugungi kunda ham u yerga tez-tez tashrif buyurib turadi. Ayniqsa, uning tashabbusi bilan tashkil etilayotgan “Uch avlod uchrashuvlari” davra suhbatlari o‘ziga xos ma’naviy-ma’rifiy ahamiyat kasb etmoqda. Bu uchrashuvlarda keksa avlod tajribasi, o‘rta avlod faoliyati va yosh avlod orzu-intilishlari o‘zaro uyg‘unlashib, bir butun ma’naviy ko‘prikni hosil qiladi.

Shu bilan birga, Sayimnazar Karimov maktab kutubxonasiga bir qancha qimmatli kitoblar sovg‘a qilgan bo‘lib, ular asosida alohida ma’rifiy burchak tashkil etilgan. Bu burchak faqat kitoblar jamlanmasi emas, balki ilmga muhabbat, ma’rifatga ehtirom va ustozga sadoqat ramziga aylangan. Maktab o‘quvchilari ushbu kitoblardan foydalanar ekan, ular nafaqat bilim oladilar, balki o‘z oldilariga yuksak maqsadlar qo‘ya boshlaydilar.

Ayniqsa, yoshlar qalbida O‘zbekistonga bo‘lgan muhabbat, Vatanga xizmat qilish istagi va buyuk insonlar safidan joy olish orzusi uyg‘onayotgani alohida ahamiyatga ega. Ular Sayimnazar Karimov hayoti va faoliyatini o‘rnak sifatida qabul qilib, o‘z kelajaklarini ham shu yo‘l bilan bog‘lashga intilmoqdalar.

SAYIMNAZAR KARIMOVGA !

O‘ral G‘aybullayev, sinfdosh do‘sti

Ishtixon tumani, Baxrin qishlog‘i

Sayimnazar senga nima desam bo‘lar,

Aynan bugun 70 yoshing borasida

Yigitlikning jo‘shqinligi balki so‘lar,

Iymon, savob kabi hislar orasida.

Men sinfdoshing- cheksiz g‘urur tuyadirman,

Negaki sendayin vafodor do‘st bor

Arazlama do‘stim- chin suyadirman

Zamonaning zayli bo‘lsa hamki tor

Ayniqsa falsafa- bu fanlar shoxi,

Roviylik bashorat, donish mujassam,

******

Kitoblar oshnosi- donishmand asli,

Aynan shu xislatlar senda jamuljam.

Rosti talabalik - oltin davr ekan,

Imkonda ilm olgan insonlar yutar

Mabodo qo‘lga gar kirsa tikan,

Olam- jahon ko‘zlarga tor bo‘lib ketar

Vallomat bir do‘stsan, birdan bir tilak

Guvohlik berurman, dilingdadur “Taborak”,

Ajr- savob ila 70 bahor muborak !!!

II-SHO‘BA. GLOBAL TRANSFORMATSIYALAR DAVRIDA ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB MUAMMOLARI

FALSAFIY VA IQTISODIY KATEGORIYALAR VA ULARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIKLARI

Pardayev Mamayunus Qarshibayevich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Pardayev Obid Mamayunusovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi, PhD

Kategoriya so‘zi voqelikni umumlashtirib ifoda etadigan, bilimni tizimlashtirishga xizmat qiladigan tafakkurda asosiy tushunchalar doirasini belgilaydigan tushuncha. Masalan, falsafada: modda, ong, sabab- oqibat, makon, zamon kabi kategoriyalar qo‘llanilsa, iqtisodiyotda: qiymat, narx, foyda, talab, taklif kabilar qo‘llaniladi. Xuddi shunday mantiqda tushuncha, hukm, xulosa kabi so‘zlar ham shu sohaning kategoriyasi hisoblanadi. Bulardan kelib chiqib, kategoriya so‘zining ta’rifini berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Kategoriya deganda falsafa, mantiq, ilm-fan va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda sodir bo‘ladigan hodisa va jarayonlar, predmetlar yoki tushunchalarning eng umumiy, muhim va barqaror xossalarini ifodalovchi asosiy tushunchalar majmui tushuniladi.

Kategoriyalar inson tafakkurining eng yuqori darajadagi umumiy tushunchalari bo‘lib, ular orqali dunyoni anglash va tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Biz mavzudan kelib chiqib, **falsafiy kategoriyalar**, **iqtisodiy kategoriyalar** yoki **mantiqiy kategoriyalar**ni alohida-alohida misollar bilan qisqacha tushuntirib berishini maqsad qildik. Quyida aynan shu **kategoriyalarini** qisqa va aniq misollar bilan tushuntirib berilmoqda.

Birinchisi, falsafiy kategoriyalar bo‘lib, borliq va tafakkurning eng umumiy qonunlari va munosabatlarini ifodalaydi. Bunday falsafiy kategoriyalarga quyidagilar kiradi. **Modda** - bu obyektiv reallikni ifodalaydi. Navbatdagisi **ong** bo‘lib, bu inson tafakkuri va ruhiy faoliyatini tavsiflaydi. Yana biri **makon** - bu borliqning fazoviy mavjudligi bo‘lsa, **zamon** - borliqning vaqtdagi harakatini anglatadi. Bular qatoriga **sabab va oqibatni** ham kiritish mumkin. Bular turli hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Yana bir kategoriya **mohiyat va hodisa** bo‘lib, bular ichki mazmun va tashqi ko‘rinishni ifoda etadi. Bunga misol

qilib, iqtisodiy inqirozni hodisa, deb olsak bunday sharoitda paydo bo‘lgan ishlab chiqarish muammolarini mohiyat, deb baholash mumkin.

Falsafiy kategoriya mazmuni bevosita falsafada borliq, tafakkur va bilishning eng umumiy, asosiy tomonlari, qonuniyatlari va munosabatlarini ifodalovchi umumlashgan tushunchalar majmui hisoblanadi. Falsafiy kategoriyalar inson tafakkuri orqali voqelikni anglashda qo‘llanadigan eng umumiy aqliy shakllar hisoblanadi va barcha fanlar, shu jumladan iqtisodiyotga oid fanlar uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Falsafiy kategoriyalarning asosiy mazmuni bir qancha yo‘nalishlarda ifodalanadi. Bu quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (1-jadval).

1-jadval

Falsafiy kategoriyalarning asosiy yo‘nalishlari

T/r	Yo‘nalish-larning turlari	Yo‘nalishlar turlarining mazmuni
1.	Umumiylik	Falsafiy kategoriyalar barcha narsa va hodisalarga xos bo‘lgan eng umumiy xususiyatlarni ifodalaydi (masalan, borliq, harakat, makon, zamon).
2.	Obyektivlik	Ular inson ongidan mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan voqelikni aks ettiradi, ammo ong orqali aniq bilinadi.
3.	Metodologik ahamiyatlilik	Falsafiy kategoriyalar ilmiy tadqiqot, tahlil va xulosa chiqarishda yo‘naltiruvchi vosita vazifasini bajaradi.
4.	Tarixiylik	Kategoriyalar mazmuni jamiyat taraqqiyoti, fan va tafakkur rivoji bilan boyib, bular bosqichma-bosqich yoritilib boradi
5.	O‘zaro bog‘liqlik	Falsafiy kategoriyalar yakka holda emas, balki tizim sifatida, bir-biri bilan uzviy aloqada mavjud bo‘ladi. Chunki olamning o‘zi bir-biri bilan bog‘liq yagona tizimdir.

Falsafiy kategoriyalar mazmuni - inson tafakkuri orqali olamni yaxlit, chuqur va nazariy jihatdan anglash imkonini beruvchi asosiy tushunchalar tizimini ifodalaydi. Ular falsafaning nazariy poydevorini tashkil etadi va ilmiy-amaliy bilimlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xullas, falsafiy va iqtisodiy kategoriyalar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlik holda olamni va ularning ayrim qirralarini o‘rganishga qaratilgan tushunchalardan iborat ekan.

Ikkinchisi, iqtisodiy kategoriyalar bo‘lib, bu bevosita ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol jarayonlaridagi umumiy iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Asosiy iqtisodiy kategoriyalarga quyidagilarni misol qilib, keltirish mumkin. Bunga t**alabni** aytish mumkin. Bu iste’molchining ehtiyojini belgilaydi. Yana bir kategoriya **taklif** bo‘lib, ishlab chiqaruvchining imkoniyatilari bilan bog‘liq. Xuddi shuningdek, **narx** ham tovar qiymatini ifodalaydi. **Qiymat** esa, tovarda mujassam bo‘lgan mehnat miqdorining turli o‘lchamlarida (narx, vaqt va h.k.) o‘z ifodasini topadi. Iqtisodiyotda muhim kategoriyalardan biri **foyda**

hisoblanadi. Bu daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq bilan ifodalanadi. Xuddi shuningdek, **raqobat** ya’ni bozordagi kurash ham aynan shu iqtisodiy kategoryalarning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Ushbu kategoriyalar bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liqdir. Masalan, talabning mavjud tovarga nisbatan ortishi narxning o‘sishiga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday bacha kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Shu tufayli masalaga yondoshilganda bir tomonlama qarash mumkin emas. Har bir masalaga keng qamrovli tafakkur va tahlil bilan yondoshishni talab qiladi.

Uchinchisi, mantiqiy kategoriyalar bo‘lib, bu tafakkur shakllari va fikrlash qonunlarini ifodalaydi. Asosiy mantiqiy kategoriyalar bevosita falsafiy va iqtisodiy kategoriyalar singari ma’lum t**ushunchalardan** iborat. Bu predmet haqidagi fikrni ifodalasa, **hukm** tasdiq yoki inkor ma’nolarini anglatadi. Xuddi shu mantiqiy kategoriyalar tarkibida **xulosa** ham mavjud bo‘lib, bu jarayon va hodisalardan yangi fikr chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ushbu guruhga **induksiya** ham kiradi va bu bevosita xususiydan umumiylikka, **deduksiya** esa, umumiydan xususiylikka qarab xulosa chiqarishni anglatadi.

To‘rtinchisi, ilmiy (sohaviy) kategoriyalar ham mavjudligini inobatga olish lozim, deb hisoblaymiz. Bular muayyan fanga xos bo‘lgan kategoriyalar bo‘lib, o‘z ichiga **pedagogikani** oladi. Bu ta’lim, tarbiya, rivojlanish, takomillashish kabilarni qamrab olsa, **sotsiologiyada** ijtimoiy guruh, maqom, rol kabilarni ko‘rish mumkin. Xuddi shunday **boshqaruvga** esa, strategiya, qaror, samaradorlik kabilarni bog‘lash mumkin.

Falsafiy va iqtisodiy kategoriyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik **jamiyat hayotini yaxlit tizim sifatida anglash** orqali namoyon bo‘ladi. Ularning o‘zaro aloqalari quyidagi asosiy jihatlardan iborat (2-jadval).

2-jadval

Falsafiy va iqtisodiy kategoriyalarning o‘zaro bog‘liqliklarining turlari va mazmuni

T/r	**Bog‘liqlik-larning turlari**	**Bog‘liqliklar turlarining mazmuni**
1.	Metodologik bog‘liqlik	Falsafiy kategoriyalar (masalan, **mohiyat- hodisa**, **sabab- oqibat**, **zarurat- tasodif**, **umumiy- xususiy**) iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda **metodologik asos** bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tahlil shu umumfalsafiy tamoyillar orqali chuqurlashadi.
2.	Mazmunan bog‘liqlik	Iqtisodiy kategoriyalar (masalan, **qiymat**, **ishlab chiqarish**, **mulk**, **daromad**, **talab va taklif**) jamiyatning moddiy hayotini aks ettiradi. Bu esa falsafaning **ijtimoiy borliq** haqidagi ta’limoti bilan bevosita bog‘liqlikni ifodalaydi.
3.	Gnoseologik (bilish) bog‘liqlik	Falsafa bilish jarayoni qonunlarini o‘rganadi, iqtisodiyot esa shu bilish usullaridan foydalanib, iqtisodiy voqelikni anglaydi. Masalan,

		abstraksiya, **umumlashtirish**, **tahlil va sintez** ikkalasiga ham xos bo‘lgan kategoriyalardir.
4.	Dialektik bog‘liqlik	Iqtisodiy rivojlanish **dialektik qonunlar** (qarshiliklar birligi va kurashi, miqdordan sifatga o‘tish, inkorni inkor qilish) asosida amalga oshadi. Masalan, bozor iqtisodiyotidagi raqobat va manfaatlar to‘qnashuvi shu qonunlarning iqtisodiy ifodasidir. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy bo‘lsa, manfaatlar ham falsafiy, ham iqtisodiy kategoryalarga xosdir.
5.	Ijtimoiy-amaliy bog‘liqlik	Iqtisodiy siyosat va islohotlar falsafiy dunyoqarashga tayanadi. Inson manfaati, adolat, tenglik, erkinlik kabi falsafiy kategoriyalar iqtisodiy qarorlarni belgilashda muhim rol o‘ynaydi
6.	Tarixiy bog‘liqlik	Falsafiy qarashlar o‘zgarishi bilan iqtisodiy kategoriyalar mazmuni ham o‘zgaradi. Masalan, mulkka bo‘lgan munosabat an'anaviy jamiyat, industrial va postindustrial jamiyatda turlicha talqin qilinadi. Hozirgi innovatsion iqtisodiyot, intellektual mulk kabilarning o‘zgarishi ham falsafiy qarashlarni o‘zgartiradi.

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, falsafiy kategoriyalar iqtisodiy kategoriyalar uchun nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, iqtisodiy kategoriyalar esa falsafiy g‘oyalarning amaliy ifodasi hisoblanadi. Ular bir-birini to‘ldirgan holda jamiyat taraqqiyotini anglashga xizmat qiladi.

Keng qo‘llaniladigan falsafiy kategoriyalarga bir qancha misollarni keltirish mumkin. Bular jumlasiga borliq va ong, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, mazmun va shakl, makon va zamon, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalarni kiritish mumkin. Bularning hammasi barcha fanlar, shu jumladan iqtisodiiyotga oid fanlar uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu fanlarning o‘zaro bog‘liqliklarining asl mohiyati ham shunda.

Xulosa qilib aytganda, kategoriyalar bilimlarni umumlashtiruvchi, tizimlashtiruvchi va anglashga yordam beruvchi asosiy tafakkur vositalari sifatida namoyon bo‘ladigan vositadir. Shu tufayli har bir fan o‘z kategoriyalari orqali voqelikni tahlil qiladi.

MIGRATSIYA JARAYONI EVOLYUSIYASI: TARIXIY VA FALSAFIY TAHLIL

Bozorov Mustafo Jabborovich
Samarqand davlat chet tillar instituti “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi professori, falsafa fanlari nomzodi.

Annotasiya. Maqolada migratsiya jarayonining tarixiy shakllanishi va falsafiy mohiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Migratsiyaning evolyusiyasi qadimgi davrlardan globallashuv davrigacha bo‘lgan bosqichlarda tahlil qilinib, uning madaniyat va ijtimoiy tuzilmalarga ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: jamiyat, ko‘chish, davr, migratsiya, ontologiya, aynanlik, globallashuv, ijtimoiy transformasiya, sivilizasiya, jarayon, makon, zamon.

Migratsiya insoniyat tarixining eng qadimiy va barqaror ijtimoiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. U insonning tabiat, jamiyat va o‘zlik bilan bo‘lgan munosabatlarining dinamik shaklidir. Zamonaviy ijtimoiy fanlarda migratsiya oddiy ko‘chish emas, balki ijtimoiy makonni qayta tashkil etish sifatida qaraladi[1]. Hozirgi davrgacha migratsiya jarayonining faqat iqtisodiy yoki demografik emas, balki falsafiy-ekzistensial mohiyati ham etarli darajada o‘rganilmagan. Shuning uchun uni tarixiy va falsafiy jihatdan yaxlit tizim sifatida tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir[2].

Migratsiyaning tarixiy tadrijiy rivojlanishi quyidagi davrlarga bo‘linadi. 1. Arxetipik davr (paleolit). 2. Agrar sivilizasiya davri. 3. Imperiyalar davri. 4. Industrial davr. Shaharlashuv migratsiyaning asosiy drayveriga aylandi. 5. Postindustrial va global davr.

Insoniyat tarixining eng qadimiy bosqichlari aholining hududiy ko‘chishi jarayoni bo‘lib, u asosan tabiiy sharoit, tirikchilik manbalari va xavfsizlik omillari bilan belgilangan. Ibtidoiy davrda odamlar doimiy yashash joyiga ega bo‘lmaganlar. Ular tabiatga to‘liq bog‘liq holda yashaganlar. Bu davrda ovchilik va terimchilik asosiy tirikchilik usuli bo‘lgan va iqlim o‘zgarishlari (sovuq, qurg‘oqchilik) ko‘chishga majbur qilgan. Ibtidoiy jamiyatda migratsiya asosan tabiiy sharoit, tirikchilik manbalari va xavfsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan. Odamlar doimiy yashash joyiga ega emas edi, ovchilik va terimchilik asosiy iqtisodiy shakl bo‘lgan. Shu sababli migratsiya instinktiv va tabiiy jarayon sifatida namoyon bo‘lgan[1].

[1] Бауман З. Глобализация: последствия для человека и общества. – М.: Весь Мир, 2004. 45-бет.
[2] Castles S., Miller M. The Age of Migration. – London: Palgrave Macmillan, 2014. 61-бет.

[1] Бауман З. Глобализация: последствия для человека и общества. – М.: Весь Мир, 2004. 78-бет.

Ibtidoiy jamiyatda migratsiyani tirikchilik resurslarining cheklanganligi, hayvonlar izidan yurish, iqlimning keskin o‘zgarishi, boshqa guruhlar bilan to‘qnashuvlar kabi omillar belgilagan. Migratsiya ibtidoiy jamiyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatib, aholining yer yuzi bo‘ylab tarqalishiga olib kelgan. U insonning tabiatga moslashuvi va global tarqalish jarayonining boshlang‘ich shakli bo‘lgan.

Antik davrda migratsiya davlatlar, shaharlar va tsivilizasiyalar shakllanishi bilan bog‘liq holda yanada murakkab va uyushgan ko‘rinish kasb etgan. Antik dunyoda eng muhim ko‘chish shakllaridan biri - urushlar bilan bog‘liq migratsiya edi. Bular qavmlar va xalqlarning bosqinlari, imperiyalarning kengayishi, asirlar va qullarni ko‘chirishdan iborat bo‘lgan. Shuning uchun bu jarayonlar demografik va etnik tarkibni keskin o‘zgartirgan. Ayniqsa mustamlakachilik migratsiyasi qadimgi Yunonistonda keng tarqalgan. Natijada aholi yetishmasligi yoki yer tanqisligi sababli yangi shahar-koloniyalar tashkil etilgan, O‘rta Yer dengizi va Qora dengiz atrofida yunon shaharlari barpo etilgan, savdo va madaniy aloqalar kuchaygan. Antik jamiyatning muhim xususiyati shundan iboratki, bu makonda qullik instituti shakllangan. Urushlarda asir olinganlar qul qilib ko‘chirilgan, qullar turli hududlarga tarqatilgan, bu omil majburiy migratsiyaning asosiy shakli bo‘lgan. Bu davrda madaniyatlar aralashuvi va sintezi, shahar tsivilizasiyasining rivoji, texnologiya va bilimlar almashinuvi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi kuzatilgan. Buni ijobiy tomonlar, deb baholash mumkin. Shu bilan birga shu davrdagi salbiy oqibatlarni, ya’ni urushlar va zo‘ravonlik, etnik ziddiyatlar, qullik tizimining kuchayishi, ba’zi xalqlarning yo‘qolishi yoki assimilyasiyasini ham ko‘rsatish mumkin. Antik davrda migratsiya davlatlar, imperiyalar va shahar sivilizasiyalari shakllanishi bilan bog‘liq holda murakkablashdi. Urushlar, bosqinlar va qullik tizimi asosiy omillardan biri bo‘lgan[1]. Shu bilan birga, mustamlakachilik va koloniyalar tashkil etilishi madaniy almashinuv va iqtisodiy integrasiyani kuchaytirgan[2].

Feodalizm davridagi migratsiya bu asosan o‘rta asrlar jamiyatida (Yevropa, qisman Osiyo va yaqin Sharq) aholining feodal munosabatlar, yerga bog‘liqlik va ijtimoiy tuzum ta’sirida hududdan hududga harakatlanish jarayonidir. Bu jamiyatda asosiy resurs yer bo‘lgan. Shu sababli insonning asosiy resurs bo‘lgan yerga bog‘liqligi kuchli edi. Shu tufayli aholi asosan qishloqda yashagan, dehqonlar yerga bog‘liq bo‘lgan.

Feodalizm davrida migratsiyaning quyidagi turlari bo‘lgan. 1. Qishloqdan shaharga migratsiya; 2. Ichki feodal migratsiya; 3. Urush va bosqinlar natijasidagi migratsiya; 4. Diniy va siyosiy migratsiya. Feodalizm davrida migratsiya cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, u asosan iqtisodiy bosim, shaharlarning vujudga kelishi, urushlar va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida sodir bo‘lgan. Feodalizm

[1] Migrations and Cultures in the Ancient World. – Cambridge University Press, 2012. 112 бет.
[2] Migrations and Cultures in the Ancient World. – Cambridge University Press, 2012. 118 бет.

sharoitida migratsiya erga bog‘liqlik va ijtimoiy ierarxiya bilan cheklangan edi. Asosiy shakllar qishloqdan shaharga ko‘chish, urushlar va diniy-siyosiy migratsiyalardan iborat bo‘lgan[1].

Kapitalizm davridagi migratsiya - bu iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog/liq bo‘lgan murakkab tarixiy jarayondir. Kapitalistik tizimning shakllanishi va rivojlanishi mehnat bozori, sanoatlashuv va global iqtisodiy aloqalar orqali aholi harakatchanligini keskin oshirdi. Kapitalizmning shakllanishi bilan migratsiya iqtisodiy mexanizmga aylandi. Sanoat inqilobi qishloqdan shaharga ommaviy ko‘chishni kuchaytirdi. Keyinchalik global mehnat bozori shakllanib, xalqaro migratsiya kuchaydi[2].

Kapitalizmning dastlabki bosqichi (XV- XVIII asrlar)da yerga asoslangan feodal tuzum yemirildi, shaharlar va manufakturalar rivojlandi, qishloq aholisi shaharlarga oqib kela boshladi. Bu jarayon ichki migratsiyaning birinchi katta to‘lqinini yaratdi. XVIII- XIX asrlardagi sanoat inqilobi migratsiyani yangi bosqichga olib chiqdi. Bu davda qishloq xo‘jaligi mexanizasiyalashdi, shaharlarda fabrika va zavodlar ko‘paydi, ishchi kuchiga talab keskin oshdi. Shuning natijasida qishloqdan shaharga ommaviy ko‘chish, Yevropadan Amerika va Avstraliyaga ommaviy emigratsiya kuchaydi.

Zamonaviy global kapitalizm va global migratsiya sharoitida transmilliy kompaniyalar paydo bo‘ldi, ishchi kuchi global bozorga aylandi, bilimli kadrlar migratsiyasi kuchaydi. Hozirgi global kapitalizmning asosiy xususiyatlar tezkor va raqamli migratsiya, legal va nolegal oqimlar, iqtisodiy tengsizlik sababli harakatlanishdir.

Kapitalizm sharoitida migratsiya faqat iqtisodiy jarayon emas, balki insonning erkin harakatlanish huquqi, mehnat qiymatining globallashuvi ijtimoiy tengsizlikning aks etishidir.

Hozirgi davrda migratsiya raqamli texnologiyalar, transmilliy kompaniyalar va global tengsizliklar bilan bog‘liq holda yangi bosqichga chiqdi[3].

Xulosa qilib aytganda kapitalizm davridagi migratsiya - bu sanoatlashuv bilan boshlangan, global iqtisodiyot bilan kuchaygan, hozirgi kunda raqamli va global xarakter olgan jarayondir.

Sotsializm davridagi migratsiya - bu asosan rejali iqtisodiyot, davlat nazorati va markazlashgan mehnat taqsimoti sharoitida kechgan aholi harakati jarayonidir. Sotsialistik tuzumda migratsiya ko‘p hollarda davlat tomonidan boshqarilgan va iqtisodiy rejalarga bo‘ysundirilgan. Sotsializm sharoitida rejali iqtisodiyot va

[1] Фролов С.С. Социология. – М.: Гардарики, 2010. 66-бет.
[2] Castles S., Miller M. The Age of Migration. – London: Palgrave Macmillan, 2014. 140-бет.
[3] Бауман З. Глобализация: последствия для человека и общества. – М.: Весь Мир, 2004. 201 бет.

mehnat migratsiyasi markazlashgan bo‘lib, migratsiya asosan sanoat markazlarini kadrlar bilan ta’minlash, yangi qurilish loyihalari uchun ishchi kuchini jalb qilish bilan bog‘liq ko‘chirishlar orqali amalga oshirilgan.

Sotsializm davrida kuchli ichki migratsiya jarayoni yuz berdi. Bu davrda qishloqdan shaharga ommaviy ko‘chish, sanoat shaharlarining tez o‘sishi, ishchi sinfining shakllanishi sodir bo‘ldi. Sotsializmda migratsiya faqat iqtisodiy emas, balki g‘oyaviy ma’noga ham ega edi. Bu g‘oya “yangi sosialistik inson”ni shakllantirish, millatlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash, umumittifoq mehnat madaniyatini yaratishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Shuning uchun migratsiya ko‘pincha "internasionalizm" g‘oyasi bilan asoslangan.

Sotsializm davrida migratsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari ham mavjud edi. Bu davrdagi tez industriya, ishchi kuchining nisbatan barqaror taqsimlanishi, yangi hududlarni o‘zlashtirish ijobiy ahamiyatga molik edi. Shular bilan birga migratsiyaning salbiy jihatlari ham bo‘lib, bular shaxsiy erkinlikning cheklanishi, majburiy ko‘chirish holatlari, madaniy va ijtimoiy moslashuv muammolari edi.

Sotsializm davridagi migratsiya falsafiy jihatdan quyidagi ziddiyatni: 1.Bir tomondan - jamoaviy manfaat va tenglik g‘oyasini; 2. Ikkinchi tomondan - individual erkinlikning cheklanishini keltirib chiqardi. Bu holat migratsiyani “erkin tanlov” emas, balki "rejali harakat" sifatida namoyon qildi.

Sotsializm davridagi migratsiya davlat tomonidan qat’iy boshqarilgan, sanoatlashuv va rejali iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘lgan, g‘oyaviy va ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilgan jarayondir. Shu davrda migratsiya bozor erkinligiga emas, balki markazlashgan rejalashtirishga tayangan holda shakllangan. Sotsializmda migratsiya asosan davlat tomonidan rejalashtirilgan va nazorat qilingan jarayon bo‘lib, sanoat markazlarini ishchi kuch bilan ta’minlashga qaratilgan edi[1].

Hozirgi davrdagi migratsiya - bu globallashuv, raqamli texnologiyalar va iqtisodiy tengsizliklar sharoitida shakllangan, juda tezkor va ko‘p qirrali aholi harakati jarayonidir. U faqat mehnat migratsiyasi bilan cheklanmay, balki ta’lim, siyosiy, ekologik va hatto raqamli (onlayn ishlash bilan bog‘liq) migratsiya shakllarini ham o‘z ichiga oladi.

Yangi turdagi migratsiya shakllariga quyidagilar kiradi:

1) Mehnat migratsiyasi. Eng ommaviy shakl bo‘lib, iqtisodiy omillarga asoslanadi.

2) Ta’lim migratsiyasi. Yoshlar chet el universitetlariga o‘qish uchun ketmoqda.

[1] Бауман З. Глобализация: последствия для человека и общества. – М.: Весь Мир, 2004. 201 бет.

3) Qochqinlar va siyosiy migratsiya. Urush, beqarorlik va siyosiy zulm sababli ko‘chishlar.

4) Klimat migratsiyasi. Iqlim o‘zgarishi sababli yashash joyini o‘zgartirishdir.

5) Raqamli migratsiya. Internet orqali boshqa davlatda ishlashdan iboratdir.

Globallashuv davrida migratsiya kuchaymoqda. Natijada kapital va ishchi kuchi erkin harakatlanmoqda, transmilliy kompaniyalar paydo bo‘ldi, madaniy almashinuv tezlashdi. Shuning uchun bu jarayonda inson "global ishchi kuchiga" aylanmoqda. Hozirgi davrda migratsiya raqamli texnologiyalar, transmilliy kompaniyalar va global tengsizliklar bilan bog‘liq holda yangi bosqichga chiqdi[1].

Falsafiy nuqtayi nazardan olganda, migratsiya “inson - mehnat resursi”ga aylanishini ko‘rsatadi, global adolat masalasini ochib beradi, madaniy aynanlik transformasiyasini kuchaytiradi. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatmoqdagi, hozirgi migratsiya insonni “fuqaro”dan ko‘ra "global mehnat subyekti"ga aylanish, madaniy o‘xshashlikning aralashuvi, erkinlik va iqtisodiy majburiyat o‘rtasidagi ziddiyat holatiga olib kelmoqda. Shuning uchun hozirgi davrdagi migratsiya global va ko‘p qirrali, iqtisodiy, siyosiy va ekologik sabablarga ega, raqamli texnologiyalar bilan yangi bosqichga chiqqan jarayondir. U inson sivilizasiyasining eng dinamik ijtimoiy jarayonlaridan biri bo‘lib, kelajakda yanada kuchayishi kutilmoqda.

Migratsiya jamiyat rivojlanishining asosiy unsuri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni, balki inson mavjudligining chuqur falsafiy jihatlarini ham aks ettiradi. Migratsiya makon falsafasi bo‘lib, hozirgi davrda u inson mavjudligining fundamental shakli sifatida qaralmoqda. U insonning “bir joyda emas, balki harakatda yashash” mohiyatini ifoda etmoqda. Zamonaviy migratsiya global, raqamli va ko‘p qirrali jarayondir. U mehnat, ta’lim, siyosiy, ekologik va raqamli shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Falsafiy jihatdan bu jarayon insonning "fuqaro"dan "global mehnat subyekti”ga aylanishini ko‘rsatadi.

KORRUPSIYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Xatamov Farxod Faxritdinovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti professori, siyosiy fanlar doktori (DSc)

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiya tushunchasining nazariy-huquqiy mohiyati, uning kelib chiqish omillari hamda jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, korrupsiyaning ijtimoiy munosabatlar tizimiga ta’siri, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch

[1] Massey D. World Migration in the 21st Century. – Oxford University Press, 2016. 201 бет.

mexanizmlarining buzilishiga olib keluvchi omillari yoritilgan. Tadqiqot natijalarida korrupsiya nafaqat huquqiy jinoyat, balki jamiyatning institutsional rivojlanishiga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy madaniyat, davlat boshqaruvi, shaffoflik, ijtimoiy adolat, fuqarolik jamiyati, korrupsiyaga qarshi kurash.

Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan zamonaviy davrda korrupsiya dunyo hamjamiyati oldida turgan eng murakkab va xavfli ijtimoiy-siyosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur hodisa davlat boshqaruvi tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, balki jamiyatda qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchining pasayishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu jihatdan korrupsiya muammosi xalqaro tashkilotlar, hukumatlar hamda ilmiy doiralar tomonidan keng tadqiq etilayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Korrupsiya tushunchasi lotincha *“corruptio”* - “buzilish”, “poraga sotilish”, “inqirozga uchrash” kabi ma’nolarni anglatib, mansab yoki xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo‘lida noqonuniy foydalanishni ifodalaydi[1]. Korrupsiya jamiyatning barcha qatlamlariga kirib boruvchi murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, iqtisodiy taraqqiyotning sekinlashuvi, siyosiy beqarorlik, ijtimoiy tengsizlik va ma’naviy qadriyatlarning yemirilishiga olib keluvchi jarayondir.

Bugungi kunda korrupsiyaning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, poraxo‘rlik, mansab vakolatini suiiste’mol qilish, manfaatlar to‘qnashuvi va tanish-bilishchilik kabi shakllari bilan davlat va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Ayniqsa, korrupsiya natijasida jamiyatda “qonun ustuvorligi” tamoyili zaiflashib, “shaxsiy manfaat ustuvorligi” kuchayishi, bu esa fuqarolarning davlat boshqaruviga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini shakllantirib, ijtimoiy munosabatlarning izdan chiqishiga sabab bo‘lishi tadqiqotlarda isbotlanmoqda[2].

Ilmiy tadqiqotlarda korrupsiya ko‘pincha iqtisodiy yoki huquqiy kategoriya sifatida talqin qilinsa-da, uning ijtimoiy-psixologik va ma’naviy jihatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, korrupsiya jamiyatda halollik, adolat, vijdon va mas’uliyat kabi umuminsoniy qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib keladi. Natijada fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati susayib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik mexanizmlari zaiflashadi.

[1] Коррупцияга қарши курашишнинг маънавий, маърифий ва ҳуқуқий асослари. М.С.Хажиева, Р.Р.Сауров. Тошкент -2021.

[2] Дунёдаги коррупция ва унга қарши курашнинг халқаро стратегияси // В.А.Номоконов. Владивосток, 2004 й. – 106 с.

Umuman olganda korrupsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug‘diruvchi murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Bugungi kunda korrupsiyaning pora olish va pora berish, mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish, xizmat mavqeidan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish, manfaatlar to‘qnashuvi hamda davlat budjeti mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirish kabi shakllari keng tarqalgan. Shu bilan birga, tender va davlat xaridlaridagi noqonuniy holatlar, yashirin iqtisodiyot va noqonuniy moliyaviy operatsiyalar ham korrupsiyaning zamonaviy ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar korrupsiya iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishini namoyon etdi. Xususan, korrupsiya investitsion muhitning jozibadorligini pasaytirib, sog‘lom raqobat tamoyillarini buzishi hamda iqtisodiy resurslarning adolatsiz taqsimlanishiga ham sabab bo‘ladi. Natijada davlat budjeti samaradorligi susayib, ijtimoiy sohalarga ajratiladigan mablag‘larning maqsadsiz sarflanishi kuzatiladi. Bu holat esa aholining turmush darajasi va ijtimoiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari korrupsiya ijtimoiy munosabatlar tizimida tengsizlik, ishonchsizlik va huquqiy nigilizmning kuchayishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Jamiyatda “qonun ustuvorligi” tamoyili o‘rniga “manfaat ustuvorligi”ning shakllanishi fuqarolarning adolatga bo‘lgan ishonchini zaiflashishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar ongida noqonuniy yo‘llar orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin degan salbiy stereotiplarni shakllantirib, jamiyatning ma’naviy barqarorligiga jiddiy tahdid tug‘diradi[1].

Korrupsiya jamiyatda halollik, vijdonlilik, mas’uliyat, adolat va fidoyilik kabi umuminsoniy qadriyatlarning qadrsizlanishiga sabab bo‘ladi. Natijada fuqarolik mas’uliyati susayib, jamiyatda loqaydlik va ijtimoiy befarqlik kayfiyati kuchayadi. Bundan tashqari, tahlillar korrupsiyaning ta’lim, sog‘liqni saqlash, sud-huquq tizimi kabi strategik sohalarda ham salbiy oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatdi. Xususan, ta’lim tizimidagi korrupsion holatlar bilim va malaka mezonlarining buzilishiga, sog‘liqni saqlash tizimidagi noqonuniy manfaatdorlik esa aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu jihatdan korrupsiya nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy muammo, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga tahdid soluvchi keng ko‘lamli ijtimoiy inqiroz omili sifatida baholandi.

Korrupsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi murakkab destruktiv hodisa sifatida ijtimoiy tizimning barcha qatlamlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy jarayonlarga, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy muhitiga, fuqarolarning huquqiy ongiga va davlat institutlariga bo‘lgan ishonch darajasiga ham bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, korrupsiyaning

[1] Н.А.Шермухамедова. Коррупциянинг турлари ва шакллари. Формирование антикоррупционной культуры в республике Казахстан и в странах центральной Азии: состояние, тенденции и перспективы развития посвящяется 20 летию факультета Юриспруденции МО ЮКГУ Казахстана, Шимкент, 2018.

tizimli tus olishi davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytirib, jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarining buzilishiga olib keladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda davlat va fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik zaiflashadi, fuqarolarning siyosiy faolligi pasayadi hamda davlat institutlariga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati shakllanadi. Natijada fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi sekinlashib, demokratik islohotlarning samaradorligi pasayadi. Shu bilan birga, korrupsiya qonun ustuvorligi prinsipining buzilishiga sabab bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarda noqonuniy manfaatlarning ustuvorlashuviga olib keladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat jazolash yoki ma’muriy choralarni qo‘llash yetarli emasligi tadqiqotlar orqali asoslandi. Mazkur jarayon kompleks yondashuvni talab qiladi. Xususan, davlat boshqaruvida raqamlashtirish tizimlarini keng joriy etish, elektron hukumat mexanizmlarini rivojlantirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini kuchaytirish korrupsion holatlarning kamayishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fuqarolik nazoratini rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta’minlash hamda jamoatchilik monitoringini kuchaytirish korrupsiyaga qarshi samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, korrupsiyaning oldini olishda huquqiy madaniyat va ma’naviy tarbiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda halollik, vijdonlilik, mas’uliyat, adolat va qonunga hurmat kabi qadriyatlarni shakllantirish korrupsiyaga qarshi immunitetni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. Korrupsiya iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazadi, ijtimoiy adolat tamoyillarini buzadi hamda davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch munosabatlarini zaiflashtiradi. Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash, fuqarolik nazoratini kuchaytirish hamda aholining huquqiy ong va madaniyatini rivojlantirish ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, yoshlarni halollik va adolat tamoyillari asosida tarbiyalash jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Коррупцияга қарши курашишнинг маънавий, маърифий ва ҳуқуқий асослари. М.С.Хажиева, Р.Р.Сауров. Тошкент -2021.

2. Дунёдаги коррупция ва унга қарши курашнинг халқаро стратегияси // В.А.Номоконов. Владивосток, 2004 й. - 106 с.

3. Н.А.Шермухамедова. Коррупциянинг турлари ва шакллари. Формирование антикоррупционной культуры в республике Казахстан и в

странах центральной Азии: состояние, тенденции и перспективы развития посвящяется 20 летию факультета Юриспруденции МО ЮКГУ Казахстана, Шимкент, 2018. - 67 с.

FEMINIZM VA MIZANDRIYA O‘RTASIDAGI MUNOSABAT: IJTIMOIY TASAVVURLAR VA GENDER DISKURSI

Yazdonova Saxiba Kurbanovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali professor v.b., falsafa fanlari doktori (DSc)
Hamrayeva Gulhayo Shovqiddin qizi,
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, Iqtisodiyot fakulteti, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda feminizm tushunchasining asl mohiyati, uning jamiyatdagi noto‘g‘ri talqinlari hamda erkaklardan nafratlanish bilan bog‘liq noto‘g‘ri stereotiplar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, feminizmning gender tengligi, ayollar huquqlarini himoya qilishdagi o‘rni va uning milliy hamda diniy qadriyatlar bilan uyg‘un jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: feminizm, gender tengligi, misandriya, patriarxat, ayollar huquqlari, ijtimoiy tenglik.

So‘nggi paytarda feminizm omma tomonidan nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilish, balki erkaklardan nafratlanish, ayollarni erkaklardan ustunligi haqidagi ta’limot sifatida qabul qilinayotgan holatlar ham uchramoqda. Ammo, aslidachi, feministlar haqiqatdan ham ommaviy erkaklardan nafratlanishga bo‘lgan chaqiriqlarni ilgari suradimi?

Yurtimizga “feminizm” mafkurasi kirib kelgandan buyon, jamoatchilik tomonidan ham ijobiy, ham salbiy va milliy shuurimizga qarshi targ‘ibot sifatida anchayin nizoli muhokamalarga asos bo‘ldi va bo‘lmoqda. Ehtimol, siz ham bir tushunchaga nisbatan bo‘lyotgan ikki xil, ziddiyatli munosabatni ko‘rib ikkilanayotgandirsiz? Keling, avvalo, feminizm nimaligini tahlil qilshdan boshlaylik. Feminizmning asl ma’nosi nima? U qachon va qayerda, qanday shakllanishni boshlagan? Bu targ‘ibotlarning mazmuni nimada va nima uchun ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda? Feminizm so‘zi lotincha “femina” so‘zidan olingan bo‘lib, “ayol” ma’nosini bildiradi. Feminizm ayollarning haq-huquqlarini, ularning o‘zini himoyalash, ayollarni ijtimoiy tengligi va qadr-qimmatini saqlashni targ‘ib qiladi. Feminizm − har ikki jins vakillarining siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy va ijtimoiy tengligini bir xil darajada ta’minlashga qaratilgan mafkura. Zamonaviy jamiyatni patriarxat, ya’ni erkaklarning huquqlari va nuqtayi

nazari ayollarnikidan ustun qo‘yilishi kabi adolatsizliklarga qarshi siyosiy-ijtimoiy g‘oyalarni ilgari suradi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda uchrayotgan shu mavzuga aloqador bahslardan ko‘rishimiz mumkin-ki, ko‘pchilik feminizm haqida tushunchaga ega emas, yoki noto‘g‘ri xulosalarga kelishgan. Afsuslanarlisi, ushbu mafkura haqida noto‘g‘ri tasavvurlar nafaqat erkaklar, balki ayollarning o‘zida ham salbiy munosabat uyg‘otmoqda. Jumladan, feminizm, gender tengligi va misandrizm kabi turli tushunchalarni adashtirish va ular haqida yetarli ma’lumotga ega emaslik asosiy muammo bo‘lmoqda. Umuman olganda, gender tengligi va feminizm o‘zaro yaqin tushunchalar, lekin ular aynan bir narsa emas. Gender tengligi barcha jins vakillarining ijtimoiy-huquqiy tengligi haqida bo‘lsa, feminizm ayollarning huquqlarini himoya qilish haqidagi mafkuradir. Ya’ni feminizmning erkaklarga umuman aloqasi yo‘q bo‘lib, mavzu markaziga faqat ayollar va ularning huquqlarini himoya qilish chiqariladi. Feminizm o‘z ichiga erkaklarga qaratilgan hech qanday g‘oyalarni olmaydi. Misandrizm esa, ochiq erkaklardan nafratlanishga qaratilgan mafkura bo‘lib, erkaklarni kamsitish, ularni ijtimoiy cheklash, ularga nisbatan tazyiq o‘tkazishni o‘z ichiga oluvchi jinsiy ajratmachilikdir. Misandrizm odatda, mizoginiya (ayollarga nisbatan nafrat)ga qarama-qarshi tushuncha sifatida qaraladi. Ko‘rib turganingizdek, feminizm erkaklarga bo‘lgan nafratlanishdan keskin farq qilib, faqat xotin-qizlarning himoyasi bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, feminizmni turmush qurish va farzand ko‘rishga qarshiligi haqidagi turli noto‘g‘ri xulosa va fikrlar quruq yolg‘on bo‘lib, feminizm hech qachon oilaga qarshi chiqmaydi. Agar biror qiz turmush qurishni o‘zi xohlasa va o‘zini shu bilan baxtli his etsa, feminizm uni qo‘llab-quvvatlaydi. Yoki, u oila qurishni o‘rniga o‘qish, ishlash, karyera qilishni tanlasa, unda ham feminizm uni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Agar oilali ayol farzandli bo‘lishni istasa ham, buni istamasa ham feministlar uni mutlaqo yoqlashadi. Agar ayol kishi ro‘mol o‘rashni istasa feminizm uni to‘g‘ri deb biladi, xuddi kostum-shim yo ko‘ylak, yo zamonaviy uslubda kiyingan birini to‘g‘ri deb bilganidek. Asosiy e’tibor esa, ayol kishini o‘zini qulay, xavfsiz va baxtli his etayaptimi yo‘qmi, shunga qaratiladi. Yuqorida aytib o‘tilgan huquqlar azal-azaldan erkaklarda mavjud bo‘lib, ularga bu imtiyozlar qaysidir din yoki e’tiqod tomonidan emas, aynan patriarxat tizimi bilan bog‘liq ta’limotlar orqali berilgan. Dunyo bo‘ylab ayollarda erkaklarda mavjud bo‘lgan huquqlarning 64%i bor xolos. 54% mamlakatlarda esa hamon zo‘rlash qonuniy “rozilik” asosida ta’riflanmagan[1]. Yana bir bor aytib o‘tish joizki, aslida feminizm erkaklardan nafratlanish yoki ayollarni erkaklardan ustun qo‘yish kabi g‘oyalarni ilgari surmaydi. Feministlar ayollarga nisbatan adolatsizliklar bo‘lishini istashmaydi xolos. Feminizm shunchaki yer

[1] UN Women, "The Gender Snapshot 2022/2023"

yuzidagi barcha ayollar xavfsiz va baxtli bo‘lishi uchun kurashuvchi mafkuradir. Jamiyatimizda feminizmni tushunib-tushunmay “Agar ayol bilan erkak teng bo‘lsa unda nega ayollar ham harbiy xizmat o‘tashmaydi?”, yoki, “Ayollardan erkaklar biologik jihatdan kuchli, ular teng emas” degan e’tirozlar ko‘paymoqda. Shu o‘rinda, 2018-yilda Dubayda o‘tkazilgan “Global Education & Skills Forum”da mashhur Bollivud aktrisasi va feminist hisoblangan Priyanka Chopraga ham shu ma’noda savol beriladi. U esa shunday javob beradi: “Biologik jihatdan ayollar va erkaklar har xil, bu haqida hech qanday bahs yo‘q. Biz tenglik va imkoniyatlar deganda, biz intellektual imkoniyatlar haqida gapiramiz. Biz 90 kgli erkakdan bo‘lib olib kimnidir do‘pposlamoqchimiz demayapmiz. Biz ishga kirishdagi, qayerdadir direktor bo‘lishdagi, hayot yo‘lini o‘zi tanlashdagi kabi bir xil imkoniyatlarni xohlashimiz haqida gapiryapmiz”[1]. Feministlar hech qachon biologik jihatdan ayollar va erkaklar tengligini da’vo qilishmagan. Yuqoridagi holatlar esa, mavzu yuzasidan yetarlicha ma’lumotga ega emaslik va noto‘g‘ri manbalardan o‘rganishdir. Unda feministlar nima uchun bahslashadilar?

Bir haqiqatni ochiqlaylik, feminizm hech qanaqasiga qoralanuvchi g‘oya emas. Chunki, feministik g‘oyalar adolat va insoniylik haqidadir. Buning isboti sifatida, Islom dini o‘z ichiga ko‘plab feministik qarashlarni jamlashini keltirishimiz ham mumkin. Chunki Islom dini ayollarga mulkka egalik qilish, ilm olish, merosga egalik qilish kabi huquqlarni, shuningdek nikohda ayollarning roziligini ham mustahkamlab qo‘ygan bo‘lib, Islomda ayollarga turmush o‘rtoqlaridan mahr so‘rash imkoniyati ham berilgan. Bundan tashqari, Islomda ayollarning ishlashi, tijorat qilishi va topgan pulini o‘zida saqlab qolishi mumkin bo‘lib, uning puli mutlaqo o‘zinikidir. Oilani boqish to‘liq erkaklarning zimmasidadir. Islom dini Arabistonda qiz farzandlarni tiriklayin ko‘mish harakatlarni to‘xtashiga sabab bo‘lgani ham hech birimizga sir emas. Qur’oni Karimda ham insonlar jinsiga qarab emas, balki ularning taqvosi va amallari bilan farqlanishi bir necha bor ta’kidlangan: “Erkakmi yo ayolmi - kimda-kim mo‘min bo‘lgan holida yaxshi amallarni qilsa, Biz unga, albatta, pokiza hayot baxsh eturmiz…”[2]. Ko‘rinadiki, Islom dini hamisha ayol-qizlarni ardoqlovchi va hurmat qiluvchi dindir. Ma’lumki, tarixda Oisha binti Abu Bakr (r.a.) yuksak bilimli olima bo‘lganlar va ko‘plab o‘zlaridek olimalar bilan erkaklarga ta’lim berganlar, yoki payg‘ambarimizning birinchi rafiqalari Hadicha (r.a.) tijorat bilan shug‘illanganlar va o‘sha davrdagi muvaffaqiyatli tadbirkor ayollardan biri bo‘lganlar. Biroq, hozirda, ba’zi-bir hududlarda patriarxat mafkuralari aralashuvi natijasida Islom dinini niqob qilib, ayollarni qadrsizlash va

[1] Global Education & Skills Forum, Dubai, 2018.
[2] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol”. Nahl surasi, 97-oyat. −Toshkent, 2024- yil. «HILOL NASHR» Nashriyot-matbaasi. −3-jild, 256-bet.

ularga zo‘ravonlik qilish, ularning huquqlarini toptash kabi holatlar uchramoqda. Aynan shu kabi holatlarga qarshi kurashish − feminizmning oldiga qo‘ygan bosh masalasidir.

Afsuski, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik kabi holatlar dunyo bo‘ylab pandemiya darajasidagi muammo sifatida ko‘riladi. Dunyo bo‘ylab har uchta ayoldan bittasi hayoti davomida biror shakldagi zo‘ravonlikka uchrar ekan. Albatta, “butun dunyo” deyilganda, bundan mamlakatimiz ham mustasno emas, afsuski. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, feminizmni to‘g‘ri va keng targ‘ib qilishga ehtiyoj bor. Bundan tashqari, oiladagi zo‘ravonlik, ayollarning erlari tomonidan do‘pposlanishi va shu kabi tazyiqlarga uchrashi ham sir emas. Shuningdek, ko‘cha-ko‘yda ayol-qizlarga nisbatan uchrash mumkin bo‘lgan shilqimliklar ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Albatta, jamiyatimizda “uydagi gapni ko‘chaga chiqarish kerak emas”ligi yoki “er uradi-er suyadi” kabi keraksiz streoteplar hali-hanuz saqlanib qolmoqda. Biz, bu bilan milliyligimiz, qadriyat va an’analarimizni yo‘q qilish kerak demayapmiz, ammo ayollarning o‘z turmush o‘rtoqlari tomonidan jiddiy tazyiq va zo‘ravonliklarga uchrashlari ancha jiddiy va ustida ishlashilishi lozim bo‘lgan muammodir. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, biz faqat qizlarimizning kiyim-kechaklari, yurish-turushi-yu so‘zlashlarini tanqid qilamiz, yigitlarning tarbiya-madaniyatiga e’tibor qaratmaymiz. Oramizda, hatto, jinsiy zo‘ravonlikka uchragan qizlarni ko‘chada tungi paytda yurganligi yoki o‘zining qaysidir noto‘g‘ri harakati tufayli o‘sha tajovuzni amalga oshirgan shaxsni e’tiborini tortganlikda ayblovchilar ham topiladi. Ammo qachon aybni faqatgina qizlar kiygan kiyimlarning etaklari uzun-kaltaligidan qidirishni to‘xtatamiz? Ammo kim o‘sha etakka qaraganlarni tarbiyasini ham tanqid qiladi?

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, feminizm bizning qadriyatlarimizga Mutlaq yot − G‘arb davlatlaridan kelib qolgan tushuncha emas. Bizning millatimizda azal-azaldan ayollarni hurmat qilish azaliy qadriyat bo‘lib kelgan, ammo bugun unga teskari bo‘lgan holatlar ham yo‘q emas. Feminizm esa, aynan shu holatlarga qarshi va zamonga moslashgan mafkuradir. Demak feminizm milliy qadriyatlar va oila qurishga qarshilik yoki erkaklardan nafratlanishni emas, faqatgina ayollarning huquqlarini himoya qilish, jamiyatda ularning munosib o‘rnini egallashiga yordam berish bilan shug‘ullanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. UN Women, "The Gender Snapshot 2022/2023"

2. Global Education & Skills Forum, Dubai, 2018.

3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol”. −Toshkent, 2024- yil. −«HILOL NASHR» Nashriyot-matbaasi. −3-jild, −656 b.

MILLIY TURIZM RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA UNING O‘ZBEKISTON XALQARO IMIDJI YUKSALISHIDA TUTGAN O‘RNI

SH.J.Xashimov,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida mamlakatning xalqaro imidjini yuksaltirish, ushbu jarayonni milliy turizm sohasiga ham tatbiq etish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Imidj so‘zi lotin tilidan olingan so‘z bo‘lib, “ko‘rinish”, “qiyofa”, “timsol” degan ma’nolarni anglatadi. Imidj biron bir shaxs, obyekt, predmetning tashqi ko‘rinishi, holatini aks ettiradi. Har sohaning o‘z imidji mavjud bo‘lganidek, O‘zbekistonda milliy turizm rivojlanishining ham o‘z imidji mavjuddir.

Bugungi kunda xalqaro maydonda O‘zbekistonning turizm sohasiga katta e’tibor qaratayotgan, tashqi va ichki turizmni rivojlantirish masalasiga davlat siyosati darajasida munosabat shakllanayotgan davlat sifatidagi imidji shakllantirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasidagi qator masalalar qayta ko‘rib chiqildi. Sayyohlarga viza berish keskin liberallashtirildi. Aeroportlarda navbatlar va tekshirishlarga barham berildi, yashil yo‘laklar tashkil etildi. Mehmonlar elektron ro‘yxatdan o‘tkaziladigan bo‘ldi, ular erkin harakatlanishi uchun hamma sharoitlar yaratildi. Valyuta ayirboshlashga cheklovlar bekor qilindi. Oxirgi yillarda O‘zbekistonga kelayotgan xorijiy turistlar soni ko‘paydi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko‘paytirish, ularga qulay va xavfsiz sharoitlar yaratish maqsadida ko‘pgina shaharlarda ichki ishlar tuzilmalarida xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmalari tashkil etildi.

2022 yil 19-sentabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida Tashqi ishlar vazirligiga “Samarqand - Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi”, targ‘ibot kampaniyasini o‘tkazish, Samarqandga sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”sini tasdiqlash va elchixonalar oldiga xorijiy mamlakatlarda targ‘ibot kampaniyasi, xorijiy ommaviy axborot vositalari, mashhur turistik blogerlar uchun press-turlar tashkil etish vazifasi qo‘yildiki, bularning hammasi O‘zbekistonning turizm sohasida xalqaro imidji yuksalishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmoniga 1-ilovada 35-maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda

respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish”[1]dan iborat deb belgilandi. Shu bilan birgalikda turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat dasturini qabul qilish ko‘rsatildi. Samarqandni “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish rejalashtirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham ushbu masalaga to‘xtalib o‘tilib, “Samarqand shahri dunyo taniydigan megapolisga, xalqaro turizm va biznes markaziga aylanmoqda”[2], deb ta’kidlandi. Yaponiyaning “The Japan Times” gazetasida chop etilgan “Milliy siyosat va savdo munosabatlari barqaror rivojlanmoqda” deb nomlangan maqolada O‘zbekistonda turizm rivojlanishi va unda ommaviy axborot vositalarining tutgan o‘rni masalasi yoritilgan.

O‘zbekiston ulkan turizm salohiyati va g‘oyat boy madaniy-tarixiy merosga ega, - deyiladi ushbu maqolada, - Bu zaminda purviqor tog‘lar bilan o‘ralgan vodiylar va jazirama sahrolar, qadimiy me’moriy obidalari bilan mashhur tarixiy majmualar va zamonaviy megapolislar ajib bir tarzda uyg‘unlashib ketgan. O‘zbekistonda 11 ta milliy tabiiy bog‘lar va davlat qo‘riqxonalari, 12 ta maxsus qo‘riqxona, 106 ta muzey, 37 ta teatr, 187 ta madaniyat va istirohat bog‘i mavjud. ...2018-yilda o‘zbek milliy taomlari “National Geographic” jurnalining “Gastronomik turizm” nominatsiyasida birinchi o‘rinni egalladi, O‘zbekiston ko‘plab xorijiy nashrlar, jumladan, “The New York Times”, “The Guardian”, “Lovely Planet” tomonidan sayohat uchun eng jozibador va qiziqarli yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda[3]. Euronews xalqaro axborot telekanali va Yevropaning boshqa ommaviy axborot vositalarida ham O‘zbekistonning turizmni rivojlantirish sohasidagi imkoniyatlari yoritib borilmoqda. Euronews xalqaro axborot telekanali o‘zining oylik tomoshabinlar qamrovi qariyb 15,2 million kishini tashkil etuvchi “Focus” sahifasida Samarqand turistik markazi zamonaviy kongress-markazi, “Abadiy shahar” tarixiy-etnografik xiyoboni, gashtak (baliq tutish uchun sun’iy ko‘l), musiqali fontan o‘rnatilgan markaziy saylgoh, Eco Village alohida kottejlar majmuasi, xalqaro tasniflangan brendlar ostidagi 8 ta mehmonxonani birlashtirgan ulkan ko‘p tarmoqli majmua, Silk Road Samarkand majmuasi O‘zbekistonga sayyohlar oqimi kelishini kuchaytirishi to‘g‘risida ma’lumot berib, O‘zbekistonning xalqaro imidjining yuksalishida turizmning muhim o‘rin tutishiga o‘z e’tiborini qaratgan.

[1] https://lex.uz/docs/5841063
[2] https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-o’zbekiston-xalqiga-murojaatnomasi
[3] Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон 2020 йил, 300 бет.

O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish jarayonida milliy turizm rivojlanish tendensiyasi va unga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xorijiy va milliy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning yangi qiyofasi, uning obrazi, turizmni rivojlantirish sohasidagi imkoniyatlari, imidjini shakllantirishga qaratilgan xilma-xil maqola, sharh, suhbat va boshqa matbuot ma’lumotlari e’lon qilinmoqda.

O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish, uning turizm sohasidagi imkoniyatlarini targ‘ib qilish jarayonida axborot agentliklari muhim rol o‘ynaydi. Axborot agentliklari auditoriya qamrovi va tarqatilayotgan kontentning salmog‘i, ko‘tarilayotgan mavzularning jiddiyligi bilan boshqa milliy OAV platformalaridan farq qiladi. Shuning uchun O‘zbekistonning milliy turizmini targ‘ib-tashviq qilishda axborot agentliklari, ommaviy axborot vositalari, internet saytlaridan foydalanish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishda, mamlakatimizga chet ellardan kelayotgan sayyohlar oqimini kengaytirishda O‘zbekistonning chet ellardagi elchixonalariga ham katta vazifalar yuklatilmoqda. O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar oqimini kengaytirish bo‘yicha elchixonalarimiz ham faol va tizimli ish olib borishi lozim, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Shuni alohida ta’kidlash joizki, xorijiy turistlarni mamlakatimizga jalb etish yuzasidan elchilarimizning Turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat qo‘mitasi va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda tizimli ravishda qattiq ishlashi talab qilinadi[1]. Jahondagi yetakchi axborot agentliklari bilan hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari tashviqotida ulardan unumli foydalanish mamlakatimizning turizm sohasidagi imidji yuksalishiga olib keladi. O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyati, turizm sohasidagi imkoniyatlaridan so‘zlovchi sifatli media kontentlarni tayyorlash, ularni mavjud barcha kommunikatsiya kanallari orqali jahon auditoriyasiga muntazam tarqatish yaxshi samara beradi. Ana shu maqsadda O‘zbekiston imidjini jahon maydonida ilgari surishni nazarda tutuvchi turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari uchun mamlakatimizning tarixi, zamonaviy taraqqiyoti, sayyohlik salohiyati, madaniyati va san’atiga oid yuqori sifatli foto, video va bosma materiallarni muntazam tayyorlash va yetkazib berish masalasiga ham bugungi kunda katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonning tarixi va zamonaviy taraqqiyoti, madaniyati va san’ati, tarixiy shaharlari, an’ana va urf-odatlari targ‘ib qilingan kitoblar,

[1] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Тошкент, Ўзбекистон 2018 йил, 287-288 бетлар.

ma’lumotnomalar va qo‘llanmalarni xorijda nashr etish masalasiga e’tiborni kuchaytirish zarur bo‘lib, ushbu asarlarning xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o‘tkazish, ularni chet el mamlakatlari parlament, hukumat va ekspert doiralari o‘rtasida tarqatish mamlakatimizning turizm sohasidagi imidjini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston imidjining o‘lchov mezoni sifatida turizmning tutgan o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda. Britaniyalik professor Sh.Akinerning fikriga ko‘ra, “turizm milliy imidjni rivojlantirish mumkin bo‘lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chunki u xorijliklarni mahalliy aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga kiritadi. Natijada ana shu sayyohlar ongida ular tashrif buyurgan jamiyatlar haqida o‘z shaxsiy taassurotlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi”. Britaniyalik olim S.Anholt fikriga ko‘ra, “mamlakat imidjini mustahkamlash jarayonida ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda - boshqaruv, eksport, turizm, madaniyat va meros, investitsiya va imigratsiya, odamlar ham muhim rol o‘ynaydi”[1].

Bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro imidjini shakllantirishda turizm sohasida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan tashqari turli xalqaro formatda o‘tkaziladigan forumlar, anjumanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, madaniy ko‘rgazmalar, sport musobaqalari, etnografik, diniy, ekologik mavzularda o‘tkaziladigan turli tadbirlar muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonning turizmni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari haqida chet el ommaviy axborot vositalarida va mediamakonida muntazam maqolalar chop etish va videokontent uzatish, shuningdek, turizmni rivojlantirish sohasida erishilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib qilish uchun brifinglar, davra suhbatlari, konferensiya va seminarlar o‘tkazish kutilgan natijalarni beradi. Xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imidjini ilgari suradigan xorijiy PR-agentliklari, xalqaro axborot maydonida nufuzli va ta’sirga ega bo‘lgan xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari va yutuqlarini keng targ‘ib-tashviq etish mamlakatimizga keladigan turistlar sonining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy davlatlarda O‘zbekistonning madaniyati va san’atini targ‘ib etuvchi turli festivallar, konferensiya va tadbirlarni o‘tkazish ham o‘zining ijobiy natijasini beradi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlashda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining xalqaro miqyosdagi aloqalari muhim o‘rin tutib, mamlakatimizning turizm sohasidagi imkoniyatlarini targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning ijobiy imidjini faol ilgari surish mexanizmlari va vositalarining milliy turizm bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish, xalqaro maydonda

[1] https://beruniyalimov.uz/archives/986

PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston o‘zining ijobiy imidjini shakllantirish uchun yetarli darajada kuch va salohiyatga ega bo‘lib, turizmni rivojlantirish ushbu sohadagi ijobiy imidjni shakllantirishga tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi.

Turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish, turistik klasterlarni yaratish, sohaga strategik sheriklarni jalb qilish, sayyohlik infratuzilmasi va turizm sanoatini jadal rivojlantirish, hududlarning sayyohlik salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga olib chiqish borasidagi faoliyatimizni jadal rivojlantiramiz[1], - deydi Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda turizmning o‘ziga jalb etuvchi vositasi sifatida axborot bozori ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish, axborot texnologiyalari salohiyatidan samarali foydalanish, milliy turizmni rivojlantirishda reklamadan unumli ravishda foydalanish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Turizm xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha xalqaro global axborot tizimlariga ulanish va lokal servislarni yaratish, internet tarmog‘ida turistik imkoniyatlari haqidagi axborot resurslarini mamlakatimizda kengaytirish zarurdir. O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masala bo‘lib, turizm industriyasini rivojlantirish turistik resurslardan unumli foydalanish va xizmat ko‘rsatadigan infratuzilmani yuqori saviyaga olib chiqishni nazarda tutadi. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishga xizmat qiladi. Turizm tizimi o‘ziga xos xususiyat, maqsad, vazifalar va strukturasiga ega bo‘lib, turizm sistemasiga xos bo‘lgan xususiyatlar bu uning ochiqligi, yaxlitligi, izchilligi va ketma-ketligidir. Turizm tizimi o‘z-o‘zidan rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lib, bu rivojlanish tizimning o‘z-o‘zini saqlash va takomillashishini ta’minlaydi. Turizm tizimining maqsadi mustahkam, ommaviy va raqobatbardosh turizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Turizm jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohalariga ta’sir ko‘rsatib, turizm natijasida mamlakatning ichki salohiyati namoyon etiladi, tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar obod qilinadi, tabiiy landshaft, ekoturizm, agroturizm, etnoturizm, diniy turizm marshrutlari ishlab chiqiladi. Turizm aholini ish bilan ta’minlash, milliy madaniyat, hunarmandchilikning rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanilib, turizm xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2021 йил, 172 бет.

xalqaro global axborot tizimlariga ulanish, lokal servislarni yaratish, internet tarmog‘ida mamlakatning turistik imkoniyatlari xaqidagi axborot resurslarni kengaytirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm rivojlangan xorijiy davlatlarning erishilgan yutuqlari ijodiy tarzda o‘rganilib, O‘zbekistonga chet ellik investorlarning mablag‘lari kiritilmoqda, yangi turizm infratuzilmasini shakllantirishda xorijiy davlatlarning tajribalariga tayanilmoqda. O‘zbekistonda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish aholini ish bilan ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, milliy hunarmandchilik, kasanachilikni rivojlantirish, milliy taomlar, milliy madaniyat, milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosim va bayramlar kabi milliy qadriyatlarni tiklash va yuksaltirish asosida amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda milliy turizm tizimining takomillashib borishi iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayot sohalariga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan subyektlarning innovatsion va kreativ yondashuvi talab etilmoqda.

O‘zbekistonda zamonaviy turizm industriyasini shakllantirish uchun ko‘plab imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, sohani rivojlantirishga kompleks yondashilmoqda, respublikada ko‘plab zamonaviy sayyohlik infratuzilma obyektlari shakllantirilmoqda. Milliy turizmni rivojlantirishda, turizm infratuzilmasini shakllantirishda tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonda milliy turizmni tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida o‘rganishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR:

1. https://lex.uz/docs/5841063

2.https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-o‘zbekiston -xalqiga-murojaatnomasi

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2020 yil, 300 bet.

4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent, O‘zbekiston 2018 yil, 287-288 betlar.

5. https://beruniyalimov.uz/archives/986

9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021 yil, 172 bet.

MAHALLA MA’NAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINING O‘RNI

S.M. Ro‘zimurodov
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d.,(PhD)

Mahallada tibbiy madaniyati, salomatlik uchun mas’uliyat hissi va profilaktika madaniyati shahar joylariga nisbatan past darajada bo‘lishi mumkin. Bizningcha, qishloq aholisini tibbiy hayoti deb bioijtimoiy mavjudot bo‘lgan insoniyat olamining sog‘lig‘ini saqlash, hayotini uzaytirish, kasalliklarning sababini aniqlash va xastaliklarga qarshi kurashish, kelajakda sog‘lom inson naslini vujudga keltirish va tarbiyalash, ularni mehnat kapitalining faol a’zosiga aylantirish uchun faoliyat yuritish orqali uzluksiz tarzda takomillashib boradigan ijtimoiy-tibbiy munosabatlar majmuyiga aytiladi. Demak, mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirishda qishloq tibbiy hayotining muhim xususiyatlari, avvalo, uning ontologik va gnoseologik asoslari bilan belgilanadi. “Salomatlik - bu tananing biologik jihatdan to‘liq, ishlashga qodir bo‘lgan holati, uning barcha tarkibiy qismlari va tizimlarining funksiyalari muvozanatli va og‘riqli ko‘rinishlar mavjud yemas. Salomatlikning asosiy belgisi - organizmning atrof-muhit sharoitlariga, jismoniy va psixo-emotsional stressga moslashish darajasiga ebilan belgilanadi” [1;174-175] Shaxs ma’naviyati bu har bir Vatan farzandining millat ruhidagi o‘tmish haqiqati bilan uyg‘unlik darajasidir. Ushbu uyg‘unlik har bir shaxsda uning Vatanga va millatga bo‘lgan mas'uliyati, mehri orqali namoyon bo‘ladi. Qishloq aholisini tibbiy hayoti sohasini tarkibiy tuzilishini quyidagicha belgilash mumkin: Ontologik jihatdan bu jarayon bioijtimoiy mavjudot bo‘lgan insonning real hayoti, uning jismoniy tanasi hamda ma’naviy olamida sog‘lomlik yoki kasallik holatlarining mavjudligi bilan uzviy bog‘liqdir. Ya’ni, shaxs salomatligi nafaqat biologik, balki ijtimoiy va ma’naviy omillar birligida namoyon bo‘ladi. Gnoseologik jihatdan esa mazkur jarayon insonning o‘z salomatligini anglashga qaratilgan tibbiy ongi va klinik tafakkur tarzi orqali ifodalanadi. Bunda shaxsning sog‘lig‘i haqidagi bilimlari, o‘qigan manbalari, davolanishga doir qarashlari, shuningdek, o‘zgalarga nisbatan ma’naviy-axloqiy munosabatlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois, mahalla miqyosida sog‘lom turmush tarzi va tibbiy madaniyatni yuksaltirish insonning bioijtimoiy mohiyatini chuqur anglash hamda uning tibbiy ongini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim.

Jamiyat tibbiy hayotining tarkibiy tuzilishida sog‘lom va kasal (xasta) odamlar va ular tomonidan sodir etiladigan xatti-harakatlar tufayli yuzaga keladigan tibbiy vaziyat alohida o‘rin egallaydi. Tibbiy vaziyat - bu insonlarning salomatligi yoki kasalliklari tufayli jamiyatda yuzaga kelgan tibbiy jarayon bo‘lib, uni tezlikda

tushunib yetish ijtimoiy guruh, mehnat va xizmat jamoalari, davlat uchun zarurat hisoblanadi. Bunda odamlarining ko‘pchilligi sog‘lom bo‘lsa, jamiyatdagi tibbiy vaziyat yaxshi, barqaro, bordi-yu, turli xil kasalliklarga chalingan odamlar ko‘p bo‘lsa jamiyatdagi tibbiy vaziyat jiddiy va og‘ir - beqaror deb baholanadi. Masalan, koronovirusning butun dunyo mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketishi tufayli jahondagi tibbiy vaziyat yomonlashib ketdi. Ayni vaqtda kasallik barcha qit’alarga tarqalgan. “Qayd etilishicha, 2020-yil yanvar oyidan pandemiya yakunigacha Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida 270 milliondan ortiq kishi COVID-19ni yuqtirib, ularning 2,2 million nafardan ortig‘i xastalik oqibatida hayotdan ko‘z yumdi”[2]. Ushbu misol, birinchi navbatda, jamiyatning tibbiy hayoti mavjudligini isbotlaydi. Uning yomonlashuvi esa mamlakatlarning iqtisodiyotiga, tashqi va ichki siyosatida o‘zining “dahshatli” ta’sirini o‘tkazib, jahonda yangidan yangi inqirozlarni keltirib chiqarishi muqarrar. Masalan, buning tasdig‘ini bugungi kundagi koronavirus pandimediyasi keltirib chiqargan oqibatlari haqidagi quyidagi ma’lumotda ko‘rish mumkin. BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab uch milliard kishi avvalgi daromad miqdorini yo‘qotgan va sog‘lom ovqatlanishga rioya qila olmayapti. Bu esa zararli oziq-ovqatlar, xususan, fastfud iste’mol qilishga sabab bo‘lmoqda.

Jamiyatning tibbiy hayoti mavjud ekan, u holda u tarkibiy tuzilma hamda belgi va xususiyatlariga egadir.

Jamiyatda vujudga kelgan tibbiy hayotning tarkibiy qismlarini, avvalo, u yoki bu darajada biron bir kasallikka chalingan insonlar tashkil qiladi. Masalan, mamlakatimizda 2020-yil 10-sentabr holatiga ko‘ra “COVID-19 “kasalligiga chalinganlar soni - 45000 kishini tashkil qilmoqda. Shuningdek, 2018-yil dekabr, va 2019-yil yanvar oylari e’lon qilingan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tkir ichak infeksiyalari -31800, gripp, yuqori va quyi nafas olish yo‘llarining o‘tkir infeksiyasi -437900, virusli gepatit -31000, ko‘kyo‘tal -119000, qizamiq - 22000 kishi kasallangan[3]. 2019-yil oxiri, 2020-yilning birinchi yarmida mamlakatimizda kasalliklarga chalinganlar soni - 15770761 nafar kishini tashkil etdi[4].

Ikkinchi navbatda, tibbiy hayotning tarkibiy qismlarini shu bemorlarni davolash bilan shug‘ullanuvchi shifokorlar tashkil etadi. “Bugungi kunda ularning soni- 90,1 ming, shundan, terapevtlar- 30,1 ming, nevropotologlar -2,9 ming, stomatologlar -7,9 ming, sanitariya-epidemologiya guruh shifokorlari -5,2 ming nafarni tashkil qiladi. O‘rta tibbiyot xodimlarining umumiy soni esa- 356,7 ming nafar bo‘lib, ular bemorlarni davolash ishida turli darajadagi xizmat ko‘rsatish vazifalarini bajaradilar”[5].

Uchinchi navbatda, aholining bevosita sog‘lig‘ini saqlashni tashkil etish maqsadida tashkil etilgan sog‘liqni saqlash vazirligi va uning joylardagi boshqaruv organlari xizmatchilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari tadqiqotchilari, shuningdek,

tibbiyot sohasida ta’lim-tarbiya olayotgan talaba yoshlar ham shular jumlasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PQ-4055-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga ko‘ra SSV gi zimmasiga: aholiga sifatli va o‘z vaqtida tibbiy xizmatlar ko‘rsatishni joriy qilish; jamiyatda insonlar salomatligini saqlash ustuvorligini, kasalliklarni profilaktika qilish; sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; sog‘lom avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash hamda aholining sog‘lom turmush darajasini oshirish kabi bir qancha vazifalar yuklatilgan va ijtimoiy faoliyat yo‘nalishi etib belgilangan.

To‘rtinchi navbatda esa, o‘zining sog‘lig‘i darajasini bilish, har xil kasalliklarning oldini olish maqsadida sog‘liqni saqlash muassasalariga murojaat qilgan fuqarolar kiradi. Masalan, mamlakatimizda mavjud bo‘lgan 817 ta qishloq vrachlik punktlariga 23484,3 nafar, 5631 ta ambulator tez-tibbiy yordam punktlariga esa 298446,6 kishi murojaat qilgan[5]. Odamlar bor ekan, ular o‘zlarining sog‘lig‘i, bolalari, nabiralari, qarindoshlarining sog‘lig‘i haqida qayg‘uradilar.

Qishloq aholisini tibbiy hayoti sohasini tarkibiy tuzilishini quyidagicha belgilash mumkin:

birinchidan, aholining demografik holati bo‘yicha: ko‘chib ketganlar va ko‘chib kelganlar, tug‘ilganlar va vafot etganlar; yoshlari bo‘yicha: chaqaloqlar, go‘daklar, bolalar, yigit-qizlar, o‘rta yoshdagilar, keksalar va qariyalar, erkaklar va ayollar;

ikkinchidan, aholi sog‘lig‘ining holati bo‘yicha: sog‘lomlar va nosog‘lomlar; yuqumsiz va yuqumli kasalliklarga chalinganlar; yengil, o‘rtacha, o‘rtacha og‘ir, o‘ta og‘ir kasalliklarga chalinganlar;

uchinchidan, tibbiyot tashkilotlarining tarmoqlari va faoliyatlari, ulardagi ishchi xodimlardan foydalanish bo‘yicha: sog‘liqni saqlash tizimi xodimlari va tashkilotlari, tibbiyot xodimlarining sohalar bo‘yicha taqsimlanishi, tibbiyot xodimlarining shaharlar, qishloqlar, viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi;

to‘rtinchidan, aholining salomatligini saqlash bo‘yicha ajratilayotgan mablag‘lar va ularning sarf-xarajatlari bo‘yicha: shifokorlarning malakasiga qarab berilayotgan oylik maoshi va ustamalar, bitta bemorni davolash uchun ajratilgan mablag‘lar (pul, oziq-ovqat, dori-darmonlar), ilmiy-tadqiqot ishlari loyihalarini moliyalashtirish; xorijlik shifokorlar bilan tajriba almashish uchun sarflanadigan xarajatlar, sog‘liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini yangilash uchun sarflanayotgan mablag‘lar va shu kabilarga bo‘lib tasniflash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mahallalarda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish va tibbiy madaniyatni yuksaltirish ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon aholi

salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish hamda jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga bevosita xizmat qiladi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzi va tibbiy madaniyatni shakllantirish oila, mahalla institutlari, tibbiyot xodimlari hamda tegishli davlat tashkilotlarining uzviy hamkorligi asosida samarali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мазманян Т. Р. Здоровье человека как ценность и факторы, его определяющие: сборник трудов конференции// Педагогика и психология: перспективы развития : материалы III Всерос. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 21 дек. 2022 г.) / редкол.: О. Н. Широков [и др.] - Чебоксары: Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2022. - С. 174-175.
2. https://ssv.uz/uz/news/zhsst-insonijat-koronavirus-bilan-enma-en-jashashga-odatlanishi-kerak
3. http://web.stat.uz/open_data/uz/16.11%20Morbidity%20of%20the%20population%20by%20infectious_uzb.pdft
4. https://www.minzdrav.uz/uz/services/stats/
5. https://www.minzdrav.uz/uz/services/stats/
6. https://www.minzdrav.uz/uz/services/stats/detail/3275/

YANGI O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich,
University of Business and Science Toshkent filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD).
FarDU (DSc) mustaqil tadqiqotchi b.absattorov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda raqamli ma’naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar sharoitida ma’naviy qadriyatlarning transformatsiyasi, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy ongga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, raqamli ma’naviyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda jamiyat barqarorligidagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ma’naviyat, Yangi O‘zbekiston, raqamli jamiyat, ma’naviy qadriyatlar, axloq, transformatsiya, texnologiya, ijtimoiy ong, taraqqiyot, falsafa.

Raqamli ma’naviyat tushunchasi zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida ma’naviy

hayotning yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishini ifodalaydi. Ushbu tushuncha “insonning axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi, madaniy identifikatsiyasi va ijtimoiy mas’uliyati raqamli makon sharoitida qanday shakllanishi va namoyon bo‘lishini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi”[1]. Raqamli ma’naviyat, avvalo, an’anaviy ma’naviy qadriyatlarning inkori emas, balki ularning yangi texnologik muhitda transformatsiyasi va moslashuvi sifatida talqin etiladi.

Raqamli ma’naviyatning nazariy asoslari bir necha falsafiy va ijtimoiy-gumanitar yondashuvlarga tayanadi. Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan raqamli jamiyat nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. “Raqamli texnologiyalar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, muloqot shakllari va qadriyatlar tizimini tubdan o‘zgartiradi. Ma’naviy me’yorlar ham virtual makon qonuniyatlari asosida qayta shakllanadi. Mas’uliyat, vijdon, erkinlik va nazorat tushunchalari raqamli muhitda yangi mazmun kasb etadi”[2]. Axloq falsafasi raqamli ma’naviyatning muhim nazariy tayanchidir. Raqamli muhitda shaxsning xulq-atvori ko‘pincha anonimlik, tezkorlik va chegarasizlik bilan tavsiflanadi. Bu esa axloqiy tanlov va javobgarlik masalasini murakkablashtiradi. Raqamli ma’naviyat nazariyasi ana shu sharoitda axloqiy me’yorlarni saqlash, raqamli etikani shakllantirish va shaxsning o‘zini o‘zi nazorat qilish mexanizmlarini asoslab beradi.

Madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyalari ham raqamli ma’naviyat tushunchasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Raqamli makon global madaniy almashinuvni tezlashtiradi, bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. “Raqamli ma’naviyat milliy madaniy identitetni saqlagan holda ochiqlik va bag‘rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan nazariy model sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik va ma’rifiy yondashuvlar raqamli ma’naviyatning amaliy asoslarini belgilaydi. Raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyati shaxsning raqamli muhitda ma’naviy barkamolligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida qaraladi”[3]. Bu jarayonda ta’lim tizimi raqamli ma’naviyatni shakllantirishning yetakchi instituti bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli ma’naviyat tushunchasining nazariy asoslari ijtimoiy falsafa, axloq falsafasi, madaniyatshunoslik va pedagogika yondashuvlarining uzviy uyg‘unligiga tayanadi. U zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida shaxs va jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan konseptual asos bo‘lib, an’anaviy qadriyatlarni yangi texnologik voqelik bilan muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi.

Yangi O‘zbekistonda raqamli ma’naviyat jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lib, raqamli texnologiyalarning davlat boshqaruvi, ta’lim, madaniyat va ijtimoiy muloqot sohalariga jadal kirib kelishi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Shu jarayonda raqamli makonda ma’naviy qadriyatlarni

asrash, ularni zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotning muhim shartiga aylandi. Raqamli ma’naviyatning ijtimoiy ahamiyati, avvalo, fuqarolik ongini shakllantirish bilan bog‘liq. Elektron platformalar orqali axborot olish va tarqatish imkoniyatlarining kengayishi aholining ijtimoiy faolligini oshiradi. Biroq bu faollik mas’uliyat va axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashmaganda ijtimoiy ziddiyatlar va axborot xavfsizligi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois raqamli ma’naviyat shaxsda tanqidiy fikrlash, axborotga ongli munosabat va ijtimoiy javobgarlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekistonda raqamli ma’naviyat milliy qadriyatlarni asrash va targ‘ib etishda ham muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Raqamli platformalar orqali tarixiy meros, urf-odatlar va ma’naviy an’analar keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Yosh avlodning milliy o‘zligini anglashini kuchaytirib, globallashuv sharoitida madaniy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli muhit ochiqlik va bag‘rikenglikni rivojlantirib, turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida muloqotni mustahkamlaydi”[4]. Raqamli ma’naviyatning yana bir ijtimoiy ahamiyati ijtimoiy adolat va inklyuzivlikni ta’minlash bilan bog‘liq. Raqamli xizmatlardan teng foydalanish imkoniyati aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytiradi, ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi. Raqamli ma’naviyat Yangi O‘zbekistonda zamonaviy jamiyatni ma’naviy jihatdan uyg‘un va barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy omil sifatida shakllanadi.

Raqamli ma’naviyatni shakllantirish zamonaviy jamiyatda chuqur o‘ylangan va uzoq muddatli strategik yondashuvni talab etadi. Bu jarayon texnologik taraqqiyot bilan ma’naviy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining uyg‘unligini ko‘zda tutadi. Raqamli makon tobora kengayib borayotgan bir sharoitda ma’naviy barqarorlikni saqlash strategik vazifa sifatida namoyon bo‘lishiga olib keldi. Raqamli ma’naviyatni shakllantirishdagi asosiy strategik yo‘nalishlardan biri raqamli savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishdir. Shaxsning raqamli muhitda ongli harakat qilishi, axborotni tanqidiy tahlil qila olishi va soxta yoki zararli kontentni farqlay bilishi ma’naviy xavfsizlikning muhim omili hisoblanadi. Shu bois ta’lim tizimida raqamli kompetensiyalar bilan bir qatorda axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Strategik jihatdan raqamli axloqni institutsional darajada rivojlantirish bilan bog‘liq. Raqamli platformalarda xulq-atvor me’yorlarini belgilovchi axloqiy kodekslar, huquqiy va ma’naviy mexanizmlar shaxs erkinligini cheklamasdan, uning mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qilishi lozim. Bu yo‘nalish shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, onlayn muloqot madaniyatini yuksaltirish va kiberzo‘ravonlikning oldini olish kabi masalalarni qamrab oladi. Strategik yo‘nalish sifatida, milliy ma’naviy qadriyatlarni raqamli makonda faol targ‘ib etishdir.

Raqamli platformalar orqali milliy tarix, madaniyat va an’analarni zamonaviy formatlarda taqdim etish yosh avlodning ma’naviy o‘zligini mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayonda innovatsion media mahsulotlar, raqamli ta’lim resurslari va madaniy loyihalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy hamkorlik va fuqarolik faolligini kuchaytirish bilan bog‘liq. Davlat, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligi raqamli ma’naviyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu hamkorlik orqali jamiyatda mas’uliyatli raqamli xulq-atvor me’yorlari mustahkamlanadi. Raqamli ma’naviyatni shakllantirishdagi strategik yo‘nalishlar ta’lim, axloq, madaniyat va ijtimoiy hamkorlikning uzviy birligiga asoslanadi. Ular zamonaviy texnologiyalar sharoitida jamiyatning ma’naviy barqarorligi va ijtimoiy uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Raqamli ma’naviyatning rivojlanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borishi natijasida ma’naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy munosabatlar yangi raqamli makon sharoitida qayta shakllandi. Bu jarayon jamiyatning texnologik yangilanishi bilan bir qatorda, insonning ma’naviy o‘zini anglashini ham yangi bosqichga zamin yaratdi. Raqamli ma’naviyatning rivojlanishi, avvalo, raqamli muloqot shakllarining kengayishi bilan bevosita bog‘liq. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va virtual jamoalar shaxslararo aloqalarni jadallashtirib, axborot almashinuvini tezlashtirdi. Shu bilan birga, bu holat insoniy munosabatlarda mas’uliyat, hurmat va bag‘rikenglik kabi axloqiy tamoyillarning raqamli shaklda namoyon bo‘lishiga olib keldi. Raqamli ma’naviyat ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, onlayn xulq-atvor madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli ma’naviyat rivojida ta’lim va tarbiya tizimi alohida o‘rin tutadi. Raqamli ta’lim resurslari va masofaviy o‘qitish imkoniyatlari bilim olish jarayonini demokratlashtirib, ma’naviy-ma’rifiy kontentga keng kirish imkonini yaratmoqda. Biroq raqamli makonda axborotning haddan tashqari ko‘pligi shaxsdan tanqidiy fikrlash va ongli tanlovni talab qiladi. Shu sababli raqamli ma’naviyatning rivoji ta’lim orqali axborot madaniyati va axloqiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. “Raqamli ma’naviyatning rivojlanishi globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga ham qaratilgan. Raqamli makon turli madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirar ekan, milliy ma’naviy merosni zamonaviy texnologiyalar orqali saqlash va targ‘ib etish muhim vazifaga aylanadi”[5]. Bu jarayon yosh avlodning ma’naviy o‘zligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli ma’naviyatning rivojlanishi texnologik taraqqiyot va ma’naviy ehtiyojlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasidir. U jamiyatda

axloqiy barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va madaniy uzviylikni ta’minlash orqali zamonaviy raqamli jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlaydi.

Raqamli ma’naviyatning shakllanish jarayoni zamonaviy jamiyatda murakkab va ziddiyatli muammolar bilan shakllandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi shaxs va jamiyat ma’naviy hayotiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavf-xatarlarni ham olib kirmoqda. Ushbu jarayonda asosiy muammo texnologik taraqqiyot bilan ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi nomutanosiblikda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy muammolardan biri raqamli makonda axborotning haddan tashqari ko‘pligi va sifatsizligi bilan bog‘liq. Soxta axborot, manipulyativ kontent va ekstremistik g‘oyalar shaxs ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ma’naviy barqarorlikni izdan chiqaradi. Axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmagani raqamli ma’naviyatning to‘laqonli rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Yana bir muhim muammo raqamli anonimlik va mas’uliyatsizlikdir. Virtual makonda shaxsiy identifikatsiyaning nisbatan yashirin bo‘lishi ayrim hollarda axloqiy me’yorlarning buzilishiga, kiberzo‘ravonlik, haqorat va tajovuzkor xatti-harakatlarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Bu holat shaxsning vijdoniy nazorati va ijtimoiy javobgarligini zaiflashtirib, raqamli muhitda axloqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltiradi.

Raqamli ma’naviyat shakllanishidagi yana bir muammo avlodlar o‘rtasidagi tafovut bilan bog‘liq. “Yoshlar raqamli texnologiyalarni tez va faol o‘zlashtirar ekan, katta avlod vakillarining moslashuvi sekin kechayotganligi bilan xarakterlanadi. Bu holat ma’naviy muloqot uzilishiga, qadriyatlar uzviyligining susayishi xavfini yuzaga keltiradi. Raqamli makonda yagona ma’naviy mezonlarni shakllantirish murakkablashadi”[6]. Globallashuv va madaniy standartlashuv jarayoni milliy ma’naviy qadriyatlarning siqib chiqarilish ehtimolini vujudga keltiradi. Raqamli platformalarda ustuvor bo‘lgan ommaviy madaniyat ko‘pincha mahalliy an’analar va axloqiy me’yorlarni ikkinchi darajaga suradi. Bu esa shaxsning milliy o‘zligini anglashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ma’naviyatning shakllanish jarayonidagi zamonaviy muammolar axborot sifati, axloqiy mas’uliyat, avlodlar uzviyligi va madaniy identitet bilan bog‘liq murakkab masalalarni qamrab oladi. Ushbu muammolarni hal etish raqamli savodxonlikni oshirish, axloqiy tarbiyani kuchaytirish va milliy ma’naviy qadriyatlarni raqamli makonda faol qo‘llab-quvvatlashni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zohidov A. Texnologik taraqqiyot va inson qadri. // “Falsafa va hayot” №.3. 2023. - B.118.
2. Ubaydullayev O.U. Raqamli vositalarning ijtimoiy rivojlanishdagi roli. // Ta’limning Zamonaviy Transformatsiyasi, 19(4), 2025. - B.51.
3. Rustamov I. (2025). Raqamli dunyoda shaxs ma’naviy xavfsizligi. Research and Implementation, 3(10), 2025. - 404.
4. Abdullayev J.B. Raqamli madaniyat va milliy qadriyatlar // Falsafa va huquq. - 2022. - N:2. - B.46.
5. Xakimov A.O. Globallashuv sharoitida milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrash muammosi. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. № 6. 2024. - B.36.
6. O‘ktamova D. Raqamli jamiyatda yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirish ijtimoiy tamoyillari. // Молодые ученые, 3(28), 2025. - B.52.

O‘ZBEKISTONDA BUYUK IPAK YO‘LI TRANSKOMMUNIKASIYASINING GLOBAL-IJTIMOIY MADANIY TARAQQIYOTI

Mirzayeva Moxira Kurbanovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi,
Raximova Dilshoda,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotasiya: Maqolada sharq mutafakkir allomalari ilmiy merosining Ipak yo‘li mamlakatlari ijtimoiy taraqqiyoti va dunyo ilmu faniga qo‘shgan hissasi ilmiy falsafiy tahlil qilinib, jahon tamadduni rivojida ipak yo‘lining roli ochib beriladi. Bundan tashqari O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida Ipak yo‘li transkommunikasiyasi va axborotlashuv asosiy rivojlantiruvchi kuch sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Buyuk Ipak yo‘li, sharq, g‘arb, ilm-fan, din, ma’naviyat, mutafakkir olimlar, ijtimoiy-madaniy aloqalar, taraqqiyot, Baytul hikma, inson ma’naviy kamoloti.

Bizga ma’lumki mamlakatimizning ijtimoiy ma’naviy taraqqiyoti va integrasiyalashuvi jarayonida «Buyuk Ipak yo‘li» an’analarining tiklanishi va rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etib, jahon madaniyati tizimiga munosib hissa qo‘shdi. Darhaqiqat Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turgan «Ipak yo‘li» O‘zbekiston

hududi orqali o‘tgan, bu yerda savdo yo‘llari tutashgan, tashqi aloqalar va turli madaniyatlar bog‘lanib bir-birini boyitgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Osiyoni bog‘laydigan bu yo‘llar mamlakatimiz, qolaversa Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy ma’naviy aloqalarida yanada takomillashib, ahamiyati oshib bormokda. Ijtimoiy-manaviy aloqalarni yuksalishida esa islomiy qadriyatlar - Qur’onu-Karim, hadislar va shariatning asosi - fiqhning o‘rni beqiyos bo‘lib, komil inson tarbiyasida, adolat mezonini o‘rnatishda, insonparvarlik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, insonlar o‘rtasida hurmat-ehtirom, hamjihatlikka da’vat etuvchi g‘oyalar va an’analarni yoyilishida dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu g‘oya va an’analar Ipak yo‘li xalqlari orasida Imom Ismoil Buxoriy, Hakim at-Termiziy, faqih Burhoniddin Marg‘inoniylarning xizmati tufayli yoyildi.

Darhaqiqat Qur’on, hadis va shariat ahkomlari o‘zining insonparvarlik, adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik va har bir mo‘min-musulmon insofli, diyonatli bo‘lishi, birovning haqiga xiyonat qilmasligi, vatanni himoya qilishi zarurligi kabi yuksak axloqiylikka da’vat etuvchi g‘oyalari bilan dunyo xalqlari ma’naviy hayotini yuksaltirib, barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi va hozirda ham shunday.

Shu bois Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Samarqand viloyatiga safari jarayonida Imom Buxoriy maqbarasiga tashrif buyurib, Imom Buxoriy majmuasi qoshidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi qurilishi loyihasi bilan tanishdi[1]. Bundan avval davlatimiz rahbari Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi ochilish marosimida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida shunday markazni ochish taklifi bilan chiqqan edi.

Chunki, islom va shariatning Qur’ondan keyingi ishonchli manbai bo‘lgan hadislarda insonlarni ezgulikka, mehr-shafqatga, hamjihatlikka, bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishga da’vat etuvchi ma’naviy ahamiyatga molik g‘oyalar mavjuddir. Chunonchi, Abu Iso at-Termiziyning hadislarida insonlarning bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishga chorlaydigan ajoyib fikrlari bayon etilgan: «Bir-biringizning orangizni buzmang, bir-biringizni orqangizdan ayb qidirmang, bir-biringizni yomon ko‘rmang, bir-biringizga hasad qilmang»[2]. Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») nomli asarida ham kishilarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiruvchi hadislar ko‘p bo‘lib, masalan, 220-hadisda “Bu dunyoda yaxshilik qilgan kishilar oxiratda yaxshilikka erishadilar va shariatda yomonlik deb sanalgan ishlarni qiluvchilar esa oxiratda yomonlikka duchor bo‘ladilar”[3]- deyiladi. Shu bois mamlakatimiz rahbari Imom Buxoriy majmuasi qoshidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, “Imom Buxoriy

[1] “Газета.uz” сайти 2018 й 14 апрель

[2] А.Мансуров, У.Жўраев, М.Лафасов, Ҳадис илми сабоқлари. – Т.: F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – Б.22

[3] Имом Исмоил ал-Бухорий. Ал-Адаб ал-Муфрад (Адаб дурдоналари) – Т.: “Ўзбекистон”, . 1990. – Б.76.

va boshqa mutafakkir allomalarimizning bebaho ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish, mamlakatimiz va xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalarning elektron nusxalarini to'plash, ularni xalqimiz va jahon jamoatchiligiga xolisona yetkazish bilan shug'ullanishini"[1] alohida ta'kidladi.

Chunki, islomiy qadriyatlar tizimida diniy-falsafiy tafakkurning o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan tasavvuf ta'limotining asoschilari, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Abduholiq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband kabi mutasavviflar va tariqat asoschilarining ham qarashlari alohida ahamiyat kasb etib, ijtimoiy-axloqiy, insonning ma'naviy kamoloti masalalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu muammo bugungi kunda juda dolzarb bo'lib, Rossiya, Qozog'iston va Arab davlatlari olimlarining ishlari ham e'tiborga molikdir[2]. Masalan barkamol inson masalasini islom manbalari asosida talqin qilgan olimlardan Xurshid Ahmad o'z asarida diniy manbalarga asoslanib, shunday deb yozadi: «Islom individuallik bilan jamoalik o'rtasida tenglikni yaratadi». Islom ta'limoti inson, jamiyat va davlat oldida o'z individuallik holatini yo'qotadi degan fikrni rad etadi. Bu fikrlarni Qur'oni Karimning oyatlari bilan isbotlashga harakat qiladi: «Insonga faqat o'zi qilgan harakatigina (mansub) bo'lur» (53:39). «(Ey insonlar), sizlarga ne musibat yetsa, bas o'z qo'llaringiz qilgan narsa (gunoh) sabablidir». (42:30). Bundan tashqari islomda ulkan mafkuraviy va g'oyaviy ahamiyatga ega bo'lgan diniy bag'rikenglik va xalqlararo hamjihatlik g'oyalarining aqidaviy va huquqiy asoslarini falsafiy mazmun bilan boyitgan diyorimizdan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa mutafakkirlar barkamol insonnni tarbiyalash borasida, urf-odatlarimizga xos ma'rifat va axloq qoidalarini ma'naviy meros qilib qoldirdilar. Hozirda ushbu ma'naviy merosni o'rganish nihoyatda dolzarbdir. Shu bois davlatimiz rahbari bu haqda quyidagi fikrlarni bildirdi. "Poytaxtimizdagi Hazrati Imom majmuasi hududida Islom taraqqiyot markazini tashkil etmoqchimiz. Ushbu maskanda ham Imom Buxoriy xalqaro markazi kabi xalqimiz, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitishga, buyuk ajdodlarimiz islom ta'limotiga beqiyos hissa qo'shganini aniq misollar bilan ko'rsatish kerak". Chunki, komil inson haqidagi ta'limot so'fiy faylasuf Ibn al-Arabiy tomonidan yaratilgan bo'lsada, keyinchalik uning izdoshlari o'rta Osiyolik Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Aziziddin Nasafiy Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar tomonidan komil inson -

[1] "Газета.uz" сайти 2018 й 14 апрель

[2]Донцов В.Е. Ислам основные принципы и сущность-М.: Дипломатический ежигодник, «Научная книга». 1997. – С.62-89; «Духовное здоровье личности-залог благополучия общества»; http://www/ orthodox/Kz/article/Php? Razd=18.Id=269, материалы заседание постоянно действующего Совещания при акинер. Повладара-2004 г. 21-января; Салих Тамиев. Имам аль-Бухари. http://www.islamhanse/orq/ru/modules.php?name=News file=articles si sid=118;

odamzot orzu qilgan jamiyki ezgu xislatlarning ifodachisi, u go‘yo mutloq illoh bilan insoniyat o‘rtasida vosita bo‘luvchi xilqat ekanligini asoslab berganlar. Masalan, A.Nasafiyning ta’kidlashicha, «Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytaylik: bilgilki, komil inson shunday insondirki, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorifdir»[1].

Bundan tashqari Bahouddin Naqshband tomonidan o‘rtaga tashlangan «Dil ba yoru, dast ba kor» shiorining ijtimoiy - ma’naviy va axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati shunchalik beqiyoski, unga ko‘ra: Inson Alloh yaratgan mavjudotlarning eng sharaflisi va a’losi bo‘lib, Alloh insonga aql, besh sezgi, shuur, iroda bergan, sa’y-harakat, baxt-saodatga eltuvchi yurak berib, uni ezgulikka da’vat etadi, ya’ni bunda dil Alloh makoni ekanligi, inson o‘z hayotida eng og‘ir musibatlar chog‘ida ham o‘zini yo‘qotmay, insonlik sha’nini yuksak tutib yashashi, hur va go‘zal inson bo‘lishi zarurligi, insonning hayotdan, o‘zini buyuk zot - inson ekanligidan, Alloh bergan ne’matlardan roziligi, Bu shior bizni Alloh haqu, aql-insof, ezgulik yo‘liga da’vat qilinishi, inson hayotidan murod aql-insofni ro‘yobga chiqarish, saodatga erishish ekanligini, kishi qalbida Alloh bo‘lishi, yaratgan ojiz bandasini har qanday salbiy o‘y-hayol, fikr, xatti-harakatlar va faoliyatdan qaytarib turishi, Alloh hayotdagi haqiqatsevar, adolatli, ezgulik yo‘lida yurgan har bir bandasini o‘z karami bilan mukofotlashini ifodalaydi va «Dil ba yoru dast ba kor» da asosiy g‘oya-inson qalbi muttasil Alloh yodi bilan, inson qo‘li, amaliyoti esa, ijtimoiy foydali mehnat, kasb-hunar bilan band bo‘lmog‘i ta’kidlanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Naqshbandiy ta’limoti tasavvufdagi komil insonni tarbiyalash yo‘llari ichida eng mukammalligi bilan ajralib turadi. Islom falsafasi komil inson tahlilida Qur’oni Karim va payg‘ambar (s.a.v) ning sunnatlariga asoslanib, Kalom falsafasi aql kuchiga, mu’taziliylar insonda iroda erkinligini ta’minlashga e’tiborni qaratganlar. Tasavvufda inson, «Men» dan ozod bo‘lib, ichki hissiyotlar orqali Allohga yaqinlashish, buning uchun to‘rt bosqichni (shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat) ado etishi zarur deb qaralgan.

Shu bois “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo‘nim topgan ushbu maskanda o‘ziga xos ma’naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas’uliyatini his etadi”[2] - deydi Sh.M Mirziyoyev. Chunki Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarimiz ijodini o‘rganish hamda komil insonlarni tarbiyalash uchun bu juda muhim qadamdir.

[1]Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. биринчи китоб.-Т.: “Ёзувчи”, 1996. – Б.147.
[2] “Газета. uz” сайти 2018 й.14 апрель

Bundan tashqari bugungi kunda global-ijtimoiy ma’naviy taraqqiyot va integratsiyalashuv jarayonida “Buyuk Ipak yo‘li” an’analarining tiklanishi va rivojlanishi sun’iy intellekt imkoniyatlarini inson omiliga bog‘lab, uning istiqbolini quyidagicha namoyon bo‘lmoqda:

- Buyuk Ipak yo‘li transkommunikatsiyasi sun’iy intellekt tibbiyot, transport, va boshqa sohalarda faol ishlatilmoqda;
- Buyuk Ipak yo‘li transkommunikasiyasi texnologiya yangi ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi, shu orqali hayot sifatini yaxshilash ushun imkoniyatlar yaratadi;
- Buyuk Ipak yo‘li transkommunikatsiyasi insoniylik asosan etika, axloq, hissiyotlar va simpatiya bilan bog‘liqdir. Ya’ni, insonlar o‘zlarining his-tuyg‘ulari, axloqiy qarorlar va boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlar orqali boshqalar bilan bog‘lanadilar;
- Buyuk Ipak yo‘li transkommunikatsiyasi insonlarni ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarga, shuningdek, adolat, tenglik va hurmat kabi masalalarga ham e’tiborlidir.

Xulosa. Buyuk Ipak yo‘li transkommunikatsiyasi inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlash, avvalo, intellektual, ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy uyg‘unlikni yaratish jarayonidir. Bu jarayon insonning ijodiy salohiyatini kuchaytiradi, texnologiyalarni esa mas’uliyatli va maqsadli qo‘llashga yo‘naltiradi. Natijada, komil inson faoliyatining raqobatchisi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi, rivojlanishni tezlashtiruvchi intellektual hamkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - bet. 145-146
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi “Xalq so‘zi” gazetasi, - T.: 2017.23 dekabr - bet 2
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. 1-jild - T.: “O‘zbekiston”, 2018. - bet. 468-469
4. Xayrullayev M.M. O Mirovozzrenii i nauchnыx ideyax al-Xorezmi // Velikiy uchenыy srednevekovya al-Xorezmi - T.: 1985. -S.33.
5. Chiriatti M. et al. System 0: Transforming Artificial Intelligence into a Cognitive Extension // Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking. 2025. - P. 112-117.
6. Shneiderman B. Human-centered artificial intelligence: Three fresh ideas

//AIS Transactions on Human-Computer Interaction.2020.- T. 12. - №. 3.- P. 109-124.

7. Kurzweil R. The singularity is near // Ethicsand emerging technologies. - London :PalgraveMacmillan UK. 2005. - P. 393-406.

EKOLOGIK ADOLAT VA EKOLOGIK MAS'ULIYAT KONSEPTLARINING FALSAFIY EVOLYUTSIYASI

Xudoyberdiyev Dilshod Murodovich
Qarshi davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik adolat va ekologik mas'uliyat konseptlarining falsafiy shakllanishi, ularning qadimgi tabiat haqidagi tasavvurlardan zamonaviy global ekologik tafakkurgacha bo'lgan evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Maqolada inson va tabiat munosabatlarining axloqiy, ijtimoiy hamda aksiologik jihatlari yoritiladi. Ekologik adolatning faqat tabiiy resurslardan teng foydalanish masalasi emas, balki avlodlararo burch, ijtimoiy tenglik va barqaror taraqqiyot tamoyillari bilan bog'liq murakkab falsafiy hodisa ekani asoslanadi. Shuningdek, ekologik mas'uliyat shaxs, jamiyat va davlat darajasidagi axloqiy majburiyat sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: ekologik adolat, ekologik mas'uliyat, tabiat falsafasi, barqaror taraqqiyot, ekologik ong, avlodlararo adolat.

XXI asrda insoniyat taraqqiyoti ekologik muammolar bilan tobora chuqurroq bog'lanib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi endilikda faqat tabiiy fanlar doirasidagi masala emas, balki falsafiy, axloqiy, ijtimoiy va siyosiy muammo sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Chunki ekologik inqirozning ildizida insonning tabiatga bo'lgan munosabati, qadriyatlar tizimi, iste'molchilik madaniyati va taraqqiyot haqidagi tasavvurlari yotadi.

Shu nuqtayi nazardan, ekologik adolat va ekologik mas'uliyat konseptlari zamonaviy falsafaning eng dolzarb tushunchalaridan biriga aylandi. Ekologik adolat tabiiy boyliklardan foydalanish, ekologik xavf-xatarlarning taqsimlanishi, sog'lom atrof-muhitda yashash huquqi va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lsa, ekologik mas'uliyat insonning tabiat oldidagi axloqiy burchini, ongli cheklanish madaniyatini va barqaror hayot tarzini anglatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ekologik adolat va ekologik mas'uliyat tushunchalarining falsafiy evolyutsiyasini tahlil qilish, ularning tarixiy ildizlari va zamonaviy mazmunini ochib berishdan iborat. Bu masala bugungi kunda "yashil

iqtisodiyot”, barqaror taraqqiyot, ekologik madaniyat va global axloq muammolari bilan bevosita bog‘liqdir.

Ekologik adolat va ekologik mas’uliyat g‘oyalari zamonaviy davr mahsuli bo‘lib ko‘rinsa-da, ularning falsafiy ildizlari qadimgi dunyoqarashlarga borib taqaladi. Qadimgi Sharq falsafasida tabiat insondan ajralgan mustaqil obyekt emas, balki hayot uyg‘unligining asosiy manbai sifatida talqin qilingan. Zardushtiylik ta’limotida yer, suv, havo va olovni asrash muqaddas burch hisoblangan. Bu qarashlarda ekologik mas’uliyat diniy-axloqiy majburiyat shaklida ifodalangan. Inson tabiatdan foydalanishi mumkin, biroq uni bulg‘ash, vayron qilish yoki isrof etish axloqiy jihatdan qoralanadi.

Antik falsafada ham tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi muhim o‘rin tutgan. Aristotel tabiatni maqsadga muvofiq tartibga ega mavjudlik sifatida izohlagan. Stoiklar esa insonni kosmik tartibning bir qismi deb bilganlar. Bunday yondashuvda inson tabiat ustidan mutlaq hukmron emas, balki umumiy borliq tizimining mas’ul ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, ekologik mas’uliyatning dastlabki falsafiy ko‘rinishlari tabiat bilan muvozanatli yashash, me’yor va uyg‘unlik g‘oyalari orqali shakllangan.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlari qarashlarida ham tabiatga oqilona munosabat masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Abu Nasr Forobiy jamiyat taraqqiyotini fozil hayot, aql va axloq uyg‘unligi bilan bog‘lagan bo‘lsa, Abu Rayhon Beruniy tabiat hodisalarini ilmiy kuzatish, sababiyat va tajriba asosida o‘rganish zarurligini ta’kidlagan. Ibn Sino esa inson salomatligi, muhit, suv, havo va yashash sharoitlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda izohlagan. Bu qarashlarda ekologik adolat bevosita zamonaviy atama sifatida uchramasa-da, inson farovonligi va tabiiy muhit holati o‘rtasidagi uzviy aloqa aniq ko‘rinadi.

Yangi davr falsafasida insonning tabiatga munosabati sezilarli darajada o‘zgardi. Fan va texnika taraqqiyoti tabiatni bilish, o‘zlashtirish va inson ehtiyojlariga bo‘ysundirish g‘oyasini kuchaytirdi. Fransis Bekonning “bilim - kuch” degan yondashuvi keyingi asrlarda texnokratik tafakkurning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayon sanoatlashuv davrida tabiatga utilitar munosabatni kuchaytirdi. Tabiat asosan resurs, xomashyo va ishlab chiqarish vositasi sifatida ko‘rila boshlandi. Natijada insoniyat taraqqiyoti ulkan iqtisodiy yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, ekologik muvozanat buzildi.

Aynan sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari ekologik adolat muammosini keskinlashtirdi. Chunki ekologik zarar barcha ijtimoiy guruhlarga bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Ko‘pincha kambag‘al qatlamlar, qishloq aholisi, sanoat hududlarida yashovchi aholi yoki ekologik xavfli zonalardagi kishilar ifloslanishning eng og‘ir oqibatlariga duch keladi. Shu bois ekologik adolat tushunchasi ijtimoiy adolat bilan chambarchas bog‘liqdir. U faqat tabiatni muhofaza

qilishni emas, balki ekologik xavf va ne’matlarning adolatli taqsimlanishini ham nazarda tutadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ekologik tafakkurda tub burilish yuz berdi. Insoniyat texnik taraqqiyotning salbiy oqibatlarini chuqurroq anglay boshladi. Ekologik inqiroz, atom xavfi, sanoat chiqindilari, global isish va tabiat resurslarining cheklanganligi insoniyat oldiga yangi axloqiy savollarni qo‘ydi. Endilikda inson faqat o‘z davri va o‘z jamiyati oldida emas, balki kelajak avlodlar, boshqa tirik mavjudotlar va butun biosfera oldida ham mas’ul ekani e’tirof etila boshlandi.

Ekologik mas’uliyat konsepti aynan shu bosqichda keng falsafiy mazmun kasb etdi. Bu tushuncha inson faoliyatining uzoq muddatli oqibatlarini oldindan anglash, tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, texnologik imkoniyatlarni axloqiy mezonlar bilan cheklash zarurligini bildiradi. Mas’uliyat bu yerda oddiy huquqiy javobgarlik emas, balki ongli axloqiy pozitsiyadir. Inson tabiatga zarar yetkazmaslik uchun faqat qonunlardan qo‘rqib emas, balki o‘zining ichki e’tiqodi, ekologik madaniyati va axloqiy ongiga tayangan holda harakat qilishi kerak.

Ekologik adolat konsepti esa ikki asosiy yo‘nalishda rivojlandi. Birinchisi - ijtimoiy-ekologik adolat bo‘lib, u turli ijtimoiy guruhlarning ekologik huquqlari va manfaatlari tengligini anglatadi. Masalan, har bir inson toza suv, musaffo havo, xavfsiz oziq-ovqat va sog‘lom yashash muhitiga ega bo‘lishi kerak. Ikkinchisi - avlodlararo ekologik adolatdir. Bu yondashuvga ko‘ra, hozirgi avlod tabiiy resurslardan foydalanishda kelajak avlodlarning yashash huquqini cheklamasligi lozim. Demak, bugungi iqtisodiy manfaat ertangi ekologik xavfsizlik hisobiga qurilmasligi kerak.

Zamonaviy falsafada ekologik adolat va ekologik mas’uliyat o‘zaro ajralmas tushunchalar sifatida talqin etiladi. Adolat mas’uliyatsiz amalga oshmaydi, mas’uliyat esa adolat tamoyillariga tayanmasa, mavhum axloqiy chaqiriq bo‘lib qoladi. Masalan, davlat ekologik siyosat yuritishda sanoat rivojini rag‘batlantirishi mumkin, biroq bu jarayon aholining sog‘lig‘i, hududiy ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslarning tiklanish imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Xuddi shuningdek, shaxsiy darajada har bir inson iste’mol madaniyati, chiqindilarni kamaytirish, suv va energiyani tejash, tabiatga ehtiyotkor munosabat orqali ekologik mas’uliyatni namoyon etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida ekologik adolat xalqaro mazmun ham kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tarixan ko‘proq sanoat chiqindilari va karbonat angidrid emissiyasini yuzaga keltirgan bo‘lsa, ekologik inqiroz oqibatlari ko‘pincha rivojlanayotgan mamlakatlarga ham og‘ir ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat global ekologik adolat masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Yer sayyorasi yagona ekologik makon bo‘lgani sababli bir hududdagi ekologik zarar boshqa hududlar hayotiga ham ta’sir

qiladi. Shu ma’noda ekologik mas’uliyat milliy chegaralar bilan cheklanmaydigan universal axloqiy tamoyildir.

O‘zbekiston sharoitida ham ekologik adolat va ekologik mas’uliyat masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Orolbo‘yi ekologik inqirozi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, yerlarning sho‘rlanishi, urbanizatsiya, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonlari ekologik tafakkurni yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda ekologik mas’uliyat faqat davlat siyosati darajasida emas, balki ta’lim, mahalla, oila, yoshlar tarbiyasi va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ham shakllanishi zarur. Ekologik adolatning falsafiy mohiyati shundaki, u inson manfaatlarini tabiat manfaatlaridan ajratib qo‘ymaydi. Aksincha, inson farovonligi tabiat barqarorligi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ekologik mas’uliyat esa inson erkinligiga yangi mazmun beradi. Erkinlik tabiatdan cheksiz foydalanish huquqi emas, balki o‘z harakatining oqibatlarini anglagan holda yashash qobiliyatidir. Shu bois ekologik madaniyat yuksalmas ekan, ekologik qonunlar va texnologik yechimlarning samarasi cheklangan bo‘lib qoladi.

Xulosa. Ekologik adolat va ekologik mas’uliyat konseptlarining falsafiy evolyutsiyasi insoniyat tafakkurining tabiatga nisbatan oddiy foydalanish munosabatidan axloqiy, ijtimoiy va global mas’uliyat darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Qadimgi dunyoqarashlarda bu g‘oyalar tabiat bilan uyg‘un yashash, me’yor va muqaddaslik tushunchalari orqali ifodalangan bo‘lsa, zamonaviy davrda ular barqaror taraqqiyot, avlodlararo adolat, ekologik huquqlar va global xavfsizlik tamoyillari bilan boyidi. Ekologik adolat bugungi kunda toza muhitda yashash huquqi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavflarning tengsiz taqsimlanishiga yo‘l qo‘ymaslik va kelajak avlodlar manfaatini himoya qilishni anglatadi. Ekologik mas’uliyat esa shaxs, jamiyat va davlatning tabiat oldidagi ongli axloqiy burchidir. Bu ikki konsept birgalikda zamonaviy ekologik falsafaning asosiy tayanchlarini tashkil etadi.

Ilmiy-nazariy va amaliy takliflar

Birinchidan, ekologik adolat va ekologik mas’uliyat tushunchalarini ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan falsafa, etika, sotsiologiya va huquq fanlari doirasida chuqurroq o‘rganish zarur.

Ikkinchidan, ta’lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan maxsus mavzular va amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonida iqtisodiy samaradorlik bilan birga ekologik adolat mezonlari ham asosiy baholash ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, har bir hududda ekologik muammolarni hal etishda mahalliy aholining ishtirokini kuchaytirish, jamoatchilik nazorati va ekologik ma’rifat ishlarini tizimli olib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 320 b.
4. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Fan, 1968. - 486 b.
5. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. - Chicago: University of Chicago Press, 1984. - 255 p.
6. Naess A. Ecology, Community and Lifestyle. - Cambridge: Cambridge University Press, 1989. - 223 p.
7. Taylor P.W. Respect for Nature: A Theory of Environmental Ethics. - Princeton: Princeton University Press, 1986. - 329 p.
8. Dobson A. Justice and the Environment: Conceptions of Environmental Sustainability and Dimensions of Social Justice. - Oxford: Oxford University Press, 1998. - 292 p.
9. Jamieson D. Ethics and the Environment: An Introduction. - Cambridge: Cambridge University Press, 2008. - 221 p.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. - Toshkent, 2022.

GLOBAL RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YOSHLARNING KIBER-MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA KOGNITIV XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH STRATEGIYALARI

M.E.Pulatova,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti,
S.A.Qalandarova,
Samarqand davlat chet tillar institute 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada global axborotlashuv sharoitida yosh avlodning kiber-madaniyatini shakllantirish va ularning virtual muhitdagi sotsializatsiyasini pedagogik muvofiqlashtirish masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning shaxs shakllanishiga ta’siri ambivalent (ikkiyoqlama) nuqtayiy nazardan tahlil qilinib, “virtual-pedagogik reabilitatsiya” hamda “axborot immuniteti” tushunchalarining nazariy asoslari yoritilgan.

Shuningdek, yoshlarni kiber-makonda destruktiv g‘oyalardan himoya qilishning strategik yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kiber-madaniyat, virtual sotsializatsiya, raqamli pedagogika, axborot immuniteti, kiber-etika, destruktiv kontent, pedagogik modellashtirish, kognitiv xavfsizlik.

Bugungi kunda dunyo aholisining katta qismi internetdan foydalanmoqda va yoshlar eng faol qatlam hisoblanadi. Turli xalqaro tadqiqotlar yoshlarning kuniga bir necha soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishini ko‘rsatmoqda. Bu holat virtual muhitning yoshlar ongiga ta’sirini yanada kuchaytirmoqda.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyatning barcha sohalarida chuqur o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi, fikrlash uslubi va ijtimoiy xulq-atvori raqamli muhit ta’sirida shakllanmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalar yoshlarning asosiy kommunikatsiya vositasiga aylanib ulgurdi. Shu nuqtayiy nazardan, yoshlar kiber-madaniyatini shakllantirish va ularning virtual muhitdagi sotsializatsiyasini pedagogik jihatdan muvofiqlashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki nazoratsiz va tartibga solinmagan virtual muhit yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi “raqamli sotsium” tushunchasi bilan tavsiflanmoqda. Internet nafaqat texnologik vosita, balki yoshlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan “yashash muhiti”ga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish davlat ahamiyatiga ega vazifa sifatida belgilangan. Biroq, virtual makonning chegarasizligi va undagi axborot oqimining yuqori sur’ati an’anaviy pedagogik usullarning samadorligini pasaytirmoqda. Bu esa yoshlar kiber-madaniyatini tizimli ravishda shakllantirishning yangi strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asariga muvofiq ma’naviy-ma’rifiy tarbiya konsepsiyasi qabul qilindi. Asarda kiber-madaniyatni shunchaki texnik ko‘nikma emas, balki “Uchinchi Renessans” drayveri bo‘lgan raqamli avlodning ma’naviy qiyofasi sifatida talqin qilingan. "Raqamli dunyoda yuksak ma’naviyatli shaxs - bu kiber-makonni ilm va bunyodkorlikka yo‘naltira olgan shaxsdir" degan g‘oyani ilgari surilgan.

Dunyo miqyosidagi olimlardan Manuel Castellsning “Tarmoq jamiyati” konsepsiyasiga ko‘ra, raqamli kommunikatsiyalar insonning ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Henry Jenkins esa participatory culture nazariyasida yoshlarning internet muhitidagi faol ishtiroki ularning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta’sir qilishini asoslaydi.

Mazkur yondashuvlar yoshlar kiber-madaniyatini pedagogik boshqarish zaruratini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Yoshlarning virtual-pedagogik sotsializatsiyasi - bu shaxsning raqamli muhitdagi qadriyatlar, me’yorlar va xulq-atvor namunalarini o‘zlashtirish jarayonidir. Tadqiqot jarayonida kiber-madaniyatni shakllantirishning quyidagi strategik yo‘nalishlari aniqlandi:

1. **Kognitiv-psixologik barqarorlikni ta’minlash.** Yoshlarda axborotni qabul qilishda “tanqidiy filtr” mexanizmini yaratish lozim. Bu nafaqat feyk-xabarlarni ajratish, balki axborotning psixologik manipulyatsiya xususiyatlarini tushunishni ham anglatadi.

Quyida kognitiv-psixologik barqarorlikni ta’minlashning asosiy komponentlari va pedagogik mexanizmlari keltirilgan.

- **Axborotni tanqidiy saralash.** Yoshlarda har qanday ma’lumotni shubha ostiga olish va tekshirish ko‘nikmasini rivojlantirish lozim.
- **Fakt-cheking:** Axborotning manbasi, e’lon qilingan vaqti va muallifning maqsadini aniqlash.
- **Mantiqiy tahlil:** Ma’lumotdagi mantiqiy uzilishlar va hissiyotlarga asoslangan manipulyatsiyalarni (masalan, “shok” sarlavhalar) farqlash.
- **Emotsional intellekt va o‘z-o‘zini boshqarish.** Virtual muhit ko‘pincha insonning hissiyotlariga ta’sir qilish orqali uni boshqarishga intiladi.
- **Reaksiyani kechiktirish:** Salbiy yoki provokatsion xabarlarga darhol javob bermaslik, vaziyatni sovuqqonlik bilan baholash.
- **Psixologik immunitet:** Kiber-bulying (onlayn haqorat) va ijtimoiy bosimlarga nisbatan ichki barqarorlikni shakllantirish.

2. **"Klipcha fikrlash"(clip thinking)dan tizimli tafakkurga o‘tish** Zamonaviy yoshlarda kuzatilayotgan qisqa va vizual ma’lumotlarga bog‘lanib qolish (clip thinking) kognitiv barqarorlikni pasaytiradi. Bugungi ijtimoiy tarmoqlar va "short-video"lar davrida bu ko‘pchilik uchun tabiiy holga aylanib ulgurdi. Ammo murakkab muammolarni hal qilish va hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun bizga tizimli tafakkur (system thinking) kerak.

Bu bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berib o‘tamiz:

Diqqatni jamlash qobiliyatini tiklash.Klipcha fikrlashda diqqat har 15-30 soniyada yangi obyektga ko‘chadi. Tizimli tafakkur esa uzoq muddatli konsentratsiyani talab qiladi.

Raqamli detoks: Kuniga kamida 1-2 soat gadjetlarsiz vaqt o‘tkazing.

"Chuqur ish" (Deep Work) tartibi: Biror vazifa ustida kamida 40-50 daqiqa chalg‘imasdan ishlashni mashq qiling.

Muttasil mutolaa: Qisqa postlar o‘rniga uzun maqolalar va badiiy-ilmiy kitoblar o‘qing. Bu miyani voqealar o‘rtasidagi mantiqiy zanjirni kuzatishga majbur qiladi.

3. **Deep Work (Chuqur diqqat):** Diqqatni uzoq vaqt davomida bitta ilmiy matn yoki muammoga qaratish mashqlari.

4. **Sabab-oqibat zanjiri:** Voqea-hodisalarni shunchaki qabul qilmay, ularning kelib chiqish sabablari va uzoq muddatli oqibatlarini tahlil qilish.

5. **Raqamli gigiyena va vaqt menejmenti.** Kognitiv charchoq axborot xurujlariga nisbatan himoyasizlikni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik (nomofobiya) va axborot yuklamasining (information overload) oldini olish uchun yoshlarda raqamli dunyoda vaqtni to‘g‘ri taqsimlash ko‘nikmasini shakllantirish strategik ahamiyatga ega.

6. **Informatsion detoks:** Kun davomida gadjetlardan xoli vaqt oralig‘ini belgilash.

7. **Algoritmlar nazorati:** Ijtimoiy tarmoqlar taklif qilayotgan "tavsiyalar" yoshlarning dunyoqarashini toraytirib qo‘ymasligi uchun axborot oqimini diversifikatsiya qilish (turli sohalarga oid manbalarni kuzatish).

8. **Virtual etikani (Netiket) shakllantirish.** Raqamli makonda muloqot madaniyati, kiber-bulyingga qarshi kurashish va intellektual mulk huquqiga rioya qilish kiber-madaniyatning fundamental asosi hisoblanadi.

Virtual-pedagogik sotsializatsiyani muvofiqlashtirishda “pedagogik monitoring” tizimini joriy etish taklif qilinadi. Bu yoshlarni nazorat qilishni emas, balki ularning virtual faoliyatini ma’rifiy maqsadlarga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi “klipcha fikrlash” (clip thinking) xususiyatini inobatga olib, tarbiyaviy kontentlarni qisqa metrajli videolar, infografikalar va interfaol o‘yinlar shaklida taqdim etish samaradorlikni oshiradi.

Global axborotlashuv sharoitida yoshlar kiber-madaniyatini shakllantirish - bu ularning raqamli dunyoda “komil inson” darajasiga ko‘tarilishini ta’minlashdir. Strategik yo‘nalishlar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

Pedagogik ta’limda kiber-pedagogika modulini joriy etish: Bo‘lajak o‘qituvchilarni virtual muhitda tarbiyaviy ishlarni olib borishga tayyorlash.

Milliy raqamli kontent ekotizimini yaratish: Yoshlarning qiziqishlariga mos keladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi ilmiy-ko‘ngilochar platformalarni ko‘paytirish.

Kiber-diagnostika tizimini ishlab chiqish: Yoshlarning virtual sotsializatsiyasi darajasini va ulardagi ehtimoliy destruktiv o‘zgarishlarni aniqlash metodikasini yaratish.

Shu o‘rinda ota-onalar va pedagoglar uchun tavsiyalarni berib o‘tish lozim.

- Maktablarda “Raqamli madaniyat” to‘garaklarini tashkil etish;
- Ota-onalar uchun “Kiberxavfsizlik va media savodxonlik” seminarlarini yo‘lga qo‘yish;
- Pedagoglar uchun virtual tarbiya bo‘yicha malaka oshirish kurslarini joriy etish;
- Milliy pedagogik platformalarda xavfsiz kontent monitoringini tashkil qilish.

Xulosa qilib aytganda, global axborotlashuv va raqamlashtirish jarayonlari yoshlar dunyoqarashi, tafakkuri hamda ijtimoiy xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois yoshlar kiber-madaniyatini shakllantirish va ularning virtual muhitdagi sotsializatsiyasini pedagogik jihatdan muvofiqlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli makonda yoshlarni turli destruktiv g‘oyalar, axborot xurujlari va manipulyativ ta’sirlardan himoya qilish uchun ularda axborot immuniteti, tanqidiy fikrlash, raqamli gigiyena va virtual etika ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagogik monitoring tizimini joriy etish, milliy raqamli kontentlar bazasini kengaytirish hamda bo‘lajak pedagoglarni kiber-pedagogika yo‘nalishida tayyorlash yoshlarning virtual muhitdagi faoliyatini ma’naviy-ma’rifiy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi. Natijada, yosh avlodning raqamli makondagi ijtimoiy faolligi, ma’naviy barqarorligi va kognitiv xavfsizligini ta’minlash imkoniyati ortadi. Demak, kiber-madaniyatni rivojlantirish nafaqat texnologik taraqqiyot talabi, balki barkamol va ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalashning muhim strategik omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent: 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
4. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO Publishing, 2011.
5. Castells M. The Rise of the Network Society. - Oxford: Blackwell, 2010.
6. Jenkins H. Confronting the Challenges of Participatory Culture. - MIT Press, 2009.
7. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. - Polity Press, 2015.

ETNOTURIZM MILLIY TURIZMNING MUHIM TURI VA YO‘NALISHI SIFATIDA

Xashimov Sheraxon Jo‘raxonovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar”kafedrasi
f.f.b.f.d.,(PhD) dotsenti

Zamonaviy turizm industriyasi iqtisodiyotning yuqori daromad beruvchi sohasi sifatida keyingi yillarda bir muncha o‘sish va yuksalish bosqichini bosib o‘tmoqda. Zamonaviy turizm rivojlanishida turizm yo‘nalishlarining kengayib borishi tendensiyasi ko‘zga tashlanmoqda. Bugungi kunda ekoturizm, agroturizm, gastroturizm, tibbiyot turizmi, sport turizmi va ekstremal turizm kabi turizm yo‘nalishlari rivojlanib bormoqda. Jahonda ko‘plab turizm turlari mavjud bo‘lib, har bir turizm turida ma’lum darajada etnoturizm elementlari mavjuddir.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi modernizatsiya va integratsiya jarayonlari rivojlanib, milliy manfaatlar ustuvorligiga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy munosabatlar rivojlantirilmoqda. Yangilanayotgan O‘zbekistonda iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida milliy turizmni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari polietnik, ya’ni ko‘p millatli davlatlar bo‘lib, bu yerda ko‘plab xalqlarning tili, dini, e’tiqodi, madaniyati, ma’naviyati doimo bir-biriga ta’sir ko‘rsatib kelgan. Markaziy Osiyo davlatlarining milliy urf-odat, an’ana, udumlari, marosimlari, bayramlari o‘rtasida ham umumiy xususiyatga ega bo‘lganlari mavjud bo‘lib, bu etnoturizmning o‘rganish sohasi bo‘lib hisoblanadi. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy o‘ziga xosligi, urf-odat, an’ana, udumlari, marosimlari, madaniyat, san’at, diniy e’tiqod va qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan turizm yo‘nalishi etnoturizm bo‘lib, bugungi kunda etnoturizmni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. 2024-yil 12-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, ushbu farmon O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan etnoturizmni rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etmoqda[1]. Etnografik turizm (ethnographic tourism) bilish va vaqtni xursandchilik bilan o‘tkazish maqsadida alohida olingan xalqning madaniyati, turmush tarzi, ularning kiyimlari, tili, folklori, urf-odat va an’analari, etnik ijodini o‘rganish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat turidir. Etnografik turizmda turli millat va elatga mansub xalqlarning urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari, etnik madaniyati, shuningdek, hunarmandchiligini ko‘rish,

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. “Республикага хорижий туристлар оқимини кескин ошириш ҳамда ички туризмни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. 2024 йил 12 январь, ПФ-9-сон. https://lex.uz/docs/6759637

o‘rganish maqsadida turistlarning tashrif buyurishi amalga oshiriladi. Etnoturizm bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan etnomadaniy, etnik, etnografik, ekologo-etnografik, ekzotik, antropologik, etnobilish, nostalgiya, etnosotsial turizm turlarini o‘zida ifodalaydi. Etnomadaniy turizm (inglizcha - ethnocultural tourism) turizm yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u etnik, etnografik, ekologo-etnografik, antropologik (turmush tarzi turizmi), etnobilish va nostalgiya turizmi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Etnik turizm (inglizcha - ethnic tourism)ni odatda muzeyli deb hisoblab, u ochiq turdagi muzeylar bo‘lib hisoblanuvchi, milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolgan qishloqlar, etnografik komplekslarni o‘z ichiga oladi. Etnik turizm turli kategoriyadagi turistlar uchun qiziqarli bo‘lib, chet elliklar ham, mahalliy aholidan yoshlar, tarixga, an’analarga, ajdodlar turmush tarziga qiziqadiganlar, katta yoshdagilar ham ushbu turizm turiga katta e’tibor qaratadilar. Ekologo-etnografik turizm (inglizcha - ecological and ethnographic tourism) - mahalliy qonun va an’analarga, tabiatni himoya qilish me’yorlariga tayangan holda hududlarning etnografik merosini saqlash, an’anaviy xo‘jalik shakllarini o‘rganish maqsadida amalga oshiriladigan hududlarga sayohatdir. Ekzotik turizm - turist yashaydigan hududdan uzoqda bo‘lgan, ekzotik xususiyatga ega bo‘lgan turizm turidir. Sivilizatsiya yetib bormagan, toza tabiiy muhit mavjud bo‘lgan, urf-odat, an’ana, udumlar, marosimlarda o‘ziga xoslik mavjud bo‘lgan hududlardagi turizm ekzotik turizm xususiyatiga ega bo‘ladi. Yaylov turizmi ham ekzotik turizm xususiyatiga egadir. Antropologik turizm (ingliz tilida - anthropological tourism) - yo‘qolib ketgan yoki yo‘qolish arafasida bo‘lgan etnik jamoalar, ular yashagan, yashayotgan hududlarni o‘rganish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatdir. Etnobilish turizmi (inglizcha - cognitive-ethnic tourist) - muayyan hududda yashaydigan aholining turmush tarzi, tarix, arxeologiya, etnografik merosiga qiziqish motivatsiyasi mavjud bo‘lgan etnik madaniyat va tarixiy merosni kompleks o‘rganish maqsadidagi sayohatdir. Etnobilish turizmida madaniy landshaftlar muhim o‘rin tutadi. Nostalgiya turizmi (inglizcha - nostalgic tourist) - insonlar tomonidan o‘zlarining tarixiy yashash joylarini borib ko‘rishni o‘zida ifodalaydi. Nostalgiya turizmi etnik turizm bilan o‘zaro bog‘liqdir. Etnosotsial turizm (inglizcha - ethnosocial tourist) - zamonaviy darajada tashkil etilgan, rekreatsion hududlarda hayot kechiradigan xalqlarning xo‘jaligi va turmush tarzi bilan tanishishni o‘z ichiga oladigan sayohatdir[1]. O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmanistonda o‘ziga xos urf-odat va madaniyatlar saqlanib qolgan qishloqlar, ovullar, aholi yashaydigan boshqa hududlar mavjud bo‘lib, folklor, milliy kiyimlar, milliy hunarmandchilik, milliy bayramlar, milliy madaniyatning boshqa yo‘nalishlari etnografik turizmda muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/Этнокультурный_туризм.

Bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imidjini shakllantirishda etnoturizm muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda elektron nashrlar, yangi veb-saytlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi saytlarda etnoturizmga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar kengayib, mamlakatning xalqaro imidjini shakllantirishga yordam bermoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston va unga qo‘shni bo‘lgan davlatlarning etnoturizm sohasidagi imkoniyatlari masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Etnoturizmning asosiy obyekti bo‘lgan milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosimlar, madaniyat, san’at, qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish masalasi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda etnoturizm O‘zbekistonda milliy turizmning bir qator turlari bilan o‘zaro bog‘liq ravishda rivojlanib, bunday turizm turlariga rekreatsion turizm, sog‘lomlashtiruvchi, dam olish turizmi, ekskursion turizm, sarguzashtli turizm, ekzotika turizmi, ekstremal turizm safari turizmi, agro turizm va boshqalar taalluqlidir. Bunday turizm turlariga O‘zbekistondagi ichki turizmdan tashqari tashqi, xorijiy mamlakatlardan keladigan turistlarning ham qiziqishi yuqoridir. O‘zbekiston xorijiy turistlarga milliy turistik obyektlarni taklif qilish sohasida katta imkoniyatlarga egadir. 2018-yil 29-30-avgust kunlari Jizzax viloyatida Xalqaro investitsion forum tashkil etilib, ushbu investitsion forumda Baxmal va Zomin tumanlarida turizm sohasi bo‘yicha klaster loyihasini amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi. Jizzax viloyatining Baxmal va Zomin tumanlarida tashkil etilayotgan turizm klasteri konsepsiyasiga ko‘ra ushbu loyiha 3 bosqichga ajratilib, 1-bosqich - ekoturizm, 2-bosqich - agroturizm va 3-bosqich - etnik turizmdan iboratdir. Loyihani amalga oshirish uchun Beijing Jiufang Grang Move Transportation Equipment Co. Ltd kompaniyasi hamda DSKD birlashmasi bilan memorandum imzolangan. Turli etnoturistik obyektlar Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari hududlarida ham mavjud bo‘lib, bugungi kunda davlatlar o‘rtasida etnoturistik aloqalarni rivojlantirish, chet ellik sayyohlarni ushbu etnoturistik obyektlarga jalb etish masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda etnoturizmni rivojlantirishda milliy bayramlarni tiklash, milliy kuy, qo‘shiq, kiyimlar, o‘yinlar, hunarmandchilik, madaniyat va san’atni tiklash va rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Milliy hunarmandchilik sohasida zargarlik, zardo‘zlik, kashtachilik, gilam to‘qish, kulolchilik, qog‘oz ishlab chiqarish, yog‘och o‘ymakorligi, miskarlik, ganchkorlik kabi sohalar rivojlantirilib, ushbu sohalar etnoturizmning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Milliy san’atni qayta tiklash va rivojlantirishda milliy kuy, qo‘shiq, raqs, askiya, maqom, baxshichilikni rivojlantirish masalasiga e’tibor kuchaytirilib, musiqa, maqom, baxshichilik, xalqaro hunarmandchilikka bag‘ishlangan xalqaro festivallar

o‘tkazilmoqda. Ushbu madaniyat va san’at turlari Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar uchun bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotgan ekan, milliy hunarmandchilik, milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosimlar, bayramlar, milliy madaniyat, folklor, musiqa, raqslar, liboslarni tiklash masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonga turli mamlakatlardan turistlar kelar ekan ularni turli sovg‘alar, suvenirlar bilan ta’minlash uchun milliy hunarmandchilikning turli yo‘nalishlarini qayta tiklash talab etiladi. O‘zimizda zargarlik, zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, chinni, sopol idishlarni ishlab chiqarish, pichoq yasash, turli o‘yinchoqlar yasash, milliy kiyimlarni ishlab chiqarish san’at darajasiga ko‘tarilgan. Milliy kiyimlar, milliy do‘ppilarning ham har bir viloyat, hudud uchun o‘ziga xos farq qiluvchi jihatlari, xususiyatlari mavjud.

Etnoturizmni rivojlantirish Markaziy Osiyo davlatlari uchun milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish sohasidagi muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston o‘zining ijobiy imidjini shakllantirish jarayonida Markaziy Osiyo davlatlari bilan etnoturizmni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratib, ushbu masalaga tizimli va kompleks yondashuv shakllantirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2024 yil 12 yanvar, PF-9-son. https://lex.uz/docs/6759637

2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Etnokulturniy_turizm.

JAMIYATDA OILAVIY MUNOSABATLARDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING O‘RNI

Ro‘zimurodov Siroj Madatovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d.,(PhD)

Mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyat barqarorligi va fuqarolarning huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat darajasi oiladagi munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bugungi kunda muhim ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki oila insonning ilk tarbiya maskani bo‘lib, unda shaxsning axloqiy fazilatlari, ijtimoiy qarashlari, huquqiy bilimi va mas’uliyat hissi shakllanadi. Shu bois oilada sog‘lom huquqiy muhitni yaratish jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oilani muqaddas qadriyat sifatida anglash har bir

insonning o‘z vijdoni, oilasi va farzandlari oldidagi mas’uliyatini chuqur his etishini talab qiladi. Oilaviy munosabatlarda huquqiy madaniyatning yuksak bo‘lishi oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, mas’uliyat, tenglik va qonuniylik tamoyillarining qaror topishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, oilada farzandlarga huquq va burch, odob-axloq, insoniy qadriyatlar hamda qonunlarga hurmat ruhida tarbiya berish kelajakda huquqiy ongli va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oilaviy munosabatlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi tarixiy-falsafiy va ma’naviy qadriyatlar bilan ham uzviy bog‘liqdir. O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan oilaviy an’analari, ma’naviy merosi va axloqiy qarashlari oilada o‘zaro hurmat va mas’uliyat muhitini shakllantirishga xizmat qilib kelgan. Zamonaviy jamiyatda esa ushbu qadriyatlarni huquqiy bilim va madaniyat bilan uyg‘unlashtirish oilaviy nizolarning oldini olish, oila institutini mustahkamlash hamda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu o‘rinda mahalla esa, oila va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi, bu makon umumiy axloqiy qadriyatlarni tarqatish va saqlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlashicha, “Mahalla - bebaho qadriyatlarimiz beshigi, mehr - oqibat, ahillik va totuvlik maskani. Bir - biriga elkadosh bo‘lish, ehtiyojmand, muhtoj insonlarga ko‘mak berish kabi ko‘pdan - ko‘p ezgu odat va an'analarimiz aynan mahallada yaqqol namoyon bo‘ladi.”[1] Shuningdek, har bir oilaning mustahkamligi, oila a’zolarining tinch va farovon hayot kechirishi, o‘zaro hurmat va izzatda yashash bu yoshlarni kelgusi oilaviy hayotga tayyorlashda muhim omildir. Oilada nafaqar ma’naviy-axloqiy, estetik, ijtimoiy-iqtisodiy, balki huquqiy tarbiya ham amalga oshirilishi zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Oila beqiyos milliy va umumbashariy qadriyatlardandir. Oila insoniy qadriyatlar tizimini yuksak darajada shakllantiruvchi institut va ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘chog‘i hamdir. Aynan oilada ko‘pchilik gumanitar qadriyatlar tarbiyalanadi, o‘stiriladi va targ‘ib qilinadi. Oila muqaddasligini ta’minlash jamiyat asoslarini mustahkamlash bilan barobardir. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida oila asoslarini mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik vazifalardan hisoblanadi.

Huquqiy tarbiyaning mustahkamligi, har bir kishi hayoti, shaxs sifatidagi kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Huquq - davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish. Huquqiy tarbiya - ijtimoiy tarbiyaning muhim sohasi, tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy tarbiya deganda shaxsda yuksak darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan maqsadga muvofiq ta’sir jarayoni tushuniladi. Uning asosiy shakllarini

[1] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2024. – B-414

huquqiy ta’lim, huquqiy ma’rifat va huquqiy targ‘ibot tashkil qiladi. Ana shu madaniyatning yuksak darajada shakllanishi oiladagi oqilona muhit orqali kechadi.

Mamlakatimizda oilaga, uning jamiyatdagi maqomini mustahkamlashga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratiladi.Vaholanki, oila, mamlakat kelajagini barpo etadigan buyuk insonlarni, istiqbolga, taraqqiyotga xizmat qiluvchi barkamol avlodni voyaga yetkazadigan muqaddas ta’lim va tarbiya maskani hisoblanadi.

O‘rta Osiyoda madaniy hayotda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bizning nazarimizda, mintaqa xalqlari islomni faqat diniy e’tiqod tizimi sifatida emas, balki inson sha’ni va qadr-qimmatini yuksak darajada e’zozlaydigan, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qiladigan, insonning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlovchi mukammal falsafiy-axloqiy ta’limot sifatida anglay boshladilar. Mazkur ta’limotning poklik, adolat, ezgulik, bag‘rikenglik va insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishi uning jamiyat hayotida keng qaror topishiga zamin yaratdi. Shu asosda aholi tomonidan islom dini ongli ravishda, ixtiyoriy va ommaviy tarzda qabul qilina boshladi. Darhaqiqat, islom ta’limotining insoniyat ma’naviy taraqqiyotiga ko‘rsatgan chuqur ta’siri, uning nafaqat diniy, balki ijtimoiy-falsafiy va axloqiy tizim sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. Shu bois bugungi kunda islomning jahon miqyosidagi yirik dinlardan biri sifatida e’tirof etilishi tarixiy va sivilizatsion taraqqiyot qonuniyatlari bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida baholanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ta’kidlaganidek, “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Bizning muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik bilan tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi. Markaziy Osiyo uyg‘onish davrining ko‘plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman”[1]. Ma’lumki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash - bu fiziologik, tibbiy, psixologik, huquqiy, axloqiy, ma’naviy, madaniy, gigiyenik, ijtimoiy, iqtisodiy va jismoniy jihatlarni o‘z ichida mujassamlashtiruvchi murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, ular orasida huquqiy savodxonlik masalasi alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham o‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda oilada huquqiy madaniyatni shakllantirish, oilaning huquqiy maqomini oshirish, unda yashovchi har bir a’zoning huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish, jamiyat hayotida ularning faol ishtirokini ta’minlash, shu o‘rinda xotin-qizlarga keng

[1] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. “Халқ сўзи”. 2017 йил, 20-сентябрь.

imkoniyatlar yaratib berishga alohida e’tibor berilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bunda oilada huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyani hayotga, nafaqat huquq bilan tanishtirish va unga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish muhim rol o‘ynaydi, shu bilan bir qatorda insonda huquqiy ko‘rsatmalarga so‘zsiz itoat etish kerakligiga ishonchni tarbiyalash, ular ongiga oila to‘g‘risidagi qonun-qoidalarga doimo hurmat bilan qarash ko‘nikmalarni hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi

Kelajagimiz vorislari bo‘lgan yoshlar ongida huquqiy tarbiyani shakllantirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu boradagi ishlarni ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida oilaga oid tushunchalarni yoshlarga o‘rgatib borishdan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yoshlarning huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish ta’lim muassasalari, davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari merosida ta’lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zamirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g‘oyasi yotadi. Ibn Sino bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo‘lishni, bola yomon odatlarga o‘rganmasligi uchun uni yomon odamlar va buzuq muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtirgan. Oilada farzand tarbiyasi, ayniqsa o‘g‘il bolaning tarbiyasiga ko‘p jihatdan otaning xizmati kattaligiga alohida e’tibor berilgan. Bu o‘rinda ota nafaqat oila boshlig‘i, balki o‘g‘lining eng yaqin ustozi va murabbiysiga aylanmog‘i lozim va farzandiga dastlabki ilmlarni egallashda yordam berishi qayd etilgan.

Jamiyatimizda oilada huquqiy tarbiyaning ahamiyati bo‘yicha quydagi muammolar:

1. Huquqiy bilim yetishmasligi:

Ko‘plab oilalarda ota-onalar huquqiy bilimlarga ega emas, natijada farzandlariga huquqiy tarbiya berish imkoniyati cheklangan bo‘ladi.

2. An’anaviy tarbiya usullarining ustunligi:

Ba’zi oilalarda an’anaviy, avloddan-avlodga o‘tgan tarbiya usullari zamonaviy huquqiy qadriyatlarni e’tiborsiz qoldiradi.

3. Huquqiy tarbiyaning sustligi:

Farzandlarga yoshligidan huquqiy me’yorlar tushuntirilmasligi ularning huquq va majburiyatlarni to‘g‘ri anglab yetmasligiga olib keladi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar:

Kam ta’minlangan yoki ijtimoiy muammolarga duch kelayotgan oilalarda huquqiy tarbiya ikkinchi darajali masalaga aylanishi mumkin.

5. Axborotning noto‘g‘ri manbalardan olinishi:

Oila a’zolari ijtimoiy tarmoqlardan yoki norasmiy manbalardan noto‘g‘ri huquqiy ma’lumotlarni olishi farzandlarning noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishiga olib keladi.

Oilaning asosi er-xotin yohud ota-onadir. Modomiki, er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga mas’ul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiyinchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda, oilani idora etishda, farzand tarbiyasida mas’uldirlar. Demak, oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo‘lgan Qomusimiz-Konstitutsiyamizda ham oila masalasiga alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” - deb yozilgan. Shu ma’noda, bugun biz tilimiz, dinimiz, milliy qadriyatimiz, ma’naviy meros va madaniyatimizni xolisona o‘rganish, unga amal qilish imkoniyatiga egamiz.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining falsafiy va huquqiy mohiyati inson qadri, uning erkinligi, huquq va manfaatlarini ta’minlash tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy yoki texnologik rivojlanish, balki fuqarolarning huquqiy ongi, ma’naviy madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatining yuksalishi orqali belgilanadi. Shu bois ta’lim-tarbiya tizimini zamonaviy ilmiy, ma’naviy va huquqiy asoslar bilan boyitish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim insonni nafaqat bilimli mutaxassis, balki o‘z huquq va burchlarini anglaydigan, qonunlarga hurmat ruhida yashaydigan, adolat va qonun ustuvorligini qadrlaydigan shaxs sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, yosh avlodda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, ularda Konstitutsiya va qonunlarga hurmat hissini mustahkamlash demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartidir. Chunki huquqiy ong va ma’naviy barkamollik uyg‘unlashgan jamiyatdagina barqaror taraqqiyot va ijtimoiy adolat ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2024. - B-414
3. Mirziyoyev Sh. M. YangiO‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - T.: O‘zbekiston, 2022.
4. Primov T. Ta’lim falsafasi yoki ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. - T.: Fan va texnologiya, 2014.

5. Ergasheva M.X. Ta’lim va tarbiya falsafasi. Darslik. - Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2025.

6. Madatovich R. The role of civic responsibility in educating youth in a healthy spiritual environment in an information society //Pubmedia Social Sciences and Humanities. - 2025. - T. 3. - №. 1. - C. 6.

7. Madatovich R. S. The role of preschool education and family education in the raising of a healthy balanced generation //For Teachers. - 2024. - T. 57. - №. 4. - C. 520-523.

OILA TURIZMI MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI VA VOSITASI SIFATIDA

Xashimov SH.J.,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizmning boshqa turlari bilan birgalikda oila turizmini rivojlantirish masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Oilaviy dam olishni tashkil qilish, oilaviy sayohat qilish, oilaviy turizmni rivojlantirish oiladagi barqarorlikni, hamjihatlikni, inoqlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Oilaviy turizm O‘zbekiston xalqaro imidjining yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonga chet ellardan oilaviy turistlarning kelishi turli xalqlar o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqot, urf-odat, an’ana, udumlar, oilaviy qadriyatlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Oilaviy turistlarning O‘zbekistonga kelib oilaviy mehmon uylarida yashashlari ular tomonidan xalqimizning milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosimlar, bayramlari bilan kengroq tanishish imkoniyatini beradi. Turizmning asosiy turlari bo‘lgan ichki, kiruvchi va chiquvchi turizmlarda ham oilaviy turizmga katta e’tibor qaratiladi. Oilaviy dam olish har bir oila a’zosining ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy sayohatga chiqqanda oila a’zolari o‘rtasidagi hamkorlik va hamjihatlik aloqalari kuchayadi. Yangi mamlakatlar, joylar, maskanlar bilan tanishish oila a’zolari, eng avvalo yoshlarning tasavvuri va dunyoqarashini kengaytiradi. Turizm mamlakatlarimizning umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta’minlashning muhim omilidir, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi, - deydi Prezident Sh.M.Mirziyoyev, - Ayni paytda, u jahon xalqlari o‘rtasida madaniy almashuvlarni kuchaytiradigan, bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydigan qudratli vositadir[1]. O‘zbekistonga kirib kelayotgan chet ellik turistlar va mamlakatning o‘zida ichki turizmni rivojlantirishda oilaviy turizmga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun esa oilaviy turizmni rivojlantirishga

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи. https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-butunjahon-turizm-tashkiloti-bosh-assambleyasi-25-sessiyasidagi-nutqi

qaratilgan infratuzilmani yanada takomillashtirish talab etiladi. Oilaviy turizm va dam olishni tashkil qilish bo‘yicha turlicha fikrlar bayon qilingan bo‘lib, T.G. Kisilyovaning fikricha oilaviy dam olish faoliyati - oila a’zolari o‘rtasida hissiy birlashuvni, samimiylikni, iliqlikni ta’minlaydi va bu esa oilalarning mustahkamlanishuviga zamin yaratadi. T.G. Kisilyova oilaviy turizmni oila-bolalar, oila-oila, bolalar-o‘smirlar-kattalar, formulasi asosida ta’riflab o‘tadi. M.I. Bolotovaning fikricha oilaviy turizm - bu pedagogik va sotsiologik fenomen bo‘lib, tarbiyaga va shaxsiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadigan va oilaning har bir a’zosining individual ehtiyojlarini qondiradigan jarayondir. O.I. Belyakov va I.V. Mesheryakovaning fikricha oilaviy turizm - bu bo‘sh vaqtda sodir bo‘lib, doimiy istiqomat joyidan uzoqda, bitta yoki bir nechta oila guruhlarining turizm uyushtirishlari va har bir oila a’zolarining ehtiyojlari qondirilishidir. Turizmning bu turi oilaning madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondiradigan, ularning bo‘sh vaqtlarini qiziqarli, xilma-xil o‘tkazish imkonini beradigan va oilaviy munosabatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan jarayondir[1].

2023-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning №PF-158 “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilinib, farmonga 1-ilovadagi 58 maqsad “O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish” deb nomlangan. Ushbu maqsadga ko‘ra “xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish”[2], belgilangan bo‘lib, ushbu turistik turlarni tashkil qilishda oila turizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy turizm shaxslararo muloqotning yuqori intensivligini ta’minlash bilan birgalikda avlodlar o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Oilaviy turizm bu faqatgina sayohat emas, balki yoshlarni tarbiyalashning o‘ziga xos vositasidir. Oilaviy turizm oilani mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy turizm bolalar tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bobo, buvi, ota, ona, farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar oilaviy turizm sharoitida mustahkamlanadi. D.Nafasova va L.Temirovalarning fikriga ko‘ra, “oilaviy turizm - bu oila a’zolaringiz (bolalarsiz yoki bolalar bilan) yoki bir nechta oila guruhlarining doimiy istiqomat joyidan uzoqda, bo‘sh vaqtlarida va o‘z xohishlari bilan, sog‘lomlashtirish, dam olish, hordiq chiqarish, tanishish, bir-biri bilan ruhan yaqinlashish maqsadlarida birgalikda vaqt o‘tkazish, turizm maqsadlarini amalga oshirish va oilaning har bir a’zosining

[1] Нафасова Д., Темирова Л. Оилавий туризмни ташкил этишнинг назарий асослари. https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-turizmni-tashkil-etishning-nazariy-asoslari

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 11 сентябрь ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги №ПФ-158 Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600413

ehtiyojini to‘laqonli qondirishidir”[1]. Oilaviy turizmni tashkil qilganda ular bolalarning soni bo‘yicha, oilaviy turistlarning tarkibi bo‘yicha, oilada yetakchilikning turiga ko‘ra, ijtimoiy tarkibiga ko‘ra, oilaviy tajribasiga ko‘ra, oilaviy munosabatlar va muhitning sifatiga ko‘ra bir necha shakllarga bo‘linadi.

O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imidjini mustahkamlashda ham oilaviy turizm muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, - Respublika ichida turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag‘batlantirishni ta’minlaydigan ichki turizmni rivojlantirish hamda O‘zbekiston Respublikasi turistik mahsulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imidjini mustahkamlash[2], masalasiga o‘z e’tiborini qaratib kelmoqda.

Oilaviy turizm turoperatorlar tomonidan va shu bilan birgalikda oilaning o‘zi tomonidan ham tashkil etilishi mumkin. O‘zbekistonda oilaviy turizmni rivojlantirish oilaviy dam olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga yordam beradi, oilaviy turizmni tashkil etish yangi ish o‘rinlarining ko‘payishiga olib keladi, mahalliy aholi turmush darajasining yaxshilanishiga yordam beradi, shu asosda oilaviy turizmni rivojlantirishga qaratilgan infrastruktura takomillashtiriladi. Oilaviy turistlar uchun barcha qulayliklarga ega bo‘lgan turar joylar, mehmonxonalarni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bolalar uchun o‘yin xonasi, o‘yin maydonlari, sport xonalari, bolalar uchun vrach pediatrlik xizmati, enaga xizmati, bolalarga mo‘ljallangan mebellarning mavjud bo‘lishi, ota-onalarning dam olishi va vaqtini qiziqarli o‘tkazishlari uchun zarur sharoitlarning yaratilishi oilaviy turizmni tashkil etishda muhim ahamiyatga egadir. Ko‘ngil ochar joylar - xiyobonlar, parklar, hayvonot bog‘lari, muzeylar, delfinariylar, plyajlar, tog‘lar, o‘rmonlar, akvaparklar, fermalar, art-muzeylar oilaviy turizmni tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Biz xorijiy turistlar sonini 12 million nafardan oshirish vazifasini belgilab olganmiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Buni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, infratuzilmalarni yaxshilash, mehmonxonalar sonini ko‘paytirish, transport tarmoqlarini rivojlantirish va xizmatlar sifatini yuksaltirish Hukumat va hokimliklarning asosiy diqqat-e’tiborida bo‘lishi lozim[3]. Aytilgan masalalar oila turizmiga ham tegishli bo‘lib, ushbu sohada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Oilaviy sayohat, oilaviy dam olish ekologik turizm, madaniy turizm, ziyorat turizmi, etnografik turizm, gastronomik turizm kabi turizm turlarida amalga oshiriladi.

---

[1] Нафасова Д., Темирова Л. Оилавий туризмни ташкил этишнинг назарий асослари. https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-turizmni-tashkil-etishning-nazariy-asoslari

[2] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2021 йил, 176 бет.

[3] Мирзиёев Ш.М. Бошлаган ислоҳотларимизни жадал давом эттириш – устувор вазифадир // Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2020 йил, 95 бет.

Bundan tashqari oilaviy turizmni tashkil qilganda katta oilalar, kichik oilalar, farzandsiz oilalar, farzandli oilalar bir-biridan farq qilib, ular ham o‘z navbatida yosh oilalar, o‘rta yoshli va keksa yoshli kishilar mavjud bo‘lgan oilalarga bo‘linadi.

O‘zbekistonda oilaviy turizmni rivojlantirish oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yaxshilanishiga, oila a’zolari dunyoqarashining kengayishiga yordam beradi. Ichki va tashqi turizmda oila turizmiga e’tiborning kuchaytirilishi jamiyatdagi tinchlik-totuvlik, barqarorlikka ijobiy tarzda ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi. https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-Mirziyoyevning-butunjahon-turizm-tashkiloti-bosh-assambleyasi-25-sessiyasidagi-nutqi

2. Nafasova D., Temirova L. Oilaviy turizmni tashkil etishning nazariy asoslari. https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-turizmni-tashkil-etishning-nazariy-asoslari

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentyabr ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF-158 Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413

4. Nafasova D., Temirova L. Oilaviy turizmni tashkil etishning nazariy asoslari. https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-turizmni-tashkil-etishning-nazariy-asoslari

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021 yil, 176 bet.

6. Mirziyoyev Sh.M. Boshlagan islohotlarimizni jadal davom ettirish - ustuvor vazifadir // Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2020 yil, 95 bet.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MA’NAVIY MEROSNING TIKLANIShI

Xidirov Xoshim Ibodullaevich.,
Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi, f.f.d. (PhD)

Annotasiya: Maqolada mustaqillikning qo‘lga kiritilishi bilan birgalikda xalqimizning asriy an'nanasi va urf-odatlarini, qadimiy bayramlarini tiklashga bo‘lgan e'tibor kuchaydi. Xususan. Yangilanish va yasharish bayrami bo‘lgan Navro‘z bayramini tiklashga bo‘lgan e'tibor hususida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, Navro‘z, tiklanish, yasharish. ma’naviy meros, milliy qadriyat, urf-odat, asriy qadriyat va h.k.

Mustaqillik yillari xalqimiz ma’naviy merosini tiklashga e'tibor qaratildi. 1991-yil 12-fevral kuni mamlakatmizning birinchi Prezidenti Islom Karimov “Navroʻz” umumxalq bayramiga tayyorgarlik koʻrish haqida farmon e'lon qildi va respublikamizda insoniy qadriyatlarni yanada qayta tiklash, asrlar davomida shakllangan urf-odatlar va udumlarni e'zozlash maqsadida “Navroʻz” bayramini keng nishonlash yuzasidan tadbirlar belgilandi. Endilikda Navroʻz bayramini oʻtkazish marosimlari zamon ruhiga mos tarzda uyushtirilmoqda. Qadimiy an'analarning mohiyati saqlangan holda ular yangi mazmun va zamonaviy belgilar bilan boyib bormoqda.

Navroʻz xalqimizning yuragini va yorugʻ tuygʻularini, oʻlmas ruhi va ma’naviyatini oʻzida yorqin namoyon etadigan eng qadimiy, eng ardoqli, asl milliy bayramlarimizdir. Navroʻz bayramining siyosiy, gʻoyaviy-falsafiy mazmuni, bizningcha, birinchidan, xalqning mehnat faoliyati bilan bogʻliqligi, bu qadriyatning qadimiyligi va orzu-umidlarning roʻyobga chiqishiga ishonishda; ikkinchidan, xalqning turmush tarzi, milliy ruhi, san'atining ajoyib shakllari, turli musobaqalar bilan e'tiborni jalb etuvchi bu bayramning xalqning ma’naviy turmushini boyitishga xizmat qilishida; uchinchidan, millatlararo doʻstlik, hamdardlik, Vatanga muhabbat, tinchlik, osoyishtalik ruhini singdirishda; toʻrtinchidan, yosh avlodni tarbiyalash, ular dunyoqarashini shakllantirishda, milliy oʻzlikni anglashda namoyon boʻladi.

Markaziy Osiyo xalqlari faoliyatini madh etishga qaratilgan “Mehrjon” bayrami Beruniyning yozishicha, Quyosh va Oy falakning ikki koʻzi boʻlganidek, Navroʻz va Mehrjon zamonning ikki koʻzidir. Demak, “Navroʻz” bahorda kun va tunning baravar kelishida nishonlansa, “Mehrjon” kuzdagi bu holatni nishonlaydigan bayram hisoblangan. Shuningdek, bizningcha, yozdagi “Angom hayit”, kuzdagi “Mehrjon”, qishdagi “Sada” kabilarni hozir ham bayramlar sifatida nishonlash maqsadga muvofiqdir. Xalq qadriyatlari va diniy urf-odat, marosimlarning siyosiy, falsafiy mazmuni shundaki, birinchidan, ezgulik, yaxshilik, elning bagʻri butunligi, jamoa yoki guruhlarning bajariladigan barcha yumushlarda oʻzaro hamkorlik, hamjihatlik tasavvurlari kishilar ongida shakllana boradi; ikkinchidan, kishilar boshiga qiyinchiliklar tushganda , ularga peshvoz chiqish, ular gʻamiga sherik boʻlish, qoʻlidan kelgancha yordam berish oʻzbek xalqi asriy an'analarining tarkibiy qismini tashkil etgan; uchinchidan; yoshi ulugʻlarni hurmat qilish, ularning boy hayotiy tajribalarini qabul qilish, tarixiy rishtalarini saqlash, vorisiylikni tan olish demakdir. Ularning axloq, odob, insof, imon, vijdon va diyonat kabi fazilatlarini asrab-avaylash xalq ruhiyatining asosini tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa shuki: birinchidan, din, milliy oʻzlikni, oʻz-oʻzini anglash demokratik tamoyillar, hayot tarzi bilan bogʻliq holda amalga oshib kelgan. Ajdodlarimiz ma’naviy merosi va qadriyatlari boy va rang - barang boʻlib, ularning ijobiy mazmundagilari bizgacha yetib kelgan; ikkinchidan,

Oʻzbekistonda mustaqil taraqqiyot tufayli bu merosni tiklash, uning ajoyib, boy an'analarini rivojlantirish imkoniyati tugʻildi; uchinchidan, mamlakatimiz tarixida islom dinigacha turli dinlarning mavjud boʻlganligi ularning insonlar hayotida oʻziga xos oʻrin tutganligini koʻrsatadi hamda diniy e'tiqodda oʻziga xos demokratiya koʻrinishlarida namoyon boʻladi; toʻrtinchidan, din, demokratiya va oʻzlikni anglashning mohiyatini siyosiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etish uning siyosatdan xoli , ayni paytda, ayrim dinlarni davlat mafkurasi darajasidagi ta'siriga duchor boʻlganligidan dalolat beradi; beshinchidan, siyosatda din va oʻzlikni anglash munosabati islom dini amal qilgan davrda yangi ma'no kasb etib, xalqning an'anaviy urf- odatlari, qadriyatlari, marosimlari hamda umuminsoniy mohiyati orqali ishonch va e'tiqodga aylanib ketgan; oltinchidan, siyosiy-falsafiy yondashuv demokratiya, din va milliy oʻzlikni anglashning siyosiy hamda falsafiy jihatlarini toʻgʻri, xolisona tushunishga yordam beradi. Bunday yondashuv siyosatni ham voqelik sifatida toʻgʻri anglashga koʻmaklashadi. Siyosatda din, demokratiya va milliy oʻzlikni anglashni inson fazilatlari bilan yaqinlashtiradi; yettinchidan, siyosatda din va davlatning bir boʻlishi, dinning davlat mafkurasiga aylanish holati tarixda turli ijtimoiy- ma'naviy oqibatlar bilan xarakterlanadi. Bu hamma vaqt ham ijobiy natija bermagan. Xatto bir tomonlamalik, dinda haddan oshishga ham olib kelgan. Shu nuqtayi nazardan, davlatni dindan, maktabni cherkovdan ajratishning oʻziga xos sabablari ham mavjud. Uni faqat dinni taqiqlash yoki daxriylikni targʻib qilish deb tushunish, bir tomonlamalikdir; sakkizinchidan, haqiqiy demokratiya diniy qadriyatlarni inkor etmaydi. Aksincha, diniy qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi oʻrnini e'tirof etadi. Bu esa oʻz navbatida milliy oʻzlikni anglashga xizmat qiladi. Demokratiya, din va milliy oʻzlikni anglashning siyosiy-falsafiy mohiyatiga toʻgʻri keladi. Insoniyat tarixida demokratiya va din munosabatida oʻziga xos jihatlar turli xalqlar hayotida xilma-xil koʻrinishga ega boʻlgan. Diniy e'tiqodning rang-barangligi uning demokratik xarakteridan dalolat beradi. Toʻqqizinchidan, buni mamlakatimiz tarixida ham kuzatish mumkin. Islom dinini asosiy dinga aylanishi va e'tirof etilishi oʻziga xos tarixiy-ma'naviy hodisadir. Shuning uchun ham davlat boshqaruvida islomga tayanish, uning arkonlariga asoslanib, ish koʻrish xalqning oʻzligini anglashga xalaqit qilmagan. Aksincha, muhim omil sifatida xizmat qilgan. Mamlakatning mustaqilligidan mahrum boʻlishi, "mustabid siyosat"ning ta'sirida "dahriylik" falsafasini demokratiya, din va milliy oʻzlikni anglash negizlarini bir-biridan ajratishga qaratilganligini ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Qoraboev U. Umrimizning quvnoq onlari //Sharq yulduzi. Toshkent: 1990. - №3.; Qodirov M. Bayramlar, tomoshalar, marosimlarlar. Moziydan taralgan ziyo. - T.: Sharq, 1998, - B. 153.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston xalqiga Navro‘z tabrigi //O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-jild. - T.: O‘zbekiston, 2005. - B.253.

AGRAR MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI

To‘xtayev Husen Mirzayevich,
Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrar madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Agrar madaniyat faqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalar majmui emas, balki insonning tabiat, yer, mehnat, mulk, qadriyat va jamiyatga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida yoritiladi. Maqolada agrar madaniyatning ontologik, aksiologik, ekologik va ijtimoiy-falsafiy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, globallashuv, raqamli texnologiyalar, yashil iqtisodiyot va ekologik mas’uliyat sharoitida agrar madaniyatni yangicha tafakkur asosida rivojlantirish zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: agrar madaniyat, falsafiy tafakkur, ekologik mas’uliyat, qishloq jamiyati, qadriyat, barqaror rivojlanish, mehnat madaniyati.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida agrar hayot tarzi eng qadimiy va barqaror ijtimoiy-madaniy tizimlardan biri hisoblanadi. Yerga ishlov berish, hosil yetishtirish, tabiat bilan uyg‘un yashash, mehnatni qadrlash va avlodlar davomiyligini ta’minlash kabi jarayonlar agrar madaniyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bois agrar madaniyatni faqat qishloq xo‘jaligi faoliyati yoki ishlab chiqarish tajribasi doirasida tushunish yetarli emas. U insonning borliqni anglash usuli, tabiatga munosabati, axloqiy mas’uliyati, ijtimoiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq falsafiy hodisadir.

Bugungi global transformatsiyalar davrida agrar madaniyat masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, yer resurslarining cheklanishi, ekologik muvozanatning buzilishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari insoniyat oldiga yangi falsafiy savollarni qo‘ymoqda. Xususan, inson tabiatdan faqat foydalanishi kerakmi yoki u bilan mas’uliyatli hamkorlikda yashashi kerakmi? Yer inson uchun oddiy iqtisodiy resursmi yoki avlodlar oldidagi ma’naviy omonatmi? Agrar faoliyatda foyda olish ustuvormi yoki ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat ham muhim mezon bo‘lishi kerakmi? Ana shu savollar agrar madaniyatning falsafiy mohiyatini chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi. Agrar madaniyatni shakllantirish va

rivojlantirish masalasi, ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, fermerlik madaniyatini oshirish, qishloq aholisi turmush sifatini yaxshilash, yoshlarni agrar sohalarga jalb qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday jarayonlar faqat texnologik yoki iqtisodiy yondashuv bilan emas, balki falsafiy, axloqiy va madaniy asoslar bilan ham mustahkamlanishi zarur. Agrar madaniyatning falsafiy mohiyatini anglash uchun, avvalo, uning inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar tizimidagi o‘rnini tahlil qilish lozim. Falsafiy nuqtayi nazardan, inson tabiatdan ajralgan mavjudot emas, balki uning uzviy qismidir. Agrar faoliyat aynan shu uzviylikni amaliy hayotda namoyon etadi. Dehqon yerga urug‘ qadashi bilan nafaqat moddiy ne’mat yaratadi, balki tabiat bilan o‘zaro muloqotga kirishadi. Bu jarayonda sabr, mehnatsevarlik, mas’uliyat, tejamkorlik, uzoqni ko‘ra bilish kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi. Agrar madaniyatning ontologik jihati shundaki, u inson mavjudligining tabiiy asoslarini namoyon qiladi. Insonning yashashi, oziqlanishi, turmush yuritishi yer va tabiat ne’matlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda agrar madaniyat inson borlig‘ining moddiy poydevorini tashkil etadi. Biroq bu poydevor faqat biologik ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaydi. Yerga mehr, hosilga shukronalik, suvni asrash, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kabi tushunchalar agrar madaniyatning ma’naviy qatlamini yuzaga keltiradi. Aksiologik jihatdan agrar madaniyat qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Unda mehnat qadriyati, yerga hurmat, avlodlar tajribasiga sadoqat, mahalla va jamoa hamjihatligi, halollik, tabiat oldidagi burch kabi qadriyatlar mujassamlashgan. Qishloq hayoti ko‘p hollarda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro yordam, qo‘ni-qo‘shnichilik, hamkorlik va birdamlik munosabatlariga tayanadi. Bu esa agrar madaniyatni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida ham talqin qilish imkonini beradi. Agrar madaniyatning muhim falsafiy masalalaridan biri - insonning yerga bo‘lgan munosabatidir. Zamonaviy texnokratik tafakkurda yer ko‘pincha ishlab chiqarish vositasi, foyda manbai yoki iqtisodiy resurs sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv muayyan darajada zarur bo‘lsa-da, u bir tomonlama bo‘lib qolmasligi kerak. Chunki yer faqat bugungi avlodning emas, kelajak avlodlarning ham hayotiy manbaidir. Shuning uchun agrar madaniyatda yerga egalik qilish huquqi bilan birga, uni asrash majburiyati ham muhim o‘rin tutadi. Falsafiy ma’noda yer insoniyatga vaqtincha berilgan omonatdir.

Ekologik mas’uliyat agrar madaniyatning zamonaviy bosqichdagi eng muhim tarkibiy qismidir. Ilgari agrar madaniyat ko‘proq an’anaviy tajriba, xalqona bilim va mavsumiy mehnat tartiblariga asoslangan bo‘lsa, hozirgi davrda u ilmiy bilim, innovatsion texnologiyalar va ekologik ong bilan boyishi zarur. Suvdan tejab foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, kimyoviy vositalarni me’yorida qo‘llash,

biologik xilma-xillikni himoya qilish, organik dehqonchilikni rivojlantirish kabi masalalar agrar madaniyatning yangi mezonlariga aylanmoqda. Shu bilan birga, agrar madaniyatni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar ham muhim o‘rin tutmoqda. Raqamli monitoring, aqlli sug‘orish tizimlari, dronlar, sun’iy intellekt asosidagi agrotexnik tahlillar, elektron savdo maydonchalari qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshiradi. Biroq falsafiy jihatdan qaralganda, texnologiya inson qadriyatlaridan ustun qo‘yilmasligi kerak. Texnologiya agrar madaniyatni boyitishi, inson mehnatini yengillashtirishi va ekologik barqarorlikka xizmat qilishi lozim. Aks holda, texnologik taraqqiyot tabiatdan uzoqlashish, mehnatning ma’naviy mazmunini yo‘qotish va qishloq jamiyatining ichki qadriyatlarini zaiflashtirish xavfini tug‘dirishi mumkin.

Agrar madaniyatni shakllantirishda yoshlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bugungi yosh avlod qishloq xo‘jaligini faqat og‘ir jismoniy mehnat sohasi sifatida emas, balki bilim, innovatsiya, ekologik tafakkur va tadbirkorlik bilan bog‘liq istiqbolli yo‘nalish sifatida anglamog‘i lozim. Buning uchun ta’lim tizimida agrar madaniyatning falsafiy, ekologik va iqtisodiy mazmunini uyg‘un holda yoritish zarur. Maktab, kollej, oliy ta’lim muassasalari va mahalla institutlari yoshlar ongida yerga mehr, mehnatga hurmat, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantirishda muhim vazifani bajaradi. Agrar madaniyatning yana bir muhim jihati - u milliy ma’naviyat bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalqining tarixiy tajribasida yer, suv, hosil, rizq, mehnat, baraka, shukronalik kabi tushunchalar chuqur ma’naviy mazmunga ega. “Yerga mehr - elga mehr”, “Suv - hayot manbai”, “Mehnat qilgan elda aziz” kabi xalqona qarashlar agrar madaniyatning falsafiy ildizlarini ifodalaydi. Ushbu qadriyatlarni zamonaviy ilm-fan, innovatsiya va ekologik tafakkur bilan uyg‘unlashtirish agrar madaniyat rivojining muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, agrar madaniyat ijtimoiy adolat masalasi bilan ham bog‘liq. Qishloq aholisi uchun munosib mehnat sharoiti, yer va suv resurslaridan adolatli foydalanish, fermer va dehqonlarning manfaatlarini himoya qilish, ayollar va yoshlarning agrar sohadagi faolligini qo‘llab-quvvatlash barqaror agrar taraqqiyotning muhim shartlaridandir. Falsafiy yondashuv agrar siyosatni faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki inson qadri, ekologik muvozanat va jamiyat farovonligi mezonlari orqali baholashni talab qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, agrar madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy jamiyatning muhim falsafiy masalalaridan biridir. Agrar madaniyat insonning tabiatga munosabati, mehnatga qarashi, yer va suv resurslarini qadrlashi, ijtimoiy hamkorlikka tayyorligi hamda kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatini ifodalaydi. U iqtisodiy faoliyat bilan birga, axloqiy, ekologik, aksiologik va ontologik mazmunga ega bo‘lgan murakkab madaniy hodisadir.

Bugungi davrda agrar madaniyat an’anaviy dehqonchilik tajribasi bilan cheklanib qolmasdan, ilm-fan, raqamli texnologiyalar, yashil iqtisodiyot, ekologik ong va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg‘un rivojlanishi lozim. Aynan shunday yondashuv qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish bilan birga, tabiatni asrash, inson qadriyatlarini mustahkamlash va barqaror taraqqiyotga erishishga xizmat qiladi.

Ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar

Birinchidan, agrar madaniyatni shakllantirish masalasini faqat iqtisodiy yoki texnik muammo sifatida emas, balki falsafiy, axloqiy va ekologik muammo sifatida ham o‘rganish zarur.

Ikkinchidan, ta’lim tizimida yoshlarning agrar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mavzular, amaliy mashg‘ulotlar va ekologik loyihalarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etishda inson, tabiat va jamiyat manfaatlari uyg‘unligi asosiy mezon bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, milliy agrar qadriyatlarni zamonaviy ekologik madaniyat bilan uyg‘unlashtirish orqali qishloq jamiyatida mas’uliyatli, innovatsion va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan dunyoqarashni shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 176 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.

3. Nazarov Q. Falsafa asoslari. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.

4. Jo‘rayev N. Ma’naviyat va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent: Ma’naviyat, 2019. - 256 b.

5. Ergashev I. Ijtimoiy falsafa. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 312 b.

6. To‘rayev B. Ekologik madaniyat va barqaror taraqqiyot. - Toshkent: Universitet, 2021. - 224 b.

7. Qodirov A. Qishloq taraqqiyoti va agrar munosabatlar falsafasi. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. - 198 b.

8. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. - New York: United Nations, 2015. - 41 p.

SIRDARYO VILOYATI AHOLISINING DINDORLIK DARAJASI (ISLOM DINI MISOLIDA)

Yulduz Davronova,
Guliston davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mamlakatda dindorlik darajasi bo‘yicha asosiy tadqiqot mavzulari diniy o‘ziga xoslik, dunyoviy normalarga munosabat va qadriyatlarni shakllantirishda dinning rolini o‘z ichiga oladi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Islom O‘zbekiston aholisi hayotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Din madaniy o‘ziga xoslik, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida qabul qilinadi, yosh avlod orasida Islomga qiziqish ortib bormoqda.

Kalit so‘zlar: dindorlik, Islom, sotsiologik tadqiqot, ma’naviy ehtiyoj, qadriyat.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1-moddasida “O‘zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deb asoslangan [1, b.3]. Mamlakatimiz sekulyar (dunyoviy) davlat deb belgilanishi bilan birga axolimizning islom eъtiqodiga ega bo‘lishi qadriyatimiz sifatida e’zozlanadi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uni diniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda rivojlantirish bugungi kunning eng muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining islomiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda yuksalishi, avvalo, xalqning ijtimoiy, ma’naviy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish, milliy madaniyatning sofligini saqlash hamda ma’naviy merosning uzluksizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “azaliy milliy qadriyatlar, ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq”[2;266] tamoyillarini asrash va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash - jamiyatda diniylik va dunyoviylik muvozanatini saqlash, ularning ijtimoiy mezonlarini belgilash hamda fuqarolik ongini shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda sekulyar siyosat, jahonning ko‘pchilik davlatlarida bo‘lgani kabi, din va vijdon erkinligiga oid qonunchilik talablari asosida amalga oshiriladi. Bu siyosat umuminsoniy huquqiy tamoyillarga tayanadi va inson erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan [4;33]. Sekulyarizm (dunyoviylik) masalasi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida muhim siyosiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Aslida dunyoviylik tamoyillari har bir dinning muayyan darajadagi mohiyatida mavjud. Islom dinida ham dunyoviylikka dinga yot tushuncha sifatida qaralmaydi. Qur’oni karimdagi “Dinda (dinga) zo‘rlash yo‘q” (Baqara, 256) oyatida

[3;75] dunyoviylikning eng muhim asoslaridan biri mujassam bo‘lgan. Unga ko‘ra diniy hayot tarzini majburlab singdirish mumkin emasdir. Ya’ni, ushbu ilohiy qoida insonning vijdon erkinligi, e’tiqodni erkin tanlash huquqi va dinning majburiy emas, balki ongli ravishda qabul qilinishi lozimligini anglatadi.

Umuman olganda demokratik tizimlarning konstitutsion normalarida davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar masalasidagi ikki jihat yaqqol ajralib turadi [5]:

- din jamiyatda insonparvarlik ruhiyatining shakllanishida yuksak ma’naviyat bulog‘i, beqiyos axloqiy tarbiya manbai, insonlarni halollik, poklik kabi fazilatlarga undvchi qadriyat sifatida e’tirof etiladi;

- dindan g‘arazli maqsadlarda foydalanish, diniy omildan foydalanib siyosatga aralashish, hokimiyatga intilish kabi holatlar man etiladi.

Dunyoviylik tamoyili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonuni bilan huquqiy kafolatlangan. O‘zbekiston tanlagan taraqqiyot yo‘li - dunyoviy demokratik yo‘l. Din axloqiy tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi.

Respublikamizda, shu jumladan Sirdaryo viloyatida ham, aholining katta qismini o‘zlarini musulmon deb hisoblagan va islom diniga e’tiqod qiladigan turli millatlar vakillari - o‘zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg‘izlar, turkmanlar, Qrim tatarlari, Qozon tatarlari, boshqirdlar, ozarbayjonlar, turklar va boshqalar - ko‘pchilikni tashkil qiladi. Sotsiologik tadqiqotlar natijasida Sirdaryo viloyatida o‘zini musulmon deb hisoblagan aholisini diniy amaliyotdagi faolligiga qarab shartli ravishda 4 ta asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1.Qat’iy amaliyotchilar: Besh mahal namoz, ro‘za va barcha shar’iy amallarni to‘liq bajaruvchilar. Diniy bilim darajasi yuqori. Ko‘proq yoshlar va o‘rta yoshli tadbirkorlar qatlamida uchraydi (10-15%);

2. An’anaviy dindorlar: Juma namozlariga chiquvchi, Ro‘za tutuvchi, lekin besh mahal namozni kanda qiluvchilar. Dinni asosan "milliy qadriyat" deb biladi. Sirdaryoning asosiy aholi qatlami ("Ko‘pchilik"). Urf-odat va dinni qorishtirib yuboradi (50-60%);

3. Situativ (vaziyatli) dindorlar: Faqat janoza, nikoh (ZAGS) va xatmi Qur’on marosimlarida diniy amallarni bajaruvchilar. Sovet davridan qolgan dunyoqarash vakillari va ziyolilarning bir qismi (15-20%);

4. Nominal (etnik) musulmonlar: O‘zini musulmon deb hisoblaydi, lekin hech qanday amal qilmaydi. Dinga faqat madaniy identifikatsiya sifatida qaraydi. Yoshlarning ayrim guruhlari va ruslashgan qatlam (5-10%).

Xullas, dunyoviy taraqqiyot yo‘lini tutgan davlatlarda garchi din davlatdan ajratilgan bo‘lsada, jamiyatdan ajralmagan. Milliy va diniy qadriyatlar xalqlar ma’naviy qiyofasining muhim qismlaridan hisoblanadi.

"Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikri markazi O‘zbekistondagi dindorlik darajasi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdi[6]. Mamlakatning 1100 aholisi orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, jamiyatda islom qadriyatlarini anglash jarayoni kuzatilmoqda. Respondentlarning 90,1 foizi mamlakatning diniy siyosatini ijobiy baholaydi, aholining 1,3 foizi esa jamoat hayotida haddan tashqari diniy ta’sir davlatning dunyoviy asoslariga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga ishonadi. Imom-xatiblar faoliyatini ijobiy baholaydigan respondentlar soni ortib bormoqda.

O‘z bilimlarini yetarli deb baholagan respondentlarning aksariyati shaharda istiqomat qiladi va 50 yoshdan oshganlar orasida. Respondentlarning 78,5 foizi faqat bir nechta islom talablarini bilishadi va o‘z bilimlarini yetarli emas deb hisoblashadi. Mintaqaviy miqyosda bu ko‘rsatkich Namanganda 97%, Buxoroda 93,7%, Jizzaxda 91%, Sirdaryoda 86%, Toshkentda 83% va poytaxtda 83,1% ni tashkil qiladi.

Dindorlik darajasini belgilovchi asosiy omil axborot manbalari hisoblanadi. Asosiy kanallar oila (24%), ommaviy axborot vositalari (20,9%) va qo‘shnilar va do‘stlar (17,6%) bo‘lib qolmoqda. Aholining beshdan bir qismi diniy adabiyotlar orqali Islom asoslarini mustaqil o‘rganishni afzal ko‘radi. 2017-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, diniy adabiyotlarni o‘qiydiganlar orasida hadislar keng tarqalgan. 2026-yilda Sirdaryo viloyati aholisi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovimiz shuni ko‘rsatdiki, barcha yoshdagi respondentlarning aksariyati Qur’on, hadislar va Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning asarlarini o‘qiydi. Ular, shuningdek, muslim.uz, olimahad.uz, fatvo.uz, hidoya.uz, bukhari.uz, islom.uz va boshqa veb-saytlarda respublikadagi diniy hayotni kuzatib boradilar.

Respondentlarning 31 foizi fikricha, shubhali mazmunga ega, diniy ma’lumotlar buzib ko‘rsatilgan veb-saytlar va portallar yoshlar uchun xavf tug‘diradi. O‘n olti foizi yoshlar orasida ishsizlikni, 14 foizi tez pul topish istagini va 13 foizi ota-onalarning nazorati yo‘qligini ta’kidladi. Shu munosabat bilan, respondentlarning 77 foizi uyda yaxshi tarbiya berish muhim deb hisoblaydi. Ko‘pchilik foydali bo‘sh vaqtni tashkil qilish orqali yoshlarning bandligini ta’minlash zarur deb hisoblaydi. Maktablar, litseylar, kollejlar va universitetlarda ma’naviy, axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, shuningdek, oila farovonligini oshirish ham samarali choralar sifatida tilga olindi.

So‘rovnomada qatnashganlarning 87,4 foizi oila nomaqbul xatti-harakatlarning oldini olish va ularga barham berishda muhim rol o‘ynashiga ishonishadi, 50,6 foizi xulq-atvor madaniyati va axloqini to‘xtatuvchi omil deb hisoblashadi, 43,2 foizi esa diniy tarbiya va gunohdan qo‘rqish deb hisoblashadi.

Oilasining turmush tarzini dunyoviy deb hisoblaydigan respondentlar foizi 14,2 foizga kamaydi, ularning aksariyati Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda istiqomat qiladi. Odamlarning atigi 3,3 foizi o‘z

turmush tarzini dindor deb ta’riflaydi, asosan Namangan, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahri aholisi.

Makkaga ziyoratga qiziqish ortib bormoqda: respondentlarning 52,2 foizi, jumladan, poytaxt, Farg‘ona, Surxondaryo, Namangan va Andijon viloyatlari aholisi haj ziyoratini bajarishni xohlashadi. Respondentlarning 1,4 foizi shaxsan haj ziyoratini amalga oshirgan. Aholi mahalliy ziyoratgohlarga ham tashrif buyurishadi - asosan sog‘liqni saqlash, ta’lim va qishloq xo‘jaligi sohalari vakillari, maktab o‘quvchilari va talabalar, nafaqaxo‘rlar va uy bekalari.

Respondentlarning 70 foizi diniy ekstremizm va terrorizmni Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun jiddiy muammo sifatida ko‘rsatdi. Bu Buxoro, Xorazm va Farg‘ona viloyatlari aholisini eng ko‘p tashvishga solmoqda. Respondentlar shuningdek, ekologik muammolar, giyohvand moddalar savdosi va boshqa davlatlarning siyosiy jarayonlarga o‘z manfaatlarini ko‘zlab aralashishini tahdid deb bilishadi.

"Ijtimoiy fikr" markazi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston fuqarolarining aksariyati o‘zlarini dindor deb hisoblashadi, buning uchun oila (24%), ommaviy axborot vositalari (20,9%) va qo‘shnilar va do‘stlar (17,6%) manbalari mavjud. Diniy e’tiqod an’analar, marosimlarga rioya qilish va masjid/ibodatxonalarga borish orqali belgilanadi, bu esa aholi orasida yuqori darajadagi dindorlikni ko‘rsatadi.

"Ijtimoiy fikr"ga ko‘ra, dindorlikning asosiy jihatlari:

- Axborot manbalari: Oila bevosita diniy xabardorlikda muhim rol o‘ynaydi, undan keyin ommaviy axborot vositalari keladi.

- Xulq-atvor jihati: Dindorlik ko‘pincha kundalik marosimlar va an’analarga rioya qilish orqali namoyon bo‘ladi.

- Yosh omili: Tadqiqotlar shuningdek, yoshlarning keng qarashlarini ham qamrab oladi, bu ularning "ijtimoiy portretini" shakllantiradi.

"Ijtimoiy fikr" markazi tomonidan o‘tkazilgan ushbu topilmalar din o‘zbek jamiyatida madaniy o‘ziga xoslikning muhim qismi bo‘lib qolishini ta’kidlaydi.

Bugungi kunda, sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diniy masalalarga qiziqish ortib bormoqda. Yoshlar uchun e’tiqod ko‘p qirrali ma’noga ega: bu guruhga mansublik, estetik izlanish va yuksak ma’naviy ehtiyoj belgisidir.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston yoshlarining jamoatchilik ongi diniy hayot tarziga qiziqishning ortishi bilan tavsiflanmaydi. Yoshlar dinga asosan uning kompensatsion funktsiyasi uchun murojaat qilishadi, uni axloqning asosi va milliy an’analar va madaniyatning qo‘riqchisi sifatida ko‘rishadi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси янги тахрирдаги Конституцияси. - T.: O‘zbekiston, 2025.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. - Тошкент: O‘zbekiston, 2022. - Б. 266.

3. Қуръони Карим. Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. - Т.: Чўлпон, 1992.

4. Чубоева О.К., Тўраева Д. Ўзбекистон дунёвий давлат: миллий қонунчилик ва амалиёт // MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS - NEW SOLUTIONS.International online conference. Date: 3rd January-2026. - P. 32-35.

5. **Холиқназаров Н. Динийлик ва дунёвийлик ислом нигоҳида /** https://sammuslim.uz/articles/actual/diniylik-va-dunyoviylik-islom-nigohida?print=on

6. «Ижтимоий фикр» выяснил степень религиозности узбекистанцев / https://repost.uz/religioznost-grajdan-uzbekistana

MILLIY QADRIYATLARNING INSON VA JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Ro‘zimurodov S.M.,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d., (PhD)

Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy merosi va madaniy hayotini o‘zida mujassam etgan muhim omildir. Ular insonning axloqiy kamoloti, dunyoqarashi hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda milliy qadriyatlarni asrash, rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki milliy qadriyatlar jamiyat barqarorligi, ijtimoiy hamjihatlik va ma’naviy yuksalishning muhim asosidir. Inson va jamiyat taraqqiyotida milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular milliy o‘zlikni anglash hamda ma’naviy barkamollikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbek xalqi hayotida bu qadriyatlar oilaviy muhitda yanada mustahkamlanib, jamiyatning ma’naviy asosini tashkil etadi. Oila esa milliy qadriyatlarning birinchi va eng muhim maktabi bo‘lib, unda shakllangan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi fazilatlar jamiyat hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, o‘zbek oilasida qaror topgan muomala madaniyati va axloqiy qadriyatlar nafaqat tarbiya vositasi, balki insoniy fazilatlarni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Milliy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlab, insonlarni komillikka yetaklaydi hamda ijtimoiy taraqqiyotning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Oilada ota-onaning tinch-totuvligi va o‘zaro mehr-muhabbati, dunyoqarashi, ma’naviy saviyasi, qiziqishi, e’tiqodi, jamiyatdagi mavqei, husn-latofati farzand tarbiyasiga ma’lum ma’noda ta’sir o‘tkazadi. Bunday oilada tarbiyalangan farzandlar go‘zallikka ishtiyoqmand, ruhiy tetik, bag‘ri butun, hayotga qiziquvchan, xotirjam, tinch-totuv oilaviy hayot kechirishga tayyor bo‘lib o‘sadilar. Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Jumladan, yoshlar kattalardan: suvga tupurma, non usti ga narsa qo‘yma, nonning uvog‘i ham non, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo‘lma kabi nasihatlarni eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar. Yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz - milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda, eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, mas’uliyatli va sog‘lom kishilarni tushunamiz. Inson faqat tarbiya orqaligina komillikka erishadi. Uning ma’naviy darajasi atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalarni qanday qabul qilishi va mustaqil baholay olishiga ham bog‘liq. Shunday ekan, ta’lim tizimi va mahallada yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini mustahkamlashda milliy qadriyatlarga oid boy ma’naviy merosimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, “Avesto”dagi “Ezgu fikr - ezgu so‘z - ezgu amal” g‘oyasi bo‘yicha fikr yuritish; Qur’oni karim, hadisi sharif kabi muqaddas manbalarda keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy o‘gitlar orqali yoshlar ongida ruhiy poklik, e’tiqod tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar va oila har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma’naviyati, madaniyati, o‘ziga xos urf-odatlari, an’analarisiz tasavvur qilish qiyin. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”.[1]

“Qadriyatlar - jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”.[2] “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”.[3]

“Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”,[4] - degan ta’riflar berilgan.

[1] Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to‘plami). –T; “O‘zbekiston”, 1997. B.198;
[2] Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati. (A. Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahriri ostida). – T; Sharq, 1998, B. 279
[3] Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. T; 2010. B. 707.
[4] Tarbiya ensiklopediyasi. 2010. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, B.509.

Bu esa, o‘z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Milliy qadriyatlar - millat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q.

Ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar hayotiy qadriyatlarning eng muhim omillari sifatida keltirilgan. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an’analarning ustuvorligiga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, - degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlamoqda.[1] Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlarini, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim. Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritilishning asosiy sababi-kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki, bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma’naviy - ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo‘llaydi.

Milliy ma’naviy meros, qadriyatlar tarkibi tarixiy meros va tarixiy xotira; madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo‘lyozmalar; ilmu-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari; san’at va milliy adabiyot asarlari; axloqiy fazilatlar; diniy qadriyatlar; urf-odat, an’ana va marosimlar; ma’rifat, ta’lim-tarbiya va hokazolar.

O‘zbek milliy qadriyatlarining millat hayotida namoyon bo‘lishi - millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat; - kattaga - hurmat, kichikka - izzat; - mehr-muhabbat, go‘zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi - ayol zotiga ehtirom; - sabr-bardosh va mehnatsevarlik; - halollik, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik va hokazo - xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi; - jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi; - ota-ona, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e’tibor;

[1] Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”, 2016.Б.146.

Qadriyat turlari: 1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar. 2. An’analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo‘ladigan axloqiy qadriyatlar. 3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko‘nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste’dodlarida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar. 4. Odamlar o‘rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, hayrihohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan qadriyatlar.

Qadriyatlarni xilma-xil shakl va turlarga ajratib o‘rganish mumkin: 1. Umuminsoniy qadriyatlar. 2. Mintaqaviy qadriyatlar. 3. Milliy qadriyatlar. 4. Diniy qadriyatlar.

Qadriyatlar o‘zining mazmuni, ahamiyati, xususiyati jihatdan: I. 1. Moddiy. 2. Ma’naviy. 3. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga bo‘linadi. Qadriyatlar mohiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Oliy qadriyat - inson va uning hayoti 2. Tabiiy qadriyatlar - yer, suv, yer osti, havo, o‘rmon, o‘simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar. 3. ‘Ikkinchi tabiat’ yoki moddiy qadriyatlar-boyliklar, zavod, fabrikalar, transport, asbob-uskunalar, uy-joylar, noz-ne’matlar, ya’ni inson mehnati bilan yaratilgan narsalar. 4. Madaniy-ma’naviy qadriyatlar-maorif, ta’lim-tarbiya, tibbiy hizmat, meros, til, adabiyot, san’at, hunarmandchilik maxsulotlari, memoriy yodgorliklar va boshqalar. 5. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar. Erkinlik, barqarorlik, birodarlik, tinchlik.

1993 yilgi O‘zbekiston Respublikasini Mulk to‘g‘risidagi qonuniga asosan 5 xil mulkiy qadriyatlar mavjud: 1. Xususiy mulklar. 2. Shirkat mulklari. 3. Davlat mulklar. 4. Aralash mulklar 5. Boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar mulki. Yuqoridagi mulk egalarining tasarrufidagi moddiy va ma’naviy boyliklar turli mulk egalarining qadriyatlarini tashkil etadi. Qadriyatlarning amal qilish doirasiga (ko‘lamiga) ko‘ra turlari: 1. Milliy qadriyatlar.

2. Mintaqaviy qadriyatlar. 3. Umuminsoniy qadriyatlar turlariga bo‘linadi.

Jamiyat - kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo‘lib, o‘z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qladi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimizni sotsial tizimning muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo‘lakchalarinig o‘ziga xos tomonlarini, o‘zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o‘rganib, to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, o‘z vaqtida keyingi oqibati oldindan sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotining salbiy oqibatlariga olib keladi.

1) Jamiyatning tuzilishi va tarkibi o‘rganiladi (ya’ni jamiyat qanday kishilardan iborat, ular qancha va qanday sinf yoki tabaqalarga mansubligi ko‘iladi);

2) Jamiyatda istiqomat qlayotgan kishilarning xatti-harakatlari nimalardan iborat (ya’ni, ularning o‘zaro munosabatlaridagi xarakterlari ko‘riladi). Bunda biz

jamiyatda istiqomat qilayotgan kishilarning faoliyatlarini tasodifiy emas, balki aynan o‘sha jamiyat qonuniyatlari asosida rivojlanib borishini ta’kidlashimiz kerak.

Jamiyatdagi kishilarning qanday tabaqalarga taqsimlanishi, ushbu jamiyatning qanday kishilardan iborat ekanligi, jamiyat ichki faoliyatida kishilarning o‘zlarini qanday tutishlari va o‘zaro munosabatlarning qay darajada ekanligi, alohida bir kishilarning xatti-harakatlarini qanday kuchlar boshqarib turishligi - kishilarning o‘zaro munosabtlaridagi xarakterining o‘zagini tashkil etadi.

3) Jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtayi-nazaridan o‘rganiladi. Dunyodagi barcha hodisalar vaqtlar o‘tishi bilan o‘zgaradi. Taraqqiyotning misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan rivojlanib borishi jamiyatdagi o‘zga ikkinchi yoki uchinchi bir qadriyatlar bilan qorishitirib yubormoqda. Kechagi avlodning yashash tarzi bugungi avlodnikiga mos kelmay qolmoqda, bugungi avlodniki esa ertangi avlodning yashash tarziga mos kelmaydi. Shuning uchun jamiyatni to‘liq tushunish uchun nafaqat uning tuzilishi va rivojlanishini, balki uning o‘tmishini, ya’ni tarixini ham sinchiklab o‘rganish, bu jamiyatning qanday tarkib topganligini, qanday shakllanganligini, rivojlanganligini bilish jamiyatni to‘liq tushunmoqlikka imkon yaratadi. Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab sistemasidir. Ijtimoiy faoliyatning belgilangan sotsial statusiga ega bo‘lgan, o‘zida ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni aks ettirgan, individual sifatlarga /shaxsning ijtimoiy belgisi, qiziqishlari, qadriyatlar yo‘nalishi, shaxs motivlari va hokazo/ ega bo‘gan shaxslar jamiyatning elementi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda milliy qadriyatlar inson va jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ular avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi hamda jamiyatning axloqiy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi. “Avesto”dan boshlab Sharq mutafakkirlari - Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va Navoiy asarlarida ham inson kamoloti aynan oila va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etilgan. Shu jihatdan, oila milliy qadriyatlarning asosiy shakllantiruvchi muhiti bo‘lib, unda tarbiyalanadigan mehr-oqibat, andisha, or-nomus va insonparvarlik kabi fazilatlar jamiyatning ma’naviy poydevorini tashkil etadi. Demak, milliy qadriyatlar nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kun va kelajak taraqqiyotining ham muhim ma’naviy asosi hisoblanadi.

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA YO‘NALTIRILGAN DAVLAT SIYOSATI VA UNING NATIJALARI

Xasanova Shoxista,
Sharof Rashdov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davrida xotin-qizlarga yo‘naltirilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Jumladan, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning ta’lim, sog‘liqni saqlash, tadbirkorlik sohalarida qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar o‘rganiladi. Shuningdek, gender tenglikni ta’minlash, ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga doir chora-tadbirlarning samaradorligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ayollar siyosati, gender tenglik, huquqiy islohotlar, ijtimoiy faollik, davlat dasturlari.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy islohotlar doirasida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida boshlangan yangilanish va ochiqlik siyosati asosida xotin-qizlar masalasi ilgari misli ko‘rilmagan darajada e’tibor markaziga chiqdi. Bu borada bir qator muhim huquqiy, institutsional va tashkiliy chora-tadbirlar hayotga tatbiq etildi. Jumladan, gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha qonunchilik bazasi mustahkamlandi, Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha qo‘mitalar, 2019-yilda qabul qilingan “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatda gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha huquqiy asoslarni belgilab berdi[1]. Shuningdek, “Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha komissiya”ning tashkil etilishi xotin-qizlar siyosatini muvofiqlashtiruvchi markaziy organ bo‘lib xizmat qilmoqda. Agentliklar va ombudsman instituti kabi maxsus tuzilmalar tashkil qilindi, ayollar huquqlarini himoya qiluvchi milliy va xalqaro standartlarga mos dasturlar amaliyotga joriy etildi.

Ushbu yondashuv zamirida davlat siyosatining gumanistik asoslarini belgilovchi va yangi O‘zbekiston taraqqiyot konsepsiyasining markazida turgan “Inson qadri uchun” tamoyili mujassamdir. Aynan shu tamoyil asosida mamlakatda ayollar manfaatlarini ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etish, ularning hayot sifatini oshirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga doir izchil siyosat olib borilmoqda. Gender tenglik, ayollarning ijtimoiy himoyasi, ularni zo‘ravonlikdan himoyalash, ta’lim va sog‘liqni saqlashga teng kirish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda tub burilishlar amalga oshirildi. Bu esa O‘zbekistonda xotin-qizlar mavqeining mustahkamlanishiga,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2019-y., №12.

ularning shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Asosiy qism

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar bilan ishlashda ijtimoiy yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlar asosida yangi institutsional tizimlar shakllantirildi. Ushbu tizimlar orqali xotin-qizlarning turmush darajasini oshirish, ularning ijtimoiy himoyasi, iqtisodiy faolligi va bandligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat vazirliklari va idoralari, nodavlat tashkilotlari tomonidan ayollar huquqlarini qo‘llab-quvvatlash himoya qilish va ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishlarini ta’minlash uchun tizimli va izchil ish olib borilmoqda. E’tirof etib o‘tish mumkinki, O‘zbekistonda xotin-qizlarini e’zozlash, jamiyatdagi rolini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu maqsadda xotin-qizlar manfaatini ifodalovchi qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston xotin-qizlarning huquq va manfaatlari himoyasiga qaratilgan 20 ga yaqin me’yoriy - huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori, 4 ta Prezident Farmoni, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi[1]. Mazkur huquqiy - me’yoriy hujjatlar asosida ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni va roli tabora mustahkamlanmoqda[2].

Jumladan, “Ayollar daftari”, mahalla xotin-qizlar faollari instituti, shuningdek, “Mahalla yettiligi” tizimi bu boradagi amaliy ishlarning samarali ijrochisiga aylangan. Ayniqsa, “Ayollar daftari” tizimi orqali respublika bo‘ylab ijtimoiy ko‘makka muhtoj, ishsiz, nogironligi bo‘lgan, yolg‘iz yoki ko‘p farzandli ayollarni aniqlash, ularning ehtiyojini to‘liq tahlil qilish va individual yordam choralarini belgilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur daftarga kiritilgan xotin-qizlarga: kasb-hunar o‘rganish, mikromoliyaviy yordam (kreditlar) ajratish, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari yaratish, doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlash kabi yo‘nalishlarda tizimli ko‘mak ko‘rsatib kelinmoqda. Masalan, Gender tengligi bo‘yicha komissiya rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, faqatgina 2022-yilning o‘zida 500 mingdan ortiq ayol “Ayollar daftari”ga kiritilgan bo‘lib, ulardan 200 mingdan ortig‘i kasbga yo‘naltirilgan, 110 mingdan ortig‘i doimiy ish bilan ta’minlangan va 15 mingga yaqin ayolga tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun imtiyozli mikrokreditlar ajratilgan[3].

[1] Rustamova M.M. O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanishida Samarqand viloyati xotin-qizlarining o‘rni. Academic Research in Educational Sciences. Volume 4. Issue.3. 2023. – P. 252.

[2] O‘zbekiston qonunchiligida gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari kafolatlari. – Toshkent: Zamin nashr, 2020. – B.96.

[3] gendercommittee.uz.

Bundan tashqari, mahallalarda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari va mahalla yettiligi tizimi orqali har bir xonadon, har bir ayol bilan bevosita individual yondashuv asosida ish olib borilmoqda. Bu esa, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi ishtirokini kuchaytirish va o‘zini-o‘zi ta’minlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu tarzda, “Ayollar daftari” va unga integratsiyalashgan institutlar ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va manzilli yordam siyosatining amaliy ifodasiga aylangan bo‘lib, mamlakatda gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim vositadir.

2019-yil 2-sentabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”[1]gi qonun qabul qilinib, ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘ib, 3-moddasida gender siyosati, gender, gender huquqiy ekspertiza va boshqa tushunchalar kiritildi.

2018-yilda Prezident Farmoni bilan Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lsa, 2020-yilda Xotin-qizlar qo‘mitasi tugatilib, uning o‘rniga “Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” tashkil etilgan edi[2]. 2021-yil mart oyida “Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi” tashkil etildi[3]. 2022-yilda “Mahalla va oila qo‘llab-quvvatlash vazirligi” tugatilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ 146-son qarori qabul qilindi[4]. 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasining yana bir “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” qonuni (O‘RQ 561-son) qabul qilindi[5]. Ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat sanaladi.

Hukumat inson huquqlarini ta’minlash mexanizmini yaratish yuzasidan muayyan ishlarni amalga oshirdi. Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis Vakili Instituti (Ombudsman); Inson huquqlari milliy markazi; Oliy Majlis huzurida amaldagi qonunchilik monitoringi institutlari faoliyat yuritib kelmoqda[6]. O‘zbekiston xotin-qizlarining nodavlat, notijorat tashkilotlari (NNT) jamiyatda gender tenglik g‘oyalarini amalga oshirishda ancha ishlarni qilishgan va tajriba

[1] O‘zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risi”da Qonuni. https://lex.uz/docs/-4494849

[2] Xalq so‘zi gazitasi 25.12.2023 https://xs.uz/uz/post/oila-va-xotin-qizlar-qomitasi-yana-ajralib-chiqdi

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2021 yildagi PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/-5320582

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022-yildagi PQ-146-son “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risi”da Qarori https://lex.uz/docs/-5884084

[5] O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-561-son. https://lex.uz/acts/

[6] Азизова А. Введение в теорию и практику в гендерных отношений. – Ташкент, 2007. – С.

to‘plashda davom etib kelmoqda. Muayyan loyihalarni amalga oshirish, jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish, xotin-qizlar huquqlarini ommalashtirish va tarqatish yo‘li bilan ular chinakam fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishiga ko‘maklashmoqda[1]. O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston tadbirkor ayollar uyushmasi “Tadbirkor ayol” va xotin-qizlar “Olima” uyushmasi eng katta NNTlardir. Xotin-qizlar NNT o‘zlarining faoliyatlari bilan davlatning siyosatiga ta’sir o‘tkazishlari, uning gender yo‘nalishini ijobiy tomonga o‘zgartirishga ko‘maklashmoqda. Yangi O‘zbekiston davrida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mehnat bozoriga jalb qilish va tadbirkorlik sohasidagi ishtirokini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar, moliyaviy mexanizmlar va institutsional dasturlar ayollar bandligini ta’minlash va ularning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Xususan, **“Ayollar tadbirkorligi” jamg‘armasi** faoliyati ushbu jarayonning markaziy tarkibiy qismi bo‘lib, minglab xotin-qizlarga **imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, startaplar uchun zarur infratuzilma**, jumladan, **yer maydonlari, texnika va uskunalar** bilan ta’minlash imkonini yaratdi. Bu moliyaviy va tashkiliy ko‘mak ayollarning o‘z ishini boshlashi, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishi, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirdi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, **2023-yilda 25 mingdan ortiq ayol “Ayollar tadbirkorligi” jamg‘armasi ko‘magida o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan**. Ularning katta qismi xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, tikuvchilik, go‘zallik saloni, oziq-ovqat ishlab chiqarish kabi sohalarda faoliyat yuritmoqda[2].

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi bir vaqtning o‘zida **iqtisodiy barqarorlik, bandlik darajasi va ijtimoiy faollikning ortishi** kabi ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, chekka va ijtimoiy jihatdan zaif hududlarda istiqomat qiluvchi xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ularni oilaviy daromad manbalariga ega bo‘lish, bolalarining ta’lim va salomatligiga ko‘proq e’tibor qaratish, jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishi yo‘lida real zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ularning **siyosiy va fuqarolik faolligini oshirish**, qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirokini kengaytirish, oiladagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlash kabi ko‘plab ijobiy natijalarga ham xizmat qilmoqda. Bu holat gender tengligini ta’minlashga qaratilgan siyosat samaradorligining amaliy ifodasi bo‘lib, jamiyatda ayollar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun muhim shart-sharoitlar yaratilayotganining dalilidir.

Xulosa

[1] Ahmedshina F. Mustaqillik sharoitida O‘zbekistonning gender muammolari // Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. – Toshkent, 2007. – B.414.
[2] businesswomen.uz

Yangi O‘zbekiston davridagi ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar jarayonida **gender tengligi masalalari** davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakat ijtimoiy tuzilmasida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Ayollar endilikda nafaqat oilaviy hayotda, balki iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda ham **mustaqil, faol va teng huquqli subyekt** sifatida qatnasha boshladilar. Bu esa jamiyatda demokratik qadriyatlar mustahkamlanishiga, ijtimoiy adolat tamoyillarining hayotga tatbiq etilishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo‘lida yaratilgan **normativ-huquqiy asoslar**, “Ayollar daftari”, Mahalla xotin-qizlar faollari, Mahalla yettiligi kabi **institutsional mexanizmlar**, shuningdek, kasbga yo‘naltirish, bandlik va tadbirkorlikka ko‘mak beruvchi **dasturiy yondashuvlar** o‘zining amaliy samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida izchil olib borilayotgan davlat siyosati mamlakatda **barqaror taraqqiyot, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim kafolatlaridan biri** sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, “Inson qadri uchun” tamoyili asosida har bir ayolga manzilli e’tibor qaratilishi, ularning shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi, gender tengligi siyosatining ijtimoiy mazmunini chuqurlashtirmoqda. Kelgusida bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqei va ta’sirchanligini yanada oshirish, ularni qarorlar qabul qilish tizimining faol ishtirokchisiga aylantirish, shu orqali O‘zbekistonda **gender inkluziv, adolatli va taraqqiyotga yo‘naltirilgan ijtimoiy muhitni** shakllantirishda muhim poydevor bo‘lib qolishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2019-y., №12.

2. Rustamova M.M. O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanishida Samarqand viloyati xotin-qizlarining o‘rni. Academic Research in Educational Sciences. Volume 4. Issue.3. 2023. - P. 252.

3. O‘zbekiston qonunchiligida gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari kafolatlari. - Toshkent: Zamin nashr, 2020. - B.96.

4. gendercommittee.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risi”da Qonuni. https://lex.uz/docs/-4494849

6. Xalq so‘zi gazitasi 25.12.2023 https://xs.uz/uz/post/oila-va-xotin-qizlar-qomitasi-yana-ajralib-chiqdi

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2021 yildagi PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini

ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/-5320582

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022-yildagi PQ-146-son “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risi”da Qarori https://lex.uz/docs/-5884084

9. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-561-son. https://lex.uz/acts/

10. Азизова А. Введение в теорию и практику в гендерных отношений. - Ташкент, 2007. - С. 31.

11. Ahmedshina F. Mustaqillik sharoitida O‘zbekistonning gender muammolari // Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. - Toshkent, 2007. - B.414.

12. businesswomen.uz

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRO-ENERGETIKA TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING RIVOJLANISHI

Djurayev J.E.,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning elektro energetika tizimini modernizatsiya qilish va energiya mustaqilligini ta’minlash yo‘lida amalga oshirilgan va rejalashtirilgan chora tadbirlar tahlil qilingan. Maqolada Tallimarjon, Navoiy va Taxiatosh IES hamda quyosh va fotoelektr stansiyalari (Samarqanddagi 100 MW loyihasi, Pop tumanidagi 130 kW sinov stansiyasi) kabi loyihalar misol qilib keltiriladi. Muallif qayta tiklanadigan energiya salohiyatini kengaytirish va energiya samaradorligini oshirish orqali energetika barqarorligini mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydilar.

Kalit so‘zlar: elektroenergetika, quyosh energetikasi, fotoelektr stantsiyalar, energetika tizimini modernizatsiya qilish, magistral tarmoqlar rekonstruktsiyasi, WI MIX boshqaruv tizimi, energiya mustaqilligi, kombiniyalashgan quyosh issiqlik texnologiyalari, Tallimarjon IES, Navoiy IES, Taxiatosh IES barqaror energetika, elektr energiyasiga talab prognozlari.

Bugungi globallashuv sharoitida energiya resurslaridan samarali va oqilona foydalanish masalasi dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, sanoatlashuv jarayonlarining jadallashuvi va texnologik taraqqiyot natijasida energiyaga bo‘lgan talab yil sayin oshib bormoqda.

An’anaviy yoqilg‘i-energetika resurslarining cheklanganligi hamda ularning ekologik muhitga salbiy ta’siri muqobil energetika manbalarini rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish, ularda tejamkor texnologiyalarni qo‘llash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tatbiq etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, mustaqillikka erishgunimizga qadar elektr quvvatlari yetishmasligi tufayli respublikamizga 1500 MVt.gacha elektr energiyasini chetdan qabul qilishga to‘g‘ri kelgan. Oqibatda butun energetika tizimi qo‘shni davlatlar GES kaskadlari ish rejimiga bog‘lanib qolgan edi.

Istiqlol yillarida energetika mustaqilligiga erishishga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili sifatida jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Soha xodimlari oldiga ishlab chiqarishga yuqori samarali hamda zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali elektr energiyasini hosil qilish, uzatish va taqsimlash xarajatlarini kamaytirish, iste’molchilarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash bo‘yicha ko‘plab vazifalar qo‘yildi. Shundan kelib chiqib, tarmoqda keng ko‘lamli modernizatsiyalash, texnik hamda texnologik yangilash, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan istiqbolli loyiha va dasturlar amalga oshirila boshlandi[1].

Jahon iqtisodiyotida energiyaga bo‘lgan talabning yil sayin ortib borayotgani, ayni paytda an’anaviy uglevodorod xom ashyosi bo‘lmish neft hamda gazning yangi manbalarini o‘zlashtirish tobora qiyinlashib borayotgani ham muqobil energiya manbalaridan foydalanishning ahamiyatini bir necha bor kuchaytirib yubordi. Bundan tashqari, qazib olinayotgan yonilg‘ini sarf etish miqdori misli ko‘rilmagan darajada ortib borayotgani, mazkur jarayon esa atrof-muhit va aholi salomatligiga sezilarli tarzda ta’sir ko‘rsatayotgani ham bu jarayonga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda edi.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, dunyoda hozirgacha ma’lum bo‘lgan neft zaxiralari 54,2, gaz 63,6, ko‘mir esa 112 yilga yetishi mumkin. Mana shu raqamlardan ham ko‘rinadiki, energiyaning eng samarali va istiqbolli usullarini hayotga joriy etish, ilmiy va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini har tomonlama jadal rivojlantirish ayni zaruratdir.

Ayni paytda jahon miqyosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining 2 ta - quyosh va shamol yo‘nalishi ancha ommalashmoqda. “Buni keyingi o‘n-o‘n besh yil davomida neft sarfi 13, tabiiy gaz 31,4, ko‘mirda esa 56,4 foiz o‘sgani holda, ularning muqobilidan foydalanish darajasi 260 foizga yetgani ham tasdiqlab

[1] Исақулов Д/ Энергетика мустақиллиги иқтисодиётни жадал тараққий топтириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш гаровидир Халқ сўзи газетаси. 2016 йил 18 Август

turibdi”[1]. Yevropa fotoelektrik sanoati assotsiatsiyasi (EPIA) tahlilchilarining ma’lumotiga ko‘ra, “2011-yilda dunyoda jami o‘rnatilgan fotoelektrik stansiyalarning quvvati 29,7 GVtni tashkil etgan bo‘lsa, 2013 yilda bunday stansiyalarning jami quvvati 38,9 GVtga yetkazildi. Bu borada, ayniqsa, Italiya, Germaniya davlatlari yetakchilik qilmoqda”[2].

Xususan, yangi energetika quvvatlarini, elektr energiyasini uzatish tarmoqlarini barpo etish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish borasida katta hajmdagi ishlar bajarildi. Jumladan, 2005 yilda Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida 800 MVt quvvatga ega energoblok, 2012 yilda Navoiy issiqlik elektr stansiyasida 478 MVt quvvatga teng bo‘lgan, shartli yoqilg‘i iste’molini 1,5 marta kamaytirib, 300 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish imkonini beradigan bug‘-gaz qurilmasi ishga tushirildi. Tollimarjon, Navoiy va Taxiatosh issiqlik elektr stansiyalarida quvvati 250 MVt.dan 450 MVt.gacha bo‘lgan bug‘-gaz uskunalarini qurish loyihalari amalga oshirilmoqda[3]. 2014-yilga kelib yurtimizda hosil qilingan elektr energiyasining qariyb 97 foizi “O‘zbekenergo” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tasarrufidagi elektr stansiyalariga to‘g‘ri kelsa, qolgan 3 foizi esa, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi gidroelektr stansiyalar hamda yirik sanoat korxonalarining blok stansiyalaridan olindi[4].

Quyosh energiyasi xalqaro instituti tashkil etilgan ilk kunlardan e’tiboran ushbu yo‘nalishlarda muayyan ishlar amalga oshirildi. Masalan, 2014-yilda mamlakat energetikasining asosini gazda ishlaydigan 10 ta issiqlik elektr stansiyasi tashkil qilingan edi. Bu, tabiiyki salmoqli miqdorda yonilg‘ini sarflashni talab qilar edi. Mazkur muammoning yechimini kombinatsiyalangan quyosh-issiqlik stansiyalarini takomillashtirish va uning isitish qismiga quyosh energiyasida ishlashga mo‘ljallangan qo‘shimcha vositani qo‘llash orqali yechim topish mumkin bo‘ldi. Bunda suvni quyosh nuri orqali oldindan isitib, so‘ng uni gaz yoqish orqali bug‘ holatiga aylantirilar edi. Olib borilgan hisob-kitoblar bu jarayonda sezilarli darajada gaz iqtisod qilinishini ko‘rsatdi[5].

Bundan tashqari, institut jamoasi yirik fotoelektrik stansiyalarni qurishda ham faol ishtirok etdi. Jumladan, Samarqand viloyatida bunyod etilayotgan quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh elektr stansiyasi shunday loyihalardan biri hisoblanadi. Ushbu inshoot nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasida beqiyos ekanligi bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir[6]. Shu bilan birga, Namangan viloyatining Pop tumanidagi Yangiobod qishlog‘ida barpo etilgan quyosh fotoelektr sinov stansiyasi

[1] Турсунқулов О./ Қуёш энергияси ва фаровонлик. Халқ сўзи газетаси. 2014 йил 14- август
[2] Ўша манба
[3] Исақулов Д/ Энергетика мустақиллиги иқтисодиётни жадал тараққий топтириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш гаровидир Халқ сўзи газетаси. 2016 йил 18- август
[4] Муратов Ҳ, / Энергетиканинг ривожланиш истиқболлари., Халқ сўзи газетаси. 2014 йил 14- июль
[5] Ўша манба
[6] Ўша манба

ham bu sohada amalga oshirilgan istiqbolli loyihalardan biridir. Mamlakatda quyosh energiyasi imkoniyatlarini o‘zlashtirish bo‘yicha hamkorlik doirasida ro‘yobga chiqarilgan loyiha samarasi bo‘lgan ushbu sinov tartibidagi stansiya soatiga 130 kilovatt elektr energiyasi hosil qilish quvvatiga bo‘ldi. Janubiy Koreya tomonining 700 ming AQSH dollarilik granti hisobiga qurilgan inshootda mazkur davlatning “JSPV”, “S-Energy” va “TopSun” kompaniyalarida tayyorlangan to‘rt turdagi 498 ta quyosh paneli o‘rnatildi. “O‘zbekenergo” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi mutaxassislari tomonidan Koreya Respublikasining Fotoelektrik sanoati uyushmasi yordamida amalga oshirilgan qurilish-montaj va ishga tushirish-sozlash tadbirlaridan so‘ng yangi obyekt energetika tizimiga kuniga 500-600 kVt-soat elektr quvvati yetkazib berishi yo‘lga qo‘yildi[1].

Elektr energiyasini hosil qiluvchi quvvatlarni oshirish, magistral va taqsimlash elektr uzatish liniyalarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha “O‘zbekenergo” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan ko‘pgina tadbirlar amalga oshrildi. Jumladan, qabul qilingan dasturlar asosida bir qator istiqbolli loyihalar, chora-tadbirlar, xalqaro kredit institutlarining mablag‘larini jalb etgan holda qator investitsion loyihalar amalga oshirildi[2]. Shu bilan birga, kompaniya faoliyatini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, WI-MIX tizimi joriy etilishi mo‘ljallandi. Chunki bu orqali energetik obyektlarni boshqarishda aniqlik va tezkorlik sezilarli darajada oshdi[3].

Ammo shunday bo‘lsa-da, ayni paytda respublika sanoat korxonalarida energiya sarfi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ortiq. Demak, bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish zarurati asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki aholi sonining o‘sishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi va maishiy texnika vositalariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi boshqa omillar tufayli barcha hududlarda elektr energiyasiga bo‘lgan talab ham, tabiiyki, oshadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yilga borib, mamlakatimizda elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj 2013 yildagiga nisbatan ikki barobar ortib, 100 mlrd. kVt soatdan ortiq bo‘lishi kutilmoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, 2016 yilda Farg‘ona vodiysi viloyatlarining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoji 1700 megavatt soatga teng bo‘ldi. Aholi soni va ishlab chiqarish tarmoqlari ko‘payishi bilan 2030 yilga borib, bu ko‘rsatkich 1900 megavatt soatga etishi kutilmoqda. To‘raqo‘rg‘on issiqlik elektr stansiyasi”da hosil qilinadigan quvvatlar bu ehtiyojni to‘la qondiradi. Yana bir muhim jihati, eng ilg‘or texnologiyalar sharofati bilan yiliga 726,9 million kub metr

[1] Нажмиддинов Қ / Қуёш фотоэлектр станцияси тақдимоти., Халқ сўзи газетаси. 2015 йил 8-апрель
[2] http://www.uzbekenergo
[3] Муратов Ҳ, / Энергетиканинг ривожланиш истиқболлари., Халқ сўзи газетаси 2014 йил 14- июль

tabiiy gaz -iqtisod qilinadi[1]. Energetika tizimida 2030 yilgacha bo‘lgan davrda shu kabi yana ko‘plab zamonaviy texnologiyalar joriy qilinishi mo‘ljallangan. Bu haqda so‘z yuritilganda, gidroelektr stansiyalardagi o‘zgarishlarga alohida to‘xtalish joiz. Jumladan, 2016-yildan boshlab kelgusi besh yilda 11 GES quvvati oshirilishi barobarida, Andijon, Qashqadaryo hamda Toshkent viloyatlarida 5 ta kichik GES qurilishi mo‘ljallangan[2].

O‘zbekiston hududidagi qayta tiklanadigan energiya turlarining jami va texnik potensialini baholash natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning ekologik xavfsizligi, o‘zlashtirish imkoniyatlari etarli bo‘lganligi uchun an’anaviy energiya zaxiralarimizdan foydalanish istiqbollarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Chunki, qayta tiklanadigan energiya turlarini ishlab chiqarish sharoitlari va maishiy hayotimizda yanada keng qo‘llash elektr va issiqlik energiyasi hosil qilishda tabiiy gazdan sezilarli darajada kamroq foydalanishga zamin yaratadi.

ADOLAT HAQIDA

Ismoilov Sobirjon, GulDU dotsenti, f.f.n.,
Dehqonova Saida
GulDU mustaqil tadqiqotchisi

Insoniyat ma’naviy olamida shunday tushunchalar borki, ular alohidya taqdir va tarixga ega. Bunday tushunchalar kishilik jamiyatida hali urug‘chilik tuzumi davridayoq qaror tapa boshlab, butun tafakkur tarixi davomida istemolda bo‘lib, o‘zgarib, yangi ma’no kasb etib kelgan. Shunday tushunchalardan biri “Adolat” tushunchasidir.

Adolat - axloqiy-huquqiy va ijtimoiy-siyosiy ilmiy kategoriya hisoblanadi. Adolat alohida kishi yoki ijtimoiy guruhning amaliy faoliyati bilan taloboti va ularning ma’naviy holati o‘rtasidagi munosabatlarning mosligini ifodalovchi tushunchadir. Jamiyatning shaxsga munosabati; shaxsning jamiyatga munosabati; shaxsning boshqa shaxsga munosabati bo‘lishi mumkin. Demak, adolat jamiyat va shaxs, shaxs va jamiyat, shaxs va boshqa shaxslar o‘rtasidagi ma’naviy voqelikdagi munosabatlarni baholash mezonidir. Bu baholash: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yoki axloqiy bo‘lishi mumkin va hayotning barcha jabhalarida qechadigan ma’naviy munosabatlarda qo‘llaniladi. Adolat insoniyat ma’naviyati qadriyatlariniig oliy ko‘rinishlaridan biridir. Adolatni: tenglik, insof, halolik, odillik kabi talqinlari ham bo‘lib, u “baxt”, “tenglik”, “tinchlik”, “ozodlik” tushunchalari kabi kishilarning talobotini o‘zida ifoda etadi.

“Adolat keng qamrovli falsafiy va a[loqiy tushuncha bo‘lib, u ijtimoiy

[1] Ўша манба
[2] Ўша манба

hayotda va kishilararo munosabatda muhim o‘rin egallaqdi” [2:5].

Odam dunyoga kelar ekan, u yashamoq uchun ham biologiq, ham ma’naviy mavjudot sifatida o‘zida turli narsalarga ehtiyoj sezadi. Agarda inson hayotining dastlabki davrida biologik ehtiyojlar asosiy o‘rin tutsa, kishiniig voyaga etib borishi bilan, ma’naviy ehtiyojlar hayot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Odam ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi sababli u axloqiy-ruhiy doirada, ma’naviy muhit doirasida qamralgan bo‘ladi. Ma’naviy tuzum o‘zgarishi bilan ma’naviy munosabatlar ham o‘zgarib bo,radi. Shuning uchun ham adolat tushunchasi turli tarixiy davrlarda turlicha talqin etib keligan. Qadim-qadimdan adolat xalqlar og‘zaki va yozma ijod namunalarida ta’riflab kelingan. Bu borada Markaziy Osiyo xalqlari boy islomiy va dunyoviy merosga ega. Buni o‘rganish va uni xalqimiz e’tiboriga havola etish, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Aytish mumkinki, hozirgi dorulomon kunlarimizda Amir Temur va Naqshband bobolarimizning islomiy adolat ruhida sug‘orilgan hayot yo‘li, tajribasi, merosi, hamda umumislomiy va sharqona adolat ta’limoti biz merosxo‘rlar uchun ibratli maktabdir. Buni xalqimiz e’tiboriga havola etish zamonamizning ilm-fai fidoiylari zimmasiga tushadi. Adolat keng qamrovli falsafiy va axloqiy tushuncha bo‘lib, u ma’naviy hayotda va kishilararo munosabatda muhim o‘rinni egallaydi. Adolat haqida juda chiroyli va uzoq gapirish mumkin. Va ayni bir paytda ushbu kategoriyaga falsafa va axloqshunoslikda turlicha ta’rif beriladi. Masalan, “Falsafa” qomusiy lug‘atida adolat shunday tavsiflanadi: “Adolat - shaxs va ma’naviy guruhlar imkoniyatlari va talablari, huquqlari va farovonligining me’yorini, jamiyatning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari me’yorini, turli sinflar va ma’naviy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy voqealarga munosabatini xarakterlovchi ma’naviy ong tushunchasi” [4:14] dir. Ushbu qomusiy lug‘atda adolatning jamiyatda oltita asosiy vazifani bajarishiga e’tibor qaratilgan:

Birinchidan, jamiyatdagi ma’naviy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etadi.

Ikkinchidan, turli ma’naviy guruxdar manfaatlarining himoya qilinishini ta’minlaydi, ular orasidagi muvozanatni saqlab turadi.

Uchinchidan, jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini, ishlab chiqarish faolligini oshiradi.

To‘rtinchidan, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyalovchi vositya sifatida xizmat qiladi.

Beshinchidan, voqelikda keng ildiz otgan, lekin ma’naviy taraqqiyotga tusiklik qilayotgad munosabatlarni bartaraf etadi.

Oltinchidan, kelajakka ishonch tuyg‘ularini uyg‘otadi. Unda adolatning asosiy mezoni ma’naviy taraqqiyot ekanligi ta’kidlangan.

Ma’naviyatshunoslikka oid luhatda esa, adolat tushunchasiga quyidagicha

umumiy tasnifi berib o‘tilgan;

“1) talab va taklif qoidasi;

2) teng imkoniyatlar qoidasi;

3) ehtiyoj qoidasi;

4) ma’naviy kafolat qoidasi;

5) xizmat ko‘rsatish qoidasi;

6)mutanosiblik qoidasi;

7)ekvivalentlik qoidasi;

8)rag‘batlantirish qoidasi;

9) kasbiy layoqatlilik qoidasi;

10)ma’naviy foydalilik qoidasi” [3:29].

Mazkur qoidalar bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha demokratik jamtlarda keng qaror topgan. Bu qoidalar hayotga qanchalik keng joriy etilsa, fuqarolik jamiyati poydevori shunchalik mustahkam bo‘ladi.

O‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarining adolat haqidagi fikrlari, g‘oyalari, qarashlari va ta’limotlari bilan tanishish, birinchidan, adolat haqidagi tugal, ilmiy asoslangan dunyoqarash shakllanishiga olib keladi. amalda, vujudga kelgan va rivojlanayotganyangi jamiyatdagi adolatli munosabatlarning qadri qimmatiga etish va nihoyat, uchinchidan, adolat tamoyillari kishilarning o‘zaro munosabatlarida kundalik odat shakliga kirib borishiga yordam beradi.

Adolatlilik va adolatsizlik kishilar hayotida turlicha munosabatlarda namoyon bo‘ladi, ya’ni bu haqdagi tushunchaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tomonlari bor. Ular esa bir-birlaridan farq qiladilar. Lekin bu turlicha munosabatlarning o‘zlari o‘zaro bog‘lanishli bo‘lgani kabi, ularning ifodasi bo‘lgan adolat tushunchasining ham ma’naviy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy mazmunlari ham yaqin birlikni tashkil etadi, Ular bir-birlarini to‘ldiradi va binobarin, ular bir-birlarini to‘ldiradi.

Mutafakkirlarning adolat haqidali fikrlarida ham shunday bog‘laiishlikni ko‘ramiz. Ularning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarda bayon etgan adolatliliq va adolatsizlik haqidagi fikrlarida axloqiy tomonning ham aks ettirilishi ko‘riladi. Turli jamiyatlarda mutafakkirlarning adolat haqidagi fikrlari turlicha bo‘lgan, ularda ma’lum toifalarning maqsadlari o‘z ifodasini topgan. Lekin adolat tushunchasining umuminsoniy mazmuni ham bo‘lgan. U ko‘proq xalq ijodi asarlarida va shuniigdek eng ilg‘or mutafakkir, shoir va san’atkorlarning asarlarada joy olgan. Bunday buyuk-shaxslar o‘zlarining manfaatlari doirasidan yuqoriroq ko‘tarilib, adolat tushunchasini umuminsoniy manfaatlarda ifodalaganlar. Masalan, o‘tmishdagi og‘ir ekspluatatsiya va zulmga qarshi, asorat va qullikka qarshi, hukmron sinf va toifalarning imtiyozlari va bosh(qalarning kamsitilishiga qarshi, bosqinchilik va o‘zaro qirg‘in urushlar, uning natijasida xalq ommasining

xonavayronligi, tekinxo‘rlik va maishatparastlikka qarshi qaratilgan, mehnat va mehnatkash xalqni qadrlash va ulug‘lash, mamlakatlar, xalqlar va odamlar o‘rtasida chin do‘stlik o‘tnatish, tinchlik va osoyishtalikni barqaror |qilish. hamma uchun teng, barobar va farovon hayot qurish haqidagi fikrlar, g‘oyalar umuminsoniy mazmundagi fikrlardir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganlaridek, “Ajdodlarimiz armonlari o‘sha davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Motrudiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘lgan” [1:16].

Xulosa o‘rnida aytganda adolat tushunchasi nafaqat huquqiy-axloqiy, ma’naviy tushuncha, kategoriya balki falsafiy kategoriyasi hamdir. Adolat inson faoliyatini baholovchi tushuncha bo‘lib, u inson taffakkur faoliyatini ham baholashi mumkin. Hozirgi ma’naviy yangilanish jarayonlarida adolat tushunchasining mazmun va mohiyati yanada teran ahamiyat kasb etib, yoshlarimizni kamolot omillaridan biri sifatida bo‘y ko‘rsatib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston srtategiyasi. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2021.
2. Aliqulov H. Adolat buyuk donishmandlar talqinida. -T.: Falsafa va huquq, 2010.
3. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. -T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2021.
4. Falsafa. Qomusiy lug‘at. -T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004.

MILLIY TURIZMNING RIVOJLANISHI TIZIMLI VA QONUNIYATLI JARAYON SIFATIDA

Xashimov SH.J.,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar”kafedrasi
f.f.b.f.d.,(PhD) dotsenti.

Bugungi kunda O‘zbekistonda zamonaviy sayyohlik infratuzilmasini shakllantirishga jamiyat hayotidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatning turizm sohasidagi samaradorligini oshirish, turizm infratuzilmasini shakllantirish eng avvalo mamlakatdagi tinchlik, xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka bog‘liq bo‘lib, turizm sohasida mamlakatning ichki

salohiyatini namoyon etish, tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarni obod qilish, tabiiy landshaft, moddiy-madaniy va me'morlik namunalarini yuksaltirish, turfirmalar faoliyatini, mehmonxona hamda boshqa kommunikatsiya tarmoqlarini, transport infratuzilmalarini, umumiy ovqatlanish va ko'ngilochar obyektlar imkoniyatlarini oshirish, davolash va sport yo'nalishlarini faollashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish, turistik klasterlarni yaratish, sohaga strategik sheriklarni jalb qilish, sayyohlik infratuzilmasi va turizm sanoatini jadal rivojlantirish, hududlarning sayyohlik salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga olib chiqish borasidagi faoliyatimizni jadal rivojlantiramiz[1], - deydi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda turizmning o'ziga jalb etuvchi vositasi sifatida axborot bozori ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish, axborot texnologiyalari salohiyatidan samarali foydalanish, milliy turizmni rivojlantirishda reklamadan unumli ravishda foydalanish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Turizm xizmatlarini tashkil qilish bo'yicha xalqaro global axborot tizimlariga ulanish va lokal servislarni yaratish, internet tarmog'ida mamlakatimizning turistik imkoniyatlari haqidagi axborot resurslarini kengaytirish zarurdir. O'zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masala bo'lib, turizm industriyasini rivojlantirish turistik resurslardan unumli foydalanish va xizmat ko'rsatadigan infratuzilmani yuqori saviyaga olib chiqishni nazarda tutadi. Zamonaviy mehmonxonalar qurish, sayyohlarga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, turistik shaxobchalarni yanada kengaytirish, turoperatorlikni rivojlantirish, mehmonxona hamda restoran xizmatlarini xalqaro talablar darajasiga yetkazish, ekoturizmni izchil yo'lga qo'yish uchun tabiiy iqlim imkoniyatlaridan keng foydalanish, tarixiy yodgorliklar va obidalarni qayta ta'mirlab, chet ellik hamda mahalliy sayohatchilarni ularga jalb etish, turistlarga transport, tarjimonlar va ekskursovodlar xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash hamda turizmni rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlash turizm sohasini rivojlantirishga tizimli tarzda yondashuvni talab qiladi.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasini shakllantirish jarayonida alohida e'tibor qaratilayotgan jihatlardan biri bu turizmning xavfsizligi masalasi bo'lib, xavfsiz turizm deganda faqatgina jismoniy xavfsizlik emas, balki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi, tibbiy xizmat ko'rsatish sohasidagi xavfsizlik ham

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2021 йил, 172 бет.

tushuniladi. Turizmni tizimli tahlil qilganda, u murakkab ichki aloqalar va tashqi munosabatlar asosida boshqa tizimlar, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy, axborot va boshqa sohalar bilan o‘zaro uyg‘un holatda rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Turizm tizimi o‘ziga xos xususiyat, maqsad, vazifalar va strukturasiga ega bo‘lib, turizm sistemasiga xos bo‘lgan xususiyatlar bu uning ochiqligi, yaxlitligi, izchilligi va ketma-ketligidir. Turizm tizimi bu ochiq tizim bo‘lib, u turli tashqi tizimlar bilan o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda, ularning resurs va axborotlarini o‘zaro ayirboshlash asosida faoliyat olib boradi. Turizm tizimi o‘z-o‘zidan rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lib, bu rivojlanish tizimning o‘z-o‘zini saqlash va takomillashishini ta’minlaydi. Turizm tizimining maqsadi mustahkam, ommaviy va raqobatbardosh turizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Turizm tizimining asosi muayyan strukturadan iborat bo‘lib, bu struktura elementlar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning amal qilish mexanizmi asosida faoliyat olib boradi. Turizm tizimining strukturasi deganda sistemaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uning yaxlitligi va barqarorligini ta’minlaydigan elementlarning birligi va ular o‘rtasidagi barqaror aloqadorlik tushuniladi. Turizm tizimining faoliyati muayyan bir maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan elementlarning doimiy ravishda o‘zaro bog‘liqlikdagi va aloqadorlikdagi faoliyatini o‘zida ifodalaydi. Turizm tizimi tizim osti birliklari, strukturalardan, strukturalar elementlardan tashkil topib, murakkab ijtimoiy tizim sifatida jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayot sohalari bilan bevosita bog‘liqlikda va aloqadorlikda rivojlanadi. Umuman olganda, tur - turist uchun ma’lum marshrutda, ma’lum turistik obyektga, ma’lum muddatda taqdim etiladigan, turli xizmatlar (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati, maishiy, turistik ekskursiya va boshqa) to‘plamidir[1] .

O‘zbekistonda milliy turizmning rivojlanishi jarayoni bir butun, yaxlit, o‘zaro bog‘liqlikda va aloqadorlikda bo‘lgan, muayyan ijtimoiy qonunlar amal qiladigan ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda milliy turizm tizimining takomillashib borishi jarayonida amal qiladigan qonunlar muayyan shart-sharoitda voqealar rivojining xususiyati va yo‘nalishini belgilab, ma’lum bir qat’iy natijani taqozo etadi, O‘zbekistonda milliy turizm rivojlanishi jarayonidagi muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini o‘zida ifodalaydi. Qonun voqealarning rivojlanishi xususiyati va yo‘nalishini belgilab, turizm rivojlanishi jarayonida amal qiladigan qonunlar voqealar oqimining qat’iy va aniq yo‘nalishda bo‘lishini taqozo etadi. Turizm sohasida amal qiladigan qonunlar muayyan sharoitda namoyon bo‘lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan takomillashib boradi.

[1] Ҳайитбоев Р., Амриддинова Р. Туризмнинг махсус турлари. Самарқанд 2008 йил, 12 бет.

Turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, turizmni tizimli tahlil qilganda u o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy, ziyorat, etnografik, ekologik, ma’rifiy, gastronomik, tibbiyot, sog‘lomlashtirish, sarguzasht, ishbilarmonlik, ijtimoiy, yoshlar, agroturizm kabi turlarga bo‘linadi. Turizm tashkil etilish ko‘lamiga ko‘ra xalqaro, milliy va ichki turizm kabi guruhlar doirasida tashkil etiladi. Turizm o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi tizim sifatida turizmni tashkil etish, xizmat ko‘rsatish, maqsadi va foydaliligi bo‘yicha tasniflanadi.

Turizmga odamlarning harakati nuqtayi nazaridan, iqtisodiy kategoriya sifatida, siyosiy vaziyat va odamlarning faol dam olishi nuqtayi nazaridan yondashuvlar mavjud bo‘lib, odamlarning harakati nuqtayi nazaridan turizm odamlarning bir joydan ikkinchi joyga vaqtincha borib kelishini, iqtisodiy kategoriya sifatida turistlarni qabul qiluvchi mamlakat uchun foyda keltiruvchi iqtisodiy jarayon sifatida ko‘rib o‘tiladi. Turizmga siyosiy vaziyat nuqtayi nazaridan yondashilganda u siyosiy jihatdan barqaror, tinchlik va totuvlik mavjud bo‘lgan joyda, mamlakatda mavjud bo‘lishi zarurligiga e’tibor qaratiladi. Agar turizmga odamlarning faol dam olishi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsa, ularning bo‘sh vaqtlarida o‘zlari yashaydigan joydan boshqa joyga dam olish uchun borishi, do‘stlari, qarindoshlarini ko‘rib kelishi, tabiat va hayvonot olamidan bahramand bo‘lish maqsadida tog‘larga va boshqa xushmanzara joylarga borishi kabi jarayonlarni kiritish mumkin[1].

Turistik maqsadlar bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, dam olish, sog‘lomlashtirish, mehmonda bo‘lish, ish yuzasidan ayrim masalalarni hal qilishga qaratilgan maqsadlarni o‘zida ifodalasa, turistik ehtiyoj sayohat, o‘tkazilayotgan tur jarayonida turist tomonidan o‘zining ma’naviy va moddiy ehtiyojini qondirishni, yangi bilimlarga ega bo‘lish, dunyoqarashini kengaytirish, sog‘lig‘ini tiklash, taomlar, kiyimlar, madaniyat buyumlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishni o‘zida ifodalaydi. Turistga xizmat ko‘rsatish sohasida muayyan turistik sayohatni tashkil etish, transport, yotoqxonalar, ovqatlanish, dam olish, ko‘ngil ochish sohasida ko‘pgina turistik faoliyat subyektlari turistning talab va ehtiyojidan kelib chiqqan holatda o‘z faoliyatlarini tashkil qiladilar. Turistning talab, ehtiyoji va manfaati turistik xizmatlarni tashkil etishda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Turistlar o‘zlarining turistik sayohatlarini ma’lum maqsadni ko‘zlagan dam olish, qarindosh urug‘larni yo‘qlash, ekoturizm, ekstremal turizmdan bahramand bo‘lish, davolanish, taomlarni tanovul qilish, turli qiziqarli tadbirlarda ishtirok etish maqsadida tashkil etilishi mumkin. Turizm ommaviylik xususiyatiga ega bo‘lib, u aholining barcha ijtimoiy qatlamlarini qamrab oladi. Yoshlar, aholining o‘rta

[1] Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. Тошкент 2007 йил, 4 бет.

qatlami, keksalar, ekstremal, sport, madaniy-ma’rifiy, ziyorat, tibbiyot, sog‘lomlashtirish, ekologik turizm kabi turizmning turli yo‘nalishlarida guruhlarga birlashib o‘z sayohatlarini amalga oshirsalar, oilaviy turizmda butun oila a’zolari birgalikda maroqli va qiziqarli dam olishga harakat qiladilar.

Turizmni rivojlantirishda turistlar boradigan mamlakatdagi tinchlik-barqarorlik, turistlarning havfsizligi, xizmat ko‘rsatish madaniyatining yuqoriligi, turizm infratuzilmasining mukammalligi, narx-navoning talab darajasida ekanligi kabi omillarga e’tibor qaratiladi. Turizmning rivojlantirilishi turistlar uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, reklamaga e’tiborni kuchaytirish, ichki va tashqi turizmni rivojlantirganda turistlar uchun tomosha qilish, dam olish, yashash, transportdan foydalanishda yangi-yangi xizmat turlarini taklif qilish, turistlarga xizmat ko‘rsatish madaniyati darajasini yuqori ko‘tarish, xizmat ko‘rsatish sohasida turli chegirma va imtiyozlarni tashkil qilish mamlakatda turizmning taraqqiyotiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek turizm infratuzilmasi bu barcha elementlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tizim bo‘lib, turistning mamlakatga kirib kelishidan to o‘z yurtiga jo‘nab ketishiga qadar turistik xizmat ko‘rsatish sohasidagi barcha subyektlarning o‘zaro uyg‘un va sifatli xizmat ko‘rsatishni tashkil etishi mamlakatning turizm sohasidagi xalqaro imidjining o‘sib borishiga xizmat qiladi. Turistik xizmatlarni tashkil qilishdagi turli byurokratik to‘siqlar, turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatining pastligi, sayohatlarning yaxshi tashkil qilinmaganligi mamlakatga turistlar kelishining kamayishiga sabab bo‘ladi. Chunki sayohatga kelib ketgan turistlar o‘zining tanish-bilish va qarindosh-urug‘lariga ma’lum bir mamlakat va hududlarga sayohatga borish yoki bormaslik xaqidagi o‘zlarining tavsiyalarini beradilar. Ommaviy axborot vositalari, internet orqali berilayotgan turizmga tegishli ma’lumotlar ham kelgusida mamlakatga keladigan turistlar sonining ko‘payishi yoki kamayishiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Turizm sohasi juda ham keng qamrovli bo‘lib madaniy-ma’rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, tibbiyot va sog‘lomlashtirish, ziyorat va diniy, ekstremal turizm kabi turizm turlarini tashkil etishda turistik marshrutlar ishlab chiqiladi, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi shakllantiriladi. Tarixiy-madaniy va arxeologik yodgorliklar, tabiatning so‘lim go‘shalari, shifobahsh buloqlar va g‘orlar, muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar qadimdan sayohat va ziyorat obyekti sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Shuning uchun turistik sayohatlarni tashkil etishda turizmni rejalashtirish, tashkil qilish va boshqarishdagi vorislik qonuniga amal qilish, ota-bobolarimiz kabi turistik obyektlarni asrab-avaylash, ularni toza va ozoda tutish, har-tomonlama qo‘llab-quvvatlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodda vatanparvarlik, burch va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishda turistik obyektlardan foydalanish masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Milliy turizmning rivojlanishi mamlakatdagi tinchlik, xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik sharoitida amalga oshiriladi. Milliy

turizmning rivojlantirilishi uchun eng avvalo uning huquqiy asoslari yaratiladi. Turizm jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohalariga ta’sir ko‘rsatib, turizm natijasida mamlakatning ichki salohiyati namoyon etiladi, tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar obod qilinadi, tabiiy landshaft, ekoturizm, agroturizm, etnoturizm, diniy turizm marshrutlari ishlab chiqiladi. Turfirma va turoperatorlar, mehmonxona va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari, transport infratuzilmalari, umumiy ovqatlanish va ko‘ngilochar obyektlardagi xizmat ko‘rsatish masalasiga e’tibor kuchaytiriladi. Turizm aholini ish bilan ta’minlash, milliy madaniyat, hunarmandchilikning rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanilib, turizm xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha xalqaro global axborot tizimlariga ulanish, lokal servislarni yaratish, internet tarmog‘ida mamlakatning turistik imkoniyatlari xaqidagi axborot resurslarni kengaytirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Turistik firmalar va turoperatorlar tomonidan turistlarning yoshi, qiziqishi hisobga olingan holda turli turistik marshrutlar ishlab chiqiladi. Ushbu turistik marshrutlarni ishlab chiqishda madaniy-ma’rifiy, davolash-sog‘lomlashtirish, etnografik, tarixiy, ekologik, gastronomik, ziyorat va boshqa turizm turlarini o‘zaro bir-biri bilan uyg‘unlashtirgan holatda turizm marshrutlari turistlarning qiziqishlari hisobga olingan holatda modellashtiriladi. So‘ngra guruhlar tashkil qilinib turistik sayohatlar tashkil etiladi. Turizmni tashkil qilishni modellashtirishda turistning e’tiqodi, madaniyati, mentalitetini hisobga olish zarurdir. Har bir turistga ko‘rsatiladigan xizmat turlari, yashash joylaridagi shart-sharoit bir-biridan farqli xususiyatga ega bo‘lib, mehmonxonalarga ibodat qilish uchun zarur bo‘lgan muqaddas kitoblar va ibodat buyumlarining qo‘yilishi, turistlar uchun o‘zlarining milliy taomlarining tayyorlanishi, gidlar tomonidan yuqori darajada xizmatning tashkil etilishi turizm infratuzilmasining takomillashib borishida muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonda sayyohlik infratuzilmasi takomillashtirilib, sohada malakali kadrlar tayyorlash, sayyohlik marketingi va menejmentini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Turizm infratuzilmasi deganda turistlarning turistik resurslardan foydalanishni ta’minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, yo‘llar, turizmning xilma-xil korxonalari hamda turizm korxonalarining ishlatilishini ta’minlash uchun imkon yaratishga xizmat qiladigan obyektlar majmui tushuniladi[1]. Bugungi kunda mamlakatimizda turizm rivojlangan xorijiy davlatlarning erishilgan yutuqlari ijodiy tarzda o‘rganilib,

[1] Остонов Ў.Я. Ўзбекистон ҳудудида туризм инфратузилмаси салоҳияти // “Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантиришда табиий ва этнографик ресурслардан самарали фойдаланиш муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. (2019 йил 13-14 ноябрь), Самарқанд, 2019 йил, 95 бет.

O‘zbekistonga chet ellik investorlarning mablag‘lari kiritilmoqda, yangi turizm infratuzilmasini shakllantirishda xorijiy davlatlarning tajribalariga tayanilmoqda. O‘zbekistonda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish aholini ish bilan ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, milliy hunarmandchilik, kasanachilikni rivojlantirish, milliy taomlar, milliy madaniyat, milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosim va bayramlar kabi milliy qadriyatlarni tiklash va yuksaltirish asosida amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda milliy turizm tizimining takomillashib borishi iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayot sohalariga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan subyektlarning innovatsion va kreativ yondashuvi talab etilmoqda. O‘zbekistonda zamonaviy turizm industriyasini shakllantirish uchun ko‘plab imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, sohani rivojlantirishga kompleks yondashilmoqda, respublikada ko‘plab zamonaviy sayyohlik infratuzilma obyektlari shakllantirilmoqda. Milliy turizmni rivojlantirishda, turizm infratuzilmasini shakllantirishda tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda milliy turizmning rivojlanishi jarayonida amal qiladigan qonuniyatlar mamlakatdagi muayyan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitda turizm sohasidagi ijtimoiy jarayonlar rivojining xususiyati va yo‘nalishini belgilaydi, ma’lum bir qat’iy natijani taqozo etadi, nisbiy barqaror munosabatlarni o‘zida ifodalaydi. O‘zbekistonda turizmni boshqarish, infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni o‘zaro bog‘liqlik, aloqadorlikda bo‘lgan, qonuniyatli jarayon sifatida amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021 yil, 172 bet.

2. Hayitboyev R., Amriddinova R. Turizmning maxsus turlari. Samarqand 2008 yil, 12 bet.

3. Pardayev M.Q., Atabayev R., Pardayev B.R. Turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari. Toshkent 2007 yil, 4 bet.

4. Ostonov O‘.Ya. O‘zbekiston hududida turizm infratuzilmasi salohiyati // “O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. (2019 yil 13-14 noyabr), Samarqand, 2019 yil, 95 b.

KEKSALAR - MILLAT MA’NAVIYATI TAYANCHI

Latipov Rustam Mamadaliyevich,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada keksalarning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni, milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazishdagi ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada keksalarning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va tarbiyaviy merosining milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash hamda jamiyatda qadriyatlar davomiyligini mustahkamlashdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: keksalar, milliy qadriyatlar, ma’naviyat, ma’naviy meros, ijtimoiy-falsafiy tahlil, tarbiya, avlodlar davomiyligi, milliy o‘zlik, ma’rifiy jamiyat, axloqiy qadriyatlar.

Keksalarga hurmat va e’tibor, ularni e’zozlash va qadrlash - bu Sharqona udum, millatimizga xos fazilatdir. Biz hamisha nuroniy otalarimiz va onaxonlarimiz o‘gitlari, pandu-nasihatlari, hayot hikmatlaridan saboq olib, umr yo‘limizga mazmun beramiz. Ularning har bir nasihati biz uchun saboq, ma’naviy xazinadir. So‘zsiz, keksalarimiz hayot tarzida, ulardagi vazminlik, sermulohazalik, samimiylik, bag‘rikenglik, ilm-ma’rifat va fidoyilik xislatlaridan bizga xos insonparvarlik, tinchlikparvarlik, ilm-ma’rifatga intilish, mehnatsevarlik, g‘urur-iftixor va fidokorlik tuyg‘ulari ildiz otgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilish, nafaqadagi otaxon va onaxonlar qadrini yuksaltirish hamda ularga har tomonlama yordam berish masalalarida ham kamchiliklar mavjud. Soha rivojini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan va ortiqcha qog‘ozbozlik bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi nomutanosib holatlar davlat ijtimoiy xizmati yoki yordamni taqdim etish vaqtini qisqartirish imkoniyatini bermayotganini ko‘pchilik mutasaddilar yaxshi biladi. Ammo shunga qaramasdan, bunday noxush vaziyat davom etayotganini qanday tushunish mumkin?”[1;201].

Keksalarimiz biz uchun tarixan shakllangan milliy ma’naviy qadriyatlarimiz ko‘zgusidir. Ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan qadimiy urf-odatlarimiz, an’analarimiz, udumlarimiz va marosimlarimiz ayni shu nuroniy otaxonlarimiz va onaxanlarimiz tomonidan bizning ongimiz va qalbimizga singdirilib, hayot tarzimizga aylanmoqda. E’tibor qiling, biz qanday xayrli ishni boshlamaylik, avvolo ota-onalarimiz , keksalarimiz duosini olamiz. Zero ularning har bir duoyu-fotihasida o‘zgacha bir fayz-barakot bor. Qolaversa, har bir duosida, tinchlik-xotirjamlik,

sog‘lik-omonlik tilaklari bizga hamrohlik qiladi. Ularning duosi bir dunyo hikmat. Vaholanki, tinchlik qadrini, sog‘liq qadrini, osayishtalik va omonlik qadrini ularchalik chuqur anglagan, hayotiy tajribasida sinovdan o‘tkazgan zot yo‘qdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda “2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonning doimiy aholisi tarkibida 60 yoshdan yuqori yoshdagilar soni qariyb 3,5 mln kishini tashkil etgan”[2]. Ayni paytda yurtimizda “2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 2 262,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, 657,0 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 5 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 2 108,1 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni 736,0 ming kishini tashkil etgan” [2].

Darhaqiqat, bugungi yoshlarimiz milliy ma’naviyatimiz negizlarini chuqur o‘rganib, tariximizga va kelajagimizga ishonch bilan qaramoqdalar.

Zero, bizning tariximiz-bu o‘tmish madaniy merosimiz, ajdodlar qoldirgan yodgorliklar barobarida bugungi kunda biz bilan yonma-yon yashab, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini o‘z umrlari sahifalarida namoyon qilayotgan, bizga saboq va namuna bo‘layotgan nuroniy keksalarimiz, ustozlarimizdir. Biz barcha urf-odatlarimiz, an’analarimiz hayotiyligini aynan keksalarimiz ibratidan namuna qilib olamiz. Milliy bayramlarimiz, marosimlarimiz, tadbirlarimiz ularning ishtiroki bilan mazmunli va ulug‘vordir. Halqimizga xos milliy fazilatlarimiz, ularni o‘zligimizga singdirish, ularga amal qilish qonun-qoidalarini biz qariyalarimiz amaliy faoliyatidan, nasihatlaridan uqib olamiz. Oddiy salom-alikni oling. Keksalarimiz uqtirishadiki, avvalo salom qalban samimiy bo‘lmog‘i lozim. Chunki, ushbu fazilatda ko‘p piru-hikmat bor. Salomlashgan chog‘da bir-biringizga e’tiborli bo‘ling, yuzingiz-yuzingizga, ko‘zingiz-ko‘zingizga tushsin.Shu tariqa bir-biringizning chehrangizdagi nur va samimiylikni his etasiz, ko‘tarinkilik olasiz. “..... keksalar, jumladan, yolg‘iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yaxlit va ta’sirchan tizim yaratish zarur. Bu toifa uchun ajratilayotgan ijtimoiy to‘lovlar miqdori ham qayta ko‘rib chiqilishi kerak”[3].

Tilimiz sofligi va tiniqligi keksalarimiz muomala madaniyatidan namuna sifatida bizga o‘tadi. Diniy, e’tiqodimiz butligi, diniy ma’rifat bizga keksalarimiz merosidir. Oilamiz butligi, mustahkamligi va ahilligi borasida keksalarimizning roli, xizmatlari va fidoyiligi beqiyosdir. Milliy bayramlarimizda aynan qariyalarimiz rahnamoligida milliy va diniy bag‘rikenglik fazilatlarimizni namoyon qilmoqdamiz.

Yosh oilaning tashkil etilishi, yoki yangi insonning dunyoga kelishi bilan bog‘liq udumlarimizda ulug‘larimiz hamisha bosh-qoshdir. Xuddi shunday, ilm-ma’rifat borasida keksalarimiz bizga yo‘lchi yulduzdir. Ularning oqilona o‘gitlari ila biz ilm ziyosiga intilamiz, ma’rifatga yuz tutamiz.

Keksalarimizdan bizga meros bo‘lib o‘tayotgan azaliy milliy - ma’naviy qadriyatlarning munosib vorislari sifatida biz otalarimizdan, tabarruk onalarimizdan olib, o‘zligimizga jo qilayotgan milliy fazilatlarimiz bilan Vatan ravnaqi, yurt tinchligi yo‘lida fidoyilikka azmu-qaror qilganmiz.

Hech shubhasiz aytish mumkinki, keksalarimiz millat tayanchi, xalq e’tiqodi ko‘zgusidir. Biz bugun qo‘limizda mahkam tutgan mustaqillik bayrog‘i ularning matonat va jasorati, irodasi, sermashaqqat va fidokorona mehnati ifodasidir. “Keksalar uchun 152 ta tuman va shaharda “Nuroniylar maskani” majmualari tashkil etildi, barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to‘liq miqdorda to‘lash yo‘lga qo‘yildi, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda nuroniylar jamoatchilik kengashlari, mahallalarda “Keksalar maslahati” guruhlari tashkil etildi, “Keksalar haftaligi” va “Keksalar uchun turizm oyligi”ni o‘tkazish an’anaga aylandi” [4].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, biz bilan yonma-yon, hamnafas bo‘lib barcha bunyodkorlik ishlarimizga bosh-qosh, ibrat bo‘layotgan keksalarimizni e’zozlash, ularning qadriga yetish- insoniy fazilatimiz, farzu qarzimizdir. Ana shu mas’uliyatni to‘g‘ri anglab, farzandlik burchimizni ado eta olsak, bilingki, hech qachon na “Qariyalar uyi”ga va yoki “Mehribonlik uylari”ga ehtiyoj qolmaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2021. - 464. b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi O‘zbekiston Respublikasining Demografik holati. 2024-yil yanvar-sentabr. // stat.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://president.uz/oz/lists/view/3324
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.03.2022 yildagi “Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-167-son Qarori // https://lex.uz/ru/docs/-5910513

NAFOSAT TARBIYASI - BARKAMOL HAYOT MEZONI

Quvvatov Sardor Isomiddinovich,
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya Maqolada estetik tarbiyaning inson ma’naviyati hamda turmush madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Muallif tomonidan globallashuv sharoitida yoshlar ongiga ta’sir etayotgan omillar, oilaviy muhit, milliy qadriyatlar va estetik didning shakllanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, estetik tarbiyaning insonning ichki dunyosi, xulq-atvori va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlariga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: estetik tarbiya, ma’naviyat, madaniyat, estetik ong, oila, globallashuv, estetik did, go‘zallik, san’at, turmush madaniyati.

Jamiyatning taraqqiy etishi faqat iqtisodiy yoki texnik yutuqlarga bog‘liq emas, balki insonning ma’naviy va madaniy kamolot darajasi bilan ham belgilanadi. Shaxsning estetik didi, qarashlari va ichki ma’naviy dunyosi uning kundalik hayot tarzida, jamiyatdagi munosabatlarida hamda xulq-atvorida o‘z ifodasini topadi. Shu nuqtayi nazardan, estetik tarbiya barkamol avlodni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi globallashuv sharoitida axborot oqimlarining tezlashuvi, ommaviy madaniyatning keng yoyilishi hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi yoshlar dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng foydalanilishi natijasida ba’zi hollarda milliy qadriyatlarga zid bo‘lgan g‘oyalar ham yoshlar ongiga kirib kelmoqda. Shu sababli oila, mahalla va ta’lim muassasalarida estetik tarbiya masalasiga yanada mas’uliyat bilan yondashish zarur bo‘ladi.

Estetik tarbiya insonning go‘zallikni his qilishi, uni anglay olishi va kundalik hayotiga tatbiq etishida muhim ahamiyat kasb etadi. Nafaqat san’at asarlari, balki insonning kiyinish madaniyati, muomala odobi, yashash muhiti va atrof-muhitga bo‘lgan munosabati ham estetik tafakkur bilan chambarchas bog‘liqdir. Did bilan jihozlangan uy, ozodalikka amal qilish, muomala madaniyati va nafislikka intilish insonning ichki dunyosini aks ettiradi.

Estetik tarbiya kishilarda estetik his, estetik ong va estetik munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shaklidir[1]. Estetik tarbiyani mehnat tarbiyasining ajralmas bir qismi sifatida ham tushunish mumkin. Kishilarda estetik his-tuyg‘u, estetik did, estetik ideal kabi estetik ong unsurlarining shakllanib borishi estetik tarbiyaning rivojlanishu uchun zamin yaratadi. Estetik tarbiya asosida

[1] Falsafa qomusiy lug’at, Toshkent, 2004, 466-bet.

hayotdagi va san’atdagi go‘zallikni to‘g‘ri idrok etish, kishilardagi estetik ehtiyojlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, har bir ota-ona, o‘qituvchi, ustozning burchidir. Bolalarni yoshligidan boshlab tabiat va san’at go‘zalligi olamiga olib kirish bilan birgalikda, kuy, musiqa ohangi, nafis gullar tarovati va chiroyi, san’at asarlari bilan tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir.

Estetik tarbiya inson ma’naviy kamolotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda estetik ong, estetik did va estetik ehtiyojlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Inson yoshlik davridan boshlab go‘zallikni his etishga, san’atni qadrlashga va hayotdagi nafis jihatlarni anglashga o‘rgatiladi. Bu jarayonda oila muhim tarbiya maskani sifatida namoyon bo‘ladi.

Oiladagi muhit, ota-onaning muomalasi, kiyinish madaniyati, uy jihozlarining tartibli joylashuvi ham bolada estetik qarashlarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Farzand avvalo oilada go‘zallikni ko‘rishni, ozodalikni qadrlashni va odob-axloq me’yorlariga amal qilishni o‘rganadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar estetik tarbiyaning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Estetik tarbiyaning vazifasi obyektiv olam go‘zalligi xilma-xil ko‘rinishlarini ajratib yoshlar dunyoqarashini nafosat tuyg‘ulari bilan boyitib borishdan iboratdir. Estetik tarbiya kishilarning bir-biriga o‘zaro munosabatini aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Voqelikni mushohada etish, jamiyatdagi xilma-hil ehtiyojlarni qondirishda estetik tarbiya kishiga ruhiy quvvat bag‘ishlaydi[1].

Bugungi kunda ayrim yoshlar orasida chet madaniyatiga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish, me’yoridan ortiq pardoz, bachkana kiyinish yoki zararli odatlarga moyillik kabi holatlar uchrab turibdi. Bunday holatlar estetik didning sust shakllanganligini ko‘rsatadi. Asl estetik madaniyat esa insonning soddalik, ozodalik, muomala madaniyati va ichki go‘zallik orqali namoyon bo‘ladi.

Estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan doimo aloqada bo‘lib keladi. Badiiy tarbiya ijod jarayonidagi rang-barangliklar olamini inson tomonidan estetik tarzda anglash va o‘zlashtirishning bir qismidir. Estetik tarbiya esa, jamiyatda ma’naviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim unsur bo‘lib, u insonning didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir[2]. Estetik tarbiyani olib borishda, estetik qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishda, o‘tmish madaniyatimiz va milliy estetik tarbiyamizni bir-biri bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Estetik tarbiya san’at bilan ham uzviy bog‘liqdir. Musiqa, teatr, adabiyot, tasviriy san’at va xalq amaliy san’ati inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, unda

[1] G’aybullayev O., Estetika. Samarqand – 2004, 116-bet.
[2] Abdulla Sher, Bahodir Usmonov, Erkin Umarov. Estetika. Toshkent – 2008,159-bet.

nafis his-tuyg‘ularni shakllantiradi. Ayniqsa, milliy san’at namunalarini yoshlar ongiga singdirish ularda milliy g‘urur va estetik tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, estetik tarbiya insonning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlariga ham ta’sir etadi. Estetik ongga ega inson atrofdagilar bilan madaniyatli muomala qiladi, tabiatga ehtiyotkorona yondashadi va yashash muhitining obodligiga e’tibor beradi. Bu esa jamiyatda ma’naviy sog‘lom muhitning shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbek xalqining estetik tarbiyasi milliy qadriyatlarimiz va undagi insoniylik tamoyillari bilan bog‘langan. Bolalarni estetik tarbiyalash, ularning aqliy, axloqiy, jismoniy yuksalishida katta rol o‘ynaydi. Hattoki, maktablardagi va o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zining milliyligi jihati bilan butun jahon xalqlari diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya insonning ma’naviy kamoloti va turmush madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. U insonda go‘zallikni his qilish, estetik didni rivojlantirish va hayotga ongli munosabatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Falsafa qomusiy lug‘at, Toshkent, 2004. - 466-bet.
2. G‘aybullayev O., Estetika. Samarqand, 2004. - 116-bet.
3. Abdulla Sher, Bahodir Usmonov, Erkin Umarov. Estetika. Toshkent - 2008. - 159-bet.

ФИЛОСОФИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Мажидов Шерзод Фарходович,
Старший преподаватель кафедры общественных и гуманитарных наук Самаркандского государственного медицинского университета
e-mail: mitra7777@mail.ru

Концепция «Новый Узбекистан» в эпоху масштабных общественных и политических преобразований происходящих в Узбекистане, стала символом обновления государственного управления, социальной политики и внешнеполитических приоритетов. В центре стоят переосмысление роли Узбекистана как ключевого субъекта в региональной политике Центральной Азии, выступающего за равноправное, уважительное и обоюдовыгодное сотрудничество с соседями.

Региональное сотрудничество сегодня рассматривается не только как внешнеполитический инструмент, но и как фактор, способствующий

внутренней стабильности и устойчивому развитию. Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев является ключевой фигурой в реализации концепции «Новый Узбекистан», и его политика направлена на трансформацию Узбекистана в современное, динамично развивающееся государство [Мирзиеев Ш., 2021].

Данная концепция включает в себя экономические, политические, социальные и культурные преобразования, нацеленные на улучшение жизни граждан и повышение международного авторитета Узбекистана. Одним из неотъемлемых элементов данной концепции стало поднятие регионального сотрудничества в Центральной Азии на качественно новый уровень.

Руководство Узбекистана с 2016 года активизировало дипломатические усилия на региональном направлении. Были подписаны десятки соглашений с соседними государствами, направленных на восстановление доверия и решение накопившихся проблем - от демаркации границ до торговых барьеров.

Хотя исследователями уже давно был сделан вывод о неизбежности становления регионализма в условиях общей истории, цивилизационной близости и «общности интересов» [Алимов Р., 2005], но лишь с 2016-2017 годов данное направление перешло из области теории к практической реализации в виде долгосрочных политических решений.

Среди реализованных проектов по интенсификации регионального сотрудничества особую значимость представляют консультативные встречи глав государств региона. Примечательно что инициатором их проведения выступило именно руководство Республики Узбекистан. Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев в своём выступлении на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН в сентябре 2017 года отмечал, что «главным приоритетом своей внешней политики Узбекистан сегодня определяет регион Центральной Азии. Находясь в самом сердце Центральной Азии, Узбекистан непосредственно заинтересован в том, чтобы регион стал зоной стабильности, устойчивого развития и добрососедства. Узбекистан решительно настроен на диалог, конструктивное взаимодействие и укрепление добрососедства. Мы готовы к разумным компромиссам со странами Центральной Азии по всем без исключения вопросам. Благодаря совместным усилиям, в регионе в последние месяцы значительно повысился уровень политического доверия. Прорыв в этом очень чувствительном вопросе, достигнутый впервые за 26 лет, стал возможным благодаря проявленной сторонами политической воле, готовности находить взаимоприемлемые решения. Считаю, что закреплению данной тенденции способствовало бы проведение регулярных консультативных встреч глав государств Центральной Азии» [Мирзиеев Ш., 2017]. Всего с 2018

году прошло уже 6 подобных консультационных встреч на которых были решены важнейшие вопросы многопланового регионального сотрудничества.

Первая консультативная встреча президентов стран региона в марте 2018 года стала историческим эпицентром возрождения регионального диалога. В канун национального праздника Навруз лидеры Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана обсудили системное снятие накопившихся барьеров: демаркацию границ, упрощение торговых процедур, укрепление транспортной инфраструктуры и создание эффективного формата многостороннего сотрудничества. Итогом стало увеличение товарооборота на 20 %, подписание ключевых документов, а также дало мощный сигнал о готовности региона двигаться вперёд на основе доверия и прагматичного подхода [4, 2018].

Второй саммит в Ташкенте в ноябре 2019 года стал логическим продолжением предыдущего, здесь была подчеркнута необходимость непрерывного объявляемого формата и закрепления достигнутых договорённостей. Лидеры одобрили программу развития приграничной торговли, обсуждали развитие железнодорожных и автомобильных маршрутов, координацию совместных туристических инициатив и пограничного контроля. Акцент был сделан на институциональном построении механизма взаимодействия создание рабочих групп, расширение формата сотрудничества и формальное включение Туркменистана на высшем уровне. Встреча означала переход от декларативности к практической реализации совместных проектов [5, 2019].

На третьем консультационном саммите в Авазе (Туркменистан) главы государств впервые собрались все вместе, включая спецпредставителя ООН, что придало этому саммиту международный вес. Президент Узбекистана предложил создание транспортно-логистического коридора, свободных экономических зон и системы взаимного признания электросертификатов. Были инициированы проекты по совместной борьбе с последствиями климатических изменений, таких как спасение Аральского моря, борьба с опустыниванием и координация продовольственной безопасности региона. Значимым вкладом стало подписание инициативы по толерантности и межнациональному взаимодействию [6, 2021].

Во время четвертой консультативной встречи прошедшей в Чолпон-Ата (Кыргызстан) 21 июля 2022 года был сделан акцент на цифровую трансформацию, создание электронных платформ для торговли и таможни, развитие приграничного туризма и гуманитарных инициатив. Президент Узбекистана выступил за расширение экспериментальных коридоров между странами «цифровых мостов», фитосанитарных лабораторий и единого

ветеринарного пространства. Также здесь были обсуждены меры по развитию возобновляемой энергетики и сельского хозяйства, включая реализацию проектов по солнечной и ветровой энергетике [7, 2022].

Пятая по счёту встреча, прошедшая в столице Таджикистана городе Душанбе 14 сентября 2023 года, превратилась в гораздо более официальный форум впервые с приглашением президента Азербайджана. Ш.М.Мирзиёев представил инициативу по созданию регионального экономического совета и сертификационной системы по ISO/CODEX, также были обсуждены сферы цифрового здравоохранения, общий рынок труда и меры по улучшению климатической и продовольственной устойчивости [8, 2023].

Шестая встреча Глав государств, состоявшаяся в столице Казахстана городе Астана 9 августа 2024 года, стала поворотной точкой институционализации формата. Здесь был представлен проект «Центра регионального анализа до 2040 года», объявлено о создании Совета национальных координаторов и региональных экспертных платформ в сферах экономики, экологии, безопасности. Президент Узбекистана предложил сформировать отдельные секции по энергообеспечению, логистике, здравоохранению и цифровизации и закрепить ежегодный цикл встреч «ЦА+1» с ключевыми внешними партнёрами. Был подписан меморандум о взаимных цифровых рекордах и достижении оборота товаров до $40 млрд к 2030 году [9, 2024].

Консультативные встречи стали важным инструментом формирования новой модели центральноазиатской интеграции гибкой, прагматичной и направленной на реальное выполнение согласованных решений между странами региона. Кроме того, инициативы по поддержке мирных переговоров по Афганистану, гуманитарной помощи, инфраструктурным проектам с участием узбекских специалистов укрепляют образ региона как миротворца и надёжного партнёра [OSCE, 2023].

Концепция «Новый Узбекистан» - это не только модернизация внутренней политики, но и качественно новый формат внешнеполитического позиционирования. Здесь региональное сотрудничество приобретает многослойный характер - от политического диалога и экономических соглашений до активной социальной и гуманитарной политики, где Узбекистан выступает одним из главных инициаторов новой модели центральноазиатской интеграции.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мирзиеев Ш.М. «Новый Узбекистан - страна демократических преобразований, больших возможностей и практических дел» (17.08.2021)// режим доступа: https://president.uz/ru/lists/view/4547

2. Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. М.: Шарк. 2005 г. 462 с.

3. Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев выступил на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН (20.09.2017)// режим доступа: https://president.uz/ru/lists/view/1063

4. По инициативе Шавката Мирзиёева прошла консультативная встреча глав государств Центральной Азии (15.03.2018)// режим доступа: https://president.uz/ru/1571

5. Шавкат Мирзиёев: Мы вступили в качественно новый этап развития регионального диалога на высшем уровне (29.11.2019)// режим доступа: https://president.uz/ru/lists/view/3106

6. Президент Узбекистана выступил на Консультативной встрече глав государств Центральной Азии (06.08.2021)// режим доступа: https://president.uz/ru/lists/view/3106

7. Президент Узбекистана выступил за повышение эффективности многостороннего сотрудничества в регионе (21.07.2022)// режим доступа: https://president.uz/ru/lists/view/5357

8. Президент Республики Узбекистан выдвинул ряд предложений по перспективам дальнейшего взаимодействия государств Центральной Азии (14.09.2023)// режим доступа: https://president.uz/ru/lists/view/6659

9. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на Консультативной встрече глав государств Центральной Азии (09.08.2024)// режим доступа: https://president.uz/ru/lists/view/7456

10. OSCE Regional Security Report: Central Asia, 2023// https://www.osce.org/files/f/documents/c/7/546653.pdf

ICHKI ISHLAR XODIMLARINING SHAXSIY VA PROFESSIONAL FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISH ORQALI MA’NAVIY-RUHIY INQIROZNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY JIHATLARI

Jurayev Sardorbek Xolmuminovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyatida uchraydigan ma’naviy-ruhiy inqiroz holatlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda ushbu muammolarni bartaraf etishda shaxsiy va professional faoliyatni rag‘batlantirishning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xodimlarning kasbiy motivatsiyasi, ma’naviy barqarorligi, psixologik

tayyorgarligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, ma’naviy-ruhiy inqiroz, rag‘batlantirish, motivatsiya, professional faoliyat, ijtimoiy-falsafiy yondashuv.

Hozirgi globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborotlashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalari qatori ichki ishlar organlari faoliyatiga ham tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, jinoyatchilikning transformatsiyalashuvi, kiberjinoyatlar, axborot xurujlari, ekstremizm va turli ijtimoiy tahdidlarning ortishi ichki ishlar xodimlari zimmasiga yanada yuqori mas’uliyat yuklamoqda. Bu esa ulardan nafaqat yuqori kasbiy tayyorgarlik, balki kuchli psixologik barqarorlik, tezkor fikrlash, yuksak ma’naviy salohiyat va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini talab etmoqda. Ayniqsa, huquq-tartibotni ta’minlash, jamoat xavfsizligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi mas’uliyatli vazifalarni bajarish jarayonida ichki ishlar xodimlari doimiy ravishda stress, ruhiy bosim, xavfli vaziyatlar va emotsional zo‘riqishlarga duch kelmoqda. Uzluksiz xizmat yuklamasi, vaqt tanqisligi, jamiyatning yuqori talabi, turli nizoli holatlar bilan to‘qnash kelish hamda ayrim hollarda xizmat natijalarining yetarlicha qadrlanmasligi xodimlarda kasbiy charchoq, emotsional tushkunlik, motivatsiya pasayishi va ma’naviy-ruhiy inqiroz holatlarini keltirib chiqarmoqda.

Ma’naviy-ruhiy inqiroz shaxsning ichki dunyosidagi barqarorlikning buzilishi, kasbiy faoliyatga nisbatan qiziqishning susayishi, befarqlik va ruhiy toliqish orqali namoyon bo‘ladi[1]. Bunday holatlar esa nafaqat xodimning shaxsiy faoliyatiga, balki butun tizim samaradorligi, xizmat intizomi va jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ichki ishlar organlarida inson omiliga ustuvor ahamiyat berish, xodimlarning huquqiy, ijtimoiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Shuningdek, ichki ishlar xodimlarining shaxsiy va professional faoliyatini samarali rag‘batlantirish ularning xizmatga bo‘lgan ishonchi va sadoqatini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Rag‘batlantirishning moddiy, ma’naviy va psixologik mexanizmlari orqali xodimlarda o‘z kasbiga nisbatan faxr tuyg‘usi, vatanparvarlik, mas’uliyat va fidoyilik kabi fazilatlar kuchayadi. Ayniqsa, adolatli baholash tizimi, xizmat yutuqlarini e’tirof etish, psixologik qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom jamoaviy muhitni shakllantirish xodimlarning ma’naviy-ruhiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ichki ishlar xodimlarining ma’naviy-ruhiy inqirozini bartaraf etish, ularning kasbiy faoliyatini rag‘batlantirish va

[1] I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

psixologik barqarorligini ta’minlash bugungi kunda nafaqat amaliy, balki muhim ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Inson shaxsi har qanday jamiyatning eng yuksak qadriyati va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy subyekti sifatida e’tirof etiladi. Shu bois ijtimoiy falsafada insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy ongi, ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni hamda faoliyat motivatsiyasi muhim ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Insonning ichki dunyosi, uning qadriyatlari va hayotiy maqsadlari jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxs ma’naviy barqarorligining izdan chiqishi ijtimoiy munosabatlar tizimiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ichki ishlar xodimi faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi subyekt, balki jamiyatda qonuniylik, adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Uning kasbiy faoliyatida yuksak mas’uliyat, fidoyilik, vatanparvarlik, insonparvarlik va psixologik barqarorlik kabi fazilatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki ichki ishlar xodimining ma’naviy holati va kasbiy faoliyati jamiyatning huquqiy madaniyati hamda aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, ma’naviy-ruhiy inqiroz insonning ichki ehtiyojlari, qadriyatlari va tashqi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ziddiyatlar natijasida vujudga keladi. Zamonaviy hayot sur’atining tezlashuvi, axborot oqimining ortishi, kasbiy mas’uliyatning kuchayishi hamda ijtimoiy bosim inson psixikasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ichki ishlar tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarda:

- uzluksiz stress va yuqori emotsional bosim;
- xizmat yuklamasining ortishi;
- xavfli va ziddiyatli vaziyatlar bilan tez-tez to‘qnash kelish;
- ijtimoiy adolat hissining susayishi;
- yetarli moddiy va ma’naviy rag‘batning mavjud emasligi;
- oilaviy va ijtimoiy muammolar;
- xizmat va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi kabi omillar ruhiy tushkunlik, emotsional charchoq, kasbiy deformatsiya va motivatsiya pasayishiga olib kelmoqda[1]. Bunday holatlar xodimning nafaqat psixologik salomatligiga, balki uning xizmat samaradorligi, qaror qabul qilish qobiliyati va jamoadagi ijtimoiy munosabatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, kasbiy befarqlik, mas’uliyatning pasayishi, agressivlik yoki ichki izolyasiya kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Shu bois, ichki ishlar tizimida insonparvarlik, adolat, qadrlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan motivasion muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlarning mehnatini munosib baholash, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, psixologik xizmat faoliyatini

[1] Abdurahmonov Q. Inson kapitali va ijtimoiy taraqqiyot. – Toshkent, 2020.

takomillashtirish, sog‘lom jamoaviy muhit yaratish hamda rahbar-xodim munosabatlarini o‘zaro hurmat asosida tashkil etish ma’naviy-ruhiy inqirozning oldini olishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ichki ishlar organlarida “inson qadri” tamoyilini ustuvor yo‘nalish sifatida qaror toptirish xodimlarning kasbiy faoliyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, ularda xizmatga sadoqat, mas’uliyat va fidoyilik tuyg‘ularini kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida tizim samaradorligini oshirish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Rag‘batlantirish inson faoliyatini harakatga keltiruvchi muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi. U insonning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va kasbiy maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilib, moddiy va ma’naviy shakllarda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ichki ishlar organlari tizimida xodimlarni samarali rag‘batlantirish ularning xizmat samaradorligi, kasbiy motivatsiyasi va ma’naviy-ruhiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xodim o‘z mehnati va fidoyiligi munosib baholanayotganini his qilganda, xizmat vazifalarini vijdonan, mas’uliyat bilan bajarishga intiladi. Bu esa xizmat intizomi, vatanparvarlik tuyg‘usi va kasbga sadoqatning kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya va e’tirof muhiti xodimning ichki ishonchini mustahkamlab, stress va emotsional bosimlarni yengib o‘tishga yordam beradi. Doimiy ruhiy zo‘riqish va yuqori mas’uliyat ostida faoliyat yuritish inson psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda rag‘batlantirish tizimi xodimlarda emotsional charchoq, befarqlik va kasbiy deformatsiya kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, adolatli munosabat, xizmat natijalarini xolis baholash va jamoada o‘zaro hurmat muhitini shakllantirish sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni qaror toptirishda muhim omil hisoblanadi.

Ichki ishlar tizimida ma’naviy-ruhiy inqirozning oldini olish va xodimlarning professional faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Xususan, psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, muntazam motivatsion treninglar va psixoprofilaktik tadbirlar tashkil etish, xizmat natijalarini adolatli baholash tizimini joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning oilaviy muhitini qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish hamda “inson qadri” tamoyili asosida rahbarlik munosabatlarini rivojlantirish ma’naviy-ruhiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Ayniqsa, rahbar va xodim o‘rtasidagi sog‘lom muloqot muhiti, o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlar xodimning psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Rahbarning xodimga nisbatan e’tibori, uning mehnatini qadrlashi va qo‘llab-quvvatlashi jamoada ijobiy muhit shakllanishiga, xizmat samaradorligining

oshishiga hamda ichki ishlar organlarida barqaror ma’naviy muhit qaror topishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar xodimlarining ma’naviy-ruhiy inqirozini bartaraf etishda shaxsiy va professional faoliyatni rag‘batlantirish muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega. Inson omiliga ustuvor ahamiyat berish, adolatli motivatsiya tizimini shakllantirish, psixologik va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

2. Abdurahmonov Q. Inson kapitali va ijtimoiy taraqqiyot. - Toshkent, 2020.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING FUQAROLAR BILAN MUNOSABATLARIDA KASBIY AXLOQIY MADANIYATNI OSHIRISH MASALALARI

Karayev Nizam Abduraimovich.,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan munosabatlarida kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy axloqning nazariy asoslari, unga ta’sir etuvchi psixologik va tashkiliy omillar hamda amaliy faoliyatdagi muammolar o‘rganilgan. Shuningdek, xodimlarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish, psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish va ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy axloq, ichki ishlar organlari, fuqarolar bilan muloqot, xizmat madaniyati, kommunikativ kompetensiya, psixologik tayyorgarlik.

Ichki ishlar organlari jamiyatda huquq-tartibotni ta’minlash, jamoat xavfsizligini saqlash hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan davlat institutlaridan biri hisoblanadi. Ichki ishlar organlarining faoliyati ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish va huquqiy ongni shakllantirish kabi ko‘p qirrali vazifalarni ham qamrab oladi. Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish jarayonida ushbu tizimning samaradorligi faqat huquqiy-me’yoriy bazaning mukammalligi yoki tashkiliy tuzilmaning optimalligi bilan emas, balki, avvalo,

xodimlarning fuqarolar bilan o‘zaro munosabat madaniyati, kommunikativ kompetensiyasi hamda axloqiy-psixologik tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi.

Kasbiy faoliyat jarayonida ichki ishlar organlari xodimlari doimiy ravishda turli ijtimoiy qatlam vakillari bilan bevosita muloqotga kirishadilar. Bu jarayonda yuzaga keladigan har bir aloqa holati nafaqat xizmat vazifasining bajarilishi, balki davlat organlari haqida fuqarolarda shakllanadigan umumiy ijtimoiy tasavvurga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, xizmat intizomi bilan bir qatorda, muomala madaniyati, psixologik barqarorlik va ziddiyatli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish qobiliyati ham kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy axloqiy madaniyat tushunchasi ichki ishlar organlari xodimining xizmat faoliyatida huquqiylik prinsipi bilan bir qatorda, adolat, halollik, insonparvarlik va fuqarolarga hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarga tayanishini anglatadi[1]. Ushbu yondashuv xodimning nafaqat huquqni qo‘llovchi subyekt sifatidagi rolini, balki jamiyat bilan muloqot qiluvchi, ijtimoiy ishonchni shakllantiruvchi vakil sifatidagi mas’uliyatini ham belgilaydi. Amaliy nuqtayi nazardan, kasbiy axloqiy madaniyat xizmat jarayonida qaror qabul qilish sifatiga, fuqarolar bilan muloqot samaradorligiga hamda huquqiy nizolarni profilaktik tarzda hal etish imkoniyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar ichki ishlar organlari faoliyatida fuqarolar ishonchi darajasi ko‘p jihatdan inson omiliga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda[2]. Xususan, xodimlarning kommunikativ madaniyati past bo‘lgan holatlarda fuqarolarda tizimga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi, bu esa o‘z navbatida huquqiy institutlarning ijtimoiy legitimligiga putur yetkazishi mumkin. Aksincha, yuqori darajadagi kasbiy etika va madaniyat fuqarolar bilan konstruktiv muloqotni ta’minlab, davlat organlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy axloqini rivojlantirish nafaqat alohida xodimning shaxsiy sifatlarini takomillashtirish masalasi, balki butun huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Bu esa mazkur sohada uzluksiz ta’lim, psixologik tayyorgarlik, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda xizmat faoliyatini baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy axloqiy madaniyati shakllanishi va rivojlanishiga bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir qator tizimli omillar ta’sir

[1] S.S.G‘ulomov. Huquqni muhofaza qilish organlarida kasbiy etika asoslari. Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021.
[2] B.B.Murodov. Kasbiy axloq va xizmat intizomi o‘zaro bog‘liqligi. Toshkent: Ilmiy tadqiqotlar axboroti, 2022. 2 (5). – B. 60–66.

ko‘rsatadi. Ushbu omillar xodimning individual xususiyatlari, kasbiy tayyorgarligi hamda tashkiliy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har biri xizmat faoliyatining sifatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir etadi.

Birinchi navbatda, kommunikativ kompetensiya darajasi kasbiy axloqiy madaniyatni belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Fuqarolar bilan samarali muloqot o‘rnatish, nutq madaniyatiga rioya qilish, vaziyatni tez va to‘g‘ri tahlil qila olish hamda muomala jarayonida etik me’yorlarni saqlash xodim faoliyatining ijobiy baholanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, konfliktli yoki keskin emotsional vaziyatlarda kommunikativ ko‘nikmalarning yetarli darajada rivojlanganligi nizoli holatlarni yumshatish va ularni konstruktiv yo‘l bilan hal etishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim omil sifatida psixologik barqarorlik darajasi aniqlandi. Xizmat faoliyati davomida xodimlar turli stress omillari, keskin vaziyatlar va emotsional bosimlarga duch keladilar. Bunday sharoitda hissiyotlarni boshqarish, o‘zini tutish madaniyatini saqlash hamda oqilona qaror qabul qilish qobiliyati kasbiy axloqning ajralmas qismi hisoblanadi. Psixologik barqarorlik yetarli darajada shakllanmagan hollarda esa xizmat samaradorligining pasayishi, fuqarolar bilan munosabatlarda keskinlikning ortishi va subyektiv yondashuvlarning kuchayishi kuzatilishi mumkin.

Uchinchi omil sifatida tashkiliy boshqaruv tizimi va motivatsiya mexanizmlari muhim o‘rin tutishi aniqlangan. Rahbarlik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat, xizmat intizomining qat’iyligi, xodimlar faoliyatini adolatli baholash tizimi hamda rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligi kasbiy axloqiy muhitni shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ijobiy xulq-atvor va fuqarolar bilan madaniyatli munosabatni rag‘batlantirish tizimi xodimlarda mas’uliyat hissini kuchaytiradi hamda xizmatga bo‘lgan munosabatni yanada professionallashtiradi.

To‘rtinchi asosiy omil sifatida ta’lim va malaka oshirish tizimi kasbiy axloqiy madaniyatni shakllantirishning fundamental asosi ekanligi qayd etiladi[1]. O‘quv jarayonida nafaqat huquqiy bilimlarni, balki kommunikatsiya madaniyati, kasbiy etika va psixologiya fanlarini amaliy yo‘naltirilgan holda o‘qitish zaruriyati ortib bormoqda. Bu esa xodimlarning real xizmat sharoitlariga moslashuvini osonlashtiradi hamda fuqarolar bilan muloqotda yuqori madaniyat darajasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu omillar o‘zaro tizimli bog‘liqlikda faoliyat yuritib, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy axloqiy madaniyati darajasini belgilovchi kompleks mexanizmni tashkil etadi.

[1] N.A.Yo‘ldoshev. Ichki ishlar organlari xodimlarining kommunikativ madaniyati. Toshkent: *Huquq va jamiyat jurnali*, 2020. 4 (2). – B. 45–52.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy axloqiy madaniyatini oshirish davlat boshqaruvi tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kasbiy axloqni rivojlantirish kommunikativ va psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish, ta’lim tizimini amaliyotga yo‘naltirish, motivatsiya mexanizmlarini takomillashtirish hamda fuqarolar bilan ochiq muloqotni kengaytirish kabi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim. Umuman olganda, kasbiy axloqiy madaniyatning rivojlanishi nafaqat xizmat samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda davlat organlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. S.S.G‘ulomov. Huquqni muhofaza qilish organlarida kasbiy etika asoslari. Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021.

2. B.B.Murodov. Kasbiy axloq va xizmat intizomi o‘zaro bog‘liqligi. Toshkent: Ilmiy tadqiqotlar axboroti, 2022. 2 (5). - B. 60- 66.

3. N.A.Yo‘ldoshev. Ichki ishlar organlari xodimlarining kommunikativ madaniyati. Toshkent: *Huquq va jamiyat jurnali*, 2020. 4 (2). - B. 45- 52.

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA ILMIY SALOHIYATLI MUHITNI YARATISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Boboqulov Zafarbek Rustamovich.,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutibosh inspektori

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlarida ilmiy salohiyatli muhitni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda bilimga asoslangan boshqaruv, innovatsion tafakkur, kasbiy kompetensiya, institutsional madaniyat va ilmiy izlanishlar tizimining o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish tizimida ilmiy yondashuvning ahamiyati va uning jamiyat barqarorligiga ta’siri falsafiy va nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, ilmiy salohiyat, ijtimoiy falsafa, boshqaruv, innovatsiya, kasbiy kompetensiya, xavfsizlik tizimi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida ichki ishlar organlari oldida yangi strategik vazifalar paydo bo‘lmoqda. Ushbu vazifalar faqat huquqni muhofaza qilish bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va intellektual salohiyatni oshirishni taqozzo etmoqda.

Ichki ishlar organlari jamiyat xavfsizligini ta’minlovchi asosiy institutlardan biri sifatida nafaqat amaliy, balki ilmiy-intellektual tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi zarur. Chunki zamonaviy xavf va tahdidlar (kiberjinoyatchilik, transmilliy jinoyatlar, ekstremizmning yangi shakllari) an’anaviy yondashuvlar bilan to‘liq bartaraf etilishi qiyin. Shu bois, ilmiy salohiyatli muhitni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida maydonga chiqadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan ilmiy salohiyat bu faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki tizimli fikrlash, tanqidiy tahlil, ijodiy yondashuv va metodologik madaniyat majmuasidir. Ichki ishlar organlarida bunday muhitning shakllanishi xodimlarning kasbiy ongini rivojlantiradi, qaror qabul qilish jarayonini ilmiy asosga qo‘yadi va davlat institutlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Ilmiy salohiyat tushunchasi ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ko‘pincha intellektual resurs, bilimlar tizimi va innovatsion imkoniyatlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Ichki ishlar organlari kontekstida esa bu tushuncha yanada kengroq ma’noga ega bo‘lib, u xodimlarning analitik fikrlashi, ilmiy tadqiqotlarga tayyorligi va amaliyotda ilmiy yondashuvdan foydalanish qobiliyatini anglatadi[1]. Nazariy jihatdan ilmiy salohiyat bilim (knowledge), kompetensiya (competence) va innovatsion fikrlash (innovation thinking) kabi uchta asosiy komponentdan iborat. Ushbu uchlikning uyg‘unligi ichki ishlar organlarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida ilmiy salohiyatli muhitni shakllantirish bir qator ijtimoiy va falsafiy omillarga bog‘liq. Avvalo, jamiyatda ilmga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi. Agar jamiyatda bilim va ilm qadrlansa, bu bevosita davlat institutlariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchi muhim omil - institutsional madaniyatdir. Ichki ishlar organlarida ochiq muloqot, ilmiy izlanishlarga rag‘bat, tanqidiy fikrlashga imkoniyat beruvchi muhit shakllantirilishi zarur. Bunday muhitda xodimlar faqat ijrochi emas, balki tahlilchi va taklif beruvchi subyektga aylanadi.

Uchinchi omil esa innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir. Raqamli tizimlar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili vositalari ilmiy qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va aniqligini oshiradi[2].

Zamonaviy boshqaruv nazariyasida ilmiy yondashuv asosiy o‘rin tutadi. Ichki ishlar organlarida qaror qabul qilish jarayoni empirik tajribaga emas, balki ilmiy tahlilga asoslanishi zarur. Bu esa “bilimga asoslangan boshqaruv” (knowledge-based management) modelini shakllantiradi. Bunday tizimda statistik ma’lumotlar, prognoz modellar va analitik tadqiqotlar asosida qarorlar qabul qilinadi. Natijada

[1] Habermas J. Knowledge and Human Interests. Boston: Beacon Press, 2015.
[2] B.B.Rahimov. Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimi. Toshkent: Fan, 2022.

subyektiv yondashuvlar kamayadi, boshqaruvning shaffofligi va samaradorligi oshadi.

Ichki ishlar organlarida xizmat qiluvchi xodimlarning kasbiy kompetensiyasi ilmiy salohiyatli muhitning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Kompetensiya faqat amaliy ko‘nikmalar bilan emas, balki ilmiy tafakkur va metodologik bilimlar bilan ham belgilanadi. Uzluksiz ta’lim tizimi, ilmiy seminarlar, akademik hamkorlik va tadqiqot faoliyatiga jalb etish xodimlarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa tizim ichida “o‘rganish tashkiloti” modelini shakllantiradi.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan ichki ishlar organlarida ilmiy salohiyatli muhitni shakllantirish jamiyat va davlat o‘rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlovchi omil sifatida qaraladi. Bilimga asoslangan tizimlar ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlaydi. Falsafiy nuqtayi nazardan bilim va hokimiyatning uyg‘unligi davlat boshqaruvining sifatini belgilaydi. Agar hokimiyat ilmiy bilimga tayansa, u barqaror va adolatli bo‘ladi. Aks holda esa subyektivlik va samarasizlik kuchayadi. Shu bois ichki ishlar organlarida ilmiy salohiyatni rivojlantirish nafaqat tashkiliy, balki ma’naviy va intellektual transformatsiya jarayonidir.

Bugungi kunda, ichki ishlar organlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish shaxsiy tarkibning kasbiy salohiyati va bilim saviyasini oshirish qolaversa, ilmiy salohiyatli kadrlarni shakllantirish ma’naviy yuksak, jonkuyar, xalq bilan muloqot qila oladigan xushmuomala, fidoiy va bag‘rikeng, buyuk ajdodlaridan faxrlanadigan oliyjanob fazilatli xodimlarnii shakllantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlariga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy muhitni yanada yaxshilash, asrlar davomida sayqallanib kelayotgan an’ana va qadriyatlarimizni targ‘ib etish borasida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohalar singari, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkib o‘rtasida ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, xodimlarning bilim saviyasini yanada oshirish, yuksak ma’naviyatli, vatanparvar, o‘z kasbiga sadoqatli va fidoyi xodimlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ichki ishlar organlarini har jihatdan professional kadrlar bilan ta’minlash borasida mutlaqo yangi bosqichga qadam qo‘yilmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida yangi ichki ishlar organlarida islohotlarning samarali amalga oshirilish borasida ichki ishlar xodimlari oldiga o‘ziga xos dolzarb talablarni qo‘ymoqdagi bu ularning yetuk, salohiyatli, vatanparvar va fidoiy bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, har bir xodimning muntazam kasbiy malakasini oshirish, ularning oliy ta’limdan keyingi ta’limda mustaqil tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritib ilmiy daraja va ilmiy unvonlarni olishiga imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu o‘z navbatida

xodimlarning axloqiy kompetensiyasini rivojlantirib, professionalligini oshirishga hamda har bir huquqbuzarlikni nafaqat kasbiy professional, balki ilmiy nuqtayi nazardan ham tahlil qilinib, o‘ziga xos metodik taklif va tavsiyalarni ham ishlab chiqishga imkon yaratmoqda. Bu ichki ishlar xodimlarining ilmiy salohiyatining yuksalib borishiga imkon berishi bilan birga, ularga ilmiy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanib borish kabi ulkan mas’uliyatni yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarida ilmiy salohiyatli muhitni shakllantirish zamonaviy davlat boshqaruvining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy yondashuv, innovatsion tafakkur va kasbiy kompetensiya uyg‘unligi huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan esa bu jarayon jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishi, ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi va davlat institutlariga bo‘lgan ishonchning ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Habermas J. Knowledge and Human Interests. Boston: Beacon Press, 2015.

2. Rahimov B.B. Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimi. Toshkent: Fan, 2022.

YANGI O‘ZBEKISTONDA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI VA MAHALLA INSTITUTLARI O‘RTASIDAGI FAOLIYATNI MUVOFIQLASHTIRISHNING FALSAFIY-HUQUQIY XUSUSIYATLARI

Maxmudov Feruz Tulkinovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlari va mahalla institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirishning falsafiy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, ijtimoiy sheriklik tamoyillari, huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati institutlarining integratsiyasi yoritilgan. Shuningdek, mahalla institutining ijtimoiy boshqaruvdagi o‘rni hamda huquqni muhofaza qilish tizimi bilan hamkorligining konseptual asoslari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari, ijtimoiy sheriklik, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, boshqaruv, Yangi O‘zbekiston.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida davlat boshqaruvini demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda xalq bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri

sifatida belgilangan[1]. Ushbu jarayonda mahalla instituti va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahalla instituti Sharq sivilizatsiyasiga xos bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarishning noyob shakli sifatida asrlar davomida jamiyatda ijtimoiy tartib, ma’naviy barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlab kelgan. Huquqni muhofaza qilish organlari esa davlatning huquqiy tizimini ifodalovchi asosiy institut bo‘lib, qonun ustuvorligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikning oldini olish vazifalarini bajaradi. Ushbu ikki institut o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish nafaqat tashkiliy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishi, huquqiy madaniyatning shakllanishi va davlat institutlariga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Mahalla instituti Sharq ijtimoiy tafakkurining eng qadimiy va barqaror institutlaridan biridir. Uning ildizlari jamoaviylik, o‘zaro yordam va ijtimoiy nazorat tamoyillariga borib taqaladi. Tarixiy jihatdan mahalla jamiyatning nafaqat ma’muriy birligi, balki ma’naviy va axloqiy tartibni ta’minlovchi asosiy mexanizmi bo‘lib kelgan. Falsafiy nuqtayi nazardan mahalla inson va jamiyat o‘rtasidagi vositachi tizim sifatida qaraladi. U individning ijtimoiylashuvi, axloqiy shakllanishi va huquqiy ongining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy sharoitda esa mahalla fuqarolik jamiyatining eng quyi, ammo eng muhim institutsional bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekistonda mahalla institutining rolini oshirish uning huquqni muhofaza qilish tizimi bilan integratsiyasini kuchaytirishni taqozo etadi. Chunki mahalla aholiga eng yaqin bo‘lgan institut sifatida ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqni muhofaza qilish organlari davlat hokimiyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini kafolatlash vazifasini bajaradi. Falsafiy jihatdan ushbu organlar “davlat irodasining amaliy ifodasi” sifatida qaraladi. Ular orqali davlatning huquqiy siyosati real hayotda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasida huquqni muhofaza qilish organlari faqat repressiv emas, balki profilaktik va ijtimoiy yo‘naltirilgan funksiyalarni ham bajaradi[2].

Bu esa ularning mahalla instituti bilan hamkorligini yanada muhim qiladi. Chunki ijtimoiy muammolarni erta bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mahalla va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasida yangi hamkorlik modeli

[1] Mahalla tizimini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. 26.09.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6695

[2] B.B.Rahimov. Mahalla va boshqaruv integratsiyasi. Toshkent, 2022.

shakllanmoqda. Bu model “ijtimoiy sheriklik” tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tizimda mahalla fuqarolar bilan bevosita ishlovchi asosiy bo‘g‘in sifatida jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni tegishli organlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Huquqni muhofaza qilish organlari esa ushbu ma’lumotlar asosida tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Natijada boshqaruv jarayoni markazlashgan emas, balki ko‘p bosqichli va tarmoqlangan tizimga aylanadi. Bu esa samaradorlikni oshiradi va fuqarolarning ishtirokini kuchaytiradi.

Falsafiy nuqtayi nazardan davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning markaziy kategoriyasi bu ishonchdir. Mahalla instituti ushbu ishonchni shakllantiruvchi asosiy vositachilardan biridir. Agar fuqarolar huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini mahalla orqali bevosita his qilsa, davlatga bo‘lgan ishonch ortadi. Bu esa legitimlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Legitimlik - bu faqat huquqiy asos emas, balki ijtimoiy qabul qilinish darajasidir. Mahalla va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi hamkorlik aynan shu ijtimoiy qabulni kuchaytiradi[1].

Mahalla va huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligi huquqiy madaniyatni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Fuqarolar huquqiy normalarni faqat nazariy emas, balki amaliy hayotda ham anglay boshlaydi. Profilaktika tizimi esa jinoyat sodir bo‘lgandan keyin emas, balki uning oldini olishga qaratilgan. Bu yondashuv zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasining asosiy talablaridan biridir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mahalla va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi integratsiya jamiyatning barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon faqat huquqiy emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega. U jamiyatda hamjihatlik, o‘zaro ishonch va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi. Shuningdek, davlat boshqaruvini yanada ochiq va samarali tizimga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda mahalla instituti va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish zamonaviy davlat boshqaruvining muhim yo‘nalishidir. Ushbu hamkorlik ijtimoiy sheriklik, huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafiy jihatdan bu jarayon davlat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalaydi, huquqiy jihatdan esa samarali boshqaruv va xavfsizlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahalla tizimini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. 26.09.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6695

2. B.B.Rahimov. Mahalla va boshqaruv integratsiyasi. Toshkent, 2022.

[1] Mirzaaxmedov K.M. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. Monografiya. –T.: “Ma’rifat”, 2023. 112 bet

3. Mirzaaxmedov K.M. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. Monografiya. - T.: “Ma’rifat”, 2023. 112 bet

ICHKI ISHLAR XODIMLARINING UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLARGA HURMATNI YUKSALTIRIB BORISH MEXANIZMLARI

Maxsumov Xamza Valixonovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmatini shakllantirish hamda uni tizimli ravishda rivojlantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiya, kasbiy madaniyat, psixologik tayyorgarlik va rahbarlik institutining ushbu jarayondagi o‘rni chuqur yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, qadriyatlar, ma’naviyat, kasbiy madaniyat, axloqiy tarbiya, huquqiy ong, xizmat intizomi.

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan sharoitda jamiyatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, huquqiy institutlarning samarali faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, ichki ishlar organlari davlatning huquqni ta’minlovchi asosiy tuzilmalaridan biri sifatida nafaqat jamoat tartibini saqlash, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy boshqaruv tizimida ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligi faqat huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki xodimlarning ma’naviy-axloqiy yetukligi, kasbiy kompetensiyasi hamda qadriyatlarga sodiqlik darajasi bilan ham belgilanmoqda. Shu boisdan, ushbu tizimda inson omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va xodimlarning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga munosabati ularning xizmat faoliyatidagi xolislik, adolatparvarlik va mas’uliyatlilik darajasini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar doirasida ichki ishlar organlarini modernizatsiya qilish, ularni “xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi tizim” tamoyili asosida qayta tashkil etish hamda xodimlarning professional va ma’naviy tayyorgarligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini kuchaytirish bilan bir qatorda, xodimlarning qadriyatlar tizimini mustahkamlash ham strategik vazifa sifatida

belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ichki ishlar organlari xodimlarida umuminsoniy qadriyatlar (inson huquqlari, bag‘rikenglik, adolat, qonun ustuvorligi) hamda milliy qadriyatlar (vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, urf-odat va an’analarga hurmat) uyg‘unligini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish esa maxsus pedagogik yondashuvlar, uzluksiz kasbiy tayyorgarlik tizimi hamda ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini talab etadi. Shu bois, ichki ishlar xodimlarining qadriyatlar tizimini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etish, ularning xizmat faoliyatiga ta’sirini chuqur tahlil qilish hamda zamonaviy boshqaruv talablari bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlar tizimi masalasi falsafa, sotsiologiya, pedagogika va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab ilmiy kategoriya sifatida keng qamrovda o‘rganilib kelinadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, shaxsning axloqiy kamoloti hamda professional faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy determinantlardan biri hisoblanadi[1].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining kasbiy etikasi, ma’naviy kompetensiyasi, kommunikativ madaniyati hamda psixologik barqarorligi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Ayniqsa, global xavf-xatarlar, ijtimoiy transformatsiyalar va raqamli muhitning kengayishi sharoitida xodimlarning qadriyatlar asosida qaror qabul qilish qobiliyati muhim kompetensiya sifatida baholanmoqda. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar tahlili ichki ishlar organlari tizimida qadriyatlar tarbiyasi masalasi hali ham tizimli, kompleks va integratsiyalashgan yondashuv asosida yetarli darajada chuqur o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ma’naviy-axloqiy tarbiya, psixologik tayyorgarlik va kasbiy kompetensiyani bir butun pedagogik model sifatida uyg‘unlashtirish masalasi ilmiy jihatdan to‘liq ishlab chiqilmagan. Mazkur holat esa ichki ishlar xodimlarining qadriyatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi hamda ushbu tadqiqot yo‘nalishining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida qadriyatlarga hurmatni shakllantirish va uni barqaror rivojlantirish jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir qator tizimli mexanizmlar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Ushbu mexanizmlar nafaqat xodimlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishga, balki ularning

[1] Қ.Назаров. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). Тошкент, Файласуфлар миллий жамияти нашри-ёти, 2004, 85-бет.

kasbiy faoliyatida qadriyatlarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Birinchidan, ma’naviy-axloqiy tarbiya mexanizmi eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu mexanizm doirasida xodimlarga milliy qadriyatlar, tarixiy meros, urf-odatlar va umuminsoniy axloqiy tamoyillarni singdirishga qaratilgan tizimli o‘quv va tarbiyaviy tadbirlar amalga oshiriladi. Bu jarayon xodimlarning vatanparvarlik hissi, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, kasbiy etika va xizmat intizomi mexanizmi qadriyatlarga hurmatni amaliy faoliyatda namoyon etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xodimlarning qonuniylikka qat’iy rioya qilishi, fuqarolar bilan muomala madaniyati, adolat va xolislik tamoyillariga amal qilishi ularning qadriyatlar tizimiga sodiqligini aks ettiradi.

Uchinchidan, psixologik tayyorgarlik va stressga bardoshlilikni rivojlantirish mexanizmi xodimlarning murakkab xizmat sharoitlarida qadriyatlar asosida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu mexanizm orqali konfliktli vaziyatlarni boshqarish, emotsional barqarorlikni saqlash va empatiya ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

To‘rtinchidan, rahbarlik va institutsional ta’sir mexanizmi muhim o‘rin tutadi. Rahbarlarning shaxsiy namunasi, boshqaruv uslubi hamda axloqiy pozitsiyasi xodimlar o‘rtasida qadriyatlar tizimini shakllantirishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Rahbarning adolatli va shaffof qarorlari jamoada ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish mexanizmi xodimlarning qonun ustuvorligini chuqur anglashiga xizmat qiladi. Bu esa ularning professional faoliyatida inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan yondashishini ta’minlaydi.

Oltinchidan, innovatsion ta’lim va raqamli o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish mexanizmi zamonaviy sharoitda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Interaktiv treninglar, simulyatsion mashg‘ulotlar va virtual o‘quv platformalari xodimlarning qadriyatlar tizimini amaliy vaziyatlarda mustahkamlash imkonini beradi[1]. Umuman olganda, mazkur mexanizmlar o‘zaro integratsiyada ishlaganda ichki ishlar organlari xodimlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmatini shakllantirish jarayoni samarali va barqaror bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmatini yuksaltirish murakkab, ko‘p bosqichli hamda uzluksiz davom etuvchi ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon xodimning nafaqat professional faoliyatini samarali tashkil etishiga, balki uning

[1] S.Mahmudov. “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat madaniyati va etika masalalari”. – Toshkent: Adolat, 2021.

ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissining shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli qadriyatlar tizimini rivojlantirish ichki ishlar organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қ.Назаров. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). Тошкент, Файласуфлар миллий жамияти нашри-ёти, 2004, 85-бет.

2. S.Mahmudov. “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat madaniyati va etika masalalari”. - Toshkent: Adolat, 2021.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA MEHNAT SHARTNOMALARI VA ULARNING FALSAFIY-HUQUQIY AHAMIYATI

Odilov Nodirbek Odil o‘g‘li.,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida mehnat shartnomalarining falsafiy-huquqiy mohiyati, ularning shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mehnat shartnomalarining inson huquqlarini ta’minlash, mehnat erkinligini kafolatlash hamda ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Mehnat qonunchiligidagi zamonaviy islohotlar va ularning falsafiy asoslari yoritilib, mehnat shartnomalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat shartnomasi, mehnat huquqi, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, mehnat erkinligi, huquqiy davlat, falsafiy yondashuv.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida inson qadri, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur yondashuv jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, mehnat munosabatlarini tartibga solish tizimida ham tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mehnat shartnomasi ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy institut sifatida nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, balki inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va huquqiy tenglik tamoyillarini ro‘yobga chiqarishda muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy demokratik jamiyatda mehnat shartnomasi faqat mehnat faoliyatini tashkil etuvchi yuridik hujjat sifatida emas, balki insonning

konstitutsiyaviy mehnat qilish huquqini ta’minlovchi, uning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qiluvchi ijtimoiy institut sifatida ham qaralmoqda. Chunki mehnat munosabatlarida shaxsning iqtisodiy mustaqilligi, ijtimoiy himoyasi va professional rivojlanishi bevosita mehnat shartnomasi mazmuni bilan bog‘liqdir.

Bugungi globallashuv jarayonlari, xalqaro mehnat migratsiyasining kengayishi hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida mehnat munosabatlari yangi shakl va mexanizmlarga ega bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, masofaviy mehnat, frilans faoliyat, platformaviy ish tizimlari va elektron mehnat shartnomalarining keng joriy etilishi an’anaviy mehnat huquqi institutlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa mehnat shartnomalarining nafaqat huquqiy, balki falsafiy mohiyatini ham chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonlari mehnat munosabatlarining shaffofligini oshirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish hamda korrupsion holatlarning oldini olishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Elektron mehnat shartnomalari va yagona mehnat tizimlarining joriy etilishi xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi munosabatlarni yanada ochiq, tezkor va samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Bu esa huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan mehnat qonunchiligi islohotlari inson sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e’tirof etishga asoslanmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida xodimlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, majburiy mehnatning oldini olish, mehnat munosabatlarida gender tengligini ta’minlash hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan[1]. Ushbu yondashuv mehnat munosabatlarining insonparvarlik va adolat tamoyillari asosida rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, mehnat shartnomalarining falsafiy-huquqiy mohiyati inson va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki mehnat jarayoni insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi va o‘zining ijtimoiy mavqeini shakllantirishida asosiy vositalardan biridir. Shu sababli mehnat shartnomalarini o‘rganish nafaqat huquqiy, balki falsafiy, sotsiologik va iqtisodiy jihatdan ham dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Demak, Yangi O‘zbekiston sharoitida mehnat shartnomalarining falsafiy-huquqiy mohiyatini chuqur tadqiq etish, ularni zamonaviy demokratik tamoyillar asosida takomillashtirish hamda xalqaro mehnat standartlari bilan uyg‘unlashtirish bugungi kun ilm-fani va amaliyoti oldidagi muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: “Yuridik adabiyotlar Publish”, 2023. – 816 b.

Mehnat munosabatlari hamda mehnat shartnomalarining huquqiy tabiati uzoq yillar davomida huquqshunoslik, falsafa, iqtisodiyot va sotsiologiya fanlari doirasida keng tadqiq etib kelinmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mehnat jamiyat taraqqiyoti, insonning ijtimoiylashuvi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi fundamental omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Shu bois mehnat shartnomalari nafaqat huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm, balki inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va erkinlik tamoyillarini amalga oshiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi ham mehnat munosabatlarini insonparvarlik, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari asosida tartibga solishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur kodeksda xodimlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, majburiy mehnatga barham berish, mehnat sharoitlarini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda mehnat munosabatlarida gender tengligini ta’minlashga oid qator yangi normalar mustahkamlangan. Bu esa Yangi O‘zbekistonda inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning amaliy ifodasi hisoblanadi. Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sharoitida mehnat munosabatlarining transformatsiyasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Xususan, masofaviy mehnat, elektron mehnat shartnomalari, platformaviy bandlik va moslashuvchan ish shakllarining paydo bo‘lishi mehnat huquqining an’anaviy nazariyalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Bu esa mehnat shartnomalarining falsafiy-huquqiy mohiyatini zamonaviy sharoitda yangicha ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mehnat shartnomalari nafaqat ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik hujjat, balki chuqur falsafiy, ijtimoiy va ma’naviy mazmunga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Mehnat shartnomasi insonning konstitutsiyaviy mehnat qilish huquqini amalga oshirish, uning iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy himoyasini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mehnat shartnomasi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, mehnat munosabatlarida adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirish hamda inson manfaatlarini himoya qilishning asosiy huquqiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi[1]. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar mehnat munosabatlarini insonparvarlik va huquqiy davlat tamoyillari asosida rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

[1] Ш.А.Исмоилов. Айрим тоифадаги ходимлар меҳнатини ҳуқуқий тартибга солишнинг хусусиятлари: юридик фан. доктори дис: 12.00.05 - Меҳнат ҳуқуқи. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи // Тошкент: Тошкент давлат юридик университети 2020. – 333 б.

Tadqiqot davomida mehnat shartnomalarining falsafiy mohiyati insonning o‘z mehnati orqali o‘zligini namoyon qilishi, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilashi va iqtisodiy erkinligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Mehnat shartnomasi insonning nafaqat iqtisodiy faoliyatini, balki uning ma’naviy va ijtimoiy manfaatlarini ham himoya qiluvchi institut sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan u inson sha’ni, qadr-qimmati va erkinligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy qadriyat sifatida baholanishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari mehnat shartnomalarining jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Xususan, mehnat shartnomalari orqali ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi huquq hamda majburiyatlarning aniq belgilanishi mehnat nizolarining oldini olish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini mustahkamlash va fuqarolarning huquqiy ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot va globallashuv sharoitida elektron mehnat shartnomalari, masofaviy mehnat va moslashuvchan ish shakllarining paydo bo‘lishi mehnat shartnomalarining huquqiy tabiatini yanada kengaytirayotganligi aniqlandi. Bu esa mehnat huquqining zamonaviy shakllarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar doirasida mehnat shartnomalarining ijtimoiy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Xususan, mehnat shartnomalari orqali xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, adolatli mehnat sharoitlarini yaratish hamda majburiy mehnatning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar mustahkamlanmoqda. Bu esa inson qadri va huquqlari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasi sifatida baholanadi.

Mehnat shartnomalari insonning erkin mehnat qilish huquqini ta’minlovchi asosiy huquqiy institutlardan biri hisoblanadi[1]. Chunki shartnoma orqali ish beruvchi va xodimning huquq hamda majburiyatlari aniq belgilanadi, mehnat faoliyatining shaffof va qonuniy asosda tashkil etilishi ta’minlanadi. Natijada xodimlarning ijtimoiy himoyasi kuchayadi, ularning mehnat faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlik hissi shakllanadi. Shu bilan birga, mehnat shartnomalari jamiyatda demokratik huquqiy davlat tamoyillarining qaror topishida muhim o‘rin tutadi.

Mehnat shartnomalari ijtimoiy adolatni ta’minlovchi asosiy huquqiy mexanizmlardan biri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki shartnoma tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash orqali mehnat nizolarining oldini olish, xodimlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, mehnat

[1] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: “Yuridik adabiyotlar Publish”, 2023. – 816 b.

munosabatlarida qonuniylik va tenglik tamoyillarining ustuvorligi ijtimoiy ishonch muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, mehnat munosabatlarida ma’naviy va axloqiy omillar ham alohida o‘rin tutadi. Halollik, mas’uliyat, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o‘zaro ishonch va ijtimoiy mas’uliyat kabi tamoyillar mehnat shartnomalarining nafaqat yuridik, balki ma’naviy mohiyatini ham belgilaydi. Shu jihatdan mehnat shartnomasi tomonlarning o‘zaro ishonchi, hurmati va mas’uliyatiga asoslangan ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa mehnat munosabatlarining insonparvarlik va adolat tamoyillari asosida rivojlanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida mehnat shartnomalari inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda zamonaviy demokratik qadriyatlarni qaror toptirishda muhim falsafiy-huquqiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida mehnat shartnomalari inson huquqlari, mehnat erkinligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashning muhim huquqiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning falsafiy-huquqiy mohiyati inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va huquqiy davlat tamoyillarini qaror toptirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - T.: “Yuridik adabiyotlar Publish”, 2023. - 816 b.

2. Ш.А.Исмоилов. Айрим тоифадаги ходимлар меҳнатини ҳуқуқий тартибга солишнинг хусусиятлари: юридик фан. доктори дис: 12.00.05 - Меҳнат ҳуқуқи. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи // Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2020. - 333 б.

INSON VA FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARI VA ERKINLIKLARI

Mavlonov Feruz Oblaqulovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi
E-mail: mavlonovf@gmail.com

Davlat va jamiyat hayotida uning asosiy negizini tashkil etgan, bu tom ma’noda inson uning haq-huquqlari tashkil etadi. Inson huquqlari - insoniyat paydo bo‘lgandan buyon turli darajalarda, mutafakkirlar va faylasuflarning bahs-munozarasi mavzusi bo‘lib kelgan.

Aslida Inson huquqlari - insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da'volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiyga bo'lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoqlarga, zo'ravonlikka, inson sha'nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saklash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq insno huquqlari sirasiga kiradi. O'zbdekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida belgilanganidek: O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. Konstitutsiyada imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart, deb keltirilgan. Shuning bilan birga, unda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. "Insonlarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas", (20-modda) - deb, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilangan. Bu o'z navbatida barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari tengligini, hech kimning jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei jihatidan kamsitilishi mumkin emasligini, fuqarolar bilan davlat o'rtasida o'zaro bir-birlariga nisbatan huquq hamda burchlari mavjudligini, fuqarolarning Konstitutsiya va davlatning boshqa qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizligi, ularni sud qarorisiz hech kimning cheklashga haqli emasligini kafolatlaydi.

Insonning yashash huquqi, u hayotda kim bo'lishidan qat'i nazar, qonun tomonidan ta'minlanadi. Mazkur huquqiy norma 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan va o'zining tarixiy 60 yilligi keng miqyosda nishonlanayotgan inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga ham to'liq mos keladi. Jumladan, inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorliknikengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huqukutri bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning inson huquqlari va boshqaruv tizimini de-mokratiyalashni qo‘llabquvvatlash dasturiga muvofiq tashkil etilgan. Davlatga qarashli, taxlil, maslahat, idoralararo va muvofiklashtirish organi hisoblanadi. Asosiy vazifalari: inson huquqlari bo‘yicha milliy harakat rejasini ishlab chiqish; shu soxaga oid milliy ma’ruzalar tayyorlash; tegishli o‘quv-uslubiy adabiyotlar nashr etish, tadqiqotlar o‘tkazish. Markaz huzuridagi jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi va bolalar qabulxonasida bepul yuridik maslahatlar beriladi. Inson huquqlarini buzish hollari yuzasidan fuqarolarning ariza va shikoyatlari ko‘rib chiqilib, hal etiladi.

Tabiiyki, fuqarolik jismoniy shaxsning ma’lum bir davlat bilan huquqiy bog‘lanishidir[1]. Fuqarolikka ega shaxs fuqaro, deyiladi. Bu bog‘lanish fuqaroning tegishli davlatga nisbatan bo‘lgan huquq va burchlari hamda uning o‘sha davlat tomonidan himoya qilinishida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko‘ra butun O‘zbekiston hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi[2]. (Qoraqalpog‘iston fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston fuqarosi hamdir).Fuqarolik - shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy huqukiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o‘zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs fqarolikka ega bo‘lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e’tirof etadi, ularning amalga oshishini ta’minlash choralarini ko‘radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko‘rsatadi. O‘z navbatida, fuqarolar davlat qonunlari va qoidalarga so‘zsiz rioya kiladilar, o‘zlari uchun belgilangan majburiyatlarni bajaradilar. Bu huquq va majburiyatlar yig‘indisi fuqaroning siyosiyhuquqiy maqomini tashkil yetadi, fuqarolar ana shu maqom bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardsh ajralib turadilar. Fuqarolik asosan 2 yo‘l bilan qabul qilinadi; tug‘ilganlik dalili asosida ("filiatsiya") va naturalizatsiya yo‘li bilan. Tug‘ilish asosida fuqarolikka qabul qilishda 2 xil qoida: “qon huquqi” va “tuproq huquqi” qoidasi qo‘llaniladi. “Qon huquqi” deb nomlangan qoida shu davlatning fuqarolaridan tug‘ilgan shaxsni fuqaro deb tan oladi (ayrim davlatlarda ota-onasining biri tegishli fuqarolikka egaligi yetarli). Qaysi davlat hududida bu shaxsning tug‘ilganligi ahamiyatga ega emas. “Tuproq huquqi” qoidasi, fuqaroligidan qat’i nazar, agarda shaxs mazkur davlat hududida tug‘ilgan bo‘lsa, unda o‘sha shaxs fuqaro deb tan olinadi. Naturalizatsiya yo‘li bilan fuqarolikka

[1] O‘zbekistonda fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari, 2016-03-06da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2008-04-17

[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. VI bob., 2004-11-15da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2008-04-17

qabul qilish mamlakatda yashab kelayotgan shaxsning fuqarolikni olish to‘g‘risidagi iltimosi bilan bog‘liqdir.

Yangi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Fuqarolik masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Unga ko‘ra, 22-moddada keltirilishicha: “O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi”. Darhaqiqat, fuqarolik-bu shaxs va davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquqlar, burchlar va majburiyatlarning umumiyligida ifodalangan huquqiy munosabatlar[1]. Fuqarolik konstitutsiyaviy va ma’muriy huquq institutlaridan biri bo‘lib, odatda Konstitutsiyada (asosiy qonunda) yoki davlatning konstitutsiyaviy aktida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanadi. Bu o‘zini davlat va uning qaramog‘idagi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar, davlatdagi har bir shaxsning konstitutsiyaviy va ijtimoiy himoyasi sifatida namoyon qiladi: davlat fuqaroning huquq va erkinliklarini tan oladi va kafolatlaydi, uni chet elda himoya qiladi va o‘z zimmasiga oladi; o‘z navbatida, fuqaro davlat qonunlari va qoidalariga so‘zsiz rioya qiladi, o‘zi belgilagan vazifalarni bajaradi. Bu borada Konstitutsiyaning 23-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas. Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi”.

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Bu haqda yangi O‘zbekiston Kostitutsiyasining 25-35 moddalarida batafsil yoritilgan.Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi. Qonunning 25-moddasida keltirilganidek, “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi. Haqiqatan 2008-yildan buyon malakatimizda o‘lim jazosi beor qilinganligini ta’kidlash lozim. Davlatimizning

[1]Материал из Википедии — свободной энциклопедии

jinoyatga oid siyosati o‘lim jazosini qo‘llashga nisbatan jahon tendensiyalariga to‘la mos keladi hamda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e’lon qilingan insonparvarlik va odillik tamoyillarini izchil ifoda etadi.

O‘lim jazosining bekor qilinishi aholi orasida keng tushuntirish ishlari olib borishni, birinchi navbatda, mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidagi izchil harakatlarini asoslab berishni, jinoiy jazoni yanada liberallashtirish, shu jumladan o‘lim jazosini bekor qilish zaruratining anglab yetilishini kishilar ongida mustahkamlashni taqozo etadi.

O‘lim jazosi umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirilgan shaxslarni saqlash uchun majmua va inshootlar qurish, zarur shart-sharoitlarni yaratish, ana shu muassasalarda ishlash uchun xodimlarni tayyorlash bilan bog‘liq bir qator tashkiliy-tayyorgarlik tadbirlarini amalga oshirish lozim.

Jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini puxta ishlab chiqish hamda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish ushbu sohadagi xalqaro-huquqiy hujjatlarni, o‘lim jazosini bekor qilgan va o‘lim jazosi o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarning jazolari ijro etilishini tashkil qilish tajribasiga ega bo‘lgan xorijiy mamlakatlarning tegishli qonun hujjatlarini chuqur o‘rganib chiqishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur tuzatishlarning kiritilishi inson qadr-qimmatini, uni huquq-tartibot organlarining noqonuniy xatti-harakatlaridan himoyalashni kafolatlab, shaxsiy daxlsizligini ta’minlash imkonini beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun penitensiar muassasalarda 2 ming 800 dan ziyod kuzatuv kameralari o‘rnatilgani, IIVning barcha tergov izolyatorlari tergov xatti-harakatlarini o‘tkazish xonalari 123 kuzatuv kamerasi bilan jihozlangani shunga o‘xshash hodisalarning oldini olishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Aybsizlik prezumsiyasini amaliyotda qo‘llash isloh etilib, Xalqimizning xohish-irodasi bilan qabul qilingan Konstitutsiyamizda shaxsning ishi sudda ko‘rib chiqilib, bu ish qonuniy kuchga kirgan hukm bilan aniqlanmaguncha u aybsiz hisoblanishi qatiy belgilandi.

Darhaqiqat, Konstitutsiyadagi normalarga diqqat bilan e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda inson manfaatlari davlat manfaatlaridan ustun qo‘yilgani ko‘zga tashlanadi. Masalan, shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emasligi, ushlab turish chog‘ida uning huquqlari va ushlab turilish asoslari unga tushuntirilishi kerakligi (“Miranda qoidalari”), ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik, ya’ni “sukut saqlash” huquqi kafolatlandi. 31-moddada insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir hamda hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi nazarda tutilmoqda. Yangi yozishmalar, telefon orqali so‘zlashuvlar, pochta, elektron xabarlar va boshqa

xabarlarni sir saqlash huquqi faqat sud qaroriga asosan cheklanishi mumkinligi ham ko‘rsatilgan[1].

Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron xabarlari hamda boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni himoya qilish, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilishhuquqigaega. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo‘yishni va ko‘zdan kechirishni o‘tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi. Uy-joyda tintuv o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.Nima uchun tintuv o‘tkazish va telefon so‘zlashuvini eshitishga sanksiya berish vakolati prokurordan sudga o‘tkazilmoqda? Buning ahamiyati nimada?! Sababi bu xuddi qo‘zichoqni bo‘riga ishonishdek gap. Bugungi zamonaviy qarashlar o‘tmishdagidek emas. Insonning shaxsiy hayoti muqaddas tushunchaga aylanmoqda. Inson tug‘ilganidan boshlab u haqidagi ma’lumotlar uning hayoti davomida biror-bir joyda “iz” qoldiradi.

Shifoxonada, FHDYO bo‘limlarida, bog‘chada, maktabda, banklarda va boshqa tashkilotlarda, kundalik foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda yoki ma’lumotlar bazalarida shaxsning foto, video, audio, yozma yoki elektron shaklidagi shaxsga doir ma’lumotlar mavjud. Shu sababli ham tergov organiga fuqaroning shaxsiy hayotiga aralashib uning telefon so‘zlashuvini eshitish bo‘yicha o‘zi mustaqil qaror qabul qilish vakolatini boshqaga berib bo‘lmaydi. Chunonchi, 29-moddada. Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.Fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi demokratik davlatdagina mavjud bo‘ladigan va kafolatlanadigan

[1] Янги Конституция – осуда, обод ҳаётимиз кафолати.UZA. Жуманазар Холмўминов,Термиз давлат университети юридик факультети декани, юридик фанлари доктори, профессор

huquqlardir. «Men, - deb yozgan edi Spinoza, - demokratiyani shuning uchun afzal ko‘ramanki, u tabiat har kimga in’om etgan erkinlikka eng ko‘p yaqinlashadi»[1].

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 19-moddasiga muvofiq, “Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to‘siqsiz o‘z e’tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat’i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi”.

Demokratik jamiyatda har kim o‘z e’tiqodiga asoslangan holda, jamiyat, davlat hayoti va ijtimoiy-siyosiy muammolarga doir fikr va mulohazalarini erkin bayon qilish huquqiga ega. Har kim ma’lum hodisa va hujjatlarga o‘zining shaxsiy bahosini berishi, hokimiyat va boshqaruv muassasalari, oddiy fuqarolar va mansabdor shaxslarning faoliyatidagi kamchiliklarni va yetishmovchiliklarni tanqid qilish huquqiga ega.

Fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, barcha ma’lumotlarni qidirish, olish va tarqatish huquqi fuqarolarga davlat idoralari, jamoat birlashmalari, korxona va tashkilot hamda muassasalarga taklif va ariza yoki shikoyat bilan murojaat qilish orqali jamoat va davlat faoliyatini boshqarishda faol qatnashish imkonini beradi. Fikrlash erkinligi - bu so‘z erkinligi orqali amalga oshiriladigan va o‘z fikrini erkin so‘zlash hamda shu fikrlarni boshqa shaxslarning e’tiboriga havola qilishdir.

Inson va fuqarolarning fikrlash va e’tiqod erkinligi huquqi so‘z erkinligi orqali, ya’ni ularni ochiq tarzda izhor qilish hamda boshqa shaxslarga yetkazish orqali amalga oshiriladi. So‘z erkinligi ko‘proq ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilib, ular O‘zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi qonunida belgilangan. Unda har bir shaxsning so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikri va e’tiqodini oshkora bayon etish huquqlari o‘z ifodasini topgan.

Albatta tiyib turuvchi mexanizmlar kerak. Endilikda bu tartibga solinib, tintuv va telefon eshitish doirasi ham sud tomonidan belgilanishi, bunga qay darajada zaruriyat borligi xolis va mustaqil sudya tomonidan baholanishi belgilanmoqda. Bir so‘z bilan aytganda shaxsiy hayot daxlsizligi Konstitutsiyada mustahkalanmoqda. Har bir fuqaro, har bir oila o‘zining shaxsiy hayoti va oilaviy sirini himoya qilish, o‘z mulkiga ega bo‘lishi va uning daxlsizligiga o‘zga shaxslarning tajovuzidan xavotirsiz hayot kechirishi lozim. Telekommunikatsiya tarmoqlari va axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan axborot va ma’lumotlarni uzatish, tarqatish jarayonlari osonlashdi va xalq ichida ommaviylashdi. Endilikda fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari, yozishmalari va biometrik ma’lumotlarini saqlash va tarqatilishida tashqi ta’sirlardan himoya zarurati yuzaga keldi.

[1] Беленький М. Спиноза. – М., 1964, -202 с.

Mazkur daxlsizlik huquqlari konstitutsiyaga kiritilmoqda va shaxsiy, oilaviy sir va ma’lumotlar noqonuniy to‘planishi va tarqalib ketishi cheklanmoqda.Bundan tashqari, Konstitutsiya loyihasida uy-joyga bo‘lgan huquq daxlsiz etib belgilanmoqda. Hech kim sudning qarorisiz uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi hamda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanishi mustahkamlanmoqda. Mazkur normani Konstitutsiyaga kiritilishi bir necha yillardan buyon jamiyatimizda o‘tkir muammolardan biriga aylangan “snos” bilan bog‘liq muammoga nisbatan xalqparvar, mulkdorlar manfaatini himoya qiluvchi oqilona yechim ekanligini alohida qayd etish lozim.

Ommaviy kommunikatsiyalar rivojlanishi bilan bugun ijtimoiy tarmoq va internet saytlarida shaxsning shaxsiy va oilaviy siriga oid ma’lumotlari, ming afsuski, uning roziligisiz olinishi, tarqatilishiga guvoh bo‘lyapmiz. Natijada ko‘pchilik ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o‘z shaxsiy hayotiga, shaxsiga oid ma’lumotlarning tarqalishiga oid huquqbuzarlikdan jabr ko‘rib qolmoqda. Shu sababli mazkur masalalarga fundamental yechim yasash maqsadida Konstitutsiyaga alohida normalar kiritilishi davr taqazosi deyish mumkin. Insonlarning yashash huquqiga taalluqli eng asosiy talablar qatoridagi uy-joy mol-imulkiga tajovuzdan himoyada yashash huquqi, shaxsiy ma’lumotlar sirligi har bir fuqaroning hayotidagi birlamchi zaruratlardan biri sifatida daxlsizlik toifasiga kiritilmoqda va kafolatli himoyaga olinmoqda.

Siyosiy huquqlar-fuqaroning davlatning siyosiy hayotida ishtirok etish huquqlari: davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlariga saylash va saylanish huquqi, so‘z, fikr erkinligi, tinch yig‘ilishlar, kasaba uyushmalari va birlashmalar tuzish huquqlari[1].

O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasiga asosan 36-moddada keltirilganidek: O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risda Xalqaro paktning 25-moddasida ko‘rsatilishicha: “Har bir fuqaro qanday bo`lmasin, biror bir turdagi kamsitishlarsiz va asossiz cheklashlarsiz, yalpi va teng saylov huquqiga ko`ra, yashirin ovoz berish orqali vaqti-vaqti bilan o‘tkazib turiladigan hamda saylovchilarning o‘z xohish-istaklarini erkin ifodalash imkonini beruvchi

[1]Манба: https://rosuchebnik.ru/material/prava-i-svobody-cheloveka-i-grazhdanina/

haqiqiy saylovlarda ovoz berish hamda saylanish huquqi va imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim” [1;6].

Shuningdek, Konstitutsiyaning 39-moddasida qayd qiliganidek, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi huquqiy-demokratik davlatning muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Chunki, birinchidan, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi siyosiy huquqlar tizimida alohida o‘rin egallaydi.

Ikkinchidan, bu huquqlar fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishidagi ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z tabiatiga ko‘ra inson tug‘ilganidanoq ega bo‘ladigan va uzviy hisoblangan asosiy shaxsiy huquqlardan farqli o‘laroq, davlat fuqaroligiga ega bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Bu farqlar Konstitutsiyada shaxsiy huquqlar “har kim”, siyosiy huquqlar “fuqarolar” deb aniq yo‘naltirilganligida o‘z ifodasini topgan.

Konstitutsiyamizda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirokini amalga oshirish shakllari ifodalangan.

Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda saylov va referendumlarda bevosita qatnashishlari va o‘z ovozlarini berishlarida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqi esa oliy va mahalliy vakillik organlariga saylaydigan o‘z vakillari orqali davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashishlarini ifodalaydi. Mamlakatimizda bosqichma-bosqich olib borilayotgan izchil islohotlar ham bevosita fuqarolarimizning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirokini kafolatlashga qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan kiritilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan hamda Senat tomonidan ma’qullangan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun ham fuqarolarimizni siyosiy partiyalar orqali jamiyat va davlat ishlarida faol ishtirok etishlarini mustahkamlab berdi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi - fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanadigan, ularning o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-

odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir . O‘zini o‘zi boshqarish bu bevosita fuqarolarni jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokining kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Chunki fuqarolar o‘zlari istiqomat qiladigan hududda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylash orqali fuqarolar yig‘inini shakllantirishda va uning faoliyatini boshqarishda qatnashadilar.

Davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish deyilganda davlat boshlig‘ini o‘z lavozimiga ega bo‘lishi, Parlamentni hamda sud hokimiyatini shakllantirishni fuqarolarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki orqali amalga oshirish tushuniladi.

O‘zbekiston fuqarolari saylovlar orqali o‘z xohish-irodalarini amalga oshirib, o‘zlari saylagan vakillari orqali davlat hokimiyatini boshqarishda ishtirok etadilar.

Demokratiyaning asosiy shakllaridan biri bu - davlat va jamiyat hayotining muhim muammolarini umumxalq muhokamasida o‘z yechimini topishi - referendum hisoblanadi. Referendum atamasi lotin tilidagi «Referendum” so‘zidan olingan bo‘lib, “xabar berilishi lozim bo‘lgan” degan ma’noni anglatadi. Uning hozirgi mohiyati fuqarolarni davlat va jamiyat hayotida bevosita ishtirok etishini bildiradi.

Referendumning saylovlardagi ovoz berishdan farqi shundaki, u biron bir shaxs mandatiga yuridik kuch bermay, balki muayyan masalani hal qilishga qaratiladi. Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan qoidalar asosida referendum orqali qabul qilingan qaror xalq irodasi hisoblanadi va uning yuridik ahamiyati odatda parlament tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlardan ustun bo‘ladi. Referendumda qabul qilingan qarorlar fuqarolarni qo‘yilgan muayyan masalaga tasdiqlovchi yoki rad qiluvchi javobi shaklida qabul qilinadi.

Umuman olganda,O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir.Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak.Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

GLOBAL TRANSFORMATSIYALAR DAVRIDA KORRUPSIYA MUAMMOSINING MA’NAVIY-FALSAFIY TAHLILI

Ismatova Gavhar Jalil qizi
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Falsafa magistranti
e-mail: ismatovagavhar880@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv va zamonaviy transformatsiyalar sharoitida korrupsiya muammosining ma’naviy-falsafiy jihatlari tahlil qilinadi. Korrupsiyaning jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy adolat, ma’naviy qadriyatlar va inson ongiga salbiy ta’siri yoritilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda ma’naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar hamda raqamli texnologiyalarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, ma’naviyat, axloq, global transformatsiya, ijtimoiy adolat, falsafa, antikorrupsiya, raqamli texnologiyalar.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida korrupsiya dunyo hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. U nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki jamiyatning ma’naviy hayoti, ijtimoiy barqarorligi va davlat boshqaruviga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy falsafada korrupsiya inson axloqi, ijtimoiy adolat va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

Korrupsiya jamiyatda ishonchsizlik, tengsizlik va adolatsizlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, global transformatsiyalar davrida texnologik rivojlanish, iqtisodiy integratsiya va axborot oqimining kuchayishi korrupsiyaning yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Shu sababli ushbu muammoni falsafiy va ma’naviy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishdir.

Asosiy qism. “Korrupsiya” tushunchasi lotincha corruptio so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “buzilish”, “poraga sotilish” degan ma’nolarni anglatadi. Falsafiy nuqtayi nazardan korrupsiya insonning axloqiy qadriyatlardan uzoqlashuvi va manfaatparastlikning kuchayishi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy hodisadir.

Bugungi kunda korrupsiya davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va iqtisodiyot kabi turli sohalarda uchramoqda. Bu esa jamiyat rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari adolat va halollikni jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni sifatida baholaganlar. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat boshqaruvi adolat va axloqiy poklik asosida qurilishi kerakligini ta’kidlagan. Alisher Navoiy esa inson kamolotida halollik va vijdon muhim o‘rin tutishini qayd etgan [2].

Korrupsiya va ma’naviy qadriyatlar

Korrupsiya eng avvalo inson ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U halollik, adolat, vijdon va mas’uliyat kabi axloqiy qadriyatlarning zaiflashuviga olib keladi. Natijada jamiyatda befarqlik, manfaatparastlik va ishonchsizlik kuchayadi.

Yoshlarni korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquqiy choralar bilan emas, balki ma’naviy-ma’rifiy yondashuv asosida ham olib borilishi zarur.Islom falsafasida ham poraxo‘rlik va adolatsizlik qat’iy qoralanadi. Qur’on va hadislarda halollik, adolat va insof jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida talqin qilinadi. Shu bois ma’naviy tarbiya korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek “Korrupsiyaga qarshi kurashishda ma’naviy-ma’rifiy mexanizmlar alohida ahamiyat kasb etadi”[3]. Mazkur mexanizmlar inson ongiga ta’sir etish orqali uning qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Jamiyatda halollik, adolat, vijdonlilik va mas’uliyat kabi tushunchalarni mustahkamlash korrupsiyaning oldini olishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim tizimi bu borada muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan jarayonda yosh avlodga axloqiy qadriyatlarni singdirish zarur. Ayniqsa, halollik va adolat tamoyillarini yoshlar ongiga chuqur singdirish kelajakda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali korrupsiyaning salbiy oqibatlarini keng targ‘ib qilish muhim ahamiyatgaJamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz kayfiyatni shakllantirish orqali fuqarolarning faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mumkin.Yoshlarni korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Global transformatsiyalar sharoitida raqamli iqtisodiyot va internet texnologiyalarining rivojlanishi korrupsiyaning yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Shu bilan birga elektron hukumat tizimi ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga yordam bermoqda [4].

Antikorrupsion tafakkurni shakllantirish masalalari yuzasidan taklif va tavsiyalar.

Korrupsiya eng avvalo inson ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U halollik, adolat, vijdon va mas’uliyat kabi axloqiy qadriyatlarning zaiflashuviga olib keladi [5].

Zamonaviy ta’lim tizimida antikorrupsion madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Talaba-yoshlar ongida halollik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Bunda:

- ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotlarni kuchaytirish;
- ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash;
- raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet platformalari orqali antikorrupsion g‘oyalarni targ‘ib qilish jamiyatda huquqiy va axloqiy madaniyatni yuksaltirishga yordam beradi.

Antikorrupsion tafakkurni shakllantirishda ta’lim tizimi va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ahamiyati katta.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, global transformatsiyalar davrida korrupsiya jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim muammolardan biridir. Korrupsiyaga qarshi kurashishda nafaqat huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, balki ma’naviy-axloqiy tarbiya va antikorrupsion tafakkurni rivojlantirish ham zarur. Zamonaviy raqamli texnologiyalar esa ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash orqali korrupsiyani kamaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Klitgaard R. Controlling Corruption. - California: University of California Press, 1991.

2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

3. . Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent, 2021. - B. 256

4. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

JAMIYAT MA’NAVIY HAYOTIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY- FALSAFIY TALQINI

Minorov Dilshod Dustmaxammatovich.,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU tadqiqotchisi

Jamiyatning ma’naviy hayotini rivojlanish jarayonida ayrim axloqiy qadriyatlarning unutilishi yoki ularning mazmunan zaiflashuvi kuzatiladi. Bunday ko‘zga ko‘rinmas ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar insoniyatning ma’naviy taraqqiyoti va kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois jamiyatda borliq va ijtimoiy munosabatlarga falsafiy yondashuvni shakllantirish, insonlarda mantiqiy mushohada va axloqiy tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, axloqiy qadriyatlarni anglash va ularni jamiyat hayotiga singdirishda faylasuflarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Jamiyatdagi har bir fuqaro yon-atrofdagilarga o‘z ehtiyojlarini bildiradi va o‘z navbatida o‘zida mavjud bo‘lmagan qanday manbalarni boshqalar yordami bilan erishishga intiladi. Axborotlashgan jamiyatdagi bunday fikr almashinish, ma’lumot va bilim berishda axloqiy qadriyatlardan samarali foydalanish ijtimoiy hayotning muhim qismidir. Jamiyatdan ma’lumot almashinishning tegishli usullari, shuningdek, g‘amxo‘rlik va tushunarli tarzda amalga oshirishning falsafiy usullari, imkoniyatlarini yoritib berish dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

Har bir inson o‘zining aytgan so‘zini amalga oshirishi bilan axborotlashgan jamiyat qonuniyatlariga ham mos faoliyat olib boradi. Erkak va ayol kishining hayoli bo‘lishi bevosita uning bilim olishga qiziqishlari, dono fikr sohibi bo‘lishi, inson zotiga nisbatan bag‘rikengligi, har bir ishida odobliligi, o‘qish va ishlar joylarida ozoda, pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, jamoaga xushmuomalaligi singari axloqiy xislatlarda ifodalanadi. Kundalik turmushda insonlar bir-birlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo‘lib, o‘zlarining ma’naviy dunyosini boyitib borishadilar. “Qadriyat tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqlik qonuni, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi va takomillashuvi bilan bog‘liq aksiologik qonunlar ham aksiologiya shug‘ullanadigan masalalar doirasiga kiradi”[1]. Shuning uchun falsafa o‘zining rivojlanishida aksiologik yondashuvlardan zarur tushunchalar va kategoriyalarni olgan holda yangilanib boradi.

Jamiyatning ijtimoiy hayotiga falsafiy yondashuvning kirib borishi natijasida voqelikdagi ichki intizom, xalqning totuvligi mustahkamlanib boradi. Bu odamlarning dunyoqarashi, tashqi olam haqidagi tushunchalarining kengayishiga, tinchlik uchun barchaning birdek mas’uliyat bilan jamiyat intizomini taminlashiga,

[1]Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси.-Тошкент: Маънавият, 2023. -Б. 649.

xalqning tartibli hayotiga yo‘l ochadi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek, “har qaysi ma’rifatli inson o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda”[1] voqelikka murojaat qiladi. Jamiyatda axloqiy qadriyatlar davrlar mafkurasining ta’sirida o‘z tashqi tomonlarini tezroq o‘zgarishiga moyil bo‘ladi. Lekin masalaga metodologik jihatdan yonshashilganda, ichki mohiyat o‘zining o‘zgarmas va asrlar davomidagi nozik qirralarini saqlab qolishi bilan farqlanadi. Shuning uchun falsafiy bilimlarni tadqiq etganda, ularning ichki tomonlarini ilmiy tahlil etganda o‘ziga xos metodologik yondashuvning amal qilishini kuzatish mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot hamisha asrlar davomida shakllangan qadriyatlarga tayanib ish ko‘radi. Shu jihatdan olib qaralganda, falsafiy bilimlar rivojida aksiologik yondashuv o‘zining turlicha madaniyat, san’at va adabiyot namunalarini saralab hayotga tadbiq etishi bilan ajralib turadi. Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy an’analar, tarixiy meros, ijtimoiy mehnat taqsimoti, axloqiy-ma’naviy tajribalar bevosita yangi avlodga meros bo‘lib o‘tib boradi. Bunday sinergetik faoliyatda an’analar o‘zining qiyofasini yangilab borishi asosida milliy mentalitetning tabiiy jihatlarini ifodalaydi. Aksiologik an’analarning eng qimmatli jihatlari jamiyat ijtimoiy hayotiga milliy tarbiya vositalarini olib kirish bilan belgilanadi. Jamiyatda axloqiy qadriyatlarning an’analar negizida inson kamolotiga tas’ir etib borishi har bir xalqning asrdan asrga, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan tarixiy va falsafiy tafakkurida muhrlanadi. O‘zbek xalqining axloqiy qadriyatlari esa ana shunday o‘tmishning sermazmun g‘oyalari bilan yanada mukammalroq, ijtimoiy hayotga yorqinroq kirib amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugun jamiyatda amal qilayotgan qadriyatlar o‘zbek xalqining azaldan qadrlanib, e’zozlanib kelinayotgan buyuk tarixning madaniy-falsafiy merosi sanaladi. Shu boisdan, jamiyat an’analarining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga aylanib borayotganligi ta’lim tizimidagi tarbiyada inson qadr-qimmatini mustahkamlovchi axloqiy idealni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya tizimidagi jamiyat an’analari bo‘lgan insonparvarlik, salomlashish, mehmondo‘stlik, kattalarga izzat, kichiklarga hurmat singari yuzlab axloqiy qadriyatlar barchamiz uchun doimo namuna bo‘lib qoladi. Insonning kundalik turmushida boshqalar bilan kundalik muloqoti bo‘lgan salomlashish va xayrlashish paytida, jamiyatda uchrashuvlar kabi rasmiy tadbirlarda sodir bo‘ladi. Bu imkoniyatlarning barchasi sizdan jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini, jumladan, ohang, so‘z tanlash va og‘zaki bo‘lmagan muloqotni, masalan, yuz ifodalari, tana tilini bilish, xushmuomala bo‘lishni talab qiladi. Ushbu xususiyatlardan xabardor bo‘lgan insongina jamiyatni ko‘proq qo‘llab-quvvatlaydigan va hurmat qiladigan tarzda muloqotni amalga oshiradi.

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: 2008. –Б. 17.

Jamiyatdagi e’zozlanadigan axloqiy normalarga aksiologik jihatdan yondashish esa ijtimoiy muhit bilan chambarchas bo‘lishga, biror bir tushunmagan holatni anglashga, kerak bo‘lsa boshqalarga tushuntirishga imkoniyat yaratadi.

Insonlarning qaysi hudud yoki mintaqada yashashidan qat’i nazar bir-birlari bilan o‘zaro aloqalari yer planetasining har bir burchagidagi aholini birlashtirib turadi. Bunday ijtimoiy makonning sermazmunli va fayzli bo‘lishida axloqiy qadriyatlarga nisbatan integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir jamiyat o‘zining farovon taraqqiyot yo‘lini tanlashida falsafiy tafakkurga ega bo‘lgan tarixning asl mohiyatini uzluksiz o‘rganib borishi, ma’naviy hayotdagi o‘zgarishlarda turli millat vakillarini bir maqsad yo‘lidagi qarashlarini anglab borishlari lozim. Bunday ijtimoiy-falsafiy jarayon millatlarni jipslashtirishga, umuminsoniy qadriyatlarga mos axloqni rivojlantirishga keng yo‘l ochadi.

Farzandlarni tarbiyalashda ularning yoshi, jinsi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish ta’limda ijobiy samara beradi. Jamiyatda yoshlar uchun tashkil etilgan barcha tadbirlar axloqiy qadriyatlarga asoslangan bo‘lishi, optimizm va asosiy kalit jamiyatdagi bolalar bilan muloqot qilish uslubi va ohangining asosi bo‘lishi lozim. “Bu o‘ziga xos tarzda tarbiyaning jismoniy, axloqiy, intellektual, estetik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va madaniy integratsiyalashuvini vujudga keltiradi. Bu ijtimoiy muhit bolalarni zamonaviy bilimlar bilan boyitishda, ularni qo‘llash va doimiy yangilash zaruriyatini yaratishda manfaatdor ishtirokini nazarda tutadi. Bolalarda integrativ qiziqishlar, qobiliyatlar, moyillik va mayllarni rivojlantirish jamiyatning markazidagi masaladir”[1].

Jamiyatdagi qadriyatlarga falsafiy yondashuvlar asosida madaniy-axloqiy ruhda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish ma’naviy o‘zag hisoblanadi. Jamiyatda voqelikka falsafiy yondashuvlar insonning iste’dodini rivojlantirishga, ularda hayotda mavjud bo‘lgan turli axloqiy qadriyatlarni mantiqiy tahlil qilishga yordam beradi. Oldin shubha ostiga bo‘lgan muayyan darajadagi qadriyatlarni asl mohiyatini anglash asosida o‘z hayoti uchun yangi dunyoqarashni yaratadi. Aynan shu egallagan malakalari hayotdagi rolini mustahkamlab, amaliy faoliyatiga ko‘mak beradi. Inson o‘z xatti-harakatlari orqali ijtimoiy hayotni bilishga intilishar ekan, bu jarayonga befarq bo‘lishni istamaydi va jamiyatdagi qiyin vaziyatlarni ba’zida mustaqil ravishda, ba’zida o‘zgalarning ko‘magi bilan hal etishga intiladi. Inson o‘zining axloqiy xarakterini shakllantirish imkoniyatini beradigan qoida va me’yorlarni qanchalik yaxshi o‘zlashtirsa, shuncha o‘zining amaliy faoliyati samarali bo‘ladi.

Jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar murakkab va tabiiydir. Jamiyatning axloqiy qiyofasini rivojlantirishda eng muhim omil ota-onalarning ongli, maqsadli va tizimli

[1] Потаповская О. Духовно-нравственное воспитание детей и родителей // Дошкольное воспитатние. – 2006. - №1. – С. 16.

qadriyatlarga amal qilishi va o‘z idealini bolaning komil bo‘lishida foydalanishidir. Yaxshi axloq rivojlangan jamiyatning a’zolari o‘ratsidagi mehr-muhabbat, o‘zaro yordam va bir-birlari uchun mas’uliyat munosabatlari jamoani doimo birlashtiradi. Jamiyatda yuksak falsafiy tafakkurni qaror toptirishda axloqiy qadriyatlarga nisbatan mustahkam irodani shakllantirish, mazmunli ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish darkor. Inson o‘z umidlari va orzularini amalga oshirishi uchun avvalo jamiyatda o‘zining muayyan hurmatiga ega bo‘lishi, axbrotlashgan jamiyatdagi muloqot madaniyatini yaxshi bilish lozim. U jamiyat bilan muloqot qilish davomida ijtimoiy va axloqiy munosabatlarni hisobga olishi, reallikdagi hodisalarga o‘zining amaliy qarashlarini bildirib borishi yaxshi natija beradi. Jamiyatda sodir bo‘layotgan kundalik o‘zgarishlarning axloqqa bog‘liq tomonlarini uzluksiz mutaxassislar tadqiq qilib borishi va sotsiologik so‘rovnomalarda aniqlash kelgusidagi rejalarni belgilashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat ma’naviy hayotining rivojlanishi jarayonida axborotlashgan muhitning kengayishi axloqiy qadriyatlarning mazmun-mohiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimining jadallashuvi insonlarning dunyoqarashi, tafakkuri hamda ijtimoiy munosabatlarini yangicha shakllantirib, turli millat va jamiyatlarning ma’naviy hayotida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu holat axloqiy qadriyatlarni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan qayta talqin qilish zaruratini kuchaytiradi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda insonlar yangi g‘oya va qarashlarga tezkorlik bilan intilib, interfaol kommunikatsiyalar orqali fikrlash va mushohada yuritish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Har bir tarixiy davr o‘ziga xos axborot makonini shakllantirgani kabi, zamonaviy jamiyat ham inson tafakkuri va ma’naviy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi yangi axboriy muhitni vujudga keltirdi. Natijada jamiyat hayotining barcha sohalarida axloqiy qadriyatlarning mazmuni, ahamiyati va amal qilish tamoyillari yangicha ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar asosida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois jamiyat ma’naviy hayotida axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy-falsafiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINING IQTISODIY, IJTIMOIY, MADANIY HUQUQLARI VA FUQAROLARNING BURCHLARI

Mavlonov Feruz Oblaqulovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi
e-mail: *mavlonovf@gmail.com*

Konstitutsiyada ilk marotaba yer xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi nazarda tutildi. Ushbu norma haqiqiy inqilobiy yangiliklardan biri sifatida mulkchilik munosabatlaridagi bo‘shliqni to‘ldirdi. Shu bilan birga, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joydan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning hamda u ko‘rgan zararning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi belgilanyapti. “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Bank operatsiyalarining omonotlarning va hisobvaraqalarining sir tutilishi, shuningdek, meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi”. 41-modda. Shu o‘rinda Konstitutsiyasining 41-moddasida nafaqat bankka qo‘yilgan omonatlarning shuningdek, bank operatsiyalarining va hisobvaraqalarning ham sir tutilishi qonun bilan kafolatlanishi bank operatsiyalarining siri va bank hisobvaraqalari manfiyligini ta’minlashag oid to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi konstitutsiyaviy norma sifatida qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Bank siri va bank hisobvaraqalari manfiyligiga konstitutsiyaviy maqom berilishi bank mijozlarining shaxsiy ma’lumotlaridan qonuniy yoki jinoyat maqsadlarda foydalanishning oldini olish borasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonnig munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. 42-modda.

Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikka intilish barcha Konstitutsiyaga xos xususiyat. Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash uchun mavjud hokimiyatni muayyan darajada cheklaydi. Chunki inson huquqlarini kafolatlash uchun ularga nisbatan qilinadigan

turli suiste’molchiliklarni cheklash zarur. Yangi Konstitutsiyada “taqiqlanadi”, “haqli emas”, “mumkin emas” jumlalari ko‘plab uchrashining boisi ham shunda. Misol sifatida ayrim moddalani keltirish o‘rinli. 42-modda: “Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni raj etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi” mustahkamlab qo‘yildi. Bu ham aziz opa-singillarimizni, ko‘plab yosh oilalarni uzoq yillar o‘ylantirib kelgan, kerak bo‘lsa, hayotiy rejalarini o‘zgartirib yuborayotgan katta muammolardan biri edi.

Davlat fuqarolarining bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi.

Davlat fuqarolarining kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadiamda rag‘batlantiradi. 43-modda.

Olimlar aynan ijtimoiy davlat g‘oyalari Yevropa mamlakatlarining fuqarolikka erishishga poydevor bo‘lganini uqtiradi. Davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas’uliyati, ijtimoiy sohani rivojlantirishga budjetdan ajratmalarning ko‘p bo‘lishi, aholini ijtimoiy himoyalash, muhtoj aholining qo‘llab-quvvatlanishi kabilar ijtimoiy davlatning muhim belgilaridir. boshqacha aytganda, ijtimoiy davlatda davlat idoralari bilan jamiyat a’zolarining maqsad va manfaatlari bir-biriga nihoyatda yaqin, ijtimoiy davlat fuqarolar haqida g‘amxo‘rlik qilishni o‘zining bosh vazifasi deb biladi.

Yangi Konstitutsiyada ijtimoiy davlat g‘oyasi shunchaki deklaratib tarzda bayon etilmagan, balki bu g‘oyaning ishlash mexanizmi va kafolatlari aks ettirilgan 43-modda: “Davlat fuqarolarini ishsizlikdan himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi”. 42-modda: “Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlashi zarur”. 50-modda: “Alohida ta’lim ehtiyojlariga egabo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi”. Qonunning 57-moddasida esa ijtimoiy davlatning deyarli barcha funksiyalari jamlangan: “Davlat iholining ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirish choralarini ko‘radi. Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi”.

Yangi Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar amaldagi (oldingi)dan 3 barobar ko‘paytirilyapti. Shu bois, bitta maqola hajmi doirasida ijtimoiy davlat g‘oyalarini aks ettiruvchi yangi moddalarni sharhlash emas, aks ettirishning o‘zi amri mahol. Eng muhimi, bu masalalar orqali o‘z muammolariga yechim topgan qanchadan-qancha hojadmand kishilar, ularning oila a’zolari, “yaqinlarining qalbiga mehr urug‘lari qadaladi. Bu esa yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma’noda xalq Konstitutsiyasi bo‘lganligidan dalolat beradi.

Bolalar mehnatining bolaning sohligiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jimoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi”. Bu bilan xalqimizni uzoq yillar ezib kelgan, qanchadan-qancha dardu sitamlarga sabab bo‘lgan armonlarimizga barham berildi.

Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jimoniy rivojlanishiga xavf soluvchi h, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi. 44-modda.

Birgina shu moddaning o‘zi millionlab yoshlardan bepul mehnat quroli sifatida

foydalanishga, ularning eksplutatsiyasiga chek qo‘ymaydigan, ularning har tomonlama rivojlanishi kafolatlamaydimi? Demakki, jamiyatimizning yarmidan ortig‘ini tashkil etgan yoshlarning yarmidan ortig‘ini tashkil etgan yoshlarning hayoti sifatiga o‘zgarishiga olib kelmaydimi? Konstitutsiyada 44-modda: “majburiy mehnat taqiqlanadi” degan qoida ham shular jumlasidandir.

Asosiy Qonunimizda har kim ishsizlikda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga egaligi mustahkamlab qo‘yildi. Pensiya nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamning miqdorlari eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emasligi belgilab qo‘yildi. Hozirning o‘zida bu, 2 million 200 ming ehtiyojmand oila davlatdan kafolatli moddiy yordam oladi, deganidir. Bu jami oilalarning 25 foiziga to‘g‘ri keladi. Ayni xarajatlar uchun har yili 11 trillion so‘m ajratiladi.

Har kim dam olish huquqiga ega. Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini,dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq to‘lanadigan har yilgi mehnat ta’tilini belgilash orqali ta’minlanadi. ***45-modda***

Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’limot huquqiga ega.

Qonunda belgilangan pensiyalar nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdori rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emas. ***46-modda.***

Har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega. Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamd u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tuilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanadi.

Davlat uy-joy qurilishini rag‘batlantiradi va uy-joyga bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi bilan belgilanadi. ***47-modda.***

Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar oldi. Umuman, davlatning ijtimoiy majburiyatlariga doir normalar uch barobar oshdi. Masalan, 2 million 200 ming ehtiyojmand oila davlatdan moddiy yordam olishi kalofolatlandi. Bu jami oilalarning 25 foiziga to‘g‘ri keladi, ularga har yili 11 trillion so‘m ajratilmoqda[1].

Deputatlar 2022-yili 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratgani, bu 2023-yili 90 ming, yaqin 2-3 yilda esa 200 ming oilani uy-joyli qilish rejalashtirilgani, shu boisdan har bir fuqaroning uy-joyli bo‘lish huquqi va uy-joy qurilishi davlat tomonidan rag‘batlantirilishinig Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yildi.

Oliy Majlis Senatining 41-yalpi majlisida ma’qullangan “Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun ham shu maqsadga yo‘naltirilgan: “Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muxofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi”[2], degan qoidalar asosida ishlab chiqilgan.

Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli.

Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘radi.

*Davlat jismoniy tarbiya va sport rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.****48-modda.***

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi.

---

[1]Oliy Majlis Qonunchilik palatasi. Parlament axborot markazi. Yangilanayotgan Konstitutsiya // Xalq so‘zi, 2023 yil 10 mart, №48(8391).

[2]O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Konstitutsiyasi // Xalq so‘zi, 2023 yil 2 may, № 87-88 (8430-8431).

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi. ***49-modda.***

Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Sayyoramiz aholisi ko‘payishda davom etyapti. Avvalo, global ekologik muammolarning keskinlashuvinikuzatayapmiz. Dunyo hamjamiyati esa vaziyatni o‘nglash uchun jahon iqtisodiyotida “yashil taraqqiyot” tamoyillarini joriy qilish zarurligini ta’kidlamoqda. Mazkur yondashuv BMT Barqaror rivojlanish maqsadalrida ham o‘z ifodasini topgan.

Markaziy Osiyo va butun dunyo uchun dolzarb ahamiyatga ega Orol fojiasi, shuningdek, yer va suv resurslaridan samarasiz foydalanish, yerlarning va ekotizmning tanazzulga uchrashi, biologik xilma-xilliknin, o‘simlik va hayvonot dunyosi turlari genofondining qisqarishi, atmosfera havosi va oqova suvlarining ifloslanishi, sanoat va maishiy chiqindilarning to‘planishi kabi ekologik muammolar har bir mamlakatni bu masalaga yanada jiddiy e’tibor qaratishini taqazo etmoqda. Bu kabi muammoalr biz uchun ham juda muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalar hisoblanadi. Chunki yuqoridagi kabi ekologik masalalar hal etilmasa kelajakda tuzatib bo‘lmas oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Singapurning sobiq bosh vaziri Li Xuan Yu aytgan ekan, “men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, davlat budjetini ta’limga yo‘naltirdim, muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko‘tardim. Davlatdagi mo‘jizalarni amalga oshirgan insonlar muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtarin avlodni yetishtirib chiqaradilar”.

Har kim ta’lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.

Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchn shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi ***50-modda.***

Shu ma’noda yangilangan Kontitutsiyamizda o‘qituvchining mehnati va davlatni rivojlantirish, barkamol avlodni shallantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof

e’tilganligi, davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadir-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi konstitutsiyaviy asoslab qo‘yildi[1].

Alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim tashkilotlari inklyuziv ta’lim va tarbiyaning tashkil etilishi, ularning hamma qatori umumiy maktablarda ham o‘qishi yo‘lga qo‘yilishi Yang O‘zbekistonda inson qadri tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi va boshlang‘ich professional ta’lim bepul ekanligi ham belgilandi. “Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib berishning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladi”[2]. Deputatlar tomonidan so‘nggi 6 yilda bolalarning bog‘cha bilan qamrovi 27 foizdan 70 foizga kiritilgan yangi normalar bu borada yangi marralarga erishish imkonini berishi ta’kidlandi.

Boshlang‘ich sinflarda xorijiy tajriba asosida yangi o‘quv dasturi joriy qilinadi. Yuqori sinflarda o‘qitiladigan fanlar 16 tadan 11 taga kamaytirib, dasturlarning fanlararo va sinflararo integratsiya ta’minlanadi. Bunda 11 ta majburiy va 2 ta tanlov fani tatbiq etildi. Yangi 2023-2024 o‘quv yilidan informatika fani 1-sinfdan boshlab o‘rgatilmoqda.

Фуқаролар давлат таълим ташкилотларида танлов асосида давлат ҳисобидан олий маълумот олишга ҳақли.

Олий таълим ташкилотлари қонунга мувофиқ академик эркинлик, ўзини ўзи бошқариш, тадқиқотлар ўтказиш ва ўқитиш эркинлиги ҳуқуқига эга. ***51-модда.***

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

52-modda.

Yangi Konstitutsiya o‘qituvchilarning haq-huquqi, qadr-qimmati, sha’nu sharafining himoyachisiga aylanmoqda. Yuqoridagi moddaning oliy yuridik kuchga ega Konstitutsiyada mustahkamlanishi 685 mingdan ziyod muallimning professional o‘sishi jamiyatda sifat o‘zgarishlari yasaydi. Oliy Majlis deputatlar o‘qituvchilar sha’ni va Qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish to‘g‘risidagi norma

[1]Miraqulov M. Konstitutsiyaviy qonunning mohiyati va ahamiyati // Xalq so‘zi, 2023-yil 31-mart, №64(8407).
[2]2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. –T.: Adolat, 2022.-40-bet.

millat va xalq rivoji, uning intellektual salohiyatini kengaytirishda asosiy o‘rin tutuvchi o‘qituvchilarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi va obro‘sini yanala oshirishga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tdilar.

Yangilangan Konstitutsiya islohotlarida yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Aholimizning 18 mlnyudan ortig‘i yoshlar bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2040-yilga borib 25 millionga yetishini hisobga olib Konstitutsiyaga yoshlar masalasiga alohida e’tiborga olingan. Yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoyalanishi ta’minlangan.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 52-moddasida davlat o‘qituvchilarining sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi haqidagi norma o‘z aksini topdi. Shu maqsadda o‘qituvchining maqomiga oid qonunning tezroq qabul qilinishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil iyun oyi saylovoldi dasturida ustuvor masala sifatida e’tirof etilgan.

Yangi O‘zbekiston islohotlar davomida har bir soha vakiliga, aniqrog‘i, pedogoglarga alohida e’tibor qaratilyapti. Ayniqsa, maktab, kollej va OTM o‘qituvchilaribaxtu kamolini ko‘zlagan har bir oila manfaati nuqtayi nazaridan Konstitutsiyamizga kiritilgan bu o‘zgarishlar o‘z vaqtida qabul qilingan to‘g‘ri qarordir.

XXI asr - yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar asri. Bunday avlodni tarbiyalashda ustoz-muallimlarning xizmati beqiyos. Zero, hozir jahonda mamlakatning taraqqiyot darajasi pedogoglarning jamiyatda tutgan o‘rniga qarab baholanmoqda. Singapur mo‘jizasi bunga misol bo‘ladi.

Yangilangan Asosiy Qonunimizning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi”. O‘zbekiston fuqarolari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, fuqaro sifatida qonun oldida huquqan tengdir. Fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab yetishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab berish galdagi vazifalardan biridir. Bu jarayon fuqarolar uchun ma’naviy kamolot manbai bo‘lishi bilan birga, ta’lim-tarbiya tizimi uchun ham doimiy amaliy faoliyatdir.

Yangilangan Konstitutsiyaning 55-moddasi. “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlangan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarining, ular mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kim buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi Qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega”.

Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etish uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlashimkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralar ko‘radi.

Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarobyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoiptlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi. ***57-modda.***

Qolaversa, davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari hamda xizmatlaridan to‘laqonli foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashishi, zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlashi kafolatlanib qo‘yildi.

E’tirof etish kerakki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu boradagi global o‘zgarishlarni ajratib ko‘rsatishga arziydigan ishlar bajarilmoqda. Bular BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi ratifikatsiya qilingani, muhim siyosiy jarayonlarda byuletenlar Brayl alifbosida tayyorlanayotgani, saylov uchastkalari yaqinda panduslar tashkil etilgani nogironligi bo‘lgan shaxslar ham mamlakat hayotida faol qatnashish huquqini amalda ta’minlayapti[1]. Qolaversa, Yangi Asosiy Qonunimizda “nogironligi bo‘lgan shaxs” degan ibora ham xalqaro andozaga to‘la mos keladi.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Mamlakatimizda

[1]Kurmanova D. O‘zbekistondagi Konstitutsiyaviy islohotlar // Xalq so‘zi, 2023-yil 15-aprel №75 (8418).

xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqligi nafaqat qonunlarimizda, balki Bosh Qomusimiz, Konstitutsiyamizning 58-moddasidan ham mustahkamlab qo‘yildi.

Rahbar lavozimlarini egallash uchun teng imkoniyatlar yaratish, homilador bo‘lishi yoki yosh bolali ekanligini ro‘kach qilib ayollarpni ishga qabul qilmaslik kabi holatlarga Yangi Konstitutsiyamiz orqali chek qo‘yildi.

Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi. ***58-modda.***

Bugun mamlakatimizda xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat butunlay o‘zgardi. O‘zbekiston tarixida ilk marta parlamentimizda xotin-qizlar soni BMT tomonidan

belgilangan tavsiyalarga mos darajaga, ya’ni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Xotin-qizlarning siyosiy partiyalardagi ulushi 47 foiz, tadbirkorlikda esa 37 foizga yetdi.

2022/2023-o‘quv yilidan boshlab magistraturada o‘qiyotgan qizlarning shartnoma pullari to‘liq budjetdan qoplana boshladi. Har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavr va 10 nafari magistraturaga yuborilishi yo‘lga qo‘yildi[1]. Har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo‘qotgan 150 nafar qizlarning shartnoma pullari mahalliy budjetdan to‘lab berildi.

Soliq yukini kamaytirish tadbirkorlikni yangi tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga undamoqda. Natijada 2018-2022-yillar mobaynida mamlakatimizda 424 mingdan ortiq kichik kichik korxona va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Bugungi kunda iqtisodiy faol aholining 67,2 foizi (10 million kishi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgani ham tadbirkorlik iqtisodiyotning yetaklovchi kuchiga aylanganligining isbotidir.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 12 foizga tushirildi. Xorijiy investorlar aksiyalaridan oladigan devidentlar uch yil muddatga foyda solig‘idan ozod qilindi.

Yangi Konstitutsiyaning 148-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-tamoyillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

[1]Raxmonova U. Ayol baxtli bo‘lsa, oila baxtli, jamiyat barqaror bo‘ladi // Xalq so‘zi, 2023-yil 7-iyun, №116 (8459).

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARDA: ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB MUAMMOLARI

Quyliyev Sanjar Sayfi o‘g‘li
Samarqand davlat pedagogika institute Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi ma’naviyat asoslari) 1-bosqich magistranti
sanjarbekquyliyev20@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda, Hozirgi davr - dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir. Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda eng dolzarb va olamshumul muammolardan hisoblangan xavfsizlik, barqarorlik va tinchlik masalalariga e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Dunyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy taraqqiyoti va rivojlanishi aynan shu muammolarning qay darajada yechilishiga bog‘liqdir. Globallashuv davrida yoshlar muammosi zamonaviy falsafaning eng dolzarb va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv davrida yoshlar muammosi, Milliy madaniyatlarning global tendensiyalar oldida zaiflashuvi yoshlarning o‘z an’ana va meroslariga befarq qarashiga olib kelishi mumkin. Poligonlar, yadro poligonlaridan,

Hozirgi davr - dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir. Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda eng dolzarb va olamshumul muammolardan hisoblangan xavfsizlik, barqarorlik va tinchlik masalalariga e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Dunyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy taraqqiyoti va rivojlanishi aynan shu muammolarning qay darajada yechilishiga bog‘liqdir. Globallashuv davrida yoshlar muammosi zamonaviy falsafaning eng dolzarb va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “2022- 2026 yillarga mo„ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‗yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish kabi vazifalar qo‘yilgan[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma’naviy tahdid muammosiga alohida e’tibor qaratib, — Avvalam bor, — Ommaviy madaniyat ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta’lim-tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni unutmasligimiz

kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy meroslariga tayanamiz, [2;457] - deb ta‘kidlaydi. Xalqimiz ma’naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, globallashuv jarayonida kishilarni, ayniqsa yoshlarni turli xil ko‘rinishdagi mafkuraviy xurujlar ta’siridan asrashda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur: - mustaqil fikrga ega, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega shaxslarni tarbiyalash, turli diniy oqim va yo‘nalishlar ta‘siri hamda aqidasiga qarshi immunitet hosil qilish; - mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashash, internet tizimida diniy ekstremizm, terrorizm va missionerlikni targ‘ib qiladigan saytlardan yoshlarni muhofaza qilish; - yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, ularning ma’naviyaxloqiy tarbiyasini shakllantirish; - axborot madaniyatini shakllantirish; - kishilarda diniy bag‘‘rikenglik va millatlararo totuvlik ta‘minlash bo‘yicha tushuntirish, targ‘ibot ishlarini olib borish; - diniy ekstremizm va terrorizm bilan kurashda huquq-tartibot idoralarini faoliyatini takomillishtirish. Yoshlarning harakatlari eng asosiy global muammolarni, xususan, pandemiya negizidagi inqiroz, inson huquqlari, turli konfliktlarni hal qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishiga sabab bo‘lmoqda. “Yoshlar bu jarayonda yangi bilimlar, turli madaniyatlar va qadriyatlarni tezda o‘zlashtirish imkoniyatiga egabo‘lmoqda” [5].

Globallashuv jarayonining yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini o‘rganishda ikki muhim jihatga alohida e’tibor qaratish zarur. Birinchidan, globallashuv natijasida umuminsoniy qadriyatlarning keng tarqalishi yuzaga keladi. Ushbu qadriyatlar insoniyatning umumiy madaniy merosi sifatida inson huquqlari, demokratiya tamoyillari, barqaror rivojlanish va ekologik mas’uliyat kabi universal prinsiplarni o‘z ichiga oladi. Bu qadriyatlar yoshlarning ongida mustahkam o‘rin egallab, ularning global dunyo bilan uyg‘unlashishi va zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. “Milliy madaniyatlarning global tendensiyalar oldida zaiflashuvi yoshlarning o‘z an’ana va meroslariga befarq qarashiga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida jamiyatning ma’naviy asoslariga ta’sir qiladi” [6]. Shu sababli, globallashuv sharoitida yoshlarning o‘z milliy ildizlariga sodiqligini ta’minlash strategik vazifa bo‘lib qolmoqda. “Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ular global maydonda o‘z madaniyati va an’analarini himoya qila oladigan shaxslar sifatida shakllanadilar”[7]. Globallashuv jarayonining yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini o‘rganishda ikki muhim jihatga alohida e’tibor qaratish zarur. Birinchidan, globallashuv natijasida

umuminsoniy qadriyatlarning keng tarqalishi yuzaga keladi. Ushbu qadriyatlar insoniyatning umumiy madaniy merosi sifatida inson huquqlari, demokratiya tamoyillari, barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyat kabi universal prinsiplarni o'z ichiga oladi. Bu qadriyatlar yoshlarning ongida mustahkam o'rin egallab, ularning global dunyo bilan uyg'unlashishi va zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида‖ги Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.Lex.uz, 29.01.2022
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон Стратегияси. - Тошкент, Ўзбекистон, 2021. Б-457.
3. Ҳар бир давлат учун чегара масаласи муҳимдир -Президент. http://m.xabar.uz/jamiyat/har-bir-davlat-uchun-chegara-masa
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтказилган «Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик» мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. http://www.prezident.uz/uz/lists/view/1227
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон - 2030 стратегияси тўғрисида»ги Фармони. 2023 йил 11 сентябрь, ПФ-158-сон. https://lex.uz/docs/6600413

MA'NAVIY ISHLAB CHIQARISH TIZIMIDA MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Raxmonova Nigina Tolibovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy ruhiyatni takomillashtirish va milliy mafkurani rivojlantirishning ahamiyati katta. Shuning bilan bir qatorda ma'naviy ishlab chiqarish jarayoniga ham optimal tus berilmasa, ma'naviy barqarorlik amorf reallikka, qisqa muddatli muvaffaqiyatga aylanib qoladi. Har qanday jamiyat doimiy davom etadigan, yuzaga kelayotgan yangi va yangi tahdidlarga bardoshli bo'lgan ma'naviy barqarorlikka ega bo'lmog'i darkor. Bunday uzluksiz barqarorlikka esa yangi g'oyalar, ta'limotlar, qadriyatlarni yaratish, bu jarayonga muttasillik va optimallik baxsh etish orqali erishish mumkin.

Boshqacha aytganda, uzluksiz ma’naviy barqarorlik - optimal ma’naviy ishlab chiqarish mahsulidir.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’naviy barqarorlik, milliy mafkura, ma’naviy ishlab chiqarish, milliy madaniyat, globallashuv.

Jamiyatimizda ijtimoiy ishlab chiqarishning o‘ziga xos shakli bo‘lgan ma’naviy ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va mohiyatiga bugungi kunda yetarli darajada e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy ishlab chiqarish deganda moddiy ne’matlarni yaratish jarayoni nazarda tutiladi. Aslida ijtimoiy ishlab chiqarish murakkab tarkibga ega bo‘lib, u moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Biz bu o‘rinda moddiy ishlab chiqarish tabiati xususida to‘xtalib o‘tirmaymiz. “Ma’naviy ishlab chiqarish turli tasavvurlar, kayfiyatlar, bilimlar, g‘oyalar, nazariyalar, ta’limotlar, qadriyatlar yaratishga qaratilgan jamoaviy faoliyat turidir. Moddiy ishlab chiqarish kabi uning ham o‘z funksiyalari mavjud. Jumladan, ma’naviy ishlab chiqarish jamiyat hayotining turli sohalarini takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga molik bilim va g‘oyalar ishlab chiqarish, jamiyat a’zolarining mazkur bilim va g‘oyalardan voqifligi darajasini oshirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini qaror toptirish vazifalarini bajaradi”1. Jamiyatning ma’naviy barqarorligi deganda mazkur ma’naviy ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi tushuniladi. Chunki ushbu jarayon uzluksiz va unumli davom etgani sayin turli sohalarni takomillashtirish, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan innovatsion bilim va g‘oyalarni yaratish, kishilar dunyoqarashini kengaytirish, maqbul jamoatchilik fikrini shakllantirish, kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengayib boraveradi. Aksincha, ma’naviy ishlab chiqarish jarayonining uzlukliligi va besamarligi, bir tomondan, jamiyatni taraqqiyotdan mosuvo qiladi, ikkinchi tomondan esa, uning a’zolari dunyoqarashini toraytiradi, ma’naviy ehtiyojlari xarakterini salbiy tomonga o‘zgartiradi. Afsuski, ma’naviy ishlab chiqarish bilan bog‘liq ilmiy tasavvurlar anchayin sayoz. Uzoq yillar davomida tadqiqotchilarning diqqat e’tibori ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy shakllariga ja’m bo‘lgani bois ushbu jarayonlar nazardan chetda qolib keldi. XX asrning so‘nggi yigirma yilidayoq mutaxassislar ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq masalalarni ilmiy pozitsiyadan tadqiq qila boshladilar. Bunday izlanishlarning mahsullarini, jumladan, S.F.Anisimov, N.M. Bajov, Ye.S.Barulin, V.K. Bonko, Y.A.Vilchko, A.M.Kovalev, L.N. Kogan, V.N. Orlov, V.I. Tolstix, A.K.Uledov kabi olimlarning asarlarida ko‘rish mumkin. Biroq ular yaratgan dissertatsiya, “monografiya va ilmiy

1 Mirziyoev Sh.M. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga ayla-nishi kerak.// president.uz, 2023, 22 dekabr

maqolalarda “ma’naviy ishlab chiqarish” falsafiy kategoriya sifatida markscha-lenincha falsafaning moddiylikning birlamchiligi, har bir narsani sinfiylik va partiyaviylik nuqtayi nazaridan qarash kabi tamoyillaridan kelib chiqqan holda yoritib berishga harakat qilindi”. Faqat keyingi yillardagina ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini mafkuraviy talqinlardan xoli ravishda tadqiq qilish tendensiyasi paydo bo‘ldi. Xususan, ushbu jarayonning ilmiy tavsifini Y.V.Yevdokimova va Y.V.Xalipovalarning dissertatsiyalarida, Y.V.Viktorova, Y.N. Mironova, Y.V.Jikriveskayalarning maqolalarida ko‘rish mumkin. O‘zbekistonda ham ma’naviy ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar paydo bo‘ldi. Biroq ushbu ilmiy ishlarning bir qismida mazkur jarayonlar mutlaqo noto‘g‘ri talqin qilinadi. Masalan, U. Hayitovning kitobida shunday deb ta’kidlanadi: “Ma’naviy ishlab chiqarish o‘z mazmuni va shakliga ko‘ra turli-tuman bo‘lib, ijtimoiy ongning aniq tarixiy shakllari, ma’naviy qadriyatlar (ilmiy g‘oyalar va qarashlar, badiiy asarlar, tasviriy san’at, me’morchilik) mahsulidan iborat”. Vaholanki, ma’naviy ishlab chiqarish ijtimoiy ong mahsuli emas, aksincha, ijtimoiy ong ma’naviy ishlab chiqarishning mahsulidir. Ikkinchi turkum ilmiy ishlarda esa g‘oyalar, ta’limotlar, nazariyalar, qadriyatlarni yaratish jarayoni boshqa ijtimoiy voqealar va tendensiyalar kontekstida ko‘rib chiqiladi, xolos.

Jamiyatdagi ijod erkinligini yanada kengaytirish zarur. Turli davrlarda ijod qilgan mutafakkirlar, olimu-fuzalolar, shoiru yozuvchilar, mutaxassisu tadqiqotchilar tomonidan ijod erkinlikni yoqtirishi bisyor takrorlangan. U ijodkorning muhim haq-huquqlaridan biri bo‘lib, ijod shaklini, mavzu va g‘oyalarni, syujet va janrlarni mustaqil tanlashda, ijod namunalarini erkin namoyish etishda namoyon bo‘ladi. “Jamiyatdagi har bir fuqaro yon-atrofdagilarga o‘z ehtiyojlarini bildiradi va o‘z navbatida o‘zida mavjud bo‘lmagan qanday manbalarni boshqalar yordami bilan erishishga intiladi. Axborotlashgan jamiyatdagi bunday fikr almashinish, ma’lumot va bilim berishda axloqiy qadriyatlardan samarali foydalanish ijtimoiy hayotning muhim qismidir”1 Ijod erkinligi so‘z erkinligining o‘ziga xos shaklidir. Shu bois jamiyatda so‘z erkinligi yuksalgani sayin u ham kengaya boradi. Ijod erkinligi jamiyatning yangi g‘oyalar, ta’limotlar, nazariyalar, qadriyatlar bilan boyishiga zamin yaratadi. Rivojlangan mamlakatlardagi g‘oyalar, ta’limotlar rivijining asl manbalari ham ijod erkinligining ta’minlanganligiga borib taqaladi. Uning tanqisligi esa ma’naviy turg‘unlik va tanazzul omilidir. Shu boisdan ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish masalasi kun tartibiga qo‘yilar ekan, ijod erkinligini ta’minlash va kengaytirish vazifasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi.

1 Дружинин В.Н. Психология семьи. – Изд. 3-е. – СПб.: Питер, 2008. – С. 176.

Holbuki, ma’naviy ishlab chiqarishni optimallashtirish uchun jamiyatdagi ma’naviy iste’mol tabiatini o‘zgartirmoq kerak. Kishilarning klassik asarlarga, inson ma’naviy dunyosini yuksaltirishga hissa qo‘shadigan ma’naviy ne’matlarga, ezgulik va insonparvarlik bilan yo‘g‘rilgan romanlar, she’rlar, filmlar, suratlarga ehtiyojini shakllantirmasdan turib, ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini maqbul holga keltirib bo‘lmaydi. Bu borada mamlakat Prezidentining tashabbusi bilan mahallalarda tashkil etilayotgan ma’naviyat sektorlari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu sektorlarning yillik ish rejalarini tuzayotganda mahallalarda eng ahamiyatli asarlar, filmlar, suratlar targ‘ibotiga alohida e’tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz. Ushbu targ‘ibot ishlariga yetakchi mutaxassislarning jalb qilinishi ularning samarasini yanada oshiradi. Davlat rahbarining adabiyot, kino, tarix, san’at, folklor namunalarini qamrab olgan “O‘zbek madaniyati” portalini yaratish bilan bog‘liq tashabbusining ro‘yobga chiqarilishi ham jamiyat a’zolarining ma’naviy iste’moliga oqilona tus berish imkoniyatlarini kengaytiradi. Albatta, oqilona ma’naviy iste’mol uch-to‘rt yil mobaynida sanoqli tadbirlar evaziga erishiladigan natija emas. Lekin mazkur yo‘nalishdagi uzluksiz intilishlar yaqin kelajakdayoq o‘z samarasini berishi, ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishi, pirovardida esa jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlashga hissa qo‘shishi aniq.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda alohida o‘rin tutadi. U insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari, ma’naviy ehtiyojlari va ijtimoiy faolligini shakllantirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarning oldini olish, milliy o‘zlikni anglash va yosh avlodni yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashda ma’naviy ishlab chiqarishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Shu bois ta’lim, madaniyat, fan va ma’rifat sohalarini rivojlantirish orqali ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga ayla-nishi kerak.// president.uz, 2023, 22 dekabr

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008;

3. Викторова Е.В. К вопросу о духовном производстве в современном обществе.// Регионология , 2014, №3

4. Ҳайитов У. Жамият тараққиётида маънавиятнинг ўрни.- Т.: Маънавият, 2015.- Б.15.

5. Миронова Е.Н., Жикривецкая Ю.В. Психологические аспекты духовности общества потребления.// Мир науки, культуры, образования, 2015, №2.

6. Shermanov I.Ch. Ijtimoiy taraqqiyotda ma’naviy ishlab chiqarishning falsafiy-metodologik ahamiya-ti.// Ilmiy xabarnoma, ADU, 2017, №2.

7. Bekmurodova G.H. Zamonaviy ijtimoiy destruksiya: mazmuni va shakllari, O`zbekistonda namoyon bo`lish xususiyatlari: (DSc) diss.-BuxDU, 2022.

8. Raxmonova N.T O‘zbekistonda ma’naviy barqarorlik negizlari.// Tamaddun nuri ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal. : 2024, 6-son.

III SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ILMIY VA MA’NAVIY-MA’RIFIY MEROSIDA ONTOLOGIK, EPISTEMOLOGIK, AKSIOLOGIK VA AXLOQIY QARASHLARNI AKS ETISHI MASALASI

MARKAZIY OSIYO FALSAFASINING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Karimov Sayimnazar

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori

Annotasiya: Markaziy Osiyo falsafasi zamonaviy sharoitda milliy an’analar va global intellektual jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir asosida shakllanmoqda. Ushbu maqolada mintaqadagi falsafiy tafakkurning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, madaniy-tarixiy merosni qayta baholash, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy-falsafiy muammolarni zamonaviy talqin qilish hamda globallashuv sharoitida inson va jamiyat munosabatlarini tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy merosi va uning hozirgi falsafiy tadqiqotlarda tutgan o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari mintaqa falsafasining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va uning jahon falsafiy makonidagi o‘rnini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo falsafasi, zamonaviy falsafa, milliy o‘zlik, madaniy meros, globallashuv, ijtimoiy-falsafiy tahlil, falsafiy tafakkur, ma’naviyat, sivilizasion taraqqiyot, an’ana va modernizasiya, inson va jamiyat, mintaqaviy rivojlanish, falsafiy meros, intellektual jarayonlar.

Ijtimoiy hayotning barcha sohasi globallashayotgan biz yashayotgan davr mohiyat mazmuni bilan o‘ziga xos tarixiy mazmunga boy bo‘lgan davrdir. Insoniyat tarixida doimo sodir bo‘lib kelgan ijtimoiy ziddiyatlardan tashqari bugungi kunda fundamental xarakterga ega bo‘lgan kuchli jarayon tafakkur va dunyoqarash tarkibining va tizimining ildizlarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Insoniyat madaniyat va ma’naviyat jarayonida bir butunlik tomon intilmoqda. Lekin bu ularning o‘ziga xos bo‘lgan milliylik mentalitetlarini boyib borishi uchun yangi mazmunga ham ega bo‘lmoqda. Ana shunday murakkab jarayonda jahon xalqlarining o‘zini saqlab yashab qolish bilan bog‘liq taqdirlari ham hal bo‘lmoqda. Shuning uchun ham ushbu jarayon chuqur falsafiy tahlilni tashkil qiladi. Hozirgi kunda aynan falsafiy tafakkur va dunyoqarashning o‘sib borishi kishilik taqdirini oldindan ko‘ra bilishga ko‘mak beradi. Shu yusinda falsafa o‘zining turli tarmoqlari va yo‘nalishlari bilan bu jarayonga tafakkur tarzi sifatida aralashadi.

Falsafaning zamonviy yo‘nalish sifatida madaniyat falsafasi Markaziy Osiyo faylasuf olimlarining diqqat markazida turibdi. O‘zbekistonlik faylasuf olimlardan

X.Shayxova, S.Otamurodov, M.Abduraxmonov, Q.Nazarov, T.Alimardonov, R.Qo‘chqorovlar, qozog‘istonlik faylasuflardan B.G.Nurjanov, M.Sh.Xasanov, T.X.Gabidov, A.B. Nuaьrzbayeva va boshqalar hamda tojik faylasuflardan Sh.Rajabov, M.Baltayev, G.A.Ashurova, qirg‘izistonlik faylasuflardan B.Amanaliyev, A.Brudnьy, A.A.Chukibayevalar har tomonlama tadqiq qilgan va qilmoqdalar.

Ijtimoiy falsafaning dolzarbligi Markaziy Osiyo faylasuf olimlarining diqqat markazidadir. Jumladan, o‘zbek olimlaridan A.Valiyev, A.Choriyev, I.Sayifnazarov, U.Abilov, Q.Nazarov, A.Ochildiyev, qozig‘istonlik faylasuf olimlardan A.K.Kasabekov, J.A.Alimxanov, M.Orinbekov, tojikistonlik faylasuf olimlardan Sh.Rajdabov, M.Baltayev, M.Dinorshoyev, turkmanistonlik faylasuflardan V.Mallakov, D.Atayev, K.Navaselov, T.Xidirov, qirg‘istonlik faylasuflardan T.Abdigdayev, A.Amanaliyevlar ijtimoiy falsafaning nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan va borishmoqda.

Markaziy Osiyo faylasuflari sinergetikani maxsus fan sifatida uning predmeti, qonun kategoriyalari hamda nazariy va amaliy asoslari haqida tadqiqot ishlarini jadallashtirmoqdalar. Jumladan o‘zbekistonlik faylasuflar I.Raximov, B.Raxmonov, B.Karimov, M.Usmonov, Sh.Qahhorova, B.To‘rayevlar, qozig‘istonlik faylaskuflardan J.M.Abdildin, T.X.Gabitov, A.U.Urazbekov, tojik faylasuflaridan S.Umarov, A.Tursunov, S.A.Rajabov, M.Kamilov, turkman faylasuflaridan G.Chariyev, G.Atayevlar kabilar tadqiqotlarida buning guvohi bo‘lamiz.

Falsafa tarixining nazariy va amaliy jihatlari , uni o‘rganishni o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy - metadologik va amaliy jihatdan tadqiq qilishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zbekistonlik faylasuflardan M.M.Xayrullayev, A.Zohidiy, M.Qodirov, G.Navro‘zova, R.Shodiyev, S.Karimovlar, qozog‘istonlik faylasuflardan falsafa tarixi bilan keng qamrovli tadqiqotlar olib borayotgan A.Kasabekov, J.A.Altayev, B.G.Nurjanov, K.B.Beysembiyev, tojikistonlik faylasuflardan M.Dinorshoyev, Sh.Rajabova, qirg‘iziston faylasuflardan M.S.Djunusov, B.Amanaliyevlar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyo falsafasining rivojlanish tendensiyalarini qisqacha tahlil qilish shuni ko‘rstadiki, dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg‘or g‘oyalar tug‘ilaveradi. Buzg‘unchi g‘oyalarning vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo‘ladi. Shunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish ya’ni doimo xushyor va obod bo‘lib yashamoq hayotiy zarurat bo‘lib qolaveradi. Bunday zaruratning asosiy falsafiy tafakkurning rivojlanishi va hayotiyligi bilan belgilanadi. Falsafaning qator tarmoqlarini jumladan **inson falsafasini**, **hayot falsafasini, qadriyatlar falsafasini, Sharq falsafasini, islom falsafasini** chuqur va har tomonlamam o‘rganish har bir shaxsdan dunyoda global

o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir davrda o‘z o‘rnini topib, hayotning murakkab savollariga javob bera olishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo falsafasining zamonaviy yo‘nalishlari milliy an’analar va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda mintaqa falsafasi globallashuv, axborotlashuv va madaniy integratsiya jarayonlari ta’sirida yangi mazmun kasb etmoqda. U milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish bilan birga, zamonaviy ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy muammolarga falsafiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo falsafasi nafaqat mintaqaviy, balki jahon falsafiy makonida ham o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda. Kelgusida ushbu yo‘nalishlarni chuqur tadqiq etish, innovatsion g‘oyalar va yangi metodologik yondashuvlarni joriy qilish orqali falsafiy tafakkurni yanada boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy tafakkur va dunyoqarashga ega bo‘lgan halqning kelajagi porloq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. Toshkent, Muharrir nashriyoti, 2009.
2. Paxruddinov Sh. Taraqqiyotga tahdid.: nazariya va amaliyot. Toshkent, Akademiya, 2006.
3. Safarova N. Terrorizm manbalari, maqsadi va globallashuv jarayoni. Toshkent, Fan. 2006.
4. Karimov S. Ijtimoiy taraqqiyot: muammo va yechimlar. Samarqand, “Zarafshon”, 2014.
5. To‘rayev B. Ontologiya, Gnoseologiya, Logika va fan falsafasi muammolari. Toshkent, 2015.
6. Qiyomiddin Nazarov. O‘zbek falsafasi. Toshkent, 2013.
7. Sinergetika mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo‘lishi. Toshkent, 2017.
8. Falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari. Toshkent, 2010.
9. Inson, uning e’tiqodi, jamiyat, koinot: taraqqiyoti muammolari va hozirgi zamon. Ilmiy-nazariy seminar materiallari. - Toshkent, 2015.

“AVESTO” - “ADOLATLI JAMIYAT”, “MA’RIFAT, AXLOQ VA MA’NAVIYAT” KATEGORIYALARINING TARG‘IBOTCHISI SIFATIDA

Berdiyev Rustam Boboxonovich

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti «Arxeologiya» kafedrasi katta o‘qituvchisi

Yurtimizning boy madaniy-ma’rifiy va ma’naviy-axloqiy o‘tmishi har doim jahon hamjamiyatining e’tiborini tortib kelgan va bugungi kunda ham dunyo olimlari yurtimizdagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘rganishga katta qiziqish bildirib kelmoqdalar. Shunday ekan, tanlangan ushbu tadqiqod mavzumiz ham ilk o‘zbek davlatchiligining tashkil topishi jarayonida shakllangan ma’naviy-ma’rifiy va adolatli, benuqson va ko‘rkam fuqarolik jamiyatini barpo etish g‘oyalarining tahliliga bag‘ishlanadi.

“Avesto”da barcha ijtimoiy masalalar qatorida ma’naviy-axloqiy masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan falsafiy muammolar ham muhim o‘rin egallagan. O‘zining kelib chiqishiga qiziqish, uni bilishga intilish odamlarda juda ham erta uyg‘ongan. Lekin dastlabki kishilarning ilmiy bilimi juda oz bo‘lganligi tufayli bu masalaga uzoq vaqt javob topmaganlar. O‘z ajdodlari haqida ko‘pdan-ko‘p afsona va rivoyatlar to‘qiganlar. Ilmiy bilimlarning rivojlanib borishi natijasida odamlarda o‘z o‘tmishiga qiziqishning tobora kuchayishiga olib kelgan. Natijada odamning va jamiyatning paydo bo‘lishi haqida xilma-xil nazariyalar paydo bo‘lgan.

Zardushtiylik dinining Nizomi hisoblangan “Avesto”, jahon madaniyatining, jumladan Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligi sifatida o‘z davrida yuksak mafkuraviy va ma’naviy maqomga ega bo‘lgan manba hisoblanadi. Shu bilan birga, u zardushtiylik dini hukmron bo‘lgan makonda ilk marta ma’rifiy hodisa sifatida kishilik jamiyatiga madaniyat va ma’rifat, axloq va ma’naviyat kategoriyalarini ishlab chiqdi va amalda joriy etdi.

Zardushtiylik dinining asosiy kitobi hisoblangan “Avesto” ya’ni “Hayot yo‘riqnomasi” deb atalgan kitob, zardushtiy diniga taalluqli adabiyotlarning umumiy nomi bo‘lib, “nasihatnoma”, “qonunlar to‘plami”, “bilimlar majmuasi” ma’nolarida talqin qilingan. U miloddan avvalgi VII-VI asrlarda hozirgi Xorazm viloyati hududida yaratilgan va miloddan avvalgi XIII asrdan to miloddan avvalgi IV asrchaga bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarni o‘zida aks ettirgan. Unda ma’naviy yuksaklikka da’vat etish, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g‘oyalar, ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o‘z aksini topgan. Dualizm, ruh va moddiy hayotning o‘zaro uyg‘unligini tan olishga asoslangan zardushtiylik diniga ko‘ra, butun olam

yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim, tan va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari qarama-qarshi hodisalar o‘rtasidagi azaliy va abadiy kurash asosiga qurilgan.

Avestoning saqlanib qolgan to‘rtta kitobidan birinchisining nomi «Videvdat» (vi-dayevodatam - «Devlarga qarshi qonun») deb ataladi. Ushbu kitob Avestoning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi. U yigirma ikki bob bo‘lib, boblari fragard deb nomlangan. Fragardlarning ma’nosi, vazifasi, uslubiy tuzilishi turlicha: birinchi fragard - odamlar yashaydigan barcha yurtlarni Axura-Mazda qanday yaratgani to‘g‘risida bo‘lib, ular orasida Xorazm, So‘g‘d, Marg‘iyona, Baxdi (Balx) va boshqalar bor; ikkinchi fragardda Jamshid podsholigi - kasallik, o‘lim, azob-uqubatlar bo‘lmagan zamon haqida, ya’ni insoniyatning oltin asri haqida gap boradi; uchinchi fragard dehqonchilikning savobli sharofatlari va h.k. haqida. Shuningdek, Videvdatning boshqa fragardlaridan Zardusht bilan Axura-Mazdaning savol-javoblari va muloqotlari ham o‘rin olgan. Ikkinchi kitob «Yasna» deb atalib, Avestoning e’tiborli bo‘limi sanaladi. Yasna - yaz o‘zagidan bo‘lib, «sajda, topinch, namoz» ma’nolarini ifodalaydi. Yasna 72 bobdan iborat bo‘lgan. Boblari ha, haitiy deb atalgan. Har bir ha zarur o‘rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda kohinlar tomonidan o‘qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi (nask) tarkibiga Zardusht o‘zi ijod qilgan targ‘ibot she’rlari ham kirgan. Ular Yasnaning 28-34, 43-46, 47-50, 51, 53 - jami bo‘lib, 17 ta hasini tashkil qiladi. Zardusht she’rlari ilmiy adabiyotda gatalar deb atab kelinadi. Ha «bashorat» demakdir. Yasnaning 35-42-halari ayniqsa, yuksak qadrlangan. Bu yetti ha Haptanxati Yasna - «Yetti bob Yasna» deb nomlangan. Ular orasida olovning muqaddasligi haqida bob bo‘lib, zardushtiylik urf-odatlari orasida olovga e’tiqod qilish, dinning esa «otashparastlik» deb atalishi shunga bog‘liq. Binobarin, olov Axura-Mazda nurining quyoshda namoyonligi va uning yerdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat Arta ham olovda o‘z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg‘onni rostdan ajratib bergan. Yolg‘on esa chin e’tiqodga xiyonat deb qoralangan. Arta so‘zi fonetik o‘zgarib, dastlab atar, hozir esa otash shaklida ishlatilib kelinmoqda. Uchinchi kitob «Visparad» deb nomlangan. U 24 bobdan tashkil topgan va har bir bob alohida karde deb atalib, ma’budlar sha’niga o‘qilgan duolar va ibodat ustida ularga murojaatlar hamda olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig‘indisi ham deyishadi. Ayni paytda u Yasnaga qo‘shimcha hisoblanadi. To‘rtinchi kitob «Yasht» (gimn) deb ataladi. U Avestoning eng qadimiy qatlami bo‘lib, 22 bobdan iborat. Har bir bob Axura-Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalardan iborat.

“Avesto”ni o‘rganish jarayonida har bir tadqiqotchi Zardusht ilohiy shaxs emas, balki real shaxs ekanligining guvohi bo‘ladi. Demak, Zardusht yangi din

targ‘ibotchisi sifatida o‘zining maqsad va muddaolariga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi. Farovon jamiyat, odil shoh, jamiyatni tubdan o‘zgartirish g‘oyalari Zardushtning e’tiqodiga aylanib ketgan. Bu fikrlarning isboti uchun “Yasna”ning Ikkinchi qo‘shiq 46-Hoti 19-bandida yozilgan qo‘yidagi fikrlardan bilib olsak bo‘ladi. “Kimda-kim Ashah-Haqiqat siymosida Zardushtning buyuk orzusi - yangi jahon qurish matlabini chindan qo‘llasa va uni amalga oshirish uchun oyoqqa qalqsa, abadiy hayotga qovushadi va bu murakkab tubanlik olamida neniki istasa o‘shanga muyassar bo‘ladi”, deyiladi. (“Avesto”, 24-bet).

Zardushtning jamiyat haqidagi qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, bu jahon xurrambaxsh jahon bo‘lib, odamzod uchun yaratilgan, bino qilingan. Inson farzandi dunyoga kelishi bilan, Komil Aqlni zamin va jahon obodligiga rahbar etib qo‘yilganligining guvohi bo‘ldi. Darhaqiqat, aql va adolat rahbar bo‘lgan jamiyat obod jamiyatdir va uning fuqarolari komildirlar. Shuning uchun ham dunyoning obodligi, Ezgu Niyat, Komil Aql, Ashah-Haqiqat hukmron bo‘lgan jamiyat qurish Zardushtning xayotiy ideali bo‘lgan. “Yasna”ning Uchinchi qo‘shiq, 3-bandida shunday satrlarni o‘qiymiz:

“-Ey, Mazda! Sen Sipandmiynuning otasisan. Sen bu xurrambaxsh jahonni odamzod uchun yaratding, bino qilding. Qachonki odam farzandi hayotga qadam qo‘ydi va Ezgu Niyatga yuzlandi, sen Ormaitiy - Komil Aqlni ikki dunyo - zamin va jahonning obodligiga safarbar, rahbar aylading”, - deyiladi. (“Avesto”, 25-bet).

“Avesto”da yangi jamiyat qurish g‘oyasi eng solih kishilarning orzu armoni ekanligi haqida gapiriladi. Zardusht bunday jamiyat qurishning mashaqqatini his qiladi, lekin undan chekinmaydi va o‘zining hayotiy idealiga aylantirib Axura Mazdadan madad so‘raydi: “... Shoyadki olamni yaratgan Zot Ezgu Niyat hidoyati bilan solih zotlarning eng buyuk armoni - yangi dunyo qurishni muyassar ayla”, deyiladi “Yasna”ning uchinchi qo‘shiq 50-Hotining 11-bandida. (“Avesto”, 29-bet).

Yangi jamiyat qurish jarayoni mashaqqatlari dunyo yangiliklarini istamaydigan yovuz kuchlar bilan keskin kurashlar maydonida doimiy davom etadi. Bunday yovuz kuchlarni Zardusht obod jahonni tubanlik va rasvolikka tortuvchi, do‘zax qa’riga tashlovchi devparastlar deb ta’riflaydi. “Yasna”ning to‘rtinchi qo‘shiq 51-Hotining 14-bandida bu haqda shunday qiziqarli ma’lumotlarni o‘qiymiz. “Karaplar- devparastlar bu dunyoni adolat va rostlik asosida barqaror bo‘lishini istamaydilar. Ular o‘z kirdikorlari va ta’limotlari bilan jahonni obod qilguvchilarni tubanlik va rasvolik chog‘iga tomon tortadilar. Biroq, shunday ta’limotlar ham bordirki, ularni devparast karaplarni - do‘zax qa’riga tashlagay”, - deyiladi. (“Avesto”, 30-bet).

Zardusht o‘zi orzu qilgan jamiyatni solih ashavan taqdiri bilan mujassam etadi va shunday ta’riflaydi. “-Ey, olamni yaratgan Zot! Ey, Haqiqat! Zamini hammadan

ko‘ra baxtliroq bo‘lgan dunyodagi birinchi joy qayer? Axura Mazda javob berdi: Ey, Sipiytom Zardusht! Bunday joy qo‘lda pokiza o‘tin, barsam, xovana va yangi sog‘ilgan sut tutgan, o‘z amal-e’tiqodiga dilda ishonchi sobit, o‘ktam ovoz, keng yaylovlar ishqi bilan masrur va bu yaylovlarni qo‘shiqqa solgan bir ashavan oyoq bosgan zamindir”.(Avesto”, 112-bet).

Zardushtning ideal jamiyat qurish g‘oyasining asosiy sifatlari haqida “Avesto”ning ko‘p sahifalarida uchratamiz: “Obod ro‘zg‘or, komil farzandlar, sog‘lom suruv va sigirlar galasi mavjud bo‘lgan uy hayvonlarining risqi serob bo‘lgan. Har bir xonadon bekasi baxtiyor, farzandlari shodmon bo‘lgan, hammadan ko‘proq bug‘doy, yog‘ va mevali daraxtlar ekiladigan, odamlari mehnatkash, quruq yerlarga suv chiqarib ularni shudgor qiladigan va hamisha olov gurullab turadigan baxtiyor zamin”dir.

Olamning yaratilishi haqida “Avesto”da (“Vandidod”ning ikkinchi fragardi ikkinchi bo‘limida Axura Mazda tomonidan dunyoning barpo etilishi haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan) qiziqarli bir fikr kishi e’tiborini tortmasdan qolmaydi. Uning mazmuni dunyoni olam xudolari Doitiyo daryosi sohilida to‘planib va bu yig‘inda Axura Mazda va yaxshi suruvlar sohibi Jamshid (Jam) ham ishtirok etib, dunyoni yaratish haqida kelishib olingan. Bu yig‘indan so‘ng Axura Mazda Jamga odamlarning yashamog‘i uchun binolar, suvlar, sigir va qo‘ylar suruvini barpo aylab qo‘ylar, tuyalar, odamlar, itlar, parrandalar va kuydirguvchi qizil olov urug‘larini u yerga olib bor, deb amr qiladi. Axura Mazda tomonidan dunyoning yaratilishi haqidagi yanada qiziqarli fikrlarni biz “Vandidod”ning birinchi faragardida o‘qiymiz. Bu yerda aytilishicha Axura Mazda garchi rohatbaxsh bo‘lmasada, xalqlar nazdida xush qilib yaratilgan 16 ta sarzamin haqida ma’lumotlar beradi. Buning qiziqarli tomoni shundaki, “Avesto” ning har bir sahifasi ana shu o‘n oltita sarzaminning mohiyati bilan bog‘langan va shular orqali ifodalangan. “Avesto”da berilgan bu o‘n olti zamin haqidagi ma’lumotni to‘liq keltirishni lozim topdik: “Axura Mazda Sipiytom Zardushtdan xol so‘radi-da shunday dedi:

Men har bir sarzaminni, ular garchi rohatbaxsh bo‘lmasada, xalqlari nazdida xush qilib yaratdim. Agar men har bir sarzaminni xush qilib yaratmaganimda, butun-butun halqlar Iyron Vijga tomon yuz burardilar”.

“Avesto”ning Vandidod qismi birinchi faragardi 2-20 bandlarida olam yaralishi haqida qo‘yidagi so‘zlar uchraydi: “Men - Axura Mazda - yaratgan ilk sarzamin va birlamchi yurt bu - Vahnvi Doityo daryosi sohilidagi mamlakatlar ichida eng go‘zali bo‘lgan, xushmanzara Iyron Vij (Aryanam Vaychaxning topografik tahlili uni Xorazm o‘lkasi ekanligini ko‘rsatadi.) edi. Shunda butun borlig‘i ajal bilan yo‘g‘rilgan Axriman keldida Doitiyo daryosi qa’rida Zahhokni (Ajdahoni - uning maqsadi jahonni odam zotidan tozalashdir) yaratdi va x.o. Va bu

zimiston devlarini borliq olam ustidan g‘olib qildi. U yerda o‘n oy zimiston va ikki oy yoz fasli hukmron bo‘ladi. Biroq shu ikki oyda ham havo, suv, tuproq va daraxtlar uchun sovuqdir. Zimiston u yerga dahshatli falokatlar keltiradi.

Men - Axura Mazda - yaratgan ikkinchi sarzamin va go‘zal yurt So‘g‘d diyori edi.

Shundan so‘ng, butun borlig‘i ajal bilan yo‘g‘rilgan Ahriman keldi-da, xiravfstralar jismiga mansub Skayatyani yaratdi. U butun podaga o‘lim urug‘ini sochdi.

Men - Axura Mazda - Yaratgan uchinchi sarzamin va go‘zal yurt qudratli va pok Marv diyori edi.

Shundan so‘ng, butun borlig‘i ajal bilan yo‘g‘rilgan Ahriman keldi-da, xusumatda gunohkor xohishlarni yaratdi.

Men -Axura Mazda- yaratgan to‘rtinchi sarzamin va go‘zal yurt zebo va orasta Balx diyori edi.

Men -Axura Mazda- yaratgan beshinchi sarzamin va go‘zal yurt Balx va Marv oralig‘idagi Nisoyadir.

Shundan so‘ng, butun borlig‘i ajal bilan yo‘g‘rilgan Ahriman keldi-da, dushmanlikdan umidsizlik yovzug‘larini yaratdi.

Men -Axura Mazda- yaratgan o‘n oltinchi sarzamin va go‘zal yurt Rangha daryosi sarchashmasi atrofidagi besar xalqlar yashovchi makondir.

Shundan so‘ng, butun borlig‘i ajal bilan yo‘g‘rilgan Ahriman keldi-da xusumatdan devlar yaratguvchi zimistonni borliq olamga g‘olib qildi.

Juda ko‘p go‘zal va rohatbaxsh sarzaminlar, yurtlar, kishvarlar bor. Ularni ham men - Axura Mazda-bunyod etdim”. (“Avesto”, 215-218-betlar).

Zardusht o‘zi orzu qilgan va qurmoqchi bo‘lgan jamiyatni Ashah-Haqiqat qonunlari asosiga bo‘ysindirmoqchi bo‘ladi. Bu holatni ko‘pgina avestoshunos olimlar Avestun qonunlari deb ifodalaydi. Zardusht har bir harakatini, g‘oya va qarashlarini Haqiqat qonunlari asosida isbotlashga intiladi. Lekin, mavjud jamiyatdagi yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ishonch va ishonchsizlik, sadoqat va xiyonat, ezgulik va yovuzlik olamining mavjudligi uning o‘z g‘oyalarini hayotda amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Bunday turmush tarzini evrilishini xohlagan va lekin uni amalga oshirishga ojiz bo‘lgan Zardusht oliy iloh Axura Mazdaga murojaat qiladi. O‘zi bino qilgan olamning benuqson va ko‘rkam bo‘lishini istaydi. Zardushtning maqsadi Axura Mazda ta’limotini egallash orqali yangi din g‘oyalarini o‘zlashtirishdan iborat bo‘lgan. Bu yangi din g‘oyalarini o‘zlashtirgan zotlar dunyoning tashvishlariga mardonavor tura oladigan har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan va faqat jamiyatni yangilash uchun kurashadigan kishilar bo‘lgan. “Yaxshi a’molli zotlarning eng oliy xohishi yangi

dunyo qurmoqlikdir”, deyiladi “Vandidod”ning 65- Hoti 14-bandida. (“Avesto” 93-bet).

Bunday jamiyat qurish uchun Zardusht Axura Mazdaga murojat qiladi va shunday deydi:” Ey, Mazda! Ey, zamin, suv va giyohlarni yaratgan Zot!

Bizni o‘z jahoninga yetkargil; abadiyat baxsh et, ezgu niyat himoyatida kuch-qudrat poydorlik nasib qil va o‘z ta’limotingdan bahramand aylagil!”.

Ko‘rinib turibdiki, Zardusht nazarida yangi jamiyat bu Mazdaning jahonni, abadiylik, ezgu niyat insonni himoya qiluvchi asosiy kuch-qudrat va uning asosida Mazda ta’limotidan bahramand bo‘lish yotadi. Bunday jamiyatning har bir fuqarosi osmonni, tabiatni jonivorlarni avaylab asraydilar, bolalarni, go‘daklarni onalarni himoya qiladilar. Chunki har bir ashavan avvalo Axura Mazda olamining fuqarosi bo‘lishi kerak va ular- ning har bir xatti-harakatida ana shu mas’uliyat porlab turishi kerak. “...Axura Mazda olamni yaratdi. Mard ashavanni xalq ayladi... shu ishonchkim har bir ashavanning xatti-harakatida zohirdir, men shu ishonch bilan mazdaparastman”, deydi Zardusht. (“Avesto” , 57-bet). Zardusht ta’limotida o‘zi orzu qilgan jamiyatning haqiqiy ashavani donishmand, go‘zal til sohibi, xushyor ruh hokimi, o‘lmas va farovon aql egasi bo‘lish kerak. Shu o‘rinda Zardusht o‘zida shu sifatlarning noyobligini sezadi va oliy iloh Axura Mazdaga murojat qiladi:”...Menga zudlik bilan uzoq umr; donishmandlik; ashavanlik; go‘zal til; xushyor ruh; o‘lmas va farovon aql-xirad baxsh ayla”, deydi. (“Avesto”, 90-bet).

Shunday qilib, biz o‘z tadqiqotimizda ushbu zaminda adolatli, benuqson va ko‘rkam fuqarolik jamiyatini barpo etish g‘oyasining nafaqat mil.avv II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlaridayoq dolzarb bo‘lganligini, balki uning bugun mustaqil O‘zbekistonda ham ideal jamiyat qurish g‘oyasining asosiy sifatlarida aks etayotganligining guvohi bo‘ldik.

Adabiyotlar

1. “Avesto”. Tarixiy- adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi.- T.: “Sharq”, 2001.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Т. III.-М.: 1965.
3. Бертельс Е.Э. Отрывки из “Авесты». Восток. Кн. 4-М.-Л.,1924.
4. Jo‘rayev N. “Avesto” mo‘jizasi. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2013.
5. Jo‘rayev N. “Avesto” Tarixiy-adabiy yodgorlik. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2015.

“AVESTO” - MA’NAVIY MEROSIMIZ SIFATIDA

Turatov Shuhrat Bahromovich
Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.d. (PhD), dotsent
Xidirov Xoshim Ibodullaevich
Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi, f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqimizning boy tarixiy-ma’naviy merosida muhim o‘rin tutuvchi “Avesto”ning mazmun-mohiyati, unda ilgari surilgan g‘oyalar hamda uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o‘rni tahlil etilgan. Shuningdek, asarning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga ta’siri yuzasidan ilmiy-nazariy mulohazalar bayon qilingan..

Kalit so‘zlar: “Avesto”, ma’naviy meros, Zardushtiylik, Qadimgi Xorazm, Yasna, Yashta, Vispirad, Vandidod va h.k.

Mamlakatimiz hududida yaratilgan eng qadimgi ma’naviy merosimiz sifatidao‘zining beqiyos o‘rniga ega bo‘lgan “Avesto” kitobi bugungi kunda ham o‘zining ma’anviy qiymatini yo‘qtomasdan kelmoqda. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli asarida ilk “Avesto” haqida shunday ma’lumot yozib qoldirgan: Doro ibn Doro xazinasida o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun “Avesto”ning beshdan uch qismi yo‘qolib ketdi. “Avesto” o‘ttiz nask (qism) edi. Majusiylar qo‘lida o‘n ikki nask chamasi qoldi . Ya’ni “Avesto”ning 4 ta Yasna, Yashta, Vispirad, Vandidod qismlari bizgacha yetib kelgan “Avesto”da diniy tasavvurlar bilan bir qatorda dunyoviy masalalar, chunonchi, koinot va yerdagi hayotning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar, Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjonda yashovchi elatlarning tarixi, ijtimoiy- iqtisodiy hayoti, tabiati, geografiyasi, flora hamda faunasi, ilm-fan, moddiy va ma’naviy madaniyati, urf-odatlari, turmush tarziga doir materiallar bayon etilgan. Shuningdek, qadimiy Turonning yer-suvi, iqlimi, yer tuzilishi, tog‘lari, sahro-yu, adirlari, ayniqsa, axloq - odobga doir fikrlar, jumladan, manmanlik, xasad, g‘araz, fisqi-fasod, o‘g‘irlik qoralangan, halollik, rostgo‘ylik, va’daga vafo, samimiyat, sadoqat, o‘zaro izzat-ikrom ka axloqiy fazilatlar ulug‘langan. Har qanday urushlar va bosqinchiliklar siyosiy mafkuraviy ma’no ham kasb etgan deyish mumkin. Bu tarixiy manbalar va madaniyatga hujum orqali ifodasini topgan.

Ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar, davlat va sinfning paydo bo‘lishi kabi ijtimoiy- siyosiy hodisalar kishilar tasavvurida din, demokratiya va o‘zlikni anglash

borasida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi. Shuning uchun din, demokratiya va o‘zlikni anglash munosabatida ko‘proq din va o‘z-o‘zini anglash masalasi ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Demokratiya masalalari tabiiy holatlardan kelib chiqadi. «Markaziy Osiyoning islomgacha bo‘lgan tarixida, - deydi S.P.Tolstov xudolar podsholarning ifodasi edi ».

Arablar istilosi arafasida Markaziy Osiyoda ko‘p dinlik paydo bo‘lgan. Bu dinlararo bag‘rikenglik holatini anglatadi. Zardushtiylik, moniylik (monixeystvo), shomonlik, nestorian xristianligi, buddizm dinlari, shuningdek, animizm, totemizm, fetishizm, shomonlik, magiya - sehrgarlik kabi qadimgi din shakllariga e'tiqod qilinar edi. Toshkent va Xorazm viloyatlari xududlarida nasroniy diniga mansub aholi ham yashagan . Ular o‘rtasida ochiqdan-ochiq diniy ixtiloflar bo‘lmagan. Siyosat, demokratik qadriyatlar va diniy qarashlarni o‘rganishda Abu Rayhon Beruniyning asarlari muhim ahamiyatga ega. U turkiy xalqlarni bir necha guruh (o‘g‘uzlar kimaklar, qirg‘izlar va boshqalar)larini, sharqiy turklar va Chu daryosi vodiysi, Xutan, Tibet, Afg‘oniston hududida joylashgan turklarni tilga oladi. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida qadimgi xorazmiylar, so‘g‘dlar, eroniylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqalarning taqvimlaridagi mashhur kunlar, hayitlar va odatlar haqida bebaho tarixiy- madaniy boylik qoldirgan. Buni xalqimizning o‘zligini anglashida siyosiy voqelikni idrok etishi muhim. Beruniy xorazmliklarning islomgacha davridagi bayramlarini: tabiiy voqealarga bag‘ishlanganlarga; yil boshi - navro‘z; gulxanda isinish; yog‘li non yopish kuni bayramlari va diniy marosimlar, arvohlar uchun qabrlarga ovqat qo‘yish va boshqalarga ajratadi. Bu xalqlarda zardushtiylik taqvimidan foydalanilganligi, ayni vaqtda, turli fasllarda yil boshi bayrami nishonlanganligi ko‘rsatiladi. Masalan, «Farvardirmoh» - yoz boshi, «tir moh» - kuz boshi, «mehr moh» - qish boshi, «diniy moh» - bahor boshi edi . Turli davrlarda o‘zgarishlar, yangilanishlar bo‘lib turgan. Masalan, mintaqada Sosoniylar sulolasi davrida oy taqvimiga o‘tilganidan keyin yil boshi bahorga, tun va kunduz baravar bo‘lgan kunga, ya’ni 22 martga ko‘chirilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarida islomgacha turli- tuman qadimgi diniy e'tiqodlar keng tarqalgan. Ya’ni arvoh kutish, chiltonlarga atab osh qilish, ko‘chiriq qilish, chilton chiroq yoqish, kinna soldirish, qadamjolar, ziyoratgohlarga sig‘inish va u yerdagi daraxtlarga turli lattalarni osib qo‘yish, azayimxonlik, duoxonlik hamda Mushkul kushod o‘qitish kabi marosimlar bo‘lib, ularning ayrimlari islom marosimlari bilan yonma-yon yashab kelmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi va yozma manbaalarda dehqonchilik ko‘rinishlarida falsafiy g‘oyalar o‘z ifodasini topgan. Ba’zi insonlar ongi va e'tiqodida o‘zlikni anglashning negizi sifatida saqlanib qolgan. Hozirgi O‘zbekiston hududida yashovchi xalqlarda juda qadim zamonlardan buyon tabiatning stixiyali kuchlari va

dinning qadimgi shakllariga sig‘inish keng tarqalgan . Bu kabi sig‘inishning izlari xalq dostonlarida ham saqlanib qolgan. Jumladan, «Xubbi»ga sig‘inish qadimgi Xorazmda keng rasm bo‘lib, «suvga botganlarni qutqarish, so‘yilgan ho‘kizlarga jon baxsh etish» islomgacha bo‘lgan mahalliy diniy mifologiyaga taalluqlidir.

Suv xudosi haqidagi afsonaning variantlari faqat Xorazmdagina mavjud bo‘lmay, butun Markaziy Osiyoda va unga chegaradosh mamlakatlarda ham tarqalgan. Akademik Ya.G‘.G‘ulomovning yozishicha, Xorazm aholisi o‘rtasida Xubbiquli yoki Xubbiniyoz degan ismlar ko‘p uchraydi. Xorazm mifologik afsonalaridan birida Xubbi suvlarning hukmroni va kishilarni halokatdan qutqaruvchi afsonaviy qahramon sifatida tasvirlanadi .

Tadqiqotimiz ko‘rsatishicha, muammoga siyosiy-falsafiy nuqtayi nazardan yondashganda xalqimiz qadriyatlari va diniy merosning ildizlari, o‘zlik, o‘z-o‘zini anglash tarixiy taraqqiyotning ilk davrlariga borib taqaladi. Eng qadimgi odamlarning yashash sharoiti, tabiat bilan munosabati asosida vujudga kelgan dastlabki tasavvurlar, urf-odatlar, an'ana, qadriyatlar jamiyatning keyingi taraqqiyot bosqichlarida charxlanib sinovdan o‘tganlari, yangi mazmun va shakl kasb etib, kishilar dunyoqarashida qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo‘lib ma’naviy meros bo‘lib saqlanib boradi. Bu milliy - ma’naviy merosning tarkibiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun milliy - ma’naviy meros millatning uzoq o‘tmishini, bugungi va istiqbolini bog‘lab turuvchi ko‘prikdir .

Xalq qadriyatlari tarixiy ildizlarini siyosiy-falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganishda uzoq o‘tmishni falsafiy tahlil qilish lozim bo‘ladi. Dastlab kishilar tabiatni umuman jonli narsa deb tasavvur qilishgan, ular o‘zlarida sodir bo‘ladigan ruhiy kechinmalarni, faoliyatlarining xususiyatlarini tabiatga xos bir holat deb bilishgan. Tabiat to‘g‘risidagi bunday tasavvurlar yig‘indisi fanda animatizm deb ataladi.

Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida Xorazm xalqi orasida animizm keng tarqalganligini ko‘rsatib, bu xalq o‘ninchi oyning o‘n beshinchi kunida jinlar va yomon arvohlar zararlarini daf etish uchun is chiqarib, ovqatlar pishirganlar, - deb yozadi .

“Avesto”da dunyoning moddiy asosi deb hisoblangan tuproq, havo, suv muqaddaslashtirilgan. “Ajdodlarimiz tabiatni avaylab, uni ko‘z qorachig‘idek asrashgan. “Avesto”ning guvohlik berishicha, tabiat ilohiylashtirilgan. Chunki tabiat - bu hayot, odamzodu barcha tiriklik uchun zaruriy vositadir ”.

Zardushtiylikka e'tiqod qilgan elat va qabilalar suv, olovga, sig‘inganlar. Quyoshni ilohiy mo‘jiza yaratuvchi yoritgich va isitgich darajasiga ko‘targanlar. Bunga dalil sifatida Markaziy Osiyoda yashagan elatlarning Quyosh xudosi hisoblangan Mitraga, yer, suv, unumdorlik xudosi Anaxitaga sajda qilganliklarini tasdiqlaydigan arxeologik topilmalarni keltirish mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, birinchidan, “Avesto” bu dinning muqaddas kitobi bo‘lib, ajdodlarimizning miloddan oldingi birinchi ming yillikka oid tarixi, tafakkuri rivojining qomusiy majmuasidir; ikkinchidan, xalqimiz tili, alifbosi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy falsafasi, adabiyoti, san'ati manbaidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Beruniy Abu Rayxon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 1-jild. - T.: Fan, 1968.- B.486.

2. Yasna - 72 bob, Vispirad (Vispered) - 24 bob, Vandidod - 22 bob, Yashta - 22 ta madhiya, ya’ni qo‘shiqlardan iborat.

3. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. - M.: Nauka, 1984. - S. 320.

4. Abdulhasan N. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikning namoyon bo‘lishi: kecha va bugun. To‘plam. O‘zbekiston- bag‘rikeng diyor. - T.: O‘zbekiston, 2007. - B.57.

5. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 1-jild. - T.: Fan, 1968.. - B.43.

6. G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. - T.: Fan, 1953. - B.33.

7. Yo‘ldoshev.J, Xasanov.S. Avestoda axloqiy ta’limiy qarashlar. - T.: O‘qituvchi, 1992. - B.12 .

8. Xayitov Z. Milliy meros o‘zlikni anglashning ma’naviy asosi //Hayot va qonun. - №4. - Toshkent: 2005. - B.54.

9. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. - T: Fan, 1968.- B.279-181

10. Xo‘jamurodov I. “Avesto”da ekologik madaniyat va sog‘lom avlod tarbiyasi. “Avesto”da zamin va zamon talqini. To‘plam. - T.: ToshDAU, 2001. - B.44.

G‘AZZOLIY USTOZNING AXLOQ-ODOBI XUSUSIDA

Azizqulov Akram Abdurahmonovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Sharqda «Hujjatul islom» nomi bilan mashhur bo‘lgan yirik islom nazariyotchisi G‘azzoliyning boy ulkan diniy falsafiy merosida insonning ma’naviy va axloqiy takomili markaziy o‘rinni egallaydi. O‘zining 50 dan ortiq diniy falsafiy asarlarida inson va uning mohiyati, ma’naviy yuksalishi va ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Uning «Ixyou-ulumud-din» asarida inson ma’naviy komilligida ta’lim-tarbiya masalalarini bayon etish bilan birga alohida boblarda ustozu-shogird munosabatlaridagi axloqiy tamoyillar batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: diniy falsafiy meros, ma’naviy va axloqiy me’yorlari.

Ta’lim jarayonida ustozu-shogird munosabatlaridagi axloqiy tamoyillar endilikda fan etikasining tadqiqot mavzusini tashkil etadi. Fan etikasida ustoz-murabbiylar va ijodkor olimlarning tadqiqot jarayonida rioya etishi lozim bo‘lgan axloqiy me’yorlari, olimning mas’uliyati, fanda haqiqat va shu kabi kategoriyalar tahlil etiladi. Fanning axloqiy normalari, xususan, ustoz-shogird munosabatlaridagi axloqiy tamoyillar deyarli barcha Sharq allomalari ta’limotida asosiy mavzulardan biri bo‘lgan. Shu bois ustoz-shogird munosabatlaridagi axloqiy tamoyillar G‘azzoliyning gnoselogik qarashlarida muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy didaktikadan ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni tizimli xususiyatga ega bo‘lgan murakkab ruhiy-ma’naviy faoliyat hisoblanadi. Bu murakkab jarayon o‘qituvchi hamda o‘quvchidan mayyan axloq-odob qoidalariga rioya etishni talab etadi. G‘azzoliyning gnoseologik qarashlarida ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarning rioya etishi lozim bo‘lgan axloq-odob normalari alohida-alohida bayon etiladi.

Biz G‘azzoliyning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ustozu shogird munosabatlarida ustoz-muallim e’tibor qilishi kerak bo‘lgan axloq-odob qoidalari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

G‘azzoliy dastlab ilm berish fazilatining ahamiyati xususida shunday deydi: «Kim ilm olsa, unga amal qilsa va boshqalarga o‘rgatsa u kishi osmonlarda ulug‘ inson deb chaqiriladi. U odam quyosh kabidirki, boshqalar uchun ziyo tarqatadi va o‘zi ham ziyolidir yoki mushki ambardirki, boshqalarni xushbo‘y qiladi va o‘zi ham xushbo‘ydir. Ilm o‘rganib unga amal qilmaydigan kishi esa, boshqalarga foyda berib, o‘zi ilmdan holi qolgan daftar yoki boshqa narsalarni o‘tkirlab, o‘zi hech narsani kesa olmaydigan qayroqtosh yoki boshqalarni kiyintirib, o‘zi yalang‘och qolgan igna yoki boshqalarga nur berib, o‘zi yonib ketadigan chiroqning piligi kabidir» [1.136]. Ilm berish sharafli kasb ekanligini ta’kidlar ekan, ustozni inson hayotida ota-ona bilan qiyoslab G‘azzoliy shunday deydi: «Ota vujud va foniy dunyoning sababchisi bo‘lsa muallim abadiy hayotning sababchisidir»[1.137]. Darhaqiqat kasblar orasida eng sharaflisi hisoblanadigan o‘qituvchilik ulug‘ kasb hisoblanadi.

G‘azzoliy ta’lim-tarbiya jarayonida ustoz-muallimning faoliyati mas’uliyatli ekanligini quyidagicha ta’kidlaydi. «Inson qachon ilm berishga kirishsa ulug‘ ishni, katta vazifani zimmasiga olgan bo‘ladi. Shuning uchun uning odatlari va vazifalarini yodda tutishi lozim»[1.136]. Muallimlik sharafli ulug‘ kasb bo‘lishi bilan birga juda katta ma’suliyatni, ya’ni murabbiy ustozni shogirdlar oldida doimo axloqiy tamoyillarga amal qilish lozimligini ta’kidlaydi.

G‘azzoliy o‘qituvchining ta’lim jarayonida axloqiy vazifalarini alohida-alohida sakkizta tamoyil asosida bayon etadi.

Birinchi vazifa: muallim ta’lim oluvchilarga nisbatan shavqatli bo‘lishi va ularga o‘z bolalari kabi muomala qilish kerak»[1.136]. G‘azzoliy ta’kidlagan bu tamoyil o‘n asrdan buyon ta’lim jarayonining asosini tashkil etadi. Zamonaviy didaktikada ham ta’lim jarayonida o‘quvchilarga nisbatan mehr shavqatli munosabatda bo‘lish eng asosiy tamoyil hisoblanadi. G‘azzoliy bu tamoyilni sharhlar ekan, ta’lim jarayonida nafaqat ustozni talabalarga nisbatan, balki tolibi ilmlar ham bir-birlari bilan shavqatli bo‘lishi kerakligini quyidagicha izohlaydi. «Bir otaning o‘g‘illari o‘zaro muhabbatli va barcha maqsadlarda bir-birlariga yordam ko‘rsatishlari lozim bo‘lgani kabi, bir ustozning shogirdlari ham o‘zaro muhabbatli bo‘lishlari kerakdir»[1.138].

Ta’lim jarayonida muallim e’tibor berishi kerak bo‘lgan ikkinchi axloqiy tamoyilni G‘azzoliy quyidagicha bayon etadi: «Muallim ilm o‘rgatish uchun haq talab etmaydi, biror mukofot olishni yoki tashakkur eshitishni ham maqsad qilmaydi… Garchi shogirdlar minnatdorchilik bildirishlari lozim bo‘lsada, uni o‘ziga ep ko‘rmaydi» [1.137]. Ustoz o‘z shogirdlari-tolibi ilm uchun hamma vaqt o‘rnak, yuksak namunadir. Shogirdlar aksariyat vaziyatlarda o‘z ustozlariga ideal sifatida taqlid qilishadilar. Manfaat, ta’ma ilinjida ilm o‘rgatgan ustozni o‘quvchilar unchalik xushlamaydilar, oqibatda saboqlarda ham beparvo o‘tiradilar. G‘azzoliy bayon etgan mazkur tamoyil hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. G‘azzoliy mol-dunyo ilinjidagi ta’lim berishni esa nafratlab shunday deydi. «…Ammo dunyo topish maqsadida ta’lim berish halok bo‘lish va halok qilishdirki, bundan Alloh saqlasin!» [1.139].

Alloma bayon etgan uchinchi vazifa «Talabaga qilinishi lozim bo‘lgan nasihatlardan hech birini qoldirmaslik»dir. G‘azzoliy tomonidan bu tamoyilning izohi diniy xarakterda, talqin etiladi. «Masalan, uni loyiq bo‘lmagan martabaga chiqishdan qaytarishi va ochiq ravshan ilmlarni tugatmay turib, maxfiy ilmlar bilan mashg‘ul bo‘lishdan man qilishi lozim. Keyin esa, ilmlarni o‘rganishdan maqsad Allohga yaqin bo‘lish ekanini, maqomu martaba, obro‘ va kimo‘zarlikni maqsad qilish mumkin emasligini uqtirishi kerak»[1.139]. Bu axloqiy tamoyil garchi diniy ta’limni nazarda tutgan bo‘lsada hozirgi zamon pedagogika tizimida muhim hisoblanadi. Ta’lim bilan birga tarbiyaviy ishlarni mushatarakligini ta’kidlar ekan G‘azzoliy tizimli yondashuv zarurligini uqtiradi. Uningcha ta’lim-tarbiya murakkab tizimli jarayon bo‘lib, uning hech bir unsuri e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ilm o‘rganish va tadqiqot jarayoni uchun asosiy rag‘bat fan etikasining muhim tamoyili bo‘lgan qiziquvchanlik va ijtimoiy ehtiyojlarni hal etish uchun xolis ilmiy faoliyat bo‘lishligini G‘azzoliy o‘n asr avval bayon etgan.

To‘rtinchi vazifa «ta’lim san’atining nozik jihatlaridan biridirki, muallim talabaning yomon axloqini oshkora emas, balki imkoni boricha ta’riz - o‘ziga ko‘rsatish yo‘li bilan, qattiq so‘zlar bilan emas, shafqat yo‘li bilan qaytarishi lozim. Chunki, oshkora shaklda tanbeh berish hurmat pardasini yirtib, ustozga qarshi chiqishga jur’at paydo qiladi hamda qaysarlikka bo‘lgan maylini qo‘zg‘atadi»[1.140]. Bu tamoyil ham asrlar davomida sinovlardan o‘tib, zamonaviy pedagogikada muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi zamon ta’lim tizimida bu tamoyil ayniqsa muhim tarbiyaiy ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ko‘proq muallimning pedagogik tajriba va malakasiga bog‘iq. Bu tamoyil asosida ta’lim-tarbiya topgan talabada insonparvarlik xususiyati kuchli bo‘ladi.

Beshinchi vazifa «Ilmlardan ba’zilarini o‘rganayotgan talabaga boshqa ilmlarni yomon ko‘rsatmaslik lozim. Masalan, til muallimi fikh ilmini yomon ko‘rsatishga odatlangan, fiqh muallimi esa hadis va tafsir ilmini…

Mana shu narsa muallimlar uchun yomon axloqdir, undan saqlanish lozim. Balki bir ilmga mutaxassis bo‘lgan muallim talabalar uchun boshqa ilmlarning ta’lim yo‘llarini ham ochib berishi lozim. Agar bir necha ilmlardan ta’lim bersa, o‘quvchining bir ilmdan ikkinchisiga o‘tishida bosqichlarga rioya qilsin»[1.141].

Bu tamoyil fan o‘qituvchisining axloqiy kamoloti bilan bog‘liq bo‘lib, barcha fanlar avval ijtimoiy ehtiyoj natijasida paydo bo‘lganligi va insoniyat uchun bir xil ahamiyat kasb etishini o‘quvchilarga tushuntirishi shart. Ayrim holatlarda aniq fanlarni ijtimoiy gumanitar fanlarga nisbatan ahamiyatini bo‘rttirish yoki aksincha holatlarni ba’zi pedagoglarda uchratish mumkin. Bunday holatlarni o‘qituvchiga to‘g‘ri kelmasligini G‘azzoliy haqli ravishda ta’kidlaydi. Shuningdek, G‘azzoliy bir ilmdan ikkinchi ilmga o‘tishda bosqichlarga rioya etish kerakligini ham uqtiradi. Hozirgi zamon pedagogikasi ta’lim standartlari ham ana shu tamoyilga asoslanadi.

Oltinchi vazifa «talabaga ilmni uning fahm-farosati ko‘tarishiga qarab berish lozim. Aqli yetmagan narsani o‘rganmasinki uni ilmdan nafratlantirib qo‘yadi yoki aqlini chalkashtirib yuboradi…

Bas, qachonki talabaning haqiqatni anglashga yuzlanganini bilsa, unga haqiqatni sochsin… Olim kishi barcha bilgan narsalarini har kimga ham oshkor qilavermasligi lozim. Bu so‘z talaba o‘sha ilmni tushunadigan, lekin undan foydalanishga loyiq bo‘lmagan holatda tegishlidir» [1.141].

Ma’lumki G‘azzoliy yashagan davrda o‘quvchi va talabalarni yoshlariga qarab sinflarga ajratish tizimi mavjud emas edi. Shuning uchun G‘azzoliy bu tamoyilni keltiradi. Biroq sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajalari ham bir xil emas. Imkoniyati boricha o‘qituvchi o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga qarab bilim bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yettinchi vazifa «zehni past talabaga o‘ziga munosib bo‘lgan ochiq ilmlarni o‘rgatish lozim. Ilmni nozik jihatlarini berkitganini unga aytmaslik kerak. Chunki bunday so‘z uning ochiq ilmlardagi rag‘batini

kamaytiradi, qalbiga tashvish soladi va o‘ziga nisbatan bahillik qilingan, degan gumonga olib boradi. Zero hamma odam o‘zini daqiq ilmlarni olishga loyiq deb o‘ylaydi» [1.143. Bu tamoyil avvalgisining mazmunan davomi desa ham bo‘ladi. Sinf yoki auditoriyadagi o‘quvchi yoki talabaning barchasini qobiliyat darajasi bir xil bo‘lmaydi. Intellektual qobiliyati va o‘zlashtirish darajasiga qarab har bir o‘quvchiga alohida yondashish zarur.

Sakkizinchi vazifa: muallim ilmiga amal qiluvchi bo‘lmog‘i lozimki, fe’li so‘zini yolg‘onga chiqarmasin. Chunki ilm basirat (qalb ko‘zi) bilan, amal esa ko‘z bilan bilinadi. Ko‘z bilan ko‘ruvchi juda ko‘pdir» [1.143].

G‘azzoliy bu tamoyil orqali ustozni shogird uchun hamma vaqt namuna ekanligini ta’kidlamoqda. Shuning uchun shogird o‘z ustozlariga taqlid qilishadilar. Zamonaviy pedagogika tizimida ham bu tamoyilga asoslanadi. Hatto milliy g‘oyani targ‘ibotida ham mazkur tamoyil mavjud. Milliy ma’naviy qadriyatlarni targ‘ibot-tashviqotini tashkil etishda muhim jihatlardan biri bu - shaxsiy ibrat. «Murshid muallimning shogirdlar oldidagi mavqei qolipning loyga yoki daraxtning soyaga nisbati kabidir. Qolip bo‘lmasa, loydan qanday foydalanish mumkin, daraxt qiyshiq bo‘lsa, soya qachon to‘g‘ri bo‘ladi» [1.144]. Darhaqiqat, o‘qituvchining o‘zi ma’naviy jihatdan qashshoq bo‘lib bilim darajasi sayoz bo‘lsa, uning ta’lim-tarbiyasida kamol topgan o‘qituvchidan nimani kutish mumkin? O‘qituvchilik sharafli kasb, ammo juda mas’uliyatli bo‘lib, chuqur bilim mukammal axloqiy tarbiyani talab etadi-ki, toki u o‘quvchi uchun ibrat, namuna bo‘la olsin. «Shuning uchun olimning gunoh qilganidagi yuki johilning yukidan ko‘proq bo‘ladi. Zero, uning yo‘ldan toyishi bilan ko‘plab odamlar ham toyiladilar va unga ergashib ketadilar» [1.144].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, G‘azzoliy ta’kidlagan ta’lim jarayonida ustoz murabbiyning rioya etishi lozim bo‘lgan axloq-odob qoidalari obyektivlik va ratsionallikka, tizimlilikka va amaliyot mushtarakligi kabi tamoyillarga asoslanganligi bois hozirgi zamon ta’lim tarbiya tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu axloqiy tamoyillarga ustoz muallimlarning, murabbiylarning rioya etishi ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omildir. Buyuk mutafakkirning serqirra ilmiy merosini obyektiv tatbiq etish va uning ilmiy asoslangan xulosalaridan pedagogik kadrlarni tayyorlaydigan OTM keng foydalanish zarur. Shuningdek, bugungi informatsion globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan barcha murabbiy ustozlar axloqiy fazilatlarini shakllantirishda alloma ilgari surgan g‘oyalardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ғаззолий. Иҳёу улумид-дин. (Дин илмларини жонлантириш). Биринчи китоб. Тошкент. «Мовароуннаҳр», 2003 й. 232 бет.

2. Ғаззолий. Кимёи саодат (Руҳ ҳақиқати). Т.: Адолат. 2005 й. - 4126.

3. Ғаззолий “Ал-мунқиз минад-долаал” - “Залолатдан қутилиш (Залолатдан қутқарувчи ва ҳолларни баён этувчи) - Тошкент: “Боок Медиа Шоп” МЧЖ қошидаги “ Мунир” нашриёти, 2022й. -176 б.

4. Азизкулов А. Мусулмон Шарқ фалсафасида рационаллик муаммоси // Илмий тадқиқотлар ахборотномаси.Самарқанд, 2000й.№4.6-11-6етлар, 5. Азизкулов А Мистик ва назарий билиш хусусида Ғаззолийнинг қарашлари.// СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. 2003 й. №2. 50-53 бет.,

6. Азизкулов А Ғаззолий инсон руҳиятининг моҳияти хусусида// Имом Бухорий сабоқлари 2014 1-сон 44-48бетлар.,

7. Азизкулов А Ғаззолий инсон билиш фаолиятида ақлнинг аҳамияти хусусида// ЎзМУ хабарлари.2014 1/2Ижтимоий гуманитар фанлар туркуми. 136-138 бетлар.,

8. Азизкулов А Газали о значении ума в человеческой деятелности// Парадигмата познани/№2, 2014. Прага//

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA ADOLAT KATEGORIYASINING TALQINI

Abduraxmonov Is’haq Akrom o‘g‘li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi
Psixologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida adolat kategoriyasining talqini tahlil qilingan. Asarda adolat tushunchasining davlat boshqaruvi, rahbar shaxsi, qonun ustuvorligi va jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan. Muallif tomonidan adolat kategoriyasining ratsionallik tamoyili asosida ifodalanishi tahlil qilinib, uning zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, “Qutadg‘u bilig” asarining ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, adolat, ratsionallik, davlat boshqaruvi, rahbar, qonun ustuvorligi, ma’naviy meros, axloqiy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati.

Kishilik sivilizasiyasi va madaniyatining ilk o‘choqlaridan hisoblangan Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarning o‘lmas asarlari ming yillar davomida bashariyat ma’naviy taraqqiyotida mayoq vazifasini bajarib kelmoqda.

Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Forobiy kabi qomusiy olimlarimizning ilmiy meroslari bunga dalildir. Bu xususda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev - “Ularning

aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi”, deydi [1: 82].

Yana shunday nodir ma’naviy meroslardan biri shuki, turkiy xalqlar tafakkuri xazinasining noyob durdonasi, Sharq odob-axloq falsafasining qomusi - Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” («Saodatga eltuvchi bilim») asaridir. Buyuk alloma Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asari ming yildan buyon Sharq xalqlari ma’naviyati taraqqiyoti yo‘lida beminnat xizmat qilib kelmoqda. Axloq-odob falsafasining qomusi hisoblangan mazkur asar insoniylikning go‘zal xislatlari: halollik, ezgulik, vatanparvarlik, diyonatlilik, oqilonalikni tarannum etadi. Yusuf Xos Hojib ilmiy merosining tarixiy ahamiyati, avvalo unda insonga xos bo‘lgan ezgu axloq-odob tamoyillarini rasionalistik nuqtayi nazardan bayon etilishidir.

Allomaning ijtimoiy siyosiy qarashlarida adolatli boshqaruv tamoyili ilgari suriladi. arsionalistik nuqtayi nazaridan bayon etiladi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik rahbarning adolatli bo‘lishligiga bog‘liqligi alloma tomonidan rsionalistik yondashuv asosida yoritib beriladi.

Rahbarning adolatligi jamiyatda fuqarolarning tinch va faravon turmush kechirishlariga zamin bo‘lishi va natijada aholining roziligi va xursandchiligiga hamda ularning qo‘llab-quvvatlashiga zamin ekanligini quyidagicha bayon etadi:

El sevgan beklikdan bo‘lsang umidvor,
Bu yo‘l adl ichra o‘tur betakror [2.120].

Xalqning qudratli kuch ekanligini ta’kidlar ekan, Rahbarning aholi orasida obro‘si, hurmatga sazavor bo‘lishi, uning adolatli siyosati bilan belgilanishini quyidagicha izohlaydi:

Ulug‘lik tilarsan buyuk xalq uzra,
Odil bo‘l, to‘g‘rilik yo‘lini tanla.
Kim odil, fe’li ham rost bo‘lsa, uni
Har ikki dunyoda tug‘adi kuni [120].

Yusuf Xos Hojib har bir rahbarni jabr-zulmdan, zo‘ravonlikdan qaytarbi, muomalada hamda amalda adolat orqali xalqni mehriga yo‘l topishga chaqiradi

Ezgu bo‘l, zulm-zo‘rlik darvozasin yop,
Qo‘l, tilda xalqingni mehriga yo‘l top [126].

Mol-dunyo va boylikning o‘tkinchi ekanligini ta’kidlar ekan, faqat to‘g‘ri va odil olib borilgan siyosat tufayli rahbar xalqning hurmatiga sazavor bo‘lishi mumkinligini quyidagicha izohlaydi:

Avramasin dunyo seni davlat-la,
Har bitta ishingda rostlikni tila.
Xalqga to‘g‘ri, odil siyosat qilsang,
Ketsang ham boshiga ko‘tarar, bilsang [127].

Jabr-zulmga barham berib, adolatli boshqaruv tizimini joriy etgan rahbargina tarixda yaxshi nom bilan yod etilishini alohida ta’kidlaydi. Adolatli boshqaruv tizimi - rahbarning oqil va hushyor bo‘lishligiga bog‘liqligi - allomaning rasionalistik yondashuvining mohiyatini tashkil etadi.

Bekligingdan mangu qolsin desang ot,
Xalq uzra odil bo‘l, zulmni yo‘qot.
Sen xalqqa rahbarsan bukun, ey sardor,
Sen unga panohsan, oqil bo‘l hushyor [132].

Adolatli boshqaruv tizimi rahbardan mantiqiy rasionallik va oqilonalikdan tashqari vijdon va pok iymon - Allohga toat qilish kabi fazilatlarga bog‘liq ekanligini alloma quyidagicha bayon etadi:

Odil bo‘l, ko‘rsatma ortiq zulmu kuch,
Allohga toat qil, eshigini quch [133].

Jamiyatda rahbar adolatli boshqaruv tizimini yaratish uchun avvalo qonun ustuvorligi, barchaga bir xilda amal qiladigan muayyan tartib qoidalar ishlab chiqib, ijtimoiy munosabatlar joriy etishi - fuqarolar xavfsizligi va daxlsizligini ta’minlanishi hamda baxtli turmush tarzining asosi ekanligi ta’kidlaydi:

Xush tartiblar yarat, odil hukm sol,
Kunlaring xush kechir, baxtni bog‘lab ol [133].

Biz mutafakkirning “Qutadg‘u bilig” asarida adolat kategoriyasini talqin qilinishida rasionallik tamoyilini mohiyatni yoritishga harakat qildik.

Allomaning asari axloq-odobga doir qomusiy xarakterda bo‘lib, unda etika-estetika, matematika, iqtisod, astronomiya, diplomatiya, tibbiyot, farmasevtika, harbiy soha, umuman, ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va madaniy-ma’rifiy, ma’naviy, ilmiy va boshqa qator sohalarga doir qarashlarga duch kelish mumkin [3: 6].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, avvalo Sharq xalqlari ma’naviy merosining nodir durdonalaridan biri bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida barcha axloqiy falsafiy tushunchalarni, xususan, adolat kategoriyasini bayon etishda rasionallik tamoyiliga asoslanganligi uchun ming yildan buyon Markaziy Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Ikkinchidan, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asari hozirgi globallashuv sharoitida ham tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmagan va murakkab axborotlashgan jamiyat bosqichida fuqarolik jamiyatini barpo etishda alloma ilgari surgan adolat ..... muhim nazariy manbadir. Uchinchidan, Yusuf Xos Hojib ilmiy merosining ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatini teran anglagan holda, undan uzluksiz ta’lim tizimini barcha bosqichlarida, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz targ‘ibotida keng foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M.. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22-dekabr // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan bahodir. - T, O‘zbekiston NMIU. 2018 yil.
2. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”). - T, “Akademnashr”., 2015.
3. Ravshanov F. “Saodatga eltuvchi bilim”ga qiziqib.../Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Akademnashr. 2015.
4. Ravshanov, Fazliddin. Davlat fuqarolik xizmatchisining ma’naviy qiyofasi (Risola) [Matn] / F.Ravshanov. - Toshkent: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2023. - 296 b.

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

Orzukulov Amirjon Olimjonovich

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy xalqlar ma’naviy merosining bebaho namunasi sifatida badiiy-adabiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va siyosiy tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Yusuf Xos Hojib inson kamoloti, adolatli jamiyat, ma’naviy barkamollik, ilm-ma’rifat va axloqiy tarbiya kabi masalalarni chuqur falsafiy mushohada asosida tahlil qiladi. Shu jihatdan “Qutadg‘u bilig” asarida ilgari surilgan komil inson tushunchasi bugungi kunda ham o‘zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Hozirgi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi, ma’naviy tahdidlar va qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida inson tarbiyasi, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat bilimli, yuksak ma’naviyatli, vatanparvar, adolatparvar va mustaqil fikrlay oladigan shaxslarga ehtiyoj sezmoqda. “….Tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o‘rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini targ‘ib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimizning buyuk ma’naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish bo‘yicha dolzarb vazifalar turganini alohida ta’kidlash lozim”1. Bu esa Sharq mutafakkirlari merosidagi insonparvarlik va komillik g‘oyalarini qayta tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. “Qutadg‘u bilig”da asarida komil inson timsoli, jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin qilinadi. Asarda

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.

aql, bilim, adolat, qanoat va odob inson kamolotining asosiy mezonlari sifatida ko‘rsatiladi. Bugungi kunda ham ushbu fazilatlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishda muhimdir. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lash, ma’naviy tarbiyani kuchaytirish, yoshlarni intellektual va axloqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa “Qutadg‘u bilig”dagi komil inson g‘oyalarini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etishning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Yusuf Xos Hojib turkiy dunyoning o‘zlikni anglash timsoli hisoblanadi. U butun umri davomida millat sha’ni, xalq ma’naviyati va davlat ravnaqi g‘oyalariga sadoqat bilan yashadi hamda o‘zining bebaho merosi, Qutadg‘u bilig asarini kelajak avlodga qoldirdi. Mutafakkir uchun “turk” degan nom etnik tushuncha bo‘lishi bilan birga yuksak ma’naviy qadriyat, tarixiy g‘urur va siyosiy-madaniy birlik ramzi edi. Shu bois u turkiy davlatchilikning qayta tiklanishi, xalqning taraqqiyot va yuksalish yo‘liga kirayotganini katta faxr va umid bilan tasvirlaydi. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar markazida komil inson konsepsiyasi turadi.

Bayat berdi davlat e turkän quti,
Anïŋ shukri qilg‘u o‘qïb ming ati1.
“Ey turklar baxti, Tangri senga davlat va iqbol ato etdi.
Uning ming bor nomini yod etib, shukronalik qilish lozim.”

Ushbu misralarda Yusuf Xos Hojib turkiy xalqning tarixiy yuksalishi va davlat barqarorligini ilohiy ne’mat sifatida talqin qiladi. Mutafakkir nazarida davlat va xalqning ma’naviy yetukligi, birlik va adolatga intilishi natijasidir. “Turklarning baxti” degan ibora orqali u millatning siyosiy qudrati bilan bir qatorda ma’naviy kamolotini ham ulug‘laydi. Jumladagi shukronalik g‘oyasi alohida falsafiy mazmunga ega. Muallif inson qudrat va davlatni qo‘lga kiritgach kibru havoga berilmasdan, hokimiyatni mas’uliyat va ma’naviy burchga aylantirish kerakligini uqtiradi. Shu jihatdan asardagi komil inson konsepsiyasi bilan ham uzviy bog‘lanadi. Chunki komil inson, ne’matning qadriga yetadigan, adolatni saqlaydigan, xalq va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan shaxsdir. Bugungi zamonda ham ushbu g‘oya dolzarb bo‘lib, davlat taraqqiyoti faqat iqtisodiy kuch bilan emas, balki ma’naviy yetuk, vatanparvar va mas’uliyatli insonlar bilan belgilanishini anglatadi.

Kitabqa bitindi bu xaqan ati,
Bu at mangu qaldï, e turkän quti.
“Bu xoqonning nomi kitobga bitildi,
Ey turklar baxti, bu nom mangulikka qoldi.

1 Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. Саодатга йўловчи билим. Трансккрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. - Тошкент, фан, 1972. - 78-79.

Ushbu baytda Yusuf Xos Hojib ilm, yozuv va ma’naviy merosning abadiyligini ulug‘laydi. Mutafakkir nazarida insonning haqiqiy umrboqiyligi jismoniy mavjudlikda emas, balki uning xalq va jamiyat uchun qoldirgan ezgu ishlari, adolatli boshqaruvi hamda ma’naviy merosida namoyon bo‘ladi. Shu sababli xoqonning nomi kitobga bitilishi, uning xalq xotirasida mangulik kasb etishining ramziy ifodasidir. Baytdagi “turkän quti” iborasi turkiy xalqning saodati, davlati va ma’naviy qudratini anglatadi. Yusuf Xos Hojib komil inson g‘oyasini aynan ana shu milliy va davlat manfaatlari bilan uyg‘un holda talqin qiladi. Asarda kitob timsoli ham chuqur falsafiy ma’noga ega. Kitob, ilm, tafakkur va tarixiy xotiraning ramzi sifatida insonni mangulikka eltuvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan “Qutadg‘u bilig”dagi komil inson konsepsiyasi, millat va davlat ravnaqi uchun xizmat qiladigan ma’naviy yetuklik mezoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Körü bersä emdi bu turk bägläri,
Bu turk bäglärindä taqï yegl äri.
Bu turk bäglärindä atï belgülüg,
To‘nga Alp Er erdi qutï belgülüg.
Bädug bilgi birlä öküş erdämi,
Biliglig uqushluğ budun ködrümi.
Täjiklär ayur anï Afrosiyab,
Bu Afrosiyab tuttı ellär tiläp.
Endi nazar solsang bu turk beklariga,
Ularning orasida yanada yaxshilari bor.
Turk beklari ichida nomi mashhur biri,
To‘nga Alp Er edi, baxt va saodat sohibi.
Bilimi buyuk, fazilatlari juda ko‘p edi,
Bilimli, zakovatli, xalq orasida sarasi edi.
Tojiklar uni Afrosiyob deb ataydilar,
Afrosiyob ko‘plab el-yurtlarni o‘ziga bo‘ysundirgan edi.”

Ushbu jumlalarda Yusuf Xos Hojib turkiy davlatchilik tarixidagi ideal hukmdor va komil inson timsolini ulug‘laydi. Asarda tilga olingan To‘nga Alp Er qiyofasi jasoratli sarkarda, ilmli, zakovat va yuksak fazilat egasi sifatida tasvirlanadi. Mutafakkir nazarida haqiqiy hukmdor kuchli, aqlli, bilimki va ma’naviy yetuklik bilan ulug‘ bo‘lishi kerak. Baytlarda “biliglig”, “uqushluğ”, “erdämi” kabi tushunchalar komil insonning asosiy mezonlari sifatida namoyon bo‘ladi. Yusuf Xos Hojib inson kamolotini ilm, tafakkur, odob va xalqparvarlik bilan bog‘laydi. Demak, komil inson, xalq orasida obro‘ qozongan, adolatli, zakovatli va jamiyat manfaatini himoya qila oladigan shaxsdir. Shu sababli Alp Er To‘nga qiyofasi, turkiy siyosiy-falsafiy tafakkurdagi yetuk inson tipidir. Misralarda turk eli sha’ni va davlatchilik g‘oyasi ham kuchli aks etgan. Muallif turk beklari orasidan eng munosiblarini ajratib

ko‘rsatish orqali millatning siyosiy va ma’naviy salohiyatini ulug‘laydi. Ayniqsa, Afrosiyob nomining tilga olinishi turkiy xalqlarning tarixiy qudrati va tamadduniy mavqeini ko‘rsatsa, bugungi nuqtayi nazardan qaralganda, yosh avlodni vatanparvarlik, ilmga intilish, tarixiy merosga hurmat va komil inson bo‘lish ruhida tarbiyalashda muhim ma’naviy manbadir.

Muñar meŋzätü keldi turkchä masal,
O‘qïqïl munï sen köŋül ögkä al.
Uqushluğ kishikä eshi tap uqush,
Biligsiz kishikä atï tap söküş.
Bunga o‘xshash turkcha masal bor,
Sen uni o‘qib, ko‘ngling va ongingga joyla.
Zakovatli kishiga zakovatning o‘zi munosib do‘stdir,
Bilimsiz kishining nomi esa faqat malomatga loyiqdir.”

Ushbu baytlarda Yusuf Xos Hojib inson kamolotining asosiy mezoni sifatida aql-zakovat va bilimni ulug‘laydi. Mutafakkir nazarida insonning haqiqiy qadri uning tafakkuri, bilimi va ma’naviy salohiyati bilan belgilanadi. Shu sababli “uqush”, zakovat va idrok komil insonning eng muhim fazilati sifatida talqin qilinadi. Baytda “ko‘ngul” va “o‘g” tushunchalarining yonma-yon qo‘llanishi ham chuqur falsafiy mazmunga ega. Bu inson kamoloti aql, bilim, shuningdek, qalbiy poklik va ma’naviy yetuklik bilan uyg‘un bo‘lishi kerakligini anglatadi. Muallif bilimsiz kishining nomi “söküş”, ya’ni malomat va tahqir bilan eslanishini ta’kidlab, jaholatni jamiyat taraqqiyotiga zid illat sifatida baholaydi. Mazkur baytlar bugungi davr uchun ham dolzarb bo‘lib, yoshlarni ilm-ma’rifatga intilish, mustaqil fikrlash va ma’naviy barkamollikka da’vat etadi. Qutadg‘u bilig da ilgari surilgan ushbu g‘oyalar zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimi uchun ham muhim falsafiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Yemä yaxshi aymïsh bu turk buyruqï,
Körür kez yaruqï og‘ul-qïz uqï.1
“Bu turk donishmandi yaxshi aytgan:
O‘g‘il-qizning ziynati va yorug‘ligi - uning ilmi va odobidir.

Yusuf Xos Hojib yuqoridagi jumlalarda, inson kamolotining asosiy mezoni sifatida ilm, tarbiya va zakovatni ulug‘laydi. Baytda “yaruq”, ya’ni yorug‘lik timsoli orqali ilm-ma’rifat inson hayotini nurafshon qiluvchi ma’naviy kuch sifatida talqin etiladi. Mutafakkir nazarida insonning haqiqiy go‘zalligi uning odobi, bilimi va ma’naviy yetukligidadir. “O‘g‘il-qiz” iborasining birgalikda qo‘llanishi Yusuf Xos Hojibning tarbiya masalasiga umumjamiyat nuqtayi nazaridan yondashganini

1Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Саодатга йўловчи билим. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. - Тошкент, фан, 1972. – Б.304-305.

ko‘rsatadi. U komil insonni faqat erkak yoki hukmdor timsolida emas, balki jamiyatning har bir a’zosi ma’naviy barkamollikka intilishi kerak bo‘lgan mavjudot sifatida talqin qiladi.

Baytdagi “turk buyruqi” ifodasi esa turkiy xalqning qadimiy donishmandlik an’analari va axloqiy qarashlariga ishora qiladi. Muallif ilm va odobni millat ravnaqining asosiy tayanchi sifatida ko‘rsatadi. Demak, komil inson, bilimli, tarbiyali, zakovatli va jamiyatga foyda keltira oladigan shaxsdir. Bugungi globallashuv sharoitida ham ushbu fikrlar o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki har qanday jamiyatning taraqqiyoti avvalo ma’rifatli, ma’naviy yetuk va mustaqil fikrlaydigan yosh avlod bilan belgilanadi. Qutadg‘u bilig dagi bu qarashlar zamonaviy ta’lim va tarbiya falsafasi uchun muhim hisoblanadi.

Örüŋ süt bilä kirsä edgu qïlïq,
Ölüm tutmag‘ïncha evürmäs yorïq.
Agar ezgu xulq ona suti bilan kirsa,
Uni o‘lim kelmaguncha o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Ushbu misralarda Yusuf Xos Hojib inson tarbiyasi va axloqiy kamolot masalasiga chuqur falsafiy yondashadi. Mutafakkir ezgu xulq va odobni inson tabiatiga singib ketadigan ma’naviy fazilat sifatida talqin qiladi. “Ona suti bilan kirish” iborasi orqali yaxshi tarbiya, odob va komillik insonning eng dastlabki hayotiy muhitida shakllanishi ta’kidlanadi. Baytda komil inson g‘oyasining muhim jihatlaridan biri, axloqiy barqarorlik masalasi namoyon bo‘ladi. Yusuf Xos Hojib nazarida haqiqiy komil inson tasodifiy emas, balki bolalikdan ezgulik, odob, halollik va ma’naviy poklik ruhida tarbiyalangan shaxsdir. Shu sababli yaxshi xulq insonning doimiy ma’naviy mezoniga aylanadi. Misralarda tarbiya, ma’naviy meros sifatida talqin qilinadi. Ya’ni insonning asl boyligi uning xulqi va fazilatidadir. Bu qarash Qutadg‘u bilig dagi komil inson konsepsiyasining asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Bugungi davr nuqtayi nazaridan ham ushbu fikrlar nihoyatda dolzarbdir.

Biliglig sözi yerkä suv-täg turur,
Aqïtsa suvuğ yerdä ne’mat unur.
Biliglig kishiniŋ savï äksumäs,
Aqïg‘lı suzuğ yo‘l suvi äksumäs.
Öyüg chim osuğluğ bolur bilgälar,
Chïqar suv qayuda adaq ursalar.
Biligsiz kishi köŋli qum-täg turur,
Öküz kirsä tolmas, ap ot yem unur.
Bilimli kishining so‘zi yer uchun suv kabidir,
Suv oqsa, quruq yerda ne’matlar unadi.
Bilimli kishining hikmati tugamaydi,

Oqayotgan musaffo yo‘l suvi tugamaganidek.
Donolar qayerga qadam qo‘ysalar,
U yerda go‘yo suv chiqib, yashillik paydo bo‘ladi.
Bilimsiz kishining ko‘ngli esa qum kabidir,
Unga ho‘kiz kirsa ham to‘lmaydi, faqat yem yo‘qoladi.

Ushbu jumlalarda, Yusuf Xos Hojib ilm va tafakkurning jamiyat hayotidagi o‘rnini nihoyatda chuqur badiiy-falsafiy timsollar orqali ifodalaydi. Mutafakkir bilimli insonning so‘zini “yerga hayot baxsh etuvchi suv”ga qiyoslaydi. Suv qanday quruq yerni obod qilib, undan ne’matlar undirsa, bilim va hikmat ham jamiyatni ma’naviy yuksaltirib, taraqqiyotga olib boradi. Baytda komil inson konsepsiyasining asosiy mezoni sifatida bilim va donolik ulug‘lanadi. Yusuf Xos Hojib nazarida komil inson, faqat o‘zi uchun emas, balki atrofidagi jamiyat uchun ham manfaat keltiradigan, ma’rifat tarqatadigan shaxsdir. Bilimli kishining so‘zi tugamas “musaffo suv”ga o‘xshatilishi uning fikrlari doimo jamiyatga foyda keltirishini anglatadi. “Bilgälar” donolar obrazi orqali muallif ma’naviy yetuk insonlarning jamiyatdagi bunyodkor rolini ko‘rsatadi. Dono inson qayerda bo‘lsa, u yerda taraqqiyot, ma’rifat va obodlik yuzaga keladi. Bu qarash Qutadg‘u bilig dagi komil inson va davlatchilik falsafasining muhim jihatlaridan biridir. Aksincha, bilimsiz kishining ko‘ngli “qum”ga o‘xshatiladi. Qum suvni singdirib yuborgani kabi, jaholat ham nasihat va ilmni samarasiz qiladi. Muallif bu orqali jaholatni inson kamolotiga zid holat sifatida tanqid qiladi. Demak, insonning haqiqiy qadri uning boyligi yoki mavqeida emas, balki ilmi, tafakkuri va ma’naviy salohiyatidadir. Bugungi zamonda ham ushbu g‘oyalar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Chunki ilm-ma’rifatga asoslangan jamiyatgina barqaror taraqqiyotga erisha oladi. Yusuf Xos Hojibning bu qarashlari yoshlarni bilim olish, mustaqil fikrlash va komil inson bo‘lib yetishishga undovchi muhim ma’naviy-falsafiy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.
2. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Саодатга йўловчи билим. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. - Тошкент, фан, 1972.
3. Тухлиев Б.: Вопросы поэтики “Кутадгу билиг” Юсуфа Хас Хаджиба. - Т. “Аср-Матбуот”. 2004.
4. Юсуф Хос Хожиб: Қутадгу билиг. -Тошкент, 2010.

“DEVONU LUG‘ATIT-TURK” ASARIDA HUNARMANDCHILIK SOHALARINI YORITILISHI

Bektemirov Shokir Xidirboyevichning
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchi

Hunarmandchilik insoniyat tamadduning eng qadimiy va muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy yuksalishi hamda ma’naviy qadriyatlarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Har bir xalqning tarixiy taraqqiyotida hunarmandchilik moddiy ehtiyojlarni qondirish bilan birga, milliy o‘zlikni, estetik didni va madaniy an’analarni aks ettiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan. Shu jihatdan turkiy xalqlar tarixida ham hunarmandchilik madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Turkiy manbalar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, turmush tarzi, kasb-hunar faoliyati va madaniy qadriyatlari haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan. Xususan, qadimgi turkiy bitiklar, lug‘atlar, tarixiy va adabiy asarlar, geografik hamda etnografik manbalarda hunarmandchilikning turli yo‘nalishlari, hunarmandlarning jamiyatdagi o‘rni, ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulotlari haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Ushbu manbalar orqali turkiy xalqlarning metallsozlik, kulolchilik, to‘qimachilik, zargarlik, yog‘ochsozlik, qurolsozlik kabi ko‘plab hunar turlarini puxta egallaganliklarini kuzatish mumkin.

Hunarmandchilik madaniyati turkiy xalqlarning iqtisodiy hayoti bilan bir qatorda ularning dunyoqarashi, estetik qarashlari va ma’naviy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Hunar va mehnatga bo‘lgan hurmat, mahoratni avloddan avlodga o‘tkazish an’analari, mahsulotlarning nafisligi va amaliy ahamiyati turkiy madaniyatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Shu bois turkiy manbalarda aks etgan hunarmandchilikka oid ma’lumotlarni o‘rganish, xalqning madaniy merosi va ma’naviy dunyosini tadqiq etishda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Turon qadimdan jahon tamadduni o‘choqlaridan biri, shuningdek, yirik ishlab chiqarish va savdo markazi sifatida tanilgan. Bu mintaqaning yirik shaharlarida turli xil mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo‘lib, ular dunyoning ko‘plab hududlarida mashhurlikka erishgan. Ana shunday mahsulotlar qatorida turli matolar ham alohida o‘rin tutgan. Ular yuqori sifati, nafisligi va qimmatbaholigi bilan ajralib turgan hamda nufuzli kishilarga sovg‘a sifatida taqdim etilgan [1;105]. Bunday mahsulotlar tayyorlangan markazlarda ipakchilik rivojlangan bo‘lib, ushbu soha mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Ana shunday yirik ishlab chiqarish markazlari qatorida Movarounnahr, xususan, Qo‘qon, Andijon va Marg‘ilon shaharlari alohida o‘rin tutgan. Ayniqsa, Marg‘ilon o‘zining ipakchilik mahsulotlari bilan Sharq va G‘arb mamlakatlarida keng shuhrat qozongan. Shaharda katta miqdorda ipak ro‘mollar ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu mahsulot fors tilida

“kurk”, turkiy tillarda esa “tibat” deb atalgan. Marg‘ilonda tayyorlangan ipak mahsulotlari Buxoro, Qoshg‘ar va boshqa savdo markazlariga olib borilgan. Shuningdek, ip g‘altaklari Yormozar va Oloy tog‘lari orqali tog‘li hududlarga yetkazilgan.

Marg‘ilon va Farg‘ona vodiysi hunarmandchiligi faqat ipakchilik bilan cheklanmagan. Shaharda paxta va jun matolar to‘qish, bo‘yoqchilik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, kulolchilik, misgarlik, temirchilik, zargarlik hamda yog‘och o‘ymakorligi kabi ko‘plab hunar turlari rivojlangan edi. Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar nafaqat mahalliy bozorlarda, balki xalqaro savdo yo‘llari orqali qo‘shni mamlakatlarga ham chiqarilgan. Bu esa hunarmandchilikning mintaqa iqtisodiyoti, shaharsozlik va madaniy hayotidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Demak, Marg‘ilon qadimdan ipakchilik, balki turli hunarmandchilik tarmoqlari rivojlangan yirik ishlab chiqarish markazi sifatida shakllanib, Farg‘ona vodiysi va butun Turon iqtisodiy-madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Bu yerda yaratilgan mahsulotlar mahalliy an’analar, yuksak mahorat va boy madaniy merosning yorqin namunasidir. Ipak mahsulotlari Qoraxoniylar davrida nafaqat hunarmandchilik mahsuli, balki davlatning iqtisodiy qudrati va siyosiy nufuzini ifodalovchi muhim vosita sifatida ham namoyon bo‘lgan. Xususan, xoqonlikda ipak savdo-ayirboshlash munosabatlarida muhim o‘rin egallab, ayrim hollarda iqtisodiy qiymat o‘lchovi vazifasini bajargan. Shu bois davlat boshqaruv tizimida ipak zaxiralarini nazorat qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Manbalarda qayd etilishicha, xoqonlikda maxsus ipak g‘aznasi mavjud bo‘lib, uning faoliyati uchun “ag‘ichi” [2;155] deb ataluvchi mansabdor mas’ul bo‘lgan.

Hunarmandchilik va ipakchilikka ixtisoslashgan ishlab chiqarish markazlari ayrim soliqlarni mahsulot ko‘rinishida to‘lagan bo‘lib, ushbu zaxiralarning jamlanishi maxsus boshqaruv tizimini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirgan. Shu tariqa ipak iqtisodiy muomalada moddiy boylik, davlat zaxirasi va tashqi savdo vositasi sifatida ko‘p qirrali ahamiyat kasb etgan. Ipakning qadri faqat iqtisodiy munosabatlar bilan cheklanib qolmagan bo‘lib, u diplomatik aloqalar tizimida ham ramziy va siyosiy mazmun kasb etgan. Xoqonlik tomonidan qo‘shni davlatlarga yuborilgan elchilar orqali ipak mahsulotlarining sovg‘a tariqasida taqdim etilishi yoki xorijiy elchilarga qimmatbaho tortiq sifatida berilishi davlatlararo munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Bunday tuhfalar moddiy qiymatidan tashqari, hukmdorning saxovati, davlatning farovonligi va madaniy yuksakligini ifodalovchi timsol vazifasini ham bajargan. Shu jihatdan ipakchilik tarixi moddiy ishlab chiqarish jarayonlarinigina emas, balki jamiyatning iqtisodiy tafakkuri, siyosiy madaniyati va tamadduniy taraqqiyotini ham aks ettiradi.

Ipakchilikning taraqqiy etishi natijasida Turon hududida ipak mahsulotlarining turli ko‘rinishlari ishlab chiqarilgan. Ular qayta ishlanmagan xom

ashyo, yigirilgan ip, tayyor mato hamda muayyan kiyim-kechaklar tayyorlash uchun mo‘ljallangan mahsulotlarni o‘z ichiga olgan. Bu esa ipakchilikning nafaqat hunarmandchilik tarmog‘i, balki murakkab ishlab chiqarish va savdo tizimi sifatida shakllanganligini ko‘rsatadi. IX-XIII asrlarda yigirilmagan hom ipak ipi “taxtu” [2;393] deb nomlangan. Bunday xom ashyo holatidagi ipak ham yuqori qiymatga ega bo‘lib, savdo va ayirboshlash munosabatlarida muhim vosita sifatida qo‘llanilgan. Keyinchalik xom ipak maxsus ishlov berilib, yigirilgan ip holatiga keltirilgan va “chikin” [2;392] deb ataluvchi ipak ipi hosil qilingan. Ishlov berish jarayonida ipak tolalarining sifatli ajratilishi va puxta yigirilishi tayyor mahsulotning qiymati hamda sifati oshishiga xizmat qilgan. Ipak ipining sifati undan tayyorlanadigan matolarning mustahkamligi, nafisligi va tashqi ko‘rinishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli ipak tolalarini qayta ishlash jarayoni hunarmandlardan yuksak mahorat va tajribani talab etgan. Natijada Turon ustalari tomonidan tayyorlangan ipak matolar o‘zining sifati, nafisligi va chidamliligi bilan uzoq o‘lkalarda ham e’tirof etilib, xalqaro savdo munosabatlarida muhim o‘rin egallagan. Bu holat ipakchilikning mintaqa iqtisodiyoti va hunarmandchilik madaniyatidagi yuksak mavqeini yaqqol namoyon etadi.

Sifatli ipak iplaridan turli xil gazlama va matolar to‘qilgan bo‘lib, turonlik ustalar ular asosida nafis hamda did bilan ishlangan kiyim-kechaklar tayyorlaganlar. Ipakdan tikilgan kiyimlar nafaqat kundalik ehtiyojni qondiruvchi buyum, balki jamiyatdagi ijtimoiy mavqe, iqtisodiy imkoniyat va estetik qarashlarni ifodalovchi muhim madaniy belgi vazifasini bajargan. Shu bois qimmatbaho ipak matolardan tayyorlangan kiyimlar ko‘pincha hukmdorlar, saroy a’yonlari va jamiyatning yuqori tabaqalari tomonidan iste’mol qilingan. Turonda ishlab chiqarilgan ipak matolar sifati va nafisligi jihatidan Chin ipakchilik mahsulotlari bilan raqobatlasha olgan. Manbalarda eng keng tarqalgan ipak gazlama “mindatu”, kiyimlik uchun mo‘ljallangan ipak mato “yurun”, ipak kiyimlik turi “to‘rqu” [3;171], shuningdek, ustki kiyim tikishda foydalanilgan maxsus ipak “eshuklik barchin” kabi mahsulotlar tilga olinadi. Ushbu matolar o‘zining sifati, nafis to‘qilishi va amaliy ahamiyati bilan qadrlangan. Turon ustalari tomonidan ishlab chiqarilgan ipak mahsulotlari Chinning mashhur ipak gazlamalari “zungum”, “texchak”, naqshli va gulli ipak kiyimlik “eshkurati”, naqsh bilan bezatilgan “jixansi” hamda qizil rangli zar tikilgan ipak gazmollar bilan sifat jihatidan bellashgan. Bu esa mintaqada ipakchilik va to‘qimachilik texnologiyalarining yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ipak matolar ishlab chiqarishdagi bunday yutuqlar faqat iqtisodiy manfaat bilan cheklanmagan. Raqobatbardosh mahsulotlar yaratish orqali Turon hunarmandlari tashqi bozorlardagi mavqeini mustahkamlashga, import mahsulotlariga qaramlikni kamaytirishga va mahalliy ishlab chiqarishning barqarorligini ta’minlashga erishganlar. Shu bilan birga, ipak matolarning rangi, bezagi va sifati orqali

jamiyatning estetik didi, madaniy qadriyatlari hamda ijtimoiy tabaqalanish darajasi namoyon bo‘lgan. Demak, ipak gazlamalar Turon jamiyatida nafaqat iqtisodiy boylik, balki madaniy o‘zlik, ijtimoiy mavqe va badiiy tafakkurning ham muhim ifodasi sifatida qadrlangan.

Turon aholisi kundalik hayotida shaxsiy gigiyena vositasi sifatida ipak matolardan tayyorlangan maxsus ro‘molchalardan keng foydalangan. Bunday burun artishga mo‘ljallangan ipak ro‘molcha “ulatu” deb atalib, u har bir inson tomonidan o‘zi bilan olib yurilishi mumkin bo‘lgan ixcham va qulay buyum hisoblangan. Shaxsiy gigiyena vositasi sifatida ipakdan foydalanish, asosan, jamiyatning yuqori tabaqa vakillari orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu holat ularning turmush darajasi va estetik didini ham aks ettirgan. Xoqonlik davrida ipak matolar davlat boshqaruvi va harbiy tizimda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ma’lumki, davlat hokimiyatining ramzi sifatida “tug” qo‘llanilgan bo‘lib, xonning tug‘lari ko‘pincha to‘q sariq rangli shoyi yoki ipak matodan tayyorlangan [2;140].· Bu holat hokimiyat timsolining nafislik va qimmatbaho materiallar bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, xon harbiy yurishlarga otlanganida unga maxsus ipakdan tayyorlangan chodir tikilgan [2;90]. Bunday chodir saroy qarorgohi vazifasini bajargan holda, o‘zining kattaligi, bezaklari va alohida ko‘rinishi bilan boshqa chodirlardan yaqqol ajralib turgan. Xon chodiri nafaqat yashash va boshqaruv maskani, balki hokimiyatning markazlashgan ramzi sifatida ham xizmat qilgan.

Demak, Devonu lug‘atit-turk asarida turkiy xalqlarning tili, madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan bir qatorda hunarmandchilik sohalari ham muhim o‘rin egallaydi. Bu ma’lumotlar o‘sha davr turkiy xalqlarining mehnat faoliyati, iqtisodiy munosabatlari hamda moddiy madaniyati rivojlanganligini ko‘rsatadi. Hunarmandchilikka oid leksik birliklarning tahlili XI asr turkiy jamiyatining kasb-hunar tizimi va ishlab chiqarish an’analarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, “Devonu lug‘atit-turk” nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va hunarmandchilik tarixini tadqiq etishda ham qimmatli manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ибн Ҳавқал. Мовароуннахр. - Т: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011. -105 б.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I жилд. - Т: Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашриёти, 1960.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. - Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

IBN SINO FALSAFAIDA BORLIQ VA MAVJUDLIK KATEGORIYALARI

Quvvatov Sardor Isomiddinovich
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda Ibn Sino ontologik ta’limotida borliq, vujud va mohiyat, sababiyat hamda zaruriy va mumkin mavjudotlar o‘rtasidagi munosabatlar ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda Ibn Sinoning borliqni ierarxik va sababiy tizim sifatida talqin qilishi, shuningdek, vujud va mohiyatning ontologik farqlanishi asoslab beriladi. Tadqiqot mutafakkirning metafizik qarashlari Sharq va G‘arb falsafasi rivojiga ko‘rsatgan ta’sirini yoritishga qaratilgan.

Musulmon Sharqi falsafasi tarixida Ibn Sino metafizik tafakkurni tizimli ravishda shakllantirgan eng yirik mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Uning ontologik qarashlari borliq, mavjudlik, mohiyat, sababiyat va zaruriyat kabi fundamental falsafiy kategoriyalarni mantiqiy asosda tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Ibn Sino Aristotel metafizikasini islom falsafasi bilan sintez qilgan holda, o‘ziga xos ontologik konsepsiyani yaratdi. Ushbu konsepsiya keyinchalik nafaqat Sharq peripatetik falsafasi, balki G‘arb sxolastik tafakkurining rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Ibn Sino ontologiyasining markaziy masalasi “Vujud” va “Mohiyat” o‘rtasidagi dialektik munosabatni aniqlashdan iboratdir. Unga ko‘ra, Borliqning barcha shakllari dastlab yagonada mavjud bo‘ladi. Birinchi sababdan uzoqlashgan sari ushbu shakllar ko‘proq mustaqillik kasb etib, faqat bevosita oldingi sababgagina bog‘liq bo‘ladilar. Shunday qilib, turli ashyolar vujudga (zaruriy vujud) nisbatan turlicha darajada yaqinlikda bo‘ladilar. Vojib ul-vujudning xususiyati keyingi keladigan barcha vujudga uzatiladi. Ibn Sino fikricha, “Vojib ul-vujud shundayki, barcha o‘z mavjudliklarini undan oladigan narsalar zaruriy ravishda mavjuddirlar, negaki, shunday bo‘lmasa vojib ul-vujudda shunday holat vujudga kelar ediki, u unda bo‘lmas edi, va o‘sha vaqtda u barcha jihatlardan vojib ul-vujud bo‘lib qolar edi1. Bunday ta’limotni deistik yo‘nalishdagi panteizm sifatida baholash mumkin.

Ibn Sino ontologiyasi Aristotelning metafizik qarashlariga tayangan holda shakllangan bo‘lsa-da, u mavjudlik masalasiga yangicha metodologik yondashuvni olib kiradi. Mutafakkirning fikricha, har qanday mavjud narsada ikki jihat mavjud:

birinchisi, mohiyat, ikkinchisi esa, vujud (mavjudlik).

Mohiyat narsaning ichki tabiatini, ya’ni uning “nima ekanligini” bildiradi. Biroq mohiyatning o‘zi hali real mavjudlikni anglatmaydi. Mavjudlik esa mohiyatning voqelikda namoyon bo‘lishidir. Ibn Sino aynan shu nuqtada mohiyat

1 М.Ахмедова. Фалсафа. ТОШКЕНТ – 2005, 69-б

va mavjudlikni ontologik jihatdan differensiyalash orqali metafizik tafakkur tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

Ibn Sino o‘zining ontologik qarashlarida fizik qonuniyatlarning ishlash tamoyillarini fikran bayon etadi, barcha fizik xossalar allomaning ta’biricha takrorlanmasdir. Balki yengillik va og‘irlik unsurlar bo‘laklaridandir. Endi, agar falak bilquvva og‘ir va yengil bo‘ladigan bo‘lsa, bu sifat butun falakda bo‘ladi. Holbuki, biz butun falakda yuqoriga va quyiga harakati bo‘lmasligini isbot qildik, bu masalada o‘zingning ba’zi fikrlaringga suyandik. Masala bizning foydamizga hal bo‘lib, falak butun yengil ham, og‘ir ham emas degan fikr isbotlandi1

Mutaffakkirning ontologik konsepsiyasida mavjudotlar ikki asosiy turga bo‘linadi:

1. Zaruriy mavjudot (vojib ul-vujud)
2. Mumkin mavjudot (mumkin ul-vujud)

Zaruriy mavjudot mavjud bo‘lishi uchun hech qanday tashqi sababga muhtoj bo‘lmagan mutlaq borliqdir. Ibn Sino ushbu sifatni faqat Ollohga nisbat beradi. Chunki zaruriy mavjudotning mohiyati uning mavjudligidan ajralmaydi. Unda mohiyat va mavjudlik ayniydir.

Mumkin mavjudot esa mavjud ham, mavjud emas ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsadir. Uning mavjudligi tashqi sabab bilan belgilanadi. Moddiy olamdagi barcha narsalar mumkin mavjudot hisoblanadi.

Shu tariqa Ibn Sino borliqni sababiy bog‘liqlik asosida tushuntiruvchi ierarxik ontologik tizimni yaratadi.

Ibn Sino barcha asarlarida uning ontologik qarashlarining nafasi ufurib turadi. G‘.Jalolov allomaning “Al Hisob” nomli asaridan quyidagi malumotlarni keltirib o‘tadi: Ibn Sino aytadi: “Bu harakatlantiruvchi tabiiy bo‘lsa, u oddiy olovdir, yoki tarkibida olov bo‘lagi g‘olib bo’lgan murakkab bir narsa bo‘ladi. Ammo basit olov falakka ta’sir qila olmaydi. Chunki jismlarning jismlarga ta’siri bir-biriga tegishli bo’lib, basit olov har tomondan falakka tegib turganidan ta’sirlanadi, falakning hech bir bo‘lagi bir-biridan farq qilmaydi. Eh, tangri, magaramki, bu bo‘laklarning ba’zisi kuchsiz bo‘lib, kuchsizlari ta’sirlanishda kuchliroq bo‘lganda, ta’sirlanish farqi bo‘ladi”2

Ibn Sino falsafasida sababiyat borliqning fundamental qonuniyati sifatida talqin qilinadi. Unga ko‘ra, olamdagi har qanday mavjudlik sababiy bog‘lanish asosida yuzaga keladi. Sababsiz mavjudlikning bo‘lishi mumkin emas. Mutafakkir Aristotelning to‘rt sabab haqidagi ta’limotini yanada rivojlantirib, uni metafizik

1 Тўйчиев Б. Беруний ва Ибн Сино. –Т.: Ижод принт, 2020. –Б. 126.
2 Жалолов Ғ. Абу Али бин Синонинг “Ал-Ҳисоб” номли асари. “Абу Али ибн Сино туғилган кунининг 1000 йиллигига”. Мақолалар тўплами. -Т.: Фан, 1980. –Б. 122-134

mazmun bilan boyitadi. Ibn Sinoga ko‘ra, har qanday narsaning mavjudligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi: moddiy sabab, shakliy sabab, faol sabab, maqsad sabab.

Moddiy sabab narsaning tashkil topishidagi moddiy asosni bildiradi. Masalan, haykal uchun marmar moddiy sabab hisoblanadi. Shakliy sabab narsaning ichki mohiyati va strukturaviy shaklini ifodalaydi. Faol sabab esa mavjudotni vujudga keltiruvchi harakatlantiruvchi kuchdir. Ibn Sino ontologiyasida faol sabab metafizik xarakterga ega bo‘lib, mavjudlikning aktual holatga o‘tishini ta’minlaydi. Maqsad sabab narsaning mavjud bo‘lishidagi yakuniy maqsadni ifodalaydi.

Ibn Sino sababiyatni faqat fizik jarayon sifatida emas, balki ontologik zaruriyat sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, sabab va oqibat o‘rtasidagi bog‘liqlik tasodifiy emas, balki zaruriy xarakterga ega.

Mutafakkir sabablar zanjiri cheksiz davom etishi mumkin emasligini mantiqiy asoslaydi. Agar sabablar cheksiz davom etsa, mavjudlikning real asosini tushuntirib bo‘lmaydi. Shu bois barcha sabablar oxir-oqibat birinchi sababga - zaruriy mavjudotga borib taqaladi.

Bu jihat Ibn Sino ontologiyasida kosmologik dalilning metafizik shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Ibn Sino metafizikasining eng murakkab va fundamental jihatlaridan biri vujud va mohiyat o‘rtasidagi ontologik munosabatni tahlil qilganidadir.

Mutafakkirning fikricha,barcha mavjudotning asosi va ibtidosi “vujudi vojib”dir, ya’ni tangridir. Vujudi vojib - birinchi mohiyat, javhar. Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan axtarish o‘rinsizdir, chunki birinchi sabab uning natijasi, oqibati bo‘lgan xilma-xil jarayonlarning mohiyatiga bog‘liq bo‘la olmaydi. Vujudi vojibning mavjudligi uning o‘ziga bog‘liq. U - mustaqil mohiyat. Bu - mohioyat yagona.1 Mohiyat o‘z-o‘zicha mavjudlikni talab qilmaydi. Mohiyat aqliy tushuncha sifatida tasavvur qilinishi mumkin, biroq real mavjudlik uchun unga vujud qo‘shilishi zarur. Masalan, “inson” mohiyati “aqlli tirik mavjudot” sifatida ta’riflanadi. Ammo ushbu ta’rif insonning real mavjudligini kafolatlamaydi. Insonning voqelikda mavjud bo‘lishi uchun unga mavjudlik ato etilishi lozim.

Ibn Sino ontologiyasi Sharq va G‘arb metafizik tafakkuri rivojida muhim metodologik asos vazifasini bajargan. U borliqni sof diniy dogmalar orqali emas, balki mantiqiy-mushohadaviy usulda izohlashga intilgan.

Mutafakkirning sababiyat haqidagi qarashlari ilmiy determinizm rivojiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Chunki tabiat va jamiyat hodisalarini sabab-oqibat aloqadorligida tushuntirish keyingi ilmiy tafakkurning asosiga aylandi. Shuningdek, Ibn Sino ontologiyasi musulmon peripatetik falsafasining yuksalishiga, sxolastik

1 Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. «Файласуфлар миллий жамияти нашриёти», Т-2004, 124-б.

metafizikaning shakllanishiga hamda islom falsafasida metafizik tafakkurning tizimlashuviga katta hissa qo‘shdi.

Bugungi kun falsafasida ham mavjudlik, sababiyat va ontologik zaruriyat masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli Ibn Sinoning metafizik qarashlari hozirgi falsafa muammolari uchun ham muhim nazariy manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino ontologiyasi Sharq metafizik tafakkurining eng mukammal falsafiy tizimlaridan biridir. Mutafakkir mavjudlikni mohiyatdan ajratgan holda, borliqning ontologik asoslarini mantiqiy-metafizik jihatdan izohlab berdi. Ibn Sino sababiyatni olamning universal qonuniyati sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har qanday mavjudlik muayyan sababga bog‘liq bo‘lib, sabablar tizimi oxir-oqibat zaruriy mavjudot - birinchi sababga borib taqaladi. Mutafakkirning vujud va mohiyat haqidagi qarashlari metafizika tarixida tub burilish yasagan nazariyalardan biri hisoblanadi. Ushbu ta’limot keyingi Sharq va G‘arb falsafasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ontologik tafakkurning shakllanishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Shunday qilib, Ibn Sino ontologiyasi nafaqat o‘rta asr musulmon falsafasining yutug‘i, balki jahon falsafasi tarixidagi eng muhim metafizik konsepsiyalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедова М. Фалсафа. Тошкент - 2005, 69-б
2. Тўйчиев Б. Беруний ва Ибн Сино. - Т.: Ижод принт, 2020. - Б. 126.
3. Жалолов Ғ. Абу Али бин Синонинг “Ал-Ҳисоб” номли асари. “Абу Али ибн Сино туғилган кунининг 1000 йиллигига”. Мақолалар тўплами. -Т.: Фан, 1980. - Б. 122-134
4. Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. «Файласуфлар миллий жамияти нашриёти», Т-2004, 124-б.

ABU RAYHON BERUNIY IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARIDA ADOLAT KATEGORIYASI

Quvvatov Sardor Isomiddinovich
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolat kategoriyasining o‘rni va uning jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda adolat tushunchasining huquqiy, axloqiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlari yoritilib, uning jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil ekani asoslanadi. Shuningdek, Beruniy merosida ilmiy bilish va adolat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik epistemologik nuqtayi nazardan izohlanadi. Maqolada

mutafakkirning komparativ yondashuvi orqali bag‘rikenglik va ijtimoiy muvozanat g‘oyalari ham ochib beriladi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning asarlarida jamiyatning mohiyati, ijtimoiy munosabatlar tizimi hamda inson omilining o‘rni chuqur nazariy tahlil etilgan. Beruniy ijtimoiy qarashlarida adolat kategoriyasi fundamental tushuncha sifatida namoyon bo‘lib, u jamiyat barqarorligi va evolyutsion rivojining zaruriy sharti sifatida asoslab beriladi.

Beruniy ta’limotida adolat kategoriyasi ko‘p qatlamli ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib, u huquqiy tenglik, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy muvozanatning dialektik birligini ifodalaydi. Mutafakkir adolatni jamiyatning institutsional barqarorligini ta’minlovchi universal prinsip sifatida talqin etadi. Uning fikricha, ijtimoiy tizimda adolatning ustuvorligi ijtimoiy nizolarni minimallashtiradi va jamiyatning progressiv rivojlanishiga zamin yaratadi.

Mutafakkir falsafa, jamiyat haqidagi fikrlarini tahlil qilishda, ilm-ma’rifat, odob-axloq haqidagi qarashlarini ham yoritib bergan. Buyuk olim qanday asar yozgan bo‘lmasin, u insonning u yoki bu maqsadlarini ko‘zlab qilingan ishdir. Olim o‘zining “Geodeziya” asarida yozishicha: “Ilm o‘z zoti bilan matlubdir, haqiqatan ham u barcha narsalardan lazzatli. Ilmdan boshqa qanday narsada manfaat zohirroq va qandayida foyda ko‘proq bo‘ladi, faqat ilm bilangina ham din, ham dunyo uchun xayrli ishlarni qilish va ularga zarar keltrishdan saqlanish mumkin. Agar ilm bo‘lmaganida biz jalb qilayotgan narsa yomonlik emasligiga va chetlanayotgan narsa yaxshilik emasligiga ishonch bo‘lmas edi”1 Beruniy ilmiy bilish jarayoniga alohida epistemologik ahamiyat beradi. Unga ko‘ra, obyektiv bilimga asoslangan tafakkur ijtimoiy qarorlar qabul qilishda ratsional yondashuvni shakllantiradi. Shu jihatdan, ilm-fan va adolat o‘rtasida uzviy funksional bog‘liqlik mavjud: ilm haqiqatni ochib beradi, adolat esa ushbu haqiqatni ijtimoiy amaliyotda tatbiq etish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Allomaning fikricha, axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi deydi. Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma’nosida ishlatib, “Osor al-boqiya” asarida shunday deydi: “Faxrlanish - haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe’llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha, mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi”2. Demak, insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo‘ladi.

Abu Rayhon Beruniy inson faoliyatining samaradorligi va kutilgan natijalarga erishish darajasi bevosita uning shaxsiy sa’y-harakatlariga bog‘liqligini ta’kidlaydi: “Talab qilinadigan zarur ishga tirishqoqlik bilan intilishi, an’anaviylik va nodonlik nuqsonlaridan xalos bo‘lishga kishining o‘zi harakat qilishi kerak”3. Mazkur

1 Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Том III. Геодезия. Муқаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. – Т.: Фан, 1982. –Б.61-62.

2 Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М. Педагогика тарихи. Тошкент “Ўқутувчи”, 1996, 84-бет.

3 Беруний Абу Райхон. Қонуни Маъсудий // Танланган асарлар V – жилд. –Т.: Фан. 1973 1973. Б.120

yondashuvga koʻra, inson oʻzidagi kamchilik va jaholatni bartaraf etish uchun muntazam ravishda oʻz ustida ishlashi, bilimni chuqurlashtirishga intilishi hamda amaliy faoliyatda izchillik va mehnatsevarlikni namoyon etishi lozim.

Beruniyning komparativ-madaniy yondashuvi ham uning ijtimoiy qarashlarining muhim komponentidir. U turli xalqlar, dinlar va madaniyatlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ijtimoiy bagʻrikenglik, interkultural muloqot va oʻzaro hurmat tamoyillarini ilgari suradi. Bu esa adolatli jamiyatning aksiologik asoslarini tashkil etadi. Mutafakkir nazarida, jamiyat rivoji faqat moddiy omillar bilan emas, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi bilan ham belgilanadi.

Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolat kategoriyasi jamiyatning ichki tuzilishi va barqaror ishlashini ta'minlaydigan asosiy normativ tamoyillardan biri sifatida markaziy oʻrin egallaydi. U adolatni oddiy huquqiy tenglik doirasida emas, balki keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida talqin qiladi. Ya'ni adolat uning nazarida jamiyat a'zolari oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi va ijtimoiy tizimning uygʻunligini saqlovchi universal prinsip hisoblanadi.

Beruniy yondashuvida adolat ijtimoiy hayotning barcha qatlamlariga - boshqaruv, iqtisodiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar va ilmiy faoliyatga ta'sir koʻrsatuvchi tizimli kategoriya sifatida namoyon boʻladi. Unga koʻra, jamiyatda adolatning qaror topishi shaxslar oʻrtasidagi ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi, resurslar va imkoniyatlarning nisbatan teng va oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ishonch muhitini shakllantiradi.

Mutafakkir adolat va jamiyat barqarorligi oʻrtasida bevosita sababiy bogʻliqlik mavjudligini asoslaydi. Uning fikricha, adolat buzilgan ijtimoiy tizimda manfaatlar toʻqnashuvi kuchayadi, ijtimoiy tabaqalanish keskinlashadi va natijada beqarorlik yuzaga keladi. Bunday holat jamiyatning ichki integratsiyasini zaiflashtirib, uning rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu nuqtayi nazardan, adolatning yoʻqligi ijtimoiy tanazzul va regressiv jarayonlarning boshlanishiga zamin yaratadi.

Beruniy adolatni faqat tashqi tartib emas, balki insonning ichki axloqiy holati bilan ham bogʻlaydi. Unga koʻra, adolatli jamiyatning shakllanishi avvalo shaxsning ma'naviy yetukligi va ilmiy tafakkuri bilan chambarchas bogʻliqdir. Ilmiy bilish orqali inson haqiqatni anglaydi, bu esa uning adolatli qarorlar qabul qilish salohiyatini oshiradi. Shu bois Beruniyda adolat epistemologik (bilish bilan bogʻliq) va axloqiy jihatdan bir butun tizim sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, Beruniy turli madaniyatlar va ijtimoiy tizimlarni qiyosiy oʻrganar ekan, adolatning universal xarakterga ega ekanini koʻrsatadi. U adolatni har qanday jamiyatning rivojlanish darajasini belgilovchi mezon sifatida koʻradi. Ya'ni jamiyat qanchalik ilmiy, axloqiy va tashkiliy jihatdan rivojlangan boʻlsa, unda adolat tamoyillari shunchalik barqaror amal qiladi.

Beruniy konsepsiyasida adolat jamiyatning normativ poydevori boʻlib, u ijtimoiy tizimning barqarorligi, taraqqiyoti va ichki uygʻunligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Adolatning buzilishi esa nafaqat ijtimoiy muvozanatning izdan chiqishiga, balki jamiyatning umumiy rivojlanish trayektoriyasining susayishiga olib keladi. Shu sababli Beruniy adolatni jamiyat taraqqiyotining

fundamental mezoni sifatida asoslaydi. Shuningdek, Beruniy jamiyat taraqqiyotini obyektiv qonuniyatlarga asoslangan jarayon sifatida talqin qiladi. Uning konsepsiyasida inson omili markaziy o‘rin egallab, shaxsning axloqiy kamoloti va intellektual salohiyati ijtimoiy rivojlanishning determinanti sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, adolat kategoriyasi ijtimoiy tizimning ichki uyg‘unligini ta’minlovchi regulyativ mexanizm vazifasini bajaradi.

Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlari mahalliy va xorijiy adabiyotlarda maxsus o‘rganilmagan. Olimning jamiyat haqidagi fikrlari o‘zining originalligi bilan katta qiziqish uyg‘otadi. Beruniyning ijtimoiy qarashlarining qiziqarli tomoni shundaki, u dastavval qomusiy olim sifatida ilmiy-tadqiqot metodini ishlab chiqishga intildi. Bu metodning asosiy xususiyati o‘rganilayotgan hodisalarga tajribaviy, ratsional yondashish bo‘lib, uning eng muhim talabi - og‘ishmay haqiqatga intilishdan iborat.

Abu Nasr Forobiy ijtimoiy masalalar bo‘yicha yaxlit ta’limot yaratgan bo‘lsa, Beruniy o‘zining asarlarida o‘zi yashagan davrning o‘ziga xos xususiyatlarini, tarixiy voqealarni mantiqiy tahlil qilgan1.

Faylasuf “Osor al-boqiya” asarida jamiyatning vujudga kelishi sabablarini bashariyat tarixi bilan bog‘laydi. “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir. Kitob ahllari bo‘lmish yahudiylar, xristianlar, otashparastlar va bularning barcha sinfida bashariyatning boshlanishi va uning tarix boshi qilib olinishi xususida shunday ixtiloflar mavjudki, tarixlar haqida bu kabi xilma-xillik bo‘lishi mumkin emas”, deb ko‘pgina tarixiy voqealarning noto‘g‘ri talqin etilganini isbotlashga harakat qilib, ularni qiyosiy tahlil etgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolat kategoriyasi jamiyat rivojining konseptual asoslaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning ilmiy merosida adolat, ilm va axloq o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlik g‘oyasi ilgari surilib, bu jamiyatning barqaror va izchil taraqqiyotini ta’minlovchi muhim nazariy model sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun ham dolzarb metodologik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Том III. Геодезия. Муқаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. - Т.: Фан, 1982. - Б.61-62.
2. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М. Педагогика тарихи. Тошкент “Ўқутувчи”, 1996, 84-бет.
3. Беруний Абу Райхон. Қонуни Маъсудий // Танланган асарлар V - жилд. - Т.: Фан. 1973 1973. Б.120
4. https://bukhari.uz/?p=24641&lang=oz

1 https://bukhari.uz/?p=24641&lang=oz

“ORIFNOMA” ASARINING FALSAFIY-IRFONIY MAZMUNI VA YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Raximova Yulduz Dilmurod qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xojagon tariqati Vakili, Xoja Abdlxoliq G`ijduvoniyning shogirdlaridan biri Xoja Muhammad Orif Revgariyning falsafiy qarashlari mushohada etiladi. Undan bizgacha yetib kelgan “Orifnoma” asarida shayxning falsafiy-irfoniy qarashlari aks etgan. Ushbu asar insonning o`z nafsi ustidan g`alaba qilishi, qalb sog`lomligi, nafs riyozati, har bir daqiqani hushyorlik va ogohlik bilan o`tkazish, Allohni doimo qalb orqali zikr etish, insonning o`zini-o`zi haq daqiqada taftish qilisb nazorat qilishi kerakligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: “Orifnoma”, qalb so`glomligi, nafsni boshqarish, zikr qilish, Abdlxoliq G`ijduvoniy, halol yashash.

Xojagon silsilasining ikkinchi piri, Xoja Abdulxoliq G`ijduvoniyning eng ishongan shogirdi, Xoja Orif ibn Ma’ruf Revgariy taxminan 1165 yili Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Revgar qishlog`ida tavallud topgan. Xoja Orif Revgariy o`zing aqliy salohiyati, dunyoqarashi, bilimi, go`zal axloqi tufayli xalq orasida “Mohitobon”, “Peshvoyi orifon” nisbalari bilan mashhur bo`lgan.

Xojagon tariqati g`oyalarini Abdulxoliq G`ijduvoniydan so`ng el orasida barhayot bo`lishida sababchi bo`lgan mutasavvuf shayxlardan bir ham Xoja Muhammad Orif Revgariy hisoblanadi. U yoshlik chog`laridayoq Abdulxoliq G`ijduvoniyning muridlari qatorida joy egallaganligi uning ham axloq, ham bilim jihatidan tirishqoq va talabchan bo`lganligini dalillaydi. Chunonchi, “Maqomoti Xoja Abdulxoliq G`ijduvoniy va Xoja Orif Revgariy” asarida keltirilgan rivoyatga ko`ra, Xizr alayhissalom har doim Abduxoliq G`ijduvoniy bilan suhbatlashar ekan. Bu suhbat paytida shogirdlari uxlab qolar ekan. Shunda Xoja Orif Revgariy Xizr alayhissalomni ko`rishni maqsad qilib uxlab qolmaslik vajida ko`ziga tuz sepib qo`yadi. og`riqni dastidan uyqusini yenggan Revgariy bu xosiyatli va fayzli suhbatdan bahramand bo`ladi. Buni sezib qolgan Xizr alayhissalom shogirdlar orasida Orif Revgariy kelajakda haqiqiy orif bo`lishini bashorat qiladi.

Xoja Orif Revgariy xojagon-naqshbandiya tariqati vakili sifatida “Orifnoma” asarida o`zing tasavvufiy-falsafiy qarshlari, tariqatning odob qoidlari,inson kamoloti uchun zarur bo`lgan qoidalarni jamlaydi. Revgariy ta’kidlashicha, insonning asli bu dunyoning tark etishi bu - Allohdan boshqa nomni qalbdan o`chirish deganidir. Demak, bu payg`ambarimizning “O`lmasdan avval o`ling” degan hadislariga ishora. Manbalardan ayonki, Abdulxoliq G`ijduvoniy tomonidan asos solingan xojagon tariqatida inson komillikka erishmoq, nafsi ustidan g`olib bo`lmoq uchun eng

birinchi navbatda qalbida Allohdan boshqa xayolni keltirmasligi lozim. Chunki qalb-Allohning uyi. Uni har xil nopok o`ylarda, illat va kamchiliklardan asramoq har bir bandaning vazifasidir. Chirkin va nopok ko`ngil butun jismni halokatga boshlaydi, deyiladi asarda. Allohning ibodatlatimiz va yaxshi amallarimizni qabul qilish yoki qabul etmasligi shu qalbimiz tufayli sodir bo`lishi uqtiriladi. Asarning keyingi o`rinlarida Alloh taoloning qalb borasidagi so`zlari keltiriladi: “Yavmun lo yanfau moln valo banunun illo man atomahu qalbin tolimin. Vali qavluhu taolo: yavma yanfau orifin sidqihum”- qiyomat kuni na mol, na farzand foyda bermas, qay shaxsgaki Allooh taolo qalb bergan bo`lsa, o`shaning foydasi tegadi” [1,6]. Asarda Xoja Orif Revgariy o`zini “purgunoh”, “purxato” deya ta’riflaydi. Bu uning naqadar o`zini taftish eta olganligini bildiradi. Inson har zamonda o`zini taftish etib, kamchilik-u qusurlarini bartaraf etib tursa, go`zal axloqqa erishadi.

Shayx ta’kidicha, har bir solik o`zining nafsini boshqarishi lozim. Aks holsa nafsi ammora Vahdat bilan birlashishga, Haq taoloning rahmatiga erishish uchun to`siq hisoblanadi. Shu bilan birga insonni saodatga eltuvchi xislat sifatida nafsini bo`ysundirish ekanligini ta’kidlaydi. Bu faqat nafsni bo`ysundirish bilan emas, balki har doim zikr va bandalik ahd-u paymonlarini bajarish orqali inson saodat his qiladi.

Shu o`rinda Yusuf Hamadoniy asos solgan tamoyillardan biri “Hush dar dam” g`oyasi asarning har bir qatiga singiga desak xató bo`lmaydi. Xoja uqtirishicha, isnon vaqtini behud o`tkazmasligi kerak. Bunda unga hushyorlik qoidasi yordamga keladi. Inson uchun har bir daqiqa g`animatki, uni g`aflat va behuda ishlar va Alloh taolodan boshqa maqsad bilan behudaga o`tkazmasin. Xoja Orif Revgariy ayni vaqtda vaqtni shamshirga o`xshatadi. U hech kimni ayamaydi va orqaga ham qaytmas. Hattoki, asarda inson shu darajada hushyor bo`lishi kerakki, inson o`z uyiga kirar ekan, bu uydan qaytib sog`-salomat chiqa olishini o`ylab mushoha etishini aytadi.

Asarda yozilishicha, insonning kamoloti uchun Qur’oni Karim mutolaasi va Muhammad s.a.v ning hadislari, avliyo shayxlarning irfoniy suhbatlari, nasihatlari yordamga keladi va insonni to`gri yo`lga boshlaydi. Xojagon-naqshbandiya tariqati asoslaridan biri bu shariat va payg`ambarimiz sunnatlariga amal qilish hisoblanadi. Bu qoida asarda shunday keltiriladi: “Ayuhal orif! Sen hamma hol va af’ol (fe’l-atvor) va hammas ahvolda parishon bo`lmay,doimo Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vasallam sunnat va shariatlariga amal qil va zinhor shak keltirmagil, toki noumid etilgan va quvilgan (shaytonga ergashtiruvchilar) qatoriga kirib, rasvoyi jahon bo`lmagaysen, nauzanbillohi minaz zolik” [2,4]. Bu o`rinda shariat va payg`ambarimiz o`gitlariga amal qilmaganlar shayonga ergashuvchilar qatoriga kirib qolishidan ogohlantirilmoqda.

Xoja o`z zamondoshlariga dunyoning jilvalanishlariga aldanib qolmaslikni, buzuq va isyonkor, fosiq xayollardan o`zlikni asrashni nasihat qiladi. Hech qanday

kiyim boylik, qo`sha-qo`sha imorat havasidan voz kechishni, o`zni Alloh rizoligi yo`lida bag`ishlashni, Qur'oni Karim tilovatidan to`xtamaslikni eng oliy maqsad deya izohlaydi.

Xoja Muhammad Orif Revgariy fikricha, eng imoni mustahkam komil mo`min mol-dunyodan, rang-barang liboslar va noz-ne'matlardan voz kecha olgan va bularning barchasiga nafrat va haqorat nazari bilan qaragan kishidir.

Xoja tariqatning boshi va saodat kaliti tavba -tazarru silishda deb biladi. Asarda tavba shunday izohlanadi. "Payg`ambar alayhissalom deganlarki, "At toyyibu minaz-za bi kaman zanib alayhu- tavba etgan kishi begunohdek bolib qoladi". Tavbaning haqiqiy ma'nosi begonalikdan oshnolikka. Allohdan uzoqlikdan allohga yaqinlashmoqdir" [3,5].

Asarda qalbida ko`plab dunyoviy orzu havaslar bo`lgan kishilar bo`ynida og`ir yuk yuklangan qushga o`xshatiladi. Qush bu yuk tufayli osmonga parvoz eta olmas ekan, solik ham qalbidagi og`irliklar bilan ilohiy parvoz qilolmaydi. Xoja Orif Revgariy avliyolikning uch belgisini keltirib o`tadi: birinchisi baland darajani egallaganda ham kamtar bo`lish, sabri yetgancha yetgancha parhezkorlik qilish, uchinchisi kuchi yetguncha insof qilishdir. Valiy kim deyilganda esa, Allohning do`stini do`st, dushmanini dushman sifatida ko`ruvchi kishilar deya ta'riflaydi.

Asarda ma'rifat tushunchasiga alohida urg`u beriladi. Unga ko`ra, ma'rifat - qalbning Alloh taolo yagonaligini tahqiq (tasdiq) etishi,ma'rifatning chegarasi esa- nafsdan holi bo`lmoq va halol turmush tarzini (halol ovqat, halol kiyim-kechak) odat qilmoqdir. Ma'rifatning samarasi esa Alloh taologa yuz tutmoqdir. Dinning asli esa hilm, hilmning asosi esa sabr ekanligi aytib o`tiladi.

"Orifnoma" asari shu jihati bilan ahamiyatliki, unda Boyazid Bistomiy,Robiyat ul adaviya hayotidan olingan ibratli voqealar keltiriladi. Bunda quyidagi hikoya nihoyatda ibratlidir: Robiya Adaviya Hasan Basriyga uchta narsa jo`natadi:sham, igna vas och tolasi. Buning hikmati shu ediki, sham kabi muloyim bo`lmoq va o`zi yonib atrofni yoritmoq. Igna kabi yalang`och bo`lib, boshqalarni kiyintirib, ularga xizmat qilish. Soch esa Alloh taologa olib boruvchi yo`lni ifodalaydi. Bu yo`l soch tolasidek, ingicha va nozikki, undan yiqilib tushishdan ogoh bo`lishni uqtiradi.

Xoja Orif Revgariy ta'kidlashicha, bani odamga xos xislat shuki, rizq topmoq uchun yelib-yuguradi. Natijada oxirat amallarini unutib qo`yadi. Ortiqcha amallari bilan umrini behuda sarflaydi. Bandalikning uch shartini aytib o`tadi: birinchisi shariat qonun qoidalariga bo`ysunmoq, ikkinchisi Allohning qazosiga rozi bo`lmoq va eng so`ngisi o`zining xohish va ixtiyoridan voz kechib, Haq subhanahu va taoloning xohish-irodasidan mamnun bo`lmoqdir.

Tasavvufdagi barcha tariqatlarda pirning o`rni nihoyatda muhimligi ta'kidlanadi. Pir- yo`lboshlovchi, zohiriy va botiniy bilimlari ustozi, o`z nafsini

yenga olgan, atrofdagilarni o`z xulqi va amallari bilan to`g`ri yo`lga boshlay oladigan kishi sifatida e'tirof etiladi. "Orifnoma" asarida ham pirning bir qator sifatlari keltiriladi. Chunonchi, asarda pirlar xalqni dunyo tashvishlaridan ko`ra oxiratni o`ylashga, gunoh qilishdan ko`rat oat-ibodatga, hirsdan (nafsga berilish) zuhdga, baxillikdan ko`ra saxiy bo`lishga, kibrdan tavozelikka, g`aflatdan ogohlikka chorlaydigan kishidir.

Asarda qalbning ahamiyati haqida bahs yuritar ekanmiz, qalbni iflos qiladigan odat sifatida ko'p yemoq va ko'p uxlamoq deya uqtiriladi. Mashhur tasavvuf mashoyixlaridan biri Yusuf Hamaoniy ham "Odobi tariqat" asarida ham ko`p uxlash va ko`p yeyish qoralanadi, riyozatning ko`rinishi sifatida kam uxlash va kam yemoqlik e'tirof etiladi. Asarning keyingi o`rinlarida Xoja Abdulxoliq G`ijduvoniyning hikmatli so`zlari keltiriladi: "…Hazrati Xoja Abdulxoliq G`ijduvoniy dedilarki, kimeki uch narsani do`st tutgay uning joyi do`zaxdur. Birinchi-laziz taomlarni yemoqqa haris, ikkinchisi nafis liboslarni kiymoqqa ruju qo`ygan kishi, uchinchisi-faqir-kambag`allar suhbatini pisand etmay,boy-badavlatlar suhbatini orzu etgan kishi. Zero bularning har biri hoy-u havas va nafs murodi ila hosil bo`lur". Ushbu qoida-kkam yeyish va kam uxlashni bugungi kunda jamiyatimiz a'zolarining sog`lom turmush tarzini shakllantirish yo`lida asosiy qoida sifatida qabul qilsak foydadan xoli bo`lmas edi. Xulosa qilib aytganda, "Orifnoma" asari xojagon-naqshbandiya tariqatining eng ezgu g`oyalarini o`zida mujassam etib, insonning komillikka yetishishida asos bo`lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xoja Muhammad Orif ar Revgariy. Orifnoma. Toshkent., "Navro`z". 1994
2. Faxriddin Ali Safiy. Rashahot aynil hayot("Obihayot tomchilari"):tarixiy-ma'rifiy asar/Tabdil qiluvchilar,nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B.Umrzoq. mas'ul moharrir: B.Umrzoq (O`zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti).-T.:Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti,2004.32-b
3. Usmon Turar/. Tasavvuf tarixi. 110-b

TASAVVUF FALSAFASINING MOHIYATI

Karimov Sayimnazar
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori
Qarshiyeva Rayxon Raxmatovna
SamISI MKP-25-1 guruh magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada tasavvuf falsafasining mohiyati, uning shakllanish bosqichlari va islom ma’naviy merosidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tasavvuf ta’limotining asosiy g‘oyalari - insonning ma’naviy kamolotga erishishi, nafsni poklash, ilohiy muhabbat va haqiqatni anglash masalalari yoritib beriladi. Shuningdek, mashhur sufiy mutafakkirlarning qarashlari va ularning jamiyat ma’naviy hayotiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada tasavvuf falsafasining zamonaviy ahamiyati hamda uning inson tarbiyasidagi o‘rni xususida xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, tasavvuf falsafasi, ma’naviyat, kamolot, nafs tarbiyasi, zohidlik, ilohiy muhabbat, haqiqat, irfon, tariqat, ma’rifat, shariat, sufiylik, ruhiy tarbiya, axloq, islom falsafasi.

Tasavvuf ta’limotining vujudga kelishi, taraqqiyoti, asosiy g‘oyalari, xususiyatlari, tariqatlari va ularning ruhiy-ma’naviy asoslari haqida juda ko‘p manba va adabiyotlarda yoritilgan. Lekin tasavvuf ta’imotini o‘rganish bilan shug‘ullangan olimlarning qarashlari bir-biridan farq qilsada, ularda tasavvufning asl mohiyati haqidagi fikrlarida va xulosalarida umumiylik mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Sharqshunos olimlar bo‘lgan V.Bartold va Ye.Bertelslarning tasavvufni diniy-falsafiy ta’limot sifatida talqin qilishlari tasavvufni falsafiy yo‘nalishda o‘rganish uchun katta turtki bo‘ldi. I.M.Mo‘minov, V.Zohidov, M.Baratov, M.M.Xayrullayevlar singari o‘zbek olimlari ham bu fikrlarni qo‘llab-quvvatlab, tasavvufni Sharq xalqlari ma’naviy hayotida eng keng tarqalgan diniy-falsafiy ta’limot sifatida o‘rganish zarurligining nazariy metologik asoslarini yaratib berdilar. Bugungi kunda tasavvuf falsafasini inson ruhiy kamolotining asosi sifatida ham nazariy, ham amaliy asoslarini chuqur o‘rganayotgan faylasuflar jumlasiga o‘zbekistonlik faylasuflardan N.Komilov, S.Karimov, G.Navro‘zova, N.Safarova, R.Shodiyev, J.Xolmo‘minov va b. qozig‘istonlik olimlardan A.K.Kasabekov, J.A.Altayev, K.B.Biysembiyev, M.T.Iovchuk, Nьısanbayev, tojikistonlik faylasuflardan M.Dinorshayev, Sh.Radjabova, turkmanistonlik faylasuflardan G.Charьıyev, S.N.Grigoryan, qirg‘izistonlik faylasuflardan M.S.Junusov, B.Amanaliyev kabi olimlar keng tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Tasavvufning ta’limot sifati o‘rganishning juda murakkabligi haqida ham to‘xtalib, Ibrohim Mo‘minov shunday yozadi: “Sufizm murakkab falsafiy oqimdir. U juda xilma-xil shakllarga, mazmunga va oqimlarga ega”. (Qarang: Mo‘minov I. Tanlangan asarlar. 1-tom. -T.: 1969.-B.34). Tasavvufni falsafiy asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tasavvuf ta’limot sifatida islomgacha ham o‘zining mustahkam ma’naviy-ruhiy asoslariga ega bo‘lgan. Ilmiy izlanishlar sufiylik zohidlik, oriflik, uzlatga ketish, faqru fanoni dunyo farovonligidan afzal bilish, darveshlik, qalandarlik, kambag‘allikni ezgu ne’mat deb hisoblash kabi ma’naviy-ruhiy an’analar hali islomgacha ham ming yillar davomida yashab kelganligi tasdiqlamoqda. Shu bilan birgalikda tasavvuf eramizdan avvalgi II-milodiy IV-VI asrlarda turkiy-buddizm sivilizasiyasi an’anasi sifatida o‘zini kuchli oqim sifatida namayon qila olgan edi. Agar tasavvufning Turkistonda islomgacha rivojlanish holatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, islom davrigacha va ilk islom davrida Turkistonda tasavvuf “Ixvan as-safo”, (X-XI) futuvvat, axiylik, javonmardlik kabi orifiy zohidlik g‘oya va harakatlari asosida tarkib topdi. Shu o‘rinda sharqshunos olim G.E. fon Gryunebaumning ”Klassicheskiy islam ”asarida yozgan ; “... sufiylar o‘z g‘oyalarini futionlardan (ya’ni futuvvatlardan) qabul qilgan” -degan fikrini eslash kifoya.” (Qarang: Gryunebaum G. Klassicheskiy islam. Ocherki istorii. (600-1258)-M.: 1986.-S.183). Sharqshunos Ye.Bertels esa o‘zining “Sufizm i sufiyskaya literatura” asarida IX-XI asrlardagi darveshlar jamoasi hunarmandlar bilan uzviy aloqada bo‘lganligini ta’kidlaydi. (Qarang: Bertels Ye.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. -M.: 1965.-S.21.).

Tasavvuf tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bu ta’limot hijriy ikkinchi asrda ma’lum kishilarning ijtimoiy tuzumdan noroziligini ifodalovchi ta’limot sifatida vujudga kelgan. Chunki bu davrga kelganda Arab xalifaligi Suriya, Iroq, Eron mamlakatlarini egallagan edi. Ijtimoiy hayotdan narozi qatlam sufizm g‘oyalarini o‘zlariga qurol qilib olganlar va o‘z mafkuralariga aylantirganlar. Tasavvufning rivojlanishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Tasavvufning rivojlanish bosqichlari masalasida biz tasavvufshunos olim Sobirjon Ismoilov o‘zining naqshbandiylik jahonshumul tariqat asarida bayon qilgan fikrga qo‘shilamiz.

Tasavvufning rivojlanish davlarini uchga bo‘lish mumkin:

1-davr. Tasavvufning paydo bo‘lish, shakllanish va yoyilish davri. VII-IX asrlar. Zunun Misriy, Sari Saqatiy, Xarroz, Qassob, Abu Sahl Tustariy, Xoris Muxosibiy, Ibrohim ibn Adham, Abu Usmon Makkiy, Junayd Bog‘dodiy. Mansur Xalloj, Boyazid Bistomiy, Abu Said Xaraqoniylar davridir.

2-davr. Tasavvuf va islomning uyg‘unligi davri. X-XI asrlar. G‘azzoliy, Abu Said Mayxoniy, Abdurahmon Sulamiy, Qushayriy, Hujviri yilar davri.

3-davr. Tasavvuf tariqatlarining paydo bo‘lishi va tasavvufning ommalashuv davri. XII-XV asrlar. (Qarang: Sobirjon Ismoilov. Naqshbandiylik jahonshumul tariqat. T.: “Mumtoz so‘z”. 2016. 12-bet).

Davrlarning asosiy xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchi davrda tasavvuf ta’limoti zohidlik va irfoniy ko‘rinishda halq ommasining adolatsizlik va tengsizlikka qarshi harakatlari ziminida namayon bo‘ladi va IX asr oxirigacha davom etadi. Bu davrda so‘fiylarning asosiy maskani bo‘lgan xonaqohlar asosan qishloq joylarda qurilgan va shu davrning oxirgi bosqichlarida shaharlarda ham paydo bo‘la boshlagan. Bu haqda mashhur sharkshunos olim Ye.Bertels shunday yozadi: “Har qalay, mashhur xonaqohlar qishloq joylarda bo‘lsada, ularning katta qismi shaharlarda markazlashgan edi. Ayniqsa, dastlabki davrlarda Kufa, Basra va Bog‘dod, keyinroq Nishopur bu sohada muhim rol o‘ynay boshladi”. Keyinchalik bu ta’limotning tarqalishi Eron va Markaziy Osiyoga ko‘chgan.

Tasavvufning ta’limot sifatida shakllanishining ikkinchi davri islom olamida “hujjatul islom”degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan Imom G‘azzoliy (1158-1111) va ”shayxul akbar” degan buyuk sharafga ega bo‘lgan Ibn al-Arabiy (1165-1240)larning islomiy islohotchilik g‘oyalari bilan bog‘liq. Chunki aynan shu davrda islom bilan tasavvuf o‘rtasidagi munosabatlar yangi pag‘onaga ko‘tarildi. Ular o‘rtasidagi tafovut va kelishmovchiliklar, ziddiyatlarga barham berildi va ana shu missiyani buyuk islomiy islohotchilar bo‘lgan G‘azzoliy va Ibn al-Arabiylar bajardilar. Ular tomonidan amalga oshirilgan islohotlar islom bilan tasavvuf o‘rtasidagi ziddiyatlarga to‘la barham berdi va tasavvuf islomiy manbalar asosidagina mavjud bo‘la olishini isbotlab berdilar va bunda keyingi taraqqiyotlarida faqatgina ijobiy rol o‘ynadi.

Tasavvufning yaxlit ta’limot sifatida to‘liq shakllanishi o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, diniy-irfoniy ta’limotlari zamirida IX asrda ya’ni tasavvuf shakllanishining uchinchi davriga to‘g‘ri keladi. Akademik M.Xayrullayev va tasavvufshunos olim V.Zohidovlarning fikricha, tasavvuf otashparastlik, buddaviylik, qadimgi turkiy Ko‘k Tangri e’tiqodlari, qadimgi yunon falsafa maktabi, nasroniy va eng avvalo, islom zamirida vujudga keldi. (Bu haqda qarang: Iz istorii sufizma: istochniki i sosialnaya praktika. Pod red. Akad. M. Xayrullayeva. T.: 1991. -S.7. Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. -T.: 19760-B.318). Sharqshunos olim S.Grigoryan esa tasavvufni g‘oyalariga hatto moniylik ta’limotining ham ta’siri borligini ta’kidlaydi. Lekin shuni ta’kidlashimiz lozimki, tasavvufning bosh manbai Qur’oni karim va Hadisi shariflardir. Tasavvufning g‘oyaviy asosini murakkab diniy -falsafiy ta’limot bo‘lgan panteizm tashkil qiladi. Panteizmning murakkabligi shundaki, u o‘rta asrlarda G‘arb va Sharq diniy-orifiy ta’limotlarini hamda bid’at va hurfikrlikni qamrab olgan edi. Tasavvufning yaxlit ta’limot sifatida shakllanishiga yuqorida aytganimizdek, islom aqidalari asosiy rol

o‘ynadi. Natijada sharqshunos olim Ye. Bertels ta’kidlaganidek, “IX-X asrlarda yaxlit bir tizimli ta’limotga aylandi”. (Qarang: Sufizm i sufiyskaya literatura.-M.: 1965.-S.39).

Tasavvufni yaxlit ta’limot sifatida talqin qilish uning ontologik, gnoseologik va psixologik jihatlarga ega ekanligidan dalolat beradi. XX asrning oxirlariga kelganda sharqshunos olimlar A.Muhammadxo‘jayev, N.Komilov, M.Hazratqulov singari sharqshunoslar tasavvufning gnoseologik muammolarini tadqiq etishga harakat qilganlar va ijobiy xulosalar berganlar. Sharqshunos olim Ye.Bertelsning fikricha, tasavvufning ontologik asoslarini ahdoniyat-yagongalik; va vahdoniyat-birlik, ya’ni vahdat ul vujud tashkil qiladi.

Tasavvuf tarixini o‘rganar ekanmiz aynan Turkiston o‘lkasi tasavvufning eng keng tarqalgan hududlaridan biri bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz. Turkiston o‘lkasiga esa tasavvuf arab dunyosi va Eron orqali kirib kelgan. Bu fikrlarni biz yirik sharqshunos olimlar bo‘lgan Ye.Bertelsning “Sufizm i sufiyskaya literatura”. (M.: 1965) asarida; Petrushevskiy I. “Islam v Irane v VII-V vv.” asarida (Leningrad, 1966); I. Braginskiyning “Iz istorii persidskoy i tadjikskoy literaturi (M.: 1972) asarida B. Zaxoder. Istoriya vostochnogo srednevekovya. (M.: 1944). Asarida chuqur berilganligining guvohi bo‘lamiz.

Sharqshunoslarning jumladan, Ye Bertels va V.V. Bartoldlarning fikriga ko‘ra, tasavvuf Movarounnahrda XI asrda kirib kelganligini ta’kidlaydilar. O‘zbekistonlik olimlar Mo‘minov I.M. Xayrullayev M.M. va Zoxidov V. va boshqalar tasavvufning Movarounnahrda paydo bo‘lishini otashparastlik va buddaviylikning diniy-irfoniy g‘oya va an’analaridan tashqari islomgacha o‘tgan aziz avliyolarning jumladan, Ibrohim Adham, Bob Farg‘oniy, Abu Bakr Vositiy Farg‘oniylar nomi bilan bog‘laydilar va IX asrdan boshlab diniy-irfoniy dunyoqarash sifatida rivojlanganligini ta’kidlaydilar.

XX asrning oxirgi choragida tasavvuf ta’limotini o‘rganishga bag‘ishlangan tasavvufshunoc olimlar asarlarida ham bu fikrlar qo‘llab-quvvatlangan. Jumladan prof. N.Komilov o‘zining “Tasavvuf yoki komil inson axloqi” (T.: 1996 y); Muhammadxo‘jayev A. O‘zining (Gnesiologiya sufizma. Dushanbe: 1991y); Navro‘zova G. o‘zining (Naqshbandiylik tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi. -T.: 2002); Shodiyev R. o‘zining (Sufizm v duxovnoy jizni narodov Sredney Azii (IX-XIIIvv) doktorlik dissertasiyasida -T.: 1993) hamda Sufizm v duxovnoy jizni narodov Maveraunnaxra (IX-XIIvv.) monografiyalarida batafsil to‘xtalib o‘tishgan.

Tasavvuf falsafasining asosiy xususiyati shundan iboratki. U bir tomondan din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan chambarchas bog‘laganligidadir. Lekin tasavvufni ta’limot sifatida o‘rganish shundan dalolat beradiki, tasavvuf ahli har doim o‘zlarini faylasuflar va din peshvolariga qarama-

qarshi qo‘yib kelgan. Buning sababini so‘fiylar kalom ahli olamning yaratilishi va tuzilishini, insonning paydo bo‘lishi, va mohiyatini zohiran diniy tushuntirishdan nariga o‘tmaslikda ayblagan va shariat ulamolarini “muqallidlar”, ya’ni o‘tganlarga taqlid qiluvchilar deb tanqid qilgan bo‘lsalar, faylasuflarni, jumladan, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Al-Kindiylarni yunon donishmandlari izidan borib, tabiat va jamiyatni tadqiq etishda aql, mantiqiy tahlil, kuzatuv va tajribalar orqali tadqiq etishidan borganliklarini ta’kidlab, dunyoviy-mantiqiy ilm izquvarlari deb tanqid qilganlar. Falsafa tarixi nuqtayi-nazaridan ma’lumki, kalom ilmi tarafdorlari ham faylasuflar ham aqliy mantiqiy ilm, tajriba qilish, va shu asosda bilim to‘plash ustuvor bo‘lgan.

Xulosa qilib shuni alohida ta’kidlash kerakki, tasavvuf hech qachon falsafiy tizimda ta’limot sifatida falsafiy tizim o‘rnini egallashga harakat qilmagan. Aksincha, falsafa tasavvufning mohiyatini ochish uchun unga murojaat qiladi. Shu bilan birga uning o‘zi bir tomondan diniy ikkinchi tomondan falsafiy irfoniy qarashlardan oziqlangan va shu asosda inson ruhiyati, erki, ichki olami va tuyg‘ulari majmuasini ifoda etgan axloqiy nizomlar majmui sifatida Sharq ijtimoiy tafakkur tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. Toshkent, Muharrir nashriyoti, 2009.
2. Paxruddinov Sh. Taraqqiyotga tahdid.: nazariya va amaliyot. Toshkent, Akademiya, 2006.
3. Safarova N. Terrorizm manbalari, maqsadi va globallashuv jarayoni. Toshkent, Fan. 2006.
4. Karimov S. Ijtimoiy taraqqiyot: muammo va yechimlar. Samarqand, “Zarafshon”, 2014.
5. To‘rayev B. Ontologiya, Gnosiologiya, Logika va fan falsafasi muammolari. Toshkent, 2015.
6. Qiyomiddin Nazarov. O‘zbek falsafasi. Toshkent, 2013.
7. Qiyomiddin Nazarov. Falsafa asoslari. Toshkent, 2012.
8. Sinergetika mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo‘lishi. Toshkent, 2017.
9. Falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari. Toshkent, 2010.
10. Inson, uning e’tiqodi, jamiyat, koinot:taraqqiyoti muammolari va hozirgi zamon. Ilmiy-nazariy seminar materiallari. Toshkent, 2015.

ZAMONAVIY TASAVVUF TARIQATLARI VA ULARNING FAOLIYATI

Samatov Xurshid Ulmasjonovich

TATU Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tasavvuf tariqatlarining mohiyati, ularning jamiyatdagi ma’naviy va axloqiy o‘rni hamda bugungi kunda tutgan ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Muallif tasavvufni nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy dunyoda fanatizmga qarshi turuvchi, insonni ruhiy muvozanat va bag‘rikenglikka yetaklovchi ma’naviy manba sifatida tahlil qiladi. Shuningdek, naqshbandiya va yassaviya kabi an’anaviy tariqatlarning zamonaviy tarmoqlari, ularning fan, media va ta’lim bilan integratsiyalashuvi hamda ekstremizmga qarshi kurashdagi oziqlantiruvchi roli ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, tariqat, ma’naviy qayta tug‘ilish, naqshbandiya, yassaviya, ruhiy muvozanat, bag‘rikenglik, eko-sufizm, ishq falsafasi, irfon, ma’rifat.

Kirish. Bugungi kunda tasavvuf - faqat tarixiy hodisa emas, balki ma’naviyat manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. U insonni nafs zulmatidan ruhiy nur sari yetaklaydi, jamiyatda ma’naviy muvozanat, bag‘rikenglik va axloqiy poklikni tiklashga xizmat qiladi. Zamonaviy davrda tasavvuf tariqatlari islom dunyosida ham, G‘arb mamlakatlarida ham qayta o‘rganishga e’tibor berilmoqda. Tasavvufshunos olim N. Komilov ta’kidlaganidek, tasavvuf - bu qalb ilmi bo‘lib, u insonni nafs zulmatidan ruhiy nur sari yetaklaydi.

Tasavvuf ilmi asosida tariqatlar o‘rta asrlarda musulmon dunyosida jamiyatning ma’naviy-ijtimoiy ehtiyojlariga javob sifatida paydo bo‘ldi. Tariqat so‘zi arabcha yo‘l degan ma’noni anglatib, Alloh taolo buyurgan, payg‘ambar alayhissalom yurgan yo‘llardan borib, ahli sunna val jamoa aqidasiga ishonish va amal qilish, Allohga yaqinlashish va Uning roziligiga erishish uchun yurish kerak bo‘lgan yo‘ldir. Shuni ta`kidlash joizki, tariqat yoki so‘fiylik yo`li islom madaniyatining eng qiziqarli va ta’sirchan jihatlaridan birini ifodalaydi. Bu nafaqat diniy hodisa, balki musulmon dunyosidagi odamlarning hayoti va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy institutdir. Tariqat arboblari Qur’on va Hadisga, mazhab va aqidaga tayanib, Allohni tanish, Haq taoloning vasliga yetishish uchun tariqatlarga asos solganlar.

Globallashuv va madaniy transformatsiyalar davrida tasavvuf faqatgina tarixiy-retrospektiv hodisa emas, balki insoniyatni ruhiy-ma’naviy jihatdan yuksaltirishning muhim manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Rumiyning so‘zlari

bugun ham dolzarb ahamityaga ega: “Tasavvuf - muhabbat maktabi, unda nafs emas, muhabbat ustozlik qiladi”.

Hozirgi kunda ilmiy tadqiqotchilar zamonaviy tasavvuf harakatlarini quyidagi jihatlar orqali tasniflashmoqda: **ilmiy-ma’rifiy yo‘nalish** - tasavvuf endi faqat zikr va ibodat emas, balki falsafa, psixologiya va axloqshunoslik bilan bog‘liq ilmiy tizim sifatida o‘rganilmoqda. **Jamiyat bilan muloqot** - tariqatlar yoshlar, xotin-qizlar, va keng xalq ommasi bilan ma’naviy tarbiya ishlarini olib bormoqda. **Internet va media orqali tasavvufni targ`ibot qilish** - ayrim shayx va tariqatlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’rifiy targ‘ibotni amalga oshirmoqda. G‘arbda ham tasavvuf falsafasiga qiziqish kuchaygan. Jumladan, Rumiy, Ibn Arabiy, Hofiz va Attor asarlari tarjima qilinib, universitetlarda o‘qitilmoqda. Tasavvufning sof axloqiy missiyasi va g`oyalaridan diniy ekstremizm va zo‘ravonlikka qarshi kurashda foydalanish mumkinligi haqidagi takliflar ilgari surilmoqda. Jumladan, tariqatlar insonni halollik, sabr, kamtarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarga o‘rgatadi. Bu jihat ayniqsa yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Allohni zikr qilish, tafakkur, murshid ko‘rsatmalariga amal qilish orqali ichki poklanish jarayoni amalga oshiriladi. Tariqatlar jamiyatda tinchlik, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ular ekstremizmga qarshi ma’naviy immunitetni kuchaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ziyoratgohlar, mutasavvuf allomalar merosi, adabiyot va tasavvufiy asarlar orqali milliy va diniy qadriyatlar avlodlarga yetkaziladi.

Bugungi kunda zamonaviy tariqatlar xalqaro darajada ham faol bo‘lib, turli mamlakatlarda muridlar tarmog‘ini shakllantirgan, konferensiyalar, ma’rifiy dasturlar orqali tasavvuf g‘oyalarini targ‘ib qilmoqda. Tarixan ma`lumki, Markaziy Osiyoda tasavvuf maktablari ildiz jihatdan ilk suluk silsilasi - Yusuf Hamadoniy merosiga borib taqaladi. Uning ikki buyuk shogirdi - Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Ahmad Yassaviy asos solgan ikki yo‘nalish - bugungi kunda ham o‘z hayotiyligini saqlab kelmoqda. Naqshbandiya tariqati - eng keng tarqalgan, dunyoda 40 dan ziyod mamlakatda faolligi kuzatiladi. Zamonaviy tarmoqlari: xolidiya (Turkiya, Iroq, Suriyada faol); mujaddidiya (Hindiston, Pokiston va Markaziy Osiyoda); haqqoniya (G‘arb mamlakatlarida faol, irfonni global targ‘ib qiluvchi tarmoq). Yassaviya tariqati esa Turkiston, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkiyada keng tarqalgan. Asosiy yo‘nalishi - xalq ichida ma’rifat tarqatish, islom axloqini turkiy madaniyat bilan uyg‘unlashtirish. Hozirda yassaviya tariqati turkiy davlatlar orasida madaniy yaqinlik ramziga aylangan. Bu tariqatlar har biri o‘ziga xos uslubda inson qalbini poklash va Allohga yaqinlashtirish yo‘lida harakat qiladi.

Umuman olganda, tasavvuf bugungi inson uchun ruhiy terapiya (stress va ruhiy bosimga qarshi ma’naviy davo), axloqiy me’yor tizimi (haqiqat, sabr, shukr, muhabbat), ma`naviy o‘zlikni anglash vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ibn Arabiy

ta’kidlaganidek: “Haqiqat har zamonda yangilanadi, ammo uni his etish uchun qalb tirik bo‘lishi kerak”. Zamonaviy tasavvuf tariqatlari - islom ma’rifatining yangi bosqichidir. Ular an’anaviy irfonni saqlagan holda, bugungi zamonning ehtiyojlariga mos faoliyat yuritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: “Ўзбекистон”, 2021.
2. Samatov X.U. Tasavvuf falsafasi va zamonaviylik // TATU Samarqand filiali axborotnomasi. - 2023.
3. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. - М.: “Алетейа”, 2000.
4. Trimingham J. S. The Sufi Orders in Islam. - Oxford University Press, 1998.
5. Комилов Н. Тасаввуф. - Т.: “Movarounnahr”, 2009.
6. Румий Ж. Маснавийи маънавий. - Т.: “Yangi asr avlodi”, 2010.

KALOM VA TASAVVUF ONTOLOGIYASI: TRANSSENDENTLIK VA IMMANENTLIK DIALEKTIKASI

Qodirov Davronbek Hoshimovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc),
E-mail: deviekhan@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada X-XI asrlar islom falsafiy tafakkuridagi o‘zgarishlar, xususan, Sharq peripatetizmidan kalom va tasavvufga o‘tish jarayonlari tahlil qilingan. Inson erkinligi, “kasb” nazariyasi va “Vujud” (ekstatik borliq) tushunchalarining falsafiy mohiyati ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan.

Kalit so‘zlar: kalom ilmi, rasional teologiya, mo‘taziliylik, erkin iroda va ilohiy adolat, Transsendentlik va Immanentlik.

E’tibor beradigan bo‘lsak, Sharq peripatetiklarining asarlarida X asrda utopik qarashlar asosida davlatni qurish va tuzilmasini shakllantirishni ko‘rishimiz mumkin. Bir asrdan so‘ng jamiyat ma’naviy, ijtimoiy va siyosiy inqirozdan qutulishning chorasini teologik diskurs va tasavvufni rivojlantirishda topadi. Mutakallimlar o‘z navbatida tobora ommaviy maydonga kirib boradi. Ash’ariylarning jamiyatdagi roli ham aynan ularning hokimiyat tomonidan ta’qibga uchrab, siyosiy kurashda ishtirok etishga majbur bo‘lishlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, kalom maktabining ko‘plab vakillari jamiyatning huquqiy hayotida bevosita va faol ishtirok etadigan ko‘zga ko‘ringan faqihlari bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

So‘nggi kalom maktabi vakillari sanaladigan ash’ariylarning qarashlari o‘zlaridan oldingi mo‘taziliylarning qarashlaridan farq qilib, so‘fiylarga yaqin bo‘lgan. Rossiyalik tadqiqotchi A.V.Smirnovning fikricha, avvalo, barcha kalom maktablari uchun majburiy bo‘lgan bir qator tamoyillarni ko‘rsatib o‘tish lozim[1]. Ushbu tamoyillar aynan tavhid, ilohiy adolat, yaxshi va yomon amallar uchun ajr, ya’ni mo‘min va kofirlarning teng hukm qilinishi, gunoh masalasida “mo‘tadil” bo‘lish, yaxshi amallarni bajarishning farz ekanligi hisoblanadi. Umuman olganda, mutakallimlar ta’limotining asosiy boshlanish nuqtasi shubha ostiga olinmagan va aksioma sifatida qabul qilingan asosiy diniy aqidalarni rasional tushunish zarurati edi. Bu asosiy qoidalar Xudoning yagonaligi va birligi hamda yaratilgan olamning kasrati va Unga bog‘liqligi edi. A.V.Smirnov bu qoidalarni o‘rta asr musulmon falsafiy paradigmasining asosiy belgilari deb ataydi[2].

Ilk mutakallimlar sanalgan mo‘taziliylarga kelsak, A.Korbenning fikricha, ularning ta’limoti Xudoning mutlaq birligi va transsendentligi, insonning individual erkinligiga asoslanib, bu esa inson o‘z xatti-harakatlari uchun zaruriy javobgar ekanligini tushuntiradi[3]. Biroq, Xudoning mutlaq transsendentligi masalasi Xudoning olamga nisbatan immanentligi haqida gapiradigan bir qator Qur’on suralariga yaqqol zid edi. Misol tariqasida, Xudo insonga “uning bo‘yin tomiridan ko‘ra yaqinroqdir” (Qur’on, 50:16) degan oyatlarni keltirish mumkin. Bu esa dunyoda hech bir narsa Xudoning ishtirokisiz sodir bo‘lmaydi degan ma’noni anglatadi. Bu qarama-qarshilik mo‘taziliylar tomonidan shunday hal qilinadi - “transsendentlik ular tomonidan ontologik jihatdan, immanentlik esa bilim va iroda sohasida tasavvur qilinadi”[4]. Shunday qilib, Xudoning olamga nisbatan transsendentligi va immanentligi muammosi dastlabki bosqichdayoq mutakallimlar ta’limotida markaziy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, undan bu masalada mutakallimlar doirasida qizg‘in bahs-munozaralar olib borilishiga sabab bo‘lgan yanada torroq savollar tug‘iladi. Buning natijasida esa kalom ilmining ash’ariylik maktabi paydo bo‘ladi. Bular orasida erkinlik va zaruratni tushunish, qazo-qadar va bilim, vahdat va kasrat kabi masalalar o‘rin egallaydi.

Xudoning olamga nisbatan transsendentligi va immanentligi masalasi kalomda asosiy bahs mavzusi bo‘lib, Xudo olamni erkin iroda faoliyatida yaratgani uchun olamga nisbatan transsendentdir. Shu bilan birga, Xudo olamga hukmron, uni boshqaradi, ilohiy inoyatni amalga oshiradi va harakat olamida zuhr etadi. Shuning

1 Смирнов А.В. Великий шейх суфизма (опыт парадигмального анализа философии Ибн Араби). – Москва, 1993. – С. 14.
2Смирнов А.В. Великий шейх суфизма (опыт парадигмального анализа философии Ибн Араби). – Москва, 1993. – С. 14.
3 Corbin H. Histoire de la philosophie islamique. – Paris, 1964. – P. 13.
4Corbin H. Histoire de la philosophie islamique. – Paris, 1964. – P. 13.

uchun u olamga nisbatan immanentendir. Bunda Mutlaq (Xudo) butun borliqning manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday qarash esa kalomni tasavvuf bilan yaqinlashtiradi. Shuning uchun Qushayriyning kalomga bo‘lgan qiziqishi uning tasavvuf ta’limotiga nisbatan moyilligiga zarracha zid bo‘lmay, aksincha, muammoni turli tomonlardan ko‘rish va uning yechimini topishda turli usullardan foydalanish imkonini beradi. Shu tufayli rasional va tasavvufiy bilimlar Qushayriy qarashlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular mutafakkir hayotida muhim o‘rin egallagan ikki diniy-falsafiy oqim, ya’ni ash’ariy va mo‘taziliylar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni aks ettiradi.

Shuning uchun ash’ariylar bilan mo‘taziliylar o‘rtasidagi ixtilofga sabab bo‘lgan masalalardan asosiylarini ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Abulhasan Ali ibn Ismoil al-Ash’ariy (873-976 yy.) ta’limotining asosiy xususiyatlaridan biri bu insonda iroda erkinligini inkor etish hisoblanadi[1]. Ash’ariy fatalizm bilan iroda erkinligi ta’limoti o‘rtasida “oltin oraliqni”ni topishga intilib, ilohiy adolatni birinchi o‘ringa qo‘ygan mo‘taziliylardan farqli ravishda Xudoning qudrati va qodirligini mustahkamlash hamda tasdiqlashga harakat qilgan.

Ash’ariylar insonning barcha amallari insonning ixtiyoridan emas, balki Xudodan bo‘lib, inson faqat ularni kasb etadi (o‘zlashtiradi) deb uqtirganlar. Shunday qilib, ash’ariylar fikriga ko‘ra, Allohning irodasi bilan inson tomonidan fikr qilinadigan va bajariladigan amallarning birlashishi ro‘y beradi. Insonning o‘zi esa kasbga ta’sir o‘tkaza olmaydi. Ash’ariylar tomonidan Xudoning mutlaq erkinligini tan olinishi sababiyatni inkor etishga o‘tadi. O‘rta asr yahudiy faylasufi Moshe Maymonidning (1135-1204 yy.) xatti-harakati tufayli musulmon faylasuflarining ko‘plab asarlari lotin tiliga tarjima qilinadi. U ash’ariylarning qarashlarini tavsiflar ekan, ularning ta’limotiga ko‘ra, “shunday bo‘lishi mumkinki, qachondir kelib yer shari aylanib turuvchi osmon sferasiga aylanadi, osmon sferasi esa yer shari o‘rnini egallaydi, pashsha filchalik katta bo‘ladi, fil esa pashshadek bo‘ladi, odam tog‘dek ulkan va ko‘p boshlarga ega bo‘lib, osmonda parvoz qilib yuradi”[2] deb aytadi.

Ta’kidlash joizki, arab tilida “ekstatik borliq” - vujud atamasi kamida ikkita ma’noga ega: birinchisi, “biror narsaning topilishi, aniqlanishi”[3] deb tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan so‘z, ikkinchisi esa “borliq” deganidir. Shundan kelib chiqib, Xudoni “topish, aniqlash” tushunchasi bilan “haqiqiy borliq” tushunchasi bir-biriga teng bo‘ladi. Bu Qushayriy keltirgan quyidagi misralardagi so‘z o‘yinidan ma’lum bo‘ladi:

1Corbin H. Histoire de la philosophie islamique. – Paris, 1964. – P. 14.

2 Маймонид М. Путеводитель колеблющихся / Григорян С. Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. – Москва, 1960. –С. 299-300.

3https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar/ تعريف و معنى وجود في معجم المعاني الجامع - معجم عربي

وجودى ان اغيب عن الوجود
بما يبدو على من الشهود

“Mening (Xudoni) topishim (vujud) o‘z borlig‘imdan (vujudimdan) kechishimdadir, Va bu menga zohir bo‘lgan ko‘rinish (shuhud) sababidandir”[1].

Bu yerda tasavvuf ontologiyasining eng muhim jihati, ya’ni inson muammosi, Absolyutning cheksiz borlig‘i bilan cheklangan, kasratli borliqning uchrashish joyi kabi muammo kuzatiladi. Bir necha asrlardan keyin Ibn Arabiy ushbu muammoni o‘rganishga o‘zini bag‘ishlab, o‘zining mashhur vahdat ul-vujud - “borliqning birligi” konsepsiyasini yaratdi.

Qushayriy talqinidagi atamalarga qaytadigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash kerakki, ekstatik borliq - vujud sohibi tasavvuf ilmining eng yuqori ontologik darajasiga - Haqiqat daliliga erishadi. U Ilohiy shohidlik oldida qad rostlab, unga bir vaqtning o‘zida ham hushyorlik - sahv, ham yo‘qolib ketish - mahv xos bo‘ladi. So‘fiy sahv - hushyorlik holida Haqning ichida bo‘ladi, mahv holida esa Unda halok bo‘ladi. Bu hollar doimo bir-biri bilan o‘rin almashib turadi. Bunda Qushayriy Junayd Bag‘dodiy ta’limotining maslakdoshi va izdoshi sifatida namoyon bo‘ladi. R.Xartmann ham Junaydni tasavvufda Qushayriyning silsilaviy vorislik zanjirining birinchi bo‘g‘inlaridan biri ekanligini ko‘rsatib o‘tadi[2]. Muallif “Risola”da Junayd Bag‘dodiy tomonidan ishlab chiqilgan Xudoga ekstatik g‘arq bo‘lish, so‘ng esa dunyoga qaytish dialektikasi kuzatiladi. Bu “o‘z-o‘zini yo‘q qilish” - fano holida va undan keyin keladigan “Xudoda bo‘lish” - baqo holida aks etadi. Baqo holida so‘fiy fano holida olgan Ilohiy ilmlarni boshqalarga yetkazishga intiladi. Bu holda insonning “menligi” Ilohiy haqiqatga shohid bo‘lish jarayonida butunlay yo‘qoladi, bu esa so‘fiyni Haq bilan to‘liq birlashishiga olib keladi.

Islom falsafasi tarixini o‘rganishda kalom maktablari,xususan, ash’ariylik va tasavvufiy ontologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni faqatgina ixtiloflar prizmasi orqali emas, balki ularning transsendentlik-immanentlik dialektikasidagi konseptual yaqinlashuvi nuqtayi nazaridan tadqiq etish lozim. Xususan, Qushayriy merosida ash’ariyona rasionalizmning irfoniy tajriba bilan sintezlanishi, keyinchalik Ibn Arabiyning “vahdat ul-vujud” konsepsiyasi uchun fundamental zamin vazifasini o‘taganini inobatga olgan holda, o‘rta asrlar Sharq falsafiy paradigmasini yaxlit bir ontologik tizim sifatida qayta baholash va zamonaviy falsafiy diskursga “vujud” hamda “shuhud” kabi kategoriyalarning yangi talqinlarini olib kirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Смирнов А.В. Великий шейх суфизма (опыт парадигмального анализа философии Ибн Араби). - Москва, 1993. - С. 14.

1 ابو القاسم القشيري. الرسالة القشيرية.القاهرة، دار الشعب، 1989.-142 ص

2 Hartmann R. Al-Kuschairis Darstellung des Sufitums Mit Uebersetzungs. Beilage und Indices. - B., 1914.

2. Corbin H. Histoire de la philosophie islamique. - Paris, 1964. - P. 14.
3. Маймонид М. Путеводитель колеблющихся / Григорян С. Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. - Москва, 1960. - С. 299-300.
4. https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar/ - تعريف و معنى وجود في معجم المعاني الجامع معجم عربي
5. ابو القاسم القشيري. الرسالة القشيرية.القاهرة، دار الشعب، 1989.-142 ص
6. Hartmann R. Al-Kuschairis Darstellung des Sufitums Mit Uebersetzungs. Beilage und Indices. - B., 1914.

MIRZO ULUG‘BEK MAKTABIDA FANLAR INTEGRATSIYASI

Hamdamov Islom Akramovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, falsafa doktori (PhD)
E-mail: hamdamovislom79@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mirzo Ulug‘bek davrida fanlar integratsiyasining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tarixiy-ilmiy manbalar asosida tadqiq etilgan. Temuriylar davrida ilm-fanning taraqqiy etishida astronomiya, matematika, geometriya, geografiya va falsafa kabi fanlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi hamda ilmiy tadqiqotlar jarayonidagi integrativ yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, Mirzo Ulug‘bek rahnamoligida tashkil etilgan Samarqand rasadxonasi faoliyati, unda olib borilgan kuzatishlar va yaratilgan ilmiy asarlar misolida fanlararo hamkorlikning ilmiy natijalarga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, Mirzo Ulug‘bek, fanlar integratsiyasi, ilmiy maktab, astronomiya, matematika, geometriya, geografiya, Samarqand rasadxonasi, ilmiy meros, fanlararo aloqadorlik, integrativ yondashuv, Sharq uyg‘onish davri, ilmiy tadqiqotlar.

Mirzo Ulug‘bek ilmiy maktabi Sharq Uyg‘onish davrining eng yirik ilmiy-ma’naviy markazlaridan biri sifatida jahon ilm-fani taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu maktabda astronomiya, matematika, falsafa, geografiya va boshqa aniq hamda tabiiy fanlarning o‘zaro uyg‘un holda rivojlanishi ilmiy tafakkurning yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, ilmiy kuzatuv, mantiqiy tahlil va tajribaga asoslangan yondashuv Mirzo Ulug‘bek maktabining asosiy ilmiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va fanlararo integratsiya kuchayib borayotgan davrda Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosini o‘rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Chunki zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti ham turli fanlarning o‘zaro bog‘liqligi va kompleks yondashuv asosida rivojlanmoqda. Shu jihatdan Mirzo Ulug‘bek maktabidagi ilmiy tafakkur va fanlar integratsiyasi tajribasi bugungi ta’lim va ilmiy

tadqiqotlar uchun muhim hisoblanadi. Mirzo Ulug‘bek tomonidan Samarqandda tashkil etilgan madrasa, rasadxona va uning atrofida shakllangan matematika hamda astronomiya maktabi nafaqat Sharq uyg‘onish davrining yirik ilmiy markazi, balki jahon ilm-fani va musulmon olami falsafasi tarixida chuqur iz qoldirgan noyob ma’rifiy maskan hisoblanadi. Ushbu ilmiy muhitda aniq va tabiiy fanlarning o‘zaro uyg‘un rivojlanishi ilmiy tafakkurning yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilgan. Samarqand Oliy maktabi o‘z davrining haqiqiy akademiyasi sifatida matematika, astronomiya, falsafa, mantiq va tabiiy fanlarga oid bilimlarni jamlash, ularni ilmiy tahlil qilish hamda ilm ahli orasida keng yoyishga xizmat qilgan. Mazkur ilmiy muhitda qadimgi va o‘rta asr ilmiy merosi qayta mushohada qilinib, nazariy bilim bilan amaliy kuzatuv uyg‘unlashtirildi. Ayniqsa, rasadxona faoliyati orqali osmon jismlarini ilmiy kuzatish, matematik hisob-kitoblar asosida borliq qonuniyatlarini anglashga intilish inson tafakkurining ratsional va falsafiy yo‘nalishini yanada boyitdi.

Mirzo Ulug‘bek maktabida ilmiy haqiqatga erishishda kuzatuv, tajriba va mantiqiy tafakkurga tayanish tamoyili ustuvor bo‘lib, bu holat Sharq ilmiy-falsafiy tafakkurining yangi bosqichini yuzaga keltirdi. Natijada Samarqand ilmiy muhiti jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib, keyingi davr ilm-fani rivoji uchun mustahkam nazariy asos yaratdi. Mirzo Ulug‘bek maktabida shakllangan ilmiy qarashlar inson ongini rivojlantirish, ilmiy ko‘nikmalarni shakllantirish, tajriba va kuzatuvga asoslangan tafakkurni qaror toptirish orqali bugungi ilm-fan taraqqiyoti uchun ham muhim metodologik asos vazifasini o‘tamoqda. Mazkur ilmiy muhitning o‘ziga xos jihati shundaki, unda nazariy bilim va amaliy tadqiqot o‘zaro uyg‘un holda rivojlantirilgan. Ayniqsa, matematika va falakiyotshunoslik sohalarida olib borilgan kuzatuvlar ilmiy tafakkurning ratsional xususiyatini kuchaytirib, borliq, vaqt va fazo haqidagi falsafiy qarashlarning yanada chuqurlashuviga xizmat qilgan. Shu jihatdan Samarqand ilmiy maktabi o‘tmish va zamonaviy ilm-fan o‘rtasidagi ilmiy vorisiylikni ta’minlagan noyob markaz sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z davri uchun yangi ilmiy kashfiyotlarni yaratibgina qolmay, keyingi avlodlar uchun ham mustahkam ma’naviy va nazariy meros qoldirdi.

Tarixiy jihatdan qaralganda, Samarqand astronomiya maktabi o‘zidan qariyb bir yarim asr avval tashkil etilgan Nasiriddin Tusi tomonidan asos solingan Marog‘a rasadxonasi ilmiy an’analari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli Samarqand va Marog‘a ilmiy maktablarini qiyosiy o‘rganish Sharq astronomiyasi va ilmiy tafakkuri taraqqiyotidagi vorisiylik masalasini yoritishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Fakhr al-Din al-Razi ning ratsional ilohiyotga oid qarashlari ham Samarqand ilmiy muhitida borliq, vaqt va fazo haqidagi ilmiy-falsafiy tafakkurning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, matematika, astronomiya va optika fanlarini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish tamoyili ilmiy

tafakkurning kompleks va integrativ xususiyatini kuchaytirgan. Bu esa Mirzo Ulug‘bek ilmiy maktabining Sharqdagi ratsional va falsafiy tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Yangi astronomik bilimlar, ilmiy atamalar va yangicha tafakkur usullarining shakllanishida Ali Qushchining “Zij”ga yozgan sharhlari hamda Nasiriddin Tusiyning ilmiy-falsafiy qarashlari muhim o‘rin egalladi. Xususan, Tusiyning “Sharh al-jadid” asarida jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangilikning yuzaga kelishi, ilmiy tafakkurning uzviy rivojlanishi va bilish jarayonining ratsional asoslari haqidagi g‘oyalar yanada takomillashtirildi. Bu esa Sharq ilmiy tafakkurida ilmning, tadrijiy rivojlanish tamoyillarini shakllantirishga xizmat qildi.

Ta’kidlash joizki, Samarqand rasadxonasining bunyod etilishi va unda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Marog‘a rasadxonasining ilg‘or ilmiy tajribalaridan keng foydalanilgan. Ayniqsa, astronomik kuzatuv usullari, ilmiy hisob-kitoblar, matematik modellar va ilgari olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish jarayoni Samarqand ilmiy maktabining rivojlanishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu tariqa, Marog‘a va Samarqand rasadxonalari o‘rtasida ilmiy vorisiylik va intellektual uyg‘unlik yuzaga kelgan. Astronomiya va matematika sohalarida ilmiy nuqtayi nazarning kuchayishi nafaqat yangi bilimlarning rivojlanishiga turtki berdi, balki ilmiy munozaralar va epistemologik qarashlarning kengayishiga ham sabab bo‘ldi. Natijada ilmiy bilishning mohiyati, haqiqat mezonlari va tajribaning o‘rni haqida chuqur ilmiy-falsafiy izlanishlar olib borildi. Bu esa keyinchalik aniq va tabiiy fanlarning yanada taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Shuningdek, Marog‘a va Samarqand ilmiy maktablarida olib borilgan astronomik kuzatuv va tajribalarda matematika tafakkur va ilmiy fikrlashning asosiy metodologik vositasi sifatida talqin qilindi. Matematikani natural falsafa bilan o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish, ilmiy dalillarga asoslangan isbot va mantiqiy tahlil usullarini qo‘llash Sharq ilmiy tafakkurining ratsional xususiyatini kuchaytirdi. Ayniqsa, matematik aniqlikning teologik va falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashuvi ilmiy tafakkurning yangi uslubini shakllantirib, matematik falsafaning o‘ziga xos nazariy asoslarini rivojlantirdi. Ushbu jarayon, Mirzo Ulug‘bek asos solgan Samarqand ilmiy-astronomik maktabida matematika fanining eng yuqori taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan davr bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu davrda algoritmik tafakkur, matematik hisoblash usullari hamda murakkab hisoblash mexanizmlarning rivojlanishi ilmiy tafakkurning yangi sifat bosqichini yuzaga keltirdi. Natijada matematika borliqni anglashning universal ratsional usuli sifatida shakllandi. Jumladan, Jamshid al-Koshining “Miftoh al-hisob” asari, unda π soni va sinus qiymatlarini aniqlashning yangi algebraik usullarining ishlab chiqilishi, Qozizoda Rumiyning ilmiy sharhlari, Mirzo Ulug‘bek ning “Zij” asari hamda Ali Qushchining o‘nli kasrlar tizimiga oid qarashlari ushbu davr ilm-fanining nazariy va amaliy yutuqlari sifatida alohida

ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Ali Qushchi tomonidan matematik hisoblash tizimining takomillashtirilishi keyingi davr matematik tafakkurining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur ilmiy yangiliklar uzoq vaqt davomida ta’lim tizimida qo‘llanilib, Sharq va G‘arb ilmiy tafakkuri o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shuningdek, Samarqand ilmiy maktabida rivojlangan o‘nli kasrlar tizimi Vizantiya va Yevropa matematiklari tomonidan “turk kasrlari” nomi bilan tanilgan va XVI asrdan boshlab Yevropa matematika fanining taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa Temuriylar davri ilmiy merosining jahon ilm-fani tarixidagi o‘rnini yanada yaqqol namoyon etadi. Endilikda son faqat miqdoriy emas, balki funksional va semantik qiymatga ega ratsional tushuncha sifatida qarala boshlandi. Ushbu yondashuv inson tafakkurining hisoblash va tizimlashtirish qobiliyatiga asoslangan bo‘lib, Jamshid Koshiy hamda Ali Qushchi ilmiy qarashlarida chuqur ifodalangan. Ularning fikricha, “bir” tushunchasi barcha sonlar tizimining asosiy negizi bo‘lib, mavjud borliqni matematik tasniflash va raqamlashtirish imkonini beradi.

Mazkur qarashlar zamonaviy kompyuter texnologiyalari, axborot tizimlari va raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari bilan hamohang ekanligi alohida e’tiborga loyiqdir. Shu jihatdan Samarqand ilmiy maktabida shakllangan matematik tafakkur bugungi raqamli tamaddunning muhim ilmiy ildizlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Bundan tashqari, Ali Qushchi ning “al-Muhammadiy al-hisob” hamda Jamshid al-Koshiyning “Miftoh al-hisob” asarlarida matematik terminologiyaning yangi tizimi shakllantirilgan. Jumladan, “musbat”, “manfiy”, “zaid” kabi matematik atamalar ilmiy muomalaga kiritilib, keyinchalik arab, fors, turkiy va Yevropa ilmiy an’analarida keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu terminlarning ayrimlari lotin tiliga moslashtirilib, Yevropa matematika fanining rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Manbalarda Ali Qushchi tomonidan qo‘llangan ayrim matematik atamalardan xitoy matematiklari ham foydalangani haqidagi ma’lumotlar uchrashi esa Samarqand ilmiy maktabining xalqaro ilmiy-tafakkur maydonidagi ta’sir doirasi nihoyatda keng bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand ilmiy maktabi Sharq uyg‘onish davrining eng yirik intellektual markazlaridan biri sifatida matematika, astronomiya va falsafiy tafakkurning integratsiyalashuviga ulkan hissa qo‘shdi. Ushbu maktabda shakllangan ratsional va ilmiy tafakkur usullari nafaqat o‘z davri ilm-fanining taraqqiyotini belgilab berdi, balki keyingi asrlarda Yevropa va Osiyo ilmiy an’analarining rivojiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, matematik tafakkurning tizimlashuvi, ilmiy terminologiyaning shakllanishi va hisoblash madaniyatining rivojlanishi bugungi raqamli texnologiyalar va zamonaviy ilmiy dunyoqarashning tarixiy-falsafiy asoslarini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзо Улуғбек. Илму нужум. Таржимон ва изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.
2. Мирзо Улуғбек. Муҳаммад Тарағай. Зижи жадиди Кўрагоний. Янги Кўрагоний астрономик жадваллар. Кириш сўзи, таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи А. Аҳмедов.-Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 1994.
3. Абдураҳмонов А. Улуғбек академияси. - Тошкент, 1994.
4. Аҳмедов А. Мирзо Улуғбек. Муҳаммад Тарағай. - Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
5. Аҳмедов А. Улуғбек. - Тошкент: Фан, 2005.
6. Конрад Н.И. Запад и Восток. - Москва: Наука, 1966.

TEMURIYLAR HARBIY TAFAKKURIDA STRATEGIYA VA MA’NAVIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

Alimov Akbar Narboyevich,
Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Amir Temur o‘rta asrlar tarixida buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda va yuksak harbiy tafakkur sohibi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning faoliyati nafaqat kuchli markazlashgan davlat barpo etish, balki harbiy strategiya va ma’naviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali jamiyat barqarorligini ta’minlash bilan ham ahamiyatlidir. XIV asrda Movarounnahr hududida harbiy san’atning yangi bosqichga ko‘tarilishi bevosita Amir Temur nomi va uning siyosiy-harbiy faoliyati bilan bog‘liqdir. Temuriylar harbiy tafakkurining asosini qat’iy intizom, adolat, vatanparvarlik va strategik tafakkur tashkil etgan. Amir Temur qo‘shini o‘z davri uchun mukammal tashkiliy tuzilma, murakkab jangovar saf tizimi hamda ilg‘or qurol-aslahalar bilan ajralib turgan.

Kalit so‘zlar: davlat arbobi, siyosiy-harbiy faoliyat, o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanlar.

Harbiy tizimning o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga bo‘linishi qo‘shin boshqaruvining aniq va samarali yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi. Bu esa strategik rejalashtirish bilan bir qatorda harbiy intizom va sadoqat kabi ma’naviy qadriyatlarga ham tayanilganini ko‘rsatadi. Amir Temurning 35 yillik hukmronligi davomida Hindistondan Bosforgacha cho‘zilgan ulkan saltanatning barpo etilishi uning yuksak strategik tafakkuri va davlat boshqaruvi borasidagi noyob salohiyatini

namoyon etadi. Sohibqiron tomonidan yaratilgan “Temur tuzuklari” asari esa temuriylar davri harbiy san’atining nafaqat amaliy, balki ma’naviy-falsafiy asoslarini ham yoritib beradi. Ushbu manbada qo‘shin tuzilishi, jangovar taktika, lashkarni boshqarish usullari bilan birga, sarkarda va askarlarga xos bo‘lishi zarur bo‘lgan axloqiy fazilatlar - jasorat, sadoqat, mardlik va adolat tamoyillari alohida ta’kidlangan. Temuriylar harbiy tafakkurida strategiya faqat g‘alabaga erishish vositasi emas, balki davlat qudratini mustahkamlash, xalq osoyishtaligini ta’minlash va ma’naviy birlikni qaror toptirish omili sifatida talqin etilgan. Shu bois Amir Temur faoliyatida harbiy salohiyat bilan ma’naviy qadriyatlarning uyg‘unligi temuriylar davri davlatchiligi va harbiy san’atining asosiy mezonlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Harbiy qismlar qurol-aslaha, kiyim, bayroqlarning rangi otlarning tusiga qarab farqlangan. Armiya otliq va piyodalardan iborat bo‘lgan. Otliq qo‘shin engil va og‘ir qurollangan. Og‘ir qurollangan otliqlar sara jangchilar va zodagonlarning vakillaridan iborat edi. Amir Temurning harbiy ish sohasidagi katta xizmati otliq qism (kunbul, kumbul)ni tuzganligida edi. Ushbu qismning vazifasi qanotlarni himoya qilish, dushman qanotlarini aylanib o‘tib, orqadan zarba berish bo‘lgan.

Yurishga chiqqan har bir oddiy otliq jangchi kamon, o‘q solingan sadoq, shamshir yoki uzun qilich, arra, bigiz, igna, arqon, bolta, o‘q uchun 10 ta paykon, qop, suv uchun mesh va ikki ot bilan ta’minlangan. Har 18 nafar askarning bir chodiri bo‘lishi shart edi. Og‘ir otliqlar dubulg‘a, sovut, shamshir, kamon va o‘q bilan qurollanishgan. Ularning har biriga 2 ot, har 5 kishiga bir chodir ajratilgan edi. Bundan tashqari, gurzi, oybolta (tabar), qilich bilan qurollangan jangchilarning maxsus otryadlari bo‘lgan. Har bir o‘n boshining o‘z chodiri va 5 oti bo‘lishi lozim edi, u sovut, shamshir va o‘q-yoylar bilan qurollangan. Yuzboshi 10 ta ot, chodir, qurol-yarog‘dan shamshir, kamon, o‘q, cho‘qmor, gurzi, sovut bilan safarga chiqishi shart edi. Mingboshilar qurol-yarog‘ zahirasiga ega bo‘lishgan1.

Amir Temur davrida Samarqand O‘rta Osiyoda qurol-yarog‘ ishlab chiqarish markaziga aylandi. Samarqand qurolsozlari yasagan buyumlar Temuriylar davlati hududlaridan tashqarida, olis xorijiy yurtlarda ham ma’lumu mashhur edi. Manbalarda nayza, o‘q-yoy, arbalet (otish quroli), qilich, shamshir, xanjar, sovut, zirh, qalqon, tirsakbon va tizzabandlar, turli dubulg‘alar qayd etilgan. Qo‘shinning asosiy turlari - piyoda va otliq qismlardan tashqari, kema yasash va ko‘priklar qurish mutaxassislari solchilar va kemachilar, ra’dandozlar qamal qurollari va manjaniqlarni ishlatadigan bo‘lgan.

Qal'alarni egallash uchun qo‘llangan deyarli barcha usullar Amir Temurga ma’lum bo‘lgan. Boyazidga qarshi jangda u fillardan foydalangan, fil ustiga

1 Ўзбекистон тарихи. 1 том. Биринчи китоб. - Т., “Фан”, 1956. - 363 б.

o‘rnashib olgan jangchilar dushmanni o‘qqa tutishgan. Tog‘li hududlarda harakat qilish uchun tog‘liq xalqlardan tuzilgan, tik qoyatoshlarga chiqa oladigan, maxsus piyodalar qismi bo‘lgan[1].

Manyovrlarni, qo‘shin ko‘rigini o‘zi o‘tkazgan. Yildirim Boyazid bilan bo‘lgan urushdan oldin o‘tkazilgan mana shunday ko‘riklardan birini Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"da yorqin bayon qilib bergan: “Sohibqiron shohona bezatilgan balandlikda turib qo‘shin birlashmalari ko‘rigini qabul qildi, ular boshdan oyoq temir libos kiyishgan, qat'iy saf tortgan holda, bir tekis qadam tashlab, bayroq va musiqa bilan tantanali ravishda uning oldidan o‘tishdi. Shu bilan birga har bir qism birlashmasi o‘zining maxsus kiyimi-formasiga ega edi, chunonchi, qizil yoxud oq, ko‘k yoki zangori burkangan, kiyim rangi qanday bo‘lsa, qurol-aslahalari rangi ham shunday edi”[2]. Bundan Amir Temurning otliq askarlari o‘sha davrdagi Yevropa ritsarlaridan ham mukammalroq yarog‘ bilan jihozlangani ayon bo‘ladi. Qo‘shinni suv, oziq-ovqat, em-xashak bilan ta’minlash, oziq-ovqat ortilgan o‘g‘ruqni himoya qilish buyuk sarkarda va uning qism lashkarboshilarining asosiy vazifalaridan bo‘lgan. Razvedka - xabargirga alohida o‘rin ajratilgan. Safarda yo‘l boshlovchilar qacharchilar muhim rol o‘ynagan. Amir Temur harbiy harakatlar olib borishning yangi tizimiga asos soldi. Unga ko‘ra, strategik maqsadlar shiddati hujum, hal qiluvchi yo‘nalishlarda kuchlarni bir yerga to‘plash, dadil manyovr va tashabbuskor harakatlar, hal qiluvchi jangda dushmanni tor-mor keltirish orqali amalga oshirilgan. Otliq qo‘shin hujumini tashkil etish strategiyasi va taktikasi Amir Temur armiyasida o‘zining to‘liq yakunini topdi.

Agar g‘anim qo‘shini 12 ming otliqdan oshmasa, u holda Amir Temur ham unga qarshi 12 ming otliqdan iborat qism yuborgan. Agar g‘anim qo‘shini 12 mingdan ortiq, lekin 40 mingdan kam bo‘lsa, Amir Temur unga qarshi kamida 40 ming askarni jo‘natib, unga farzandlaridan birini qo‘mondon etib tayinlangan, ularga yordam uchun ikki tajribali Amir va boshqa lashkarboshilarni bergan.

Agar g‘anim armiyasi 40 mingdan oshiq bo‘lsa, unga qarshi Amir Temurning o‘zi chiqqan. Qirq qismdan iborat qo‘shin bevosita Amir Temur ixtiyoriga o‘tgan, shundan 12 ta saralangan qism birinchi qatorni, qolgan 28 tasi ikkinchi va uchinchi qatorni tashkil etgan. Amir Temur o‘g‘illari va nabiralari rahbarlik qilgan qo‘shinlar o‘ng qanot oldiga, qarindoshlar va ittifoqchilar so‘l qanot oldiga qo‘yilgan. Bu qismlarning barchasi zahirani tashkil etib, qayerda yordam zarur bo‘lib qolsa, o‘sha erga tashlangan.

Amir Temurning harbiy dahosi deyarli har doim g‘anim chekinishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni bexato topa olgan. U chekinayotgan dushmanni ta’qib etish va yakson qilish uchun harakatchan yordamchi otryadlarni tayyor holda tutib turgan.

1 Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. Тошкент, 1999 й.
2 Шарафуддин Али Яздий. “Зафарнома”, Т., “Шарк”, 1997, 259 бет.

Qal'alarni qamal qilish chog‘ida devorteshar (manjaniq) va tosh otar (arroda) qurollar, to‘plar (ra’d), himoya qalqonlari (turd), shotular, kamandlar, arqonlar va boshqalardan foydalanilgan. Devor va Burjlar tagidan lahm qazilgan, qal'a devorlarida rahna ochilgan, shular orqali jangchilar qal'a ichiga tezlik bilan kirishgan.

Amir Temur davrida O‘rta Osiyoda birinchi marta artilleriyadan foydalanilgan. Aslida, Amir Temur harbiy tadbirlar bilan yilda o‘rta hisobda bir necha oygina band bo‘lgan, qolgan vaqtini davlat ishlari va boshqaruvga bag‘ishlagan. Amir Temur G‘arb va Sharq mamlakatlarini birlashtirgan, qadimgi savdo yo‘llarini tiklagan. Kastiliya, Fransiya va Angliya qirolliklari bilan diplomatik hamda savdo munosabatlarini o‘rnatgan, qal'alar va ko‘priklar qurdirgan. Uning farmoniga ko‘ra, XIV asr oxiri XV asr boshida Qarshi va Buxoro mudofaa devorlari yangidan qad ko‘targan. 1371-1372 yillarda Samarqand mudofaa devorlarining qalin va qiya poydevori paxsa hamda xom g‘ishtdan ishlanib, dandanalari, darvozalari bo‘lgan, ular atrofidagi xandak ustiga ko‘tarma ko‘prik qurilgan. Dandanali kungura tagida o‘q otish uchun qator tor shinak-tuynuklar joylashgan. Temur darvozalarining yon tomonlari Burjlar bilan himoyalanib, darvoza ustiga imoratlar ko‘tarilgan1.

Boburning guvohlik berishicha, Movarounnahrdagi eng mustahkam shaharlardan biri Andijon bo‘lgan. XV asrda Shahrisabz baland va keng tuproq ko‘tarma hamda suv to‘ldirilgan chuqur xandaq bilan o‘ralgan. Toshkent yangi mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lib, darvozalari uni qo‘riqlashga mas'ul bo‘lgan ulus va qabilalar nomi bilan atalgan.

Amir Temur hayotligi chog‘idayoq davlatning ayrim viloyatlari uning o‘g‘illari Jahongir, Umarshayx, Mironshoh, Shohruh va ularning avlodlari Muhammad Sulton, Pirmuhammad, Ibrohim, Ulug‘bek va boshqalarga in’om etilgan edi. 1420 yillar boshida Shohruh va uning oilasi Amir Temur barpo etgan davlatning asosiy yerlarini o‘z qo‘llariga olishgan.

Shohruh saltanat rahbari hisoblansa-da, amalda ikki davlat: biri markazi Hirot bo‘lgan Xurosonda Shohruh, boshqasi markazi Samarqand hisoblangan Movarounnahrda Shohruhning o‘g‘li Ulug‘bek hukmronlik (1409-1449 yy.) qilardi. 1425 yilda Ulug‘bek o‘zaro nizolar avj olgan Mo‘g‘ulistonga zafarli yurish qilgan, o‘zidan xotira sifatida Jizzax yaqinida joylashgan Ilono‘tdi darasidagi qoyatoshga bitik yozishni buyurgan. Ushbu bitiktosh bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Davlatning shimoliy sarharlariga bosqinchilik yurishlari qilib turgan ko‘chmanchilarga qarshi 1427 yilda uyushtirilgan harbiy yurish muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Shohruh vafotidan so‘ng taxt uchun kurash boshlangan. Ulug‘bekning

1 Дадабоев Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Тошкент, 1996.

Hirotga qilgan yurishlari ham samarasiz bo‘lgan. Ulug‘bek o‘limidan so‘ng 1449 yil uning davlati o‘zaro nizoda bo‘lgan mustaqil mulklarga parchalanib ketgan.

Shohruh zamonida Xurosonda va O‘rta Osiyoda viloyatlarning o‘z holicha alohida hayot kechirishi shu darajaga borib etdiki, bunday vaziyatda davlatda mustahkam bir tartib o‘rnatish hech kimning qo‘lidan kelmadi1.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur tuzuklari. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. - 184 b.
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. - Toshkent: Sharq, 1997. - 656 b.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. - 312 b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. - 560 b.
5. Amir Temur jahon tarixida. - Toshkent: Sharq, 2001. - 304 b.

TEMURIYLAR DAVRI MASHHUR FAYLASUFI MAS’UD TAFTAZONIYNING ONTOLOGIK QARASHLARI

O‘rozov Shahobiddin Ziyadullayevich,
SamISI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davrining buyuk mutafakkiri Mas'ud Taftazoniyning ontologik qarashlari tahlil qilingan. Allomaning borliq, mavjudot, sababiyat, substansiya, aksidensiya, ruh va inson haqidagi falsafiy qarashlari yoritilgan. Shuningdek, Taftazoniy ta’limotining Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Abu Homid G‘azzoliy falsafasi bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Maqolada mutafakkirning aql va vahiy uyg‘unligi haqidagi qarashlari hamda uning Temuriylar davri ilmiy tafakkuridagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Temuriylar davri, ontologiya, borliq, mavjudot, vojib ul-vujud, mumkin ul-vujud, substansiya, aksidensiya, sababiyat, ruh, inson, kalom, falsafa, mantiq, Taftazoniy.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat va falsafiy tafakkurning yuksalish davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. XIV- XV asrlarda Amir Temur va temuriy hukmdorlar homiyligida ilmiy muhit shakllanib, ko‘plab olim va mutafakkirlar yetishib chiqdi. Ana shunday buyuk allomalardan biri Mas'ud Taftazoniy bo‘lib, u kalom, mantiq, falsafa va balog‘at ilmlarining yirik namoyandasi sifatida Sharq tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan.

1 Ўзбекистон тарихи. 1 том. Биринчи китоб. Т., “Фан”, 1956 й. 371 бет

Taftazoniy o‘z asarlarida borliqning mohiyati, mavjudotning kelib chiqishi, inson va ruh masalalarini keng tahlil qilgan. Ayniqsa, uning ontologik qarashlari Sharq falsafasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ontologiya - borliq va mavjudlik haqidagi ta’limot bo‘lib, Taftazoniy ushbu masalalarni diniy-falsafiy nuqtayi nazardan izohlab bergan1.

Mutafakkirning ontologik qarashlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Abu Homid G‘azzoliy kabi buyuk allomalar ta’limoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularning falsafiy qarashlarini rivojlantirgan holda, Taftazoniy kalom ilmi asosida yangi ontologik yondashuvni shakllantirdi.

Taftazoniy yashagan davrning ilmiy-madaniy muhiti

Temuriylar davri Sharq uyg‘onishining ikkinchi bosqichi sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda Samarqand, Hirot, Buxoro kabi shaharlarda ilmiy markazlar tashkil etilib, madrasa va kutubxonalar faoliyati rivojlandi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan taraqqiyoti yuqori bosqichga ko‘tarildi.

Mas'ud Taftazoniy ana shunday muhitda faoliyat yuritgan va o‘z davrining eng yirik olimlaridan biri sifatida tanilgan. U kalom, mantiq, nahv va balog‘at ilmlarini mukammal egallagan. Taftazoniy ilmiy faoliyatining asosiy qismi Movarounnahr va Xuroson hududlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning asarlari musulmon Sharqida keng tarqalgan.

Taftazoniy yashagan davrda islom falsafasida ikki asosiy yo‘nalish mavjud edi: falsafiy-ratsional yo‘nalish va kalomiy-diniy yo‘nalish. Mutafakkir aynan shu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirishga harakat qilgan2.

Bu davrda Aristotel falsafasi Sharqda keng yoyilgan bo‘lib, Ibn Sino orqali musulmon olamiga chuqur kirib kelgan edi. Taftazoniy ham Aristotel mantiqi va metafizikasidan foydalangan holda o‘zining ontologik qarashlarini ishlab chiqdi.

Ontologiya tushunchasi va Taftazoniy qarashlarining mohiyati

Ontologiya falsafaning borliq va mavjudlikni o‘rganuvchi bo‘limidir. “Ontologiya” termini yunoncha “ontos” - mavjudlik va “logos” - ta’limot so‘zlaridan kelib chiqqan. Taftazoniy ontologiyasining asosiy markazida mavjudotning mohiyati va uning yaratilish sababi turadi.

Mutafakkir borliqni ikki asosiy turga ajratadi:

1. Vojib ul-vujud
2. Mumkin ul-vujud

Vojib ul-vujud - mavjud bo‘lishi zarur bo‘lgan mutlaq zot, ya’ni Allohdir. Mumkin ul-vujud esa mavjud bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin bo‘lgan barcha narsalardir3.

1 M. Xayrullayev. O‘rta Osiyoda falsafiy tafakkur taraqqiyoti. Toshkent, 1997, 214-bet.
2 Ibrohim Mo‘minov. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat taraqqiyoti. Toshkent, 1968, 97-bet.
3 Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-Aqoid an-Nasafiyya. Qohira, 1988, 45-bet.

Taftazoniyga ko‘ra, barcha mavjudotning manbai Alloh hisoblanadi. U har qanday narsaning mavjudligi uchun birinchi sababdir. Shu jihatdan mutafakkir ontologiyasida teotsentrik yondashuv ustunlik qiladi.

U borliqning tasodifiy emasligini ta’kidlab, mavjudotning ma’lum qonuniyatlar asosida yaratilganini qayd etadi. Inson aqli ushbu qonuniyatlarni anglashga qodir, biroq mutlaq haqiqatni to‘liq bilish faqat ilohiy bilim orqali amalga oshadi.

Vojib ul-vujud va mumkin ul-vujud haqidagi ta’limoti

Mas'ud Taftazoniy ontologiyasida vojib ul-vujud tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Unga ko‘ra, Allohning mavjudligi zaruriy bo‘lib, U hech narsaga muhtoj emas. Boshqa barcha mavjudot esa o‘z mavjudligida Allohga bog‘liqdir.

Bu qarash Ibn Sino metafizikasiga yaqin bo‘lsa-da, Taftazoniy uni kalom nuqtayi nazaridan izohlaydi. Unga ko‘ra, mumkin ul-vujud o‘z-o‘zidan mavjud bo‘la olmaydi. Har qanday mavjudot o‘z yaratuvchisiga muhtojdir1.

Mutafakkir mumkin ul-vujudni moddiy va ma’naviy mavjudotlarga ajratadi. Moddiy mavjudotlar vaqt va makon bilan bog‘liq bo‘lsa, ma’naviy mavjudotlar ruhiy mohiyatga ega.

Taftazoniy Allohning mavjudligini sababiyat orqali asoslashga harakat qiladi. Unga ko‘ra, sabablar zanjiri cheksiz davom etishi mumkin emas. Oxir-oqibat barcha sabablar birinchi sabab - Allohga borib taqaladi.

Substansiya va aksidensiya haqidagi qarashlari

Taftazoniy ontologiyasida substansiya va aksidensiya masalasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu tushunchalar Aristotel falsafasi orqali Sharq tafakkuriga kirib kelgan.

Substansiya - mustaqil mavjud bo‘la oladigan mohiyatdir. Aksidensiya esa substansiyaga bog‘liq holda mavjud bo‘ladigan sifat yoki holatdir. Masalan, inson substansiya bo‘lsa, uning rangi, harakati yoki hissiyotlari aksidensiya hisoblanadi2.

Taftazoniy substansiyani birlamchi mohiyat sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, aksidensiyalar substansiyasiz mavjud bo‘la olmaydi. Bu qarash borliqdagi tartib va qonuniyatni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

Mutafakkir substansiyaning o‘zgarishi va harakati masalasiga ham e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, har qanday o‘zgarish sababiyat qonuniga asoslanadi va ilohiy iroda bilan bog‘liqdir.

Sababiyat haqidagi qarashlari

Sababiyat Taftazoniy ontologiyasining eng muhim jihatlaridan biridir. U har qanday voqea va hodisa muayyan sababga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Taftazoniy sababiyatni ikki shaklda tushuntiradi:

- Moddiy sabab

1 A. Sharipov. Sharq falsafasi tarixi. Toshkent, 2006, 167-bet.
2 Sa’duddin Taftazoniy. Tahzib al-mantiq val-kalom. Bayrut, 2001, 73-bet.

- Ilohiy sabab

Moddiy sabab voqelikdagi tabiiy bog‘liqlikni ifodalasa, ilohiy sabab barcha mavjudotning asosiy manbai hisoblanadi1.

Mutafakkir sabab va oqibat o‘rtasidagi bog‘liqlikni qat’iy qonuniyat sifatida ko‘radi. Biroq bu qonuniyat Alloh irodasidan mustaqil emas. Shu sababli u determinizmni diniy qarashlar bilan uyg‘unlashtiradi.

Taftazoniyga ko‘ra, tabiatdagi tartib va uyg‘unlik Allohning qudratini namoyon qiladi. Inson ushbu qonuniyatlarni o‘rganish orqali borliq mohiyatini anglashga yaqinlashadi.

Ruh va inson haqidagi ontologik qarashlari

Mas'ud Taftazoniy insonni moddiy va ruhiy jihatlarning uyg‘unligi sifatida talqin qiladi. Inson tanasi moddiy dunyoga mansub bo‘lsa, ruh ilohiy mohiyatga ega.

Taftazoniy ruhni abadiy deb hisoblaydi. Uning fikricha, ruh tanadan ajralgandan keyin ham mavjudligini davom ettiradi. Bu qarash islom falsafasidagi ruhning boqiyligi haqidagi ta’limot bilan mos keladi2.

Mutafakkir insonni “mikrokosm”, ya’ni kichik olam sifatida talqin qiladi. Insonda butun borliqning xususiyatlari mujassamdir. Shu sababli inson o‘zini anglash orqali borliqni ham anglay oladi.

Taftazoniy insonning ma’naviy kamolotiga katta e’tibor beradi. Unga ko‘ra, insonning asosiy vazifasi ilm olish, axloqiy poklanish va komillikka erishishdir.

Aql va bilish masalasi

Taftazoniy ontologik qarashlarida gnoseologik masalalar ham muhim o‘rin egallaydi. U inson aqlining imkoniyatlarini yuqori baholaydi, biroq uni mutlaq deb hisoblamaydi.

Mutafakkirga ko‘ra, bilishning asosiy manbalari quyidagilar:

1. Sezgi
2. Aql
3. Vahiy

Sezgi moddiy dunyoni anglashga yordam beradi, aql esa umumiy xulosalar chiqaradi. Vahiy esa inson aqli yetib bora olmaydigan haqiqatlarni ochib beradi3.

Taftazoniy aql va dinni qarama-qarshi qo‘ymaydi. Aksincha, ularning uyg‘unligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy ilm insonni Allohni anglashga olib boradi.

Taftazoniy ontologiyasining boshqa faylasuflar bilan qiyosi

Mas'ud Taftazoniy qarashlari Ibn Sino va Abu Homid G‘azzoliy ta’limotlari bilan ko‘p jihatdan o‘xshashdir.

---

1 M. Baratov. Islom falsafasi asoslari. Toshkent, 2010, 121-bet.
2 A. Irisov. Sharq mutafakkirlari merosi. Toshkent, 2005, 154-bet.
3 E. Yusupov. Falsafa. Toshkent, 2012, 201-bet.

Ibn Sino mavjudotni vojib va mumkin shakllarga ajratgan bo‘lsa, Taftazoniy bu g‘oyani kalomiy asosda rivojlantirdi. Abu Homid G‘azzoliy esa falsafiy determinizmni tanqid qilgan bo‘lsa, Taftazoniy sababiyatni ilohiy iroda bilan bog‘lash orqali o‘rta yo‘lni tanladi.

Shuningdek, Taftazoniy Abu Nasr Forobiyning mantiqiy qarashlaridan ham ta’sirlangan. U mantiqni falsafaning asosiy vositasi deb bilgan.

Taftazoniy merosining bugungi ahamiyati

Bugungi kunda Mas'ud Taftazoniy asarlari islom falsafasi va kalom ilmini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Uning “Sharh al-Aqoid”, “Tahzib al-mantiq”, “Mukhtasar al-maoniy” kabi asarlari musulmon dunyosida keng tarqalgan.

Taftazoniy ontologiyasi bugungi zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda ham ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, uning aql va vahiy uyg‘unligi haqidagi qarashlari hozirgi davrda diniy va ilmiy tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishda muhimdir1.

Mutafakkirning ilmiy merosi yosh avlodni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Temuriylar davrining buyuk allomasi Mas'ud Taftazoniy Sharq falsafasi va kalom ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirdir. Uning ontologik qarashlari borliq, mavjudot, sababiyat, substansiya va inson mohiyatini chuqur tahlil qilishi bilan ajralib turadi.

Taftazoniy falsafasining asosiy xususiyati aql va vahiy uyg‘unligini ta’minlashga intilishidadir. U mavjudotning asosini ilohiy borliq bilan bog‘lagan holda, inson tafakkurining ahamiyatini ham yuksak baholaydi.

Mutafakkirning ontologik qarashlari nafaqat o‘z davri, balki bugungi zamonaviy falsafa uchun ham muhim nazariy manba hisoblanadi. Shu sababli Taftazoniy merosi Sharq falsafasi tarixida alohida o‘rin tutadi.

1 N. Jo‘rayev. Milliy falsafa taraqqiyoti. Toshkent, 2011, 88-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Xayrullayev. O‘rta Osiyoda falsafiy tafakkur taraqqiyoti. Toshkent, 1997, 214-bet.
2. Ibrohim Mo‘minov. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat taraqqiyoti. Toshkent, 1968, 97-bet.
3. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-Aqoid an-Nasafiyya. Qohira, 1988, 45-bet.
4. A. Sharipov. Sharq falsafasi tarixi. Toshkent, 2006, 167-bet.
5. M. Baratov. Islom falsafasi asoslari. Toshkent, 2010, 121-bet.
6. A. Irisov. Sharq mutafakkirlari merosi. Toshkent, 2005, 154-bet.
7. E. Yusupov. Falsafa. Toshkent, 2012, 201-bet.
8. N. Jo‘rayev. Milliy falsafa taraqqiyoti. Toshkent, 2011, 88-bet.

BAHOUDDIN NAQSHBAND G‘OYALARIDA MEHNAT KONSEPSIYASI

Jumayev Aslam Hazratovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf ta’limotining yirik namoyandasi Bahouddin Naqshbandning mehnatga oid g‘oyalari va ularning falsafiy-axloqiy mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, naqshbandiya tariqatida mehnatning inson kamoloti, ma’naviy poklanish va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan. “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyilining mazmun-mohiyati, insonning halol mehnat orqali ma’naviy yuksalishi va jamiyat farovonligiga qo‘shadigan hissasi tahlil etilgan. Bahouddin Naqshband g‘oyalarida mehnat nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki insonning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlovchi muhim qadriyat sifatida talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya tariqati, mehnat konsepsiyasi, tasavvuf, ma’naviyat, halol mehnat, inson kamoloti, “Dil ba yor, dast ba kor”.

Sharq ma’naviy tafakkuri tarixida tasavvuf ta’limoti insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy pokligi va ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim falsafiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tasavvuf namoyandalari insonning nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy hayotdagi o‘rni va mas’uliyatiga ham alohida e’tibor qaratganlar. Shunday buyuk mutafakkirlardan biri Bahouddin Naqshbanddir. Bahouddin Naqshband naqshbandiya tariqatining asoschisi sifatida Sharq falsafiy va ma’naviy merosida muhim o‘rin egallagan.

Bahouddin Naqshband ta’limotida insonning ma’naviy kamoloti halol mehnat, pok niyat, sabr, qanoat va jamiyatga foydali bo‘lish g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Mutafakkir mehnatni nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish vositasi,

balki insonning ruhiy poklanishi va axloqiy tarbiyasiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida talqin qilgan. Shu jihatdan naqshbandiya ta’limotida mehnat konsepsiyasi insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lgan.

Bahouddin Naqshbandning mashhur “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili tasavvuf tarixida mehnat va ma’naviyat uyg‘unligini ifodalovchi muhim falsafiy qarash sifatida baholanadi. Ushbu g‘oya insonning qalbi Yaratgan bilan, qo‘li esa mehnat bilan band bo‘lishi lozimligini anglatadi. Bu esa tasavvufni jamiyatdan uzilish emas, balki ijtimoiy faollik va halol mehnat bilan uyg‘un hayot tarzi sifatida talqin qilish imkonini beradi1.

Bahouddin Naqshbandning “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili mehnat va ma’naviyat uyg‘unligining yuksak falsafiy ifodasi sifatida talqin qilingan. Ushbu g‘oya inson qalban Yaratganga bog‘langan holda, amaliy faoliyatda halol mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi lozimligini anglatadi. Bu tamoyil tasavvuf ta’limotida mehnatni ibodat darajasiga ko‘tarib, uni insonning ma’naviy poklanishi va ichki komillikka erishishining muhim vositasi sifatida baholaydi. Shu nuqtayi nazardan Bahouddin Naqshband mehnatni nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki axloqiy tarbiya va ruhiy kamolotning asosiy shakllaridan biri deb hisoblaydi.

Bahouddin Naqshband ta’limotida mehnatsevarlik, qanoat, sabr, halollik va mas’uliyat kabi axloqiy fazilatlar inson ma’naviy kamolotining muhim omillari sifatida talqin qilinishini ko‘rsatdi. Mutafakkirning fikricha, inson halol mehnat orqali nafaqat o‘z rizqini topadi, balki jamiyat barqarorligi va farovonligiga ham munosib hissa qo‘shadi. Shu sababli mehnat insonning ijtimoiy burchi va ma’naviy mas’uliyati sifatida baholanadi. Shuningdek, tahlillar Bahouddin Naqshband g‘oyalarida qanoat va mehnat o‘rtasidagi uyg‘unlikka alohida e’tibor qaratilganini ko‘rsatdi. U insonni ortiqcha manfaatparastlik, hirs va moddiy boylikka haddan ziyod berilishdan qaytarib, halol mehnat va qanoat orqali ma’naviy barqarorlikka erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy adolat, o‘zaro hurmat va insonparvarlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bahouddin Naqshband ta’limotiga ko‘ra, insonning haqiqiy kamoloti halol mehnat, pok niyat va jamiyatga manfaat keltirish orqali shakllanadi. Shu jihatdan mehnat insonni ma’naviy inqiroz va befarqlikdan saqlovchi muhim tarbiyaviy omil sifatida baholanadi. Bahouddin Naqshband g‘oyalarida halol mehnat va ijtimoiy faollik ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Mutafakkir insonni jamiyatdan chetlashib, tarkidunyochilik yo‘lini tanlashga emas, balki xalq ichida yashash, mehnat qilish va insonlarga naf keltirishga da’vat etadi. Bu esa naqshbandiya tariqatining boshqa ayrim tasavvufiy yo‘nalishlardan farq qiluvchi muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan naqshband ta’limotida ijtimoiy hayotdan uzilish emas, aksincha, jamiyat bilan uyg‘un holda ma’naviy hayot kechirish g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi2.

1 Navro‘zova G.N., “Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma’naviy merosi,” Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, 2021, p. 192.

2 Raxmonov S. “Ikki tariqatning buyuk daholari,” (Mavlono Jaloliddin Rumiy va Xoja Bahouddin Naqshband misolida), Monografiya. Samarqand: *SamDChTI*, 2022, p. 148.

Naqshbandiya ta’limotining eng muhim xususiyatlaridan biri insonni ijtimoiy hayotdan chetlashishga emas, balki jamiyat ichida faol yashashga, xalq bilan birga bo‘lishga va mehnat orqali insonlarga manfaat keltirishga undashidir. Bu g‘oya tasavvuf ta’limotidagi ayrim tarkidunyochilik qarashlaridan tubdan farq qiladi. Chunki Bahouddin Naqshband insonning ma’naviy kamoloti jamiyatdan uzilish orqali emas, aksincha, halol mehnat va ijtimoiy faollik orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan mehnat insonning nafaqat shaxsiy ehtiyojlarini qondirish vositasi, balki jamiyat farovonligi va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholanadi.

Bugungi kunda ham Bahouddin Naqshbandning mehnatga oid g‘oyalari o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib, ma’naviy tahdidlar ortib borayotgan sharoitda yoshlarni mehnatsevarlik, halollik, mas’uliyat, vatanparvarlik va ma’naviy poklik ruhida tarbiyalashda ushbu qarashlar muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bahouddin Naqshband ta’limotidagi mehnat konsepsiyasi insonda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish, uni faol hayotga tayyorlash va ma’naviy barkamollikka erishishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, mutasavvifning mehnat va ma’naviyat uyg‘unligiga oid qarashlari zamonaviy jamiyatda inson kapitali, ma’naviy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim nazariy manba sifatida baholanib kelmoqda. Chunki mehnatga ma’naviy qadriyat sifatida yondashish insonda faqat iqtisodiy manfaat emas, balki jamiyat oldidagi burch va mas’uliyat tuyg‘usini ham shakllantiradi. Bu esa barqaror va ma’naviy sog‘lom jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bahouddin Naqshband g‘oyalarida mehnat konsepsiyasi insonning ma’naviy va axloqiy kamoloti bilan chambarchas bog‘langan muhim falsafiy ta’limot sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkir halol mehnatni inson hayotining asosiy qadriyatlaridan biri sifatida baholab, uni jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishning muhim omili deb hisoblaydi.

Bugungi ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda Bahouddin Naqshband g‘oyalaridagi mehnat, halollik va ma’naviy poklik konsepsiyalarini ilmiy jihatdan o‘rganish mutasavvifning mehnatga oid qarashlari orqali yosh avlodni mehnatsevarlik, mas’uliyat va ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Bahouddin Naqshbandning mehnat haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni mehnatsevarlik, halollik, mas’uliyat, sabr-toqat va ma’naviy poklik ruhida tarbiyalashda ushbu g‘oyalar muhim tarbiyaviy va metodologik ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu boisdan Bahouddin Naqshband ta’limotidagi mehnat konsepsiyasi insonning ma’naviy va ijtimoiy hayoti o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim falsafiy ta’limot sifatida baholanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navro‘zova G.N., “Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma’naviy merosi,” Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, 2021, p. 192.

2. Raxmonov S. “Ikki tariqatning buyuk daholari” (Mavlono Jaloliddin Rumiy va Xoja Bahouddin Naqshband misolida). Monografiya. Samarqand: SamDChTI, 2022. - B. 148.

YA’QUBI CHARXIY TA’LIMOTIDA AXLOQIY POKLANISH VA QANOAT FALSAFASI

Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro davlat texnika universiteti professori, falsafa fanlar doktori (DSc)
e-mail: zoiroverkin76@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada XV asr tasavvuf tafakkurining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Ya’qubi Charxiyning axloqiy-falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada mutafakkir ta’limotida insonning ma’naviy kamolotga erishishida axloqiy poklanish, nafsni tarbiyalash, ruhiy yetuklik va qanoat tamoyillarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, Ya’qubi Charxiy merosida axloqiy poklanish va qanoatning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ularning komil insonni shakllantirishdagi konseptual asoslari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ya’qubi Charxiy, tasavvuf falsafasi, axloqiy poklanish, qanoat, nafs tarbiyasi, ma’naviy kamolot, komil inson, ruhiy yetuklik, ma’naviy qadriyatlar, naqshbandiylik, irfoniy tafakkur, axloqiy tarbiya.

Tasavvuf falsafasida inson kamolotining asosiy sharti nafsni tarbiyalash va uning xohish-istaklarini jilovlash hisoblanadi. Markaziy Osiyo tasavvuf maktabining yirik namoyandasi Ya’qubi Charxiy ham inson ma’naviy yuksalishiga to‘sqinlik qiluvchi illatlar qatorida tamagirlikni alohida tahlil qiladi. Uning “Qalam” surasi tafsirida bayon qilingan fikrlar insonning nafaqat diniy-axloqiy hayoti, balki ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy ozodligi bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Ya’qubi Charxiy “Qalam” surasini tafsirlashda ta’ma masalasiga ham alohida to‘xtalib tasavvufiy tahlil qiladi. Mutasavvif fikricha, “orif kishi o‘zining do‘stlaridan dunyoviy narsalarni tama’ qilmaydi. Chunki, insoniylik uning tabiatidagi eng ulug‘ vazifasi hisoblanadi” [1]. Demak, inson yaxshilikni chin dildan qilishi, evaziga biror narsa tama’ qilmasligi kerak. Inson halol mehnat qilishib, tama’ qilmasa, uning oxirati obod bo‘lib, Allohni vasliga yetadi. Ya’qubi Charxiy halol mehnat qilish, boshqalarning boyligiga tilanchi ko‘zi bilan boqmasligini ta’kidlab quyidagi baytni keltiradi:

“Bori xud bar kas maneh bar xeysh nih,
Sarvariro kam talab, darvesh bih” [1].

Mazmuni:

Yukingni birovning yelkasiga qo‘yma, uni o‘zing ko‘tar,

Ulug‘likka intilmagin, darvishlik yaxshidir.

Demak, inson o‘zi halol mehnat qilishi, birovlarga og‘irligi tushmasdan, hayotda boylikka ruju qo‘ymasligi, kibrga berilmasdan faqir hamda kamtarona yashashi lozim.

Shuningdek, Ya’qubi Charxiy bu suraning tafsirida Iso payg‘ambar hayotiga oid hikoyalardan, Yunus payg‘ambar qissalaridan, xalifa Umar ibn Abdulaziz bilan sodir bo‘lgan tarixiy voqealardan foydalanadi, hamda mazmunni boyitish maqsadida ko‘plab orifona mazmundagi baytlardan foydalanadi.

Rasulullоh (s.a.v.) Muozga go‘zal xulqlarni sanab quyidagi vasiyatni qilganlar: “Ey Muoz, senga shuni vasiyat qilamanki, Allohga taqvo qil, rost so‘zla, ahdingga vafodor bo‘l, omonatni ado qil, xiyonatni tark qil, qo‘shnichilikni saqla, yetimlarga rahmli bo‘l, muloyim so‘zla, salomni kanda qilma, chiroyli amallar qil, orzu-havasni kamaytir, to‘g‘ri ishni maqsad qil, iymonni lozim tut, Qur’onning fiqhini bil, oxiratni sev, hisob-kitobdan qo‘rq, xokisor bo‘l, halim kishini so‘kma, rostgo‘yni yolg‘onchiga chiqarma, gunohkordan tama qilma, odil yo‘lboshchiga isyon qilma, yerda fasod qilma. Yana shuni vasiyat qilamanki, tog‘-u toshda, bog‘-u rog‘da, qaysi yerdaki bo‘lma, Allohdan qo‘rq, har bir gunohingga tavba qil, sirga sir bilan, ochiqqa ochiqcha javob ber. Alloh mana shu yo‘llar bilan bandasini odobga boshlaydi, ularni go‘zal **xulqlarga va odoblarga** da’vat qiladi” [4;160].

Ya’qubi Charxiy fikricha, yomon xulqlarga xasislik, qo‘rqoqlik, zolimlik va yomonlik qilish kabi yomon sifatlar kiradi. Ko‘p kishilarda bu odatga aylanib, ularni mag‘lub qilgan va ularni boshqaradi. Juda kam insonlar esa yomon xulqlar va ayblardan xalos bo‘lganlar. Ular boshqalardan afzaldirlar [1]. Demak, inson avvalo o‘z nafsini jilovlagan va nafs istagi bo‘lgan kibru havo, manmanlik, tama, riyo, xudparaslik, o‘zgalarga nafratu g‘azab va kina kabi illatlardan qalbini to‘la poklagan bo‘lishi kerak.

Ikkinchisi haq shuki, avomning bir-birlari to‘g‘risida chaqimchilik qilib aytgan gaplarini eshitmasinlar. Zero, uning oxirida fitna va nadomat qiladilar. Xossatan, fosiqlarning, g‘arazgo‘ylarning, xalqdan tama’ qiladigan tamagirlarning, hammadan ayb qidiradigan hasadgo‘ylarning gaplarini tinglamasinlar.

Naql qiladilarki, bir odam bir musulmonni yomonlay boshladi. Ali (r.a.) unga shunday dedi: “Ey odam, agar shu gaplaringni rost aytayotgan bo‘lsang, chaqimchilik qilganing uchun seni dushman deb bilaman, agar yolg‘on gapirayotgan bo‘lsang, jazoingni beraman, agar tavba qilsang, afv qilaman”. U odam darhol: “Tavba qilaman, ey amiral mo‘miniyn”, dedi.

Muhammad ibn Ka’b Qaraziydan (Alloh uni rahmatiga olsin) so‘radilar: Podshohlarning qaysi xislatlari yaxshi emas?”. U aytdi: “Ko‘p gapirishlik, mamlakat ishiga har kimni aralashtirish va chaqimchilarning gapiga quloq solish” [2;240].

Demak, podshoh xalqning bir-birini yomonlab aytgan so‘zlari, ayniqsa fosiqlar, g‘arazgo‘y va ta’magirlarga e’tibor bermasin, chunki, buning oqibati fitna va nadomat bilan tugaydi. Ya’ni, ular bir luqmaning tama’ida xalqqa ozor berib, barcha hunarlarni ayb sifatida ko‘radi. Ya’qubi Charxiy hakimlarning fikrini keltirib: “Kim senga birovning gapini chaqsa, sening ham gapingni ham birovga chaqadi”.

Ya’qub Charxiy “Risola dar manoqib va aqoid” asari asosida xonlar va amaldorlarning davlatni boshqarishga oid qarashlarni ijtimoiy-falsafiy tadqiq qilib, podshohlarning fazilatlari hamda davlatni boshqarishda raiyatni ustun bilishlari, musulmonlar hojatini ravo qilish, nafsni engishda xulafoi roshidinning siyratiga ergashish, muloyimso‘z bo‘lish, hukumat va boshqaruvga bog‘lanib qolmaslik, olimlar va solihlarni qo‘llab-quvvatlash, jabru zulm va takabburlik qilmaslik, g‘aflatda qolmaslik hamda farosatli bo‘lish kabi shartlarga amal qilish zarurligini asoslab bergan.

Shu bilan birga, Ya’qubi Charxiy tamagirlikning muqobili sifatida qanoat, tavoze va halol mehnatni ulug‘laydi. Uningcha, inson o‘z nafsini jilovlab, dunyoviy hirsdan qutulsagina haqiqiy ma’naviy erkinlikka erishadi. Bunday inson boshqalarning boyligiga ko‘z tikmaydi, mansab orqasidan quvmaydi va har qanday holatda ham insoniylikni saqlab qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Ya’qubi Charxiy ta’limotida tamagirlik inson qalbini buzuvchi, uni ma’naviy qaramlikka olib boruvchi va jamiyatda fitna keltirib chiqaruvchi illat sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir insonni halol mehnat, qanoat, kamtarlik va nafsni tarbiyalash orqali ushbu illatdan xalos bo‘lishga chaqiradi. Uning fikrlari bugungi kunda ham inson ma’naviyati, ijtimoiy adolat va axloqiy tarbiya masalalarida muhim falsafiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ya’qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya’qubi Charxiy. / O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 8745/. - 30 varaq..
2. Яъқуби ибн Усмон ибн Маҳмуд ал-Ғазнавий ал-Чархий. Рисола дар маноқиб ва ақоид. ЎзРФА ШИ хазинаси, инн. № 5478/ VI
3. Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд таълимоти Яъқуби Чархий тавсифида // Тафаккур зиёси. - Тошкент: 2020. -№ 2. - Б. 80-81.
4. Зойиров Э.Х. Яъқуби Чархийнинг тасаввуфий ирфоний қарашлари. Монография. - Бухоро: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2023. - 128 б.

YA’QUB CHARXIY TA’LIMOTIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Ravshanov Akmal Maxmudovich

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf falsafasining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Ya’qub Charxiy ta’limotidagi komil inson konsepsiyasi ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mutafakkirning inson kamoloti, ma’naviy poklanish, axloqiy yetuklik va ruhiy tarbiya haqidagi qarashlari o‘rganildi. Shuningdek, Ya’qub Charxiy ta’limotida komil insonning asosiy fazilatlari sabr, tavozelik, halollik, ilm, ma’rifat va nafsni poklash kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ya’qub Charxiy, komil inson, tasavvuf, ma’naviyat, nafs tarbiyasi, inson kamoloti, axloqiy yetuklik, falsafiy qarashlar.

Sharq falsafiy tafakkuri tarixida tasavvuf ta’limoti insonning ma’naviy kamoloti, ruhiy poklanishi va axloqiy yetukligini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ma’naviy-falsafiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Tasavvuf namoyandalari insonni komillikka yetkazish, uning qalbini poklash va jamiyatda ezgulik hamda adolat tamoyillarini qaror toptirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Shunday mutafakkirlardan biri Ya’qub Charxiydir. Ya’qub Charxiy naqshbandiya tariqati rivojiga katta hissa qo‘shgan yirik tasavvufshunos va ma’rifatparvar alloma sifatida Sharq ma’naviy merosida muhim o‘rin egallagan.

Ya’qub Charxiy ta’limotida insonning komillikka erishishi qalb pokligi, ilm-ma’rifat, nafsni tiyish, halol mehnat va ruhiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Mutafakkir insonning haqiqiy kamoloti tashqi boylik yoki mansab bilan emas, balki uning ichki ma’naviy dunyosi, axloqiy fazilatlari va Allohga yaqinligi bilan belgilanishini ta’kidlaydi. Shu jihatdan Charxiy qarashlarida komil inson konsepsiyasi insonparvarlik, axloqiy yetuklik va ma’naviy barkamollik g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi1.

Ya’qub Charxiy asarlarida inson qalbini g‘aflat, manmanlik, hirs va jaholatdan poklash masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Unga ko‘ra, inson o‘z nafsini tarbiyalash orqali ruhiy yuksalishga erishadi va jamiyatda ezgulik tarqatadigan komil shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli Ya’qub Charxiy ilmni, ma’rifatni va ma’naviy tarbiyani inson kamolotining asosiy omillari sifatida baholaydi.

Ya’qub Charxiy ta’limotidagi komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyatini chuqur ochib berishga xizmat qiluvchi zamonaviy ilmiy-metodologik

1 Яъқуб Чархий “Рисолаи Унсия” (Дўстона суҳбат). Изоҳлар муаллифи С.Рахмонов. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2022. – Б. 16.

yondashuvlarni o‘rganish Charxiy qarashlarining shakllanish omillari, tasavvuf falsafasidagi o‘rni hamda uning ma’naviy-axloqiy ta’limotini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Ya’qub Charxiy ta’limotida komil inson konsepsiyasi insonning ma’naviy, ruhiy va axloqiy kamoloti bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinishini ko‘rsatdi. Mutafakkir qarashlariga ko‘ra, insonning haqiqiy komilligi uning tashqi mavqei yoki moddiy boyligi bilan emas, balki qalb pokligi, ma’rifati, sabr-toqati, ruhiy yetukligi va nafs ustidan g‘alaba qozona olishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan Charxiy inson kamolotini ichki ma’naviy tarbiya va ruhiy poklanish jarayoni sifatida baholaydi1. Bundan tashqari, mutafakkirning sabr, qanoat, tavozelik, halollik va nafsni tiyish haqidagi qarashlari bugungi globallashuv va ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan davrda yoshlarni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mutafakkirning fikricha, jaholat va ilmga befarqlik insonni ma’naviy tanazzulga olib boruvchi eng katta illatlardan biridir. Inson faqat ilm, tafakkur va ma’rifat orqali o‘zining ichki dunyosini boyitib, ruhiy yetuklikka erishishi mumkin. Shu sababli Charxiy ma’rifatni inson qalbini poklovchi, uni g‘aflat va jaholatdan chiqaruvchi hamda komillik sari yetaklovchi muhim vosita sifatida baholaydi. Uning qarashlarida ilm insonni nafaqat bilimli, balki axloqan pok va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Ya’qub Charxiy ta’limotida nafsni tiyish va ruhiy poklanish masalasi alohida o‘rin egallashini ko‘rsatdi. Mutafakkir insonning komillikka erishishi uchun manmanlik, ochko‘zlik, hasad, hirs va kibr kabi salbiy illatlardan voz kechishi zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, insonning eng katta kurashi o‘z nafsi bilan bo‘lib, nafs ustidan g‘alaba qozongan insongina haqiqiy ma’naviy kamolotga erisha oladi. Shu jihatdan Charxiy sabr, tavozelik, halollik, qanoat va shukronalikni insonni komillikka yetaklovchi asosiy axloqiy fazilatlar sifatida talqin qiladi2. Shuningdek, tahlillar Charxiy qarashlarida qalb pokligi va ruhiy tarbiya inson hayotining markaziy mezoni sifatida baholanishini ko‘rsatdi. Mutafakkirning fikricha, inson qalbi ma’naviy jihatdan pok bo‘lmasa, uning tashqi ibodati yoki ilmiy salohiyati haqiqiy kamolotga olib bormaydi. Shu sababli u insonning ichki dunyosini poklash, qalbni yomon illatlardan xalos etish hamda ma’naviy uyg‘oqlikni shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

Ya’qub Charxiy ta’limotida komil inson nafaqat o‘zining ruhiy kamoloti bilan shug‘ullanuvchi shaxs, balki jamiyat taraqqiyoti va insoniyat farovonligi uchun xizmat qiluvchi ma’naviy yetuk inson sifatida talqin qilinishini ko‘rsatdi.

1 Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот айн ал-ҳаёт. (Обиҳаёт томчилари). - Т.: Абу Али Ибн Сино. – Б. 536.
2 Яъқуб Чархий “Рисолаи Унсия” (Дўстона суҳбат). Изоҳлар муаллифи С.Рахмонов. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2022.

Mutafakkir insonni jamiyatda ezgulik, adolat, mehr-oqibat va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirishga da’vat etadi. Unga ko‘ra, komil inson faqat o‘z manfaatini emas, balki jamiyat manfaatini ham ustuvor deb biladigan, insonlarga yaxshilik ulashadigan va ma’naviy muhit barqarorligiga xizmat qiladigan shaxsdir.

Ya’qub Charxiy ta’limotidagi komil inson konsepsiyasi Sharq tasavvuf falsafasining muhim tarkibiy qismi sifatida insonning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi mukammal falsafiy tizimlardan biri hisoblanadi. Mutafakkir qarashlarida komillik insonning tashqi mavqei, boyligi yoki ijtimoiy maqomi bilan emas, balki uning ichki ma’naviy dunyosi, axloqiy pokligi va ruhiy yetukligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan Charxiy insonning haqiqiy qadr-qimmati uning qalb pokligi, ma’rifati, sabr-toqati va insonlarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

Ya’qub Charxiy qarashlarining bugungi davr uchun ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligi ayniqsa, mutafakkirning ma’naviy poklanish, sabr, qanoat, halollik va insonparvarlik haqidagi qarashlari yoshlarni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Ya’qub Charxiy ilm-ma’rifatni insonni jaholat, g‘aflat va ma’naviy tanazzuldan qutqaruvchi eng muhim vosita sifatida talqin qiladi. Mutafakkirning fikricha, inson faqat ilm va tafakkur orqali o‘zligini anglaydi, ruhiy yuksalishga erishadi hamda komillik sari intiladi. Shu sababli uning qarashlarida ilm nafaqat bilim olish vositasi, balki inson qalbini poklovchi, ma’naviy kamolotga yetaklovchi muhim ma’rifiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Charxiy ilmni insonni jaholat zulmatidan chiqaruvchi “ma’naviy nur” sifatida baholab, uni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri deb hisoblaydi.

Ya’qub Charxiy ta’limotida nafs tarbiyasi va ruhiy poklanish masalasi alohida o‘rin egallaydi. Mutafakkir insonning ichki dunyosini takomillashtirishni komillikning asosiy sharti sifatida baholaydi. Ya’qub Charxiy ta’limotiga ko‘ra, inson manmanlik, ochko‘zlik, hasad, hirs va kibr kabi salbiy illatlardan xalos bo‘lish orqali ma’naviy yuksalishga erishadi. Shu jihatdan Charxiy qarashlarida nafsni tiyish insonning ruhiy ozodligi va ichki muvozanatini ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, mutafakkirning tavozelik, sabr va qanoatga oid qarashlari bugungi iste’molchilik kayfiyati kuchayib borayotgan davrda inson ma’naviyatini asrashda katta ahamiyat kasb etadi. Ya’qub Charxiy qanoatni insonning ruhiy osoyishtaligi va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi muhim axloqiy fazilat sifatida baholaydi. Uning fikricha, moddiy manfaatlarga haddan tashqari berilish insonning ma’naviy tanazzuliga olib keladi, sabr va tavozelik esa insonni ruhiy yetuklikka yetaklaydi. Bundan tashqari, Ya’qub Charxiy ta’limotida komil inson nafaqat o‘zini tarbiyalaydigan shaxs, balki jamiyatda ezgulik, adolat va insonparvarlik muhitini qaror toptirishga xizmat qiluvchi ma’naviy yetuk inson

sifatida talqin qilinadi. Shu sababli mutafakkirning komil inson haqidagi qarashlari zamonaviy jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, insoniy qadriyatlarni mustahkamlash hamda yoshlarni barkamol insonlar etib tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda mutafakkirning qarashlari bugungi globallashuv va murakkab ma’naviy jarayonlar davrida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, yoshlarni ma’naviy barkamollik, sabr-toqat, halollik, vijdonlilik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda Ya’qub Charxiy ta’limoti muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning inson tarbiyasiga oid g‘oyalari yosh avlodda mustaqil tafakkur, ruhiy barqarorlik va axloqiy mas’uliyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni ma’naviy barkamol, vijdonli, sabrli va insonparvar etib tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy аҳамиятга ega ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот айн ал-ҳаёт. (Обиҳаёт томчилари). - Т.: Абу Али Ибн Сино. - Б. 536.
2. Яъқуб Чархий “Рисолаи Унсия” (Дўстона суҳбат). Изоҳлар муаллифи С.Рахмонов. - Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2022. - Б. 16.
3. Зойиров Э.Х. Яъқуби Чархийнинг тасаввуфий ирфоний қарашлари. Монография. - Бухоро: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2023. - 128 б.

ALISHER NAVOIYNING ISLOM DINI, MADANIYATI, FALSAFASI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Aliyev Bekdavlat

TDIU “Falsafa” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori

Navoiy yashagan ijtimoiy hayot munosabatlari shariat asosida tashkil qilinib, olib borilganligi ma’lum. Shuning uchun, Navoiy asarlarida asosiy o‘rinni din va shariat masalalari egallagan. Navoiy asarlarining boshlanishi o‘sha davr an’anasiga ko‘ra Allohga hamd-sanolar, payg‘ambarga salavot aytish, avliyolar sha’niga duoyu-xayrlar bilan boshlanadi. Bu hol Navoiy davri adabiyotidagi an’ana bo‘lgani holda, mutafakkirning o‘ziga xos ma’naviy dunyosining namoyishi hamdir. Xususan, uning “Nasoyim ul-muhabbat”, “Arba’in”, “Siroj ul-muslimiyn”, “Vaqfiya”, “Munojot”, “Risolai tiyr andoxtan” kabi asarlari aynan *din masalalarining ilmiy-falsafiy* tahliliga bag‘ishlangan.

Navoiyning din mavzusida alohida to‘xtalishining asosiy sababi, uning davrida ham islomda turli oqimlar bo‘lib, ular shaxsiy, iqtisodiy, siyosiy maqsadlarda dinni noto‘g‘ri va g‘arazli talqin qilishi oqibatida turli noxush voqealar yuz bergan. Ana shu holatni chuqur bilgan mutafakkir, islom dinidagi haqiqiy to‘g‘ri

yo‘lni islomning haqiqiy mohiyatini anglatish maqsadida ushbu bebaho asarlarini yozib qoldirdi. Mmutafakkirning dinni niqob qilib, xalqni aldab, lo‘ttibozlik, tovlamachilik bilan shug‘ullangan shaxslarni “Soda shayx” misolidagi g‘azallarida[1], shuningdek, “Mahbub ul-qulub”ning “Rioiy shayxlar zikrida”[2] faslida ham beayov tanqid qilgan. Navoiyning islomiy ilm targ‘iboti asosida yozilgan asari “Siroj ul-muslimiyn”[3], ya’ni musulmonlar chirog‘i”[4] asaridir. Bu haqda Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da ham aytib o‘tgan[5].

Asar nazmiy uslubda yaratilgan. Muhim jihati shundaki, ushbu asarning aynan she’riy uslubda yozilganligi islomdagi asosiy talablar: imon keltirish (kalima), besh mahal nomozni ado qilish, zakot berish, ro‘za tutish, va haj amallarini ado qilish tartiblari oddiy tarzda bayon qilingan. Shuningdek, tahorat, g‘usl, vuzu’ kabi shar’iy amallarni bajarish tartibi, talablarini nazmiy usulda talqin qilib, uni yod olgan kishi ushbu amallarni nuqsonsiz ado etishi uqtiriladi. Shuning uchun ham asar “Siroj ul-muslimin”- musulmonlar yo‘lini yorituvchi chiroq deb nomlangan. Bu haqda mutaffakkirning o‘zi ham alohida aytib o‘tadi[6].

Alisher Navoiyning mazkur yo‘nalishda yozilgan yana bir betakror asari “Vaqfiya”dir. “Vaqfiya” asarini uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tizimi deyish bilan birga, uning amaliy faoliyati va sa’y-harakatlari haqida biografik ma’lumotlar beruvchi memuar xususiyatdagi asar desak, haqiqatga yaqin bo‘ladi. Asar nomidan ko‘rinib turganidek, uning asosi diniy-shar’iy tamoyilga tayanadi.

I.U. Shamsimuhamedov “Alisher Navoiyning “Vaqfiya”si adabiy yodgorlik sifatida” nomli tadqiqot ishida, bu asar biografik xususiyatga ega bo‘lib, uning insonparvarlik g‘oyalari, amaliy faoliyati xususidagi nodir ma’lumot va Navoiy davridagi islom-musulmon huquqiy munosabati sifatidagi yuridik ma’lumotlar majmuasi deb baholangan.[7]

Xondamirning qayd qilishicha, XV asrning 80-yillari davomida Alisher Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ko‘prik, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan yoki ta’mirlagan. Ular orasida Xirotdagi “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, “Xolosiya” xonaqosi, “Shifoiya” shifoxonasi, Qur’on tilovot qiluvchilar uchun “Dorul-huffoz” binosi, Marvda “Xusraviya” madrasasi va

1 Ўзбек шеърияти антологияси. –Тошкент., 1991. -178 б.
2 Навоий Алишер. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ (20 томлик) –Тошкент., 1998. 14 том - Б. 44-45.
3 Навоий Алишер. Сирож ул-муслимин. МАТ. (20 жилдлик). –Тошкент., 2000. 16 жилд –Б. 273-289.
4 Бу асарни шундай номланишини шундай ишора бор деб уйлаймиз: Пайғамбаримиз исломдаги энг тўғри йўл Суннийлик тариқатини асосчиси Нуъмон ибн Ҳанифани “умматимни чироғи” деб башорат қилган эканлар. Асар айнан суннийлик тариқати талабларидан келиб чиқиб ёзилган. Шунинг учун “Сирожил муслимийн” дейилган.
5 Навоий Алишер. Насоим ул-муҳаббат. МАТ. (20 жилдлик). –Тошкент: “фан”, 2001. 17 жилд, -Б. 31-32.
6 Навоий Алишер. Сирож ул-муслимин. МАТ. (20 жилдлик). –Тошкент., 2000. -16 жилд -Б. 273-275.
7Шамсимухамедов И.У. “Вакфейе” Алишера Навои как литературный памятник» Автореф.дисс. на уч. степ. канд. фил. наук. -Тошкент, 1991.-Б. 5-9

Mashhadda “Dorul-huffoz” xayriya binosi va bir qator noyob ijtimoiy binolar qurdirgan bo‘lib, ular hozirgacha betakror memorchilik inshooti sifatida ham tarixiy qimmatga ega[1].

Islom dini va ajdodlarimizning insonparvarlik tamoyillariga asoslangan vaqf tizimini yo‘lga qo‘yish va amaliyotga keng qo‘llanishini O‘zbekiston Prezidentining Farmoni misolida ko‘rishimiz mumkin.

«Vaqf» xayriya jamoat fondi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5416-son Farmoniga muvofiq tashkil etilgan bo‘lib u o‘z oldiga masjidlar va diniy ta’lim muassasalarining binolarini qurish, ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, diniy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari, mutaxassislari va o‘quvchi-talabalarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator ishlarni maqsad qilib qo‘ygan[2].

“Arba’in” ham mutafakkirning shar’iy masalalarga, to‘g‘rirog‘i, hadislarni sharhiga bag‘ishlangan asaridir. Musulmon Sharq adabiyotida “Arba’in” yozish an’anasi mavjud bo‘lib, xalq orasida mashhur bo‘lgan, eng sahih hadislardan 40 tasini saralab, har bir hadisning mazmuni bir ruboiyda talqin qilingan. Ma’lumki, hadislarning asosiy manba sifatida arab tilida yozilganligi o‘sha davrda ham hammani to‘liq tushunishga imkon bermagan. Shuning uchun ajam (arab bo‘lmagan boshqa musulmon) xalqlari adabiyotlarida arba’in yozish an’anasi orqali, shoirlar ularning mazmun-mohiyatini o‘z tillarida she’riy usulda bayon etganlar. Bu bilan ham hadisni to‘liq tushunish imkoni bo‘lgan va ikkinchidan, hadis yodlab olingan[3].

Ulug‘ mutafakkirning boshqa asarlarida ham o‘z o‘rniga qarab hadislardan mohirona foydalanganligin ham aytib o‘tish lozim. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining ifodasi bo‘lgan “Munshaot”ida ham Sulton Husayn Boyqaro, shahzodalarga yo‘llangan maktublarida ham hadislardan foydalanib pand va nasihatlar bergan. Diniy aqidalar o‘z aksini topgan. “Munshaot”da shohzoda Badiuzzamon Mirzoga yo‘llargan maktubda, - “Ammo birovnikim, tengri taollo bir suruk bandalar ustiga hokim qildi- anga hech amr itoati adlcha bo‘lmas va nahydin ijtinob chog‘ir tarkicha bo‘lmas, chunki “innallahu ya’muru bil adl va-l-ehsan” (Alloh adl va ehsonga buyuradi) va hazrat risolat sallohu vasallam buyuripturkim,- Adlun saatun hayrun min ibadatus-saqalayn” (bir soatlik ibodat ikki dunyo saodatidan yaxshiroq) va chog‘ir ichishni zararli ekani xususida ham mashhur

1 Интернет маълумотлари
2 “Вақф” хайрия жамоат фонди ташкил қилинди http://www.vaqf.uz/uz
http://muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/7487-va-f-khajriya-zhamoat-fondi-tashkil-ilindi
3 Навоий Алишер. Арбаъин. МАТ. (20 жилдлик) -Тошкент., 2000.16 жилд -330 б.

hadisni misol keltirib chog‘irni - “ummul habois” (barcha yaramasliklarning onasi)”[1] deb chog‘ir ichishdan tiyilishga chaqiradi.

Ulug‘ mutafakkir dinni yuksak ma’naviyat shakllanishining asosiy vositasi sifatida ta’riflaydi. U o‘zining kamtarin xulqi va komillikni asosiy talabi, deb qaraydi.

Umuminsoniy madaniyat va ma’naviyatning uzviy qismi bo‘lgan, muqaddas dinimiz haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi ma’ruzasida alohida to‘xtalib: “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi. Islom dini va madaniyatidagi ulug‘ ajdodlarimizning o‘rni xususida “...ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o‘z ahamiyatiga ko‘ra, islom dinida Qur’oni Karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan “Sahihi Buxoriy”ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan”[2], dedi. Zero shunday ulug‘ mutafakkirla qatorida

Navoiy merosi faqat ijtimoiy masalalar bilan cheklanib qolmasdan, balki, tabiat, olam, dunyo uning yaralishi va mavjudligi, olamning yaralishi, tuzilishi bilan bog‘lik zarradan to koinot ilmiga qadar keng qamrovli teran falsafiy qarashlar tizimidan iborat.

Xususan, Navoiy merosida - olam, uning yaralishi, mavjudligi, olamning tuzilishi, Yerning yaralishi, undagi mavjudodlarning paydo bo‘lishi, olamda odamning o‘rni, olamni tashkil etgan unsurlar kabi hozirgacha falsafa fani oldida oxirigacha yechimini topa olmayotgan mavzular keng tahlil qilingan bo‘lib, bu masalalar o‘ziga xos uslub va xususiyatda talqin etilgan. Masalan: “Samo”, “Yer”, “o‘n sakkiz ming olam”, “yetti iqlim”, “yetti atoyu-to‘rt ano”, “vahdat ul-vujud”, “vahdoniyat” kabi umumfalsafiy va ijtimoiy-falsafiy masalalar shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy ma’naviy merosini o‘rganishda har xil davr mafkuralari ham muhim o‘rin tutgan. Masalan sho‘ro mafkurasida din va u bilan bog‘liq tushunchalar qoralangani sababli, mutafakkir asarlarining ma’naviy asosini tashkil qilgan ilohiyot bilan bog‘liq boblari cheklangan yoki qisqartirib, haqiqiy mazmuni boshqacha talqin qilingan. Misol uchun “Hayrat ul-abror”ning 1974 yilda nashr etilgan nasriy bayonida3, asarning Navoiy davri musulmon Sharqi odobi va an’analariga xos

1 Навоий Алишер. Муншаот. МАТ. (20 жилдлик) Тошкент., 1998. 14 жилд - 154 б. Изоҳлар –Б. 293-294 .
2Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. 20.09.2017. http://kun.uz/news/2017/09/20/bmtning-din-va-etikod-erkinligi-masalasi-bujica-mahsus-maruzacisi-uzbekistonga-tasrif-bilan-kelisi-kutilmokda
3 Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр (насрий баёни) Ғофур ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент 1974. 145 б.

bo‘lgan asarlar avvalida, Ollohga hamd va sanolar, Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ga na’t va duoyi salovotlar, aziz avliyolarga duoyi xayrlar keltirilgan avvalgi 12 bobigacha bo‘lgan qismi tushunib qoldirilgan. 12 bob Navoiyning ijod sohasida o‘zining salaflari, ya’ni ustozlari, xamsachilik maktabi darg‘alaridan Ozarbayjonlik ulug‘ shoir Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviyga bag‘ishlangan bobdan boshlangan.

Shuningdek, asarning Xoja Bahouddin Naqshbandga bag‘ishlangan 21 bobi, Iymonga bag‘ishlangan (Avvalgi maqolot) 22 bobi, Islom dini mohiyatiga bag‘ishlangan 24 bobi, Ibrohim Adhamga bag‘ishlangan 25 boblari ham tushirib qoldirilgan. Lekin, sho‘ro davri mafkurasining ta’qib obyekti diniy mavzu bo‘lganligi bois Navoiy davrida ham uning asarlarida tanqid ostiga olingan zolim podshohlar, adolatsiz vazirlar, ayniqsa, riyokor shayxlarni ayovsiz fosh etgan boblariga asosiy e’tibor qaratilgan. Umuman, Navoiyni feodal-klerikal, ya’ni feodal-diniy adabiyot vakili sifatida talqin qilishga urg‘u berilar edi. Zero, klerikalizm so‘zi va tushunchasi G‘arb madaniyati va nasroniylik dini zaminidan kelib chiqqan bo‘lib, bu tushunchani Sharq falsafasi va adabiyoti vakillariga nisbatan qo‘llash mantiqan noo‘rin deb uylaymiz.

Fikrlarimiz so‘ngida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy muqaddas dinimizning sofligi, uning haqiqiy falsafasini targ‘ib qilib, dinni mutaassiblik manbaasi va quroli emas, balki, ma’naviyat va ma’rifat yo‘li sifatida talqin qiladi. Musulmon Sharqida din yo‘lida yuksak xizmat ko‘rsatgan shaxslarga Nizomiddin (Nizom ad-din) yuksak rutbasi berilgan. Ulug‘ mutafakkir shunday maqomga erishgan ulug‘ alloma hisoblanadi. E’tiborli jihati shundaki, Navoiyni o‘z darida yashagan ko‘plab ulamolari, taniqli shayxlar o‘zlariga pir deb bilganlari holda, biror joyda Uning diniy darajalari ko‘rsatilmagan. Bunga sulton Husayn Boyqaro Navoiyni o‘ziga pir e’lon qilishini misol qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбек шеърияти антологияси. - Тошкент., 1991. -178 б.
2. Навоий Алишер. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ (20 томлик) - Тошкент., 1998. 14 том - Б. 44-45.
3. Навоий Алишер. Сирож ул-муслимин. МАТ. (20 жилдлик). - Тошкент., 2000. 16 жилд - Б. 273-289.
4. Навоий Алишер. Насоим ул-муҳаббат. МАТ. (20 жилдлик). - Тошкент: “фан”, 2001. 17 жилд, -Б. 31-32.
5. Навоий Алишер. Сирож ул-муслимин. МАТ. (20 жилдлик). - Тошкент., 2000. -16 жилд -Б. 273-275.
6. Шамсимухамедов И.У. “Вакфейе” Алишера Навои как литературный памятник» Автореф.дисс. на уч. степ. канд. фил. наук. -Тошкент, 1991.-Б. 5-9
7. Интернет маълумотлари
8. “Вақф” хайрия жамоат фонди ташкил қилинди http://www.vaqf.uz/uz

9. http://muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/7487-va-f-khajriya-zhamoat-fondi-tashkil-ilindi
10. Навоий Алишер. Арбаъин. МАТ. (20 жилдлик) -Тошкент., 2000.16 жилд -330 б.
11. Навоий Алишер. Муншаот. МАТ. (20 жилдлик) Тошкент., 1998. 14 жилд - 154 б. Изоҳлар - Б. 293-294 .
12. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. 20.09.2017. http://kun.uz/news/2017/09/20/bmtning-din-va-etikod-erkinligi-masalasi-bujica-maxsus-maruzacisi-uzbekistonga-tasrif-bilan-kelisi-kutilmokda
13. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр (насрий баёни) Ғофур ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент 1974. 145 б.

ALISHER NAVOIY ONTOLOGIK FALSAFASIDA VAHDATUL VUJUD MASALASI

Norov Toji Omonovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Falsafa” kafedrasi professori,
falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotasiya: Mazkur maqola musulmon Sharqi falsafiy maktablarida keng tarqalgan, borliq bilan bog‘liq eng nozik va katta jumboq masala bo‘lgan vahdatul vujud masalasiga bag‘ishlangan. Vahdatul vujud masalasi sharq falsafasida o‘zining plyuralistik tabiati bilan birga, o‘ta mutassiblashgan suluk va tariqatlar tomonidan ilgari surilgan, o‘ta johilona yondashuvlar, ularning hukmron siyosiy mafkura quroli sifati bu ta’limot tarafdorlarining shafqatsiz qatligacha bo‘lgan murosasiz yo‘lni bosib o‘tganligi yoritishga harakat qilindi. Maqolada, mavzuning ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy falsafiy merosida o‘ta oddiy tarzda, ma’rifiy, irfoniy jihatlar asarlaridagi misollar vositasida bayon qilindi va ilmiy tahliliy xulosalar berildi.

Kalit so‘zlar: musulmon sharqi falsafasi, borliq, olam, vahdatul vujud, tasavvuf, “aqliy ilm”, “naqliy ilm”, “hamma narsa Udir”, “hamma narsa Undandir”.

“Vahdatul vujud” tasavvufiy, falsafiy istilohi mazmunini ochish uchun, avvalo bu istilohning lisoniy va falsafiy asoslarini aniqlashtirib olish kerak. Shuning uchun, tasavvufiy falsafaning o‘zagi bo‘lgan, - “vahdat”, “vohid”, “vahdoniyat”, “vujud” kabi so‘zlarning o‘ziga qisman izoh bersak. Bu o‘rinda bu tushunchalarga shu paytgacha berib kelingan lug‘oviy, ilmiy-falsafiy, qomusiy ta’rif va xulosalarni asos qilib oldik.

Vahdatul vujud - (arab. - jismoniy birlik) - abadiy yagona Allohgina bor deb hisoblovchi panteistik ta’limot. Bu ta’limotga ko‘ra, jismoniy olam, predmetlar dunyosi haqiqiy emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlangan, moddiy olam

Allohning nuri, shu'lasidir. Vahdatul vujud namoyandalari xudo butun borliqni yaratib turadi, deb hisoblaganlar[1].

Vahdoniyat va vahdatul vujud ta'limoti - Alloh bilan birga yagona moddiy olam bor deb hisoblaydigan ta'limot. Bu ta'limot tarafdorlari tabiatning abadiyligini tan oladilar, Alloh olamning o'zida, unga singib ketgan deb qaraydilar. Vahdati mumkin vakillari odam bu dunyodan voz kechmay, tarki dunyo qilmay yashashga intilishi kerak degan fikrni olg'a surdilar. Shuning uchun ko'pchilik musulmon ruhoniylari bu ta'limotga ***shubha va hushyorlik*** bilan qarar edilar. Kindiy, Forobiy, Ibn Rushd, Bedil bu ta'limotning namoyandalari hisoblanadi. Vahdati mumkin namoyandalari fikricha, tabiat abadiy, undagi narsa va hodisalar o'zaro bog'liq, dunyo hamisha o'zgarish, rivojlanish holatida turadi. Vahdati mumkin tarafdorlari musulmon Sharqida tabiatshunoslik bilimlarining rivojlanishi uchun falsafiy asoslar yaratib berdi[1].

Bu tushunchalar, aslini olganda, falsafa tarixida ancha ilgari ham shunga o'xshagan qarashlar ilgari surilgan bo'lsada, aynan tasavvuf falsafada bu nazariya Ibn al-Arabiyga[i[1]] nisbatan beriladigan vahdatul vujud ta'limotiga borib taqaladi[i2]. Lekin, ibn Arabiyning o'zi ushbu atamani, aynan **"vahdatul vujud"** tarzida qo'llamagan. Ammo izdoshlari uning ta'limotini o'rganib, uni shu atama bilan mashhur etganlar.

Ibn al-Arabiy Abu Bakr Muhammad (taxallusi; Shayx al-Akbar «Buyuk Shayx») (1165.7.8, Mursiya, Ispaniya - 1240.16.11, Damashq) - arab mutafakkiri va shoiri, sufiylikning ko'zga ko'ringan namoyandasi. Falsafiy dunyoqarashiga vahdat ul-vujud ta'limoti xos bo'lib, hamma narsaning yagona asosi ilohiy substansiya (ruh, ideya) dir, deb hisoblaydi. Sufiy sifatida Allohni oliy, mutlaq haqiqat holda anglash va unga ko'ngilni poklash orqali erishishni tan olgan. Uning "al-Futuhot al-Makkiyya" ("Makka g'alabalari"), "Fusus alhikam" ("Hikmatlar durdonasi"), "Kitob as-sab'a" ("Yetti hikmat kitobi"), "Mafotih al-g'ayb" ("G'ayb kalitlari"), "Kitob alhaq" ("Haqiqat kitobi") kabi 400 ga yaqin asari bor[i3].

Alisher Navoiy "Nasiyim ul-muhabbat"ning **Shayx Muhyiddin Muhammad b. Ali b. Arabiy h. s.** maqolasida ibn al-Arabiyni quyidagicha ta'riflaydi: ***Vahdati vujud*** qoyillarining qudvasidur (yetakchi, boshliq). Zohir fuqaho va ulamosidin ko'p anga ***ta'n qilibdurlar***. Fuqahodin oz va so'fiydin jamoate ani buzurg tutubturlar. Uni yuksak ehtirom bilan ulug'ladilar, so'zlarini maqtab, madh etdilar, baland martabasini sifatladilar, behisob karomotlaridan xabar berdilar, deb yozgan.

Uning asarlari xususida: "...Va anda kelturubdurki, alarning musainafoti (asarlari) besh yuzdin ortiqroqdur va Hazrat Shayxning ba'zi as'hobining iltimosi bila o'z musannafoti fihrastida risola bitibdurlar. Anda ikki yuz ellikdin ortiqning

otin mazkur qilibdurlar, ko‘praki tasavvufda” [2]. Ya’ni, manbalarda uning asarlari soni besh yuztadan ziyod deyiladi lekin, o‘zi asarlarining ro‘yxati bitilgan bir risolasida 250 dan ortiq asarini keltirgan deydi[2].

Tasavvufshunos olim H.Beruniy o‘z tadqiqotlarida, ibn al Arabiyni va uning izdoshlarini vahdat ul-vujud ta’limoti uchun bir qator ulamolar tomonidan ***kofir*** deb fatvo berilgani, lekin, boshqa bir guruh olimlar qo‘llaganligi va unga ergashib asarlar yaratganligini aytib o‘tgan. Shu bilan birga, bu ta’limot islom olamida juda ko‘p tortishuvlar, bir-birovni “takfir” deb, ya’ni kufrda ayblashlar, va qatl kabi ayanchli holatlarni musulmonlar boshiga solishi bilan harakterli bo‘lib qoldi deyiladi[3].

Ibn al-Arabiyning vahdat ul vujud ta’limotning irfoniy talqini, uning Naqshbandiya tariqati shayxlariga ta’siri xususida J.Xolmo‘minovning doktorlik ishida to‘xtab o‘tilgan. Jumladan, A.Jomiy va Navoiyning vahdatul vujudga oid qarashlari misol keltirilgan[6].

Vahdat-ul vujud mavzusi, hozirgi kunimizda ham sof ilohiyot namoyondalari tarafidan ehtiyotkorlik, hatto raddiya bilan qabul qilinadi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning, ***“Tasavvuf haqida tasavvur”*** kitobida: “*...vahdatul vujud masalasining qayta maydonga chiqishini istamas edik. Men o‘zim bu masalaning birovning esiga tushib qolishini aslo istamas edim. Bu masaladan xabardor birodarlarga ham uni qo‘zg‘amaslik kerakligini aytib yurar edim. Ammo biz istaymizmi, yo‘qmi, asta-sekin vahdatul vujud masalasi maydonga kirib kela boshladi* [7]. Bu yerda ham tasavvufning sunniy talqini, falsafiy va ayniqsa ilmiy-ma’rifiy talqini kelisha olmasligini anglash mumkin.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘zlari talqinlarida ***vahdatul vujud***ni qisqacha quyidagicha ta’riflaganlar: «*Alloh taolodan boshqa barcha narsalar shu’un va ta’yinotlar olami (aniq va aniq bo‘lmagan narsalar olami)dir. Barcha shu’un va ta’yinotlar U zotning ko‘rinishlaridir. U zot ularda zohir va aralashib yuruvchi bo‘lgandir. Bu aralashib yurish hulul (doxillik, kirish) va ittihod (birlashish, birlik) nazariyasi sohiblari aytgani kabi emasdir. Balki bu aralashib yurish bir sonning boshqa sonlar ichida yurgani kabidir. Hamma sonlar birliklardan iboratdir. Ammo olamda faqatgina bir muayyan narsa yoki bittagina zot zohir bo‘ladi, xolos. Ana o‘sha zot Allohning muqaddas zoti shaklida zohir bo‘lgandir. Allohning zoti esa ko‘p adadlarda zohir bo‘ladi. Bas, Alloh avval va oxir, zohir va botin, sheriklar va tengdoshlardan ustindir*”[7].

Bu yerda, “***aqliy”*** va ***“naqliy”*** ilm tarafdorlari o‘rtasida katta ziddiyat maydonga kelganini ko‘rish mumkin va ixtilof hozirgacha davom etib kelmoqda.

“Vahdatul vujud” - bu dunyodagi jami yaralgan mavjudod Allohning zotini bildiradigan falsafiy tasavvufiy tushunchadir. Unda ikki arabiy so‘z, - “vahdat”, ya’ni, birlik, butunlikni, “vujud” so‘zi, tana, moddiylik, ya’ni moddiy borliqni anglatgani uchun ko‘proq bu o‘rinda tana, tiynat ashyolarning moddiy qismi “vujud”

deb tushuniladi. Bu tushuncha G‘arb falsafasida ***“materiya”*** tarzida, rus tilida ***“telo”*** so‘zlari ashyolarning moddiy jihatini anglataldi. Butun olam, koinot, borliq Ollohning vujudidir, borliqning substansiyasi, mohiyati Ollohdir degan ta’limot hisoblanadi. Barcha ashyolar, butun olam, koinot - bu Ollohdir, uning vujudidir, uning o‘zidir degan talqin. Lekin, bu masalada bir-biridan farq qiluvchi ikki yondashuv bor. Ayrim tasavvuf faylasuflari “***hamma narsa Uning O‘zi***” yoki ***“hamma narsa Udir”*** deyishgan bo‘lsa, boshqa bir faylasuflar, “***hamma narsa Undan***” deyishgan. Ya’ni, olamdagi hamma ashyolar, butun borliq uning O‘zi, uning vujudi, tabiat borliq Uning vujudi, olam vahdat Olloh bilan bitta butunlikni, yagonalikni, butun vujudan iborat degan bo‘lsa, ikkinchi guruh mutasavvufchilar hamma narsa undan, yoki hamma narsa uning hukmi, irodasiga bog‘liq, u hech narsani jismi, vujudida yo‘q, balki hamma narsa uning hukmi, amri bilan bor yoki yo‘q bo‘ladi, U ya’ni, Olloh alohida bir Halloqi, mo‘jiza manbai degan ilohiy qarashni ilgari surishgan.

Olamni Olloh yaratgan yagona xoliq, mohiyat, sabab ekanligi “Lisonut-tayr”ning debochasida quyidagicha ifodalanadi:

Ulki maxluqot xalloqidur ul,
Ondin o‘zga foniyu boqiydur ul.
Soni’ikim chekti chun sun’i qalam,
Ofarinish tarhini qildi raqam.
Aylagach doyir to‘quz aflokni,
Qosir etti fahmidin idrokni[4].

Bu majoziy-falsafiy tasvirda Navoiy: U (Olloh) butun maxluqotni yaratgandir, boshqa ashyolar foniydir, faqat Ugina boqiydir, Olloh mu’jizali qalami bilan, butun borliqni, undagi ashyolarni yaratdi, xususan to‘qqiz falakni yaratdi, lekin uning sir-asrorini inson idroki doirasidan tashqari qildi. Yoki bu sirlarni hammasini bilishga odam idroki ojizlik qiladi.

Nazmu nasridin tahrir aylabon,
Vahdat asrorini tafsir aylabon
Sendadur ham birliku ham borlig‘,
Haylig‘u qodirlig‘u g‘afforlig‘[4].

Shuningdek, vahdat ahli deb, xudoni yolg‘iz, yagona deb taniganlar, oriflar tarzida talqin qilingan;

Ollohning yagona mohiyat sifatida esa:

Vahdati *zotiga quyoshdek tanuq,*
Zarradin afzunu quyoshdin yoruq[5]
degan, misollari keltirilgan.

Bu satrlarning mazmuni, - Ollohning olamni, borliqni yaratuvchi yagona mohiyat ekanligi, uning vujudi mavjud bo‘lgan olam ashyolari zarradan ko‘pligi esa qo‘yoshdek ravshandir.

Bizning fikrimizcha, Navoiy G‘azzoliyning borliq falsafasiga oid qarashlari xulosalarini taxminan quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Navoiy ham G‘azzoliy kabi ma’rifiy islom tarafdori edi va aynan shu jihatini qadrlagan. Olam va ashyolar tabiatini ilm-ma’rifat, aql-zakovat vositasida o‘rganib, xulosa qilish lozimligini uqtiradi;
- ruh nomoddiy asosda, u Allohga doir bo‘lgani uchun, uni aql bilan anglash mumkin emas;
- ashyolarning faqat qolipini (forma - shakl-shamoyili) ko‘ramiz, lekin, qolip ruhdan bexabar;
- Olamda biz ko‘rib turgan ashyolar haqiqiy olam emas ularning ruhidir, haqiqiy borliq(kivomlik, qayyumlik) Ollohga xosdir;
- Ashyolar tabiatidagi unsurlarning moddiysi va nomoddiysi - hasti nestnamoy va hasti hastnamoyga bo‘linishi;

Alisher Navoiy vahdatul vujudni yoqlagan va uni ma’rifiy talqini tarafdori bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Lekin, ma’rifat yo‘lidan toymagan ayrim mutafakkirlarni johiliyat qurboni bo‘lganini afsus bilan aytib o‘tadi. Albatta, unda “vahdat”, “vahdoniya”, “ahad” kabi islomiy, tasavvufiy istilohlar, Ollohning yagonaligi, butun olamning yagona javhari, mohiyati, asosi ekanligi Navoiyda iymon darajasida e’tirof etilgan. U “Hayrat ul-abror”da:

Vahdati zotig‘a quyoshdek tonuq,

Zarradin afzunu quyoshdin yoruq[5]

Ya’ni, Sening yagona zot ekanliging, olamning butunligi faqat Senga bog‘liqligi quyoshdek ravshan, ular zarradan ham ko‘p va quyoshdan yorug‘. Boshqacha aytganda, Sening vujuding zarralardan tortib, quyoshdek ulkan sayyoralar ham Sening vujudingdir va ular bir butunlikni tashkil etishi kundek ravshan deyilgan. Bu esa vahdoniyat ma’nosini beradi.

Birlik ediyu adadi yo‘q edi,

Birdin o‘zga ahade yo‘q edi[5].

Bu baytda ham Navoiy, O‘zing aslida Yakkasanu, lekin, olamdagi seni inoyating bo‘lgan ashyolarning adadi, ya’ni sonu-sanog‘i yo‘q, O‘zing Ahadsan - Yakkasan, Sening sheriging yo‘q, deydi.

Ey bori mavjudg‘a sendin vujud,

Balki vujud ahlig‘a fayyozi jud[5].

Bu yerda, olamdagi hamma narsada Sening vujuding bor, butun mavjudodga saxiylik vujud bilan fayz bergansan. Ya’ni, olamdagi barcha ashyolarning ham jismi ham mazmuni va fayzisan degan ma’no yotibdi.

Avval o‘zung, oxiru mobayn o‘zung,

Borchag‘a xoliq, borig‘a ayn o‘zung[5].

Olamning ibtidosi, hamma narsaning moyasi Sensan, irodang bilan ularni turli vaqt va zamon mobaynida mavjudligi hamda poyoniga yetkazuvchi ham O‘zingsan, barchani Xoliqi (xalq qiluchi, yaratuvchi, yasovchi), manbasi aynan O‘zingsan.

Navoiy hamma asarlarining boshlanishi an’anaviy Olloh hamdiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda olamni va borliqni yaratilishi bilan bog‘liq panteistik asosga ega. Jumladan, “Saddi Iskandariy”da,

Vujud ahlining komi judung bila,

Kelib jud qoyim vujudung bila[9].

Ma’nosi: barcha mavjudliklarni komi (komi murod-oliy maqsad) sening saxovating tufayli. Aslda ularda seni qoyim vujuding va saxovating borligi tufayli ular bordir. Asl qoyimlik Senga xos.

Vujudung qachon qilsa zohir qidam (qadim),

Bo‘lub borcha ashyo vujudi adam[9].

Ma’nosi: azalda Sening vujuding zohir bo‘lishi bilan, barcha ashyolar adamdan, ya’ni yo‘qlik olamidan vujud (borliq) olamiga kelishdi.

Tasavvufshunos olim N.Komilov, vahdatul vujud falsafasida «Hamma narsa Undan» tushunchasi bilan birga “Hamma narsa Udir” tushunchasi ham ba’zan qo‘llaniladi. Biroq, shunga qaramay, buni “Tabiat - Xudodir” degan g‘oyaga tenglashtirolmaymiz. “Hamma narsa Udir” degan qarashda Xudoning zoti sifatlarida mujassam, degan fikr ifodalangan.

Vahdatul vujud ta’limotiga ko‘ra, olam uzluksiz o‘zgarishda (transformasiya, inqilob), Xudo har bir lahzada o‘zgacha sha’n (surat, shakl-shamoyil- ya’ni forma) bilan zuhur etadi, yangi sha’n avvalgisiga o‘xshamaydi. Faqat orif buni his etadi, chunki aql suratlarga bog‘lanib qoladi, orif qalbi doim mohiyatga - haqiqatga qarab boraveradi[8].

Orif so‘zi, bizni o‘zbek va boshqa musulmon xalqlari tillariga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, uning ilk mazmuni - Ollohni tanish, tan olishni anglatgan. Keyinchalik, umuman, ta’lim, ilm-ma’rifatni anglatuvchi tushuncha sifatida e’tirof etila boshladi. Xususan, maorif so‘zining o‘zagi orifdir.

I.Haqqulov: tasavvuf tadqiqotchilarining e’tirof qilishlaricha, Mansur Xalloj va Boyazid al-Bistomiyda ham vahdatul vujudga yaqin fikr-qarashlar bo‘lgan. Ammo ular vahdatul vujudga qaraganda vahdatul shuhudga yaqindirligini aytadi. Navoiyning “Xazoyinul maoniy”dagi bir g‘azalida bu haqda shunday deyiladi:

Zihi kamol ila kavnayn naqshiga naqqosh,

Muqavvanot vujudin vujuding aylab fosh[10]

deb boshlanuvchi g‘azali mazmuni tahlilini keltiradi.

Tavhid va vahdatul vujud atamasi ilmiy adabiyotda ko‘pincha bir maznunda tadbiq etiladi. Xolbuki, tavhid sof diniy, vahdatul vujud esa tasavvufiy tushuncha bo‘lib, mohiyat e’tibori bilan ular bir-biridan farq qiladi. Vahdatul vujudniki - "kasrat", shuning uchun ularning birini ikkinchisiga nisbat berish mumkin emas, deydi[11].

Bu yerda tasavvufiy she’riyatda borliqni orifona va shoirona tamsil va badiiy tarzda bayon qilish san’ati borligini ko‘rishimiz mumkin.

Ba’zi o‘rinlarda aytib o‘tganimizdek, falsafaning boshqa muammolari kabi borliq bilan bog‘liq masalalarda nafaqat, dunyoviy va diniy yondashuv namoyondalari o‘rtasida murosasiz bahslar kechadi, balki, dinlardagi oqimlar, mazhablar, suluklar, tariqat yo‘llarida ham juda murosasiz ixtiloflar bo‘lib, “qo‘li baland kelganlar” “mag‘lublarni” kofirlikda ayblab, qatl qilishgacha borganlar. Zero bu masalani Navoiy falsafiy merosini o‘rganishning mafkuraviy jihatlari mavzumizda to‘xtalib o‘tganmiz.

Insoniyat tarixi mafkuraviy kurashlar jarayoni bilan kechgan ekan, bu hol hozir ham davom etib kelmoqda. Xususan, ba’zi tadqiqotchilar vahdatul vujud ta’limotini panteistik nazariya deb talqin qilsa, diniy aqida tarafdorlari buni qabul qilishmaydi. Vaholanki, shu davrgacha olib borilayotgan tadqiqotlar ilmiy tili qadimgi yunon tili, uning merosxo‘ri bo‘lgan G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tillarida bo‘lganligi o‘laroq panteizm - ilohiy, ilohiyot, Ollohga doir so‘zini anglatar ekan, aslda ularning mantiqiy asosi bir ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin, garchi masalaning qo‘yilishi va unga javob aniq bo‘lishi mumkin bo‘lgani holda, unga yondashuv va javoblar masalasida bahslar bor va u tabiiydir. Panteistik qarashlarning deyarli hammasida olam,borliq, uning javhari, ya’ni substansiyasi masalasida qo‘yiladigan bir savolga asosan ikki xil yondashuv bor. Bular: “*Xudo va tabiat bir narsa*” va “*Xudo butun koinot, olam xususan tabiatning Yaratuvchisi*” sifatida xulosalanadi. Bu bahs tassavuf shayxlari bo‘lgan ma’rifat yo‘lidagi mutasavvuflar tariqat yo‘llari o‘rtasidagi bahsdir. Yuqorida keltirilgan Navoiy g‘azalining mazmuni ham, “Hamma narsa undan” xulosasini beradi[i4][1].

Chunonchi, Rumiy birinchi bo‘lib, olamning zarradan koinot qadar o‘zaro vobastaligi, bir-biri bilan tortilib turishi, dialektik taraqqiyoti (oddiydan murakkab sari rivojlanish, hamma yerda ziddiyat va qarama-qarshiliklar birligining mavjudigi) haqida fikrlar bayon etgan edi. Bu bir necha asrdan keyin Gegel tomonidan rivojlantirildi va Gegel ta’limoti sifatida G‘arb falsafiga uning asoschisi sifatida kiritildi[i5].

1http://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/najmiddin-komilov-tasavvuf-8-vahdatul-vujud-va-vahdatush-shuhud.html

Ammo Naqshbandiya tariyqatining ko‘zga ko‘ringan arbobi, ulkan olim va so‘fiy Imomi Robboniy (hijriy 971 - 1034 sanalar va milodiy 1563 - 1625 sanalar) bu xil qarashga o‘zlarining to‘rtinchi yo‘llarini qo‘shdilar.

U kishining fikrlaricha, vahdatul vujud solikka oriz bo‘ladigan bir holdir. O‘shanda so‘fiy odamga ko‘rinadigan hamma narsa bir vujud bo‘lib qoladi. Ammo solik ilohiy tavfiq ila nabaviy hidoyatga rafiq bo‘lib tursa, boshqa bir maqomga erishadi[i6]. Bu maqom vahdatul vujud maqomidan ustun maqom bo‘lib, *«vahdatush-shuhud»* deb ataladi. Vahdatush-shuhud darajasiga yetgan solikning shohidligi faqat vojibul vujud (Alloh)ning yolg‘iz O‘zi bo‘lib qoladi. Boshqa narsalar o‘zlari mavjud bo‘lsa ham, unga yo‘qdek bo‘lib qoladi. Chunki, quyosh chiqqanda yulduzlar ko‘rinmay qolganidek, Alloh taologa yetishganda, boshqa narsalar ko‘zga ko‘rinmay qoladi.

Tasavvuf yo‘llari, ular o‘rtasidagi g‘oyaviy, falsafiy farqlar va ixtiloflar jarayonlari tarixi, ularda borliq bilan bog‘liq muammolar tahlili, professor Sh.Sirojiddinovning ilmiy monografiyasida ancha xolis, ilmiy-ma’rifiy tarzda tadqiq qilib, xulosalar berilgan. “Tasavvuf nazariyasi bir-biriga jiddiy muxolif bo‘lgan ikki yunalishda rivojlana boshladi. Biri falsafani omixtalashtirgan holda, ikkinchisi kalom ilmi. Birini “Vahdat ul-vujud”, ikkinchisini “Vahdat ul- shuhud” deb nomladilar. Ya’ni, “vujudiylar” g‘oyalarini maslak qilgan tariqatlar paydo bo‘ldi. “shuhudiylar” ichida ham bir-biri bilan yuz ko‘rmas bo‘lgan tariqatlar paydo bo‘ldi. Ularning bir-birlariga munosabatlari manoqib adabiyotlarida to‘la aks etgan”[12].

“***Naqliy ilm***” va “***aqliy ilm***”ga munosabat ham tasavvuf ilmlarida turlicha yondashildi va talqin qilindi[12]. Afsuski, hozirgi kunlarimida ham aqliy bilimni rad etib, naqliy bilimlarga yopishib olish holatlari ustuvorlik kasb etayapti. Albatta bu o‘rinda, dogma darajadagi va jo‘n aqidalarga yopishib olish nazarda tutilmoqda. Masalan fan-texnika va boshqa samarali ilmiy manbalar o‘rniga hali ham irim-sirimlarga, folbinga, soxta tabiblarga ishonish, hatto e’tiqod darajasiga olib chiqadigan soxta chorlovlar qilish bunga misoldir.

Faylasuflarning qarashlarida ustuvor bo‘lgan mistik-metafizik qarashlar XIII asrdan e’tiboran sufiylar orasida tobora ommalashib borayotgan Ibn al-Arabiyning (1165-1240) “Vahdat ul-vujud” (Yagona borliq) mistik ilohiy ta’limoti mag‘ziga singdi. Tobora chuqurlashib borayotgan va keng qatlamlarga ta’siri kundan-kunga ziyoda bo‘layotgan ushbu ta’limot shu davrgacha umumiy qarashlar, harakatlar va an’analar asosida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan sufiylar dunyosini alg‘ov-dalg‘ov qilib tashlash bilan birga ularni ikki lagerga bo‘lib tashladi[12].

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Bizning nazarimizda, - borliqning ibtidosi, ya’ni ilk mohiyati, asosi ilohiy manbaalarda Xudo deb topilgan bo‘lsa, bu hozircha boshqa yondashuvlardan ancha

aniqrog‘i. Borliqning ichki mazmuni, xossalari, o‘zgarish jarayonlari bilan bog‘liq jarayonlar, ularni qonuniyatlari bilan materialistik tadqiq qilayotgan fan sohalari bir qarashda borliqning ilk ibtidosidan ancha yiroq.

Yassaviyning ilohiyotida borliq va mohiyat, javhar, ibtido masalalari Navoiy asarlari va qarashlarida davom etadi hamda mukammallashadi. Shu jihati bilan ham Yassaviy merosi Navoiyning umuman ijodiy faoliyatidagi manba va nazariy-uslubiy asos hisoblanadi. Yassaviyning xizmati shundaki, u juda ko‘plab tasavvufiy istiloh va tushunchalarni turkiylashtirdi. Bu xizmatlarini Navoiy “Nasoyimul muhabbat ” va boshqa o‘rinlarda e’tirof etgan va katta baho bergan. Umuman, Yassaviy e’tiqodda ham pir hisoblanadi - Navoiy Yassaviya tariqati, Naqshbandiya sulukiga e’tiqod qiladi[11].

Bizning nazarimizda, orifona va shoirona yondashuvlar ko‘pincha borliq, olam bilan bog‘liq masalalarda mustaqil fikrlarni she’rda, g‘azalda isyon tarzida ifodalash shakli edi. Bu talqin ko‘p hollarda fojiali yakun topgan. Sufiyni olam va borliq, umuman boshqa falsafiy va e’tiqodiy savollarni Quroni Karimga zid yoki rad etish holatini, faqatgina, zikr, shataxot holati bilan izohlansa u omon qolgan. Boshqa hollarda qatl qilinganligini ko‘rish mumkin.

“Lison ut-tayr” falsafasini tushuntirishdan boshlagan ma’qul ko‘rinadi. “Farhod va Shirin”da:

Ajab suratki bir naqqoshi mohir,
Bo‘lur yuz nav’ surat birla zohir.
Shuhudi aql darkidin mubarro,
Vujudi dark (idrok)shu’bidin muarro[13].

Shuhudi *(ko‘rish, mushohada)* aql darkidin mubarro (idrok qilib bo‘lmaydi),

Nishoni benishonliqdin yiroqroq,
Makoni bemakonliqdin qiroqroq.
Azaldin behad oshib ibtidosi,
Abaddin asru toshib intihosi[13].

Bu satrlarda ham, Alloh butun moddiy, nomoddiy olamning ibtidosi, asosiy javhari, moyasi ekanligi ifodalangan. Shuningdek, makoni bemakonlikdan qiroqroq, ya’ni islomiy ta’limotda lomakon, makondan tashqarida kabi masalalar badiiy tarzda, bu mo‘jizotlar aql bilan anglab yetib bo‘lmaydigan ilohiy asrorligi aytiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki:

− Vahdat ul-vujul ta’limoti Islom dini uning olam va borliq bilan bog‘liq qarashlari zaminida shakllangan va takomillashgan;

− Ta’limot boshqa barcha falsafiy qarashlar kabi bahs-munozara va ixtiloflardan iborat;

− Navoiy falsafasiga kelganda uning vahdoniyat va olamning yagona mohiyati Olloh degan tasavvufiy ta’limot tarafdori ekanligini anglash mumkin;

− Lekin, Navoiydagi qarashlar zaminida shuni anglash mumkinki, vahdat ul vujuddagi “hamma narsa U” maqomidan qaraganda, Navoiy butun koinot olam, zarralargacha Uning vujudi deydi. Shu bilan birga, olam yaralishidan oldin, ya’ni adam davrida Ollohdan bo‘lak hech narsa yo‘q edi, Olloh yaral dedi olamu, ashyolar yaraldi vujudga keldi degan qarashlaridan kelib chiqqanimizda “hamma narsa Undan” pozisiyasiga ham yaqin turganligini aytish mumkin. Boshqacha aytganda, dualistik pozisiyani ko‘rish mumkin;

− Har qalay Navoiy olamning yagona manbai, sababi, mohiyati Olloh degan panteistik, tasavvufiy, ma’rifiy falsafa tarafdori ekanligini aytish mumkin.

Nazarimizda, manbalardagi izohlar tahlilidan shunday xulosa qilish mumkinki, ulamolar orasida tasavvufdagi bu ikki tushuncha bo‘yicha yakdil xulosa yo‘q. Vaholanki, ana shu masalalar ilmiy jihatdan kam tadqiq qilinganidan, tadqiq qilinganda ham xolislik va dadillik, jur’atli aniq xulosa qilinmaganligidan deb uylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti www.ziyouz.com kutubxonasi. Vahdati mumkin maqolasi. 80bet

2.Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 17 t. Nasoyim ul-muhabbat. - Toshkent: “Fan”, 2001. - B. 394-396.

3. Beruniy. H. Ibn al-Arabiy Shayxi akbarmi yo Shayxi akfarmi?! https://ahlisunna.uz/ibn-arabiy-haqida/

4.Navoiy. A. Lisonut-tayr. TAT: 10 tomlik. 9 t. - Toshkent: G‘.G‘ulom NMIU, 2011. - B. 3.

5.Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 7 t. Xamsa: Hayrat ul-abror. - Toshkent: “Fan”, 1991. - B. 9.

6.Xolmuminov J. Vahdat ul-vujud falsafasi va uning Naqshbandiya ta’limotiga ta’siri (Ibn-al-Arabiy, Muhammad farso va Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida). Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertasiya avtoreferati. - Toshkent, 2020. - B. 64.

7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. https://islom.uz/maqola/1186.

8. Komilov. N. Tasavvuf. “MOVAROUNAHR”, “O‘ZBEKISTOT” NMIU, 2009. - B. 448.

9.Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 11 t. Xamsa: Saddi Iskandariy. - T: “Fan”, 1993. - B. 3.

10.Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 1t. Badoyeul-bidoya. - Toshkent: “Fan”, 1987. - B. 226.

11.Haqqulov I. O‘zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiyasi avtoreferati. - Toshkent, 1993. - B. 18-20.

12.Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari / Monografiya. - Toshkent: «Yangi asravlodi», 2011, - B. 10-11. Sirojiddinov Sh. Jomiy va Navoiyning sufiylikka qarashlari // Navoiy dunyo sharqshunoslari nigohida - mavzuidagi Xalqaro konferensiya ilmiy to‘plami. - T.: TDShU, 2021. - B. 31-36.

13.Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 8 t. Xamsa: Farhod va Shirin. - Toshkent: “Fan”, 1991. - B. 11.

Интернет маълумотлари:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/
2. https://www.google.com/
3. https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ibn-al-arabiy-uz/
4. http://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/najmiddin-komilov-tasavvuf-8-vahdatul-vujud-va-vahdatush-shuhud.html
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/
6. https://ahlisunna.uz/ahmad_as-sirhindiy/

MAHDUMI A’ZAMNING “RISOLAI ZIKR” ASARIDA ONTOLOGIK, EPISTEMOLOGIK, AKSIOLOGIK, AXLOQIY HAMDA BAG‘RIKENGLIK QARASHLARNING AKS ETISHI

Uraqov Nodirbek Boboqulovich
Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti
E-mail: u-nodirbek@yandex.com ORCID: 0009-0006-0763-8279

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkurining yirik namoyandasi bo‘lgan Mahdumi A’zam Ahmad Kosoniyning ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy merosida ontologik, epistemologik, aksiologik, axloqiy hamda bag‘rikenglik g‘oyalarining falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Mutafakkirning inson, borliq, ma’rifat, komillik, jamiyat va ruhiy poklanish haqidagi qarashlari zamonaviy falsafiy tafakkur bilan qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot davomida Mahdumi A’zam ta’limotida insonning ma’naviy kamoloti, ijtimoiy hamjihatlik, diniy bag‘rikenglik va axloqiy yetuklik masalalari tasavvufiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, maqolada allomaning qarashlari bugungi globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarni bartaraf etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Mahdumi A’zam, tasavvuf, ontologiya, epistemologiya, aksiologiya, axloq, bag‘rikenglik, ma’naviyat, komil inson, Naqshbandiya, falsafiy tafakkur.

Markaziy Osiyo uyg‘onish davri va undan keyingi ma’naviy-madaniy taraqqiyot jarayonida tasavvuf falsafasi jamiyatning ruhiy-axloqiy hayotida muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Mahdumi A’zam Ahmad Kosoniy (1461- 1542) o‘zining ilmiy, irfoniy va ma’rifiy merosi bilan Sharq falsafasi tarixida alohida mavqega ega hisoblanadi. U nafaqat diniy-mutasavvif, balki jamiyat va inson kamoloti masalalariga chuqur e’tibor qaratgan faylasuf sifatida ham tanilgan. Mahdumi A’zam asarlarida insonning ontologik mohiyati, borliqning ilohiy asoslari, bilishning ma’naviy yo‘llari, qadriyatlar tizimi va axloqiy komillik masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, uning bag‘rikenglik, insonparvarlik, o‘zaro hurmat va ijtimoiy hamjihatlik haqidagi qarashlari bugungi globallashuv sharoitida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash, diniy ekstremizm va ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda Mahdumi A’zam merosining falsafiy asoslarini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mahdumi A’zamning ontologik qarashlari tasavvuf falsafasining “vahdat ul-vujud” konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Uning fikricha, borliqning asl manbai Alloh bo‘lib, inson va tabiat ilohiy haqiqatning tajallisi sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkir insonni moddiy va ruhiy olam o‘rtasidagi noyob mavjudot deb hisoblaydi. Ontologik jihatdan Mahdumi A’zam insonning mavjudligini faqat jismoniy hayot bilan cheklamaydi. U insonning ruhiy-ma’naviy olamini birlamchi mohiyat sifatida talqin qiladi. Uning qarashlariga ko‘ra, inson o‘z “nafs”ini poklash orqali haqiqiy mavjudlik darajasiga ko‘tariladi. Bu esa tasavvufdagi “komil inson” konsepsiyasining muhim asoslaridan biridir. Mutafakkir borliqni anglashda qalb pokligi va ruhiy kamolotga alohida e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, insonning mavjudlik mohiyati ilohiy haqiqatni idrok etish bilan belgilanadi. Shu bois Mahdumi A’zam ta’limotida ontologiya faqat nazariy emas, balki amaliy-ma’naviy mazmunga ham ega. Mahdumi A’zam inson va jamiyat munosabatlarini ham ontologik birlik asosida tushuntiradi. Insonning komilligi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Bu g‘oya bugungi fuqarolik jamiyati konsepsiyasi bilan hamohang ravishda namoyon bo‘ladi.

Mahdumi A’zamning epistemologik qarashlarida bilish masalasi markaziy o‘rin tutadi. U ilmni inson kamolotining asosiy vositasi deb hisoblaydi. Biroq mutafakkir ilmni faqat dunyoviy bilimlar bilan cheklamay, uni ruhiy-ma’naviy tajriba bilan uyg‘un holda talqin qiladi. Tasavvufiy bilish nazariyasiga ko‘ra, haqiqiy ma’rifat qalb orqali hosil bo‘ladi. Mahdumi A’zam ham insonning ichki poklanishi

orqali ilohiy haqiqatni anglash mumkinligini ta’kidlaydi. Bu jihatdan uning qarashlari Sharq gnoseologiyasining muhim namunasidir. Mutafakkir ilm va amal birligini alohida qadrlaydi. Uning fikricha, faqat nazariy bilim insonni komillikka olib bora olmaydi. Bilim amaliy axloq bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy ma’rifat yuzaga keladi. Shu sababli Mahdumi A’zam asarlarida ilm olish bilan bir qatorda sabr, tavoze’, halollik va poklik kabi fazilatlar ham muhim o‘rin egallaydi. Mahdumi A’zam bilish jarayonida ustoz-shogird an’anasiga katta ahamiyat beradi. Bu holat Sharq pedagogik tafakkurining uzviy qismi bo‘lib, ma’naviy tarbiya tizimining muhim metodologik asosini tashkil etadi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda inson tafakkuriga turli mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir sharoitda Mahdumi A’zamning ma’rifatparvarlik g‘oyalari yoshlarni ma’naviy barkamollikka yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahdumi A’zamning aksiologik qarashlarida insoniylik, adolat, mehr-oqibat, saxovat, sabr va halollik kabi qadriyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Mutafakkir insonning haqiqiy qadri uning boyligi yoki mansabida emas, balki ma’naviy komilligida ekanligini ta’kidlaydi. Tasavvuf falsafasida qalb pokligi eng oliy qadriyat hisoblanganidek, Mahdumi A’zam ham inson ruhiyatining poklanishini asosiy maqsad sifatida ko‘rsatadi. U moddiy manfaatparastlik va nafsga berilishni jamiyat ma’naviy tanazzulining sababi sifatida baholaydi. Mutafakkirning aksiologik qarashlarida bag‘rikenglik ham muhim qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. U insonlarni millati, dini yoki ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar hurmat qilish g‘oyasini ilgari suradi. Bu esa Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli muhitida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Mahdumi A’zam qadriyatlar tizimida ilm-fan va ma’rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholaydi. Uning fikricha, ma’naviy yetukliksiz moddiy taraqqiyot jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

Mahdumi A’zamning axloqiy qarashlari tasavvuf falsafasining insonparvarlik mohiyatini o‘zida aks ettiradi. U insonni ezgulikka yetaklovchi asosiy omil sifatida axloqiy poklikni ko‘rsatadi. Mutafakkir komil insonni sabrli, halol, adolatli, kamtar va bag‘rikeng shaxs sifatida tasvirlaydi. Uning fikricha, inson nafs ustidan g‘alaba qozonmas ekan, haqiqiy kamolotga erisha olmaydi. Mahdumi A’zam axloqiy tarbiyada oilaning, ustozning va jamiyatning roliga alohida e’tibor qaratadi. Bu jihatdan uning qarashlari bugungi pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Mutafakkir axloqiy fazilatlarni shakllantirishda mehnat va halol rizqning ahamiyatini ham alohida ta’kidlaydi. U dangasalik va manfaatparastlikni insonning ruhiy tanazzuliga olib boruvchi illatlar sifatida tanqid qiladi. Bugungi globallashuv davrida individualizm va iste’molchilik kayfiyati kuchayib borayotgan bir sharoitda Mahdumi A’zamning axloqiy qarashlari yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mahdumi A’zam merosida bag‘rikenglik insoniy munosabatlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir insonlarni o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik ruhida yashashga da’vat etadi. Tasavvuf ta’limotining mohiyatida inson qalbini poklash va boshqalarga yaxshilik qilish g‘oyasi yotganligi sababli Mahdumi A’zam ham diniy va ijtimoiy bag‘rikenglikni targ‘ib qiladi. Uning qarashlarida zo‘ravonlik, adovat va mutaassiblik qoralangan. Mahdumi A’zamning bag‘rikenglik haqidagi g‘oyalari bugungi kunda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, yoshlarni ekstremistik g‘oyalardan himoya qilishda uning insonparvarlikka asoslangan qarashlari katta ahamiyatga ega. Mutafakkirning bag‘rikenglik konsepsiyasi Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi madaniy muloqot tamoyillari bilan hamohangdir. Shu bois Mahdumi A’zam merosi nafaqat diniy-falsafiy, balki umuminsoniy ahamiyatga ham egadir.

Mahdumi A’zam Ahmad Kosoniyning “Risolai Zikr” asari tasavvufiy-irfoniy tafakkurning muhim manbalaridan biri bo‘lib, unda insonning ruhiy kamoloti, ilohiy muhabbat, zikr, ma’rifat va komillik masalalari bilan bir qatorda bag‘rikenglikning falsafiy-axloqiy asoslari ham chuqur ifodalangan. Asarda bag‘rikenglik alohida termin sifatida ko‘p qo‘llanmasa-da, uning mohiyati tasavvufiy muhabbat, insonni qadrlash, ruhiy poklanish va boshqalarga mehr bilan munosabatda bo‘lish g‘oyalari orqali keng yoritiladi. Mahdumi A’zamning fikricha, inson qalbining asosiy vazifasi “g‘ayr”dan poklanib, ilohiy haqiqatga yuzlanishdir. Muallif zikrning mohiyatini sharhlar ekan, “La ilaha illalloh” kalimasidagi inkor va isbot masalasiga alohida e’tibor beradi. Unga ko‘ra, avvalo inson qalbidagi adovat, nafs, kibru havo, manfaatparastlik va “g‘ayrlik” yo‘qolishi kerak. Chunki qalb yovuzlikdan poklanmas ekan, unda haqiqiy muhabbat va bag‘rikenglik qaror topmaydi. Bu jihat tasavvufiy bag‘rikenglikning ontologik asosini tashkil etadi. Asarda quyidagi fikr bag‘rikenglikning ma’naviy ildizini ochib beradi:

”اولا تا غیر منفی نمیشود محبت محبوب حقیقی بر دل ثابت نمیشود“

Mazkur qarashdan anglashiladiki, inson o‘z qalbini nafrat va egoizmdan poklamaguncha, unda haqiqiy insonparvarlik shakllanmaydi. Demak, Mahdumi A’zam bag‘rikenglikni tashqi muomala emas, balki qalb tarbiyasi bilan bog‘liq ichki ma’naviy holat sifatida talqin qiladi. “Risolai Zikr”da insonning komillikka erishish yo‘li boshqa insonlarga muhabbat bilan munosabatda bo‘lish orqali amalga oshishi qayta-qayta ta’kidlanadi. Muallif “suhbat” masalasiga katta e’tibor berib, komil insonlar davrasida bo‘lishni ma’naviy kamolotning eng muhim vositasi sifatida ko‘rsatadi:

”هیچ ذکری و فکری و عملی سالکان طریق بهتر از صحبت کامل و مکمل نیست“

Bu yerda “suhbat” faqat oddiy muloqot emas, balki insonlar o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlik, o‘zaro hurmat va ruhiy hamjihatlikni anglatadi. Tasavvufda

suhbat madaniyati bag‘rikenglikning muhim shakli hisoblanadi. Chunki komil inson boshqalarning kamchiligini emas, avvalo o‘z nafsini isloh qilishga intiladi. Mahdumi A’zam asarda johillik, mutaassiblik va tor fikrlilikni keskin tanqid qiladi. Ayniqsa, ayrim kishilarning tasavvufiy haqiqatlarni tushunmay turib inkor qilishi haqida so‘z yuritar ekan, u qalb torligini insoniy kamolotga zid holat sifatida ko‘rsatadi. Quyidagi bayt bunga misol bo‘la oladi:

“باز ایران خشک مکو حرف حق بلند
منصور را ببین که جه بردار میکشد”

Bu yerda muallif haqiqatni tushunmasdan hukm chiqarishning xavfini ko‘rsatmoqda. Mazkur qarash zamonaviy diniy bag‘rikenglik tamoyillari bilan hamohangdir. Chunki mutafakkir insonni fikriy zo‘ravonlikdan, keskin hukm va mutaassiblikdan tiyilishga chaqiradi. Asarda bag‘rikenglikning yana bir muhim jihati - insonlarni tabaqalarga ajratmaslik g‘oyasi bilan bog‘liq. Mahdumi A’zamning fikricha, Allohning jamoli barcha mavjudotlarda tajalli qiladi. Shu sababli insonlarni mensimaslik yoki kamsitish ilohiy haqiqatni anglamaslik bilan tengdir. U quyidagicha yozadi:

“در عالم که نیست و ما فی الدار غیر الله دیار”

Bu fikr “vahdat ul-vujud” ta’limotining bag‘rikenglikka xizmat qiluvchi falsafiy asosidir. Ya’ni mavjudotlarning yagona ilohiy manbadan kelib chiqishi insonlar o‘rtasida tenglik, hamjihatlik va o‘zaro hurmatni talab qiladi. Mahdumi A’zam bag‘rikenglikni faqat diniy emas, balki axloqiy kategoriya sifatida ham talqin qiladi. Asarda insonning boshqalarga zarar yetkazmasligi, qalb ozoridan saqlanishi va yumshoqlik bilan muomala qilishi muhim fazilat sifatida ko‘rsatiladi. Tasavvufiy axloqda “dil ozor bermaslik” eng ulug‘ qadriyatlardan biri hisoblanadi. Bu esa bugungi zamonaviy tolerantlik tushunchasining muhim ma’naviy ildizlaridan biridir. Mutafakkirning quyidagi qarashlari bag‘rikenglikning epistemologik mohiyatini ham yoritadi. Unga ko‘ra, inson haqiqatni faqat ilm bilan emas, balki ruhiy poklik orqali anglaydi. Qalb pok bo‘lsa, inson boshqalarga ham rahm-shafqat bilan qaraydi. Demak, bag‘rikenglik bilimdan ham oldin qalb madaniyati bilan bog‘liq hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. “Risolai Zikr”da murshid va murid munosabatlari ham alohida ahamiyatga ega. Bu munosabatlar qat’iy hukm yoki zo‘ravonlikka emas, balki muhabbat, ishonch va ma’naviy tarbiyaga asoslanadi. Aynan shu jihat tasavvufiy pedagogikaning bag‘rikenglikka asoslangan modelini namoyon etadi. Mahdumi A’zamning bag‘rikenglik haqidagi qarashlari bugungi globallashuv davrida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Diniy ekstremizm, mafkuraviy tahdidlar va ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib borayotgan bir sharoitda mutafakkirning muhabbat, ruhiy poklanish, insonni qadrlash va hamjihatlik haqidagi g‘oyalari yoshlar tarbiyasida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, Mahdumi A’zam ta’limotida bag‘rikenglik passiv sabr emas,

balki faol ma’naviy komillik sifatida talqin qilinadi. Ya’ni inson nafaqat boshqalarni kechira olishi, balki jamiyatda mehr-oqibat va ezgulik muhitini yaratishga ham mas’uldir. Shu jihatdan uning qarashlari zamonaviy fuqarolik jamiyati va insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Mahdumi A’zam Ahmad Kosoniyning “Risolai Zikr” asari Naqshbandiya tariqatining irfoniy-falsafiy mohiyatini yorituvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda zikr masalasi markaziy o‘rin egallasa-da, uning ichki qatlamida insonning ruhiy poklanishi, boshqalarga munosabati, ijtimoiy hamjihatlik, axloqiy yetuklik va bag‘rikenglikning chuqur falsafiy asoslari mujassamdir. Muhimi shundaki, Mahdumi A’zam bag‘rikenglikni zamonaviy ma’nodagi tashqi tolerantlik sifatida emas, balki inson ontologiyasining ichki kamolotidan kelib chiqadigan ilohiy-axloqiy holat sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan uning qarashlari tasavvufdagi “komil inson” konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Asarda bag‘rikenglikning aksiologik asoslari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mahdumi A’zam uchun eng oliy qadriyat - muhabbatdir. U muhabbatni nafaqat ilohiy ishq, balki insoniy munosabatlarning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadi. Tasavvufda muhabbat mavjudotlarni birlashtiruvchi qudrat hisoblanadi. Shu bois mutafakkir insonlarni ajratishga emas, birlashtirishga xizmat qiluvchi ruhiy birlikni targ‘ib qiladi. Mahdumi A’zamning quyidagi qarashlari bag‘rikenglikning aksiologik mohiyatini ochib beradi:

“با عاشقان نشین همه عاشقی کزین”

Bu yerda “oshiq” tushunchasi faqat tasavvuf ahli emas, balki qalbi muhabbat va ezgulikka moyil insonni anglatadi. Demak, mutafakkir nazarida insonning ma’naviy muhiti uning axloqiy shakllanishida hal qiluvchi omildir. Yovuzlik muhiti nafratni, muhabbat muhiti esa bag‘rikenglikni vujudga keltiradi. “Risolai Zikr”da bag‘rikenglikning axloqiy qirrasi ayniqsa kuchli namoyon bo‘ladi. Mahdumi A’zam insonni “dil ozor bermaslik” tamoyiliga amal qilishga chaqiradi. Tasavvufiy axloqda eng katta gunohlardan biri - boshqa inson qalbini ranjitish hisoblanadi. Chunki qalb ilohiy tajalli makoni sifatida talqin qilinadi. Shu sababli mutafakkir insonning tashqi ibodatidan ko‘ra uning qalb pokligini muhimroq deb hisoblaydi. Asarda mutaassiblik va tor fikrlilik ham keskin tanqid qilinadi. Ayniqsa, tasavvufiy haqiqatlarni tushunmay turib inkor qiluvchi kishilar haqida yozar ekan, Mahdumi A’zam ularni “tor ko‘ngillik” va “ruhiy yetilmaganlik” mahsuli sifatida baholaydi:

“باز ایران خشک مکو حرف حق بلند”

Bu fikrning mohiyatida juda chuqur bag‘rikenglik falsafasi yotadi. Chunki mutafakkir haqiqatni zo‘rlik bilan qabul qildirishni emas, balki inson qalbini tayyorlashni muhim deb biladi. U fikriy zo‘ravonlikni ma’naviy johillik belgisi sifatida ko‘rsatadi. Bu jihat bugungi diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishda nihoyatda muhim metodologik ahamiyatga ega. Mahdumi A’zamning

bag‘rikenglik haqidagi qarashlari “suhbat” konsepsiyasida ham o‘z ifodasini topadi. U komil inson bilan muloqotni barcha zikr va ibodatlardan ustun qo‘yadi:

”هیچ ذکری و فکری و عملی سالکان طریق بهتر از صحبت کامل و مکمل نیست“

Bu yerda suhbat oddiy suhbat emas, balki ruhiy uyg‘unlik, insoniy yaqinlik va ma’naviy ta’sir vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Tasavvufdagi suhbat madaniyati insonni hukm qilish emas, uni tushunish va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash tamoyiliga asoslanadi. Shu jihatdan Mahdumi A’zam ta’limotida bag‘rikenglik dialogik xarakter kasb etadi. Asarda bag‘rikenglikning eng yuqori bosqichi “fano” konsepsiyasi bilan bog‘lanadi. Mutafakkirning fikricha, inson o‘z “men”idan voz kechmaguncha haqiqiy muhabbat va birlikka erisha olmaydi. “Fano” - bu egoizmning yo‘qolishi, insonning o‘zini markaz deb bilishdan voz kechishi demakdir. Aynan egoizm barcha adovat va nizolarning manbai hisoblanadi. Shu sababli Mahdumi A’zam “fano”ni nafaqat mistik tajriba, balki ijtimoiy-axloqiy kamolot yo‘li sifatida ham talqin qiladi. Tasavvufiy nuqtayi nazardan bag‘rikenglikning eng oliy shakli - boshqalarda ham ilohiy tajallini ko‘ra olishdir. Mahdumi A’zamning: “همه اوست” ya’ni Hama ust iborasining quyidagicha izohlash mumkin: “همه اوست” (“Barchasi Udir”) iborasi Mahdumi A’zam tasavvufiy qarashlarida mavjudotning yagona ilohiy manbaga bog‘liqligini ifodalovchi irfoniy-falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Tasavvufiy-falsafiy ma’noda esa: Borliqdagi barcha mavjudotlar ilohiy haqiqatning tajallisi ekanini anglatadi. Bu ibora “vahdat ul-vujud” ta’limotining qisqa va chuqur ifodalaridan biri hisoblanadi. Ya’ni mavjudotlar mustaqil mohiyat emas, balki Haqning zohir bo‘lish shakllaridir. Ushbu qarash ana shu ruhiy birlikning eng qisqa, ammo eng chuqur ifodasidir. Bugungi globallashuv davrida insoniyat diniy ekstremizm, ma’naviy bo‘shliq, individualizm va madaniy ziddiyatlar kabi murakkab muammolar bilan yuzlashmoqda. Ana shunday sharoitda Mahdumi A’zamning bag‘rikenglik haqidagi qarashlari nafaqat tarixiy-falsafiy meros, balki zamonaviy sivilizatsion ehtiyoj sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki uning ta’limotida bag‘rikenglik: insonning ichki poklanishiga, muhabbat va rahm-shafqatga, fikriy erkinlikka, ruhiy komillikka, o‘zaro hurmat va hamjihatlikka asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, “Risolai Zikr” asarida bag‘rikenglik masalasi oddiy axloqiy tavsiya darajasida emas, balki ontologik, epistemologik, aksiologik va irfoniy tizim sifatida asoslangan. Mahdumi A’zamning ushbu qarashlari bugungi kunda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, diniy bag‘rikenglikni rivojlantirish va yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Mahdumi A’zam Ahmad Kosoniy Markaziy Osiyo tasavvuf falsafasi tarixida muhim o‘rin tutgan mutafakkirlardan biridir. Uning ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy merosida ontologik, epistemologik, aksiologik, axloqiy hamda bag‘rikenglik qarashlari uzviy yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Mutafakkirning borliq, inson, ma’rifat va komillik haqidagi qarashlari bugungi zamonaviy falsafiy tafakkur bilan uyg‘unlik kasb etadi. Ayniqsa, uning bag‘rikenglik, insonparvarlik va ma’naviy poklik haqidagi g‘oyalari globallashuv davrida yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mahdumi A’zam ta’limotini chuqur o‘rganish milliy ma’naviy merosimizni tiklash, yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalash va jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mahdumi A’zam Ahmad Kosoniyning “Risolai Zikr” asari tasavvufiy-irfoniy tafakkurning yuksak namunasi sifatida nafaqat zikr va suluk masalalarini, balki insonning ontologik mohiyati, ma’naviy kamoloti, axloqiy poklanishi va bag‘rikenglik madaniyatining chuqur falsafiy asoslarini ham o‘zida mujassamlashtirgan. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, mutafakkir bag‘rikenglikni tashqi murosaviy munosabat emas, balki inson qalbining ilohiy haqiqat bilan uyg‘unlashuvi natijasida shakllanuvchi oliy ma’naviy holat sifatida talqin qiladi. Asarda zikr konsepsiyasi orqali insonning “g‘ayr”dan poklanishi masalasi markaziy o‘ringa qo‘yiladi. Mahdumi A’zam talqinida “g‘ayr” tushunchasi faqat dunyoviy bog‘liqliklarni emas, balki nafs, kibru havo, mutaassiblik, manmanlik, nafrat va adovat kabi insoniy illatlarni ham anglatadi. Demak, mutafakkir bag‘rikenglikning haqiqiy ildizini insonning ichki ruhiy transformatsiyasi bilan bog‘laydi. Bu esa bag‘rikenglikni tasavvufiy antropologiyaning ajralmas qismiga aylantiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Risolai Zikr”dagi bag‘rikenglik g‘oyalari “vahdat ul-vujud”, “fano”, “muhabbat”, “suhbat” va “komil inson” kabi tasavvufiy tushunchalar bilan uzviy bog‘langan. Ayniqsa, mavjudotning yagona ilohiy manbadan kelib chiqishi haqidagi qarash insonlar o‘rtasidagi tenglik, hamjihatlik va o‘zaro hurmatning metafizik asosini yaratadi. Shu jihatdan Mahdumi A’zam bag‘rikenglikni ontologik birlikni anglash natijasi sifatida talqin qiladi. Mutafakkirning epistemologik qarashlarida ham bag‘rikenglikning muhim asoslari mujassamdir. Unga ko‘ra, inson haqiqatni faqat aqliy mushohada bilan emas, balki qalb pokligi va ruhiy tajriba orqali anglaydi. Ruhiy kamolotga erishgan inson boshqalarga zo‘ravonlik yoki mutaassiblik bilan emas, balki rahm-shafqat va muhabbat bilan munosabatda bo‘ladi. Shu sababli Mahdumi A’zam ta’limotida ma’rifat va bag‘rikenglik o‘zaro chambarchas bog‘liq kategoriyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda mutaassiblik, tor fikrlilik va fikriy zo‘ravonlik keskin tanqid qilinishi ham nihoyatda muhimdir.

Mahdumi A’zam insonni haqiqatni tushunmasdan hukm chiqarishdan qaytaradi hamda qalb kengligini ma’naviy yetuklik mezoni sifatida ko‘rsatadi. Bu jihat uning qarashlarini bugungi diniy ekstremizm, radikalizm va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda muhim metodologik manbaga aylantiradi. “Risolai Zikr”da ilgari surilgan suhbat madaniyati ham bag‘rikenglikning muhim shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Komil inson bilan muloqotning barcha zikr va

ibodatlardan ustun qo‘yilishi tasavvufda insoniy yaqinlik, ruhiy uyg‘unlik va o‘zaro hurmatning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy dialog madaniyati va konfessiyalararo hamjihatlik tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Mahdumi A’zamning bag‘rikenglik haqidagi qarashlari aksiologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Mutafakkir muhabbat, sabr, tavoze’, saxovat, qalb pokligi va insonni qadrlashni eng oliy qadriyatlar sifatida ulug‘laydi. Ayniqsa, uning nazarida qalbni ozorlamaslik barcha ibodatlardan ustun turuvchi axloqiy mezon hisoblanadi. Bu esa tasavvuf falsafasining insonparvarlik mohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat diniy nizolar, ma’naviy bo‘shliq, individualizm va madaniy qarama-qarshiliklar bilan yuzlashayotgan bir paytda Mahdumi A’zamning bag‘rikenglik haqidagi qarashlari o‘zining dolzarbligini yanada kuchliroq namoyon etmoqda. Uning ta’limotidagi muhabbat, qalb pokligi, ruhiy komillik va insoniy hamjihatlik g‘oyalari yoshlarni yot mafkuralardan himoya qilish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash hamda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Mahdumi A’zam merosi Yangi O‘zbekiston sharoitida inson qadrini ulug‘lash, bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shu bois allomaning asarlarini zamonaviy falsafiy metodologiyalar asosida tadqiq etish, ularni yoshlar ongiga singdirish va ilmiy muomalaga keng joriy etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, “Risolai Zikr” asarida bag‘rikenglik masalasi oddiy axloqiy pand-nasihat shaklida emas, balki mukammal ontologik, epistemologik, aksiologik va irfoniy tizim darajasida asoslanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mahdumi A’zamning ushbu qarashlari nafaqat tasavvuf falsafasi tarixini o‘rganishda, balki zamonaviy jamiyatda ma’naviy barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashda ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar

1. Mahdumi A’zam merosini oliy ta’lim tizimida falsafa va ma’naviyat fanlari tarkibida chuqurroq o‘qitish lozim.
2. Mutafakkir asarlarini zamonaviy falsafiy metodologiya asosida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.
3. Yoshlar ma’naviy tarbiyasida Mahdumi A’zamning bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalaridan samarali foydalanish zarur.
4. Mahdumi A’zam asarlarining zamonaviy o‘zbek va xorijiy tillardagi ilmiy tarjimalarini ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega.
5. Tasavvufiy-falsafiy merosni raqamlashtirish va elektron platformalarda targ‘ib qilish bugungi davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmad Xojagiy Kosoniy. Majmua ar-rasoil. Risolalar to‘plami. - Toshkent: “Qamar-media” MChJ, 2020.
2. A.Qushayriy. Ar-Risola al-Qushayriy. - Toshkent, 2004.
3. G‘azzoliy, A. Ihyo ulumi-d din. - Qohira, 2005.
4. Саматов, Х. У. Махдуми Аъзам Косоний - теоретик и продолжател тариката Накшбандия // Востоковедение: история и современность. - 2018.
5. Maxdumi A’zam Daxbediy. Majmua ar-rasoil. Risolalar to‘plami. - Toshkent: “Qamar-media” MChj, 2020.
6. Kattayev, K. Maxdumi A’zam va Daxbed. - Samarqand: So‘g‘diyona, 1994.Komilov N. Tasavvuf. - Toshkent: Movarounnahr, 2009.
7. Zoirov E. Maxdumi A’zam (risola). “ABU MATBUOT-KONSALT” nashriyoti, 2011.

KOSHIFIYNING AXLOQIY-FALSAFIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Alimov Akbar Narboyevich,

SamISI dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bugungi globallashuv va ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida jamiyatda axloqiy me’yorlarning izdan chiqishi, individualizm va pragmatizmning kuchayishi kuzatilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-falsafiy qarashlarini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uning “Axloqiy- Muhsiniy” asarida ilgari surilgan fazilat, adolat va komil inson haqidagi g‘oyalar bugungi kunda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda nazariy asos bo‘la oladi. Mazkur merosni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Shuningdek, Husayn Voiz Koshifiy Temuriylar davrida yashab ijod etgan yetuk mutafakkirlardan biri sifatida o‘zining boy ilmiy merosi orqali Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Uning hayoti va ijodiy faoliyati A. Toxirjonov, O. Usmonova, H. Aliqulov, R. Maxmudov kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, ularning xulosalariga ko‘ra, Koshifiy taxminan milodiy 1440-yillarda Sabzavor atrofidagi Boyhaqi hududida tavallud topgan.

Mutafakkirning nasl-nasabi, bolalik davri va dastlabki ta’lim jarayoni haqida aniq tarixiy ma’lumotlar yetarli emas. Biroq uning ilohiyot, tabiiy va ijtimoiy fanlar hamda notiqlik san’atidagi yuksak darajadagi bilim va mahorati shuni ko‘rsatadiki, bu kabi qomusiy tafakkur egasining shakllanishi tasodifiy emas, balki chuqur ma’naviy muhit, mustahkam tarbiya va uzluksiz intellektual izlanishlar mahsulidir.

Falsafiy jihatdan qaralganda, Koshifiy shaxsiyati - bu insonning o‘z ustida ishlashi, bilim va fazilatni uyg‘unlashtirish orqali komillikka erishish mumkinligini namoyon etuvchi yorqin namunadir. Ayniqsa, uning yoshligidan notiqlik san’atini mukammal egallab, voizlik darajasiga ko‘tarilgani, jamiyatda so‘z va ma’rifatning axloqiy ta’sir kuchiga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bois Sabzavor ahli uni erta yoshdan iste’dodli voiz va ma’naviy yetakchi sifatida e’tirof etgan.

Shu ma’noda “Husayn Voiz Koshifiy Nishopurda 1455-1468 yillarda Mashxadda yashab voizlik qilganligi ma’lum[1]. Husayn Voiz Koshifiy Hirot shaxriga 1469 yildan yashay boshlaydi. Hirot shahrida Alisher Navoiy g‘amxo‘rligida yashagan Husayn Voiz Koshifiy o‘zining noyob asarlarini yaratdi. Husayn Voiz Koshifiy oilaviy ahvoli haqida juda kam ma’lumotlar etib kelgan. Alloma ilmiy merosini o‘rgangan uning ikki qizi va bir nafar o‘g‘li borligini qayd etishgan. Husayn Voiz Koshifiyning o‘g‘li Faxriddin Ali Safiy o‘z davrining mashxur shoir va olimlaridan biri bo‘lib 20 ga yaqin asrlar yozgan. Husayn Voiz Koshifiy hayoti haqidagi ma’lumotlarda uning Abduraxmon Jomiy bilan qarindoshligi aytiladi. Biroq bu fikrni R.Maxmudov rad etadi. Ali Safiyning ijodiy faoliyati, ilmiy merosi bilan shug‘ullangan u.Mavlyanov Husayn Voiz Koshifiyni, Abdurahmon Jomiy bilan boja ekanligini qayd etadi[2]. Husayn Voiz Koshifiy bilan yashagan zamondoshlarni Alisher Navoiy va Abduraxmon Jomiylar uni iste'dodini yuqori baholaganlar va g‘amxo‘rlik qilgan.

Alisher Navoiy o‘zining "majol un-nafois" asarining to‘rtinchi majlisida: "Mavlono Husayn Voiz- "Koshifiy" taxallus qilur. Sabzavorlikdir. Yigirma yilga yaqin borkim, shahrdadir va Mavlono zufunun va rangin va purkor voqe'bo‘lubtur. Oz fan bo‘lg‘aykim, dahli bo‘lmagay. Xususan, va’z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor...»[3,] - deb uning iste'dodini, bilimi kengligini yuksak baholagan. Yuqorida keltirilgan qimmatli ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Voiz Koshifiy Alisher Navoiydek buyuk mutafakkirning e'tiborini tortib, mehriga, hurmatiga sazovor bo‘lgan. Husayn Voiz Koshifiy Navoiyni ustoz deb e'zozlagan. Husayn Voiz Koshifiy Markaziy Osiyo madaniyati, xususan, Xuroson ilm-fanning rivojiga katta hissa qo‘shgan mutafakkir darajasiga ko‘tarilgan.

Mashhur tarixchi Xondamir o‘zining "Xulosat ul-Axbor" asarida Husayn Voiz Koshifiyni quyidagicha ta’riflaydi. "Mavlono Kamoliddin Husayn Vo‘iz ma’qul va maxsus ilmlarning barchasidan to‘la naflangan va baxramanddir. Hozirgi vaqtda Sharqda Xuroson diyorida ul janobga teng keladigan kishi topilmaydi. Tangri

[1] Р. Махмудов Хусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий ахлоқий қарашлари. Монография. Т. “Мумтоз сўз” 2015 йил. 20 бет.
[2] У. Мавлянов Фахриддин Али Сафий. Монография. Т. “Мумтоз сўз” 2016 йил. 12 бет.
[3] Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Асарлар 15 томлик. 12-том. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1966. 123-124

kalomning tafsiri hamda Hazrati risolpanoh payg‘ambar hadislarining ma’nilarini minbardan turib g‘oyatda pokiza va ma’noli qilib tushuntiradi. Haftada uch marta: seshanba kuni Sultonning xonaqohida, juma kun ertalab dorussayodat Sultoniyada, namoz o‘qilgandan keyin Olixazratning jome masjidida xaloyiqqa va’z-nasihat qilish bilan mashg‘ul. Ilgari chorshanba va payshanba kunlari yagona pir Xoja Abdulvoxid Ahmad mozorida hamda saltanat shiorlik janob Mirzo Sulton Axmad qabristonida xaloyiqqa to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish bilan ham band bo‘lardi. Ul janob nujum ilmida ham zo‘r mahoratga ega edi, chunonchi, uning ta’birlari qazo o‘qi singari bexato bo‘lardi. Uning balog‘atoyoqlik hamda fasohatsifatlik kitoblari ko‘p va behisob bo‘lib, ularning ko‘pi olimaqom Amir Alisherning atoqli nomi bilan ziynatlangan. Amir Alisherning inoyat va iltifoti ul janobning hol sahifasiga hammavaqt tushub turadi...»[1], baho bergan edi. Xondamirning bu fikrlari Koshifiy haqidagi eng qimmatli ma’lumot hisoblanadi.

Husayn Voiz Koshifiydan ulkan ilmiy meros qolgan bo‘lib olimlar uning asarlarini 25 tadan to 200 tagacha bo‘lganligini qayd etadilar2. R.Maxmudov O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Husayn Voiz Koshifiy asarlarining 75 ta toshbosma nusxasi 197 ta qo‘lyozma nusxalari haqida ma’lumot berib o‘tadi3. Bundan tashqari R.Maxmudov

Husayn Voiz Koshifiy asarlarini tasniflar ekan ularni 14 ta tasniflar ekan ularni guruhlarga ajratadi.

1. Axloq odobga oid asarlar
2. She'r san'ati, adabiyotshunoslik, tilshunoslikka tegishli asarlar.
3. Tarixga doir asarlar
4. Davlatni boshqarishga oid asarlar
5. Kimyoga tegishli asarlar
6. Astranomiyaga doir asarlar
7. Matematikaga taalluqli asarlar
8. Notiqlik, voizlik san'atiga oid asarlar
9. Musiqaga doir asarlar
10. Ilohiyotga oid asarlar
11. Tasavvuf ta’limotiga tegishli asarlar
12. Badiiy asarlar she'rlari, g‘azallari
13. Tibbiyotga oid asarlari

[1] Хондамир. Хулосат ул-ахбор. Навоий замондошлари хотирасида. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. 70-71

[2] Р. Махмудов Хусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий ахлоқий қарашлари. Монография. Т. “Мумтоз сўз” 2015 йил. - бет.

[3] Р. Махмудов Хусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий ахлоқий қарашлари. Монография. Т. “Мумтоз сўз” 2015 йил. - бет.

14. Boshqa asarlari

Bizningcha allomalarni asarlarini tasniflashda ozroq noaniqliklar mavjud, xususan "Futuvvatnomai sultoniy" asarini R.Maxmudov tarixiy asarlar sirasiga kirgizadi. Bizningcha bu asar ko‘proq tasavvuf ta’limotining nazariy va amaliy jihatlarini yaratishga qaratilgandir. Husayn Voiz Koshifiyning "Tafsiri Xusayniy" asari ancha mashhur bo‘lib, bu asar Qur'onni tafsir qilishga, sharhlashga tegishlidir. O‘rta asrlarda hammo olim va ulomalar ham tafsir yozavermagan. Qur'onni suralari va har bir olimni sharhlash uchun mukammal darajada Islom ilohiyotidan xabardor bo‘lishi kerak.

Bundan ko‘rinib turibdiki Husayn Voiz Koshifiy Islom dining nazariy asoslarini mukammal darajada o‘zlashtirgan. Bundan tashqari allomaning "Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik harakati" asari yuqorida ta’kidlaganidek tasavvuf ta’limotining mohiyatini yoritishga qaratilgan asar bo‘lib ahamiyati jihatidan Xujuriyning "Kashful majxub" yoki Fariddin Attorning "Tazkiratul avliyo" asarlaridan kam emas. Tasavvuf ta’limotiga oid bu mashhur asarlardan farqli jihati shundaki Husayn Voiz Koshifiy faqat tariqat oqimlari yoki tasavvuf allomalari avliyolar haqida ma’lumot berish bilan cheklanmaydi, balki tariqat vakillarining amaliy faoliyatlarini piri-ustoz munosabatlarini va axloq odoblarini yoritib berganligi bilan qimmatli asar hisoblanadi. Uning "Axloqiy Muhsiniy" asari esa musulmon Sharq xalqlari odob oxloq normalarining asosiy tamoyillari bayon etilish bilan birga davlat boshqaruvi haqidagi mukammal asar hamdir. Husayn Voiz Koshifiyning tarjimonlik faoliyatini ham qayd etish joiz. U umumbashariy ahamiyat kasb etgan, axloq odob durdonalari pand nasihat qiladigan hindlarning “Kalina va Dimna" asarini Arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Xulosa qilib aytganda Husayn Voiz Koshifiy ma’naviy merosi hozirgi murakkab globallashuv sharoitida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas va yosh avlodni milliy ma’naviy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Koshifiy Husayn Voiz. Axloqi Muhsiniy. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. - 320 b.
2. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. - 176 b.
3. Koshifiy Husayn Voiz. Tafsiri Husayniy. - Tehron: Intishoroti Islomiya, 2005. - 2 jild.
4. Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to‘plami. - Toshkent: Fan, 1998.
5. Xondamir. Xulosat ul-axbor. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. - 456 b.

6. Jomiy Abdurahmon. Nafahot ul-uns. - Toshkent: Movarounnahr, 2003. - 384 b.
7. Maxmudov R. Husayn Voiz Koshifiyning hayoti va ilmiy merosi. - Toshkent: Fan, 2001. - 216 b.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYA MASALALARI

Alimov Akbar Narboyevich,
Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy merosida inson axloqini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida inson faoliyatida chiroyli xulq-atvor, muloyimlik, kamtarlik va boshqa yuksak axloqiy fazilatlarning mohiyatini ochib berishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotda Koshifiyning sharqona axloq-odob va etiket me’yorlarini targ‘ib etishga qaratilgan qarashlari yoritilib, ularning jamiyat ma’naviy hayotidagi ahamiyati ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Husayn Voiz Koshifiy, axloqiy tarbiya, inson kamoloti, xulq-atvor, muloyimlik, sharqona odob, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, komil inson, tarbiya, fazilat.

Insoniyat tamaddunining ilk o‘choqlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan Markaziy Osiyoda bashariyat ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qiladigan ma’naviy axloqiy qadriyatlar yaratildi. Ayniqsa, ajdodlarimiz tomonidan sharqona odob-axloq falsafasiga oid yozib qoldirilgan noyob asarlar hozirgi axborotlashgan jamiyatda ham o‘z ahamiyatitni yo‘qotgan emas. Xorij olimlar tomonidan hamon yuqori baholanib kelinmoqda. Axloq falsafasiga oid mukammal asar yaratgan allomalardan biri Husayn Voiz Koshifiydir. Husayn Voiz Koshifiyning boy ilmiy merosida axloq falsafasi muhim o‘rin egallaydi. Alloma o‘zining barcha asarlarida sharqona axloq odob etiketlarini targ‘ib etishga katta ahamiyat qaratadi. Axloq falsafasini bayon etishida ratsionallik tamoyiliga tayanishi Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosining eng katta yutug‘idir. Husayn Voiz Koshifiyning fikricha kishi o‘zining axloqiy fazilatlarini doimo takomillashtirib borishi kerak, ya’ni aql, farosat va idrok orqali o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi lozim. Alloma buni quyidagicha ifoda etadi: “ Zero, insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go‘zal va hamida xulq-atvorli,

fazilatli qilib yetishtirish mumkin”1. Husayn Voiz Koshifiy asarlarida kishidagi axloqiy fazilatlar tarbiya orqali takomillashib borishini asoslab beradi. Shuning uchun axloq odob qoidalari bayon etilgan asarlarida kishilarni go‘zal axloqiy fazilatlarni o‘zida tarbiyalab borishga hamda mazkur fazilatlarga qarshi bo‘lgan illatlardan xalos bo‘lishga chaqiradi.

Koshifiy kishi faoliyatida chiroyli xulq va muloyimlik fazilatlarining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Omonat va diyonat, vafo va ahd, rostgo‘ylik kabi axloqiy fazilatlar xususida batafsil to‘xtalib o‘tadi. Ohistalik va shoshilmaslik, andishalilik kabi xislatlarni kishi axloq odobida tutgan o‘rnini bayon etadi. Asar muqaddimasida bu xususida Husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: ”Hakimlar chiroyli xulq shunday bir yo‘lki, bu yo‘ldan yurmay turib, izzat va sharif manziliga yetib bo‘lmaydi va bu yo‘lga qadam qo‘ymay turib vujud raxtini hayvonot biyobonidan insoniyat doril mulkiga yetkazib bo‘lmaydi, deydilar. Odamlarning qay birlarida chiroyli xulq va yoqimli xislatlar namoyon bo‘lsa, shu kishilar zebo ko‘rinadilar”. Husayn Voiz Koshifiyning fikriga ko‘ra insonning ulug‘vorligi va yuksak ma’naviyati uning chiroyli xulqi va yoqimli xislatlariga bog‘liqdir.

Koshifiyning axloqiy asarlarda asosan kishilarning ijtimoiy faoliyatidagi axloqiy fazilatlarni takomillashtirishning falsafiy tahlili ishlab chiqilgan. Husayn Voiz Koshifiy insonni o‘z-o‘zini tashkillashtirish, tarbiyalash orqali barcha axloqiy fazilatlarni kamolot darajasiga yetkazish mumkinligiga urg‘u beradi. Inson axloqiy fazilatlarini bayon etar ekan hayo xususida shunday deydi: “Hayoning ma’nosi yomon ish qilishdan uyalishdir. Odamzotga hayo sharif xislat va maqbul siyratdir”. Alloma hayo xususidagi mulohazalarini bayon etar ekan, uning ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: “Agar sharmu hayo oradan ko‘tarilsa va odam hech kishidan uyalmasa, olamning tartibi izdan chiqadi, odamlar orasida yaxshi rasmu odatlar bitadi, kishilar hayotiga putur yetadi. Ular bir-birlari bilan diyonat saqlamaydilar, oqibat kuchlilar zaiflarni yo‘q qiladi. Ammo hayo shunday kuchli bir sifatki, u odamlarning faqat o‘zlari hohlagan ishlarni qilishga yo‘l qo‘ymaydi”2. Husayn Voiz Koshifiyning bu fikrlari XX asrda G‘arbiy Yevropadagi sharmu hayo ko‘tarilganligi tufayli axloqsizlik avjiga chiqqanligini bashorat qilgandek. Alloma har bir kishi hayoga rioya qilishi lozimligini uqtirib shunday deydi: “Demak, katta-yu kichik-ka hayodan katta foydi bor, yaxshi odatlarning mevasi hayo suvi va oftobidan parvarish topmasa, doim xom turaveradi”3. Koshifiy hayoni bir necha turlari borligi haqida

1 Хусайн Воиз Кошифий.Футуватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.. - 16 бет

2 Хусайн Воиз Кошифий.Футуватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.. - 145 бет

3 Хусайн Воиз Кошифий.Футуватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.. - 145 бет

ham to‘xtalib o‘tadi hamda qiziqarli va ibratli rivoyat va hikoyalar orqali insonni o‘z-o‘zini tashkillashtirishida sharm hayoli bo‘lishga chaqiradi.

Insonning ruhiy-ma’naviy o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonida bir ishga ahd qilish, jiddu-jahd va sobitqadamlik xislatlarii xususida to‘xtalib o‘tar ekan shunday deydi: “Ahd qilishning ma’nosi ko‘ngil hohlagan ish ustida mahkam turishdir. Ahd qilish murod va maqsadlar karvonining boshlovchisi, har qanday ish va mushkulotlarning hal qiluvchisidir”[1] . Koshifiy bu yerda insonning o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilishda qat’iyatlikka urg‘u beradi. “Haqiqiy ahd shundayki, bir kishi birorta ishni amalga oshirish uchun bel bog‘lasa va bir muhim ishni bitirishga kirishsa, to‘siq va qarshiliklarni yengib, o‘z maqsadiga erishishda sustlikka yo‘l qo‘ymaydi”[2]. Qat’iyatlik inson irodasi va mataonatiga darajasiga xos bo‘lib, bu jihatlarning qay tarzda namoyon bo‘lishi avvalo kishining o‘zigagina bog‘liqligini ta’kidlab o‘tadi. Ahd qilishdan tashqari jiddu jahd kabi fazilat xususida to‘xtalib o‘tar ekan Koshifiy shunday deydi: “Jidning ma’nosi maqsadlarga yetish uchun ko‘ngilda yangi niyat qilishdir. Jahdning ma’nosi esa shu niyatga yetish uchun qattiq harakat qilishdir... Bu sifat himmatga asoslanadi. Odamning himmati qanchalik ulug‘ bo‘lsa, maqsadga yetish jiddu jahdi shunchalik ko‘p bo‘ladi. Himmati baland kishi jiddu jahd qilishda mashaqqatlardan qo‘rqmaydi”[3].

Husayn Voiz Koshifiyinson rioya etishi lozim bo‘lgan axloqiy fazilatlarni falsafiy tahlilini bayon etar ekan, axloq-odob xususida sharqona etiket qoidalariga ham alohida e’tibor qaratadi. Allomaning tasavvufga oid “Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati” asarida har biri kishi rioya etishi lozim bo‘lgan taom yeyish va suv ichish odobi, o‘tirish va suhbat qilish odobi, kiyim kiyish va safar qilish odobi, mehmon kutish va yo‘lda yurish, salom berish, birodarlar haqini ado etish jarayonidagi etiket qoidalari batafsil yoritiladi. Husayn Voiz Koshifiy tomonidan bayon etilgan axloq odob qoidalari hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Masalan, alloma tomonidan taom yeyish odob qoidalari shunchalik aniq yoritib beriladi-ki, unda sharqona etiketning eng nozik jihatlari ham qamrab olingan.

Alloma taom yeyish odobi xususida shunday deydi: “…hayvonning yeyishi bilan insonning yeyishi orasida farq bo‘lishi kerak. Chunki hayvon yeyish uchun yashaydi, odam esa yashash uchun yeydi. Bu ikki xil yeyishning farqi odobda bilinadi. Ya’ni odamzod taom yeyish odobi va qoidalarini saqlaydi, ammo hayvonlar bundan bexabardirlar”. Husayn Voiz Koshifiy insonning buyukligi, uning ma’naviy kamoloti

1Хусайн Воиз Кошифий.Футуватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.. - 154 бет

2Хусайн Воиз Кошифий.Футуватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.. - 154 бет

3 Хусайн Воиз Кошифий.Футуватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.. - 56 бет

avvalo axloqi, hatto taom yeyishda ham muayyan axloq odob qoidalariga rioya etishi bilin belgilanishiga alohida urg‘u beradi.

Husayn Voiz Koshifiy bundan tashqari suv ichishning ham o‘n bir qoidasini batafsil bayon etar ekan quyidagi jihatlarga e’tiborini qaratadi, suvni oltin va kumushdan yasalgan idishlarda ichmaslik, zero bu kishini takabburlikka yetaklaydi. Suv ichayotganda eng asosiysi suvning toza ifloslanmagan bo‘lishi bu talab ham diniy, shariat yuzasidan, ham tibbiy gigiyena nuqtayi nazaridan zaruriy talabdir. Bundan tashqari suvni uch marta nafas olib ichish, har daf’a idishni og‘izdan olib turish, kishi nafasini idishdagi suvga tegmasligi, suvni o‘tirib ichish lozimligi hozirgi tibbiyot nuqtayi nazaridan muhim gigiyenik talab hisoblanadi. Katta idishdan, meshdan suv ichmaslik suv ichishning adablardan, - deb ta’kidlaydi Husayn Voiz Koshifiy.

Husayn Voiz Koshifiy ilgari surgan sharqona etiket qoidalarida muomala madaniyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Alloma muomala odobi xususida mulohazalarini bayon etar ekan, inson faoliyatida tilning o‘rni muhim ekanligini batafsil tushuntirib beradi. Avvalo alloma nutq qobiliyatini ahamiyatini shunday izohlaydi: “Bilgilki odamizotning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. So‘z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, jim turgan ma’qul”. Inson hayotida tilning mohitini tushuntirgandan so‘ng Husayn Voiz Koshifiy nutq jarayonida nimalardan saqlanish zarurligini quyidagicha tushuntirib beradi: “Tilni saqlash lozim bo‘lgan narsalar qaysi, deb so‘rasalar, aytgil: birinchidan, yolg‘on gapirishdan, zero yolg‘onchi xudoning dushmanidir. Ikkinchidan, va’daga xilof gapirish va munofiqona so‘z aytishdan. Uchinichdan, g‘iybat va bo‘hton gaplardan, chunki buhton fosiqlar ishidir. To‘rtinchidan, behuda bahsu munoqashadan, ayb qilishdan va gap tashishdan. Bular shayton vasvasasiga kiradi. Beshinchi, o‘zini maqtash va ta’riflashdanki, bu xudbinlikka olib keladi. Oltinchi, navkar va xizmatkorlarni la’natlashdan. Yettinchisi, qarg‘ishdan, duoi bad qilishdan, chunki bu jonu dilning ofatidir. Sakkizinchi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan”. Alloma tomonidan bayon etilgan so‘zlashish odobi va nutq madaniyati xususidagi fikrlari hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ta’lim tarbiya jarayonida mazkur axloqiy tamoyillardan foydalanish murakkab globallashuv jarayonida yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, avvalo, Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan qadimdan yuksak axloq-odob va muomala madaniyatini shakllantirishga qaratilgan axloqiy-falsafiy qarashlar tizimi yaratilgan bo‘lib, uning ildizlari Avestoga borib taqaladi. Ushbu boy meros asrlar davomida takomillashib, jamiyatda barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim mezoniga aylangan. Shuningdek, Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xususan Husayn Voiz Koshifiy o‘z asarlarida axloqiy tarbiya

masalalarini chuqur ilmiy asosda yoritib, uni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham rivojlantirdi. Uning asarlarida insonning ma’naviy kamoloti, odob-axloq normalari, jamiyatdagi o‘zaro munosabat madaniyati keng qamrovda tahlil qilinadi. Husayn Voiz Koshifiy axloqiy tarbiya jarayonini ratsionallik tamoyili asosida izohlab, sharqona etiket va odob qoidalarini tizimli ravishda asoslab berdi. U inson xulq-atvorini ongli ravishda boshqarish, ezgulik va adolatga intilish orqali komil insonni shakllantirish mumkinligini ilmiy-nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2010. - 288 b.
2. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. -112 b.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. - Toshkent: Movarounnahr, 2009. - 448 b.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “Koshifiy Husayn Voiz” maqolasi. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2003. - B. 487- 488.
5. Ibrohim Haqqulov. Tasavvuf va komil inson tarbiyasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2018. - 256 b.

ALI SAFIYNING MA’NAVIYAT XUSUSIDA FIKRLARI TAHLILIGA DOIR

Mavlyanov Umid Nasriddinovich

Guliston davlat universiteti Tarix kafedrasi mudiri, dotsent

O‘tmishning ulug‘ mutafakkirlari hayot yo‘li, ilmiy merosi va dunyoqarashini o‘rganish va targ‘ib qilish davrimizning eng dolzarb masalalaridandir. Ma’naviy shakllanishimizda chuqur iz qoldirgan, “Rivojlangan Uyg‘onish davri”, “Temuriylar Renesansi” kabi nomlar bilan tavsiflanayotgan davr xalqimizga ko‘plab daholarni yetishtirib berdi. Ana shu davrning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri - Ali Safiydir. To‘liq ismi Faxruddin Ali as-Safiy Voiz al-Koshifiy al-Bayhaqiy (1463-1532\33) davrining yetuk adibi, olimi, din va davlat arbobi bo‘lgan. U axloq, fiqh, tarix, falsafa, din, tasavvuf, adab kabi ilmlar bilan shug‘ullangan. U Hirotda Sulton Husayn Boyqaro davlatining bosh voizi, mudarris, xotib, islomiy ilmlar bilimdoni, Qur’oni Karimga “Tafsiri Husayniy” yoki “Tafsiri Forsiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan tafsir muallifi, ilohiyotchi olim Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy oilasida dunyoga keldi va shakllandi. Boshlang‘ich ta’limini o‘z uyida, otasidan, so‘ngra mahalla maktabida olgan.

Biz mazkur maqolamizda Ali Safiyning serqirra ilmiy merosida alohida o‘rin tutadigan ma’naviy-axloqiy qarashlari to‘g‘risida to‘xtalamiz. Allomaning ma’naviy-axloqiy qarashlari juda keng, asosli va murakkab tizimga, mazmun, mohiyat va ma’noga ega. Ularni to‘la va mufasal bayon etish maxsus tadqiqot talab qilganligi uchun, biz bu o‘rinda ularning asosiy jabha, yo‘nalishlarini sanab o‘tish bilangina cheklanamiz.

1. Rasmiy islom, shariat - “Ahli sunna val jamoa” ma’naviyati va axloqi. 2. Dunyoviy madaniyat, ma’naviyat va axloq. 3. Tasavvufiy-irfoniy ma’naviyat va odob-axloq. 4. Bevosita “Axloq ilmi” bilan bog‘liq ma’naviy-axloqiy qarashlari asosan otasi Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asari asosida, shuningdek, Forobiy, Ibn Miskavayh va Ibn Sinolarning axloq ilmi nazariyasi va muammolariga oid ta’limotlari asosida shakllangan.

Ali Safiy uchun piri-murshidning hayot tarzi, riyozatlari, irfoniy jahdlari, jazbaga g‘arq bo‘lib ketib, o‘zining hech ekanligini tushunish - Holdir. Bu hol, ya’ni oriflik takomilida maqom bar maqom yuksala borish, zohiriy ma’naviyat - ilmlar, toat-ibodatlar va shariat farzlarini bajarishdan botiniy - irfoniy ma’naviyatga o‘ta borish - shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat maqomlarini bosib o‘tish yo‘li inson ma’naviy-axloqiy kamolotiining eng ishonchli va sinalgan asosidir. Bunday inson, ma’naviy yetuk, faol shaxsga, Ali Safiy fikricha, hayotdagi salbiy hodisa, jarayonlar, yetishmovchilik va qiyinchilik, og‘ir mashaqqatlar va hatto shayton tajovuz qilganda ham ta’sir qilmaydi, uning pokligi va kamolotiga putur yetmaydi. Bunga erishish esa, mutafakkirning qat’iy ishonchiga ko‘ra, ko‘pincha ana shu shaxs aql-zakovati, zukkoligiga, irodasining sobitligiga bog‘liqdir.

Tasavvuf irfoniy ma’naviyatiga ko‘ra, insonda eng avvalo ikkita ma’naviylik mavjud. Birinchisi insonga ota-onasi, tabiat bergan uyg‘unlik, jismoniy go‘zallik, ta’lim-tarbiya, shuningdek, maxsus san’atlar - amri ma’ruf, va’z, xotiblik, adab ilmi, turli san’atlar vositasida shakllanadigan ma’naviylikdan iborat. ikkinchisi - hammaga nasib etavermaydigan, Xudo tomonidan ato etiladigan tasavvufiy-irfoniy ma’naviyatdir. U ham o‘z o‘rnida muayyan tizim - izchillikda - shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat maqomlarida shakllanadi. Ma’naviyatning mazkur yuqori shakli yana Allohning hidoyati bilan, lekin bevosita piri-murshid rahnamoligi, yo‘l ko‘rsatishi va buni tolib, murid, solik tomonidan butun vujudi, shuuri bilan, chin ixlos bilan qabul etishi, bajarishi oqibatida vujudga keladi, shakllanadi.

Ma’naviyatning bu yuqori, yuksak shaklining shakllanishi konsepsiyasi, mexanizmi va o‘ziga xosligini Ali Safiy quyidagicha asoslab beradi: “Maxfiy qolmasunkim, vujudi ma’naviy so‘fiyya (q.s.a.) istilohlarida valodati soniyya (ikkinchi, qayta tug‘ilish)din iborat tururkim, solik mashima tabiatidin va oning ahkomidin (inson tanasining tabiiy o‘sishi, jamiyatdagi o‘sish va ularning qonunlaridan) chiqmog‘i turur, ondog‘kim, Hazrati Iyso (a.s.) oytdilar: “Lam yalija

malakut-us-samovoti man lam yuvlat tarratayni”, ya’ni “kela bilmas va doxil bo‘la bilmas Osmonlar mulkig‘a kishikim, mutavallid bo‘lmasa ikki(nch)i marta”. Va har kishikim, vujudi ma’naviyg‘a bu ma’no bilakim, mazkur bo‘ldi, musharraf bo‘lg‘on bo‘lsa, har oyina, xojat bo‘lmas onga ul namarsagakim, kishidin tariqi ta’lim olmoq iltimos etsa. Bas, vujudi ma’naviy bu mahallda onga mahluldur (ya’ni unga xomil bo‘lgan bo‘ladi), bo‘lurkim, vujudi soniyning tolibi turur. Va ul kishikim, bul vujudning partavidin onga asare tushubtur. Bas, majoz tariqi bila oytsa bo‘lurkim, onga vujudi ma’naviy hosil turur”.

Boshqa bir o‘rinda, Ali Safiy Xoja Ahrorning o‘z muridlariga siyosat va malomatlar qilib, aytgan quyidagi so‘zlarini keltirgan. Mazkur so‘zlar ham haqiqiy ma’naviyat, sidq aslida raiyatga madad, adl-insof bilan, zulm-zo‘ravonlik dastini kesish, odamlarga naf, foyda keltirish ekanligini ta’kidlaydi: “Ko‘chalarda oylanib yurunglar, bir ish etinglarkim, odamlar sizlardin manfaat olsunlar. Har vaqt ul vajhkim, eta bilsangizlar o‘zlaringiz kam etungizlar (ya’ni, kamtar, kamsuqum bo‘linglar), sa’iy qilungkim, shuhudi ahadiyyatda kasrat hosil bo‘lsun... arbobi valoyati xossadin afrodi insoniyning akmalig‘a bul ma’ni bar sabili nadra hosil bo‘lur”. Ma’naviy vujud kamoloti, Ali Safiy xulosasiga ko‘ra, ayni paytda xalqqa qo‘shilish, aralashish behuzur qilganda ko‘p istig‘for aytish bilan, ro‘za tutish, taomdan tiyilish bilan, shuningdek, shahvoniy quvvatni tinchlantirish bilan zohiriy vujudni kamol toptirish, uning yordamida “martabai hayvoniyatni kamol toptirishdur”. Ana shu ma’noda, Ali Safiy ko‘rsatishicha, chin ma’naviy vujud sohiblari, ya’ni “ahli irshod va avliyoullohlar rasul(sav) ulumi xoslarig‘a voris turur”. Shu bilan birga, Ali Safiy keltirib o‘tganidek, insonni ma’naviy jihatdan foydali mehnat, mashaqqatlarni yengib o‘tish, bartaraf etishchalik boshqa bir jihatlar kamolga erishtirmas. “Haqiqati insoniyni andog‘ pokiza va sof etmasdurkim, balo va mehnat, bular asl xosiyyat bila g‘aliz hajoblarning dofi’i tururlar”.

Ali Safiy e’tiqodiga ko‘ra, inson ma’naviy kamoloti ikki yo‘l bilan: biri foydali mehnat, kasb-kor, dehqonchilik bilan, boshqasi esa sof irfoniy riyozatlar, jiddu-jahd bilan erishiladi.

Ali Safiy nima uchun dunyoda inson ma’naviy kamolotga erishishi qiyin kechadi, degan savol qo‘yib, piri-murshidi Xoja Ahrordan quyidagi rashaha-hikmat bilan ilmiy va mantiqiy asosli javob keltiradi: “Arvohi insoniyya javori qudsda hamisha mushohadada erdilar. Vaqtikim, bu olamga keltirib, nafsi nosutiyda mahbus etdilar, abdong‘a taalluq topg‘on jihatidin abdonning muhtoji ilayh bo‘lg‘on nimarsalarikim, maskanu mablas va mat’at va bulardin boshqa nimarsalarga mashg‘ul bo‘ldi. Va ba’zilarg‘a bovujudi bu shug‘l bo‘lub, maqarri asliyg‘a yetushmakka mayl va istirobg‘a keldi. Tamattuoti bahimiy va masti lazzoti tabiiy olarning maqarri asliyg‘a tavajjuhlaridin mone’ bo‘lmadi”.

Ali Safiy xuddi shuningdek, o‘z piri-murshidlaridan keltirgan quyidagi iqtiboslari olim va orif kimligini tushuntirishga yordam beradi. “Oytur erdilarkim: Olim bila Orifning orasida farq bor turur, masalan, bir kishining nahv mas’alalarig‘a ilmi bor tururkim, foilu marfu’, maf’ulu mansub turur. Ul kishini ilmi nahvg‘a olim derlar va Orif demaslar. Ammo, ilmi nahvg‘a Orif deb ul zamon oyturlarkim, ul mas’alalarning har birig‘a bemushoibai takalluf va tavaqquf o‘z mahallida amla bersa. Bu yanglig‘kim, ilmi tavhidga olim derlar ul kishinikim, oning tavhidi ilm yuzasidin turur, ya’ni e’tiqod etib tururlar va sifat va zotni o‘z ko‘nglida qaror beribdurkim, “lo fo‘ila fi-l-vujudi illalloh”, ya’ni vujudotda Allohu taolodin boshqa fo‘il yo‘q turur. Bu yanglig‘ kishini ilmi tavhidga olim derlar. Agar af’ol va avsofning har biri o‘z mazhari va g‘ayri mazharida zuhur etar vaqti(da) ta’mmul va takalluf va tavaqquf etmay bilurkim, fo‘il Haq subhonahu turur, oni Orif derlar. Agar bu ma’nini ta’ammul bilsa, ya’ni iymonning quvvati bila bilsa, oni muta’arrif derlar”.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin: Ali Safiy juda yaqqol va yorqin ifoda eta olganidek, ma’naviy borliq, ma’naviy kamolot to‘g‘risida behuda gapiraverish bilan ish bitmaydi. Balki uning darajalari, mohiyati, vazifalari, qadriyatlarining butun murakkabligiga qaramay, juda aniq, ilmiy, mantiqiy izohlab, talqin berish mumkin ekan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil hayot. - Toshkent: ibn Sino, 2004. - 536 b.
2. Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma. - Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashryoti, 1996. -192 b.
3. Faxriddin Ali Safi. Zanimatelnыye rasskazы. Per. s pers. S.Xovari. - Dushanbe: Maorif, 1985. - 164 c.
4. Faxriddin Ali Safiy. Go‘zal latifalar. Qayta ishlangan ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘bekiston, 2016. -72 b.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA AJDODLAR MA’NAVIY MEROSINING O‘RNI MASALASI (MAVLONO MUHAMMAD QOZI MISOLIDA)

Alimov Mansur Narboyevich
SamDVMCHBU akademik litseyi ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: alimovmansur317@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mavlono Muhammad Qozi ma’naviy merosi yoritilgan. Shunigdek, Mavlono Muhammad Qozi tomonidan komil inson tamoyilining asosiy sifatlari masalasi va xalq bilan muloqot tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv davri, Mavlono Muhammad Qozi, Komil inson tamoyili , tashabbuskorlik, “vahdat ul-vujud”, xalq bilan muloqot.

O‘rta asrning murakkab ijtimoiy-siyosiy hayot tarzi xalqning turmush va tafakkur tarziga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Shunday murakkab davrda Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda, shuningdek, Sharqiy Turkistonda keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo‘lishga, o‘zining qo‘l mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga yordam, el-yurt tinchligi uchun kurashishga chaqiradi. Mana shunday hayot yo‘lida namuna bo‘lgan o‘z davrida Naqshbandiya tariqatining davomchisi Xo‘ja Ahror Valining shogirdi Mavlono Muhammad Qozi hisoblanadi. Mavlono Muhammad Qozi ilmiy merosini o‘rganishga tizimli yangicha yondashish, uning dunyoqarashi shakllanishining tarixiy ildizlarini hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlar negizini tashkil qiluvchi davlatni boshqarish, siyosat tamoyillari, ijtimoiy adolatni ta’minlash prinsiplari, vatanparvarlik g‘oyalarini hali ilmiy muomalaga kiritilmagan manbalar asosida yangicha o‘rganish va bu merosning hozirgi davr yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va rolini konseptual ochib berish mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Muhammad Qozi yashagan davr Movarounnahr va Xuroson hududlarida notinchlik, toj-u taxt uchun kechgan kurashlar, ijtimoiy hayotning turli muammolari, temuriylar davridan qolgan tartiblar, shayboniylar hukmronligidagi beqarorlik uning hayot tarziga, dunyoqarashining shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Chunki, katta hududni egallagan temuriy va shayboniylarning o‘zaro kurashlari bundan tashqari eron safafiylarning Movarounnahrga qilgan yurushlari noyiblar, vakillarning o‘zboshimchaliklari ijtimoiy-siyosiy vaziyatni taranglashtirgan edi. Ko‘plab ilm ahllari qatori Muhammad Qozi keyinchalik markaz hisoblangan Xurosonga ilm izlab ketishga majbur bo‘ladi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganidek”Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi

- bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bo‘lsa, ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatdir”[1] degan g‘oyani ilgari surdi. Vatanimiz hududida yetishib chiqqan buyuk shaxslar, davlat arboblari va allomalarning hayoti hamda ular qoldirgan ma’naviy meros, nodir qo‘lyozmalarni tadqiq qilish, asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu jihatdan, Muhammad Qozining insonparvarlik maqsadlariga yo‘naltirilgan mo‘tadil irfoniy-gnoseologik konsepsiyalarini, inson, tabiat va jamiyat munosabatlarining o‘zaro aloqadorligi hamda ta’siri xususidagi qarashlari, radikalizm va jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish mezonlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism:

Bahovuddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Muhammad Qozi va boshqalar islom falsafasining yuksak darajada rivojiga hissa qo‘shganlar. Shuning uchun ham Mavlono Muhammad Qozining ilgari surgan tasavvufiy - falsafiy qarashlari inson omiliga asosiy e’tibor qaratgan bo‘lib, Naqshbandiya tariqatining axloq ,tarbiyaga oid g‘oyalari bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Muhammad Qozi dunyoqarashining asosiy xususiyati tasavvuf tariqatining yirik namoyandasi ekanligi va ma’naviy tamoyillar asosiga qurilganligidir. Naqshbandiylik tariqatini yangi davrda uning nazariy asoslari bilan birgalikda amaliy asoslarini keng qamrovli hayot bilan bog‘langanligining guvohi bo‘lamiz. Haq jamoli bilan bandasi o‘rtasida parda Osmon yoki Yer, Arsh va kursi bo‘lmay, balki kishilarni mol-dunyoga, ismga, amalga, xotin va farzandlariga bo‘lgan munosabatlaridadir. Buni mutasavvuf yanada ifodaliroq qilib, “... Banda va Haq subhana orasidagi parda bu Osmon va zamin, Arsh va kursi emas, balki odamiylarning mol-dunyoga, ilm-u amalga xotin va farzand kabilarga bog‘lanishidir”,- deb aytganlar”[2].

Muhammad Qozi tariqat ta’limotining himoyachisi va davomchisi sifatida o‘zini namoyon qilib, tariqat soliklarini, so‘fiylarni “Haqiqat konining gavhari”, “Ma’rifat daryosining injusi”, “Ilohiy sirning kashfiyotchilari”, deb ta’riflagan. Jumladan, “…Bu olam uning viloyat nuri (valiylik nuri) bilan doimo yorug‘ va munavvardir. Har bir asri - zamonda shunday tanlagan kishini tayinlaydiki, Qur`on oyatiga muvofiq ummatga rahbarlik qiladi, uni shahvoniy hirslar ubudiyatining yovuz chuqurligidan huriyat oliy darajasiga samovat xoliqi ubudiyatining safosi tomon rahnamolik ma’anon taraqqiy etadi. Tadqiq ahli (tadqiqotchilar, olimlar) bu

1 Mirziyoyev Sh.M.Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik 5-jild. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023- B.31.

2 Махдуми Аъзам Даҳбедий. Рисолаи Зубдад ус-соликин ва танбиҳ ус-салотин. Таржима муаллифлари Б.Валихўжаев ва К.Каттаев – Самарқанд: Суғдиёна, 1994. -Б.74.

toifani iste`lohda so‘fiya deb ataydilar. Ulardirlarkim, Rasul - sallallohu alayhi vas-sallam mutobiyati kamol mukammal itoat etish vositasida vusul (vasil haqiqatga qo‘shilganlar haqqa) martabasini topganlar, bundan so‘ng mutobeat (payg‘ambar sunnatiga itoat etish) yo‘lida xalqni davo eltivchi amr beruvchi bo‘ladi, bu toifa mukammal komillar toifasidirlarkim, fazil va azaliy inoyat lutfi yazaliy karomati bilan ularni fano balig‘ining qornidan baqo tafriqa maydonida xalos etib, xalqni najot va darojat (daraja, martabalarga) larga dalolat qilsin va bu martaba nubuvvat maqomidir, bu martabaning niyoyati (oxiri) nubuvvat martabasining bidoyati (avvali, boshlanishi) dir”[1]. Mutasavvufning naqshbandiya tariqati uchun yana bir buyuk xizmati Bahovuddin Naqshbandning “Dil ba yor-u, dast ba - kor” tamoyilini bir tomonlama yondashib, talqin qilishlariga chek qo‘ydi. Uning mazmun-mohiyatini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Chunki Bahovuddin Naqshbandning bu tamoyilini mutasavvuflar Allohga yetishishning birdan bir yo‘li, qalbni poklash va uni ulug‘lashdan iborat deb tushunganlar. Bu tamoyilda masalaning ikkinchi tomoni, ya’ni komillikka erishib, Allohga yetishish uchun qalb pokligi bilan birgalikda jismoniy barkamollik ham zarur ekanligini Muhammad Qozi asoslab berdi.

Mutasavvuf dunyoqarashining bosh mavzusi “Inson va uning aql-idroki, axloqiy qiyofasi Yaratganning eng muqaddas kashfiyotidir” degan g‘oyaga asoslanadi. Mavlono Muhammad Qozi ta’limotida o‘ziga xos bo‘lgan inson, insoni komil tamoyilini yaratdi va tariqatning “vahdat ul-vujud”, ya’ni panteizm oqimini yanada takomillashtirdi. Mutasavvufning bu tamoyili insonning ilohiyligi zaminidan kelib chiqadi va Alloh Taoloning “Men (Odamni) yerda xalifa qilmoqchiman” so‘zlariga asoslanadi. Mutasavvuf inson va uning ilohiyligini komillikning asosiy bosqichi sifatida ta’riflagan. Komil inson tamoyilining asosiy mezonlarini alohida sanab o‘tgan. Mavlono Muhammad Qozining fikricha, insoni komil quyidagi sifatlarga asoslanadi va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan: “Aql bilan ish tutish, ahd-u paymonga sadoqatlilik, bir-biriga yordam berish, qo‘lidan kelgancha yaxshilik qilish, insoniylikning ilohiy sifatlarini o‘zida mujassam qilish, insonning o‘zini-o‘zi anglashi, toat-ibodatni insonga nafi tegadigan ishlar bilan birga qo‘shib olib borish, halol rizq uchun mehnat qilish, poklik, soflik, e’tiqodlilik, iymonlilik, tavba, o‘z maqsadi yo‘lida jiddiy harakat qilish, inson o‘z vujudiga shariat, tariqat va haqiqat sifatlarini singdirish, insonlarni ezgulikka undashni oliy daraja deb bilish”[2].

Muhammad Qozi mutasavvuf Muhammad Buxoriy (Porso) izidan borib, uning qarashlarini boyitib davom ettirdi. Din va muqaddas kitoblar mutolaa uchun

1Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн .ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413. -В. $30^{б}$-$31^{а}$ варақ.

2 Тураев Б.О. Махдуми Аъзам - мутафаккир. Т.: ИБХМН, 2013.- Б. 29

emas, balki insonni axloqiy kamolotga yetkazish uchun dasturulamal bo‘lib, Alloh tomonidan berilgandir, inson din uchun emas, balki din inson uchun yaratilgandir, degan xulosaga keladi. Bu g‘oya o‘sha davr uchun eng jasoratli g‘oyalardan biri edi. Bundan maqsad insonni yer yuzidagi tartib va osoyishtalikka shaxsan mas’ul ekanligini ta’kidlovchi, insonni uning izmiga berilgan olamni yashnatishga, gullatishga, poklashga, takomillashtirishga undovchi, har bir musulmonni faollikka chaqiruvchi da’vat edi. Mavlono Muhammad Qozi insonning hukmiga in’om etilgan olamni yashnatish g‘oyasini o‘zining e’tiqodiga aylantirdi. Bu g‘oyani amaliyot bilan bog‘lab, xalq ichiga yurish qildi. Uning dardi, talab va ehtiyoji bilan birga yashadi.

Mavlono Muhammad Qozi dunyoqarashining yana bir jihati tashabbuskorligidir. Xalq manfaati, yurt osoyishtaligi uchun kurashib, har qanday urushlarni oldini olish uchun tashabbuskorlik ko‘rsatdi. Xalq va davlat arkonlari ichidagi nufuzidan sun’iy foydalanmasdan, sodir bo‘layotgan g‘araz ishlarning tub mohiyatini ochib berish uchun ilmi va tafakkuridan, xalq hayotini kuzatish va o‘rganish, xulosa chiqarish uslubidan keng foydalangan. Mutasavvuf dunyoqarashining asosi shariat va tariqatni tarozining ikki pallasi sifatida yakdil ushlaganligidan kelib chiqadi. Uning nazarida podsholar ishining muvaffaqiyati shariat va tariqatni mustahkam va yakdil ushlaganligida deb bilgan. Saltanatning xalq bilan birga bo‘lishi va erkinlik, demokratik tartiblar tarafdori bo‘lgan. Hukmdor xalq ovozini bug‘sa, bu yerda erkinlik bo‘lmaydi, deb ta’kidlagan. Muhammad Qozi fikricha, har bir podsho fuqarolariga o‘z fikrlarini erkin ayta olishi uchun imkoniyat berishi lozim: “Xoja Muhammad Porso zamonida alarga e’tiqodli bir podsho bo‘lgan va Hazrati Xoja o‘z suxanlarini minbardan ochiq ravshan aytar edilar.

Bayt:
Peshi yor onho, ki chon orand beshak chon barand,
Sidq nesh ovar, ki in cho harchi orand on barand.
Har, ki o‘dar ishq sodiq omadaast,
Bar sarash ma’shuq oshiq omadaast.
Gar ba sidqe ishq pesh oyad turo,
Oshiqat ma’shuqi xesh oyad turo.
Mazmuni:
Kimki yorga jonin olib borsa, shubhasiz, jon eltgusidur.
Sadoqat ko‘rsat, kim nima eltsa, o‘shani olib borgusidur.
Kim ishqda sodiq bo‘lsa, ma’shuqa nazdida kelgusidir,
Sadoqatli ishq uchrasa, Oshiq ma’shuq bo‘lib kelgusidir”1.

1 Kattaev K. Qadimiy kitoblar tarjimasi [Matin] risola . – Toshkent.: Qaqnus, 2020. – B. 406

Ul zot (Hazrati Muhammad Porso) Ibn Fariz Misriyning tavhidga bag‘ishlangan (ushbu) qasidasini minbar boshidan aytib turar edilar. Vaqti kelib, boshqa kishi podshoh bo‘lgach, ul zot bu qasidani hatto xilvat yerda ham aytmay qo‘ygan ekanlar. Ul kishining yor-u do‘stlari: “nechuk bu qasidani ul podshoh zamonida minbardan aytar edingiz, bu zamonga kelib (boshqa kishi podshoh bo‘lgach), hatto xilvat joyda ham aytmay qo‘ydingiz”, - deb so‘raganlarida, ul zot shunday degan ekanlar: “To‘g‘ri, bu zamon minbaridan bu baytni aytmay qo‘ydim, chunki hozirgi podshoh bizning toifamizdagilarga e’tiqodmand ham emas va suhbatdosh ham emas”[1]. Bu fikrlar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017- yil - “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilinishi hamda olib borilayotgan ishlarda namoyon bo‘lmoqda. Muhammad Qozi tasavvuf ta’limotining rivojiga munosib hissa qo‘sha oldi. Uning boy ilmiy merosi va tasavvufiy dunyoqarashi chuqur sharq falsafiy g‘oyalariga asoslangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Mavlono Muhammad Qozi Mutasavvuf ijtimoiy tabaqalar va ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni masalasida ajdodlarning madaniy merosiga hurmat bilan qaragan holda ularning qarashlarini yanada chuqurlashtirib, ijtimoiy tabaqalarning muayyan tizimini yaratadi. Ularga demografik nuqtayi nazardan yondashib, ijtimoiy guruhlarning holatini va ularning jamiyatdagi funksiyalari haqida fikrlarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M.Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik 5-jild. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023- B.31.
2. Махдуми Аъзам Даҳбедий. Рисолаи Зубдад ус-соликин ва танбиҳ ус-салотин. Таржима муаллифлари Б.Валихўжаев ва К.Каттаев - Самарқанд: Суғдиёна, 1994. -Б.74.
3. Муҳаммад ибн Бурҳонуддин ибн Хожа Муҳаммад Ризо Муҳаммад ал-Қози. Силсилат ул-орифийн ва тазкирату-с-сиддиқийн .ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар хазинаси: № 11413. -В. $30^{б}$-$31^{а}$ варақ.
4. Тураев Б.О. Махдуми Аъзам - мутафаккир. Т.: ИБХМН, 2013.- Б. 29
5. Kattaev K. Qadimiy kitoblar tarjimasi [Matin] risola . - Toshkent.: Qaqnus, 2020. - B. 406

1 Kattaev K. Qadimiy kitoblar tarjimasi [Matin] risola . – Toshkent.: Qaqnus, 2020. – B. 406.

NEMIS SAYYOH VA TADQIQOTCHISI ARVED SHULS TADQIQOTLARIDA MARKAZIY OSIYO TABIATSHUNOSLIGINING TAVSIFI

Yakubova Muxtaram Bakayevna

E-mail:muhtaram.yakubova@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida nemis olimi Arved Shulsning Markaziy Osiyo tabiatshunosligiga oid tadqiqotlari tavsiflanganyu. Ilmiy safarlari davomida Arved fon Shuls Kaspiy dengizi bo‘yida joylashgan Krasnovodsk, Ashxobod va Kopetdog etaklarida, chegaradosh sahrolarda, Tejen, Marv vohasi va uning atroflarida, Buxoro, Samarqand, janubiy Hisor tizmalari, Farg‘ona vodiysida, Oloy va Qashqar tog‘larida bo‘lgan. Shuls orografiya, gidrografiya, iqlimshunoslik, mintaqaning flora va faunasini o‘rgangan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, ekspedisiyalar, orografiya, o‘simliklar, "duob", landshaft, hayvonot dunyosi, meteorologik stansiya, iqlim.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya va Britaniya imperiyalarining Markaziy Osiyoga qarab kengaya borishi geografik va etnografik ma’lumotlarga nisbatan ehtiyojlarni yuzaga keltirdi. Aynan shu davrdan boshlab Markaziy Osiyo qiziqarli sayohatlar va ilmiy ekspedisiyalar obyektiga aylana bordi. Ilm-fan va harbiy harakatlar strategiyasining birgalikda olib borilishi mintaqani zabt etishga katta yo‘l ochib berdi. Natijada, Markaziy Osiyo rus va britan ekspedisiyalari tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganila boshlandi. XX asr adabiyotlari rivojlanishga yo‘naltirilgan imperializmning boshlanishi sifatida xarakterlanadi. Yer sharining kashf etib bo‘lingan aksariyat qismlariga kommunikasiya loyihalari kengaytirilgan. Lekin, hali to‘liq kashf qilinmagan hududlar ham mavjud bo‘lib, Turkiston shunday mintaqalar qatoriga kirgan.

Turkiston o‘lkasining XIX asr oxirida, ya’ni boshqa hududlarga nisbatan kechroq kashf etilishi bevosita quyidagi uch tendensiyaga bog‘liq bo‘lgan:

– geografik bilimlar va geografiya fani yangitdan shakllanish jarayonida boshdan kechirib, kashf etish, rivojlanish, tadqiq etish bir-biriga zid muhokamalar mazmuniga aylangan edi;

– geograflar landshaftlar mohiyati va hududlarning o‘lkashunoslik jihatidan tadqiq etilishi bilan mashg‘ul edilar;

– Yevropada xorij alpinizmi va yuqori tog‘ tizmalarini tadqiq etishga aynan shu davrda asos solingan.

Markaziy Osiyo va G‘arbiy Yevropa xalqlari o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar ko‘p asrlik tarixga ega. Yevropalik tadqiqotchilarning Markaziy Osiyoga qiziqishi o‘rta asrlardan tortib yangi zamon davriga qadar ham susaymagan

(Ziyayeva, 2019.10-12 B). Natijada o‘lkamizning geografiyasi, tarixi, etnografiyasiga oid qimmatbaho ilmiy materiallar jamlangan. Ushbu hududda bo‘lgan ingliz va fransuzlar bilan bir qatorda nemis millatiga mansub shaxslar ham talaygina edi. Nemis tadqiqotchilari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Germaniya imperiyasi hukumati hamda Rossiya imperiyasi buyurtmalariga binoan Turkiston o‘lkasini tadqiq qilish uchun safar qilganlar. Ularning orasida tabiatshunoslar, harbiy topograflar, zobitlar, injener-muhandislar hamda sharqshunos va etnograflarni uchratish mumkin. Ularni birlashtiruvchi umumiy tomoni shundan iborat bo‘lganki, ushbu shaxslarning barchasi oliy ma’lumotli bo‘lib Berlin, Vyursburg, Gyottingen, Yena, Magdeburg, Drezden va boshqa oliygohlarda tahsil olishgan. Tadqiqotchilarning qariyb barchasi o‘z safarlari haqida xabar va esdaliklar qoldirishgan. Bugungi kunda ushbu mavzu Germaniyaning o‘zida ham katta qiziqish o‘yg‘otmoqda. (F. Torma. 2011.S. 11-18.). Ushbu yo‘nalishda O‘zbekiston ilmiy doiralari ham samarali faoliyat olib borib o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. (Ziyayeva,2022. 364-381betlar).

Turkiston tog‘larining kashf etilishi kechroq sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, ammo tabiiy soha tadqiqotlari ichida fenomen hisoblangan. XIX asrning ikkinchi yarmida britan va rus ekspeditsiyalari Tyan-shan va Pomir tog‘larini imperiya siyosiy qudratini oshirish maqsadida amalga oshirgan bo‘lsa, nemis olimlarining tadqiqotlari 1880-yillargacha kuzatish va ma’lumotlarni xulosa sifatida aks ettirish bilan cheklangan. Demak, rus va britan tadqiqotlari oriyentalistik nuqtayi nazardan olib borilgan bo‘lsa, nemis ekspedisiyalari fan tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Turkistonda olib borilgan nemis olimlarining tadqiqotlari tabiiy sohalarning *orografiya* - (tog‘ va tog‘ tizmalarini o‘rganish), *irrigasiya* - (sug‘orish tizimini o‘rganish), *gidrografiya*-(suv havzalarini o‘rganish*), zoologiya* - (hayvonlarni o‘rganish), *klimatologiya* - (iqlimshunoslik*), entomologiya* - (hasharotlarni o‘rganish*), lepidopterologiya* - (kapalaklarni o‘rganish), *ixtiologiya* - (baliqlarni o‘rganish*), alpinizm* kabi bir necha yo‘nalishlariga bag‘ishlangan. Tadqiqotchilar o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib, aksariyat ko‘pchiligi Markaziy Osiyo mintaqasi tadqiqotlaridan oldin dunyoning turli nuqtalaridagi ekspedisiyalarda ishtirok etishgan. Quyida ana shunday tadqiqotchi olimlardan birining fundamental izlanishlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Arved fon Shuls *(Arved von Schultz, 1872-1920)* temiryo‘llar injeneri bo‘lgan.U Germaniyaning Gissen shahrida tug‘ilgan. A.Shuls 1880-yilda Nemis geografiya jamiyati tomonidan Turkistonga jo‘natilgan. 1903, 1904,1905, 1909 va 1911-1912-yillarda Turkistonga qilgan safari davomida to‘plagan materiallari asosida - “Turkiston landshaftlari” kitobi dunyo ilm ahliga taqdim etilgan (A. Schultz. 1920.S.). 1911-yilda Shuls Pomir tadqiqotlarining so‘ngi bosqichiga

tayyorgarlik ko‘radi. Iyul oyida ekspedisiya Marg‘ilondan Osh orqali g‘arbiy Pomirga o‘tgan. Kitobning kirish qismida bir mashhur nemis arbobining “*Xalqlar bir-birini taniganida, bir-biridan kamroq nafratlanardi*” degan fikrini keltiradi. Nemis geograflariga ushbu masalada katta ma’suliyat yuklangan. Germaniya imperiyasining og‘ir iqtisodiy ahvoli ham nemis geograflari oldiga amaliy vazifalarni qo‘ygan.

Ilmiy safari davomida Shuls Kaspiy bo‘yidagi Krasnovodsk, Ashxobod va Kopetdog‘ etaklari, chegaradosh sahrolar, Tejen, Marv vohasi va uning atrofi, Murg‘ob vohasidan Afg‘on chegarasigacha, Buxoro va atrofidagi sahrolar, Samarqand va undan janubroqda Hisor tog‘ tizmalari, Farg‘ona vohasi, Farg‘ona tog‘lari, Toshkent va uning atrofidagi hududlar, Oloy hamda Qoshg‘ar tog‘ tizmalari, Pomir tog‘larida bo‘lgan. 1903, 1904, 1905, 1909 va 1911-1912 yillarda Pomir va Turkiston vohalarida davom etgan ekspedisiyalar juda katta radiusni qamrab olgan(A. Schultz. 1920.S 530). Tadqiqotchi kezib chiqqan hudud Kaspiy dengizidan tortib bugungi Turkmanistondagi Marv orqali O‘zbekistondagi Buxoro va Samarqanddan Pomirgacha ulanib ketgan. Landshaftlar haqida kitobining birinchi bobi Turkiston orografiyasiga bag‘ishlangan (A.Schultz.1920. S.1-4). Unda jumladan shunday satrlar uchraydi:

“*Shimoldan g‘arbiy Sibirga tutashgan, janubdan Himolay tog‘lari orqali Eron va Afg‘onistondan ajratilgan. G‘arbdan janubga Turkiston 2 ming 500 km., shimoldan sharqqa qarab 4100 km.ga cho‘zilgan. Uning hududi Germaniya, Avstriya, Vengriya, Fransiya va Italiyaning birgalikdagi hududidan ham katta*” (A.Schultz.1920.- S.1-4).

G‘arbiy Turkiston, Sharqiy Turkiston, Janubiy Turkiston haqida to‘xtalib o‘tiladi. Muallif Rus Turkistoni haqida gapirganda avvalo Kaspiyorti, Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona, Yettisuv hamda vassal davlat bo‘lgan Buxoro va Xivani nazarda tutadi. Rossiya Yevropa va Osiyo o‘rtasida yevropalik vositachi bo‘lsa, Turkistonni ham muallif Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi muhim strategik o‘ringa ega davlat sifatida ta’kidlaydi. Turkiston va Qirg‘iz dashtlari o‘rtasidagi chegara g‘arbiy Sibir hududlari bo‘lgan Ural, Turg‘ay, Akmolinsk, Yettisuvdan o‘tgan. Muallif Turkiston chegaralari haqida batafsil to‘xtalgan. Masalan u shunday fikrlarni keltiradi: “Turkistonning shimoliy chegarasi 2930 km. tashkil etadi.Turkistonning sharqiy chegarasi Tarbag‘atoy tog‘laridan janubga qarab burilib Xitoyning Chuguchagiga yetadi, undan 300 km o‘tib jung‘or Alatoviga, Ili vohasidan 140 km. masofadan o‘tib 300 km.dan keyin Tyan-shan tog‘larining eng baland cho‘qqisi Xon-Tangriga yetadi. 420 km. Koksholtog‘dan keyin Farg‘onaga borib, u yerdan janubga Pomirga qarab buriladi. Shundan 600 km. o‘tgach janubiy-sharqda Xitoy, Rossiya va Afg‘oniston to‘qnashadi. Turkistonning janubiy chegarasi 2728km.ni tashkil etadi”

(A.Schultz.1920.-S.3). Turkiston orografik xaritasi haqida gapirarkan Shuls baland va pastliklarni quyidagicha tasvirlaydi:

"*Mamlakat sharqida 3000 metr baland, cho'qqilari 6000 metrga yetadigan tog'lar joylashgan. G'arbda esa mamlakatning ¾ qismini egallagan tekisliklar mavjud. Sharqdan ularga qarab yoyilgan barmoqlardek tog'lar cho'zilgan. Suvli, suvsiz dashtu sahrolar bor.Tyan-shanning bir qismi bo'lgan Qoratog' hududni ikkiga (shimoliy-sharqiy va janubiy-g'arbiy) ajratib yuborgan. Birinchisi Chu-Balxash va ikkinchisi Turon havzalari. Chu-Balxash xavzasi (dengiz sathidan 300m. baland) Turon havzasiga(dengiz sathidan 80-200m. baland) nisbatan balandroq. Ular bir-biridan orografik farqlanadi. Tog'lar sharqqa qarab asta-sekin ko'tarilib boradi va shu sababdan g'arbdagi tekislik va sharqdagi tog'lar o'rtasida tog'oldi hududi hosil bo'lgan"* (A.Schultz.1920.- S.4).

Muallif Kaspiy va Orol dengizi orasidagi Ustyurt platosi kattaligini Angliya va Uelsga tenglashtaradi (150 000kv.km). Tadqiqotchi Ustyurtning g'arbida Mang'ishloq yarim orolida 120 km uzunlikda va 760 km. balandlikdagi Oqtov va Qoratov tog'larini o'rganib chiqadi. Turon havzasida Ustyurt platosi, Turkman dashti (Uning kattaligini Vengriyaga qiyoslaydi; qariyb to'liq Qoraqum sahrosi egallagan) va Sirdaryo-Zarafshon havzalari geografiyasi, gidrografiyasi, flora va faunasini tadqiq etadi. Shuls ushbu hududlar haqida juda batafsil ma'lumotlar keltiradi(A.Schultz.1920.S 5). Bunda muallif Sirdaryo-Zarafshon havzasining(300 000 kv. km) ancha qismini Qizilqum egallaganligi ta'kidlaydi. Turkman dashtiga nisbatan balandroq bu hudud sharqi Tyan-shan tog'lari bilan qoplangan. Muallif Sirdaryo-Zarafshon havzasi markazida 1000 metr balandlikdagi Bukan-tog', Koson-tog', Arslon-tog', Yetim-tog'larni ajratadi. Havzaning shimoliy-sharqidagi Och sahro 10 000 kv.km.ni tashkil etadi. Sharqdan u Farg'ona vodiysiga tutashib ketadi(A.Schultz.1920.-S.5-6). O'z ilmiy asarlarida Shuls Turon landshafti haqida chuqur ilmiy mulohazalar yuritadi.

Tog'oldi hududlar: Hinduqush-Kopetdog', Hisor, Zarafshon, Farg'ona, Alatov, Alako'l-Balxash. Muallif Turkiston sharqi va janubidagi tog' tizmalari haqida muhim ma'lumotlar to'plagan. Ushbu hududga doir beshta tog' tizmasining tavsifi keltirilgan(Tarbog'otoy, Tyanshon, Pomir-Oloy,Kuyen-lun, Xinduqush-Kopetdog'). Asarining birinchi bobida tadqiqotchi Turkiston orografiyasining umumiy tavsifini bergan(A.Schultz.1920.-S.8). Unda tadqiqotchi g'arbiy tekisliklar, tog'oldi hududlar hamda sharqiy tog' tizmalarining umumiy ro'yxatini keltirgan.Asarning 3-bobi Turkiston tog'larining geologik tarixiga, ya'ni ularning qaysi davrda paydo bo'lganligi, qanday geologik jarayonlar ta'sirida vujudga kelganligi haqida firk yuritiladi. (A.Schultz.1920.-S.16-18). Turkiston tog'larining paydo bo'lishi eradan oldingi geologik davrda boshlanganligi va butun yer yuzida tog'lar shakllanishining intensiv davri (*Tertiaerzeit*)da Turkistonda ham ushbu

geologik jarayonlar faol kechganligini ma’lum qiladi. Bunda muallif K.Loyxsning Markaziy Osiyo geologiyasiga bag‘ishlangan kitobini tilga oladi (K. Leuchs 1916.). Xuddi shu bobda Orol dengizini o‘rgangan olim L. Bergning fikriga tayanib (*L.Berg, Der Aral-See*) XIII asr o‘rtalaridan to XVI o‘rtalariga qadar Kaspiy va Orol dengizi O‘zboy orqali bog‘langanligi aytiladi. Shuls genetik-morfologik jihatdan Turkistonni uch qismga bo‘ladi(A.Schultz.1920.-S.18). Tog‘li hududlar (Tyan-shan, Hinduqush tizmasi)

- Tekisliklar
- Ustyurt platosi

Turkiston gidrografiyasi haqidagi bobda Amudaryo va Sirdaryo havzasini ta’riflashda muallif “Duob” (*Duob*) terminini ishlatadi (W.Rickmers. 1913.). Turkiston daryolari haqida so‘z yuritib Kaspiy, Orol, Balxash va Olako‘llardan so‘ng ichki ko‘llar: Issiqko‘l, Sonko‘l, Chatirko‘l va Qorako‘l haqida ham to‘xtalib o‘tadi. Hududning dinamik-morfologik tafsifi bobida 1885-1910 yillar oralig‘ida Turkistonda 11 marotaba kuchli yer qimirlashlar bo‘lgan. 1886, 1897 yillarda Toshkentda, 1887, 1910 Farg‘onada, 1902 Andijonda kuchli yer qimirlash ro‘y bergan(A.Schultz.1920.-S.22). O‘simliklar geografiyasiga bag‘ishlangan 7-bobda muallif o‘lkada 3500 o‘simlik turi mavjudligini va shulardan 333 tasi daraxt va buta turlari ekanligini ma’lum qiladi. Tiflis botanika bog‘ida faoliyat yurgizgan V.Yu.Lipskining Markaziy Osiyo florasiga bag‘ishlangan kitobidan ma’lumot keltiradi (W.Lipski. 1902.).

Turkistonning janubidagi tog‘oldi va tog‘li hududlarning o‘simlik turlariga juda boyligini ko‘rsatib o‘tgan. Undan tashqari Turkistondagi sahro o‘simliklarining ham turfa xilligini e’tirof etadi. Masalan, *Calligonum,* mahalliy aholi “*Juzgem*” deb ataydigan o‘simlik, *Halimodendron argentenin*; “*Chingil*” nomli sahro akasiyasi, *Ammodendron Karelini; Astrogalus* va 160 yil o‘sadigan daraxtsimon buta - saksovul (*Haloxylon ammadendron*) kabi o‘simliklarning o‘ziga xos sahro landshaftini tashkil etishini kuzatadi (A.Schultz.1920.- S.33). Amudaryo quyi oqimida qalin tuqayzor o‘rmonlar bo‘lib, u yerda yo‘lbarslar makon qurgan deb ma’lumot bergan.Shulsning guvohlik berishicha, Farg‘ona tog‘ tizmalarida 1200-1800 metr balandlikda o‘rmonzorlar boshlanib, u yerda quyidagi daraxt turlari o‘sgan: *Juglas regia, Populus, Rhamnus,Prunus,Berberis, Acer, Fraxinus,* ninabarglilardan *Picea, Abies.* Shuls Turkiston o‘simlik georafiyasini 9 hududga ajratib o‘rganadi (A.Schultz.1920.-S.34-35). Turkiston faunasi ham xilma-xil bo‘lgan. Turkiston shimoliy-sharqida Sibir va Oltoyda yashaydigan hayvon turlarini uchratish mumkin, janubda esa Tibet, Hindiston, Shimoliy Afrika va hatto Amerikadagi hayvonlar turi mavjud. Janubda shimolga qaraganda fauna turlari boyroq bo‘lgan. Misol uchun faqat ko‘rshapalakning 11 turi bo‘lgan. Tadqiqotchining guvohlik berishicha, bunda Hindiston va shimoliy Afrikada

uchraydigan turi juda keng tarqalgan (*Otonycteris Hemprichi*). Shuls Turkistonda yashaydigan yirtqich hayvonlar ro‘yxatini keltiradi. Undan giyena, yo‘lbars (*F.septentrionalis*), silovsin (Catolynx -candata), bo‘ri, tulkilarning ko‘plab turi, shoqol, bo‘rsuq, karakal, gepard, irbis, kunisa, dasht va sahrolarda yashovchi jayron, qulonlar va ko‘plab boshqa hayvonlar o‘rin olgan. To‘qayzorlardagi yovvoyi cho‘chqalar tunlari mahalliy aholining qovunzorlariga hujum qilib ekinlarni payhon qilganligini yozadi muallif. Turkiston qushlari ham Sibir, Oltoy, Tibet, Hindiston, Arab-Afrika turlariga o‘xshash juda boy va xilma-xil. Nemis tadqiqotchisi bu yerda baliqlarning 66 xil turi bo‘lib ulardan 55 turi karplar oilasiga mansubligini o‘z kitobida qayd etgan. Hasharotlarni o‘rgangan tadqiqotchi o‘rgimchaklarning 15 turini aniqlagan. Tekislik va tog‘li hududlarda ham tarqalgan “qoraqurt”ning (*Latrodectus tredecimguttatus*) chaqishi oqibatida o‘lim holatlari ham kuzatilganligini ta’kidlaydi. Chayonlar ham ko‘p bo‘lgan, ular hatto 4000 metr balandlikda ham uchragan, lekin chayon chaqishi inson hayoti uchun unchalik katta xavf tug‘dirmagan. Kapalaklar faunasi juda boy bo‘lib, unda xilma-xil, masalan, Kaliforniya, Shimoliy Amerika, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Shveysariya, Skandinaviya, Laplandiya, Suriya,Eron va Himolay turlariga yaqin turli endemik turlar mavjud bo‘lgan**.** Shuls Turkiston klimatologiyasiga oid tadqiqotlarida ushbu hududning kontinental joylashuvi hamda janub va sharqdan tog‘lar bilan o‘ralganligi oqibatida iqlim juda quruq, harorat o‘zgaruvchan ekanligini qayd etgan. Nemis tadqiqotchisi Turonning janubiy-g‘arbida jazirama yozni, Pomir sharqida esa qariyb qutb iqlimini kuzatish mumkinligini ta’kidlaydi(A.Schultz.1920.S 9). Uning ma’lumotlariga qaraganda, Turkistonning yillik izotermasi +7 va +18 orasida bo‘lib ushbu hududda Shimoliy Muz okeani, shimoliy Sibir va shimoliy Afrika havo haroratini kuzatish mumkin*(A.Schultz.1920.S 1).* Arved Shuls o‘z kitobida O‘zbekiston shaharlarining yanvar, iyun oylaridagi havo harorati va yillik harorati haqida ma’lumot keltiradi. Toshkent, Samarqand,Namangan, Ashxabodda qishda havo harorati -20, -27 darajaga borgan. Arved Shulsning tadqiqotlarida Farg‘ona, Toshkent, Marg‘ilon,Samarqand,Ashxobod, Pomir postida sovuq faslning boshlanishi va tugash vaqti berilgan. Nukus Turkistonning eng chuqur metereologik stansiyasi ekanligi ta’kidlangan (dengiz sathidan 66 metr).

XIX- XX asr boshlarida Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan nemis sayyoh va tadqiqotchilar faoliyatiga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston tabiiy sohalarini o‘rganishda ular rus, ingliz va fransuz tadqiqotchilaridan ortda qolmaganlar. Nemiszabon olimlar ham hududimizda faol ilmiy izlanishlar olib borganlar.Shuni ta’kidlash joizki, XIX asrdan boshlab Markaziy Osiyo tabiatshunosligini o‘rganish maqsadida nemis tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan safarlar hali geostrategik rejalardan holi, ilmiy xarakterga ega bo‘lgan. Ilk ekspedisiyalar ilmiy izlanish ekspedisiyalari edi. Ular yo ishtirokchilarning o‘z

hisobidan Fanlar Akademiyasi, Geografik jamiyatlar yoki xorij mamlakatlar bilan shug‘ullanuvchi institutlar (Landeskundemuseen) tomonidan moliyalashtirilgan.

Ekspedisiyalar haqidagi xabarlar nafaqat alpinistlar uyushmalarining nashrlarida, balki Geografik jamiyatlar to‘plamlari, Petermanning Geografik xabarlari va Britan Geografik jurnalida chop etilgan. Professional geograflar ham, havaskor alpinistlar ham Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlaridan katta hajmli ilmiy asarlar yaratishgan. Arved fon Shuls o‘z asarlarida Turkiston tasvirlariga oid nazariy bahs va metodik munozaralarni aks ettirgan. Shuls kabi nemiszabon tadqiqotchilarining XIX-XX asr boshlarida Markaziy Osiyo tabiatshunosligiga oid muhim ma’lumotlari o‘z davrida ilmiy nashrlarda chop etilgan. Tadqiqotchi tabiiy fanlar yo‘nalishidagi turli sohalarni o‘rgangan. Ushbu tadqiqotlar nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun jahon tabiiy fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shib, hozirgi kunda tabiiy fanlar tadqiqotchilari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ziyayeva D.X.O‘zbekistonda intellektual meros tarixiga oid manbalar (XIX - XX asr boshlari).Toshkent.- 2018; O‘zbekiston tabiiy sohalariga oid ilmiy ekspedisiyalar tarixidan.-Toshkent.2019; O‘zbekistan tarixiga oid manba va tadqiqotlar (XIX - XX asr boshlari) Mas’ul muharrir D.H. Ziyayeva. Toshkent: Nurafshon business, 2022. 364-381betlar

1. 2.Leuchs K., Zentralasien, Handbuch der Regionalen Geologie, Bd. 5, Heidelberg 1916

2. Lipski W.J., Die Flora von Mittelasien. d.h. Russisch-Turkestan und Buchara. Arbeiten des Tifliser Botanischen Gartens. Ausg.7. Buch 1-3, St. Petersburg 1902,03, 05,

3. Torma F.Turkestan-Expeditionen. Zur Kulturgeschichte deutscher Forschungsreisen nach Mittelasien (1890-1930). Bielefeld.2011.

4. Rickmers W., The Duab of Turkestan.Cambridge, 1913

5. Schultz A. Die natuerlichen Landschaften von Russisch - Turkestan, Hamburg, 1920. 530-S, 1-4 SS, 3- S, 5-6-SS, 8-S, 9-S, 1-S, 10-S,16-18 SS, 18-S, 22-S, 33-S, 34-S,35-S.

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI KASPIYORTI VILOYATIDAGI XORIJIY TADBIRKORLAR FAOLIYATIDAN

Raximov B.E.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqola Turkiston general-gubernatorligidagi xorijiy tadbirkorlarning faoliyatiga bag‘ishlangan. Xususan, Kaspiyorti mintaqasi iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy investorlarning ishtiroki aniqlangan. Faktik

materiallar asosida viloyatning paxta tozalash, konchilik va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga xorijliklarning ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, xorijiy firmalar, paxta idoralari, aktsiyadorlik jamiyatlari, xorijiy kapital, tog‘-kon sanoati, Kaspiyorti o‘lkasi.

Jahon tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari yirik imperiyalarning mustamlakachiligi davri sifatida tarixga muhrlandi. Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar bu davrda o‘z davlatlari sarhadlarini kengaytira bordilar. Bu davrda ayniqsa, Rossiya va Angliya davlatlari o‘rtasida hududlar uchun to‘xtovsiz qarama-qarshiliklar kechdi. Ikkala davlat o‘rtasidagi talash hududlardan biri bu Turkiston hududi hisoblangan. Lekin Turkistonda Angliya qarshiligi sindirilib, mintaqa Rossiya imperiyasiga bo‘ysundirildi. Podsho Rossiyasi tomonidan Turkiston bosib olingach, bu yerda general-gubernatorlik boshqaruvi joriy etilib, hudud viloyatlarga bo‘lingan. General-gubernatorlik beshta viloyatga (Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona, Yettisuv, Kaspiyorti) bo‘lingan. Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi tarixi haqida so‘z ketganda, o‘lkada sanoat korxonalarining yuzaga kelishi, ularning faoliyat sohalari va mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni borasida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Ayniqsa, ushbu davrdagi Turkiston general-gubernatorligi Kaspiyorti viloyatidagi xorijiy tadbirkorlarning faoliyatini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Turkiston general-gubernatoridagi Kaspiyorti viloyatining iqtisodiy infratuzilmasida xorijiy investorlarning ishtiroki ulkan bo‘lgan. Haqiqatan ham, mintaqa iqtisodiyotining paxta tozalash, konchilik va boshqa tarmoqlarida xorijiy tadbirkorlarning ta’siri ko‘rsatib berigan. XIX asr oxiri-XX asr boshlari Turkiston uchun kuchli siyosiy bo‘hronlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jabhalarda turli transformatsion jarayonlarga boy bir davr bo‘lgan.

1883-yilda Turkistonda birinchi bo‘lib “O‘rta Osiyo tog‘-kon sanoati shirkati” paydo bo‘ldi. Dastlab u ko‘mir konlari bilan shug‘ullangan. 1896-yil geolog Ber Marg‘ilon, Andijonda ish olib bordi. 1901- yilda Slivinskiy Chimyon hududidagi Yerqo‘ton, Ko‘tarma vodiylarida izlanishlar olib bordi. 1896-yilda Nijniy-Novgorodda “Neft” deb nomlangan eksponatlari bilan Turkistonlik tadbirkorlar qatnashishi xorijiy kompaniyalarda o‘ziga xos taassurot qoldirdi. 1900 yilda Parijda o‘tkazilgan xalqaro kongressda Farg‘ona nefti tilga olingan. Qo‘qonlik nemis savdogarlari A.I.Zigel va K.F.Reynsgagenlar faoliyat olib bordi. A.I. Zigel “Chimyon” shirkatini boshqaruvchisi bo‘lib xizmat qildi. Bu ikki shaxs “Andreyev savdo-sanoati shirkati” da Konibadomda direktorlik qilishgan. 1910-yil 20-oktyabrda “Zigel va Reynsgagenlar savdo uyi” tashkil qilingan. 1911-yil 12-sentyabrda aksiyadorlar “Moylisoy” neft shirkatini tuzishni so‘rab general -

gubernatorga murojaat qilishgan. Bu davrda mahalliy kompaniyalar xorijiy kompaniyalar qo‘lida bo‘lgan. Jumladan, “Kaspiy- Qora dengiz neft sanoati va savdo uyi” “Rotshildlar (Fransiya) savdo uyi” qo‘lida bo‘lgan. 1906-yilda Suxanov boshchiligidagi O‘rta Osiyo neft sanoatining “N. Suxanov va K Ishonch shirkati” tuzilgan. 1907-yil 27-dekabrda Selroho, Oqko‘lmak va Yeryog‘i qir-adirliklarida joylashgan 5 ta neft konlarini birlashtiruvchi “O‘rta Osiyo neft sanoati shirkati” tashkil topgan [2. 24-33].

O‘lkada tog‘-kon sanoatida xorijiy sarmoyadorlarning faoliyatiga oid materiallar ilmiy adabiyotlarda ko‘p uchraydi. Jumladan, Angliya tog‘-kon sanoati sindikati vakili muhandis A. Nobelning Turkistonga tashrifi hamda uning maqsadi haqida ma’lumot berilgan. Undan ma’lum bo‘lishicha, u Turkistondagi mis konlari haqida ma’lumot to‘plash va imkoniyati bo‘lsa, bir necha ruxsatnomani qo‘lga kiritish maqsadida kelgan. Mazkur sindikat Rossiya imperiyasining bir qancha joylarida, xususan, Uralda, Sibirda va Kavkazda mis konlariga ega bo‘lgan. Gazetada Turkistonga kelgan A.Nobel bilan “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining muxbiri suhbatiga alohida o‘rin berilgan edi. Gazeta muxbiri bilan suhbatda Angliya tog‘-kon sanoati sindikati vakili o‘lkada mis konlari yaxshi tadqiq etilmaganligi va “ruslar inglizlarning o‘lkadagi barcha tabiiy boyliklarni qo‘lga kiritishidan hayiqishi” ni alohida ta’kidlagan [3.]. Ingliz tadbirkori Kaspiyorti viloyatida ham keng faoliyat olib borgan, chunki Kaspiyorti viloyatidagi Cheleken oroli nafaqat tuz zahiralariga, balki neft konlariga ham boy bo‘lgan [4. 160]. Ushbu ma’lumotlar konlar mahalliy aholiga azaldan ma’lum bo‘lib neft qazib olish bo‘yicha ular o‘zlarining qadimiy texnologiyalariga ega ekanligi va bu sohada katta mahorat sohibi bo‘lganligidan dalolat beradi. Neft quduqlaridan tashqari neft ko‘llari va buloqlari ham bo‘lgan. Bunday hududlarning aksariyati 20-30 yilga xorijliklarga ijaraga berib yuborilgan. Misol uchun, 1876-yilda bu yerda “Aka-uka Nobellar” firmasi o‘z faoliyatini boshlagan [1. 16]. Nemis tadqiqotchisi G.Kramer viloyatda neft bilan shug‘ullanuvchi ushbu xorijiy kompaniya haqida to‘xtalgan (“...Aka-uka Nobellar jamiyati shunday hududlardan 8 tasini ijaraga olgan. Uchta quduq texnika yordamida va 164 tasi qo‘l kuchi bilan qazilmoqda. Palashkovskiy 30 tacha hududga ega bo‘lib, 16 ta qazish mashinalarini ishga solgan va ushbu hududda Petroleum fabrikasini ham qurib olgan. Qazib olingan neft Fors davlatiga yuborilgan: 1891-yilda 966420 kg., 1892-yilda 160524 kg., 1893-yilda 187710 kg. Nobel jamiyati 1893-yilda jami 1924650 kg nafta qazib olgan...”) [5. 136].

Bulardan tashqari bu viloyatda boshqa xorijiy tadbirkorlar ham neft qazish bo‘yicha faoliyat yurgizgan, lekin ko‘pchiligi eski quduqlarda ish yuritishgan va ular ham mahsulotni Eronga eksport qilishgan [5. 136]. Turkistonning boshqa viloyatlari ham Kaspiyorti viloyatidan qolishmaslikka harakat qilishgan. Masalan, Farg‘ona viloyatida 1891-yilda 26 ga yerda neftni qazib olish bo‘yicha ishlar olib borilgan.

Bu yerdan 75 180 kg neft olingan. Samarqand viloyatida ham ikkita neft koni ochilgan. Lekin bizda mavjud ma'lumotlarga tayanib shunday xulosa qilish mumkinki, Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarini neft qazib olish bo'yicha taqqoslaganda Kaspiyorti viloyatiga teng keladigani bo'lmagan [5. 137]. 1902-yilda Chelekenda ingliz firmasi "Markaziy-Cheleken jamiyati" o'z faoliyatini boshladi. Jamiyatning asosiy sarmoyasi 500 ming rubl miqdorida belgilandi, va uni 1906-yilda 1 mln. rublgacha oshirishga ruxsat berildi. 1907-yil dekabriga qadar jamiyat orolda 20 desyatina miqdoridagi uchta neftli yer uchastkasiga egalik qildi. 1907-yil 23 dekabrda jamiyatga yer egaligini 60 desyatinaga oshirishga ruxsat berildi [5. 137]. 1910-yil 30-iyunda Londonda "Cheleken neft sanoati mas'uliyati cheklangan jamiyati" tuzildiki, uning 300 ming funt sterlinglik sarmoyasi har biri 1 f. st. turadigan 300 ming aksiyadan iborat edi. Jamiyatni tashkil etishdan maqsad Rossiyadagi neftli uchastkalarga ega bo'lish va ulardan foydalanish, Cheleken orolida neftni qazib olish va qayta ishlash hamda neft mahsulotlari savdo-sotig'ini amalga oshirish edi. 1912-yil 12-dekabrda imperator Rossiyada ushbu jamiyat faoliyatining shartlarini tasdiqladi. 1911-1914-yillarda, Turkiston general-gubernatorining e'tirozlariga qaramay, "Gadji-Cheleken neft sanoati mas'uliyati cheklangan jamiyati" deb nomlangan aksiyadorlik jamiyati o'z faoliyatini boshladi, va unda inglizlar sarmoyasi ustun keldi. Chet el (asosan ingliz) sarmoyasi urushdan oldingi yillarda Kaspiyorti viloyati neft sanoatida yetakchi o'rinni egalladi. Jumladan, 1911-yilda uning ulushi 7,2 mln. pudni (yoki 52%ni), 1913-yilda - 4,94 mln. pudni (47,9%ni) tashkil etdi. [1..91-92] Cheleken orolidan tashqari, ingliz neft sanoati kompaniyalari Rossiyaning boshqa neftni qazib oluvchi mintaqalarida ham ishlagan: Tiflis guberniyasida, Farg'onada, Saxalinda. Bu yerda ularning ishtiroki asosan rus neft sanoatchilardan konlarni ishlash huquqini sotib olishdan iborat bo'ldi. (14.185-186)

Farg'ona viloyatida neft qazish ishlari 1899-yilda Marg'ilon uezdidagi Mindan qishlog'i yaqinida "Chimion" neft-sanoat jamiyati tomonidan boshlangan. Birinchi quduqni burg'ulash 1904-yil avgustda yakunlandi va natijada neft fontani paydo bo'ldi. Bu holat darhol o'z ta'sirini o'tkazdi, chunki viloyatning boshqa joylarida, asosan Qo'qon uezdida turli shaxslar va jamiyatlar tomonidan neft qidirish ishlari olib borildi.

Kaspiyorti viloyati Mang'ishloq hududida qo'ng'ir ko'mir zahiralari ko'plab qazib olingan. Balxan tog'lari va Chelekenda ozokerit konlari mavjud bo'lgan. Muallifning guvohlik berishicha, mahalliy aholi uni katta maxsus qozonlarda qaynatib boshqa aralashmalardan tozalagan va ana shu toza ozokerit eritilib xo'jalikda ko'p ishlatiladigan serazin olingan [5. 137].

Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarida neft qazib olish holati

Viloyat	1889	1890	1891
Kaspiyorti viloyatida	4 691 232	4 668 300	2 948 400
Farg‘ona viloyatida	23 340	34 398	75 184

Demak, ozokerit olish bo‘yicha ham turkistonliklar ma’lum bilim va usullardan xabardor bo‘lishgan. Kaspiyorti viloyatidan ushbu qazilmalar Fors davlati, Buxoro va Xivaga ham yetkazib berilgan. Kramerning bergan ma’lumotlariga qaraganda Farg‘ona viloyati ham ozokerit konlariga boy bo‘lgan. Masalan 1890-yilda Farg‘ona viloyatida 7370 kg ozokerit qazib olingan [5. 138].

Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi 1894-yilda qabul qilingan qonunda “Turkiston o‘lkasida yer va umuman ko‘chmas mulkni sotib olishga faqatgina nasroniy dinidagi rus fuqarolaridan Turkiston va u bilan chegaradosh O‘rta Osiyo davlatlari fuqarolaridan tuzilgan paychilik asosidagi shirkatlar va aksiyadorlik jamiyatlarigagina ruxsat etiladi” - deyilgandi. Shu qonunda chet elliklarga yoki yahudiy diniga e’tiqod qiluvchi shaxslarga ko‘chmas mulkni sotib olish taqiqlangan, ularni faqat vaqtincha foydalanish uchun sotib olishiga ruxsat berilishi ko‘rsatilgan [6. 98]. Bundan tashqari 1907-yili Turkiston o‘lkasidagi aksiyadorlik jamiyatlari o‘zlarining Nizomlaridan “jamiyatning aksiyalariga chet ellik shaxslar egalik qilishlari taqiqlanadi” degan jumlani olib tashlashni so‘rab, Savdo va sanoat vaziriga murojaat qilganlar. 1 iyul kuni esa bu masala yuzasidan Nikolay II o‘z roziligini bildirgan. 1907-yil 30-oktyabr kuni vazirlik: “Rossiya hududida ko‘chmas mulkka egalik qiluvchi jamiyat boshliqlari faqat yahudiy diniga mansub bo‘lmagan shaxslar bo‘lishlari mumkin” degan qaror chiqargan. 18 dekabr kuni esa Nikolay II ning imzosi bilan Savdo va sanoat ministri orqali Fransiya, Angliya, Germaniya va Belgiya davlatlari aksiyadorlik jamiyatlarining Rossiya hududida ish olib borishiga ruxsat berildi [7. 62].

Shu bilan birga Germaniya va Avstro-Vengriya fuqarolari bo‘lmish savdo va sanoat firmalari egalari (Gergard va Gey, aka-uka Kraftlar, aka-uka Knoplar, Lui Zalma, aka-uka Shlossberg va h.k.) soxta savdolar, rus familiyali shaxslarni, rus fuqarolarini aksiyadorlar tarkibiga kiritish, o‘z korxonalarini qayta nomlash va boshqa choralar yordamida o‘z mol-mulklarini qisman yoki to‘liq sekvester qo‘yilishidan saqlab qoladilar va daromad olishda davom etganlar. Misol uchun, 1915-yil may oyida “Aka-uka Knoplar” savdo uyi “Volokno” (“Tola”) jamiyatiga qayta nomlagan, “Gergard va Gey” firmasi-“Russkoye transportnoye obщestvo”

(“Rus transport jamiyati”), 1917-yildan boshlab harbiy kiyimlar tikuvchi “Lui Zalma” fabrikasining egasi deb Petr Vaxrushev e’lon qilingan [8. 36].

Nemis tadbirkorlarini Turkiston foydali qazilmalari hamda shifobaxsh o‘simliklari juda qiziqtirgan. Ushbu tadbirkorlar ularni sotib olib, Germaniyaga jo‘natganlar. Nemis farmatsevt tadbirkorlarining ichida eng mashhuri Dragendorf bo‘lgan. Foydali qazilmalar ichida ozokerit (tog‘ tabiiy mumi) ga talab katta bo‘lgan. U nemis firmalari tomonidan sotib olinib, Boku va Botumi orqali Germaniyaga yuborilgan. 1912-yilda ozokerit qazib olish bilan faqat bitta Lyuborad firmasi shug‘ullangan. 1913-1914-yillarda Lyuborad bilan birga Feysflog, Baxshi-Baxshiyev firmalari ham ozokerit qazib olishgan [9. 88].11

Manbalarda tadbirkorlik maqsadida viloyatga kelib hayoti fojiaviy yakun topgan nemislar haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Kaspiyortiga kelgan Gustav Gustavovich Granberg Ashxabod shahri go‘sht ta’minotini yaxshilash maqsadida 1905-yilda hukumatdan besh yilga o‘z tadbirkorligi uchun ruxsatnoma va imtiyozlar olishga muvaffaq bo‘lgan. Ashxabodda katta go‘sht do‘koni, shahar tashqarisida unga Kurtsu degan joydan dehqonchilik va qoramol ko‘paytirish uchun bepul yer maydoni berilgan. Granberg shijoat bilan o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ya boshlagan. Ijobiy natijalarga erishilsa, hokimiyat unga imtiyozlarni besh yildan keyin ham uzaytirishga va’da bergan. Qisqa fursatlarda u ferma, suv hovuzlari, Kurtsudan toqqa olib boradigan yo‘l qurdirgan. Uchta quduq qazdirgan. Ashxabod aholisiga do‘konidan sifatli go‘shtni davlat tomonidan belgilangan tarifda yetkazib bergan. Biroq ushbu muvaffaqiyatli tadbirkor 1906-yilda o‘ldirilgan. Ushbu holat Turkistonning iqtisodiy rivojlanishida xorijiy tadbirkorlar faoliyatining naqadar katta ahamiyatga ega bo‘lishini yaqqol ko‘rsatadi. Ashxabod shahri o‘sha paytda imperiya manfaatlariga xizmat qilgan yirik siyosiy va harbiy markaz bo‘lgan [10. 405-414].

Turkistonning muhim ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlaridan bo‘lgan chorvachilik ham, ipakchilik ham mustamlakachilik davrida o‘z egalariga to‘liq xizmat qila olmadi. Umuman olganda, vujudga kelgan sanoat korxonalarida yangicha texnika va texnologiyadan foydalanishga harakat qilinsa-da, ammo hamma korxonalarni yangicha texnika bilan rekonstruksiya qilish uchun mablag‘ yetishmas edi. Qolaversa, Rossiyaning o‘zidagi sanoat korxonalari ham texnikaviy asbob-uskuna va mashinalar bilan jihozlanish bo‘yicha jahondagi ko‘p davlatlardan, xususan, Yevropa mamlakatlaridan hamda Amerikadan ancha orqada qolganligi uning mustamlakasi bo‘lgan Turkistonda ham o‘z aksini topgan. Ma’lumki, Turkiston va, xususan, Kaspiyorti viloyatida o‘sha davrda faoliyat yurgizgan xorijiy tadbirkorlar asosan paxtachilik sohasi bilan shug‘ullanishgan. Jumladan, o‘lkadagi banklar bilan keng aloqalari yordamida katta miqdorda paxta sotib olish bilan shug‘ullangan “Aka-uka N. va A. Ter-Mikirtichevlar”, “S.X.Kevorkovlar”, “Fors

shirkati", "B. Arzumanov" [11.115], "Vadyayevlar savdo uyi" [12.30-31] , Ashxabod va Marv shaxarlarida faoliyat yurgizgan Germaniyaning "Gerxard va Gey aksionerlik jamiyati" kabi paxta firmalari yaxshi foyda ko'rgan [13.118].

Rus kapitalini xorijiy tadbirkorlar raqobatidan himoya qilish maqsadida chet ellik sarmoyadorlar faoliyatiga ma'lum cheklovlar qo'yiladi. Oqibatda xorijiy savdo va sanoat firmalarining faoliyati xavf ostida qoladi. Ular o'z daromadi va firmalarini saqlab qolish maqsadida rus familiyali fuqarolarni aksiyadorlar tarkibiga kiritishgan. Shu tariqa xorijiy firmalar nomlari ruscha nomlarga o'zgartirilgan. Xorij kapitalining kuchayib ketayotganidan xavfsiragan Turkiston general- gubernatori Samsonov 1911-yili: "o'lkadagi ko'pgina korxonalar ruslarning emas, chet elliklarning qo'liga o'tyapti" deb yozgan. Mazkur ma'lumot negizida sanoatga xorij kapitalining kirib kelayotganidan imperiya ma'murlarining xavotirlanayotganligini va Turkistonni "faqat ruslar uchun" saqlash yo'llarini qidirganini sezishimiz mumkin.Turkiston iqtisodiyotida tub yerlik va rus sarmoyadorlari tomonidan tuzilgan barcha turdagi shirkatlarnining iqtisodiy salohiyati xorij moliyasi bilan bog'liq shirkatlardan ancha kuchsiz edi. Bu jihatni hukumat tan olishga majbur edi, binobarin, u xorij sarmoyadorlari bilan o'zaro kelishuvchilik yo'lini tutgan va birgalashib Turkiston o'lkasini yer usti va yer osti tabiiy boyliklarini talon-taroj qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вексельман М.И.Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конецXIX- начало XXв.).Ташкент.1987.-С. 16, 91-92
2. Мирзаев А. XIX аср охири-XX аср бошида Ярослав Катта мануфактураси ширкатининг Фарғона водийсидаги фаолияти //Ўзбекистон тарихи , 2011 йил 4-сон. 24-33 бетлар.
3. Шадманова С. "Туркистон матбуотида саноат ишлаб чиқариши ҳақидаги маълумотларнинг акс этиши (XIX аср охири - XX аср бошлари)"//http://ziyonet.uz/uzc /library/ libid /20207
4. Machatschek F.Landeskunde, v. Russ.-Turkestan, 1921.-S.160
5. Krahmer G. Russen in Mittelasien. (Reprint der Ausgabe Leipzig. 1897)-S. 136,137,138.
6. Ғаффоров Ш.С. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар. Тошкент."Фан"нашриёти, 2006, 98- бет.
7. Рахимов Б.Э.Каспийорти вилоятидаги яҳудийлар тарихидан (XIX аср охири - XX аср бошида) // СамДУ профессор-ўқитувчилари ва илмий ходимларининг анъанавий LXVIII конференция материаллари - Самарқанд: СамДУ нашри,2013 йил 62-бет.
8. Матвеев А. М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях к Великому Октябрю. Тошкент.1977.-С. 36

9. Обзор Закаспийской области за 1912-1913-1914.-Асхабад. 1916 -С.88
10. Mark R .Im Schatten des Great Game. Deutsche «Weltpolitik» und russischer Imperialismus in Zentralasien 1871-1914.Padeborn.2012. - S.405-414
11. ЎзМДА, Ф-И-3, 461-иш, 115- бет.
12. ЎзМДА, Ф- И, 461-иш , 30.об, Ф.- И, 1496-иш, 31, 31 об.
13. ЎзМДА, Ф- И-3, 461-иш, 118 об.
14. Холлиев А.Г. Россия XIX асрнинг охирги чораги- XX аср бошида:хорижий мамлакатлар билан иқтисодий алоқаларни ташкил қилиш ва амалга оширишнинг тарихий тажрибаси (Буюк Британия ва АҚШ мисолида) // тарих фанлари доктори (DSc) lдиссертацияси, Тошкент 2023, 185-186 бет

JADIDCHILIK TA’LIMOTIDA AXLOQIY QADRIYATLAR TALQINING INSON QADRI BILAN UYG‘UNLASHUVI

Jurakulov Voxidjon Nurdullayevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti
Email: jurakulovvoxidjon@gmail.com

Annotatsiya. Sharq tafakkuri tizimida muhim o‘rin egallagan jadidchilik harakatining qarashlarida axloqiy qadriyatlar, uning inson qadri bilan uyg‘onlashuvi va bu axloqiy qadriyatlarning hozirgi davrda mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda jadidlarning ijtimoiy-siyosiy-falsafiy qarashlarining asosiy yo‘nalishlari va mazmun mohiyati o‘rganilib, bu g‘oyalarning hozirgi davr yoshlarini o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma’naviy saviyasini yuksaltirishda foydalanish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, yoshlar, inson, ma’rifat, axloq, adolat, ilm, ta’lim-tarbiya.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar”[1].

Yoshlarga Turkiston, turkiylar tarixini o‘rgatishga alohida e’tibor berildiki, bu ularning milliy ongini uyg‘otishga, jamiyatni etnik jihatdan birlashtirishga xizmat qilardi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “O‘z urug‘ining otini bilmagan, yetti

1Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi.

otasini tanimagan qul-manqurtdir”[1] degan so‘zlari yoshlarni milliy o‘zligini anglashga chaqirar edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlariga murojaat qilsak unda mustamlakachilik davrida ta’lim va tarbiyada muvoffaqiyatlarga erishishning birdan bir yo‘li o‘lkada o‘zaro ixtiloflarga barham berib, ahillik bilan ilm fanni rivojlantirish ekanini aytadi. Kattalar va muallimlarga murojaat qilib, ularni yoshlarni bilimli qilishga, mehnatga jalb etishga da’vat etadi. “Yoshlar - deydi u - istaydurlarki, millatga va xalq ommasiga xizmat etsalar... Oldimizda ish ko‘p. Boshqa xalqlar har daqiqa taraqqiy etmoqdadurlar. Takror arz qilurmizki, yosh va kattalar bir bo‘lib ishlamoq kerak... Agar biz ta’lim-tarbiya ishini shu ruhda olib bormasak, turkistonliklarga na hurriyat qolur, na muxtoriyat berilur..”[2].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim va tarbiya xususidagi qarashlarida shuningdek dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan turli voqealar bilan bog‘lab olib borish o‘zini samarasini berishini ta’kidlaydi. Demak bugungi kunda amalga oshirilayotgan har bir darsni zamon bilan bog‘lanishi masalasi Behbudiy bobomizdan me’ros. Turkiston o‘lkasining gazetalarida o‘zining dolzarb maqolalari bilan chiqishlar qilib, unda yangi usul maktablaridagi o‘qitish tizimi, barkamol insonni shakllantirishda uning o‘rni, shuningdek dunyoviy fanlarni joriy etilishi va o‘qitilishining ahamiyati haqida ko‘plab maqolalari chop ettirilib borilgan. Jumladan Ulug‘ Turkiston gazetasidagi Bayoni haqiqat nomli maqolasida talim va tarbiya masalasi faqat yoshlar uchun emas, avvalo kattalar ham o‘zida mujassam qilishlari lozimligi xususida to‘xtalib, turli yomonliklar, baxtsizliklardan xalos bo‘lish uchun o‘qimoq va o‘qitmoqdan boshqa iloj yo‘qdur deydi[1]. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903-1904 yillarda Maskov, Peterburgga boradi, 1907 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novogorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan: Nijniy Novogorodda 1907-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoyi chaqiriladi. Behbudiy turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi. Ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmaydi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq kerak. Millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq lozim uchun oyna kerak, toki undan o‘z qabohatini ham malohatini ham ko‘ra olsin.[2]

Xulosa qilib aytganda Maxmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida millat ma’naviyati va madaniyati ravnoqi yo‘lida buyuk bir siymo bo‘lib shakllanib, o‘zining ta’lim tarbiyaga oid g‘oyalarini targ‘ib etdiki, bu o‘z o‘rnida ta’lim

1Mamudxo’ja Behbudiy, “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil, 25-mart.
2 Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. 3-нашри. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов). Тошкент, ―Маънавият‖, 2006
1Qosimov B. Ma’naviyat yulduzlari T.:1999y. 356-b.
2Hoshimov Q. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.T.:2010 y. 406-b.

tizimida ilm fan bilan bir qatorda, din, axloq, ma’naviy olam, adolat va sadoqat masalalari muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Yangi davrga kelib jadidchilik harakati va uning yetuk vakillari tomonidan milliy ma’naviy merosga oqilona munosabatni shakllantirish, inson tabiatiga doir qarashlari, milliy mentalitet, urf-odat, qadriyatlar, an’ana va marosimlarni avaylab-asrash o‘rniga uni talon-toroj etish siyosati qo‘llangani haqli ravishda qoralanganini alohida ta’kidlash lozim. Jadidlar e’lon qilgan manbalarda ma’naviyat va madaniyat masalasiga taalluqli qarashlar alohida o‘rin tutadi. Masalan, o‘tgan asrning boshlaridayoq yangi bosh ko‘tarayotgan ommaviy madaniyat va ma’naviy tahdidlarning real xavfidan o‘z davri voqealari jarayonini sinchkovlik bilan kuzatib borgan jadidlarning xabardor bo‘lgani, xabardor bo‘libgina qolmasdan boshqalarni ham hushyorlikka chaqirganini aytib o‘tish lozim.

Yosh avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o‘rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g‘oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma’naviy hamda g‘oyaviy jipslashtirish, ularni o‘lka taqdiriga dahldorlik tuyg‘usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g‘oyaviy-nazariy yo‘nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho‘lponlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borishni taklif etganlar. “Xususan, jadidlar inson hayotini yaxshilash uchun uni ma’rifatli qilish bilan bir qatorda kishilarning mustaqilligi, erkinligi, farovonligini ta’minlash to‘g‘risidagi qarashlarni ham ilgari surar va ularning tantanasi uchun kurashar edilar”1.

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o‘sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko‘tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar.

Hamzaning axloqiy qarashlari ba’zi an’ana va urf-odatlarning kelib chiqishini chinakamiga shubha ostiga qo‘yganini ko‘rsatdi. Masalan, kelin kuyovning uyiga kirishdan oldin olov atrofida aylana yasaydi; agar yangi bo‘lsa turmushga chiqqan kelin vafot etgan, u yerda yuz ochuv rasmi (yuz ochish an’anasi) degan odat bor qarindoshlari o‘liklarni ko‘rgani go‘yo tirikdek sovg‘alari bilan kelishadi. Hamza ikkala urf-odatni ham shubha ostiga oldi. U zardushtiylik yoki shariatda bo‘lmagan urf-odatlar edi. Hamza o‘yladi xalq ta’lim-

1Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar: I jild. She’rlar, ibratlar. – T.: “Ma’naviyat”, 2020. – 272 b. [3, 28.].

tarbiya yordamida ana shunday an’analar zanjirini yechishi kerak1. Hamzaning fikricha, juma kuni odamlar namozdan keyin bir-birlarini ziyorat qilishlari kerak bo‘lgan kun bo‘lishi kerak din va millatga oid masalalarni muhokama qilsangiz, butun xalq keladigan kun bo‘lishi kerak, birgalikda va hayotiy yechimlar orqali muhtojlarga g‘amxo‘rlik qiling. (Niyozi, 1917).

Jadidlar ta’limoti - o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki, u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o‘z ketidan ergashtira oladi. Jumladan, Abdulla Avoniy maktabning yoshlari ma’rifatida o‘rni beqiyos ekanligini e’tirof etib, “Maktabdur oftobi jahon saodating, Maktabdur osmoni zamon sabovating”, deb ta’rif beradi”[2].

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud Axloq” (Turkiy Guliston yoki Axloq, 1913) axloqiy-ilmiy asarlaridan biridir. Sa’diy Sheroziyning “Guliston”iga taqlid tarzida yozilgan mashhur asarlar. Axloq, dangasalik, hasad, yaxshi va yomon xulq-atvor, bolalarni qanday tarbiyalash, jismoniy tarbiya va salomatlikning roli fikrning ravshanligida, gigiyenada, hayotda motivatsiya va jasoratda, bor narsadan qoniqishda, sabr-toqatda, intizom, vasvasa (nafs), halollik va adolat islomdan muhokama qilingan va tahlil qilingan masalalardir. Nuqtayi nazar, shariat, payg‘ambarning so‘zlari va qadimgi yunon faylasuflarining vaqti-vaqti bilan iqtiboslari bor edi. Avloniy tilga olgan fikrlarni asoslash uchun keltirildi. Avloniy uchun ota-onalar, maktab o‘qituvchilari va hukumat yosh avlodni tarbiyalash uchun mas’ul edi, chunki Turkiston uchun bu masala edi, omon qolish edi[3].

Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo‘lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo‘lishlarini ta’kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o‘quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo do‘konlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday do‘konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo‘lib, bolalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog‘lom o‘stirishga chorlaydi. Sog‘lom, aqlli, bilimli farzandlarimiz o‘sib ulg‘ayib, o‘qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini o‘rzu qilgan. Sog‘lom farzandlarni tarbiyalash uchun o‘qib-o‘rganib ilmli, ma’rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o‘z

[1] Niyoziy, H.H.(1914a). Bid'atmi ma'jusiyatmi? {Udumlar yoki zardushtiylik}. Sadoyi Turkiston. 2020-yil 2-mart, https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/hamza- hakimzoda-niyoziy- bidatmi-majusiyatmi-1914/ dan olindi.

[2] Sanjar Sodiq. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. NMIU, T.: “O‘qituvchi” 2019. – 720 b.

[3] Avloniy, A. (2012b). Turkiy Guliston yoxud Axloq {Turkiy Guliston yoki Axloq}. Ziyouz. 1-47. 2020-yil 18-mart, 1-47-betlar

vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta’kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta’lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so‘z yuritib, o‘z farzandining ma’rifatli bo‘lishi uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta’kidlagan. Jadidlar ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyasi bilan shug‘ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta’kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o‘qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o‘quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar. Adabiyotlarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o‘quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o‘qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo labaratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e’tiqod qilgan bo‘lib, ona-Turkistonning taraqqioyotdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi. Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug‘ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo‘lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko‘tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o‘quv maskanlarida o‘qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o‘qib kelib, o‘z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo‘ja Behbudiy esa “Oyna” jurnalida quyidagicha yozgan: “To‘y va ma’raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig‘a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun”. Ma’lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatgan. U o‘zining “Jamiyati Xayriya” nomli yordam tashkiloti “ ilk maktablarni bitirgandan so‘ngra Turkiya, O‘rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi”. Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o‘rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e’tibor qilaylik: “Ey, g‘ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, millat yo‘lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g‘urur emas….. muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz”1.

Ilmning kuchi va uning hayotiyligi va ahamiyati payg‘ambar so‘zlari bilan oqlanadi. Qur’on, arab va boshqa tillarni bilish, tarix, geografiya, tibbiyot, kimyo,

1Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar: I jild. She’rlar, ibratlar. – T.: “Ma’naviyat”, 2020. – 280 b.

fizika, astronomiya, falsafa, biologiya, zoologiya va boshqalar jamiyatni o‘zgartirish uchun asosiy e'tibor bo‘lishi kerak.

Fitratning “Rahbari Najot”2 (“Najot yo‘li”, 1915) asarida ilg‘or dunyo bilan. Fitrat murojaat qildi ruhoniylar o‘zlari tushunganidek, u ularning dushmani emasligini, o‘zicha, ularning do‘sti ekanligini ochiqchasiga aytishdi. O‘zini ilm tarqatuvchi odamlar bilan bir tarafdaman deb bilgan. Uning tanqidi o‘z millati va uning ahvoli haqida chuqur qayg‘urishidan kelib chiqqan. Bir topish mumkin jamiyatlarga foyda keltiradigan fazilatlar va yomonliklarni tahlil qilish, ular yaxshi tushuntirilgan ilomiy nuqtayi nazar.

Fitrat yozgan qissa “Qiyomat” (“Qiyomat”, 1923) - 1920-yillar boshida. U Buxorodagi siyosiy bosimdan qochib Rossiyaga kelganida. Pochamir - bosh qahramon giyohvandlikka berilib, o‘z fikrlari orqali qiyomatning tabiatini so‘roq qiladi. U buni orzu qilganu vafot etdi va uning qilmishlari unga jannat yoki do‘zaxdan joy olganligini aniqlash jarayonidan o‘tmoqda.

Biroq, u tartibsiz muhitga duch keldi, u yerda hatto farishtalar ham ba’zan uni bilmas edi savollar. U o‘z navbatini kutayotgan olomonni o‘z navbatini aniqlash uchun navbat bilan tanishtirdi. Yaxshi va yomon amallar (Fitrat, 2000, 169-180-betlar).

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan muhim ta’limotlardan yana biri -tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat berishi, uni hayot haqiqati bilan qurollantirishni ta’kidlaydi. Tarixni yozishda hech qachon o‘ng tomonga ham, chap tomonga ham og‘masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtayi nazaridan yo‘l tutilish g‘oyasi ilgari suriladi. Soxta tarix bamisoli og‘u kabi insonni zaharlashiga alohida e’tibor qaratadi.2

Yosh avlodning maktabdagi tarbiyasiga ham alohida e’tibor berish kerakdir, degan g‘oyga ham jadidlarning dasturul amalidir. Chunki, jadidlar yosh avlodni ozodlik, istiqlol, mustaqillik uchun kurashganlar, Vatanning kelajagi, ravnaqi deb qaraydilar. Shuning uchun ham ular bolalar va Vatan taqdiri masalasiga alohida e’tibor beradilar. Shuni ta’kidlash kerakki, jadidlar o‘z maktablari orqali yosh avlodga faqat milliy ruhinigina emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalminallik, Vatan ravnaqi, go‘zalligini ham singdirishga harakat qilganlar. Ular, bolalar, yoshlar tarbiyasi uchun birgina maktab emas, balki ularning o‘zlari mustaqil ravishda zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotdan ogoh bo‘lmoq kerakligini tadbiq etgandir.

2Fitrat, A. (2003). Abdurauf Fitrat. Tanlangan Asarlar III Jild. Dramalar, nashriyot Maqolalar { Abdurauf Fitrat to‘plami. 3-jild. Dramalar va nashr etilgan maqolalar}. Toshkent: Maўnaviyat.117-bet).
2Sanjar Sodiq. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. NMIU, T.: “O‘qituvchi” 2019. – 171-173 betlar.

Yurtimizda ma’naviy meros va ma’naviy islohotlarni huquqiy asoslari sifatida 2020-yil 8-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoyishi qabul qilingan.1 Ushbu hujjat juda muhim va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, avvalo ajdodlarimizning xotirasiga bo‘lgan yuksak hurmatni bildiradi. Zero, mustabid tuzum tomonidan qatag‘on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot namoyandalari, oddiy kasb egasi bo‘lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotirasini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonatini tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, mamlakatimizda qatag‘on qurboni bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini, xususan, jadidlar merosini yanada chuqur o‘rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha muhim farmon va qarorlar qabul qilingan. Jumladan, yurtimizda 2001-yildan buyon har yili 31-avgust - mamlakatimiz Mustaqilligi bayrami arafasida “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” sifatida keng nishonlab kelinmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etildi. “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshida uning bo‘limlari tashkil etildi. Bundan tashqari so‘nggi yillarda o‘zbek kinosida yaratilgan “Islomxo‘ja”, “Avloniy”, “Ibrat” kabi badiiy filmlar nafaqat yurtimizda jamoatchilik tomonidan, balki xorijda ham munosib kutib olindi[2].

Falsafiy tafakkur taraqqiyotida g‘oyalar va ta’limotlar vorisiylik zanjiri asosida, zamonga moslashib, sinergetik1 o‘zgarib boraveradi, bu esa tarixiylikdan zamonaviylikka o‘zgarishda, mushtaraklashuvda namoyon bo‘ladi. Jadid mutafakkirlarining sinergetik tafakkur tarzi hamda ma’naviy merosga oqilona munosabatni shakllantirishga oid qarashlari bugungi ma’naviy islohotlarimizni, xalqimizning ma’naviy va falsafiy dunyoqarashini o‘stirishda muhim omil hisoblanadi. Jadid mutafakkirlari ta’limotlarining eng muhim ahamiyati, jamiyat tanazzuli va uning oqibatlarini jamiyatdagi ma’rifatsizlik, ma’naviy qashshoqlik bilan bog‘lab ko‘rsatilishi ma’naviy merosda sinergetik jarayonlarni namoyon bo‘lishi sifatida qarash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy,

1«Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Farmoyishi. 8.10.2020 yil.

2Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston NMIU, 2016.

1Turaev B. Ma’naviy merosni o‘rganishda sinergetik metodologiyaning o‘rni. Konferentsiya materiallari. Buxoro–2022 yil.

madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o‘zlari ham yosh bo‘lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g‘oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma’rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da’vat etish g‘oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo‘lib qoldi. Har qanday og‘ir sharoitda ular o‘z qarashlarini o‘zgartirmadilar.

Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g‘oyaviy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o‘rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog‘laganlar va shu yo‘lda yoshlar asosiy kuch bo‘lganligini tushunib, ularning ong-saviyasini oshirish uchun ko‘p sa’y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O‘zbekistonda namoyon bo‘lib turmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, birinchidan ma’naviy islohotlarni amalga oshirish zamirida tarixiy, madaniy va ma’naviy meros bilan bog‘liq juda katta potentsial yotibdi. Ikkinchidan, ajdodlarimiz, xususan jadidlar ijtimoiy-madaniy hayotda insoniyat va xususan turkiy xalqlar erishgan ma’naviy-ma’rifiy yutuqlarni qadrlashga, asrab-avaylashga, rivojlanishda ortda qolayotgan yurtimiz ma’naviy merosini oqsab qolayotgan jihatlarini aniqlashga intildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston NMIU, 2016.

2. “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi. 8.10.2020 yil.

3. Sh.M.Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi.

4. Qosimov B. Ma’naviyat yulduzlari T.:1999y. 356-b.

5. Hoshimov Q. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.T.:2010 y. 406-b.

6. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar: I jild. She’rlar, ibratlar. - T.: “Ma’naviyat”, 2020. - 272 b. [3, 28.].

7. Niyoziy, H.H.(1914a). Bid'atmi ma'jusiyatmi? {Udumlar yoki zardushtiylik}. Sadoyi Turkiston. 2020-yil 2-mart, https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/hamza- hakimzoda-niyoziy- bidatmi-majusiyatmi-1914/ dan olindi.

8. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. NMIU, T.: "O'qituvchi" 2019. - 171-173 betlar, -720 bet.

9. Avloniy, A. (2012b). Turkiy Guliston yoxud Axloq {Turkiy Guliston yoki Axloq}. Ziyouz. 2020-yil 18-mart, 1-47-betlar

10. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar: I jild. She'rlar, ibratlar. - T.: "Ma'naviyat", 2020. - 280 b.

11. Fitrat, A. (2003). Abdurauf Fitrat. Tanlangan Asarlar III Jild. Dramalar, nashriyot Maqolalar { Abdurauf Fitrat to'plami. 3-jild. Dramalar va nashr etilgan maqolalar}. Toshkent: Ma'naviyat.117-bet).

12. Turaev B. Ma'naviy merosni o'rganishda sinergetik metodologiyaning o'rni. Konferensiya materiallari. Buxoro- 2022 yil.

13. Mamudxo'ja Behbudiy, "Zarafshon" gazetasi, 1923-yil, 25-mart.

14. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. 3-нашри. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов). Тошкент, ―Маънавият, 2006

JADID MAKTABLARI VA ULARDA XOTIN-QIZLAR TA'LIMI MASALASI

Pirmamarov Ramziddin Husniddin o'g'li

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich magistranti

E-mail: pirmamatovramziddin6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid harakati doirasida tashkil etilgan yangi usul maktablarida qizlar ta'limiga qaratilgan e'tibor, bu yo'nalishda amalga oshirilgan sa'y-harakatlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Jadidlarning ilg'or g'oyalari orqali musulmon jamiyatida ayollarning o'rnini qayta talqin etishga qaratilgan, ularni savodli, fazilatli va ijtimoiy faol shaxslar sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan tashabbuslar yoritiladi. Bundan tashqari, jadid qizlar maktablarining faoliyatiga to'sqinlik qilgan omillar -ijtimoiy qarshilik, diniy muhofazakorlik va moliyaviy muammolar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *jadid harakati, ma'rifatchilik, yangi usul maktablari, qizlar ta'limi.*

Kirish. Jadid ma'rifatparvarlari o'z davrining ilg'or va ziyoli vakillari sifatida, ma'rifatni inson kamoloti va jamiyat uyg'onishining asosiy omili sifatida

tan oldilar. Ular uchun ta’lim va fan faqat bilim emas, balki jaholatga qarshi qurol va milliy o‘zlikni tiklash hamda uyg‘otish vositasi edi. Sharq va G‘arbning fani, madaniyati va ijtimoiy taraqqiyotini chuqur o‘rganib, jadidlar milliy taraqqiyotga dunyoviy bilimlarni egallash orqali erishish mumkin degan xulosaga keldilar. Rossiya, Yevropa va Osiyoning turli mamlakatlariga qilgan sayohatlari chog‘ida ular zamonaviy ta’lim tizimlari, ijtimoiy institutlar, kutubxonalar va madaniy muassasalarning rivojlanishga ko‘rsatayotgan bevosita ta‘sirini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdilar. Bu tajriba ularda zamonaviy fanning yutuqlarini Turkistonga olib kirish, uni mahalliy an‘analar bilan uyg‘unlashtirgan holda yangi uyg‘onish davrini boshlab berish istagini yanada mustahkamladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Jadid harakatini va ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma‘naviy xazinani qanchalik chuqur o‘rgansak, bugun ham bizni tashvishlantirayotgan ko‘p savolga shuncha ko‘p javob topamiz. Bu bebaho boylikni qanchalik faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz bugungi tinch va ozod hayotning qadrini shunchalik yaxshi anglab yetadilar” [1].

Muhokama va natijalar. Jadidchilik mafkurasining poydevori ta’lim islohotlari g‘oyasiga qurilgan bo‘lib, bu g‘oya nafaqat pedagogik zaruriyat, balki ijtimoiy va madaniy yangilanishning talabi sifatida ham ilgari surilgan edi. Jadidlar ushbu islohot zarurligini nazariy jihatdan asoslab qolmay, balki amaliy qadamlar ham tashlashdi: yangi usul maktablarini tashkil etdilar, darsliklar tuzdirdilar, kutubxonalar va ta’lim markazlari uyushtirdilar. Jadidlar uchun bu faoliyat ham shaxsiy fidoyilik, ham xalqning ma‘naviyatini yuksaltirish borasidagi tarixiy burch edi. Ularning sa’y-harakatlari fan, tafakkur va ma‘rifatning jamiyatda ustuvor qadriyatlar sifatida o‘rniqib qolishiga zamin hozirladi.

Jadid ta’lim tizimining amaliy namoyon bo‘lishi sifatida birinchi yangi usul maktablari XIX asr oxirlarida Turkistonda paydo bo‘la boshladi. 1898-yilda Qo‘qonda Salohaddin Domla tomonidan ochilgan maktab ushbu harakatning dastlabki muayyan namunalaridan biri bo‘ldi. Bir yil o‘tib, 1899-yilda Toshkentda Mannon Qori va Andijonida Shamsiddin Domla tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari jadid g‘oyalarining keng tarqalishida muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu muassasalar nafaqat ta’lim dargohlariga, balki ma‘naviy va fikriy uyg‘onish markazlariga ham aylandi. Bu maktablarning tashkil etilishi jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta’lim islohoti g‘oyalarining jamiyatda tobora ijobiy qabul topayotganini ko‘rsatadi. Ular diniy va ilmiy fanlarda an‘anaviy maktablarning bir tomonlamaligini engishga harakat qilib, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan yangi pedagogik model taklif etdilar.

Turkiston jadidlari o‘zlarining madaniy-ma’rifiy faoliyatida yangi usul maktablarini ochish, yoshlarga diniy va dunyoviy bilimlar berishga alohida e‘tibor qaratish bilan birga, ayollar masalasiga ham katta ahamiyat berdilar. Ular ayollar

dunyoviy ishlarda erkaklar bilan teng bo‘lishi kerak deb ta‘kidladilar. Ularning o‘rtasida hech qanday farq bo‘lmasligi, ta’limda teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishi lozimligini o‘rgatdilar. Jadid matbuotining a’zosi bo‘lgan “Sadoi Turkiston” gazetasi shunday yozgan edi: "Butun insoniyatning tirikchiligini faqat ayollar soyasida deb aytsak, xato qilmaymiz. Ayollar butun insoniyatning onalaridir: payg‘ambarlar, elchilar, podshohlar, olimlar, yozuvchilar va shoirlar -barchasi o‘sha hurmatli onalarning farzandlaridir. Shuning uchun ayollar hurmat va izzatga sazovordir. Zero, islom ayollarni qadim zamonlardagi huquqsizlik va erkaklar tomonidan kamsitilishdan ozod etib, ularga keng huquqlar bergan" [2;77]. Bundan tashqari, quyidagi hikmatni keltirish o‘rinlidir: “Ayollar o‘qitilishi lozim. Bilimdan mahrum kishi tarbiya usulidan albatta benasib bo‘ladi. Farzand tarbiyasi ayollarga yuklatilgan maxsus vazifa bo‘lgani uchun, tarbiyachilardan yuqori bilim darajasiga ega bo‘lish talab etiladi.” Shuni ta‘kidlash kerakki, “1884-yilda Ismoilbek Gasprinskiy ‘Usuli Jadid‘ maktabini ochib, “Tarjimon” gazetasida ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha g‘oyalarini nashr etib, ta’lim tizimi oldida turgan vazifalardan biri -qizlar ta’limiga ham alohida e‘tibor berish zarurligini ta‘kidlagan” [3;31].

Jadidlar o‘g‘il va qizlar birgalikda o‘qiydigan yangi usul maktablarini ochishni boshlashdi. Ana shunday maktablardan birida Abdulqodir Shakuriy Samarqandda o‘g‘il va qizlarni birgalikda o‘qita boshladi. Uning rafiqasi qizlarni o‘qitishda yordam berdi. Abdulqodir Shakuriyning bu harakati mahalliy boy va ruhoniylar o‘rtasida norozilik uyg‘otdi. Biroq shunga qaramay, Turkistonning boshqa shaharlarida ham shunday maktablar ochila boshladi. Arxiv hujjatlariga ko‘ra, “Toshkentda Eshonxo‘ja Xonxo‘jayevning yangi usul maktabida uchta qiz, Sobirjon Rahimovning maktabida esa 15 ta qiz o‘qigan” [2;80].

1913-yilda Qo‘qonning G‘alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy avval “usuli jaded” maktabi, so‘ngra qizlar maktabini tashkil etdi. Uning singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizi o‘sha yerda o‘quvchilarni o‘qitdi [5;46]. Abdulla Avloniyning maktabida ham qizlar o‘g‘illar bilan birgalikda tahsil oldilar. Ostroumovning ma‘lumotlariga ko‘ra, “imtihon topshirgan o‘quvchilar savollarga juda yaxshi javob berib, imtihon qabul qiluvchilarning e‘tiborini o‘ziga tortdi; ular bu o‘quvchilar uchun ko‘p dua qilishdi va ayniqsa bir yosh qiz o‘quvchini alohida maqtashdi” [2;80].

Buxoro jadidlarining rahbarlaridan biri Sadriddin Ayniy ham dastlabki maktab yillarini qizlar maktabida o‘tkazgan. “Men maktab yoshiga yetganimda, o‘zi o‘qitishga vaqti bo‘lmagan otam meni qishloqimizda -Soqtara masjidi homiysiga topshirdi. O‘sha maktabda hech narsa o‘rgana olmadim, shuning uchun otam meni u maktabdan olib, qishloq imomining xotini boshqaradigan qizlar maktabiga berdi. Bu maktab o‘g‘il bolalar maktabidan biroz yaxshiroq edi,”-deya eslab o‘tgan u bu

haqida. [6;4]. Maʻlumotlarga qaraganda, qizlar 7 yoshda ta’limni boshlab, 13 yoshda tugatganlar.

Jadidlar teng huquqli, baxtli, sevgi va sadoqatga asoslangan oilaviy hayot masalasini koʻtaradilar. Biroq jadid faoliyatini oʻrgangan tadqiqotchi B. Qosimov shuni yozadi: "Oʻsha yillari mamlakatimizdagi eng nufuzli jurnallardan biri - “Oyina” jurnalida: “ayol unga bagʻishlanib yashash uchun yaratilgan nozik mavjudotdir,”-deb yozgan edi. Jadidlar ayollarni ana shunday ogʻir ahvoldan olib chiqishga intildilar. Ular uchun maktablar ochdilar va kutubxonalar tashkil etdilar. Bu sa’y-harakatlarni moliyalashtirish yoʻllarini axtardilar. Bunday usullardan biri teatr boʻldi. Masalan, “Sadoi Turkiston” gazetasi shunday xabar beradi: “1914-yil 6-iyunda Andijonida sahnalashtirilgan “Padarkush” pyesasidan tushgan daromad 1500 soʻmni tashkil etdi, uning 20 foizi Andijonida qurilayotgan ‘qizlar gimnaziyasiʻ foydasiga bagʻishlandi.”

Ilgʻor jadidlarning qarashlarida jamiyat taraqqiyotiga toʻsqinlik qiladigan ayollar ijtimoiy hayotiga oid salbiy jihatlarni -ta’limdagi qoloqlik, azob-uqubat va toifalarga boʻlinishni bartaraf etish uchun ayollarga oʻz huquqlarini anglash, talab qilish va tiklashga intilish sharoitlari yaratish, bu huquqlarni xasis kishilardan himoya qilish hamda diniy va dunyoviy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanib, jamiyatning teng a’zolariga aylanish zarurligi taʻkidlanadi. Savodsiz jamiyatda oʻzboshimchalik, zulm, adolatsizlik, jaholat va zoʻravonlik hukmronlik qiladi. Bunday jamiyat tanazzuli avvalo va toʻliq ravishda ayollar hayotida oʻz aksini topadi.

Xulosa. Boy tarixiy merosimiz yorqin kelajak uchun ulkan imkoniyatlar manbaidir. Shu maʻnoda, yosh avlodni oʻtmishimizga hurmat va maʻnaviy merosimizga ishonch ruhida tarbiyalash vazifasini oʻzimizga belgilar ekanmiz, shuni taʻkidlash joizki, ushbu hurmat va ishonch koʻr-koʻrona yoki yuzaki boʻlmasligi, balki chuqur bilim, intellektual yetuklik, erkin tafakkur va maʻnaviy sofliqqa asoslangan munosabat boʻlishi lozim.

Jadid ma’rifatparlarining xotin-qizlarining jamiyatda tutgan oʻrni va rolini oshirish va ularni njamiyat rivojining muhim boʻgʻiniga aylantirish borasidagi intilishlari, ular tashkil etgan yangi usul maktablari va ularda ta’lim, jumladan xotin-qizlar ta’limi mazmuni kabi muhim jihatlarni amaliy jarayon sifatida mamlakatimizning bugungi kunda xotin-qizlar borasida amalga oshirayotgan davlat siyosati uchun amaliy dastur sifatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq soʻzi, 2020, 25 yanvar, №19 (7521).

2. Rajabova D.N. Turkiston Jadidlarining Qarashlarida Yosh va Ayollar Masalalari (XIX asr oxiri -XX asr boshlari). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. -Toshkent, 2003. -B. 77.

3. Sharipov R. Turkiston Jadid Harakati Tarixidan. -Toshkent: O‘qituvchi, 2002. -B. 31.

4. Avloniy A. Oilaviy Muloqot. Tanlangan asarlar. 2-jild. -Toshkent: Ma‘naviyat, 1998. B. 135.

5. Ayniy S. Qisqacha Tarjimai Holim. -Toshkent, 1960. B. 4.

6. Zohiriy A. Andijonida Musulmon teatri. // Sadoi Turkiston, 1914, 20 iyun.

7. Qahramonovich H. N. Samarqandliklarning munosib avlodlari: ma’rifatparvar jadidlar // World Bulletin of Social Sciences. -2022. -T. 13. -S. 37-40.

8. Haqqulov N. Q. Samarqand -jadid ma‘rifatchilar yurta. -2022.

9. Haqqulov N. Q. Siddiqiy-Ajziyning ta’limiy qarashlarida xalqaro bag‘rikenglik // Namangan davlat universiteti ilmiy axboroti. -2020. -T. 2. -№10. -S. 262- 268.

10. Haqqulov N. Q. Siddiqiy-Ajziyning ma’rifatparvarlik qarashlarida milliy bag‘rikenglik masalasi // NamDU ilmiy axboroti. -2020. -№10. -S. 296.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY FALSAFIY MEROSIDA GUMANISTIK G‘OYA VA QARASHLAR TAHLILI

Yuldashev Askarjon Abdugappar o‘g‘li
Toshkent fan va texnologiyalar universiteti Kechki ta’lim bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, ma’rifatparvar mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiyning falsafiy merosida aks etgan gumanistik g‘oya va qarashlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning insonparvarlik, ma’rifat, milliy uyg‘onish, erkin fikrlash hamda ijtimoiy taraqqiyotga oid qarashlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida inson qadri, jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy kamolot masalalarining falsafiy mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, gumanizm, ma’rifatparvarlik, insonparvarlik, milliy uyg‘onish, falsafiy qarashlar, ijtimoiy taraqqiyot.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish jarayonining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu harakat vakillari xalqni jaholat va

qoloqlikdan chiqarish, ilm-fan va ma’rifat orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish g‘oyalarini ilgari surganlar. Jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining serqirra ijodi, ma’rifatparvarlik faoliyati hamda falsafiy qarashlari bilan milliy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkir sifatida e’tirof etiladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat pedagog va publitsist, balki jamiyat taraqqiyotining falsafiy asoslarini chuqur anglagan ziyoli sifatida ham faoliyat yuritgan. Uning asarlarida inson qadri, erkin fikrlash, ilm-ma’rifat, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy adolat va ma’naviy kamolot kabi masalalar markaziy o‘rin egallagan. Zero, Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikricha, jamiyat taraqqiyoti avvalo inson tafakkuri, bilim va ma’naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning gumanistik qarashlari Sharq va G‘arb madaniyati uyg‘unligida shakllangan bo‘lib, unda inson manfaatlari, jamiyat ravnaqi va millat istiqboli ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy”, “Kitobat ul-atfol” kabi asarlarida xalqni ma’rifat orqali uyg‘otish, yoshlarni ilm-fan egallashga undash hamda milliy birlik g‘oyalari ilgari suriladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy falsafiy merosidagi gumanistik g‘oyalarning mazmun-mohiyatini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish mutafakkirning insonparvarlik va ma’rifatga asoslangan qarashlari bugungi globallashuv va ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan davrda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy falsafiy merosining g‘oyaviy mazmuni va gumanistik mohiyatini chuqur tahlil qilish Behbudiy qarashlarining shakllanish omillari, jadidchilik harakati rivojidagi o‘rni hamda uning ma’rifatparvarlik faoliyatini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish imkonini berdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy merosidagi gumanistik g‘oyalar umumlashtirilar ekan, unda mutafakkir asarlarida eng ko‘p uchraydigan “ilm”, “ma’rifat”, “millat”, “taraqqiyot”, “axloq”, “inson kamoloti” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati alohida ilmiy tahlil qilinganligi bilan xarakterlanadi1.

Mahmudxo‘ja Behbudiy falsafiy merosining markazida insonparvarlik, ma’rifatparvarlik va milliy taraqqiyot g‘oyalari ustuvor o‘rin egallaydi. Mutafakkir insonni jamiyat rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilib, xalq taraqqiyoti avvalo ilm-fan, ta’lim va ma’naviy yuksalish bilan chambarchas bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlaydi2. Behbudiy qarashlarida inson qadri, millat ravnaqi va jamiyat istiqboli o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi.

1 Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1999.
2 Abdurashidxonov M. Jadid maktablari va ta’lim islohoti. – Toshkent: Fan, 2006.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy jaholat, mutaassiblik va fikriy qoloqlikni jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy ijtimoiy illatlar sifatida keskin tanqid qilgan. Uning fikricha, insonning haqiqiy kamoloti faqat ilm, tafakkur, ma’naviyat va mustaqil fikrlash orqali shakllanadi. Shu bois mutafakkir yangi usul maktablarini tashkil etish, zamonaviy dunyoviy fanlarni o‘qitish hamda yosh avlodni ilm-ma’rifat ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’limni nafaqat bilim berish vositasi, balki millatni uyg‘otuvchi va jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi muhim ijtimoiy omil sifatida baholagan1.

Mahmudxo‘ja Behbudiy falsafiy qarashlarining gumanistik mohiyati uning asarlarida inson sha’ni va qadr-qimmatini ulug‘lash orqali namoyon bo‘lishi, inson manfaatlarini jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni sifatida talqin qilinishi hamda har bir shaxsning ilm olish, erkin fikrlash va ma’naviy kamolotga erishish huquqini muhim qadriyat sifatida e’tirof etilishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarida ilm-ma’rifat insonni jaholatdan chiqaruvchi, millatni esa tanazzuldan qutqaruvchi asosiy kuch sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy merosida milliy uyg‘onish va ijtimoiy faollik g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy xalqni ijtimoiy befarqlikdan voz kechishga, zamonaviy taraqqiyot yutuqlarini egallashga va milliy birlik asosida rivojlanishga da’vat etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy inson erkinligi, tafakkur mustaqilligi va ma’naviy uyg‘oqlikni taraqqiyotning eng muhim sharti deb hisoblaydi. Uning fikricha, jamiyatdagi qoloqlik va tanazzulning asosiy sababi jaholat, mutaassiblik hamda ilm-fanga nisbatan befarqlikdir. Shu bois mutafakkir xalqni ma’rifat orqali uyg‘otish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish hamda tafakkur erkinligini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatni nafaqat ta’lim vositasi, balki milliy ozodlik, ijtimoiy taraqqiyot va ma’naviy yangilanishning asosiy omili sifatida talqin qiladi.

Mutafakkir qarashlarida insonning sha’ni, qadr-qimmati va huquqlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. U jamiyat taraqqiyotini inson tafakkuri va ma’naviy kamoloti bilan bog‘lab, har bir shaxsning ilm olish, erkin fikrlash va o‘z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, Behbudiy asarlarida yosh avlod tarbiyasi masalasi markaziy o‘rin tutib, ularning ma’naviy yetuk, vatanparvar va mustaqil fikrlovchi insonlar bo‘lib voyaga yetishi jamiyat kelajagini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi.

Behbudiy asarlarida erkin fikrlash va tafakkur mustaqilligi ham muhim gumanistik tamoyil sifatida ilgari suriladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy yoshlarni

1 Rakhmonov S. “Mahmudkhodja Behbudiy - An Enlightener Who Died for the Freedom of the Motherland,” Barhayot Jadidlik. Collection. T.: Uzbekistan, 2025, pp. 252-268.

eskicha qarashlarga ko‘r-ko‘rona ergashmaslikka, voqelikni ilmiy va tanqidiy tafakkur asosida anglashga chorlaydi. Bu esa jadidchilik falsafasining asosiy maqsadi bo‘lgan ma’rifat orqali jamiyatni yangilash g‘oyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, “Padarkush” dramasi orqali ilm va tarbiyaning yetishmasligi inson va jamiyat fojeasiga olib kelishi chuqur badiiy-falsafiy mazmunda yoritib berilgan. Asarda nodonlik, ma’naviy tanazzul, loqaydlik va jaholat keskin tanqid qilinib, oilaviy tarbiya hamda ma’naviy mas’uliyat masalalari markaziy o‘ringa qo‘yilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy ushbu asar orqali ilm-ma’rifatdan uzoqlashgan jamiyat muqarrar ravishda inqirozga yuz tutishini falsafiy jihatdan asoslab bergan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy falsafiy merosi o‘zida chuqur gumanistik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini mujassamlashtirgan manbadir. Mutafakkir insonni jamiyat taraqqiyotining markaziy omili sifatida talqin qilib, ilm-fan, ma’rifat va ma’naviyatni taraqqiyotning asosiy sharti deb hisoblagan. Natijada, uning gumanistik qarashlari jamiyatda adolat, ma’rifat va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari yana shuni ko‘rsatdiki, Behbudiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan aksincha, yoshlarni ma’naviy barkamollik, mustaqil tafakkur, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalashda muhim nazariy-manaviy asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Sharq, 1999.
2. Abdurashidxonov M. Jadid maktablari va ta’lim islohoti. - Toshkent: Fan, 2006.
3. Rakhmonov S. “Mahmudkhodja Behbudiy - An Enlightener Who Died for the Freedom of the Motherland,” Barhayot Jadidlik. Collection. T.: Uzbekistan, 2025, pp. 252-268.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING IJTIMOIY SIYOSIY TA’LIMOTIDA AXLOQIY MADANIYAT VA JAMIYAT BARQARORLIGI

Alimov Akbar Narboyevich,
Samarqand iqtisodiyot va servis institutining dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy ta’limotida axloqiy madaniyat va jamiyat barqarorligi masalalarining o‘zaro aloqadorligi falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Mutafakkirning ma’rifat, milliy taraqqiyot, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy kamolotga oid g‘oyalarining jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik g‘oyalari, ilm-ma’rifat, zamonaviy bilimlar

Shu jihatdan jadidchilik eski qarashlar bilan taraqqiyparvar fikrlar o‘rtasidagi kurashning yorqin ifodasi sifatida maydonga chiqdi. Turkiston jadidchiligining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining ijtimoiy-siyosiy ta’limotida jamiyat taraqqiyotini axloqiy madaniyat, ma’rifat va milliy uyg‘onish bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etdi. U jamiyat barqarorligini ta’minlashda insonning axloqiy kamoloti, ilm-ma’rifati va ijtimoiy mas’uliyatini muhim omil deb hisoblagan. Behbudiy fikricha, xalqning taraqqiy etishi avvalo yosh avlodning tarbiyasi, ma’naviy yetukligi va zamonaviy bilimlarni egallashi bilan belgilanadi. Ismoilbek Gasprali tomonidan boshlangan jadidchilik harakati Turkistonda keng yoyilib, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida yanada rivojlandi. Behbudiy jadidchilikni nafaqat ma’rifiy harakat, balki jamiyatni isloh qilishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy ta’limot sifatida talqin qildi. U millat ravnaqi uchun maktab va madrasalarni isloh qilish, matbuotni rivojlantirish, xalqning siyosiy va huquqiy ongini yuksaltirish zarurligini ilgari surdi. Ayniqsa, uning qarashlarida axloqiy madaniyat jamiyat barqarorligining asosiy mezoni sifatida talqin etilib, insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, adolat va ma’rifat g‘oyalari markaziy o‘rin egalladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarida sharqona qadriyatlarni saqlagan holda, ularni G‘arb taraqqiyoti va zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirishga intildi. Shu bois uning ta’limoti jamiyatni yangilash, milliy ongni yuksaltirish hamda axloqiy madaniyat asosida barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qilgan muhim ma’rifiy-falsafiy tizim sifatida ahamiyat kasb etadi

Turkistonda jadidchilik harakatining etakchilaridan biri I.Gasprinskiyning sodiq maslakdoshi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) edi. O‘tgan asrning boshlarida Turkiston va undan tashqarida ham zamonasining ko‘zga ko‘ringan ziyolisi sifatida mashhur bo‘lgan Behbudiy to‘g‘risida Fayzulla Xo‘jaevning "siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan unga teng kela oladigani bo‘lmasa kerak " deb yozishi bejim emas edi, albatta. Siyosiy qarashlarida kadetlarni qo‘llagan M.Behbudiy "Xurshid" gazetasida (1906-yil 10-oktyabr 6-son) chop etilgan "ishlarning yaxshisi o‘rtachasidur" maqolasida sotsialistik ta’limotini va bol'sheviklar partiyasi - RSDRP dasturini keskin rad etib, ularni turkistonliklar uchun mutlaqo yaroqsiz bo‘lgan utopiya deb atagan edi. Chunki jadidlar nazarida marksizmning eng yomon jihatlari xususiy mulkni inkor etish va dahriylik (ateizm) edi.

Jadidlarning siyosiy qarashlari milliy mahdudlikni rad etar ekan, ular Turkistondagi barcha millat va elatlarni birlashtirishga, jamiyatni har qanday kelishmovchilik va ziddiyatlardan xoli qilishga intilardilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy

bu xususida quyidagilarni yozgan edi: “Turkiston musulmonlariga lozimki, avvalo, qadim va jadid nizo lafzini qo‘yib, ittifoq istasak. Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar bilan qo‘shilgan holda, o‘z boshlariga Rusiyaning bir parchasi hisoblana turgan Turkiston hukmini (hukumatini) ta’sis etsak, o‘zimizning Majlis-mashvaratimiz (parlament) bo‘lsin desak, Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o‘z zakun (qonun) va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar. Turkiston yahudiylari, nasroniylari va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e'tiborga olaturg‘on qonunlar tuzilsin. Agarda biz - Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizni... ittifoq etib, bugundan islohotga qadam qo‘ysalar... ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz, boy va ulamomiz birlashib, din va millat, Vatan rivoji uchun xizmat etsak... O‘zimizdan bora-bora tadri suratda askarlarimiz bo‘lsin. Ul milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va maishat tarzini o‘zimiz tayin qilurmiz. Mana, bizning oldimizda eng katta ishlar turibdir... Hozirgi ahvolga qaraganda, yana biz musulmonlar, ruslarning fuqorasi va raiyati bo‘lgan o‘lkadek, alardan dast va rijoga qolurmiz. Koloniya (mustamlaka) qoidasi ila bizni idora eturlarki, bunga o‘z ixtilofimiz sabab bo‘lur”[1]. Ko‘rinib turibdiki, Behbudiyning qarashlarida milliy qadriyatlarga bo‘lgan ixlos va ayni paytda Evropa dunyosining tarixi, madaniyati, ta’lim tizimi, davlat qurilishi sohasidagi tajribalarini o‘rganishga e'tibor katta o‘rin tutgan. Shuningdek, Behbudiy millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalari bilan teng aralasha oladi, degan fikrni ilgari surib, tarixga aloxida e'tibor berdi.

Jamiyatdagi huquqiy muammolar Behbudiyning diqqat markazida bo‘lib uning "Qonuni Ovrupo", "haq olinur, berilmas!", "Loyiha", "qozi va biylar haqida loyiha" maqolalarida Turkistonda vujudga kelgan huquq sohasidagi og‘ir vaziyat bayon etiladi. Shuningdek, huquqiy masalalarni hal qilishni ellikboshi va qozilar ixtiyoriga butunlay topshirib qo‘yilganligi oqibatida, ular nafaqat diniy, balki maishiy masalalarni ham poraxo‘rlik asosida bajarayotganliklari uchun rus hukumatini tanqid qiladi. Islom qonunchiligidan chuqur xabardor bo‘lgan muftiy Maxmudxo‘ja Behbudiy o‘z shaxsiy manfaatlarini yo‘lida shariat normalarini soxtalashtirayotgan qozilarni qattiq tanqid ostiga olgan. Behbudiy mustaqillikning kurashsiz qo‘lga kiritilmasligiga imoni komil bo‘lsa-da, lekin u mustamlakachilarga qarshi qon to‘kishlarsiz kurash tarafdori bo‘lgan. Ya’ni har qanday ko‘rinishdagi inqiloblarga qarshi bo‘lgan. Rossiya Dumasi ishini muntazam ravishda kuzatib borgan Behbudiy parlament kurashi orqali ko‘p narsalarga erishish mumkin deb hisoblagan.

Turkiston muxtoriyatining tashkil topishida Behbudiyning amaliy xizmatlari katta. U milliy-ozodlik harakatidagi tarqoqlik qaytadan mustamlaka tuzumiga olib

1 Маҳмудхўжа Беҳбудий. Ҳақ олинур, берилмас // Ҳуррият.- 1997.№ 22. Бу ҳақда қаранг: Алимова Д. Ҳақиқатнинг туташ манзили // Тафаккур.- 2000. № 2. 59-бет.

kelishini yaxshi tushinar, shuning uchun muxtoriyat qo‘lga kiritilishi bilanoq, "agar butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to‘kilmas. Er va amlok ham taqsim bo‘lmay qolur. Oni ham ravo topur. Ming karra dodu bedodki, ixtilof etmoq uchun ittifoq etkanimiz va ixtilofimiz sababi ila badbaxtlikka duchor bo‘lurmiz. Bugun Turkiston ittifoq etsa, 15 millionlik bir quvvatli imlog‘a kelurki, munga er titraydur", deb xalqni hamjihat bo‘lishga undagan. Xullas, Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari markazida siyosiy masalalar bosh masala bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz.

Mamlakatda bo‘lib o‘tgan fojiali voqealar Behbudiyda sovet davlati va uning Turkistondagi vakillariga nisbatan shak-shubhasiz nafrat uyg‘otadi. Shu bois 1917-yilning iyul oyidayoq “Haq olinur berilmas” singari ko‘plab publisistik maqolalar bilan chiqib, aholini, ayniqsa, yoshlarni Hurriyat uchun kurashga da’vat etgan Behbudiy muxtoriyat tor-mor etilganidan keyin ham taslim bo‘lmadi. Aksincha, u endi hurriyat uchun kurashning yashirin jabhasidan o‘rin egalladi. Xorijda chop etilgan "Milliy Turkiston" jurnalining 1950-yil 66-sonida yozilishicha, "ul qarshi shaharinda o‘z vazifalarini o‘rinlov harakatida ekan, Rusiyaning Buxoro elchixona xizmatchisi Utkin vositasi-la amir tomonidan tutildi. Behbudiy "jadidchi" deya ayblanib, amirning qarshi shaharindagi voliysi Nuriddin Og‘aliq tomonidan amirning buyrug‘i ila 1919-yilda vahshiyona o‘ldirildi. Bu esa niqob edi. Haqiqatda esa, Behbudiyning o‘limi Amir vositasi-la rus bol'sheviklarining sovet komissiariati tomonidan uyushtirilganligi aniqlandi. Buni sobiq “Turkiston sovet jumhuriyati”ning harbiy ministri Osipov 1919-yil Buxoroga qochgan vaqtinda “Yosh buxoroliklar” jamiyatinda (“Yosh buxoroliklar” partiyasi nazarda tutilmoqda.-Muallif) bergan bayonotida bildirgan edi. Turkiston xalqi bul usulda bundan 31 yil avval o‘zining buyuk jamoat va siyosat xodimidan ayrilgan"1. O‘limi oldidan "biz o‘z qismatimizni bilamiz, ammo bechora xalqimizga o‘z hayotimizda nima qilishimiz mumkin bo‘lsa, shuni qilganimizni his etish bilan faxrlanganimizdan o‘limni ham xotirjam kutmoqdamiz..., agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutub olamiz"[2], degan mardona so‘zlarni aytgan muftiy Maxmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiy merosi hozirgi mustaqillik sharoitida ham yurt uchun, xalq uchun fidoyilik ko‘rsatishda ibrat namunasi bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojining asosiy bosqichlariga doir yuqorida qayd etilgan ma’lumot va tahlillar mintaqamiz xalqlari jahon tsivilizasiyasi tarixida o‘zining munosib o‘rniga ega ekanligidan, haqiqiy ma’nodagi ozodlikni orzu qilgan ota-bobolarimizning Vatan va xalq baxt-saodatini

1 Каримов Н. Беҳбудийнинг сўнгги кунлари // Тафаккур.-2005.№3.70-71 бетлар.
2 Қосимов Б. Маслакдошлар. Беҳбудий, Ажзий, Фитрат.-Т., 1994 39-бет.

ko‘zlagan orzu-istaklari bugungi O‘zbekiston mustaqilligi sharofati bilan ro‘yobga chiqqanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 1999. - 320 b.
2. Ismoilbek Gasprinskiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Sharq, 2006. - 384 b.
3. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. - Toshkent: Ma’naviyat, 2002. - 400 b.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “Behbudiy Mahmudxo‘ja” maqolasi. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2001. - B. 615- 617.
5. Naim Karimov. Jadidchilik va milliy uyg‘onish harakati. - Toshkent: Akademnashr, 2019. - 288 b.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING AXLOQIY QARASHLARI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Uralboy Ro‘zimurodov,

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mahmudxo‘ja Behbudiyning axloqiy qarashlari jamiyatning ma’naviy va madaniy yuksalishida muhim o‘rin tutadi. U axloqni inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilib, ilm-ma’rifat, adolat, vatanparvarlik va halollikni targ‘ib qilgan. Behbudiyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, uning asarlarida axloqiy me’yorlar, fidoyilik va mas’uliyat muhim o‘rin egallaydi. Uning g‘oyalari jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishga, xalqni savodli va ongli qilishga xizmat qilgan. Behbudiyning axloqiy merosi bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotga hissa qo‘shishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Axloqiy qarash, ma’naviyat, ma’rifatparvarlik, adolat, halollik, vatanparvarlik, tarbiya, komil inson, mas’uliyat, jamiyat taraqqiyoti, o‘zlikni anglash, madaniy yuksalish.

Kirish. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875- 1919) - o‘zbek jadidchilik harakatining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, u milliy uyg‘onish va madaniy-ma’rifiy taraqqiyotga ulkan hissa qo‘shgan. Uning axloqiy qarashlari jamiyatni isloh qilish, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik va odob-axloq me’yorlarini takomillashtirish kabi masalalar bilan chambarchas bog‘liq edi. Behbudiy o‘z asarlarida va faoliyati davomida jamiyat axloqini yuksaltirishga intilgan, xalqni johillikdan xalos etish va ilm-ma’rifat bilan yuksaltirishga harakat qilgan.

Jamiyatning bir bo‘g‘ini bo‘lmish oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiya haqida gapiradigan bo‘lsak, bu bolalarga ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish va halollik, hurmat, mas’uliyat, hamdardlik kabi ijobiy xislatlarni yoshligidan sindirish jarayonidir. Globallashuv davrida milliy va ma’naviy qadriyatlarga − ommaviy madaniyatning tahdidi kuchayib bormoqda. Bu, avvalo, yosh avlodni bilim olish, vatan va yurt ravnaqi, rivojlanishi uchun hissa qo‘shishi lozimligiga raxna solib, yoshlarning ongini turli yot tushunchalar bilan yog‘irilgan illatlar bilan zaharlanishiga olib kelmoqda. Buning to‘laqonli davosi hisoblangan milliy ma’naviy qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo‘lgan ma’naviy - axloqiy tarbiya ajdodlarimizning ibratli hayoti va asarlarida o‘z aksini topgan. Darhaqiqat, “turli mafkuraviy va ma’naviy tahdidlarga qarshi - bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug ajdodlarimiz bor”[1]. Axloqiy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri deb bilgan. U millatning ma’naviy yuksalishi va rivojlanishi uchun tarbiyaning muhimligini alohida ta’kidlagan.

Behbudiy ta’lim-tarbiyaning faqat ilmiy bilim berish bilan cheklanmasligini, balki insonni axloqiy jihatdan yuksaltirishga ham qaratilishi lozimligini qayd etgan. “Jamiyat taraqqiyoti insonlarning axloqiy yetukligiga, ulardagi vatanparvarlik, halollik, adolat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarning shakllanishiga bog‘liq. Behbudiy maktab va madrasalarni isloh qilish, yangicha ta’lim tizimini joriy etish orqali yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashga harakat qilgan”[2].

Mahmudxo‘ja Behbudiy axloqiy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilgan. U inson axloqiy yetuklikka erishishi uchun uch asosiy omilga e’tibor qaratgan: “a) ilm va ma’rifat - Behbudiy fikricha, har bir inson bilimli bo‘lishi, ilm nuri bilan o‘z tafakkurini yoritishi kerak; b) adolat va halollik - jamiyatda adolat tamoyillariga rioya qilish axloqiy barkamollikning muhim sharti hisoblanadi; c) Mehnatsevarlik va fidoyilik - inson o‘z vataniga, xalqiga xizmat qilishi lozim. Behbudiy dangasalik va loqaydlikni jamiyat taraqqiyotiga to‘siq deb bilgan”[3]. Mahmudxo‘ja Behbudiy ilgari surgan ushbu tamoyillar nafaqat o‘sha davr, balki bugungi jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Ilm va ma’rifat inson tafakkurini yoritib, uni ongli hayot kechirishga undaydi. Bugungi globallashuv davrida esa bilim va texnologiya taraqqiyoti jamiyat rivojining bosh mezoniga aylangan. Behbudiy ilmni nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki millatning mustaqilligi va taraqqiyoti garovi deb bilgan. Adolat va halollik esa jamiyatni tartibga soluvchi asosiy qadriyatlardan biridir. Agar jamiyatda adolat tamoyillari kuchli bo‘lsa, ijtimoiy tenglik ta’minlanadi va korrupsiya kabi salbiy holatlar kamayadi. Behbudiy adolatni axloqiy barkamollikning eng muhim shartlaridan biri deb hisoblab, bu qadriyatni yoshlarga singdirish lozimligini uqtirgan.

Uning axloqiy qarashlarida an’anaviy islomiy qadriyatlar va zamonaviy dunyoqarash uyg‘unlashgan. Bu esa uning g‘oyalarini xalq orasida tez tarqalishiga

sabab bo‘lgan. Behbudiy axloqiy yetuklikni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri deb bilgan. U xalqning johillik va qoloqlikdan qutulishi uchun, avvalo, ma’rifatli bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan. Uningcha, axloqiy yetuk jamiyat quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: 1) halollik va poklik - korrupsiya va poraxo‘rlik illatlari jamiyatni yemiradi. Behbudiy halollik va poklikni insoniy fazilat sifatida juda yuqori qadrlagan; 2) mas’uliyat va vatanparvarlik - har bir fuqaro o‘z zimmasidagi mas’uliyatni his qilishi, vatan va xalq ravnaqi uchun fidoyilik ko‘rsatishi lozim; 3) oila tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar - Behbudiy oilani axloqiy tarbiyaning asosiy o‘chog‘i deb hisoblagan.

Behbudiy jamiyatning axloqiy tanazzuli muammosiga qarshi kurashish uchun matbuot va adabiyotning kuchidan foydalangan. Uning asarlarida va maqolalarida ma’rifatparvarlik va odob-axloq masalalari keng yoritilgan. Behbudiy axloqiy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishda asosiy manbai ta’lim va tarbiya ekanini yaxshi anglagan. U maktab va madrasalarni isloh qilish, ularda yangi pedagogik usullardan foydalanish tarafdori edi. Behbudiy yangi usul maktablarini tashkil etish orqali bolalarga nafaqat ilm, balki axloqiy fazilatlarni ham singdirishni maqsad qilgan. Behbudiy ta’lim beruvchilar, ya’ni ustozlarning axloqiy fazilatlariga alohida e’tibor qaratgan. U o‘qituvchilarni bolalarga nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy tarbiya beruvchi shaxslar deb hisoblagan. Uning fikricha, “ustozlar o‘z shogirdlariga namuna bo‘lishi, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi zarur ijtimoiy voqeilik deb hisoblagan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ayollarning jamiyatdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratgan”[4]. Jamiyatning taraqqiyoti ayollarning ma’rifatli va axloqiy yetuk bo‘lishiga ham bog‘liq.

Behbudiy jamiyatning kelajagi onalarga bog‘liq ekanini tushungan. Shuning uchun ham u ayollar ta’limini rivojlantirishni axloqiy jihatdan muhim vazifa deb bilgan. Uningcha, ma’rifatli ona farzandini to‘g‘ri tarbiyalaydi va jamiyat axloqiy jihatdan yuksaladi. Behbudiy oilaviy hayotda o‘zaro hurmat va muhabbatning muhim ekanini ta’kidlagan. Oilada er-xotin bir-biriga mehribon bo‘lishi, bolalar esa ota-onaga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi lozimligini qayd etgan.

Behbudiy xalqni ma’rifat bilan uyg‘otish va axloqiy isloh qilish yo‘lida matbuotdan samarali foydalangan. U 1913-yilda “Oyna” gazetasini tashkil etib, unda jamiyat axloqiy muammolariga oid maqolalar chop etgan. Behbudiy xalqning bilim olishiga to‘sqinlik qilayotgan eskicha qarashlar va johillik bilan kurashni o‘zining asosiy vazifalaridan biri deb bilgan. U xalqni dunyoqarashini o‘zgartirish, zamonaviy fikrlashga o‘rgatish orqali jamiyatni yuksaltirishni maqsad qilgan. Uning ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlari yosh avlodning nafaqat ilmli, balki ma’naviy yetuk bo‘lib voyaga yetishiga qaratilgan edi. Behbudiy axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilib, jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik va halollikni ustuvor qo‘ygan.

Uning qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ma’rifatparvarlik va axloqiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ilg‘or mutafakkirlaridan biri bo‘lib, uning axloqiy qarashlari bugungi kun uchun ham dolzarb hisoblanadi. U ilm-ma’rifat, halollik, vatanparvarlik, adolat va mehnatsevarlikni jamiyat axloqiy yetukligining asosi deb bilgan. Behbudiy o‘zining fidoyiligi, ma’rifatparvarligi va adolatparvarligi bilan o‘zbek jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Uning g‘oyalari va axloqiy qarashlari bugungi kunda ham yosh avlod uchun muhim ibrat manbai bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, Behbudiy ilmni shaxsiy taraqqiyot vositasi sifatida emas, balki butun jamiyatning ravnaq topishi uchun zaruriy omil deb bilgan. Bilimli insonlar jamiyatni oldinga yetaklaydi, nodonlik esa taraqqiyotga to‘siq bo‘ladi.

Ikkinchidan, adolat va halollik mustahkamlangan jamiyatda ishonch, barqarorlik va taraqqiyot ta’minlanadi. Behbudiy korrupsiya va nohaqlikni jamiyatning yemirilishiga sabab bo‘luvchi omillar sifatida ko‘rgan va axloqiy poklikni targ‘ib qilgan.

Uchinchidan, dangasalik va loqaydlik jamiyat rivojiga to‘siq bo‘lsa, fidoyilik va mehnatsevarlik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Behbudiy inson harakatda bo‘lishi, o‘z ustida ishlashi va Vataniga xizmat qilishi kerakligini ta’kidlagan.

To‘rtinchidan, jamiyatni isloh qilish uchun avvalo insonni tarbiyalash lozim. Behbudiy axloqiy tarbiyani ta’lim bilan uyg‘un holda olib borish kerakligini aytib, yosh avlodning ma’naviy kamolotini muhim deb bilgan.

Beshinchidan, moddiy taraqqiyotdan avval insonning ma’naviy yuksalishi muhimdir. Behbudiy inson kamolotining asosi uning axloqiy qadriyatlariga bog‘liq ekanligini qayd etib, ma’naviy yetuklikni jamiyat barqarorligining garovi sifatida ko‘rsatgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning axloqiy qarashlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini anglashda quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz:

Behbudiyning asosiy g‘oyalari ilm-fan va ma’rifat orqali jamiyatni yuksaltirishga qaratilgan. Bugungi kunda ham yosh avlodga ta’lim berishda uning qarashlaridan foydalanish, adabiyotlarini o‘rganish va targ‘ib qilish muhimdir.

Behbudiyning axloqiy qarashlari odob-axloq, halollik va vatanparvarlik tushunchalariga asoslangan. Jamiyatda odobli, ma’rifatli va vataniga sodiq shaxslarni tarbiyalash uchun uning asarlaridagi axloqiy ta’limotlarni ta’lim dasturlariga kiritish lozim.

Uning fikricha, xalqning taraqqiy etishi uchun milliy o‘zlikni anglash va an’analarni saqlab qolish muhim. Hozirgi kunda madaniy merosni asrab-avaylash,

yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga o‘rgatish orqali Behbudiyning g‘oyalarini amalga oshirish mumkin.

Behbudiyning qarashlarida adolat va tenglik tamoyillari muhim o‘rin tutadi. Jamiyatda adolatli qonun ustuvorligini ta’minlash, korrupsiya va befarqlikka qarshi kurashish orqali uning ijtimoiy islohotlarga oid qarashlarini hayotga tatbiq etish zarur.

Behbudiyning jadidchilik harakati matbuot va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilingan. Bugungi kunda ham uning tajribasidan foydalanib, yoshlarni to‘g‘ri ma’lumotlar bilan ta’minlash, ma’naviy tarbiyani kuchaytirish va soxta axborotlarga qarshi kurashish dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. - Toshkent.: “Yozuvchi”, 1994. - B. 32.

2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. - Тошкент,: “Маънавият”, 1999. - B.34.

3. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. - Тошкент,: “Маънавият”, 1999. - B.12.

4. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. - T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022. - B.156.

SIDDIQIY-AJZIY QARASHLARIDA MA’NAVIY TARBIYA VA IJTIMOIY TARAQQIYOT DIALEKTIKASI

Haqqulov Nabijon Qahramonovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya. Mazkur maqolada Siddiqiy-Ajziyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Mutafakkirning inson kamoloti, ma’rifat, axloqiy tarbiya va milliy o‘zlikni anglashga doir g‘oyalarining jamiyat rivojidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik Siddiqiy-Ajziy merosi misolida yoritilib, uning qarashlarining zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy islohotlar hamda yoshlar tarbiyasidagi nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: Siddiqiy-Ajziy, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, ma’naviy tarbiya, ijtimoiy taraqqiyot, inson kamoloti, axloqiy qadriyatlar, milliy o‘zlik, ma’naviy meros, ijtimoiy ong, ta’lim-tarbiya, falsafiy tahlil.

Mamlakatimizda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlash yoshlar o‘rtasida olib boriladigan targ‘ibot va tashviqot hamda tarbiyaviy ishlarni har tomonlama o‘ylangan tizimli asosida tashkil etish va ta’sirchanligini yanada

kuchaytirish - bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi ustuvor vazifasi - “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlanishi ham bejizga emas. Fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, yoshlarimizning ma’naviy - axloqiy turmush tarzining kamolot darajasi bevosita ajdodlar madaniy merosini chuqur o‘rganish, tarixiy-falsafiy mushohada qilish va undan ijodiy foydalana olish qobiliyati bilan aniqlanadi.

Bu borada samarqandlik ma’rifatparvar-jadidchi Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy-Ajziyning ona-Vatanga muhabbat va sadoqat, bag‘rikenglik, oilani e’zozlash va mustahkamlash, ma’naviy ogohlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik, millatlararo totuvlik, o‘zaro hamkorlik kabi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarining mazmunini tadqiq etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi quyidagi fikrlari bu boradagi tadqiqotchilarga va ilmiy izlanuvchilarga qaratilgan o‘ziga xos chaqiriqdir: *“Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Biz ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab yetadi”* [1].

Jadidlarning buyuk tarixiy xizmatlari shundan iboratki, ular yetilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilish prinsiplarini evolyusion-islohot yo‘li aosida ishlab chiqdilar.

Jumladan, Ajziy ham o‘z xalqining hech «ittihod, uyushmak, maslahatlashmak» degan madaniyat muassirlariga yaqinlashmaslig‘idan zorlanadir. Haqiqatanda shoirning fikri to‘g‘ri emasmi? Har bir ish «qo‘l birligi, uyushmak, kengash» bilan ilgari bosmaydirmi? O‘z xalqining saodatini Ajziy ham «shularda» ko‘radir:

Giriftori savodi xattu xoli safhai dardam,

Asiri kulfatu ranju balou dog‘i xirmonam.

Davoyi zaxmi nosuram emishdir suhbati «orif»,

Vale maxdumi paykoni baloyi «qavmi nodonam»,— baytlari bilanda o‘zining dardini sharh etadir. O‘zining «orif, ya’ni ma’rifatli»lar suhbatidan mahrum ekanini va «nodon qavm»ning balo o‘klarig‘a «nishon» bo‘lg‘onini aytib, yana o‘ziga o‘zi taskin beradir:

«Raqib»dan na jafo kelsa, sobir o‘l, Ajziy,
Kim o‘lmadi ochi suv ichra beqaror sadaf.
«Raqib» har qancha jafo qilsa ham san sabr qil, deydir[6; B.38].

Dunyoning chegarasi bo‘lmagani singari, inson bilimi va imkoniyatlariga xam chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Shunday ekan, insonni bilish uning har tomonlama rivojlanishi va kamol topishi uchun ma’naviy omillarni anglash muhimdir. Bunday omillarning yuzaga chiqishi dunyoning falsafiy mushohada etilishi, to‘plangan bilimlarning izchilligi bilan taqozo etiladi. Amaliy tadqiqotlar imkoni cheklangan vaziyatda inson ichki hissiy qobiliyatining nazariy tafakkur uchun qanchalik kuvvat manbai bo‘la olishligini inkor etib bo‘lmaydi. Ilmiy, texnikaviy imkoniyatlar mavjud bo‘lmagan davrda zamon chegarasidan necha-necha asrlarga ilgarilab ketgan buyuk tafakkur sohiblarining ijodiy qobiliyati isbot talab qilmas hakiqatdir.

Ajziyning aholini ma’rifatli qilish borasidagi harakati, o‘zbeklar va tojiklar millatiga mansub kishilar bilan bir qatorda o‘zga millat vakillariga nisbatan olib borgan bag‘rikenglik faoliyati har doimo osonlikcha yuz bermadi. Ko‘plab mutaassiblar tomonidan bu faoliyat ta’qib ostiga olindi. Bunga 1914 yilda “Turkiston viloyati gazeti”da quyidagi ma’lumot chop etilgan: “3-yanvar juma 1914 yil. Ulug‘bek madrasasi ichidagi jom’eda 5-6 ming musulmoniya huzurida muazzin tarafindan jadidchilarni va ruscha o‘qitmoqqa targ‘ib qiladurgonlarni kofirligi va har kim bolasini usuli jadidg‘a bersa, o‘zi kofir, xotini taloq bo‘lishini forsiy til ila uzun va baland bir nutq ila xaloyiqg‘a bildirubdir va ham alarni kofir, o‘rus va hamda kofir va o‘rus bilg‘uvchi deb e’lon qilibdur”. Gap asosan Halvoyidagi Siddiqiy-Ajziy maktabi bilan Rajabamindagi Abdulqodir Shakuriy maktablari haqida gap ketgan edi. [4; B.53]

Siddiqiy-Ajziyning ayniqsa, Samarqand mintaqasida ko‘p millatli aholi orasida do‘stlik muhitini mustahkamlash, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida bo‘lish lozimligini targ‘ib qiladi.

Bu borada Ajziy, kishi har bir xalqning tilini bilish uni diliga yo‘l ochadi, deb hisoblagan;

Har qochki lisoni cho‘q bilursan,
Dunyoda azizroq o‘lursan, deb yozadi.

Shuni ham ta’kidlashimiz joizki, Siddiqiy-Ajziyning jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan say’-harakati izsiz ketgan emas. O‘z vaqtida Turkiston jadidlarining g‘oyaviy yetakchisi Behbudiy tomonidan Ajziyga “Oyina” jurnali orqali o‘zini himoya qilishga imkoniyat beradi.

Jumladan;
Az haqigo‘yi zabon kashidan kufr ast,
To jon doram, kalomi Haq mehonam.
(Ma’nosi;

Haqiqatni so‘zlash kufr bo‘ladigan bo‘lsa,
Toki jonim bor ekan, Ollohni kitobini o‘qiyman.)
Yoki,
Haq so‘ylayan insonlari takfir (kofir) edajaklar,
Imonli musumonlaringa “shukr” Xudoyo.

kabi chiqishlari bilan o‘zining hayot tajribasi, bilim va tafakkuri orqali mamlakat va millat oldidagi mas’uliyatini to‘g‘ri his etgan.

Siddiqiy-Ajziyning zamondoshi, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan tanqidchisi Vadud Mahmudning ta’biri bilan aytganda, “Bizning Ajziy ham shu zamirdandir. Uning uchun turk, fors, arab, hind millati yo‘qdir. Bularning musulmon bo‘lg‘on qismi hammasi bir millatdir. Bu fikr musulmonlar orasida asosan eskidir. Islom dini haqiqatan shu qadar ta’sir etkandirki, urug‘, nasl e’tibori ila kelgan ayirmalardin ayirmasi ostida so‘nub, e’tibordin tushgandir. Arab qonining boshqa «islom» millatlari qonig‘a ko‘b qo‘shilishi ham bunga ko‘b yordam qilg‘ondir. Hozir ham xalqdan «kimsan» deb so‘ralsa, «musulmon» degan javob olinadi. Bir millatning bu tarzi taraqqiysi Ajziyning o‘z davrining kishisi ekanini ko‘rsatadir”[5; Vadud M. 2007.bb.42].

Ma’rifatparvar-jadid Siddiqiy-Ajziyning xalqlar orasida do‘stlik muhitini mustahkamlash, diniy bag‘rikenglik, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida bo‘lish muhim ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risidagi fikrlari mustaqillik yillarida ro‘yobga chiqmoqda.

O‘zbek xalqi mustaqillikka erishganidan keyingi davr ichida 130 dan ortiq millat va elat vakillari bilan tinch-totuv yashab va barqaror taraqqiyotga erishib kelmoqda-ki, bu ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan tolerantlikning amaldagi yorqin ifodasidir.

Taniqli olima, tarix fanlari nomzodi Nodira Mustafayevaning ta’biri bilan aytganda ma’rifatparvar jadidlar faoliyatida “ .... ularda aholining ijtimoiy-siyosiy saviyasini oshirish, Turkiston iqtisodi va madaniyatini ravnaq toptirish, kasbiy mahorati yuksak, bilimli, ijtimoiy faol insonlarga katta ehtiyoj sezayotgan o‘lka uchun milliy mutaxassislarni tayyorlash, bu ehtiyojni zamonaviy maorif muassasalari orqali qondirish yoki ularni ta’lim olish uchun chet elga yuborish, o‘quv muassasalarini tubdan isloh qilish, ta’lim sohasida tabiiy fanlar chuqur o‘rgatilishi lozimligi, millat tarbiyachilari - xotin-qizlarni ma’rifatli qilish, zamonaviy ta’lim va taraqqiyotga erishish uchun ko‘plab tillarni o‘rganish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni kengaytirish zaruriyati bosh mavzular qilib belgilab olingan edi”.[7; B. 165-166]

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, yoshlarimizning ma’naviy - axloqiy turmush tarzining kamolot darajasi bevosita ajdodlar madaniy merosini chuqur o‘rganish,

falsafiy mushohada qilish va undan ijodiy foydalana olish qobiliyati bilan aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaat-nomasi. //https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020

[2]. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi Bahodir Karimov). - T.: Ma’naviyat, 2007. - B. 35.

[3]. Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. - T.: Sharq, 1994. - B.51.

[4]. Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. - T.: Sharq, 1994. - B.53.

[5]. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi Bahodir Karimov). - T.: Ma’naviyat, 2007. - B.42.

[6]. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi Bahodir Karimov). - T.: Ma’naviyat, 2007. - B.38.

[7]. Mustafayeva N. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. // “Jadid ma’rifatparvarlarining milliy ta’lim, matbuot, adabiyot va san’atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va uning Milliy goya targ‘ibotidagi ahamiyati’’ mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani m ateriallari. 2016 yil 15 aprel. 165-166-betlar.

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SAMARQAND TA’LIM TIZIMIDAGI O‘ZIGA XOS JIHATLAR (SAMARQAND ERONIYLARI MISOLIDA)

Nurboyev Qurbon Aralboyevich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o‘qituvchisi
E-mail: norboyev_k@ssuv.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr 20-30-yillarida Samarqand eroniylari etnografik guruhi istiqomat qilgan hududlarda ta’lim tizimi holati haqida ayrim mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand, eroniylar, Eron milliy rayoni, milliy maktablar, sho‘ro mafkurasi.

Madaniy-ma’rifiy sohalarda Samarqand eroniylari faoliyati xususida to‘xtalganda avvalo ta’lim sohasida olib borilgan faoliyat muhim hisoblanadi. Samarqand eroniylari XX asrning boshlarida shaharning bir qancha mahallarida zich holatda yashagan bo‘lib, ushbu mahallalarda ham jadid maktablari tashkil etildi.

Samarqand eroniylari etnografik guruh farzandlari uchun jadid maktablarini tashkil etishda bosh-qosh bo‘lgan ma’rifatparvar olimlardan biri Said Rizo Alizoda hisoblanadi. Said Rizo Alizoda 1887-yil 15-fevralda Samarqand shahrining Bog‘ishamol mahallasida ipak va gilam savdogari Mirmuhsin oilasida tug‘ilib, dastlabki ta’limni Chorraha mahallasidagi Abulqosim Alganjiy jadid maktabida boshlaydi. Madrasa ta’limini ham tugatgan Said Rizo Alizoda o‘zi ham jadid maktablari ochgan va ushbu maktablar uchun darsliklar yozgan. “Nizomnoma”, “Risolat ul-Ittihodiya” risolalari bilan tanilgan olim jadid maktablari uchun “Ilmi hisob” darsligini nashr qilgan. Olim Afg‘oniston va Erondan Turkistonga kelgan jadid ziyolilari bilan hamkorlik qilgan bo‘lib, xususan, eronlik Malik Bahor bilan jadid maktablari tashkil etish bo‘yicha maktublar almashgan. Adib 1933-1937 yillarda SamDUda arab va fors tillaridan dars bergan [1,5]. Samarqanddagi yangi usuldagi maktablarda Mulla Halim Karimzoda, G‘ulomali Kozimzoda, Said Ja’far Alizoda, Mirzo Aslamxon, To‘rabek Mirzo, Maxmud Oxundzoda (1911 yilda Bog‘dodga ko‘chib ketgan va umrining oxirigacha Samarqand eroniylari bilan aloqasini uzmagan) dars berishgan. Yangi uslubdagi maktablarni Hoji Muin, Hoji Abdurayim, Hoji Fayzi, Said Rizo, Mullo Halim, Hoji Bobobek va boshqa saxovatli kishilar moliyalashtirib turganlar [2,42].

1924-1925-yillarda O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralash siyosati o‘tkazilib, milliy respublikalar tashkil etilishi bilan milliy maktablar ham tashkil etila boshladi. 1925-1926-yillarda kam sonli millatlar uchun 127 ta maktab bor bo‘lib, ular respublika maktablari umumiy sonining 10,7%ini tashkil etardi. 20-yillarda Toshkentda tojik, tatar, qozoq-qirg‘iz, turkman, mahalliy yahudiy maorif institutlari ochilgan bo‘lib, ularda milliy o‘qituvchi kadrlar tayyorlanardi, shuningdek, uyg‘ur, mahalliy yahudiy, qozoq, eron, tojik texnikumlari ham mavjud edi. *[3, 408]* Toshkent viloyati bo‘yicha Eron-Ozarbayjon maktablari soni 1ta, sinflar soni 3 ta, o‘qituvchilar soni 3 nafar, o‘quvchilar soni 72 nafar bo‘lgan bo‘lsa, Samarqand viloyati bo‘yicha Eron-Ozarbayjon maktablari soni 4 ta, sinflar soni 10 ta, o‘qituvchilar soni 10 nafar, o‘quvchilar soni 235 nafarni, Qashqadaryo viloyati boyicha fors maktablari soni 2 ta, sinflar soni 2 ta, o‘qituvchilar soni 2 nafar, o‘quvchilar soni 41 nafarni, Respublika bo‘yicha jami fors maktablari soni 9 ta, sinflar soni 15 ta, o‘qituvchilar soni 15 nafar, o‘quvchilar soni 333 nafar, Eron-Ozarbayjon maktablari soni 5 ta, sinflar soni 12 ta, o‘qituvchilar soni 12 nafar, o‘quvchilar soni 283 nafar tashkil etgan. Milliy oz sonli xalqlarning farzandlari o‘zbek (tojiklar, qozoqlar, forslar) va rus (tatarlar, armanlar, yahudiylar va boshqalar) maktablarida ta’lim olayotganligi e’tiborimizni tortadi. *[4, 147-148]* O‘zbekiston bo‘yicha ta’limni o‘z ona tilida oladigan xalqlar ro‘yxatiga e’tibor qaratsak, forslar shaharlarda 472 nafar, shundan o‘z ona tilida ta’lim oluvchilar 109 nafar, shahar tipidagi manzillarda 7 nafar, shundan o‘z ona tilida ta’lim oluvchilar

yo‘q, qishloq joylarda 251 nafar, o‘z ona tilida ta’lim oluvchilar 73 nafar; O‘zSSR bo‘yicha 730 nafardan 182 nafari o‘z ona tilida ta’lim oladi. Eroniylar shaharlarda 608 nafar, qishloqlarda 311 nafar bo‘lib, o‘z ona tilida ta’lim oluvchilar yo‘q [4, 40]. Samarqand shahrida forslar (kelib chiqishi fors bo‘lganlar) uchun 50 o‘rinli maktab-internat tashkil etish kun tartibidagi masala edi. 1926-1927-o‘quv yilida O‘zSSR da 9 ta fors maktablari bo‘lib, 616 nafar o‘quvchi ta’lim olgan bo‘lib, kam sonli xalqlar farzandlari (tojiklar, qozoqlar, forslar) o‘zbek tilida ta’lim olganlar [4, 104]**.** 1931-1932-yillar uchun madaniy kampaniyaning Eron rayon shtabi tomonidan tashkil etilgan maktablar haqidagi ma’lumotga ko‘ra rayon bo‘yicha 30 dan ortiq qishloqlar, tashkilotlardan qamrab olingan o‘quvchilarning umumiy soni 4774 nafar, ulardan bitirganlar 3793 nafar bo‘lib, guruhlar soni 147 ta, o‘quvchilarning milliy tarkibi bo‘yicha eroniylar 1610 nafar, o‘zbeklar 1539 nafar, tojiklar 399 nafar, ruslar 149 nafar va boshqa millatlar 56 nafarni tashkil etgan [5, 93]. 1931-yil 20-fevraldagi Eron rayoni aholi orasida savodsizlikni bartaraf etish va ijtimoiy tarbiya maktablarini 10 kunlik tekshirish komissiyasi ma’lumotiga ko‘ra, tumanda 15 ta maktab, shundan 1 tadan rus, o‘zbek, arman, tojik maktablari va 11 ta eroniy maktablari tashkil etilgan. Ulardan 6 ta maktab qishloq joylarda va 9 ta maktab rayonning shahar qismidadir. Hamma maktab 2266 nafar bolani qamrab olgan, shundan 1361 nafari o‘g‘il bolalar, 905 nafari qiz bolalar, shundan 1447 nafar eroniy, 185 nafar tojik, 190 nafar o‘zbek, 238 nafar rus, 152 nafar arman va 54 nafar boshqa millatga mansub bolalar ta’lim olishgan. *[5, 142]*

XX asrning 20-yillarida eroniy yoshlarning harbiy o‘qishlarga kirishi va rahbarlik lavozimlarida ishlashlariga ma’lum to‘siqlar mavjud bo‘lgan. Ammo bu mahalliy xalqning yoki mahalliy rahbarlarning xohish va irodasiga bog‘liq bo‘lmasdan, o‘sha yillari respublikani boshqarib turgan bolsheviklar ko‘rsatmasiga bog‘liq edi. *[2, 39]* Shuningdek, o‘qituvchilarning sho‘ro mafkurasiga munosabati masalasi ham birinchi o‘ringa qo‘yilganki, tajribali, islomiy bilimdan xabari bor ilmli ziyolilar ishdan olinganiga quyidagi ma’lumot ham asos bo‘ladi. “Eron tumani 2-Yo‘ng‘ichqariq qishlog‘ida yashovchi Mulla Hakim Karimzoda haqida Eron rayon maorif sho‘ba mudirining 1928-yil 3-iyundagi ma’lumotiga ko‘ra Mulla Hakimzoda muallim bo‘lsa ham uning butun turmushi eskicha bo‘lib, mafkurasi butunlay vayrondir. Bu kishi hamma vaqt yuqori sinflarda hozirgi davlat programmasi yuzasidan emas, eskicha ta’lim yuritib kelar edi. Qishloqda ruhoniylardan mulla Ahmad bilan qattiq aloqada bo‘lib, har doim maktabda dars o‘tayotgan kishilarning yerlarini, mollarini taraka qilish ishlari bilan sarson edi... Maktabda 4-sinf o‘quvchilariga shu yilgacha dars bergan vaqtda bu talabalar bu kishining qo‘lida 4-5 yil o‘qib kelsalar ham firqa, sho‘ro, yoshlar tashkilotlari u yoqda tursin kashshoflar tashkilotlarini ham bilmadilar, bolalarga baynalmilal tajribasini bermasdan, har kun eskicha tarbiya va usul bilan foydalanib kelgan... Bu

kishining muallimlikdan tushgandan buyon qishloq butun boshqacha bo‘ldi. Xotin-qizlar ochildi. Umumiy ishchi-dehqonlar tomonidan 2ta masjid klubga aylantirildi”. *[5, 82-83]* Ushbu ma’lumot ta’lim tizimi to‘liq mafkuraviy tamoyillarga buysundirilganligi dalolatidir.

1929-yil 16-apreldagi №9-342-sonli bayonnomaga ko‘ra 1929-yil 16-fevral soat 15.30da Eron (Bog‘ishamol) rayoni o‘qituvchilarining konferensiyasi ochilgan. *[5]* Konferensiya asosiy masalalari sho‘rolarning ta’lim tizimiga bag‘ishlangan.

1931-yil 13-sentabrda Eron rayon Kengashi raisi muovini Murodov va ish boshqaruvchi Bagdasarovlarning Eron rayon xalq ta’limi Boshqarmasiga bergan №1550-sonli ma’lumotnomasiga ko‘ra Eron rayon Kengashi maktablar uchun mos bino sifatida birinchi navbatda egasiz bo‘lgan quloqlarning uylarini berilishini ma’lum qilgan. *[5, 82]* Bundan ko‘rinadiki, sho‘rolar mulkdor tabaqalarning uylarini tortib olib maktablarga aylantirganlar, o‘zlarini esa surgun qilganlar.

Maktablarning moddiy-texnik ahvoli o‘rganilganda 1-maktabda ustaxona tashkil etilgan va 66-Paxta tozalash zavodiga biriktirilgan, 33-rus maktabi Non zavodiga, 4-maktab “Nafisa” ipakni qayta ishlash arteliga, 28-arman maktabi “Krasnыy molot” arteliga biriktirilgan. Maktablarning texnik bazasini yaxshilashga mablag‘ yetishmasligi to‘sqinlik qilmoqda. Issiq nonushta bilan ta’minlanish holati o‘rganilganda, faqat №1, №2, №10-maktablarda berilgan bo‘lsa, qolgan maktablarda tashkil etilmagan. Hozirgi vaqtda bulochka yetkazib berish imkoniyati yo‘qligi uchun, yuqridagi maktablarda ham issiq nonushta bilan ta’minlanish to‘xtatilgan. Kambag‘al-dehqonlar fondi kiyim-kechak yo‘qligi uchun faoliyat olib bormagan va “O‘zbeksavdo” va “Shaharsavdo” hamma maktab o‘quvchilarini kiyim-kechak bilan ta’minlashdan bosh tortgan [5,142].

Shunday qilib, XX asrning 20-30-yillarida bolsheviklar amalga oshirgan ta’lim sohasidagi siyosat butun ko‘lami bilan sho‘ro mafkurasini targ‘ib qilishga qaratilgan bo‘lsada (bunda dinimizning, madaniyatimizning tayanchi bo‘lgan masjidlar, maktablarga, klublarga, “qizil choyxonalarga”, sho‘rolar ma’muriy idoralariga aylantirilgan), xalq o‘z madaniyatini ayrim yo‘qotishlar bilan bo‘lsa-da saqlab qoldi. Ushbu madaniyatning saqlanib qolinishida, maktablarning, ta’lim tizimining o‘rni katta bo‘lib, Samarqand eroniylari etnografik guruhining ziyoli vakillari Said Rizo Alizoda, Mulla Halim Karimzoda, G‘ulomali Kozimzoda, Said Ja’far Alizoda, Mirzo Aslamxon, To‘rabek Mirzo, Maxmud Oxundzoda kabi ma’rifatparvarlarning hissasi beqiyosdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ализода Ф. Сайид Ризо Ализода. - Тошкент : ABU Matbuot-konsalt, 2011.
2. Алиева Ф., Шарипов С. Ватан ягонадир, Ватан биттадир. Илмий-оммабоп рисола. - Т., “Машҳур-пресс”, 2018.

3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т.: “Шарқ”, 2000.
4. O‘z MA. Fond 86, ro‘yxat-1, ish-3150. 1924-1926-yillar.
5. Samarqand viloyat arxivi. Fond 266. ro‘yxat-1, ish-54. 1931- yil.

QAYTA QURISH DAVRIDA SAMARQAND VILOYATI SANOATINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Shotemirova A.U.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qayta qurish davrida Samarqand viloyati sanoatining rivojlanish xususiyatlari, uning Sovet Ittifoqi markazlashgan iqtisodiy tizimidagi o‘rni va tarmoqlar tarkibi tahlil qilingan hamda viloyat sanoatining asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgani, markazga qaram iqtisodiy siyosat hamda “Paxta ishi” va “O‘zbeklar ishi”ning sanoat taraqqiyotiga salbiy ta’siri yoritilgan. Shuningdek, maqolada 1980-yillar oxirida buyruqbozlik iqtisodiyoti inqirozi sharoitida Samarqand viloyati sanoatida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ilmiy asosda baholangan.

Kalit so‘zlar: “Paxta ishi”, uy-joy ta’minoti, “O‘zbeklar ishi”, salomatlikni saqlash, Sovet ittifoqi.

Samarqand viloyati sanoati Sovet Ittifoqining markazlashgan rejali iqtisodiy tizimi tarkibida shakllangan bo‘lib, uning rivojlanish yo‘nalishi asosan markaz - Moskva tomonidan belgilanardi. Sovet davlati butun mamlakat bo‘yicha iqtisodiy hududlarni funksional ixtisoslashtirishga o‘tgan edi. O‘zbekiston SSR, jumladan Samarqand viloyati (shu davr uning tarkibida 14 tuman, 6 shahar, 11 shahar posyolkasi bo‘lgan [6.337] 1-xarita), asosan qishloq xo‘jaligiga, xususan paxta yetishtirishga ixtisoslashtirildi va xomashyo bazasi sifatida xizmat qildi [8.4]. O‘sha davrda Samarqand iqtisodiyoti agrar soha ustuvorligi bilan ajralib turgan - viloyatda paxta xomashyosi yetishtirilib, sanoat asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo‘naltirilgan edi. Masalan, Samarqandda paxta tozalash zavodlari, ipakchilik kombinati, meva-sabzavotni konservalash korxonalari va uzumchilik mahsulotlarini qayta ishlovchi (vino ishlab chiqaruvchi) yirik kombinatlar faoliyat ko‘rsatgan. Sovet davrining oxiriga kelib, Samarqand viloyatida yengil va oziq-ovqat sanoati salmoqli o‘rin tutgan bo‘lib, paxta tozalash, ip gazlama (ipak va paxta ipini egirish hamda to‘qish) fabrikalari, meva-sabzavot konserva zavodlari, vino va tamaki kombinati kabi tarmoqlar mavjud edi. Shuningdek, shaharda traktor va avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarish, elektr jihozlar (kinoproektor apparatlari kabi) yasash kabi sanoat tarmoqlari ham shakllangan edi. Biroq bu tarmoqlarning

aksariyati ittifoq doirasidagi yirik sanoat zanjirlarining kichik bo‘g‘ini bo‘lib, mustaqil innovatsion salohiyatga ega emas edi.

Sovet industrial siyosatining o‘ziga xosligi shundaki, og‘ir sanoat va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish asosan Rossiya SFSSR va Ukraina SSR kabi markaziy respublikalarda joylashtirilib, O‘zbekiston kabi periferik respublikalarga xomashyo yetkazib beruvchi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi rol ajratilgan edi [1.668]. Natijada, mintaqaviy sanoatning tarkibida nomutanosiblik vujudga keldi - Samarqand viloyatida ham mashinasozlik, kimyo kabi yuqori qo‘shilgan qiymatli tarmoqlar cheklangan bo‘lib, sanoat korxonalari asosan markazga bo‘ysunuvchi holda xomashyoni qayta ishlash yoki tayyor mahsulotni qadoqlash bilan shug‘ullandi. Masalan, O‘zbekiston SSR paxtani yetishtirish bo‘yicha Ittifoqda yetakchi o‘rin tutgan bo‘lsa-da, undan olinadigan tolaning 90 foizdan ortig‘i boshqa respublikalardagi to‘qimachilik korxonalarida qayta ishlanar, paxtadan tushgan asosiy daromad ittifoq budjetiga yo‘naltirilar edi [12.101]. Bu “xomashyo appendiksi” vaziyati respublika iqtisodiyotida ko‘rinib turgan edi - masalan, 1990-yilda O‘zbekistonning jami eksportining qariyb uchdan ikki qismini xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar (paxta tolasi, energiya resurslari, metallar va boshqalar) tashkil etgan bo‘lib, tayyor sanoat mahsulotlari ulushi atigi 35% atrofida edi [8.4]. Bunday tizim Samarqand sanoatining ham mustaqil rivojlanishini cheklab qo‘ygan edi.

Sovet iqtisodiy tizimidagi bu nomutanosibliklar natijasida O‘zbekiston SSRning budjeti doimiy tarzda markaziy hukumat subsidiyalariga qaram bo‘lib qolgan. Masalan, 1980-yillar oxirida respublika budjetining taxminan 40 foizi ittifoq markazidan keluvchi transfertlar hisobiga to‘ldirilardi [12.101]. Bu holat, bir tomondan, respublikadagi ortiqcha daromadning (paxta va boshqa xomashyo orqali) markazga olib qo‘yilishi, ikkinchi tomondan esa markazdan qayta moliyalashtirish zaruriyatining tug‘ilishiga olib kelgan edi. Samarqand viloyati misolida ham sanoatning bir qator tarmoqlari butunlay ittifoq tasarrufida bo‘lib, ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy qismi boshqa hududlarga yuborilgan. 1990-yil ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining taxminan 80 foizi boshqa ittifoq respublikalariga jo‘natilgan, aksar hollarda Rossiya va qo‘shni Markaziy Osiyo respublikalariga yetkazib berilgan [8.4]. Demak, Sovet mustamlakachilik siyosati natijasida Samarqand sanoati mahalliy ehtiyojlardan ko‘ra Ittifoq ehtiyojlariga bo‘ysundirildi - ko‘plab korxonalar mahsulotini respublika tashqarisiga yuborib, viloyatning o‘zida tayyor mahsulot tanqisligi kuzatilgan.

Sovet tizimining yana bir jihati - sanoat tarmoqlarining markaziy vazirliklar orqali boshqarilishi edi. Samarqanddagi yirik zavod va fabrikalar bevosita Moskvaning tegishli sanoat vazirliklariga bo‘ysungan, rejalar va resurslar taqsimoti

ham markazdan kelgan ko‘rsatmalar asosida belgilangan. Bu esa mahalliy rahbariyatning sanoat rivojiga oid tashabbuslarini cheklab, qaror qabul qilishni uzoq byurokratik zanjirga bog‘lardi. Buning oqibatida Samarqand sanoatidagi boshqaruv samarasizligi va sustkashlik muammolari kuzatilgan - masalan, yangi texnologiyalar joriy etilishi sekinlashgan, mahsulot sifati past darajada qolgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi B. Islamov ta’kidlaganidek, Sovet davrida respublikada ko‘plab sanoat korxonalari zarariga ishlagan, foydasiz ishlab chiqarish yuqori edi. Haqiqatan ham, 1969-yili O‘zbekiston og‘ir sanoat korxonalarining 40% zarar bilan ishlaganligi qayd etilgan, 37 tur mahsulotning 14 tasini ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgan [12.101]. Bunday holat Samarqanddagi sanoat subyektlariga ham xos bo‘lib, rejalarning bajarilishi ko‘pincha sifatdan ustun qo‘yilishi tufayli qog‘ozdagi ko‘rsatkichlarga erishish ustida qurbonliklar qilinardi.

XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa, 1970-1980-yillarda Sovet Ittifoqi iqtisodiyotining eng murakkab davri hisoblanadi. Sovet iqtisodiyoti qat’iy markazlashgan boshqaruv tizimiga asoslangan edi, bu esa ishlab chiqarish va resurslardan foydalanishda samarasizlikni keltirib chiqardi. Samarqand viloyati, O‘zbekiston SSR tarkibida bo‘lib, ushbu markazlashgan boshqaruv modelining ta’sirida faoliyat yuritgan va rivojlangan. Ammo 1980-yillarning boshlariga kelib, Samarqand viloyati sanoati iqtisodiy turg‘unlik va qiyinchiliklarga duch keldi. Ushbu qiyinchiliklar viloyatning iqtisodiy barqarorligi va sanoat rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi (1-jadval).

Hududlar	**1970-yil (% 1965-yilga nisbatan)**	**1975-yil (% 1965-yilga nisbatan)**	**1976-yil (% 1965-yilga nisbatan)**	**1975-yil (% 1970-yilga nisbatan)**	**1976-yil (% 1970-yilga nisbatan)**	**1976-yil (% 1975-yilga nisbatan)**
O‘zbekiston SSR	117	147	151	126	129	103
Qoraqalpog‘iston ASSR	109	143	145	131	133	102
Andijon viloyati	86	103	106	120	123	103
Buxoro viloyati	130	127	121	98	93	96
Jizzax viloyati	106	136	128	128	121	95
Qashqadaryo vil.	105	143	138	136	132	97
Namangan vil.	85	137	140	161	123	103
Samarqand vil.	113	114	114	99	99	100
Surxondaryo vil.	116	149	156	168	176	105
Sirdaryo vil.	89	146	154	164	173	105
Toshkent vil.	118	154	159	131	135	103

Farg‘ona vil.	112	143	142	128	127	103
Xorazm vil.	100,5	122	115	112	106	95
Toshkent shahri	132	177	189	133	143	107

1-jadval. 1965-1976-yillarda Qoraqalpog‘iston ASSR, viloyatlar va Toshkent shahrida sanoatdagi mehnat unumdorligi o‘sish sur’atlari [13.56]

Siyosiy jarayonlarning iqtisodiy ta’siri SSSR davrida “Paxta ishi” va “O‘zbeklar ishi” nomi bilan tanilgan jarayonlar O‘zbekiston iqtisodiyoti, xususan, Samarqand viloyati iqtisodiyotiga chuqur salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu siyosiy jarayonlarning asosi 1983-yilda KGB tomonidan O‘zbekistonda paxta hosili hajmini oshirib ko‘rsatish va korrupsion holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat ishlari sifatida belgilandi. Turli manbalarga ko‘ra, “O‘zbeklar ishi” doirasida hibsga olinganlar soni taxminan 22 000, 30 000 yoki hatto 48 000 kishini tashkil etishi mumkin. Viktor Ilyuxening ma’lumotlariga asoslanib aytganda [9], tergov jarayonida inson huquqlariga zid, qattiq qiynoq usullari qo‘llanilgan; tergovchilar orasida esa, ayniqsa, dahshatli metodlari bilan ajralib turadigan Pirsxalava va Kartashyan nomlari esga olinadi. Samarqand viloyati ham ushbu kompaniyadan chetda qolmadi. Viloyatdagi ko‘plab rahbarlar, shu jumladan sanoat korxonalari boshqaruvchilari ham ta’qib ostiga olindi.

Siyosiy jarayonlar natijasida Samarqand viloyatining sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida boshqaruvning zaiflashuvi kuzatildi. Korxona rahbarlari korrupsiyada ayblanib ishdan olinishi ishlab chiqarish jarayonlarining to‘xtab qolishiga olib keldi. Misol uchun, 1984-yilda viloyatdagi paxta tozalash zavodlarining yillik ishlab chiqarish hajmi 15 foizga qisqargan [7.90].

“Paxta ishi” doirasida Samarqand viloyatida qator rahbarlar va mutaxassislar noqonuniy faoliyatda ayblanib, lavozimlaridan chetlatildi. Ushbu ta’qiblar nafaqat iqtisodiyotni boshqarishda, balki kadrlar siyosatida ham jiddiy muammolarga sabab bo‘ldi. Samarqanddagi yirik korxonalar, jumladan, paxta tozalash zavodlari va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash zavodlari faoliyatida uzilishlar yuzaga keldi. Masalan, 1985-yilda Samarqanddagi paxta zavodlarining ishlab chiqarish hajmi 10 foizga pasaygan, chunki rahbarlar lavozimlaridan olinib, ular o‘rniga malakasiz kadrlar tayinlangan edi[11.78]. Bu esa nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini sekinlashtirdi, balki mahsulot sifati va hajmiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Sovet Ittifoqining qishloq xo‘jaligi va sanoatga oid siyosati Samarqand viloyatida muvozanatsizlikka olib keldi. Markaziy boshqaruv tizimi resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga sabab bo‘ldi. Masalan, Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda asosiy hududlardan biri bo‘lishiga qaramasdan, texnik modernizatsiya uchun zarur mablag‘lardan chetda qolgan. “Paxta ishi” ning oqibatlari Samarqand viloyatida qishloq xo‘jaligi va sanoat

o‘rtasidagi integratsiyani susaytirdi. 1985-yilda Samarqand viloyatidagi paxta zavodlari o‘z quvvatining 70 foizida ishlagan bo‘lsa, ishlab chiqarilgan mahsulotning katta qismi sifatsiz deb topilgan [2.120]. Ushbu holat markazdan nazoratning haddan tashqari kuchayishi va viloyatning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish natijasi edi.

“Paxta ishi” Samarqand viloyatida iqtisodiy salbiy oqibatlardan tashqari, ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Ishchi-xodimlar o‘rtasida ishsizlik darajasi oshdi, ish haqlari pasaydi va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishdan to‘xtadi. 1986-yilda viloyatda sanoat korxonalarida ishlovchilar soni 20 foizga qisqargan [3.88]. “Paxta ishi” va “O‘zbeklar ishi” Samarqand viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, sanoatning barqaror rivojlanishini to‘xtatdi. Korrupsiya butun SSSRga xos edi, ammo O‘zbekiston namoyishkorona nishonga olindi [4.353]. Ushbu jarayonlar rahbarlarning cheklangan vakolati, iqtisodiy samaradorlikning pasayishi va ijtimoiy beqarorlikka olib keldi. Bu esa mahalliy iqtisodiyotning mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini deyarli yo‘qqa chiqardi. 1980-yillarning oxiriga kelib, buyruqbozlik iqtisodiyoti o‘z imkoniyatlarini tugatdi va mintaqada norozilik, iqtisodiy tanglik hamda alternativ rivojlanish yo‘llarini izlash jarayoni kuchaydi [5.213.]. Respublika bo‘yicha 1980- 1990-yillar bo‘sag‘asida yashirin inflyatsiya sharoitida pul emissiyasi tezlashib, 1989-yilning birinchi yarmida 8,9 mlrd rubl chiqarilgan, yil yakunida esa 18 mlrd rublga yetishi kutilgan [10.2871]. “Paxta ishi” va “O‘zbeklar ishi” Samarqand viloyatida sanoat tanazzuli, ijtimoiy beqarorlik va iqtisodiy boshqaruvning izdan chiqishiga sabab bo‘lib, buyruqbozlik iqtisodiyotining inqirozini yanada chuqurlashtirdi.

Xulosa qilganda, Ijtimoiy muhit nuqtayi nazaridan, sanoat korxonalarida ishlovchi xodimlar turmush darajasi rejali iqtisodning hosilchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Uy-joy ta’minoti, salomatlikni saqlash, ta’lim va madaniy xizmatlar tarmoqlari sanoat korxonalari bilan parallel rivojlangan bo‘lsa-da, ularning sifati va doirasi markaz tomonidan belgilangan normalarga bog‘liq edi. Shu sababli, ishchi-xodimlar o‘rtasida ijtimoiy kafolatlar tizimi muntazam o‘zgarib, ko‘p hollarda mavjud ehtiyojlarga moslashtirilmadi. Masalan, sovet davrining so‘nggi yillarida “Paxta ishi” va “O‘zbeklar ishi” kabi siyosiy bosimlar ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid soldi, ishsizlik va motivatsiyaning pasayishiga olib keldi. Shu bilan birga, ustuvor davlat iqtisodiy rejalari va sanoat quvvatlarining diversifikatsiyasi qaramay, Samarqand viloyati mustaqillikkacha bo‘lgan davrda respublika iqtisodiyotidagi eng yirik eksportyorlardan biri bo‘lib qoldi. Sovet texnologiyalari asosida eksport qilingan mahsulotlar va mavjud infratuzilma viloyatni mintaqaviy integratsiyaning muhim nuqtasiga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cucciolla Riccardo Mario. Legitimation through Self-Victimization: The Uzbek Cotton Affair and Its Repression Narrative (1989- 1991) // Cahiers du Monde russe. - 2017. - Vol. 58, No. 4. - P. 639- 668.
2. Ivanov S.P., Smirnov V.G. Сельское хозяйство и промышленность СССР: статистический анализ. - Москва: Агропромиздат, 1985. - С. 120.
3. Kozlov A.N., Fedorov V.M. Экономика промышленности и сельского хозяйства СССР: аналитические отчеты. - Москва: Экономика, 1987. - С. 88.
4. Norling N. Myth and Reality: Politics in Soviet Uzbekistan: PhD dissertation. - Baltimore, MD: Johns Hopkins University, 2014. - 353 p.
5. Norling N. Myth and Reality: Politics in Soviet Uzbekistan: PhD dissertation. - Baltimore, MD: Johns Hopkins University, 2014. - P. 213.
6. O‘zbekiston tarixi (Samarqand tarixi). IX jild. - B. 337.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), 244-fond, 79-ro‘yxat, 265-ish, 90-varaq.
8. Paramonov V., Strokov A. Disintegration of the USSR and Its Consequences for Uzbekistan: Economic and Social Spheres. - Conflict Studies Research Centre. - Central Asian Series. - 06/11(E). - April 2006. - P. 4.
9. Радио Озоди. Узбекская интеллигенция требует наказать Гдляна и ... // Радио Озоди. - 04.05.2018. - («1989 йилда ... Виктор Илюхин ...»).
10. Rakhmatullaev Sh. M., Salimov Sh. Yu. Uzbekistan in the Late 1980s and Early 1990s: Socio-Economic Consequences of Soviet Modernization. - P. 2871.
11. Samarqand viloyat davlat arxivi, 660-fond, 1528-ro‘yxat, 265-ish, 78-varaq.
12. Tukhtaeva R. Economic Life in Uzbekistan in the 60- 80s of the 20th Century // World Bulletin of Social Sciences. … - P. 101.
13. Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет Советской власти: Юбилейный статистический ежегодник. - Ташкент: «Узбекистан», 1977. - С.56.

TARIX FANINING MA’NAVIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

G‘aniyev Kamol G‘aniyevich
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
kamalidinganiyev1947@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada tarix fanining yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarixiy bilimlar orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati kabi muhim fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarix ta’limi jarayonida tarbiyaviy ta’sirchanlikni oshirishning zamonaviy usullari, innovasion pedagogik yondashuvlar va amaliy mexanizmlari yoritiladi. Muallif tomonidan tarix fanini o‘qitishda ma’naviy tarbiyani kuchaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tarix fani, ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, tarix ta’limi, innovasion usullar, pedagogik yondashuv, yoshlar tarbiyasi, fuqarolik mas’uliyati

Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari, axborot makonining kengayishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ta’lim tizimining, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni beqiyosdir. Xususan, tarix fani yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani shakllantirish, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati kabi muhim fazilatlarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarix fani nafaqat o‘tmish voqea-hodisalarini o‘rganish, balki ularni tahlil qilish, saboq chiqarish va zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatini ham beradi. Shu jihatdan, tarix ta’limi orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik va ma’naviy barkamollikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya masalalari Sharq mutafakkirlarining doimo diqqat markazida turgan. Moziyda yosh avlodning tarbiyasi masalasini o‘z asarlarida chetlab o‘tgan biron-bir mutafakkir, faylasuf, shoir tarixchini topish qiyin. Har bir tarixiy davrda ushbu muammoga atab ko‘plab asarlar bitilgan.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy “Baxt-saodatga erishuv haqida”nomli risolasida insonning xulq-odob, kasb-hunar egallashi ta’lim

va tarbiya orqali amalga oshirishni uqtirar ekan, “ta’lim” degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, “tarbiya” esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish deganidir” **[1]** -deb yozgan edi.

Bugungi texnogen sivilizasiya insonning ilmiy- intellektual salohiyati bilan birga uning texnikaviy ijodkorligi va iste’dodining eng mukammal, yetuk ko‘rinishida namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnika imkoniyatlari, yuksak darajadagi texnologik jarayonlar, inson aqlini shoshirib qo‘yayotgan aqlli mashinalar faoliyati - bularning barchasi inson tafakkuri qudratining dunyoni anglash, uni o‘zlashtirish va o‘zgartirishga qanchalik chuqur singib borayotganligi belgisidir.

Albatta ushbu natijalarning barchasi inson texnik ijodkorligi va qolaversa, texnologik tafakkurining yuksakligidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda masalaning muammoli jihatini quyidagicha bayon qilish o‘rinli bo‘lar. Yuksak texnika va texnologiyalar ildam rivojlanib, turmushimizning barcha sohalariga singib borayotgan ekan, biz o‘z faoliyatimizning biror-bir sohasini ushbu texnik taraqqiyotning yutuqlarisiz tasavvur qila olmas ekanmiz, bizning ijtimoiy, aqliy ijodiy faolligimiz jumladan, nutq madaniyatimiz, badiiy va ilmiy ijod ana shu texnik ijodkorlik soyasida qolib ketmayaptimikin? Texnika yutuqlariga tez moslashuv, ulardan foydalanishi va qo‘llash mahorati yoshlarimizning mustaqil dunyoqarashi, erkin tafakkuri va mushohada qobiliyatiga tahdid solmaydimi?

Ayni shu ma’noda barcha yoshlarimizni qamrab olgan ta’lim tizimi, xususan, o‘rta- maxsus ta’lim tizimida yoshlarning dunyoqarash erkinligini mustahkamlashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishga jiddiy e’tibor qaratilayotganligi ayni muddaodir.

Shubhasiz, hozirgi davr taraqqiyoti mezonlari aqliy qobiliyat, ilmiy salohiyat va albatta, ma’naviyat yuksakligi bilan belgilanadi. Ushbu mezonlar mushtarikligini ta’minlab, uni ezgu maqsad sari yo‘llovchi milliy g‘oyaga ehtiyoj hamisha xalq ruhida aks etmog‘i lozim. Ayni ana shu ehtiyoj *“Oldimizga qo‘yilgan ulkan vazifalarini amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur”*[**2**] ekanligiga undaydi.

Tarix fani mutaxassislari, o‘qituvchilar ayni shu haqiqatni anglab olishlari zarur va muhimdir. Qolaversa, shu sohada ta’lim-tarbiya beruvchi har bir pedagog - murabbiy o‘z mehnatining samarasini o‘quvchi yoshlarimizning quyidagi aqliy qobiliyati, bilim va malakasida ko‘rishi maqsadga muvofiqdir:

- har bir o‘quvchining mustaqil, erkin fikrlashi doirasida atrof borliqda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarga munosabat bildirish, kechayotgan ijtimioiy jarayonlarni, mavjud muammolarni tahlil qilish orqali ularga baho berish ko‘nikmasini rivojlantirish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmun mohiyatini to‘liq anglagan holda ularga sodiqlik, vorisiylik va ijodkorlik ruhida ta’lim - tarbiya olishlariga shart-sharoit yaratish;

- bilimi, tafakkuri, o‘z mustaqil fikri va iste’dodi bilan o‘zligimizga, milliyligimizga, tinchlik va hamjixatligimizga, mustaqillik tufayli qo‘lga kiritgan erkimiz va kelajagimizga tahdid soluvchi har qanday buzg‘unchi, yot g‘oyalarga qarshi tura olish qobiliyatining shakllantirish va h.k.

Mavzumiz mazmunidan kelib chiqib, biror-bir fan yoki ta’lim sohasiga ortiqcha baho bermagan holda ta’kidlash o‘rinliki, ta’lim - tarbiyaviy yo‘nalishda o‘z maqsad va vazifalarini talaba - yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash madaniyati, ijtimoiy faolligi va hayotiy pozisiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy fanlar o‘z mazmuniga monand mutaxassislik bilimlarining sifat samaradorligi va ijtimoiy yo‘nal-tirilganligini mutaxassis ongiga singdirib, uning ma’naviy mas’uliyatini tarbiyalaydi.

Yana bir isbot talab qilmas haqiqat shuki, biz milliy yuksalish sari aniq maqsad va vazifalarni belgilab olgan ekanmiz. *“Buni uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak* [**3**]. Prezidentimiz 2020-yilni “Ilm ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlashni taklif qilar ekan, bundan ko‘zlangan maqsad “*Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilimi, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqabatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish*” **[4]**ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, f fani yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim va ta’sirchan omillardan biri hisoblanadi. U o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani shakllantirish, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarixiy bilimlar asosida shaxsda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va voqealarga xolisona baho berish qobiliyatlari shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarix ta’limi jarayonida ma’naviy-tarbiyaviy ta’sirchanlikni oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, darslarni interaktiv usullar asosida tashkil etish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un holda yetkazish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarix fanining mazmunini boyitish, uning amaliy yo‘nalishini

kuchaytirish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Shu nuqtayi nazardan, tarix fanining ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatidan to‘liq foydalanish ta’lim tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Bu esa o‘z navbatida barkamol, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishish haqida. Risola. - T.: 1975.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaat-nomasi. // “Xalq so‘zi”, 2018 yil, 29 dekabr. № 271-272 (7229-7230)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaat-nomasi. // https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaat-nomasi. // “Xalq so‘zi”, 2020 yil, 25 yanvar. №19 (7521)

GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASINI O‘QITISH ZARURIYATI

Karimov Sayimnazar Karimovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, falsafa fanlari doktori,
Qarshiyeva Rayxon Raxmatovna,
SamISI MKP-25-1 guruh magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada global muammolar falsafasini o‘qitishning dolzarbligi va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda ekologik inqiroz, ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy tanazzul va global xavfsizlik kabi muammolarning keng ko‘lamda kuchayib borayotgani ta’lim tizimida falsafiy yondashuvlarni chuqur o‘rganishni talab etayotgani asoslanadi. Maqolada talabalarda tanqidiy fikrlash, mas’uliyat hissi va global dunyoqarashni shakllantirishda global muammolar falsafasining o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ushbu fanni o‘qitish usullari va uning tarbiyaviy ahamiyati bo‘yicha ilmiy xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar:global muammolar, globallashuv, falsafa ta’limi, ekologik inqiroz, ijtimoiy muammolar, global xavfsizlik, barqaror rivojlanish, tanqidiy fikrlash, dunyoqarash, ma’naviy tarbiya, insoniyat muammolari, ta’lim tizimi, falsafiy tahlil.

Insoniyat taraqqiyoti o‘zining boshidan murakkab va ziddiyatli davrlarni kechirmoqda. Bu bir tomondan, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini globallashuvi integrasiyalashuvi, kommunikasiya jarayonlarining keng quloch yoyishi va chuqurlashuvi bilan ifodalandi.

Darhaqiqat, xalqaro miqyosda ijtimoiy xayotning barcha sohalaridagi globallashuv jarayonlari insoniyatning tinch-totuv yashashi va taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilishiga xizmat qilib, yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi bilan birgalikda, dunyo taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan ijtimoiy muammolarni, jumladan, demografik, ekologik, energetik, oziq-ovqat, suv va axloqiy muammolarni hamda demografik rivojlanishni izdan chiqaradigan va insoniyat birligiga rahna soladigan g‘oyaviy yo‘nalishlarni vujudga kelishiga hamda u yoki bu millat, mamlakatni tanlagan yo‘lidan chalg‘itishga uni burib yuborishga qaratilgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar va informasion xurujlarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, bugun dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi ya’ni ularning butun kurrai-zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda.

Zero, hozirgi davrga kelib, ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmas qudratli targ‘ibot kuchlari, demokratik rivojlanishni izdan chiqaradigan, xalqlar va millatlar tinchligiga rahna soladigan xavf-xatar hamda tahdidlar har tomondan qurshab turganligi barchamizni befarq qoldirmasligi lozim.

Butun bashariyatga rahna solayotgan tahdidlarning O‘zbekistonning buyuk kelajagiga ham ta’sirini aql-idrok bilan anglab yetish, masalaga zamon talablariga mos keladigan darajada yondashgan holda munosabatda bo‘lish va hal qilishga kirishish mazkur muammolar yechimini topishning zarur shartidir.

Umuman olganda, insoniyat uchun jiddiy tahdidga aylanayotgan muammolar girdobida yashashdek taqdirga mahkum bo‘lish asoratlari ustida jiddiy o‘ylab ko‘rishni, nazariy va amaliy bilimlar manbaini yaratishga bog‘liq ekanligini shart qilib qo‘yadi. Bu esa o‘z navbatida muammoni bir mamlakat, mintaqa davlatlari doirasida emas balki butun jahon miqiyosida, dunyo davlatlarining bevosita ishtiroki asosida erishish mumkinligini hayotning o‘zi taqazo qilmoqda. Ana shu yo‘nalishda XX asrning ikkinchi yarmida global muammolar falsafasi oqim sifatida paydo bo‘ldi. U hozirgi insoniyatning yashab qolishi uchun rivojlanish muammolarini o‘tkir ziddiyatli muammolarning manbai va namoyon bo‘lishi, rivojlanish tendensiyalari va ularni hal qilishning yo‘l va vositalari haqida fikr yuritishga yo‘naltirilgandir. Hozirgi insoniyat oldida turgan global muammolar uning yashab qolishi uchun zarur bo‘lgan murakkab qarama-qarshiliklar va ularni hal qilishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Global muammolar falsafasi doirasida butun dunyo mamlakatlari va halqlarining taqdiri umumiy va yakdil ekanligi tushuniladi. Bu esa insoniyat go‘yo yagona kemada suzayotgan va birgalikda yashab qolish yo‘llarini izlayotgan va topayotgan taqdirlar birligiga o‘xshaydi. Butun insoniyatning mavjudligi yagona organizm ekanligi Sharq mutafakkirlari tomonidan ancha ilgari bayon qilingan edi. Zero, shayx Sa’diyning mana bu to‘rtligi BMTning qarorgohi

peshdoqiga forsiy tilda bitilganligi bunga yaqqol misoldir:

Bani odam a’zoyi yakdigarand
Ki dar ofarinish zi yak gavharand,
Chu uzve ba dard ovarad ro‘zgor
Digar uzvro namonad qaror

Mazmuni:

Odamzod bir tananing a’zolaridir. Ularning kelib chiqishi bitta marvariddandir. Agar uning biror a’zosiga shikast yetsa, boshqa a’zolari notinch bo‘ladi.

Global muammolar falsafasining jadal rivojlanishi XX asrning 60 yillaridan boshlandi. Ana shu davrdan boshlab, insoniyat kelajagining nazariy modellarini yaratish faollashdi. 1968 yilda 100 dan ortiq mamlakatlarning olimlari va mutaxassislarni birlashtiruvchi xalqaro nohukumat tashkilot Rim klubi tashkil topdi. Bu klubga taniqli faylasuflar Dj.Forster, D.Medauz, M.Mesarovich kabi olimlar ham kirgan edi. Uning birinchi prezidenti italyan olimi Aurelli Pechchei (1908-1984 yy) edi. Aslida italyan iqtisodchisi Aurelli Pichchei tomonidan ilmiy texnika inqilobi davrida insoniyat taraqqiyotini tadqiq etish maqsadida tashkil etilgan. Rim klubi a’zolari o‘z ma’ruzalarini va e’tiborini global masalalarga qaratdi va bu qizg‘in munozaralarga sabab bo‘ldi. Ular asosan muqobil loyihalarga qaratilgan bo‘lib, ular rivojlanish muammolari va rivojlanayotgan mamlakatlar kelajagiga bag‘ishlangan. Klub faoliyatining asosiy yo‘nalishlari yangi insonparvarlik tafakkurini shakllantirish, umumbashariy tizimni yangicha idrok etish, bu idrokni butun dunyo xalqlariga yoyish, umuminsoniy muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlik sohasidagi yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Aurelli Pichchei klubning asosiy muammosi hozirgi dunyoda insonning mavjudligi va ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish yo‘llarini izlashdan iborat etib belgilanganligini ta’kidlaydi. Klub a’zolarining fikricha, insoniyatning yashab qolishi va uning kelajagi insoniy sifatlarni rivojlantirish va yetuklashtirish yo‘llari orqali yangi insonparvarlik mezonlari asosida shakllantirilgan “Insoniyat inqilobi” orqali amalga oshish mumkin.

Aurelli Pichchei o‘zining “Insoniy sifatlar” kitobida kelajakda insoniyatning yashab qolishi insonlarning ma’naviy dunyosini yetuklashtirish orqali “insoniyat inqilobi” yo‘li orqali mumkin, degan o‘zining konsepsiyasini ilgari suradi. Insonning intellektual qudrati birinchi navbatda uning madaniy evolyusiyasi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, dunyoda mavjud bo‘lgan global muammolar ma’lum darajada ilmiy texnika va ma’naviy axloqiy taraqqiyot nomuvofiqligining namoyon bo‘lishi natijasi sekinlik bilan amalga oshadi.

Aurelli Pichcheining ta’kidlashicha, hozir eng asosiy muammo insoniy sifatlarni yetuklashtirish zarurligidir. Bu esa, insonning o‘zida uning fikr va

psixologiyasi tizimida, talab va imkoniyatlari majmuida hamda xarakter ehtiyojlarida madaniy-ruhiy inqilobni amalga oshirish talab qilinadi. Bu inqilob natijasida insonni transformasiyasini ta’minlashga chaqiradigan madaniy evolyusiyani amalga oshirishni va shu orqali ”yangi insonparvarlik”ni shakllantirishni nazarda tutadi. Eski insonvarlik deganda ular inson tomonidan tashqi dunyoni zabt etishni anglatsa, yangi insonparvarlikning mohiyati ana shu dunyo bilan murosaga kelib zo‘ravonlikka asoslanmagan garmonik birlik yo‘nalishlarini axtarishdan iboratdir.

Ko‘rinib turibdiki, global muammolarni insoniyat taqdiriga ta’sirini o‘rganuvchi va belgilovchi turli xil oqimlar, g‘oyalar va konsepsiyalarning paydo bo‘lishi jumladan: insoniyatning yashab qolish muammolari, insoniyatning hozirgi dunyoda mavjudlik muammolari, insoniyat inqilobi, entropiya, madaniy evolyusiya, insoniy sifatlarni yetuklashtirish, yangi gumanizm, insonning tranformasiyalashuvi, har qanday hayotga yordam berish, yangi va eski gumanizm, insonda insoniylikning yemirilishi, yangicha siyosiy tafakkur, rivojlanishning turg‘un nazorat qilinuvchi tipi kabi g‘oyalarning paydo bo‘lishi global muammolarning falsafiy asoslarini o‘rganishni shart qilib qo‘ymoqda. Global xarakterga ega bo‘lgan bu muammolarni talabalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan chuqur o‘rganilishi ularning nafaqat milliy-hududiy, mintaqaviy balki jahon miqiyosida sodir bo‘layotgan insoniyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar bilan hamnafas bo‘lib, ularni o‘rganish, tahlil qilish, qiyoslash va shu orqali o‘zlarining hayot pazisiyalarini tanlash va topib olish imkoniyatlarini yaratadi. Shu nuqtayi-nazardan agar mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida va jumladan, Samarqand davlat universitetida global muammolar falsafasi fan sifatida o‘rganishga kirishilsa, professor-o‘qituvchi va talabalar globallashuvning falsafiy jihatlari haqida nazariy va amaliy bilimga ega bo‘lish bilan birgalikda jahon falsafasi taraqqiyoti bilan hamnafas bo‘lgan bo‘lur edi.

Xulosa qilib aytganda, global muammolar falsafasini o‘qitish bugungi kunda ta’lim tizimining muhim va ajralmas qismiga aylanmoqda. Chunki zamonaviy dunyoda yuzaga kelayotgan ekologik, ijtimoiy va ma’naviy muammolarni anglash va ularga yechim topishda falsafiy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanni o‘qitish orqali yoshlarda tanqidiy fikrlash, keng dunyoqarash va mas’uliyat hissini shakllantirish mumkin. Shuningdek, global muammolarga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirish jamiyat barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Demak, global muammolar falsafasini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. Toshkent, Muharrir nashriyoti, 2009.
2. Paxruddinov Sh. Taraqqiyotga tahdid.: nazariya va amaliyot. Toshkent, Akademiya, 2006.

3. Safarova N. Terrorizm manbalari, maqsadi va globallashuv jarayoni. Toshkent, Fan. 2006.
4. Karimov S. Ijtimoiy taraqqiyot: muammo va yechimlar. Samarqand, “Zarafshon”, 2014.
5. To‘rayev B. Ontologiya, Gnosiologiya, Logika va fan falsafasi muammolari. Toshkent, 2015.
6. Qiyomiddin Nazarov. O‘zbek falsafasi. Toshkent, 2013.
7. Qiyomiddin Nazarov. Falsafa asoslari. Toshkent, 2012.
8. Sinergetika mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo‘lishi. Toshkent, 2017.
9. Falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari. Toshkent, 2010.
10. Inson, uning e’tiqodi, jamiyat, koinot:taraqqiyoti muammolari va hozirgi zamon. Ilmiy-nazariy seminar materiallari. Toshkent, 2015.

ZAMONAVIY JAMIYATDA FALSAFIY TAFAKKUR MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI

Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich,

Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunoslik, falsafa kafedrasi dotsenti, fanlasa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda falsafiy tafakkur madaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada falsafiy tafakkur madaniyatining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy institutlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ta’lim tizimi, kommunikativ makon va intellektual muhitning determinantlik xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: falsafiy tafakkur madaniyati, ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar, falsafiy refleksiya, ijtimoiy ong, dunyoqarash transformatsiyasi, epistemologik yondashuv, aksiologik tizim, intellektual madaniyat, tanqidiy tafakkur, kreativ fikrlash.

Insoniyat sivilizaTsiyasining hozirgi davri xususiyatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy taraqqiyot va kelajak to‘g‘risida yaxlit bilimga ega bo‘lgan holda falsafiy mushohada yuritish muhim masaladir. Shu ma’noda atrof-borliq, uning turli ko‘rinishlari, olamning paydo bo‘lishi, substansiya hayot oliy qadriyat ekanligi, borliq imkoniyatlari, cheksizlik va cheklanganlik haqida ilmiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Inson o‘zining bevosita borlig‘ini, mavjudligini uni qurshab turgan dunyo bilan doimiy aloqada amalga oshiradi. Dunyoda yashash va optimal moslashish uchun inson, uning aql-idroki va hislari tashqariga, ya’ni dunyoni bilishga qaratilgan. Odamlar qadim zamonlardayoq o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi narsa va hodisalarning mazmun-mohiyatini o‘rganganlar, ularning qadri va ahamiyati

to‘g‘risida fikr yuritganlar. Zamonlar o‘tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi masalalar ko‘lami kengaygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan.

Inson o‘zining bevosita borlig‘ini, mavjudligini uni qurshab turgan dunyo bilan doimiy aloqada amalga oshiradi. Dunyoda yashash va optimal moslashish uchun inson, uning aql-idroki va hislari tashqariga, ya’ni dunyoni bilishga qaratilgan. “Falsafa dunyo mohiyatini anglashga intiladi, zaruriyatning bema’niligiga qarshilik ko‘rsatadi. Chin falsafaning asl niyati mohiyatning mavjudligini va shu mohiyat haqiqatini anglashdir, bema’nilik orqali mohiyatga yorib kirishdir”[1]. Chunki, insonning dunyoni o‘zlashtirishi birinchi navbatda uni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilinishiga bog‘liq. Shunga ko‘ra, insonning bilish jarayonini tabiiy, tarixiy va ijtimoiy jihatlar ajratilib ko‘rsatiladi. Maqsad bilishning maqsadi va vazifasi turli hodisalarni o‘rganish yo‘li bilan ularning chuqur, turg‘un, belgilovchi tomonlari va qirralarini, ularning mohiyatini ochib, haqiqatni anglab olishdan iborat.

Bilish jarayonida odamning faolligi turli vositalar orqali yangilik yaratish va unumli ish ko‘rishga tomon yo‘naltirilgan. Inson bilish asosida turli asboblar, uskunalar yasaydi, ilmiy nazariyalar, modellar, belgilar tizimi, timsollar, ideal obyektlar va shu kabilarni yaratadi. Lekin, shu bilan birga o‘zining qobiliyatlari olamni bilishda qanchalik imkoniyatlarga ega ekanligiga, bu sohada ko‘proq natija va yutuqlarga erishish uchun yana nimalar qilishi lozimligi masalasiga ham alohida e’tibor beradi.

Hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ong taraqqiyoti va insoniyatning dunyoning siru - asrori qaroriga tobora chuqurroq kirib borishi XXI asrga xos bo‘lgan intellektual salohiyat ustuvorligi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, dunyo va borliq hodisalari to‘g‘risida falsafiy dunyoqarashning shakllanishi unda kechayotgan jarayonlarga tabiiy-ilmiy bilimlar asosida yondashuv bilan belgilanadi.

Shu ma’noda, falsafiy fanlarning tushuncha va kategoriyalari inson bilish faoliyatida metodologik ahamiyatga ega ekanligini belgilash quyidagi muammolarni aniqlash imkonini beradi:

- obyektiv reallikda sodir bo‘layotgan narsa va hodisalarning ichki sababiy bog‘lanishlari haqida mulohaza yuritish;
- dunyoda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlar ichki va tashqi omillar ta’siri natijasi ekanligi haqida aniq xulosa chiqarishga intilish;
- ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘layotgan borliq ichki sabab, mazmun, mohiyat, imkoniyatning tashqi ifodasi ekanligi haqida qat’iy nuqtayi nazarga ega bo‘lish;
- har bir obyekt umumiylik, xususiylik va alohidalik belgilarning yaxlitligi holatida mavjud bo‘lishi to‘g‘risida ilmiy bilimga ega bo‘lish;

- narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi ichki zaruriyat va sababiylik sifatida qonuniy tarzda namoyon bo‘lishini isbotlab bera olish;
- falsafa kategoriyalarining ilmiy bilishdagi metodologik ahamiyatini belgilab berish.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, borliq, harakat, zamon to‘g‘risida falsafiy umumlashtiruv qay darajada rivojlangan bo‘lsa, jamiyat falsafiy tafakkur madaniyati ham shu holatda bo‘ladi. Bu hol esa jamiyat va shaxs e’tiqodini shakllantirish, e’lon qilish madaniyatiga borib tutashadi. Birinchi Prezident Islom Karimovning ta’biri bilan aytganda; “Falsafa barcha fanlarning otasi.Falsafani bilmaydigan odam-medisina yoki ta’lim, san’at yoki madaniyat sohasi vakili bo‘ladimi,bundan qat’iy nazar-hayotning, o‘z kasbining ma’no mazmunini yaxshi tushunmaydi”[2].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, talaba-yoshlarga dunyo va uning borlig‘i haqida to‘liq bilim berish, aniq tushuncha va tasavvurlar hosil qilish asosida falsafiy mushohada qilish va undan ijodiy foydalana olish kishilarga dunyoni o‘zlashtirish va o‘zgartirish yo‘llarini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos qonuniyat sifatida o‘rganish orqali quyidagilarga erishish mumkin;

- keyingi davrlarda fan va amaliyot rivoji natijasida dialektika tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining, ulardagi aloqadorlik va bog‘lanishlarning eng umumiy qonunlari haqidagi fan sifatida maydonga chiqdi;
- borliqdagi barcha narsalar, hodisa va jarayonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular umumiy aloqadorlikda bir-birlariga ta’sir va aks ta’sir qilib turadilar, bir-birlarini taqozo qiladilar;
- dunyoning o‘zgaruvchanligi, undagi narsa va hodisalarning bir-birlariga bog‘liqligi to‘g‘risidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi insoniyatning dunyoni bilishi jarayonida juda katta sifatiy o‘zgarish bo‘lgan;
- tabiat, jamiyat va inson tafakkuridagi aloqadorliklar va rivojlanishlarning umumiy qonuniyatlari haqida bizga to‘g‘ri yo‘nalish berib, dunyoni o‘zlashtirish va o‘zgartirish yo‘llarini ko‘rsatib olamning haqiqiy ilmiy manzarasini yaratib, kishilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бердяев Н. “Фалсафа - эркин ижоддир” Рус тилидан Виктор Алимасов таржимаси // - “Тафаккур” журнали, 2018 йил 3-сон.
2. Karimov I.A. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va sadoыatini ro‘yobga chiqarish - bugungi kunning ustuvor vazifasidir // Inson, uning va erkinliklari - oliy qadriyat. - T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2006. - B.117.
3. Шермухамедова Н.А. Фалсафага кириш.-Т.: Ношир, 2012. 320 б.
4. Керимов, Т. Х. Современные проблемы философии : учебное пособие. - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2020.— 150 с.

TIBBIYOT PEDAGOGIKASI VA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA DOIR G‘OYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Zakirova Feruza Gulyamovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tibbiyot ta’limida insonparvarlik, kasbiy etika, ma’naviy mas’uliyat, rahm-shafqat va deontologik tamoyillarni shakllantirish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning talabalar shaxsiy va kasbiy kamolotiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot pedagogikasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, tibbiy deontologiya, insonparvarlik, kasbiy etika, ma’naviyat, rahm-shafqat, tibbiy ta’lim.

Zamonaviy jamiyatda tibbiyot sohasi nafaqat inson salomatligini muhofaza qilish, balki yuksak ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, texnologiyalar taraqqiyoti va axborot oqimining kuchayishi tibbiyot xodimlaridan nafaqat yuqori kasbiy bilim, balki ma’naviy barkamollik, insonparvarlik va axloqiy mas’uliyatni ham talab etmoqda. Shu jihatdan tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot pedagogikasi bo‘lajak shifokor va tibbiyot mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bir qatorda, ularda insonparvarlik, rahm-shafqat, halollik, burch va mas’uliyat kabi ma’naviy fazilatlarni shakllantirishga ham qaratilgan. Chunki tibbiyot sohasida inson hayoti va salomatligi bilan bog‘liq qarorlar qabul qilinishi mutaxassisdan yuksak axloqiy madaniyat va kasbiy etikani talab qiladi. Bugungi kunda tibbiyot ta’limida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalardan foydalanish talabalarda kasbiy kompetentlik bilan birga, inson qadriga hurmat, bemorlarga nisbatan mehr-oqibat va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalardan samarali foydalanish bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarining kasbiy va shaxsiy kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Tahlillar davomida aniqlanishicha, zamonaviy tibbiyot sohasida yuqori darajadagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan bir qatorda insonparvarlik, mehr-oqibat, kasbiy mas’uliyat va yuksak axloqiy madaniyat ham shifokor faoliyatining asosiy mezonlaridan biri

hisoblanadi[1]. Chunki tibbiyot sohasi bevosita inson hayoti, uning salomatligi va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, tibbiyot xodimlarining ma’naviy qiyofasi va axloqiy fazilatlari jamiyatdagi ishonch muhitini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Tibbiy ta’limida insonparvarlik va ma’naviy tarbiyaga asoslangan yondashuvlar talabalarda kasbiy faoliyatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirishi aniqlandi. Ayniqsa, inson hayoti va qadr-qimmatini ulug‘lash, bemorlarga nisbatan rahm-shafqat va mehr-oqibatli munosabatda bo‘lish, kasbiy burchni anglash hamda tibbiy etika va deontologik tamoyillarga rioya qilish kabi fazilatlar bo‘lajak shifokor shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ma’lum bo‘ldi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy-axloqiy tarbiya tibbiyot talabalarida nafaqat kasbiy kompetentlikni, balki vijdonlilik, halollik, bag‘rikenglik va insonparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni ham rivojlantiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari ma’naviy-axloqiy tarbiya talabalarning psixologik barqarorligi va kommunikativ madaniyatini shakllantirishda ham muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Chunki tibbiy faoliyat jarayonida bemor bilan muloqot qilish, uning ruhiy holatini tushunish, hamdardlik bildirish va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash shifokorning kasbiy mahorati bilan bir qatorda uning ma’naviy yetukligiga ham bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tibbiyot ta’limida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalardan foydalanish talabalarda stressga chidamlilik, muloqot madaniyati va kasbiy mas’uliyatni kuchaytirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tahlillar davomida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy tarbiya usullarini tibbiyot ta’limi jarayoniga integratsiya qilish talabalarning inson salomatligiga nisbatan mas’uliyatli munosabatini kuchaytirishi ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Beruniy kabi Sharq mutafakkirlarining insonparvarlik, shifokor odobi va ma’naviy poklik haqidagi g‘oyalari tibbiy ta’lim jarayonida talabalarning axloqiy dunyoqarashi va kasbiy madaniyatini rivojlantirishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari tibbiyot pedagogikasida innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirishini ko‘rsata[2]di. Ayniqsa, keys-metodlar, simulyasion mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatli darslar va kommunikativ treninglar orqali talabalarda kasbiy etika, rahm-shafqat va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish imkoniyatlari kengayishi aniqlandi. Bu esa tibbiy ta’limida nazariy bilim va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

[1] Е.Ю.Васильева. Педагогика в клинической практике врача: учебное пособие / Архангельск: Изд-во Северного государственного медицинского университета, 2017. - 118 с.

[2] Педагогика в медицине: учебное пособие для студентов учреждений высш. проф. образования / Н.В.Кудрявая, Е.М.Уколова, Н.Б.Смирнова, Е.А.Волошина, К.В.Зорин; под ред. Н.В.Кудрявой. - 2-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия», 2012. - 320 с.

Tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratish bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini nafaqat yuqori malakali kadr, balki ma’naviy barkamol, mas’uliyatli va insonparvar shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan tibbiyot ta’limi tizimida ma’naviy-axloqiy g‘oyalardan samarali foydalanish sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish va jamiyatda inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida baholandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot ta’limi jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratish bo‘lajak shifokorlarda bemorga nisbatan mas’uliyat, hamdardlik, bag‘rikenglik va kasbiy burch tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi[1]. Chunki shifokorning kasbiy faoliyati nafaqat davolash jarayoni, balki bemorning ruhiy holatini tushunish, unga ma’naviy madad berish va insonparvar munosabatda bo‘lishni ham talab etadi. Shu jihatdan ma’naviy-axloqiy tarbiya tibbiy muloqot madaniyatini shakllantirish, bemor va shifokor o‘rtasidagi ishonch muhitini mustahkamlash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot sohasida ma’naviy qadriyatlarga tayangan ta’lim muhiti talabalarning psixologik barqarorligi va stressga chidamliligini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarda shifokorning vijdonliligi, sabr-toqati va ma’naviy yetukligi uning to‘g‘ri qaror qabul qilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyani kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida tashkil etish zarurligi aniqlandi.

Ayniqsa, Sharq mutafakkirlarining insonparvarlik, ma’naviy poklik va axloqiy kamolot haqidagi g‘oyalaridan foydalanish tibbiyot pedagogikasining ma’naviy asoslarini mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Abu Ali ibn Sino o‘zining tibbiy-falsafiy qarashlarida shifokor faqat bilimli mutaxassis emas, balki rahmdil, sabrli, halol va yuksak ma’naviyatli inson bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan. Uning shifokor odobi, inson salomatligi va ma’naviy poklik haqidagi qarashlari bugungi tibbiy ta’lim tizimida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuningdek, tahlillar tibbiy ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy tarbiya usullaridan foydalanish talabalarda inson qadriga hurmat, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik burchi tuyg‘usini shakllantirishini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv bo‘lajak tibbiyot xodimlarini nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki ma’naviy barkamol va insonparvar shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Bugungi globallashuv, raqamlashtirish va axborot oqimi kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarni kasbiy bilim bilan bir qatorda ma’naviy barkamollik,

[1] И.В.Новгородцева. Педагогика в медицине: учебное пособие для студентов медицинских вузов: – 4-е изд. – Москва: ФЛИНТА, 2022. – 106 с.

bag‘rikenglik, insonparvarlik va axloqiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash tibbiyot pedagogikasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ma’naviy yetuk va vijdonli shifokor jamiyat salomatligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy g‘oyalardan foydalanish insonparvar tibbiy muhitni shakllantirish va tibbiy ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalardan samarali foydalanish bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy tibbiyot sohasida faqat yuqori darajadagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarning o‘zi yetarli bo‘lmay, insonparvarlik, rahm-shafqat, kasbiy vijdon va ma’naviy mas’uliyat kabi yuksak insoniy fazilatlar ham shifokor faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish jamiyatda inson qadrini ulug‘lash va sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tibbiyot pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalardan foydalanish bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini ma’naviy jihatdan yetuk, kasbiy mas’uliyatni chuqur anglaydigan va inson salomatligiga yuksak qadriyat sifatida yondashadigan shaxslar etib tarbiyalashning muhim pedagogik asosi hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur yondashuv tibbiyot ta’limi tizimini takomillashtirish, insonparvar tibbiy muhitni shakllantirish va jamiyat salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Васильева Е.Ю.. Педагогика в клинической практике врача: учебное пособие / Архангельск: Изд-во Северного государственного медицинского университета, 2017. - 118 с.

2. Педагогика в медицине: учебное пособие для студентов учреждений высш. проф. образования / Н.В.Кудрявая, Е.М.Уколова, Н.Б.Смирнова, Е.А.Волошина, К.В.Зорин; под ред. Н.В.Кудрявой. - 2-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия», 2012. - 320 с.

3. Новгородцева И.В. Педагогика в медицине: учебное пособие для студентов медицинских вузов: - 4-е изд. - Москва: ФЛИНТА, 2022. - 106 с.

MAMLAKATIMIZNING ENG YANGI TARIXIDA YANGI DAVR MILLIY UYG‘ONISH VA MUSTAQIL RIVOJLANISH

Rustamova Madina Musoqulovna
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
O‘zbekston tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: madinarustamova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy davlatchilikni tiklash va uni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish jarayonlari har tomonlama tahlil qilinadi. Xususan, mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an’analarini qayta tiklash, tarixiy xotirani tiklash va milliy o‘zlikni anglash jarayonining kuchayishi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, davlat mustaqilligining ramziy asoslarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutgan davlat ramzlarining yaratilishi hamda ularning milliy davlatchilik taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek davlatchiligi, milliy davlatchilik, mustaqillik davri, mustamlaka davri, milliy uyg‘onish harakati, tarixiy xotira, davlat ramzlari, milliy qadriyatlar, tarixiy meros, mustaqil o‘zbekiston, davlat boshqaruvi tizimi.

Kirish.

O‘zbek davlatchiligi ko‘p asrlik tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning rivojlanish jarayoni turli siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta’sirida shakllangan. Ayniqsa, yangi va eng yangi davr O‘zbekiston tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda o‘zbek xalqi mustamlaka siyosatini boshdan kechirdi, milliy uyg‘onish harakati shakllandi hamda mustaqil davlat qurish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Mustaqillik davrida milliy qadriyatlarning tiklanishi, tarixiy-madaniy merosga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi, milliy an’ana va urf-odatlarning qayta jonlanishi hamda bu jarayonlarning milliy davlatchilikni mustahkamlashdagi roli keng yoritiladi. Ayniqsa, tarixiy obidalarni asrash, milliy merosni o‘rganish va uni yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangani alohida ta’kidlanadi. Bundan tashqari, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan siyosiy, huquqiy va madaniy islohotlar asosida milliy davlatchilikning shakllanish bosqichlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Xususan, mustaqil davlat boshqaruv tizimining shakllanishi, yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi, demokratik institutlarning rivojlanishi, fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi hamda milliy davlatchilikning zamonaviy modelining shakllanish jarayoni ilmiy yondashuv asosida o‘rganiladi.

Asosiy qism.

O‘zbek davlatchiligi tarixida yangi davrning boshlanishi.

XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida tub burilish davri bo‘ldi. Bu davrda Rossiya imperiyasi hududni bosib olish siyosatini olib bordi. Natijada o‘zbek davlatchiligi mustaqil rivojlanish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi. Bu davrda mavjud bo‘lgan Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi siyosiy jihatdan mustaqil davlatlar bo‘lishiga qaramay, harbiy-texnik jihatdan Rossiya imperiyasiga nisbatan ancha zaif edi. XIX asrning 60- 80-yillarida bosib olish siyosati yakunlandi va Turkiston hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olindi.

Mustamlaka siyosati natijasida: mahalliy boshqaruv tizimi izdan chiqdi, iqtisodiyot xomashyo yetkazib beruvchi tizimga aylantirildi, milliy davlatchilik an’analari zaiflashdi, madaniy-ma’naviy bosim kuchaydi. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek davlatchiligi g‘oyasi butunlay yo‘qolmadi. Aksincha, u yangi shaklda rivojlanishni boshladi. O‘zbek davlatchiligi tarixida yangi davrning boshlanishi 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va o‘zini mustaqil suveren davlat deb e’lon qilishi bilan bog‘liq. Bu davr xalqning milliy o‘zligini tiklash, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallashning hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi.

Mustamlaka davrida o‘zbek davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari.

Mustamlaka davrida (Rossiya imperiyasi va sovet davri) o‘zbek davlatchiligi milliy suverenitetdan mahrum bo‘lgan, markazlashgan boshqaruvga bo‘ysungan va xomashyo bazasiga aylantirilgan boshqaruv tizimi edi. Bu davrda davlatchilik an’analari saqlanib qolsa-da, real hokimiyat Rossiya imperiyasi (general-gubernatorlik) yoki sovet markazi (Moskva) qo‘lida bo‘lgan, boshqaruvda rus tili va mafkurasi ustuvorlik qilgan. Mustamlaka davri o‘zbek xalqi tarixida murakkab va ziddiyatli davr hisoblanadi. Bir tomondan, siyosiy mustaqillik yo‘qotildi, ikkinchi tomondan esa yangi ijtimoiy ong shakllana boshladi. Rossiya imperiyasi Turkistonni faqat siyosiy jihatdan emas, balki iqtisodiy jihatdan ham to‘liq nazorat ostiga olishga intildi. Paxta yetishtirish keskin ko‘paytirildi va hudud xomashyo bazasiga aylantirildi. Bu esa mahalliy iqtisodiy mustaqillikni yanada zaiflashtirdi.

Biroq aynan shu davrda milliy o‘zlikni anglash jarayoni boshlanadi. Mahalliy ziyolilar:

- milliy madaniyatni saqlab qolish,
- xalqni savodli qilish,
- mustaqillik g‘oyasini tiklash
- yo‘lida harakat qila boshladilar.

Shu sababli mustamlaka davri faqat tanazzul davri emas, balki milliy uyg‘onish uchun zamin yaratgan tarixiy bosqich ham hisoblanadi.

Milliy uyg‘onish davri va o‘zbek davlatchiligi g‘oyasining tiklanishi.

XX asr boshlarida o‘zbek xalqining siyosiy ongida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davr tarixda milliy uyg‘onish davri deb ataladi. Ayniqsa, jadidchilik

harakati o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Milliy uyg‘onish davri (XIX asr oxiri - XX asr boshi) Turkistonda jadidchilik harakati orqali milliy o‘zlikni anglash, mustamlakachilikka qarshi kurash va mustaqil davlatchilik g‘oyalarini tiklash davri bo‘ldi. Jadidlar ma’rifatparvarlik, til va maktab islohoti orqali xalqni siyosiy-ijtimoiy huquqlar, birlik va davlatchilik mohiyatini tushunishga chaqirdi. Jadidlar asosiy maqsad sifatida quyidagilarni ilgari surdilar: milliy maktablar tashkil etish, xalqni savodli qilish, milliy o‘zlikni tiklash, mustaqil davlat g‘oyasini rivojlantirish.

Bu harakat nafaqat ma’rifiy, balki siyosiy harakat ham edi. Jadid ziyolilari mustaqil davlat qurish g‘oyasini ilgari surdilar. Ayniqsa, Turkiston Muxtoriyati tashkil etilishi o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim voqea bo‘ldi. Garchi bu muxtoriyat uzoq davom etmagan bo‘lsa-da, u o‘zbek xalqining mustaqil davlat qurish istagi mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Mustaqillik davri - o‘zbek davlatchiligining yangi bosqichi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishdi, mustaqillik davrida O‘zbekiston tarixida suveren, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning yangi, oliy bosqichidir. Bu davr milliy davlatchilik an’analarini tiklash, mustahkamlash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda tub islohotlar hamda xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egallash jarayoni bilan xarakterlanadi. Bu o‘zbek davlatchiligi tarixida eng muhim tarixiy voqea hisoblanadi. Mustaqillik bilan o‘zbek xalqi o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- mustaqil davlat boshqaruv tizimi yaratildi;
- yangi Konstitutsiya qabul qilindi;
- milliy valyuta joriy etildi;
- iqtisodiy islohotlar boshlandi;
- milliy madaniyat tiklandi.

Bu jarayonlar oson kechmadi. Iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy muammolar va siyosiy o‘zgarishlar mavjud edi. Shunga qaramay, mustaqil davlat qurish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Mustaqil O‘zbekiston davlatchiligining rivojlanish yo‘nalishlari

Mustaqil O‘zbekiston davlatchiligi rivojlanishi 1991-yildan boshlab suverenitetni mustahkamlash, huquqiy-demokratik asoslar (Konstitutsiya) yaratish va bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘nalishlarida shakllandi. Asosiy yo‘nalishlar: kuchli ijtimoiy siyosat, mustaqil tashqi siyosat, milliy qadriyatlarni tiklash va demokratik islohotlarni chuqurlashtirishdir. Mustaqillik yillarida o‘zbek davlatchiligi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlandi:

1) Siyosiy rivojlanish, Demokratik davlat qurish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi, parlament faoliyati kuchaytirildi, qonunchilik tizimi rivojlantirildi.

2) Iqtisodiy rivojlanish, Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni amalga oshirildi. Xususiy mulk rivojlandi, kichik biznes va tadbirkorlik qo‘llab-quvvatlandi. Sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari keng rivojlandi.

3) Ma’naviy va madaniy rivojlanish, Milliy qadriyatlar tiklandi, tarixiy meros o‘rganildi, milliy o‘zlikni anglash kuchaydi. Bu esa o‘zbek davlatchiligining mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Yangi davrda o‘zbek davlatchiligining zamonaviy bosqichi

Yangi davrda o‘zbek davlatchiligining zamonaviy bosqichi hozirgi vaqtga kelib demokratik tamoyillar, iqtisodiy islohotlar va ochiq tashqi siyosatga asoslangan. Bu davr milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro hamjamiyatda faol ishtirok etish bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston yangi rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda. Davlat boshqaruvi tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa:

- iqtisodiy liberallashtirish,
- investitsiyalarni jalb qilish,
- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish,
- turizm sohasini kengaytirish kabi yo‘nalishlar o‘zbek davlatchiligining zamonaviy modelini shakllantirmoqda.

Zamonaviy davrda o‘zbek davlatchiligining asosiy maqsadi - kuchli iqtisodiyot, barqaror siyosiy tizim va farovon jamiyat qurishdan iborat.

Mustamlaka davridan mustaqillikkacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi

O‘zbek davlatchiligi tarixini alohida bosqichlarga ajratib o‘rganish mumkin bo‘lsa-da, ular o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Mustamlaka davri milliy uyg‘onish uchun zamin yaratdi. Milliy uyg‘onish esa mustaqillik g‘oyasining shakllanishiga olib keldi. Mustaqillik esa o‘zbek davlatchiligining to‘liq tiklanishiga sabab bo‘ldi.

Shu sababli o‘zbek davlatchiligi tarixini quyidagi zanjir orqali tushuntirish mumkin: mustamlaka → milliy uyg‘onish → mustaqillik → zamonaviy rivojlanish.

O‘zbek davlatchiligi rivojlanishining tarixiy ahamiyati

Hozirgi kunda O‘zbek davlatchiligi rivojlanishi bu ming yillik an’analar (mil.avv. II ming yillikdan boshlangan) va mustaqillik davridagi demokratik islohotlarning uzviy davomi bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash, siyosiy barqarorlik va xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan huquqiy-demokratik davlat qurishda tarixiy ahamiyat kasb etadi. O‘zbek davlatchiligining yangi va eng yangi davrdagi rivojlanishi nafaqat siyosiy jarayon, balki ijtimoiy va ma’naviy jarayon ham hisoblanadi. Bu jarayon natijasida:

- milliy o‘zlik tiklandi;
- mustaqil davlat shakllandi;
- iqtisodiy mustaqillik ta’minlandi;
- xalqaro maydonda O‘zbekistonning nufuzi oshdi.

Shuningdek, bu jarayon yosh avlodning milliy g‘ururini oshirishda ham muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa

O‘zbek davlatchiligi tarixining yangi va eng yangi davri o‘z mazmuni va ahamiyati jihatidan eng murakkab, ayni paytda eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda o‘zbek xalqi mustamlaka siyosatini boshdan kechirdi, milliy uyg‘onish harakatini shakllantirdi hamda nihoyat mustaqil davlat qurishga erishdi. Shu jihatdan mazkur davrni o‘zbek davlatchiligining sinov davri, shakllanish davri va tiklanish davri sifatida baholash mumkin.

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi o‘zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Mustaqillik bilan o‘zbek xalqi o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat boshqaruv tizimi qayta shakllantirildi, yangi Konstitutsiya qabul qilindi, milliy valyuta joriy etildi, siyosiy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Eng muhimi, milliy davlatchilik an’analari tiklandi, tarixiy xotira qayta tiklandi va milliy qadriyatlar rivojlantirila boshlandi.

Mustaqillik davrida amalga oshirilgan siyosiy, huquqiy va iqtisodiy islohotlar o‘zbek davlatchiligining mustahkamlanishiga xizmat qildi. Demokratik davlat qurish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi, qonunchilik tizimi takomillashtirildi. Iqtisodiy sohada bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni amalga oshirildi, xususiy mulk rivojlantirildi, kichik biznes va tadbirkorlik qo‘llab-quvvatlandi. Bu jarayonlar o‘zbek davlatchiligining zamonaviy modelini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarning tiklanishi, tarixiy-madaniy merosga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi va milliy o‘zlikni anglash jarayonining rivojlanishi o‘zbek davlatchiligining mustahkamlanishiga xizmat qildi. Tarixiy obidalar tiklandi, buyuk ajdodlar merosi o‘rganila boshlandi, milliy bayramlar tiklandi, milliy madaniyat rivojlantirildi. Bu jarayonlar o‘zbek xalqining milliy g‘ururi va milliy o‘zligini mustahkamladi.

Yangi va eng yangi davrda o‘zbek davlatchiligi rivojlanishining asosiy xususiyati - tarixiy davomiylikdir. Mustamlaka davridan boshlangan milliy uyg‘onish harakati mustaqillik davrida o‘zining mantiqiy davomiga ega bo‘ldi. Mustaqillik esa o‘zbek davlatchiligining tarixiy an’analarini tiklash va zamonaviy davlat qurish imkoniyatini yaratdi. Shu jihatdan o‘zbek davlatchiligining yangi va eng yangi davrdagi rivojlanishi uzviy tarixiy jarayon sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek davlatchiligi tarixining yangi va eng yangi davri mustamlaka siyosatidan mustaqil davlat qurishgacha bo‘lgan murakkab, ammo izchil rivojlanish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu davrda o‘zbek xalqi tarixiy sinovlardan o‘tdi, milliy o‘zligini saqlab qoldi va mustaqil davlat qurishga erishdi. Bugungi kunda O‘zbekiston zamonaviy, mustaqil va barqaror davlat sifatida rivojlanib bormoqda. Bu esa o‘zbek davlatchiligi tarixining yangi bosqichi shakllanganligini ko‘rsatadi.

Yangi va eng yangi davr o‘zbek davlatchiligi tarixida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda o‘zbek xalqi mustamlaka siyosatini boshdan kechirdi, milliy uyg‘onish harakatini shakllantirdi va nihoyat mustaqil davlat qurishga erishdi.

Mustamlaka davri o‘zbek davlatchiligining zaiflashish davri bo‘lsa-da, aynan shu davr milliy uyg‘onish uchun zamin yaratdi. Milliy uyg‘onish davri esa mustaqillik g‘oyasining shakllanishiga olib keldi. Mustaqillik davri esa o‘zbek davlatchiligining to‘liq tiklanishini ta’minladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston zamonaviy, mustaqil va barqaror davlat sifatida rivojlanmoqda. Bu esa o‘zbek davlatchiligining yangi tarixiy bosqichga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
5. O‘zbekiston tarixi (eng yangi davr). - Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
6. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. - Toshkent: Sharq, 2020.
7. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari. - Toshkent: Fan, 2020.
8. O‘zbekiston davlatchiligi: tarix va taraqqiyot bosqichlari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
9. Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. - Berkeley: University of California Press, 1998.
10. Martha Brill Olcott. Central Asia’s New States: Independence, Foreign Policy, and Regional Security. - Washington: Carnegie Endowment, 1996.
11. Olivier Roy. The New Central Asia: The Creation of Nations. - New York: I.B. Tauris, 2000.

12. 2017- 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida PF- 4947-son Farmon
13. www.lex.uz

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MA’NAVIY KAMOLOTIDA MILLIY MEROSNING АҲАМИЯТИ

Alimov Akbar Narboyevich,
Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviy kamolotini shakllantirish va rivojlantirishda milliy ma’naviy merosning o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-falsafiy qarashlari hamda ma’naviy-ma’rifiy an’analarining yosh avlod dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy kamolot, milliy meros, ma’naviy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, barkamol avlod.

Bugungi kunda O‘zbekiston har tomonlama rivojlanib jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olmoqda. Yangilanayotgan O‘zbekistonni yanada taraqqiy ettirish bu o‘z navbatida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamda ta’lim, tarbiya sohalarida tub o‘zgarishlarni talab etadi. O‘zbekistonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi bu ko‘p jihatdan bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarida o‘qib ulg‘ayayotgan aql-idrokli, kuch-g‘ayratli, ma’naviy jihatdan etuk bo‘lgan yoshlarga bog‘liqdir. Chunki, ma’naviyatli yoshlar yangilanayotgan O‘zbekistonning kelajagidir. Shuning uchun Prezident Sh.Mirziyoyev "yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz[1],"- deb ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, jahon ilm-fani taraqqiyotiga, milliy ma’naviyatimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ma’naviy merosimiz har bir jamiyat a’zosining dunyoqarashini, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini ularning ijtimoiy hayotda faollashib borishlariga xizmat qiladi.

[1] Ш. Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 том. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019. 8-89-бет.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizda mavjud uzluksiz ta’lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o‘smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo‘lga qo‘yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o‘tkir zaruratga aylanmoqda[1].

O‘zbekiston kelajagida katta rol o‘ynaydigan har tomonlama yetuk avlodni voyaga etkazishning imkoniyatlari xilma-xil bo‘lib, ular orasida ma’naviy meros alohida o‘rin tutadi. Tarixdan ma’lumki qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz avliyolar yetishib chiqqan. Ular tomonidan aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi.

Hozirgi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid asarlar mavjud. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to‘liq o‘rganilmagan, ular olimlar va o‘z o‘quvchilarini kutib turibdi. Chunki, bu noyob asarlarda bugungi davr o‘rtaga qo‘yayotgan juda ko‘p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Shuningdek, Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo‘lida birlashishga davat etadigan teran ma’noli fikr va g‘oyalar bugun ham o‘z qimmati va ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Dorimiy, Imom Termiziy, Abul-Lays Samarqandiy, Qaffol Shoshiy, Abul-Muy’in Nasafiy, Zamahshariy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg‘inoniy singari islomshunos mutafakkirlarning ma’naviy merosi bugungi kundagi dolzarb ijtimoiy masalalarni echishda asqotadi, ularning insonparvarlik, vatanparvarlik, axloqparvarlik g‘oyalari bugungi kundagi manfaatparatslik botqog‘iga g‘arq bo‘layotgan vatandoshlarimizni jaholat changalidan qutqarishda muhim ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa ma’naviy merosimiz ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar bilan boyitib borilsa, yangi innovatsion usullardan foydalanilsa, ko‘plab ijodiy natijalar keltirib chiqaradi. Inson barkamolligining etukligi asosiy zaminlaridan biri doimo ma’naviyat bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirishga doimo katta e'tibor berib kelganlar.

[1] Ш. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. “Ўзбекистон” Тошкент, 2022. 261-бет.

Shu bois hozirgi davrning eng asosiy vazifalaridan biri yoshlarni yangi O‘zbekiston kelajagi uchun xizmat qiladigan fidoyi insonlar sifatida tarbiyalab borishdir. Mana shunday jarayonda ajdodlarimiz tomonidan to‘planib kelingan boy hayotiy tajribalarning, ma’naviy merosning ahamiyati kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 том. - Тошкент; “Ўзбекистон”, 2019. - Б.88-89.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент; “Ўзбекистон”, 2022. - Б.261.
3. Alimov A. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-falsafiy qarashlarida mehmon kutish odobi masalasi //O‘zMU Xabarlari. - 2024. - T. 1. - №. 1.9. - C. 47-49.

INKLYUZIV TA’LIM VA UNING IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLAR PSIXOLOGIK TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Xashimova Sayyora Xolmuradovna
Samarqand Davlat chet tillar instituti Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsent v.b., falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’limning nazariy-metodologik asoslari hamda uning imkoniyati cheklangan o‘smirlar psixologik tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada imkoniyati cheklangan o‘smirlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning psixologik barqarorligini ta’minlash, ta’lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish hamda inklyuziv muhit orqali shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan o‘smirlar, psixologik tarbiya, ijtimoiy integratsiya, psixologik rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, inklyuziv muhit, psixologik farovonlik.

Bugungi kunda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan o‘smirlarni psixologik tarbiyalash, ularning to‘laqonli hayot kechirishlariga sharoit yaratish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinib, ushbu konsepsiyada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim

muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash kabilardan iboratdir.

Keyingi yillarda kam ta’minlangan, nogironligi bo‘lgan insonlar, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Bu borada Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi, Nogironligi bo‘lgan insonlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilganini qayd etish lozim[1].

BMT ma’lumotlariga ko‘ra dunyo miqyosida 450 milliondan ortiq kishi ruhiy va jismoniy nuqsonga ega. Bu sayyoramizning o‘ndan bir qismini tashkil etadi. Shuni aytish joizki, umumjahon sog‘likni saqlash tashkiloti ma’lumot berishida dunyoda bunday kishilar soni 13%ga yaqin va dunyo miqyosida 500 milliondan ortiq odam (ya’ni yer yuzidagi har bir o‘ninchi odam) imkoniyati cheklangan shaxslar sirasiga kiradi, shulardan 150 millioni bolalardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotlarining ma’lumotlariga ko‘ra yer kurrasi aholisining 20% turli xil, jismoniy, aqliy, sensor va harakat a’zolarida nuqsonlari bo‘lgan insonlar tashkil qiladi. Sog‘liqni saqlash, Mehnat va Aholini Ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklarining ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda turli xil nuqsoni bo‘lgan bolalar, ya’ni aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 12%, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (kar bolalar) 5%, zaif eshituvchilar 7%, ko‘zi ojizlar 7,5%, zaif ko‘ruvchilar 5%, tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar 2,5%ni tashkil etadi. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, ular orasida alohida yordamga muhtoj bolalar hammasi bo‘lib 200 million atrofida ekanligi qayd etilgan[2].

Inklyuziv ta’lim sohasida yaratilgan tadqiqotlarda bolalar psixologiyasi muammolarini L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, K.D.Ushinskiy, V.N.Myasishchev, N.N.Malofeev, N.D.Shmatko, A.N.Golubeva kabi rus olimlari o‘rganganlar. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarni pedagogik-psixologik korreksiyalash masalalarini o‘rganishda I.I.Mamaychuk, L.P.Koskovoy, O.S.Nikolskayalar,

[1] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ // Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари. 4-жилд. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020.-Б.349-350.

[2] Шомаҳмудова Р.Ш., Нурмуҳаммедова Л.Ш., Тўлаганова Д.Р. Имконияти чекланган болаларни оилада тарбиялаш. (Ота-оналар учун илмий-услубий қўлланма). Тошкент 2013 йил, 5 бет.

V.S.Manova-Tomova, Yu.S.Alyoshina, M.Krijanovskaya, V.S.Muxina, A.A.Bodalyov, E.R.Bayevskayalar tadqiqot ishlari olib borganlar[1].

Ushbu masalada O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, hozirgacha mamlakatimizda ilg‘or psixologiya vakillaridan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, A.S.Begmatov, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziyev, Sh.R.Barotov, A.M.Jabborov, N.S.Safoyev, Sh.S.Shoyimova, R.Shomaxmudova va boshqalar tomonidan psixologiyaning maxsus sohalari bo‘lmish shaxs psixologiyasi, oila psixologiyasi, o‘z-o‘zini anglash, ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari tadqiq qilindi. Ta’lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta’lim-tarbiya berish, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning psixologik va pedagogik xususiyatlari, ularning nuqsonlarini korreksiyalash va inklyuziv ta’lim muammolarini R.Shomaxmudova, A.Berdiyeva, O.U.Ablayev kabi olimlar o‘rgangan. Maxsus yordamga muhtoj o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda M.F.Hakimova, bolalardagi nutqiy kamchilikni o‘rganish va uni bartaraf etish muammosi L.R.Mo‘minova, X.M.Po‘latova, I.G.Veretennikova, X.D.Kalbayeva, N.R.Rahmonqulova, U.Yu.Fayziyeva, M.S.Asanova kabi mutaxassislarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan[2].

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o‘smirlar, (bolalar, shaxslar) uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan barcha o‘smirlar, (bolalar) asosiy maktablarda inklyuziv ta’lim olish imkoniyatiga egadir. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar maktablarda malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlangan bo‘lib, nogironligi bo‘lgan o‘smirlar (bolalar)ning ehtiyojlariga moslashtirilgan qulay infratuzilma va o‘quv materiallari bo‘lishini ta’minlash masalasiga ham e’tibor kuchaytirilmoqda. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar 90 ta bo‘lib, bulardan: 50 tasi aqli zaif bolalar uchun, 19 tasi kar va zaif eshituvchi bolalar uchun, 17 tasi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun, 3 tasi tayanch a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun, 1 tasi nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardir. Bu maktab-internatlarda nogironligi bo‘lgan 21231 nafar bolalar ta’lim olishadi[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qaroriga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu maqsadda 2021/2022-o‘quv yilida respublikada ilk marotaba tajriba sifatida

[1] Қаҳҳоров С.Қ., Қаҳҳорова Д.С. Инклюзив таълим таҳлили. Замонавий таълим / Современное образование. 2015, № 8. 44 бет. file:///C:/Users/User/Downloads/inklyuziv-talim-ta-lili%20(1).pdf

[2] Қаҳҳоров С.Қ., Қаҳҳорова Д.С. Инклюзив таълим таҳлили. Замонавий таълим / Современное образование. 2015, № 8. 45 бет. file:///C:/Users/User/Downloads/inklyuziv-talim-ta-lili%20(1).pdf

[3] https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-vozmoznostami

hududlarning markazidagi shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida bittadan umumta’lim maktablarida (jami 31 ta) inklyuziv ta’lim tizimi joriy etildi va unda 82 nafar bolalar ta’lim olishi ta’minlandi.

Inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim uchun sharoitlarni yaxshilash, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ish olib boradigan pedagoglarni tayyorlash maqsadida Buyuk Britaniya, Yaponiya, Finlyandiya davlatlaridagi tajribani o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni tashkil qilishdan asosiy maqsad - alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat bo‘lsa, inklyuziv ta’limni tashkil qilishdan asosiy vazifalar - rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish; jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish; ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish; barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish[1]dan iboratdir.

2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga 1-ilovadagi 66-maqsad - nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish, deb nomlangan. Ushbu maqsadga ko‘ra - nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash. ...Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish[2], vazifasi belgilandi.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlar ta’lim-tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ta’lim-tarbiyasi nafaqat

[1] https://lex.uz/docs/5679836

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги Фармони. https:// https://lex.uz/docs/5841063

ta’lim maskanlarida, balki oilalarda xam maqsadli tashkil etilib, oilalarda imkoniyati cheklangan o‘smirlarni ma’naviy tarbiyasiga e’tibor qaratiladi. Oilalarda imkoniyati cheklangan o‘smirlarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtayi-nazari bilan yondashuv shakllanadi. Bu esa imkoniyati cheklangan o‘smirlarda muomala, muloqot, o‘z-o‘ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Shuning uchun imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ijtimoiylashuvi sog‘lom o‘smirlar bilan birga ta’lim olish, turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, turli to‘garaklarda qatnashish orqali amalga oshiriladi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar o‘zlarining kiyinishi (mavsumbop, boradigan joy xususiyatiga bog‘liq, toza va ozoda, jinsiga to‘g‘ri keladigan, zamonbop); muomalasi (ona tilida to‘g‘ri va ravon so‘zlashi, shirinsuxan bo‘lishi, so‘zlashganda suhbatdoshini tinglay olishi, birovlarning so‘zini bo‘lmasligi, aniq va mavzu doirasida gapirishi); jamoat joylarida o‘zini tutishi (qoidalarga rioya qilishi, qattiq gaplashmasligi, atrofdagilarga halaqit qilmasligi va xokazo); gigienik qoidalarga rioya qilishi orqali jamiyat hayotiga moslashib boradi. Maxsus ta’lim muassasalari, maktab-internatlar imkoniyati cheklangan o‘smirlar uchun ta’lim-tarbiya o‘chog‘idir. U yerda imkoniyati cheklangan o‘smirlar akademik bilim olishdan tashqari murosalilikka, atrofdagilar bilan muloqot qilishga, mehnatga, o‘z-o‘ziga xizmatga, o‘zgalar mehnatini qadrlashga, o‘z qarorini asosli himoya qilishga, salomatligini nazorat qilishga o‘rganadilar.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlar bilan olib boriladigan inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologo-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratiladi, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi amalga oshiriladi, o‘smirlarning ta’limdagi tenglik huquqi kafolatlanadi, jamiyat va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlar bartaraf etiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Imkoniyati cheklanganlik aslo-qobiliyatsizlik, degani emas. Har qanday holatda ham, kasallik va kamchilikda ham, muammolar bo‘lsa ham bolada taraqqiyot davom etadi. Ya’ni, bolaning rivojlanishi to‘xtab qolmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalarga nisbatan ko‘proq e’tibor va yordam talab etadi xolos. Shuning uchun ham doimiy ravishda har bir bolaning huquqlarini himoya qilish, kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik, ularga ijobiy munosabatda bo‘lish farzand tarbiyasida eng muhim ahamiyatga ega[1].

[1] Шомахмудова Р., Бердиева А. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари. Тошкент 2008 йил, 34 бет.

O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan o‘smirlarning psixologik tarbiyasi, ularning ijtimoiy himoyasi, jamiyatga ijtimoiylashuvi masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning bilim olishi, mehnat qilishi, malakali tibbiy xizmatlardan foydalanishi ularning psixologik tarbiyasida, jamiyatga ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga egadir. Imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan o‘smirlarning psixologik tarbiyasida odob, axloq, nafosat tarbiyasiga asoslangan inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020.-B.349-350.
2. Shomahmudova R.Sh., Nurmuhammedova L.Sh., To‘laganova D.R. Imkoniyati cheklangan bolalarni oilada tarbiyalash. (Ota-onalar uchun ilmiy-uslubiy qo‘llanma). Toshkent 2013 yil, 5 bet.
3. Qahhorov S.Q., Qahhorova D.S. Inklyuziv ta’lim tahlili. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie. 2015, № 8. 44 bet. file:///C:/Users/User/Downloads/inklyuziv-talim-ta-lili%20(1).pdf
4. Qahhorov S.Q., Qahhorova D.S. Inklyuziv ta’lim tahlili. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie. 2015, № 8. 45 bet. file:///C:/Users/User/Downloads/inklyuziv-talim-ta-lili%20(1).pdf
5. https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-vozmoznostami
6. https://lex.uz/docs/5679836
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. https:// https://lex.uz/docs/5841063
8. Shomaxmudova R., Berdiyeva A. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari. Toshkent 2008 yil, 34 bet.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI MODDIY-TEXNIK BAZASINING MODERNIZATSIYASI (SAMARQAN VILOYATI MISOLIDA)

Abdullayev Sherqo‘zi Axmadboboyevich
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta’lim muassasalarida moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalashning zaruriyati ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning amaliy natijalari hamda hozirda saqlanib qolayotgan ayrim kamchiliklar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kapital ta’mirga muhtoj bog‘chalar, ikki smenali maktablar, elektron doska, kompyuter sinfi

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri arafasida respublikada ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasi qoniqarsiz ahvolga kelib qolgan edi. Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida binolar va infratuzilma eskirgan, ko‘plab bog‘cha binolari sobiq Sovet davrida qurilgan bo‘lib, sanitariya-gigiyena sharoitlari zamonaviy talabga javob bermas edi. Qolaversa, deyarli barcha hududlardagi bog‘chalarda kerakli didaktik materiallar, zamonaviy o‘quv-uslubiy vositalar, kompyuter texnikasi yetarli emasdi. Xususan, 2016-yil yakuniga kelib, respublikada mavjud 4893 ta maktabgacha ta’lim muassasalaridan 2552 tasi (52,1 foizi) joriy, kapital ta’mirga yoki rekonstruksiyaga muhtoj edi[1]. Shuningdek, respublikada mavjud maktabgacha ta’lim muassasalarining 67 foizi zamonaviy, qolgan 33 foizi esa moslashtirilgan binolarda joylashgan edi. Moslashtirilgan binolarning 340 dan ortig‘i (21 foizi) xom g‘isht va paxsadan qurilgan. Birgina Samarqand viloyatida bunday ta’lim muassasalari 181 tani tashkil etdi. Shuningdek, 897 ta (18,2 foiz) MTM markazlashgan suv ta’minotiga ulanmagani sababli, suv tashib keltirilar edi. Qishloq hududlaridagi maktabgacha ta’lim muassasalarining 1 956 tasida (39,7 foizi) oshxona jihozlari 40-50 yildan buyon yangilanmagan, aksariyati yaroqsiz holga kelib qolgan edi[2].

2017-yilgacha bo‘lgan davrda mamlakatda umumta’lim muasassalari moddiy-texnik holati ham qoniqarli darajada emas edi. Mavjud maktab binolarining anchagina qismi 1970- 1980-yillarda qurilgan bo‘lib, kapital ta’mirga muhtoj bo‘lgan. Issiqlik tizimlari, sanitariya-gigiyena sharoitlari (hojatxonalar, ichimlik suvi) ko‘plab joylarda talabga javob bermas, **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan ta’minot yetarli bo‘lmay** ularning aksariyati eskirgan texnika bilan jihozlangan edi. Qolaversa, mazkur davrda internetga ulangan

maktablar soni nihoyatda kam edi, ayniqsa qishloqlarda bu borada katta muammolar mavjud edi. **Laboratoriya va fan sinflari holati qoniqarsiz bo‘lib,** fizika, kimyo, biologiya kabi fanlar uchun zarur bo‘lgan laboratoriya jihozlari foydalanishga yaroqsiz holatda edi. Mehnat ta’limi, musiqa, tasviriy san’at kabi fanlar uchun asbob-uskunalar yetarli emas edi. Bundan tashqari, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona kabi aholisi ko‘p shaharlardagi aksariyat maktablarda darslar ikki smenada o‘tkazilar edi.

2017-2018-o‘quv yili yakunida Samarqand viloyatidagi 18 ta maktab to‘liq rekonstruksiyaga, 349 ta maktab kapital ta’mirga muhtoj, 629 ta maktab hududining atrofi o‘ralmagan edi. Shuningdek, 474 ta maktabda ta’lim olivchilar soni maktab sig‘imidan 50 foizga ortiq ekani, buning natijasida o‘quv jarayoni ikki navbatda o‘tkazliayotgani ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Samarqand shahrida so‘nggi yilarda ko‘p qavatli uylar ko‘p qurilganiga qaramay, qo‘shimcha maktablar qurilmadi[3]. Ushbu vaziyat O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri arafasida ta’lim muassasalari moddiy-texnik holatini modernizatsiya qilish zaruriyatini vujudga keltirdi.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Prezident Shavkat Mirziyoyevning faol tashabbusi bilan ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi va zamonaviy ta’lim dargohlarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash barobarida ularni yangi o‘quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi hamda metodik vositalar bilan ta’minlash vazifalariga keng e’tibor qaratildi. Xususan, O‘zbekistonda 2017-yilning o‘zida investitsiya dasturi bo‘yicha 107 ta MTM kapital rekonstruksiya qilindi, 195 ta bog‘cha kapital ta’mirlandi[4].

Bu borada 2017-2025-yillarda Samarqand viloyatidagi ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasini yaxshilash borasida ham e’tiborli natijalarga erishildi.

Xususan, viloyatda 2019-yilgi investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 142 miliard 172 million so‘m mablag‘ evaziga 49 ta obyektda qurilish-ta’mirlash ishlari olib borildi. Davlat maktabgacha ta’lim muassasalari umumiy qiymati 1 milliard 786 million so‘mlik 169 turdagi 351 ming 405 dona o‘yinchoq, o‘quv-didaktik, ko‘rgazmali va tarqatma materiallar, 100 ta davlat maktabgacha ta’lim muassasasi 405,7 million so‘mlik musiqa asboblari bilan ta’minlandi[5].

Samarqand viloyatida maktabgacha ta’lim muassasalarning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish ishi 2024-yilda sezilarli faollashdi. Aynan 2024-yilda “Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi” orqali viloyatdagi davlat bog‘chalariga tarbiyalanuvchilar davomatini raqamlashtirish maqsadida 757 dona planshet va 741 ta Wi-Fi routerlar yetkazib berildi. Shuningdek, 2024/2025-o‘quv yilida Samarqand viloyatidagi maktabgacha ta’lim muassasalarida “Kasbiy mahorat kuni” va “Kasbiy mahorat soati” dasturlari doirasida tayanch bog‘chalarda

ko‘rgazmali darslar tashkil etish sifatini oshirish maqsadida 15 ta maktabgacha ta’lim muassasalari elektron doska va 30 tadan planshet bilan ta’minlandi[6].

Samarqand viloyatida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrovni oshirish maqsadida 2025-yilning dastlabki 7 oyi davomida Samarqand viloyatida 106 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti yangidan ishga tushirildi. Ularning 7 tasini davlat, 9 tasini DXSh asosidagi va 90 tasini oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etdi. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda viloyatdagi 763 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 8 ming 150,0 million so‘mlik o‘yin maydonchasi hamda tayyorlov guruhlari uchun 18 ming 725,0 million so‘mlik stol-stullar yetkazildi[7].

Umumiy hisobda 2025-yilda Samarqand viloyatida 11 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti qurildi, 136 ta nodavlat oilaviy, 8 ta davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etildi, natijada 11 mingga yaqin bolalar qamrab olindi[8].

Yangi O‘zbekistonda davlat maktablari qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash hamda ularda yangi sport zallarini barpo etish ishiga ham jiddiy e’tibor qaratildi. Xususan, 2019-yilda umumta’lim maktablari infratuzilmasini rivojlantirish borasida respublika bo‘yicha 2864 ta maktabning isitish qozoni va tizimi yangilandi, 138 ta maktabda zamonaviy sport zallari qurildi, 493 ta maktabning atrofi to‘liq o‘raldi. 173 ta maktab ichimlik suvi bilan ta’minlandi. 579 ta maktabning xojatxonasi yangidan qurildi va mavjudlari ta’mirlandi, 106 ta maktabda ichki xojatxona ta’mirlandi va tashkil etildi, 175 ta maktabda yangi oshxona qurildi va ta’mirlandi[9]. Shuningdek, 2022-yilda respublika miqyosida 3,2 trillion so‘m mablag‘ hisobidan 807 ta maktabda qurilish va ta’mirlash ishlari bajarildi. 2023-yilda maktablarga 40 ming dona zamonaviy kompyuterlar, 442 ta komplekt robototexnika jihozlari va boshqa zarur ashyolar yetkazib berildi[10].

Bu borada, Samarqand viloyatida ham muhim ishlar amalga oshirildi. 2021-yilda 902 ta maktabda 446 milliard so‘m mablag‘ evaziga qurilish-ta’mirlash ishlari olib borildi. Tarqoq, olis hududlardagi 63 ta maktabning yangi filiallari qurildi[11]. Viloyatda maktablarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash maqsadida 2024-yilda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan jami 32 mlrd 165 mln.so‘m mablag‘ 494 ta ta’lim tashkilotlari uchun yo‘naltirildi. Yo‘naltirilgan mablag‘ning 25 mlrd. 35 mln.so‘mi qurilish-ta’mirlash ishlariga va 7 mlrd.130 mln.so‘mi esa jihozlar xaridi uchun sarflandi[12].

Islohot yillarida Samarqand viloyatida yangi umumta’lim maktablarini barpo etishga ham keng e’tibor berildi. Viloyatda 2018/2019-o‘quv yili boshida 1 225 ta umumta’lim muassasalari faoliyat yuritgan bo‘lsa, nodavlat-xususiy maktablar tashkil etish tartibining soddalashtirilgani hamda davlat tomonidan manzilli dasturlar asosida bir qator yangi maktablar tashkil etilishi natijasida 2024/2025-

o‘quv yilida 1 353 ta umumta’lim maktablari (shundan 18 ta ixtisoslashtirilgan, 1 ta Prezident hamda 46 ta nodavlat umumta’lim muassasasi) faoliyat yuritdi. Qiyoslash uchun, 2017-yilda viloyatda faqatgina 3 ta nodavlat umumta’lim maktabi faoliyat yuritgan, xolos.

2017-2025-yillarda Samarqand viloyatida ta’lim muassasalari sonining ortishida mahalliy tadbirkorlar tomonidan o‘z tashabbusi bilan yangi maktablar tashkil etishi muhim omil bo‘ldi. Xususan, aka-uka tadbirkorlar Amir va Ilhom Rustamovlar shaxsiy mablag‘i evaziga 2018-2024-yillar oralig‘ida Samarqand shahrida 2 ta, Bulung‘ur hamda Ishtixon tumanlarida bittadan jami 4 ta maktab qurilishini moliyalashtirdi[13].

Umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchilarning zamonaviy bilimlarni egallashlarida elektron vositalar, kompyuterlarning ahamiyati katta. Shu maqsadda mamlakatda ta’lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini yaxshilash, kompyuter sinf xonalarini zamonaviy texnika va boshqa vositalar bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratildi. Xususan, 2023-yilda respublika bo‘yicha maktablarga 40 ming dona zamonaviy kompyuterlar, 442 ta komplekt robototexnika jihozlari va boshqa zarur ashyolar yetkazib berildi[14].

Shu qatorda, 2023-yilda respublika budjetidan Samarqand viloyatidagi maktablarda 63 ta kompyuter sinfi tashkil etilib, ularning har biriga 17 tadan kompyuter jamlanmasi topshirildi, 2024-yilda esa 147 ta kompyuter sinfi tashkil etildi va har bir sinfga 17 tadan kompyuter tadqim etildi[15]. Umumiy olganda, barcha manbalar hisobidan 2023-yilda Samarqand viloyatidagi maktablarning 416 ta kompyuter sinfiga 6 656 dona kompyuter olib berilgan bo‘lsa, 129 ta maktab 135 dona elektron doska bilan ta’minlandi[16].

Ahamiyatlisi, 2024-yilda Samarqand viloyatidagi maktablarni interaktiv doskalar bilan jihozlashga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, 2024-yil boshida viloyatdagi elektron doskalari mavjud bo‘lmagan Narpayda 31 ta, Paxtachida 17 ta[17], Toyloqda 23 ta maktablarga yangi elektron doska topshirildi. Umumiy hisobda, 2024-yilda Samarqand viloyatida 147 ta maktabga zamonaviy kompyuter texnikalari va 621 ta maktablarga elektron doskalar olib berildi[18]. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi viloyat maktablari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish ishlarida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

2017-2025-yillar mobaynida Samarqand viloyatida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va uni zamonaviy asoslarda yangilashga davlat tomonidan katta e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ammo mazkur sohada hal etilishi lozim bo‘lgan bir qancha muammolar ham saqlanib qoldi.

Xususan, viloyatdagi 1 266 ta davlat umumta’lim maktablarining 371 tasida yopiq turdagi sport zali mavjud emas[19]. Shuningdek, nafaqat Samarqand viloyatida, balki butun respublika maktablari o‘quv jarayonini samarali tashkil

etishga xizmat qiladigan zamonaviy kompyuter, printer, skaner kabi vositalar bilan kerakli darajada ta’minlanmagan. Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy va o‘rta-maxsus ta’limi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Xususan, yangi turdagi davlat, davlat-xususiy sherikchilik hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari barpo etildi, ko‘plab bo‘g‘chalar budjet mablag‘lari hisobiga kapital ta’mirlandi. Shuningdek, ushbu muassasalarning moddiy-texnik bazasini yanda yaxshilash maqsadida elektron planshet, elektron doskalar, yumshoq o‘yinchoq va mebellar hamda musiqa asboblari bilan ta’minlandi.

Qolaversa mazkur davrda yangi davlat va nodavlat umumta’lim maktablari qurildi. Samarqand viloyatidagi deyarli barcha maktablarga elektron doska, kompyuter texnologiyalari yetkazildi.

Ammo, shu bilan birga maktabgacha ta’lim muassasalarida alohida oshxonalarning mavjud emasligi, shahar hududlaridagi maktablarda o‘quvchilar soninining belgilangan me’yordan oshib ketganligi tufayli ularda yangi o‘quv binolariga yuqori ehtiyojning saqlanib qolayotganligi, shuningdek, oliygohlar ta’lim kampuslarida internet aloqasining sustligi, kompyuter texnologiyalarining eskirganligi, professor-o‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalardan samarasiz foydalanishi, yangi qurilgan binolarning sifati masalasi, barcha o‘quv auditoriyalarining to‘liq ta’mirdan chiqarilmaganligi, ayniqsa, xususiy oliygohlarda sport zallari va ochiq sport maydonlarining yetishmasligi kabi muammolar bu borada hali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar salmog‘i yuqoriligidan dalolat beradi.

Ushbu masalada quyidagilarni taklif qilamiz. Ta’lim muassasalarida yangidan qurilgan va kapital ta’mirdan chiqarilgan binolarni qabul qilish, shuningdek, yangi uskunalarni o‘rnatish va foydalanish jarayonida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozim. Hozrida bu boradagi nazorat faqat rahbariyat ma’suliyati, deb qaralmoqda. Ammo ushbu vazifaga ta’lim muassasalarining barcha xodimlarida daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligigi joriy arxivi. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligida o‘tkazilgan yig‘ilishning 24-sonli bayoni”. 2016-yil 24-dekabr. B-2.
2. Ma’rifat 2017-yil, 7-yanvar, № 2 (8963)
3. Ma’rifat 2017-yil, 7-yanvar, № 2 (8963)
4. Ma’rifat. 2018-yil, 31-yanvar, № 9 (9074)
5. Zarafshon. 2019-yil 29-avgust

6. Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi joriy ma’lumotlari. “2023-2025-yillarda Samarqand viloyati maktabgacha va umumta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti” 3-bet

7. Zarafshon. 2025-yil 14-avgust.

8. Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi axborot xizmati. https://t.me/samarqandvmmtb

9. Ma’rifat. 2019-yil 28-dekabr, № 103-104

10. Mirziyoyev Sh.M “Xalqchil islohotlar xalqmiz manfatlariga xizmat qiladi”. T., “O‘zbekiston”. B- 370.

11. Yangi O‘zbekiston. 2022-yil 10-fevral

12. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi joriy arxivi. Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i Sh.Eshonqulovning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PQ-241-sonli qarorining 13-bandi ijrosi bo‘yicha” 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisoboti. B-1.

13. https://t.me/zarnews_uz “Samarqandda aka-uka tadbirkorlar maktab qurdi”

14. https://president.uz/oz/lists/view/6377

15. Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi joriy ma’lumotlari. “2023-2025-yillarda Samarqand viloyati maktabgacha va umumta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti” 3-bet

16. Zarafshon. 2024-yil 1-fevral

17. https://zarnews.uz/c5ly

18. 18.Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi telegramdagi rasmiy https://t.me/samarqandvxtb kanalida 2024-yil 23-dekabrda e’lon qilinga ma’lumot. “SAMARQANDDA 2024-YILDA UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SARHISOBI”

19. Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasidan 2024-yil 5-dekabrda olingan ma’lumot

OTA-ONA VA FARZAND KOMMUNIKATIV MUNOSABATLARINING BOLALARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Burxanova Mavjuda Bekbutayevna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti v.b.,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarning bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishidagi o‘rni psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda oilaviy muloqotning bolalarda emotsional intellekt, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiyalar, o‘zaro hamkorlik va sog‘lom shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga ko‘rsatadigan ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ota-ona, farzand, kommunikativ munosabatlar, oilaviy kommunikatsiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, emotsional intellekt, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiya, oilaviy tarbiya, shaxs rivojlanishi, emotsional barqarorlik, shaxslararo munosabatlar, rivojlanish psixologiyasi.

Bugungi kunda dunyoda oilalar o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu o‘zgarishlar so‘nggi o‘n yillikda mamlakatimizda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bog‘liq. Asosan shaxsning psixologiyasidagi o‘zgarishlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyat darajasida oilalarda bo‘ladigan o‘zgarishlar oilaning qadr-qimmatini pasaytiradi. Ajralishlar ko‘payadi, yetim bolalar ko‘proq bo‘ladi, ixtiyoriy nikohlar kamayadi, to‘liqsiz oilalar paydo bo‘ladi. Bu salbiy hodisalar dinamikasida namoyon bo‘ladi. Oilada ham bu o‘zgarishlar oilaviy funksiyalarni bajarish va munosabatlarga ta’sir qiladi. Men ham bu o‘zgarishlarni ko‘rib, hayotimiz qanday o‘zgarayotganini his qilaman. Shaxs darajasida birinchi navbatda, shaxsning oilaga bo‘lgan munosabati xususiyatlarida qayd etilishi mumkin. “Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning muhim metodologik tamoyili - sinergetik - inqiroz davrlarini hisobga olgan holda, oilaviy munosabatlar dinamikasini chiziqli bo‘lmaganlik, muvozanatsizlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishga imkon beradi”[1;1]. Shu ma’noda, mazkur tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida belgilangan belgilangan vazifalar bilan bevosita uzviy bog‘liqdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, ota-ona va farzand o‘rtasidagi kommunikativ strategiyalar ijtimoiy-emotsional rivojlanishning tizimli omili

sifatida konseptual jihatdan qayta talqin qilinadi hamda oila muhitida qo‘llaniladigan samarali kommunikativ strategiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar tizimlashtiriladi.

Amaliy ahamiyati esa ota-ona va farzand o‘rtasidagi samarali muloqot strategiyalarini shakllantirishda amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi hamda bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan pedagogik va psixologik faoliyatni takomillashtirishga imkon yaratadi. Mazkur maqola kirish, metodologiya, natijalar, muhokama va xulosa qismlaridan tashkil topgan bo‘lib, oilada ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqotning nazariy hamda amaliy jihatlarini qamrab oladi.

Muhokamalar natijasidan ma’lumli, bugungi kunda oilada ota-ona munosabatlarida muomala madaniyatini rivojlantirish muammosi muhim ahamiyatga ega. Bu shaxsning go‘zallikka bo‘lgan individual intilishi, ohang tanlashi, mazmuni, o‘zini tutishi, boshqalar bilan muloqot darajalari bilan uyg‘unlashadi. U shaxsning estetik madaniyatining rivojlanganligi bilan kompleks ravishda o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi. Bundan tashqari, kommunikativ mexanizmning samarali tarbiyaviy ta’siri anglash va bilishning instrumenti sifatidagi ilmiy va gumanitar bilimlarning prezentativligi orqali o‘zaro hamkorlikdagi subyektlarning dialogik munosabatlar sharoitidagina samarali hisoblanadi. U muloqot ishtirokchilari tafakkurida ichki dialogning uyg‘onishi natijasida yuzaga keladigan to‘laqonli axborot-ma’lumot almashinuvining turli shakllari, vositalari, usullari bilan ifodalanadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur jarayon, kommunikativ savodxonlik va kompetentlik, shaxsiy me’yorlar, shaxsning umumiy madaniyati asosida yotgan bilim, malakalarining rivojlanishiga ham ta’sir qiladi, ijtimoiy rollarni bajarish usullari va qoidalarini egallash maqsadida tashkillashtirilgan ta’lim va tarbiya orqali kuchayadi.

Aytish mumkinki, oila muhiti bola shaxsini tarbiyalab, voyaga yetkazish bilan bir qatorda, shu tarbiya vositasida uning vujudiga ruhiy, aqliy va axloqiy kuch-qudrat rishtalarini ulaydi, milliy ruh va diniy e’tiqod tuyg‘ularini shakllantiradi. “Oilaviy tarbiyada milliy an’analar uyg‘unligi yaqqol seziladi. Zotan, ularning har ikkalasida ezgulik va bag‘rikenglik, totuvlik va hamkorlik, odamgarchilik, andisha va odob, xushmuomalalik, saxiylik va mehmondo‘stlik, insof va diyonat, halollik va sabr-qanoat singari fazilatlar ustuvorlik qiladi”[3;221].

Oila muhitida amalga oshiriladigan muloqot, oila a’zolari o‘rtasida kundalik, maishiy muammolar yuzasidan amalga oshiriladigan muomala hisoblanadi. Chunki, inson ongida shakllanadigan dunyoqarash, e’tiqod va iymon, vijdon va mas’uliyat sifatlarining tarbiyalanishida radio, televidenie, gazeta, jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o‘rnini e’tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan ta’sir, inson yuzi va ko‘ziga qarab turib aytiladigan bama’ni so‘z va

hissiyotlarning o‘rni beqiyos. Shuning uchun ham, zarur bir fikrni tushuntirish lozim bo‘lsa, ota-ona ham bolasining yuzini o‘ziga qaratib olib, yuz qiyofasi va ko‘zdagi samimiyat bilan, psixologik jihatdan tahlil etilganda, paralingvistik vositalar yordamida fikrni uqtira boshlaydi. Va bunday muloqot samarali bo‘ladi. Bunday ta’sir ko‘proq psixoemotsional jihatdan ta’sirchan bo‘lgan onalar va momolar muloqotida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ota-ona va farzand o‘rtasidagi samarali muloqot strategiyalari bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari konstruktiv, empatik va izchil kommunikativ yondashuvlar bolalarda emotsional barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish hamda shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Oilaviy muhitda ochiq muloqot va ijobiy tarbiya strategiyalarini qo‘llash nafaqat bola shaxsining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi, balki jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlar shakllanishiga ham zamin yaratadi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish hamda amaliy metodikalarni takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifa sifatida e’tirof etiladi.

Oilada ota-ona va farzandlar munosabatida muomala madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usuli faqatgina uning subyektlari ochiq emotsional o‘zaro ishonch shaklidagi muloqotga kirishishga tayyor bo‘lsagina natija beradi. Ular shaxsiy bilimlarini, hayotiy tajribalarini namoyish etishadi, ma’lumotlarni chin dildan qabul qilishadi va manipulyatsiya yoki psixologik bosim o‘tkazish orqali natijaga erishishga harakat qilishmaydi. Haqiqiy muloqotni, shaxs qadriyatlar va ma’naviy yo‘nalishlardan mahrum qilingan, agressivlik muhitida amalga oshirib bo‘lmaydi. U bir-biriga ishonch, o‘zini mustaqil namoyon eta olish, ma’naviy-axloqiy tamoyillarga asoslangan bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Проблема разработки понятия лиchностного отношения к семе (на материале родителей из многодетных семей) // Психология отношений: материалы регионалной наychно-практичеcкой конференции. - Владимир: ВГПУ, 2001. -С.225-227.
2. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis. ... Psi¬xol. fan. nomzodi: 19.00.05/ O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU. - T., 2004. - B.10- 11.
3. Burxanova M. B O‘smir-yoshlarni ijtimoiylashuvida oila muhitining roli. “Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari” mavzusida Respublika ilmiy-

amaliy konferensiya. 2023-yil 24-fevral. - Toshkent, Jamoat xavfsizligi universiteti. - B.220-222.

TA’LIM JARAYONIDA MNEMONIK TEXNIKALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Abdurashidova Rushana Farhodovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya Mazkur maqolada ta’lim jarayonida mnemonik texnikalardan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilingan. Mnemotexnikaning o‘quvchilarning xotira, tafakkur hamda og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar va interaktiv platformalarning mnemonik yondashuv bilan integratsiyasi ta’lim samaradorligini oshirish omili sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: mnemotexnika, mnemonik texnikalar, assotsiativ mnemonika, vizual mnemonika, xotira, tafakkur, raqamli texnologiyalar.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilimni samarali o‘zlashtirishi, uni uzoq muddat xotirada saqlashi hamda nutqiy faoliyatda qo‘llay olishi muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, axborot oqimi kuchayib borayotgan bugungi davrda o‘quvchilarning xotira, tafakkur va nutq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarga ehtiyoj ortmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mnemonik texnikalar ta’lim jarayonida samarali pedagogik vosita sifatida alohida аҳамият kasb etadi.

Mnemotexnika (yunoncha *mneme* - xotira, *techne* - mahorat) insonning eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus usullar majmuasi hisoblanadi[1]. Ushbu texnikalar turli kodlash, tasavvur, assotsiatsiya, qisqartma, obraz va ramzlardan foydalanishga asoslanadi. Mnemotexnika o‘quvchilarga ma’lumotlarni tizimli tarzda yodda сақлаш, kerakli vaqtda tezda esga tushirish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni ongli ravishda qo‘llash imkonini beradi. Shu bois, u nafaqat xotira samaradorligini oshiradi, balki tafakkur, tanqidiy fikrlash va mantiqiy bog‘lash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Bugungi kunda mnemonika zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, yangi bosqichga ko‘tarildi. Mobil ilovalar, raqamli “xotira saroylari”, interaktiv o‘yinlar va gamifikatsiya asosidagi platformalar mnemonik tamoyillar asosida ishlab chiqilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ta’lim jarayonining samaradorligini kuchaytirmoqda. Demak,

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Mnemotexnika

mnemonik texnikalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimida innovatsion yondashuv sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Mnemonik texnikalar inson xotirasining tabiiy mexanizmlariga tayanadi. Psixologiyada xotira ma’lumotni qabul qilish, kodlash, сақлаш va qayta tiklash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Atkinson va Shiffrinning uch bosqichli xotira modeli asosida inson miyasi axborotni sensor xotira, qisqa muddatli xotira va uzoq muddatli xotira orqali qayta ishlaydi. Mnemonik texnikalar aynan ushbu jarayonni faollashtirib, ma’lumotning uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanishini ta’minlaydi. A.Paivioning Dual Coding nazariyasiga ko‘ra, inson miyasi axborotni verbal va vizual shaklda birgalikda qabul qilganda eslab qolish darajasi sezilarli oshadi. Shu sababli mnemonik texnikalarda rasm, rang, diagramma, xarita va belgilar keng qo‘llaniladi. Vizual obrazlar o‘quvchi tafakkurida kuchli assotsiatsiyalar hosil qiladi va eslab qolish jarayonini yengillashtiradi[1]. A.Baddeleyning ishchi xotira modeli ham mnemonik texnikalarning ilmiy asosini tashkil etadi. Ushbu modelda fonologik sikl og‘zaki axborotni qayta ishlasa, visuo-spatial sketchpad vizual va fazoviy ma’lumotlarni boshqaradi. Mnemonik yondashuvlarda aynan ushbu ikki tizim birgalikda faoliyat ko‘rsatadi[2].

Vizual kodlash jarayonida o‘quvchilar ma’lumotni rasm, rang, sxema, diagramma va turli grafik belgilar yordamida qabul qiladi. Mnemo-jadvallar, vizual xaritalar hamda “xotira saroyi” kabi usullar axborotni obrazli shaklda tasavvur qilish imkonini yaratadi. Natijada o‘quvchilarning ko‘rish orqali idrok etish qobiliyati faollashib, ma’lumot uzoq muddatli xotirada mustahkamroq saqlanadi. Ushbu bosqichda ishchi xotiraning visuo-spatial sketchpad tizimi faol ishlaydi va obrazli tafakkur rivojlanadi.

Assotsiativ bog‘lash bosqichida esa yangi o‘rganilayotgan ma’lumot avvalgi bilim va tajribalar bilan o‘zaro bog‘lanadi. Kalit so‘zlar, obrazli tasavvurlar, hikoyalashtirish hamda mantiqiy zanjirlar orqali semantik aloqalar hosil qilinadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarga ma’lumotni tez esga tushirish, uni mantiqiy tizim asosida qayta tiklash hamda fikrni izchil ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, assotsiativ fikrlash va ijodiy tafakkur ham rivojlanadi.

Verbal kodlash bosqichida o‘quvchilar o‘zlashtirilgan ma’lumotni og‘zaki ravishda ifodalaydi, ichki nutq orqali takrorlaydi hamda dialog va muhokamalarda faol ishtirok etadi. Mazkur jarayonda fonologik sikl faoliyat ko‘rsatib, axborotni eshitish va talaffuz qilish orqali mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilarning og‘zaki nutqi ravonlashadi, kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi hamda fikrni aniq va mantiqiy bayon etish ko‘nikmalari shakllanadi.

[1] Paivio A. Mental Representations: A Dual Coding Approach. – Oxford: Oxford University Press, 1990.
[2] Baddeley A. Working Memory and Language Processing. – Oxford: Oxford University Press, 2020.

Mnemonik texnikalar o‘quvchilarning xotira faoliyatini kuchaytirish, ma’lumotni tez va samarali o‘zlashtirish hamda uni uzoq muddat eslab qolishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlar tizimidir. Ushbu texnikalar inson tafakkuri va xotirasining tabiiy mexanizmlariga asoslanib, ta’lim jarayonida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Assotsiativ mnemonika eng keng tarqalgan mnemonik usullardan biri bo‘lib, yangi ma’lumotni avvaldan mavjud bilimlar bilan bog‘lash tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuvda o‘quvchi yangi o‘rganayotgan so‘z, tushuncha yoki iborani o‘ziga tanish obraz, hissiyot yoki voqea bilan bog‘laydi. Natijada ma’lumot semantik jihatdan mustahkamlanib, tezroq eslab qolinadi. Assotsiativ mnemonika o‘quvchilarning mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, og‘zaki nutqda erkin va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Vizual mnemonika esa ma’lumotni ko‘rish orqali eslab qolishga asoslanadi. Ushbu usulda ranglar, shakllar, rasmlar, diagrammalar, sxemalar va turli grafik belgilar asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Inson miyasi vizual axborotni matnli ma’lumotga nisbatan tezroq qabul qilgani sababli, bu texnika o‘quvchilarning diqqatini jalb etish va xotirani mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, piktogrammalar vizual mnemonikaning sodda va ta’sirchan shakli hisoblanadi. Ular ma’lum tushunchalarni oddiy grafik belgilar orqali ifodalaydi. Masalan, 📚 belgisi kitob va o‘qishni, 📞 belgisi telefonni, 🚫 belgisi esa taqiq ma’nosini bildiradi. Piktogrammalarning afzalligi shundaki, ular tilga bog‘liq bo‘lmay, barcha tomonidan tez va oson tushuniladi[1].

Lokatsiya texnikasi yoki “xotira saroyi” usuli qadimiy mnemonik metodlardan biri sanaladi. Ushbu texnikada ma’lumot o‘quvchiga tanish bo‘lgan joylar bilan bog‘lanadi. Masalan, o‘quvchi o‘z uyini tasavvur qilib, har bir xona yoki predmetga ma’lum tushunchani joylashtiradi. Keyinchalik ushbu joylarni xayolan ketma-ket eslash orqali kerakli ma’lumotni tiklaydi. Mazkur usul fazoviy xotirani faollashtiradi, diqqatni jamlaydi va fikrlarni tartibli bayon qilishga yordam beradi. Shu sababli lokatsiya texnikasi prezentatsiya, insho yozish hamda og‘zaki chiqishlarda keng qo‘llaniladi.

Akronim mnemonikasi murakkab yoki ko‘p tarkibli ma’lumotlarni qisqartma shaklida yodda saqlashga xizmat qiladi. Ushbu usulda bir nechta so‘zning bosh harflaridan yangi so‘z yoki ibora hosil qilinadi. Masalan, “HOMES” so‘zi orqali Shimoliy Amerikadagi buyuk ko‘llar - Huron, Ontario, Michigan, Erie va Superior nomlarini eslab qolish mumkin. Akronim texnikasi o‘quvchilarning tizimli fikrlashi, umumlashtirish va mantiqiy bog‘lash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

[1] Buzan T. Use Your Memory. – London: BBC Books, 2006.

Hikoyalashtirish texnikasi esa ma’lumotni mazmunli voqea yoki hikoya tarkibida joylashtirishga asoslanadi. O‘quvchilar yangi so‘zlar yoki tushunchalarni bir-biri bilan bog‘lab, qisqa hikoya tuzadi. Bu usul ma’lumotni hissiy obrazlar va voqealar bilan uyg‘unlashtirgani sababli, u uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanadi. Hikoyalashtirish texnikasi nafaqat xotirani rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, matn tuzish malakasi va og‘zaki nutqini ham takomillashtiradi. Ayniqsa, o‘z fikrini ravon, mantiqiy va izchil bayon qilishda ushbu texnikaning pedagogik imkoniyatlari juda katta hisoblanadi.

Bugungi kunda mnemonik texnikalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashib, ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli platformalar va mobil ilovalar mnemonik tamoyillar asosida ishlab chiqilib, o‘quvchilarning bilimni samarali o‘zlashtirishiga xizmat qilmoqda. Xususan, Quizlet, Memrise hamda Duolingo kabi ilovalar vizual kodlash, assotsiativ bog‘lash va takrorlash mexanizmlaridan keng foydalanadi. Ushbu platformalarda flashcards, mind-map, interaktiv mashqlar, audio-vizual materiallar va gamifikatsiya elementlari orqali o‘quvchilarning eslab qolish samaradorligi sezilarli darajada oshiriladi[1].

Raqamli mnemonik vositalarning muhim jihati shundaki, ular o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undaydi hamda ta’lim jarayoniga faol jalb qiladi. Interaktiv topshiriqlar va o‘yin elementlari o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, individual yondashuv asosida tashkil etilgan topshiriqlar har bir o‘quvchining qobiliyati va o‘zlashtirish darajasiga mos ravishda taqdim etiladi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, nutqiy va kognitiv faoliyatning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, zamonaviy mnemonik texnologiyalar o‘quvchilarning vizual, eshitish va assotsiativ xotirasini birgalikda faollashtirib, ma’lumotni uzoq muddatli xotirada saqlash imkonini yaratadi. Natijada o‘quvchilar nafaqat ma’lumotni tez eslab qoladi, balki uni amaliy faoliyatda qo‘llash, mantiqiy tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois raqamli mnemonik vositalar zamonaviy ta’limning innovatsion va samarali metodlaridan biri sifatida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, mnemonik texnikalar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning xotira, tafakkur va nutq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalardan biridir. Ular inson xotirasining tabiiy mexanizmlariga asoslanib, ma’lumotni kodlash, saqlash va qayta tiklash jarayonini yengillashtiradi. Shuningdek, mnemonik texnikalarning zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi ularning samaradorligini yanada oshirmoqda.

[1] Anderson J.R. “Memory and Learning Strategies in Language Education” // Applied Linguistics. – 2020. – Vol. 41, No. 3. – P. 456–478.

Shu bois, mnemonik yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini kuchaytirish va innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Paivio A. Mental Representations: A Dual Coding Approach. - Oxford: Oxford University Press, 1990.
2. Baddeley A. Working Memory and Language Processing. - Oxford: Oxford University Press, 2020.
3. Buzan T. Use Your Memory. - London: BBC Books, 2006.
4. Anderson J.R. “Memory and Learning Strategies in Language Education” // Applied Linguistics. - 2020. - Vol. 41, No. 3. - P. 456- 478.

TA’LIM TURIZMI MILLIY TURIZMNING MUHIM OMILI VA VOSITASI SIFATIDA

Xashimov Sheraxon Jo‘raxonovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim turizmining milliy turizm tizimidagi o‘rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta’lim turizmi zamonaviy turizmning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanib, uning ta’lim xizmatlari, akademik almashinuv, ilmiy hamkorlik hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim turizmining milliy turizm infratuzilmasini takomillashtirish, mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash, xorijiy talabalar va tadqiqotchilar oqimini ko‘paytirish hamda turizm xizmatlari bozorining raqobatbardoshligini oshirishdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim turizmi, milliy turizm, turizm industriyasi, akademik mobillik, xalqaro ta’lim, ta’lim xizmatlari, madaniyatlararo muloqot, turizm infratuzilmasi, inson kapitali, barqaror rivojlanish, ilmiy hamkorlik.

Ta’lim turizmi bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosatda katta e’tibor qaratilayotgan masalalardan biridir. O‘zbekistonda ta’lim turizmi bilan birga inklyuziv turizmga ham katta e’tibor berilib, inklyuziv turizm bu imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan fuqarolar uchun tashkil etiladigan turizmdir. Inklyuziv turizmni tashkil qilish jarayonida imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan fuqarolarning bilimi, dunyoqarashi kengayadi, ularning jamiyatga

ijtimoiylashuv jarayoni kuchayadi. Ta’lim turizmida bilim olish sayohatning asosiy maqsadi sifatida e’tirof etiladi. Oliy ta’lim muassasalari, universitet va institutlar, til o‘rgatuvchi maktablarda ta’lim olish, turli ta’lim muassasalariga uyushtiriladigan sayohatlar ta’lim turizmining asosiy o‘rganish sohasidir. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan ta’riflarga ko‘ra, ta’lim olish va kasbiy tayyorgarlikni nazarda tutuvchi sayohatlar quyidagi ko‘rinishdagi faoliyatlarda aks etadi: - qisqa muddatli kurslarda tahsil olish; - rasmiy kurslarda qatnashish orqali kasbiy malaka kompetensiyalarini egallash. Bunda “ta’lim turizmi” tushunchasi odatdagi muhitdan farqli bo‘lgan bir yilgacha muddatda ma’lum bir yo‘nalishda sayohat qiluvchi hamda iqtisodiy manfaatdorlikni nazarda tutmagan har qanday faoliyatda ifodalanadi[1].

Ta’lim turizmi turizm sohasining serqirra turlaridan biri sifatida til o‘rganish, ta’lim olish, malaka oshirish, kasb-hunar o‘rganish, anjumanlarda ishtirok etish, sport turlarini o‘rganish kabi ko‘p kiruvchi va chiquvchi ta’lim turizmi yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Mamlakatimiz turizmni rivojlantirishda har qanday xorijiy mamlakatdan qolishmaydigan imkoniyatlarga va hali ro‘yobga chiqmagan salohiyatga ega. Shu bois turizmning ushbu turini jadal rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotda katta muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi[2].

Ma’rifiy turizm tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning tarkibiga ta’lim turizmi tushunchasi ham kiritiladi. Bundan tashqari “ta’lim turizmi” tushunchasi “madaniy turizm”, “madaniy va ekskursion-kognitiv turizm” kabi tushunchalar bilan o‘zaro bog‘liqdir. Ta’lim turizmi turistik sayohatlar majmuasi, turistlarni ta’lim olish maqsadi realizatsiyasi, ularning biror obyektga qiziqishini hamda narsa, hodisalarni o‘rganishga bo‘lgan boshqa ehtiyojlarini qondirish yo‘naltirilgan ekskursiyalar majmuasi, turistik sayohatlar kompleksini o‘z ichiga oladi. Ta’lim turizmi ma’lum ta’lim dasturlari doirasida sifatli ta’lim xizmatlarini olish maqsadlariga erishish uchun ixtisoslashtirilgan mamlakatlar va mintaqalarga shaxslar, guruhlar tomonidan o‘tkaziladigan sayohatni o‘zida ifodalaydi.

2023-yil 11-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-158-sonli ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga 1-ilovadagi 58 maqsad, - O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish, - deb nomlangan bo‘lib, ushbu maqsad doirasida, Turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish[3], belgilangan.

[1] https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Makhmudova.pdf
[2] https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-iqtisodiyotni-shakllantirishda-ta-lim-turizmining-roli
[3] https://lex.uz/ru/docs/6600413

Ta’lim turizmi insonning bilish jarayonlari, yangi bilim va taassurotlar olish bilan bog‘langandir. IRTS 2008 tasnifiga ko‘ra, ta’lim turizmi kirish turizmining alohida kichik turi sifatida ajralib turadi va turistik sayohat maqsadlariga muvofiq turizmning boshqa turlaridan farqlanadi. Ta’lim turizmi inson rivojlanishiga, bilimini sifat jihatidan yaxshilashga va shaxsiy o‘sishiga hissa qo‘shadigan o‘qish va turmush tarzi, sayohat shaklidir. Ta’lim turizmini tashkil qilishda ta’limning maqsadi, turistik guruh va tashrif buyurilgan mintaqaning o‘ziga xosligi, sayohatning davomiyligi va mavsumi, tur ishtirokchilarining yoshi, tajribasi, tayyorgarligi, o‘quv guruhi uchun moliyaviy harajatlari hisobga olinadi.

Ta’lim turizmi o‘ziga xos tasniflanish xususiyatiga ega bo‘lib, ta’lim turizmi 1. Ishtirokchilar tarkibiga ko‘ra - Maktab o‘quvchilari, talabalar, magistr, PhD, mutaxassislar, erkin tinglovchilar. 2. Maqsadga ko‘ra - Umumiy, ko‘nikmalarni rivojlantirish, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ta’lim olish, ta’lim berish, aralash (ta’lim olish hamda ta’lim berish). 3. Mavzusiga ko‘ra - Keng qamrovli, atrof-muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar, texnikaviy, kasbiy. 4. Ishtirokchilar soniga ko‘ra - Individual, guruh. 5. Shakllantirilganligiga ko‘ra - maxsus tashkil etilgan, tashkillashtirilmagan. 6. Faoliyatning tashkil etilishi - Dialog, virtual, ilmiy-amaliy anjumanlar, innovatsion yarmarkalar. 7. Hududiy miqyosiga ko‘ra - Mahalliy, hududiy, xalqaro. 8. Sayohat turlari - Til o‘rganish bo‘yicha turlar, sport bo‘yicha turlar, Kasb-hunar o‘rganish, malaka oshirishga yo‘naltirilgan turlar. 9. Moliyalashtirish manbalariga ko‘ra - Davlat grantlari, o‘z mablag‘lari hisobidan, Nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan. 10. Muddatiga ko‘ra - Qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli. 11. Ishtirokchilar yoshiga ko‘ra - 16 yoshgacha, 16-25 yoshgacha, 25-45 yoshgacha, 45-65 yoshgacha, 65 yosh va undan yuqorilar. 12. Ko‘lamiga ko‘ra - Ichki, kiruvchi, chiquvchi[1], kabi yo‘nalishlarga bo‘linadi.

2020-yil 6-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonda maktab ta’limi bo‘yicha ilg‘or davlatlar tajribasini, xususan, Finlyandiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish vazifasi yuklatildi. Fin o‘quvchilari PISA tadqiqotidagi barcha yo‘nalishlarda savodxonlik va ta’lim tengligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishgan bo‘lib, PISAning o‘ziga xos xususiyati, u ta’lim oluvchilardan sof bilimni emas, balki turli sohalardagi savodxonlikni baholaydi. Savodxonlik - “o‘quvchilarning asosiy mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyati, turli vaziyatlarda muammolarni aniqlash, talqin qilish va hal qilishda samarali tahlil qilish, mulohaza yuritish va muloqot qilish qobiliyati” sifatida izohlanadi. PISA dasturi doirasida har 3 yilda takrorlanuvchi

[1] https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Makhmudova.pdf

sikllarda o‘quvchilarning matematik, tabiiy fanlar va o‘qish fanlari savodxonligi baholanadi[1]. PISA dasturi 2000 yilda tashkil etilgandan buyon Finlyandiya unda muntazam qatnashib kelmoqda va erishgan natijalari bilan fin ta’lim tizimi dunyodagi ko‘plab mamlakatlarining e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Finlyandiya ta’lim tizimi PISA tadqiqotlari natijalari bo‘yicha uzoq davrda eng yaxshi natijalarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Finlyandiya PISA tadqiqotlarida ishtirok etuvchi mamlakatlar orasida o‘quvchilarning haftalik o‘quv yuklamasi eng qisqa davlat hisoblanadi. Eng qisqa o‘qish vaqti va yuqori ballar Finlyandiya ta’lim tizimining jozibadorligini orttirdi.

Finlyandiya ta’limining uchta asosiy maqsadi: **1)** o‘quvchilarga hayotda zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni berish, 2) jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ‘ib qilish hamda **3)** butun mamlakat bo‘ylab ta’lim sohasida tenglikni ta’minlashdan iboratdir. Fin maktablarida dars jarayonida to‘liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi.

Finlyandiya ta’lim siyosatida uchta muhim tamoyil mavjud bo‘lib, bular: bilimga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tengligini ta’minlash va mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirishdan iboratdir. Finlyandiya ta’lim tizimining asosini 7 ta tamoyil tashkil etib, bular - tenglik, bepul ta’lim, individuallik, amaliylik, ishonch va o‘qituvchilar salohiyati, ixtiyoriylik, mustaqillikdan iboratdir. Finlyandiya ta’limining muhim xususiyatlaridan yana biri, u barcha darajalarda, ya’ni maktabgacha ta’limdan oliy ta’limga qadar to‘liq bepul ta’lim olishni ta’minlaydi. Shuningdek, barcha o‘quv materiallari, darsliklar, sog‘liqni saqlash xizmatlari va maktabga qatnash transport xizmatlari, o‘quvchilarga tushlik ham bepul amalga oshiriladi. Finlyandiya muvaffaqiyatining sabablari o‘qituvchilar salohiyati, ta’lim siyosati va fin madaniyati bilan bog‘liq omillar[2] dan iboratdir.

Ta’lim sohasidagi Yaponiya tajribasi ham o‘zining bir qator ijobiy jihatlari bilan ajralib turadi. Yaponiyada barcha bolalar bepul umumiy ta’lim olishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilgan. Yapon ta’lim tizimi bog‘cha, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim kabi bo‘limlardan iborat. Yaponiyada bola tarbiyasiga o‘ta mas’uliyat bilan yondashiladi va maktabgacha ta’lim tizimiga katta e’tibor bilan qarashadi. Yaponiyalik bolalarning 99 foizi maktabgacha ta’lim tizimi xizmatidan foydalanadi. Yaponiyada bolaga darslarni yodlatish emas, balki o‘yin usulidan foydalaniladi. Yaponiyada matematika mashg‘ulotlariga boshqa fanlarga nisbatan ko‘proq vaqt ajratiladi. Yaponiyada maktab o‘quvchilarining ko‘pchiligi maktabdan keyin turli mashg‘ulotlarga qatnaydi. Bilimi, salohiyatini

[1] https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-586267

[2] https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-586267

yanada oshirishga erishadi. Yaponiya maktablarida bolalar mehnatga o‘rgatiladi. Ularda o‘z mehnatini qadrlash ko‘nikmasi shakllantiriladi. Tarbiya va ta’lim sohasidagi qattiq intizom tufayli Yaponiya tez sur’atlarda iqtisodiyoti eng rivojlangan mamlakatlardan biriga aylandi[1].

O‘zbekistonda ta’lim turizmini tashkil qilish jarayonida jahondagi rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi yutuqlarni o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim turizmi jahondagi rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi yutuqlarni o‘rganish, ularni hayotga tatbiq etish va shu asosda jamiyat hayotining barcha sohalarida rivojlanishni ta’minlash imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Makhmudova.pdf
2. https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-iqtisodiyotni-shakllantirishda-ta-lim-turizmining-roli
3. https://lex.uz/ru/docs/6600413
4. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Makhmudova.pdf
5. https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-586267
6. https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-586267
7. Tarbiya va ta’limda yapon tajribasi // https://adolat24.uz/?p=23014 .

TIBBIYOTNING FAN SIFATIDA FALSAFIY ASOSLARI

Yusupov Murodali Sunnatovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot va falsafa o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, tibbiyotning fan sifatida shakllanishida falsafiy tafakkurning o‘rni hamda shifokor faoliyatining ma’naviy-axloqiy asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada zamonaviy tibbiyotda biotibbiyot, klinik va ijtimoiy-gigiyenik fanlarning integratsiyasi, tibbiyotning tijoratlashuvi, farmasevtika sanoatining rivojlanishi hamda sog‘liqni saqlash tizimida ijtimoiy adolat masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqotda profilaktik tibbiyot konsepsiyasi va “ikkinchi epidemiologik inqilob”ning mohiyati ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot falsafasi, shifokor etikasi, antropotsentrizm, salomatlik, biosentrizm, profilaktika, biotibbiyot, tibbiy tafakkur, ijtimoiy adolat, farmasevtika, tibbiyotning tijoratlashuvi, sog‘liqni saqlash.

[1] https://adolat24.uz/?p=23014 Тарбия ва таълимда япон тажрибаси.

Tibbiyotning falsafa bilan uzviy bog‘liqligi - intellektual umuminsoniy qadriyatlarning eng qadimgi turi doimo tibbiyot olimlarining e’tiborini tortdi. Falsafada shifokorlar tibbiy donolikning diqqat markazini uning oqilona hayotni tashkil etish uchun hayotni tasdiqlovchi tamoyillari shaklida ko‘rdilar. Inson hayoti va faoliyatining birinchi tibbiy va falsafiy baholarida allaqachon kosmosentrikdan biosentrikga, so‘ngra dunyoqarashning antropotsentrik tizimiga o‘tish amalga oshirildi. Tibbiyotning otasi Gippokrat (miloddan avvalgi 460 - 377 yillar) tibbiyot donishmandligini shifokorlarning odamlarga munosabatini insoniylashtirish, ularning axloqiy pokligini - bir-birini hurmat qilish, har narsada vazminlik, ovqat, ichimlikda me’yorni namoyon etish vositasi deb hisoblagan.

Gippokratning fikricha, falsafa tabiblarni umuminsoniy donolik makoniga kiritadi. Bu shifokorlarda kasalliklarning o‘z vaqtida va sifatli oldini olish uchun yuksak fuqarolik mas’uliyati hissini uyg‘otadi. Falsafiy hikmat tabibni doimiy ravishda ilmiy bilimlarni, ilg‘or usullarni, odamlarni og‘riqdan xalos qilishning eng yaxshi vositalarini, katta va kichik, jismoniy va aqliy o‘zlashtirishga intilishni maqsad qiladi. Binobarin, tabib insonlar salomatligini ta’minlashda dono ustoz sifatida tibbiyot falsafasini chuqur ijtimoiy-madaniy, manaviy-axloqiy tushunishni talab qiladi.

Ma’rifatparvarlik davrida shifokor va faylasuf P.J.Kabanis (1757-1808) insoniyatning umumiy madaniy rivojlanishida tibbiyotning o‘sha paytda paydo bo‘lgan yangi ilmiy maqomini juda aniq aks ettirgan. Keyinchalik N.I.Pirogov (1810-1881) o‘z shogirdlarini yaxshi umumiy ma’lumotga ega bo‘lmagan shifokor shifokor emas, balki hunarmand ekanligidan ogohlantirgan. Ularga “Bo‘lmoq yoki ko‘rinmoq” mavzusida so‘z yuritar ekan, inson dunyoqarashini faqat tabiiy ilmiy bilimlar asosida shakllantirish mumkin emasligini, falsafani idrok etish zarurligini ta’kidladi. Shifokor, faylasuf kabi, o‘zini shaxs sifatida, yuksak intellektual va tanqidiy fikrlaydigan mutaxassis sifatida o‘zida kashf qilishi kerak. Ammo hozirga qadar tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida asosan tibbiy amaliyotning tor professional sohasi bilan band bo‘lgan tor mutaxassislarni tayyorlamoqda. Ular insonga murakkab shaxsiy ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki tirik organizm sifatida qarashda davom etadilar.

Inson salomatligi nafaqat tananing, balki uning ruhiy holatining xam yaxshiligidir. Sog‘likka kompleks yondashuv insonda biologik, fiziologik, ijtimoiy va ma’naviy parametrlarni birlashtira oladigan konseptual apparatni ishlab chiqishga imkon beradi. Inson tanasi va ruhining ajralmasligi, uning irodaviy, aqliy va boshqa qobiliyatlari bilan tavsiflanadi. Mohiyatan inson ijtimoiy, tabiiy va ma’naviy hodisa bo‘lib, tabiiy tabiat mahsuli bo‘lgan, shunday bo‘lib qoladi, u o‘z hayotiy faoliyatida uning chegarasidan tashqariga chiqa olmaydi. Biroq, uning o‘zi bilan o‘zaro

munosabatlarining asosi - tabiiy tabiat, uning ongli ijtimoiy ijodiy hayotiy faoliyatidir. Bugungi kunda insonning ongi ba’zan virtual vaziyatga botib, uni gallyusinasiyaga olib keladi.

Zamonaviy tibbiyot falsafasida shaxsning yaxlitligini tushunishning yagona ilmiy va falsafiy kredosi mavjud. Shu sababli tibbiyot falsafasi shifokorlarni birlashtirib, ularni aqliy, insonparvar, manaviy-axloqiy fikrlash va harakat turi asosida birlashtirdi. Tibbiyot tarixida tibbiyot fenomenini jahon madaniyati va fanining umumiy tizimining yetakchi qismi, shifokorlar va farmasevtlar rivojlanishining intellektual manbasi sifatida falsafiylashtirishga urinishlar ma’lum. Ular orasida K.Bernard, R.Virxov, M.Ya. kabi taniqli olimlar va tibbiyotning asl faylasuflari bo‘lgan, A.A.Bogomolets, A.D.Speranskiy, N.I.Pirogov, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, P.K.Anoxin, I.V.Davidovskiy, D.S.Sarkisov va boshqalar. Bu shifokorlar alohida, falsafiy tafakkurga ega, tibbiyot yutuqlarini fan sifatida tanqidiy idrok etadilar.

Biotibbiyot, klinik va ijtimoiy-gigiyena fanlarining kelajagi tabiiy, gumanitar va texnik fanlarning birlashishiga bog‘liq. Shuningdek, fanning, falsafaning metodologik, dunyoqarash muammolari bilan aloqasi haqida, D.S.Sarkisov shunday deb yozgan edi: “Bo‘lajak shifokorlarning umumiy tibbiy va falsafiy ta’limini uzviy bog‘lash kerak, chunki nazariy tibbiyotning etiologiyasi, patogenezi, buzilgan funksiyalarni kompensatsiya qilish, qisman va to‘liq muammolar kabi nazariy tibbiyotning markaziy muammolarini samarali muhokama qilish lozim. Buzilgan funksiyalarni tartibga solish asoslari, asabiylashish va boshqalar, hozirgi vaqtda tibbiyot fanining faktik materiallarini dialektikaning asosiy qonunlari, uning kategoriyalari, tamoyillari, bilishning dialektik-materialistik nazariyasi va boshqalar prizmasidan ko‘rib chiqmasdan turib, vaqtni aniqlab bo‘lmaydi”[1]

Tibbiyot ilmining tijoratlashuvi, bozor iqtisodiyotiga o‘tishi uning yutuqlari, kashfiyotlari va ixtirolari tobora tovarga aylanib borayotganida namoyon bo‘ladi. Demak, tibbiy bilim foydali tovarga aylanmoqda. Bu, ayniqsa, genetiklar, ildiz hujayralari va boshqalar tomonidan kashf etilgan genlarni patentlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Patent ilmiy bilimlarning bozor shaklidir, bu fan taklif qiladigan tovar, ilmiy laboratoriyalar va institutlarning tashkiliy tuzilmasida - patent byurolari, marketing guruhlari va boshqalarda bozorga yo‘naltirilgan tuzilmalar paydo bo‘lishidir. Ayni paytda zamonaviy biznesning eng nufuzli sohalaridan biri - farmasevtika sanoati vujudga kelmoqda. Afsuski, u o‘zining pragmatik xususiyatlari bilan tovar-pul munosabatlari tizimiga muqarrar ravishda kiradi.

Kishining kasalligi daromad manbaiga aylanib qolgan, shifokor va farmasevt bemorlar sonini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘lgan holatlar tibbiyotning insonparvarlik asoslariga zid bolgan jarayondir. Bu ko‘plab mamlakatlarda davlat boshqaruvi tizimini tanlash va yuqori sifatli tibbiy xizmatni ta’minlash

tendensiyasini kuchaytirishga katta hissa qo‘shadi. Shu sababli, davlat xavfsizligi darajasining zamonaviy mezonlaridan biri uning fuqarolarning sog‘lig‘ini qay darajada himoya qila olishidir. Sog‘liqni saqlashda ijtimoiy adolat tamoyili bugungi kunda nafaqat insonning sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquqi bilan, balki bu huquq qanday ta’minlanayotgani, inson muayyan jamiyatda sog‘liqni saqlash sohasida qay darajada himoyalanganligi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Tibbiyot hozirda XX asrning o‘rtalarida boshlangan “ikkinchi epidemiologik inqilob” ni boshdan kechirmoqda. Uning maqsadli yo‘nalishi - odamlar salomatligini saqlash va mustahkamlashdir. Uning asosiy usuli - kasalliklarni davolashdan ularning oldini olishga o‘tish (profilaktika), shu asosda - salomatlik “qurilishi”ga o‘tishdir. So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab sivilizatsiyalashgan mamlakatlari aholisi shunchalik taraqqiy ettiki, o‘lim sabablaridan immunoterapiya, kimyoterapiya va ommaviy jarrohlik operatsiyalari yordamida deyarli to‘liq davolash mumkin bo‘lgan deyarli barcha kasalliklar tanlab olindi. Ammo nozologik shakllarning yangi turlari, sivilizatsiya kasalliklari deb ataladigan narsalar ham mavjud bolib, dunyoda aholi salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashda hali bunday yutuqlar mavjud emas. Bu yo‘nalishdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, kasbiy muammolar bilan bir qatorda, birinchi navbatda, tibbiyotdagi tadqiqot muammosi ham bartaraf etilmagan.

Xulosa qilganda, tibbiyot va falsafa o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik inson salomatligini chuqur va har tomonlama anglash imkonini beradi. Falsafa tibbiyotning metodologik, axloqiy va dunyoqarash asoslarini shakllantirib, shifokorni nafaqat professional mutaxassis, balki yuksak ma’naviyat va insonparvarlik egasi sifatida tarbiyalaydi.

Adabiyotlar ruyxati

1. Gippokrat. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Fan, 2010.
2. Pirogov N.I. Hayot masalalari va shifokor etikasi. - Moskva, 1985.
3. Pavlov I.P. Oliy nerv faoliyati haqida ma’ruzalar. - Moskva: Meditsina, 1973.
4. Sechenov I.M. Bosh miya reflekslari. - Moskva, 1961.
5. Саркисов Д.С. Клиник медицина. М.: 1999.
6. Yusupov M. S. Философский анализ, определения и классификация понятия “Здоровье” //Theoretical & Applied Science. - 2020. - №. 10. - С. 180-184.

TIBBIYOTDA MANAVIY VA AXLOQIY TAMOYILLAR: BIOETIKANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Yusupov Murodali Sunnatovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b.,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyotda ma’naviy va axloqiy tamoyillarning tarixiy shakllanishi, ularning zamonaviy tibbiyot va bioetika tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada biotexnologiya, genetik muhandislik, reproduktiv texnologiyalar va nanotexnologiyalar rivoji natijasida yuzaga kelayotgan axloqiy muammolar tibbiy etika nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Maqolada zamonaviy bioetikaning insonparvarlik, adolat, rahm-shafqat va javobgarlik tamoyillari asosida shakllanish zarurati asoslab berilgan.

Kalit suzlar: Tibbiyot etikasi, bioetika, ma’naviyat, axloqiy tamoyillar, Gippokrat qasamyodi, biotexnologiya, genetik muhandislik, tibbiy javobgarlik, insonparvarlik, tibbiy huquq.

Tibbiyot inson salomatligini saqlash va hayotni himoya qilishga xizmat qiluvchi eng qadimiy va mas’uliyatli sohalardan biridir. Shu sababli tibbiyot faoliyati har doim ma’naviy va axloqiy tamoyillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, dastlabki axloqiy me’yorlar miloddan avvalgi III ming yillikda Mesopotamiyada shakllangan bo‘lib, ular asosan diniy va davolovchi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ruhoniylarga nisbatan qo‘llanilgan.

Miloddan avvalgi 2500-yilda Bobilda yaratilgan birinchi tibbiy kodeks shifokorlarning mas’uliyati va javobgarligini belgilab bergan. Qadimgi Forsda esa tabibdan nafaqat kasbiy bilim, balki bemorga nisbatan yuksak muomala madaniyati ham talab qilingan.

Miloddan avvalgi V asrda Misrga tashrif buyurgan Gerodotning (miloddan avvalgi 484-424) so‘zlariga ko‘ra, terapevtik vositalar arsenalida bemorga ta’sir qilishning jismoniy va biologik shakllari bilan bir qatorda axloqiy usullar faol va samarali ishlatilgan: og‘zaki, mimik va pantomimik effektlar. Tibbiyot sohasida axloqiy ong tamoyillari birinchi marta tabib va mutafakkir Gippokrat (miloddan avvalgi 460 - 377 yillar) tomonidan ishlab chiqilgan va falsafiy asoslab berilgan. U shunday qasam ichgan: “Men o‘z hayotimni va faoliyatimni sof va toza olib boraman. Qaysi uyga kirsam ham, bemorning manfaati uchun u yerga kiraman. Keyinchalik Siseron (miloddan avvalgi 106-043) tibbiyotda axloqiy ko‘rsatmalarning ikkita ongli tamoyiliga ishora qildi: “Hech kimga zarar bermang va ziyon keltirmang”.

Tibbiyot amaliyotida axloqiy ong o‘tmishdagi shifokorlar (tabiblar) tomonidan doktrinal (lot. doctrina - rasmiy tamoyil) munosabat-talablar sifatida

tavsiflangan. Ular tibbiyotda qat’iy standartlar shaklida amalga oshirildi, ularning mazmuni shifokorning falsafiy va axloqiy tarbiyasining yaxlit dasturi edi. Ammo, afsuski, tibbiyotdagi doktrinallik ko‘pincha, odatda bo‘sh, tarbiyalovchi axloqqa aylandi va shu bilan o‘ziga nisbatan salbiy munosabatni uyg‘otdi. Tibbiy etika barcha tibbiyot xodimlarining insonparvarlik madaniyatining an’anaviy axloqiy darajasini ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda tibbiy etika hali ham murakkab axloqiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilmoqda. Biroq, hayotimizda tubdan boshqacha ijtimoiy munosabatlar paydo bo‘ldi va ular allaqachon ilmiy va tibbiyot xodimlariga ta’sir o‘tkazmoqda.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasini isloh etish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini tubdan yaxshilash maqsadida qishloq vrachlik punktlari, tez tibbiy yordam xizmati, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha ishlarimiz o‘z samarasini bermoqda. Tez tibbiy yordam brigadalari sonini 2 marta, ixtisoslashtirilgan hududiy tibbiyot markazlari sonini 16 taga ko‘paytirdik. Hududlarda 300 dan ziyod ixtisoslashgan bo‘lim, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiyot markazlarining 14 ta filiali faoliyatini yo‘lga qo‘ydik. Hududlardagi 1,4 mingdan ortiq davolash muassasasi to‘liq ta’mirlandi, 1,8 mingta ayollar maslahatxonasi, qizlar salomatligi xonalari, ijtimoiy dorixonalar, tez tibbiy yordam shoxobchalari hamda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq zamonaviy xususiy klinikalar tashkil etildi[1]

Olimlar, texniklar va texnologlarning bu ilmiy-ijodiy jarayonini to‘xtatib bo‘lmaydi, lekin ularda insonparvarlik, o‘z-o‘zini anglash, yuksak ma’naviy javobgarlik tuyg‘ularini shakllantirish orqali unga maqsadli ta’sir ko‘rsatish mumkin. Zamonaviy fan, texnika, texnologiya, tibbiyotdagi inqilobiy yutuqlar ilm-fan odamlari, ayniqsa, shifokorlar uchun yangi axloqiy tamoyillar va qoidalarni zudlik bilan ishlab chiqishni talab qiladi. Ushbu axloqiy tamoyillar va me’yorlar har qanday innovasion g‘oyalar yoki loyihalarni o‘z ichiga olishi nuqtayi nazaridan qat’iy bo‘lishi kerak. Yangi axloq, eng avvalo, mutaxassisning vijdonini hayajonga solishi kerak, u yangilikning yaratuvchisi bo‘lgan holda, dunyo va inson hayotidagi tartibning demiurgi (yunoncha demiurgos - xo‘jayin) bo‘lishi kerak. Buni yangi insonparvarlik axloqi amaliy falsafa sifatida barcha olimlar va tabiblarning ongi, his-tuyg‘ulari va vijdoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin va amalga oshirilishi kerak.

- Biotexnologiya yutuqlarini an’anaviy axloq va huquq talablari bilan, xususan, tibbiyotga qanday bog‘lash mumkin?

Insoniyat dunyosi - bu odamlar jamoasi, bu odamlarning bir-biri bilan va butun tirik tabiat dunyosi bilan tabiiy munosabatlaridir. Dunyoning ilmiy, tibbiy, falsafiy hamjamiyati, bularning barchasi tufayli tabiatshunoslikda tadqiqotchilar: olimlar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarga nisbatan tubdan boshqacha axloqiy talablarni ishlab chiqishga, fan, tibbiyotda yangi nazorat tamoyillarini yaratishga

majbur. Bu nafaqat inson hayotini, balki yerdagi butun hayotni ishonchli himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lar edi. Ilm-fan va tibbiyotdagi yangi axloqiy tamoyillar va qoidalar inson hayotini, zamonaviy jamoat manfaatlari va ehtiyojlarini ishonchli himoya qilishi kerak.

XX asrning oxirida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) inson tanasini klonlashni taqiqlovchi qaror qabul qildi. Genetiklarning fikricha, klonlash inson naslini davom ettirish usuli sifatida ham axloqiy nuqtayi nazardan qabul qilinishi mumkin emas va ilmiy nuqtayi nazardan, ayniqsa qimmatli genomlarga ega bo‘lgan odamlarni tanlash va klonlash mumkin emas. Ular ilmiy va amaliy emas, balki faraziy va spekulyativdir. Fanning gumanitar maqsadlaridan kelib chiqqan holda, bioetika hayot tamoyillarini ayniqsa ustuvor deb ataydi - adolat va hurmat, rahm-shafqat va hurmat va muhabbat.

Ilm-fan va tibbiyot olamida (ayniqsa, biotibbiyotda) rivojlanayotgan tubdan yangi sharoitlar munosabati bilan axloqiy majburiyatlar olimlar va amaliyotchilarga ularning xatti-harakatlari axloq va qonunga zid bo‘lmasligi uchun nima qilish kerakligi haqida boshqa yo‘nalishlarni so‘raydi. Bu savollar biotibbiyot fani va texnologiyasi hal qilishga intilayotgan muammolar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Ularning innovatsion ishlanmalari jamoatchilik va siyosatchilar oldiga ijtimoiy-madaniy xarakterdagi ma’lum falsafiy va axloqiy muammolarni qo‘yadi. Bu haqida Ilm-fanning hali kam o‘rganilgan sohalarida, masalan: reproduktiv texnologiyalar, molekulyar genetika, nanotexnologiya, biotexnologiya, ksenotransplantatsiya va boshqa ko‘plab sohalarda hayotga mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlar uchun tadqiqotchilarning ma’naviy javobgarligi mavjud. Shu sababli olimlar va shifokorlarning zamonaviy sharoitdagi ilmiy-tadqiqot faoliyati yangi axloq - bioetikaning diqqat markazida turadi.

Xulosa qilganda tibbiyotda ma’naviy va axloqiy tamoyillar inson salomatligini himoya qilishning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy fan va texnologiyalar rivojlanishi bioetikaning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shifokor va olimlarning kasbiy faoliyati insonparvarlik, javobgarlik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim. Shu bois bioetika nafaqat tibbiyotning, balki butun insoniyat taraqqiyotining muhim ma’naviy mezoniga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O`zbekiston strategiyasi. - T. O`zbekiston. 2021. B.53.
2. Саркисов Д.С. Клиник медицина. М.: 1999.

3. Yusupov M. S. Философский анализ, определения и классификация понятия “Здоровье” //Theoretical & Applied Science. - 2020. - №. 10. - С. 180-184.

4. Abdullayeva G. J., Sattorova D. G. GLOBAL BIOETIKANING AXLOQIY MUAMMOLARI //Academic research in educational sciences. - 2022. - Т. 1. - С. 38-41.

5. Musayevna T. D. Bioetika o‘rganadigan muammolar, bioetikani fan sifatida shakllanishi //Journal Of Multidisciplinary Bulletin. - 2024. - Т. 7. - №. 6. - С. 131-137.

NOFILOLOGIK OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI TALABALARIDA INGLIZ TILIDA YOZISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV-ARALASH YONDASHUV ASOSIDAGI METODIKASI

Abdilakimova Umida Baratovna
Samarqand davlat chet tillar instituti 3- kurs tayanch doktoranti
E-mail: umi.abdilakimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada nofilologik oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining ingliz tilida yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida integrativ-aralash yondashuvdan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda vazifaga asoslangan ta’lim (TBLT), loyihaga asoslangan ta’lim (PBL), hamkorlikda yozish, refleksiv tahlil hamda raqamli platformalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, blended learning modeli asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining talabalarning yozma nutq kompetensiyasiga ta’siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar kombinatsiyasining yozish ko‘nikmasi samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: yozma nutq kompetensiyasi, integrativ yondashuv, blended learning, TBLT, PBL, ESP, raqamli texnologiyalar, collaborative writing, peer-editing, refleksiya.

Kirish

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ingliz tilini kasbiy faoliyat vositasi sifatida egallash zamonaviy mutaxassis oldiga qo‘yilgan muhim talablar qatoriga kiradi. Ayniqsa, nofilologik oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida ingliz tilida yozma muloqot kompetensiyasini shakllantirish bugungi kun pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki texnika, arxitektura, qurilish, iqtisodiyot va boshqa sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar xalqaro akademik hamda professional kommunikatsiyada faol ishtirok etishi talab etiladi.

An’anaviy grammatika-markazlashgan o‘qitish metodlari uzoq yillar davomida xorijiy til ta’limida muhim o‘rin egallab kelgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha talabalarning real kommunikativ ehtiyojlarini to‘laqonli qondira olmaydi. Bunday yondashuvlarda grammatik qoidalarni yodlash va tarjima mashqlariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida talabaning mustaqil fikrlashi, erkin yozma muloqot olib

borishi hamda kasbiy vaziyatlarda ingliz tilidan amaliy foydalanish kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaydi. Ayniqsa, nofilologik oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida yozish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida an’anaviy metodlarning cheklanganligi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki mazkur yo‘nalish talabalari ingliz tilidan asosan akademik va kasbiy faoliyatda foydalanishga ehtiyoj sezadilar.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ingliz tilida samarali yozish ko‘nikmasi talabaning nafaqat lingvistik, balki kasbiy kompetensiyasining ham ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Zamonaviy mehnat bozori esa mutaxassislardan xalqaro kommunikatsiya, elektron yozishmalar, hisobotlar, ilmiy matnlar hamda loyiha hujjatlarini ingliz tilida mustaqil va kreativ tarzda yaratish ko‘nikmasini talab etmoqda. Shu sababli xorijiy tilni o‘qitishda talabaning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, tanqidiy tafakkuri va kasbiy yo‘nalganligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Mazkur tadqiqot aynan nofilologik yo‘nalish talabalari uchun ingliz tilida yozish ko‘nikmasini samarali rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda integrativ-eklektik yondashuv hamda aralash ta’lim (blended learning) modelining pedagogik imkoniyatlari va samaradorligi ilmiy-metodik jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda turli zamonaviy metod va texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish, ularning motivatsiyasini oshirish hamda ta’lim jarayonining interaktivligini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, raqamli platformalar, mustaqil ta’lim elementlari va kommunikativ topshiriqlardan foydalanish orqali talabalarning akademik hamda kasbiy yozish malakasini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida nofilologik oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining ingliz tilida yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda integrativ metodologik yondashuvlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodik asosini kommunikativ, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan hamda raqamli pedagogika tamoyillariga asoslangan innovatsion yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida ta’limning an’anaviy va zamonaviy shakllarini uyg‘unlashtiruvchi integrativ-aralash (blended learning) modeli qo‘llanildi. Ushbu model asosida auditoriya mashg‘ulotlari raqamli platformalar, interaktiv topshiriqlar va onlayn hamkorlik texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etildi. Natijada talabalar yozish jarayonida mustaqil fikrlash, analitik tahlil qilish, ijodiy yondashuv va refleksiv baholash ko‘nikmalarini egallash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tadqiqotning metodologik asosini vazifaga asoslangan til o‘rgatish (Task-Based Language Teaching - TBLT), loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning - PBL), hamkorlikda o‘qitish (Collaborative Learning), muammoli ta’lim (Problem-Based Learning) hamda jarayonli yondashuv (Process-oriented approach)

kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar tashkil etdi. Ushbu metodlar o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilib, talabalarni real kommunikativ va kasbiy vaziyatlarda ingliz tilida yozma faoliyat olib borishga tayyorlashga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Moodle, Google Docs, WordPress kabi raqamli platformalar hamda multimedia vositalaridan foydalanildi. Bu esa ta’lim jarayonining interaktivligini oshirish, talabalar o‘rtasida hamkorlik muhitini shakllantirish va yozma topshiriqlar ustida masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berdi.

Mazkur metodologik yondashuvlarning integratsiyasi nofilologik yo‘nalish talabalarining ingliz tilida yozish kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minladi hamda tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini kuchaytirdi.

1-jadval. Zamonaviy metodlarning yozish ko‘nikmasiga ta’siri

№	Metod nomi	Maqsadi	Natijasi
1	TBLT (Task-Based Learning)	Vazifa asosida yozish ko‘nikmasini rivojlantirish	Amaliy yozish malakasi shakllandi
2	PBL (Project-Based Learning)	Kasbiy loyiha asosida yozish	Professional kompetensiya oshdi
3	Collaborative Writing	Guruhda matn yaratish	Mantiqiy fikrlash va hamkorlik rivojlandi
4	Peer-editing	O‘zaro tahrir qilish	Xatolarni tahlil qilish ko‘nikmasi oshdi
5	Feedback Assessment	Tahliliy baholash	Refleksiv fikrlash shakllandi
6	Moodle va Google Docs	Raqamli yozish muhiti yaratish	Mustaqil va interaktiv ta’lim kuchaydi

Diagramma: Integrativ-aralash metodikaning tarkibiy modeli

Vazifaga asoslangan ta’lim (Task-Based Language Teaching - TBLT)

Mazkur metod talabaning til birliklarini nazariy o‘rganishidan ko‘ra, amaliy vazifalarni bajarish jarayonida yozish kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. TBLT asosida tashkil etilgan darslarda talabalar muayyan kommunikativ vazifalarni bajarish orqali yozma nutq malakalarini rivojlantirdilar.

Loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning - PBL)

PBL talabalarning uzoq muddatli kasbiy loyihalar ustida ishlashi orqali ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi. Ushbu metod ayniqsa nofilologik yo‘nalish talabalari uchun kasbiy mazmundagi yozma topshiriqlarni bajarishda samarali natija berdi.

Integrativ-kompetensiyaviy yondashuv; Tadqiqotda til o‘rganish jarayoni talabalar mutaxassisligi bilan integratsiyalashgan holda tashkil qilindi. Natijada

ingliz tili faqat grammatik tizim sifatida emas, balki professional kommunikatsiya vositasi sifatida o‘qitildi.

Interaktiv o‘qitish metodlari;Tadqiqotda talabalarni ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantiruvchi interaktiv metodlardan keng foydalanildi.

Collaborative Writing; Hamkorlikda yozish texnologiyasi orqali talabalar guruhlarda ishlash, fikr almashish, matn strukturasini yaratish va mantiqiy izchillikni ta’minlash ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Problem-Based Learning; Talabalarga kasbiy faoliyat bilan bog‘liq muammoli vaziyatlar taqdim etildi hamda ular mazkur muammoni ingliz tilida yozma ravishda tahlil qilish va yechim taklif qilishga yo‘naltirildi.

Scaffolding texnologiyasi; Yozishdan oldingi bosqichda talabalarni kerakli leksik va grammatik baza bilan ta’minlash orqali murakkab yozma topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarishga metodik ko‘mak berildi.

Baholash va refleksiya tizimi; Tadqiqot davomida an’anaviy baholashdan tashqari refleksiv va rivojlantiruvchi baholash metodlari qo‘llanildi.

Peer-editing; Talabalar bir-birining yozma ishlarini tahlil qilib, xatolar ustida ishlash orqali metalingvistik kompetensiyalarini rivojlantirdilar.

Feedback-based assessment; Baholash jarayonida faqat natija emas, balki xatolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini tushuntirishga ham alohida e’tibor qaratildi.

Refleksiv tahlil; Talabalar o‘z yozish jarayonini mustaqil tahlil qilish, duch kelgan qiyinchiliklarni aniqlash va o‘z rivojlanish dinamikasini baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari; Tadqiqotda blended learning modeli asosida an’anaviy va raqamli ta’lim integratsiyasi amalga oshirildi. Moodle, WordPress, Google Docs kabi platformalar orqali yozma topshiriqlarni tashkil qilish, monitoring qilish hamda onlayn hamkorlik muhiti yaratildi.

Bulutli texnologiyalar yordamida talabalar real vaqt rejimida hamkorlikda matn yaratish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shuningdek, multimedia vositalari va web-discussion texnologiyalari yozish jarayonining interaktivligini oshirdi.

Jarayonli yondashuvning ahamiyati

Process-oriented approach asosida yozish tayyor mahsulot sifatida emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ijodiy jarayon sifatida tashkil qilindi. Rejalashtirish, qoralama yozish, tahrirlash va qayta ko‘rib chiqish bosqichlari talabalarning akademik yozish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari va tahlil

Tadqiqot natijalari integrativ-aralash metodikaning yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, TBLT va PBL metodlarining kombinatsiyasi talabalar motivatsiyasini oshirib, yozish ko‘nikmalarining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalar va hamkorlikka asoslangan metodlar esa talabalarning mustaqil ishlash hamda refleksiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichida ijobiy dinamika kuzatildi va yozma nutq kompetensiyasining shakllanish darajasi sezilarli ravishda oshgani aniqlandi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, nofilologik oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining ingliz tilida yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda integrativ-eklektik va blended learning asosidagi metodik yondashuv samarali pedagogik model sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqotda qo‘llanilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar kombinatsiyasi talabalarni professional yozma kommunikatsiyaga tayyorlashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur metodika talabalarni nafaqat til o‘rganishga, balki o‘z mutaxassisligi doirasida ingliz tilida erkin yozma muloqot olib borishga tayyorlaydi. Shu jihatdan tadqiqot natijalari zamonaviy ESP metodikasini rivojlantirishga ham ilmiy-amaliy hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nunan David. Task-Based Language Teaching. - Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
2. Willis Jane. A Framework for Task-Based Learning. - London: Longman, 1996.
3. Richards Jack C., Rodgers Theodore S.. Approaches and Methods in Language Teaching. - Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
4. Harmer Jeremy. The Practice of English Language Teaching. - Pearson Education Limited, 2007.
5. Brown H. Douglas. Principles of Language Learning and Teaching. - New York: Pearson Education, 2007.
6. Hyland Ken. Second Language Writing. - Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
7. Vygotsky Lev S.. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Harvard University Press, 1978.
8. Piaget Jean. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 2001.
9. Moursund David. Project-Based Learning Using Information Technology. - Eugene: International Society for Technology in Education, 1999.
10. Graham Charles R.. Blended Learning Systems: Definition, Current Trends and Future Directions // Handbook of Blended Learning. - San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006.
11. Hampel Regine, Stickler Ursula. Developing Online Language Teaching. - London: Palgrave Macmillan, 2015.
12. Flower Linda, Hayes John R.. A Cognitive Process Theory of Writing // College Composition and Communication. - 1981. - Vol. 32. - №4. - P. 365- 387.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA YO‘L HARAKATI QOIDALARIGA RIOYA QILISH BO‘YICHA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Ergashev Nurmuhammad Jalilovich
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o‘quvchilarida yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish bo‘yicha axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, tamoyillari hamda samarali metodlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatining o‘quvchilarning huquqiy ongi, axloqiy mas’uliyati va ijtimoiy xulq-atvoriga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda yo‘l harakati qoidalariga ongli ravishda amal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy faoliyat hamda maktab-oila-mahalla hamkorligining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yo‘l harakati xavfsizligi, axloqiy madaniyat, pedagogik tamoyillar, o‘quvchi shaxsi, huquqiy ong, xavfsizlik madaniyati, ijtimoiy mas’uliyat, tarbiyaviy faoliyat, interfaol metodlar, yo‘l harakati qoidalari, pedagogik texnologiyalar, fuqarolik madaniyati, maktab va oila hamkorligi.

Bugungi globallashuv va urbanizatsiya jarayonida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, maktab yoshidagi o‘quvchilarning yo‘l harakati qoidalariga ongli ravishda amal qilishi nafaqat ularning shaxsiy xavfsizligini, balki umumiy ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarining aksariyati yo‘l harakati madaniyatining yetarli shakllanmaganligi, mas’uliyat hissining sustligi hamda xavfsizlik qoidalariga beparvo munosabat natijasida yuzaga kelmoqda. Shu bois, o‘quvchilarda yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish bo‘yicha axloqiy madaniyatni shakllantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur muammo faqatgina qoidalarni yod oldirish bilan cheklanmaydi. Chunki yo‘l harakati madaniyati bu shaxsning huquqiy bilimi, axloqiy mas’uliyati, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy ong va xulq-atvorining integrativ ko‘rinishidir[1]. Shu jihatdan qaraganda, o‘quvchilarda yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni ta’lim va tarbiyaning uzviy birligi asosida amalga oshirilishi zarur. Ushbu jarayonda o‘quvchining yo‘lda o‘zini tutish madaniyati, boshqalarning hayoti va salomatligiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, intizomlilik, mas’uliyat va ogohlik kabi fazilatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalik davrida shakllangan ijtimoiy-axloqiy ko‘nikmalar insonning keyingi hayotidagi xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktab ta’limi jarayonida yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishni axloqiy qadriyat sifatida singdirish zarurati ortib bormoqda. Bu esa o‘quvchilarda yo‘l harakati xavfsizligiga oid bilimlarni tizimli ravishda shakllantirish, amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish hamda real hayotiy vaziyatlar asosida tarbiyaviy faoliyat olib borishni talab etadi.

Axloqiy madaniyatni shakllantirishning muhim tamoyillaridan biri sifatida onglilik va mas’uliyatlilik tamoyiliga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur tamoyil asosida o‘quvchilarda yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishni shunchaki tashqi talab yoki majburiyat emas, balki inson hayoti va salomatligini asrashga xizmat qiluvchi ijtimoiy va axloqiy zarurat sifatida anglash ko‘nikmasi rivojlantirildi. Shu bilan birga, insonparvarlik tamoyili asosida o‘quvchilarda yo‘lda boshqa insonlarga nisbatan hurmat, bag‘rikenglik, o‘zaro yordam va ehtiyotkorlik kabi fazilatlarni shakllantirishga e’tibor berildi. Ayniqsa, piyodalar xavfsizligini ta’minlash, jamoat transportida madaniyatli harakat qilish, yo‘ldagi favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraldi. Shuningdek, maktab, oila va mahalla hamkorligi ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi. Ota-onalar bilan profilaktik suhbatlar, targ‘ibot tadbirlari, “Yo‘l harakati xavfsizligi haftaligi”, amaliy seminar va treninglar tashkil etilib, o‘quvchilarda xavfsiz harakatlanish madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maktab o‘quvchilarida yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish bo‘yicha axloqiy madaniyatni shakllantirish jamiyatning ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir. Ushbu jarayon o‘quvchilarda huquqiy ong, fuqarolik mas’uliyati, intizom va insonparvarlik kabi fazilatlarni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Yo‘l harakati madaniyatini shakllantirish samaradorligi ta’lim va tarbiyaning integratsiyasi, interfaol pedagogik texnologiyalar, oila-maktab-mahalla hamkorligi hamda amaliy mashg‘ulotlarning muntazam tashkil etilishiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha axloqiy tarbiyani maktab ta’limining uzviy qismi sifatida rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarga yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini o‘rgatishda faqat yo‘l harakati qoidalarini yodlatish kifoya qilmaydi. Bunda sinf ichidagi darslardan tashqari faol pedagogik ishlanmalar ham katta ahamiyatga egadir. Bu jarayon quyidagi ikki asosiy yo‘l orqali amalga oshiriladi:

O‘quvchilarga yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini o‘rgatishda birinchi yo‘l - o‘quvchilarning tevarak-atrofdagi olamni bevosita idrok etishi orqali bilimlarni

egallashi bo‘lib, bu jarayonda bolalar turli yo‘l harakati holatlari bilan faol tanishishadi, muayyan obyektlar, hodisalar va odamlarning harakatlarini kuzatadi, ularning o‘zaro munosabatlarini tahlil qiladi va o‘zining kreativ munosabatini bildiradi. Natijada, ularda tahliliy asosida xulosa chiqarish va o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish ko‘nikmalari rivojlanadi.

O‘quvchilarga yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini o‘rgatishda ikkinchi yo‘l - ota-onalar va o‘qituvchilarning tomonidan o‘quvchilar bilan jonli muloqot o‘rnatishi, hayotiy hikoyalar, badiiy adabiyotlarni o‘qish, teledasturlar va filmlar tomosha qilish, ochiq havoda o‘yinlar, turli maketlar, rasmlar va atributlar yordamida o‘quvchilarda haqiqatni idrok etish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali rivojlantiriladi [2]. Bu usul o‘quvchilarga sinf ichidagi bilimlarni boyitish, mustahkamlash va real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, muayyan sharoitlarni hisobga olish ham pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu tarzda, sinfdagi va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar integratsiyasi o‘quvchilarda yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini chuqur, tizimli va barqaror shakllantirish imkonini beradi.

Maktablarda o‘quvchilar o‘rtasida yo‘l harakati xavfsizligi bilan bog‘liq o‘yinlar va musobaqalarni tashkil etish pedagogik jarayonning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bunday tadbirlar o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, amaliy xulq-atvorni shakllantirish, shuningdek, xavfsizlik madaniyatini hayotiy vaziyatlarda tatbiq qilishga xizmat qiladi. Jumladan, maktabklarda “Yo‘llarda xavfsizlik”, “Yo‘l harakati xavfsizligi” haftaligi kabi rasmlar tanlovi, “Biz namunali piyodamiz” viktorinasi yoki “Ko‘chada bolaning xavfsizlik madaniyati” bo‘yicha ota-onalar bilan suhbatlar kabi tadbirlarni muntazam tashkil etib borish o‘quvchilarning ijodiy faoliyati, yo‘l harakati bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirib, xavfsizlik madaniyatini mustahkamlaydi. Olingan nazariy bilimlarni amaliy jarayonlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda**,** mazkur tamoyillar pedagogik faoliyatning samarali tashkil etilishi uchun nazariy-metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, maktablarda yo‘l harakati xavfsizligini o‘qitishda ushbu tamoyillarning ilmiy asoslangan holda tatbiq etilishi o‘quvchilarda harakat xavfsizligi madaniyatini shakllantirib, yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda, bolalar hayotini muhofaza qilish va ularning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiadi. Shu nuqtayi nazardan, maktablarda yo‘l harakati xavfsizligini o‘qitish jarayoni o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilim bilan, balki amaliy faoliyat, kuzatish, muhokama va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali o‘rganishga yo‘naltirilmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olimova M. Yo‘l harakati qoidalarini o‘qitishda vizual metodlar samaradorligi. Pedagogik izlanishlar, 6 (1), 2019. - B. 88-94.

2. Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD. Children and Road Safety: Behavioural Factors and Prevention Strategies. Paris: International Transport Forum, 2018.

3. Marasulov B.Sh. Boshlangich sinf o‘quvchilarida yo‘l xarakati qoidalariga ma’sulyatli munosabatni shakllantirish metodikasi // Экономика и социум. - 2023. - №. 1-1 (104). - С. 35-37.

V SHO‘BA. “YASHIL IQTISODIYOT” VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR FALSAFASI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

IBODAT VA KVANT FIZIKASI: ILMIY VA FALSAFIY TAHLILI

Saidaxror Saidaxmedovich G‘ulomov

O‘zR FA akademigi, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Mamayunus Qarshibayevich Pardayev

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Annotasiya. Mazkur maqolada ibodatning mohiyati va uning inson ruhiy dunyosidagi o‘rni hamda Kvant fizikasining asosiy tamoyillari o‘zaro taqqoslanadi. Shuningdek, ushbu ikki sohaning o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada kvant mexanikasi qonunlarini diniy tushunchalar bilan noto‘g‘ri bog‘lash holatlari ham tanqidiy yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ibodat, kvant fizikasi, ong, kuzatuvchi effekti, noaniqlik, ma’naviyat, ilmiy yondashuv.

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi globallashuv va ilmiy taraqqiyot sharoitida insonning dunyoqarashi kengayib bormoqda. Ayniqsa, tabiat qonunlarini chuqur o‘rganuvchi Kvant fizikasi hamda insonning ichki ruhiy dunyosiga qaratilgan ibodat tushunchasi o‘rtasidagi munosabatlar ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Biroq, ushbu ikki sohani o‘zaro bog‘lashda ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi. Bunga erishish uchun ibodat tushunchasining mohiyati va Kvant fizikasining nazariy asoslarini o‘rganish lozim. Bugungi kunda ushbu masala juda muhimdir. Bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Ibodat bu insonning Yaratganga bo‘lgan e’tiqodi, ichki poklanishga intilishi va ma’naviy kamolotga erishish yo‘lidir. U teologiya doirasida o‘rganiladi va insonning axloqiy, ruhiy hamda ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Ibodat jarayonida niyat (ixlos), sabr va ishonch, e’tiqod kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Endi Kvant fizikasining nazariy asoslariga e’tiborni qaratamiz.

Kvant fizikasi bu moddiy olamning eng kichik birliklari harakatini o‘rganuvchi fan bo‘lib, u mumtoz fizikadan farqli ravishda ehtimoliylik va noaniqlikka asoslanadi. Uning muhim tamoyillari quyidagilardan iboratligini e’tiborga olish lozim. Eng avvalo u kuzatuvchi effekti bilan o‘lchash jarayoni natijaga ta’sir qilishi mumkin. Shuningdek, Hayzenberg noaniqlik prinsipida zarrachaning holati va tezligini bir vaqtda aniq bilib bo‘lmasligi bilan ifodalanadi.

Yana ehtimoliylikka asoslangan modellar, kvant tizimlar aniq emas, balki ehtimoliy holatlarda tavsiflanadigan holatlar ham inobatga olinadi.

Ibodat va kvant fizikasi o‘rtasidagi falsafiy o‘xshashliklar ham mavjud. Ushbu tushunchalar ilmiy jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik bo‘lmasa-da, quyidagi jihatlarda o‘xshashliklar kuzatish mumkin.

Birinchidan, ushbu nazariyalarda kuzatuvchi va niyat masalasining mohiyatini ochib berishga qaraladi. Xususan, Kvant fizikasida kuzatuvchi samarasi (effekti) muhim ahamiyatga ega. Kvant fizikasidagi kuzatuv natijaga ta’sir qilishi mumkinligi bilan farq qiladi. Ibodatda esa insonning niyati va ichki holati amalning qabul qilinishida hal qiluvchi rol o‘ynashi tushuniladi. Kuzatuvchi ta’sirini (observer effect) ba’zi faylasuflar buni inson ongi va ibodatdagi niyat (ixlos) bilan qiyoslaydi. Ya’ni, insonning ichki holati amalda qandayligini tasavvur qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, ikkala nazariyada ham noaniqlik va ishonch kategoriyasi mavjud. Hayzenberg noaniqlik prinsipini tabiatda to‘liq aniqlikning cheklanganligini ko‘rsatadi. Bunda moddiy olam nuqtayi nazaridan qaraladi. Ibodatda esa inson ko‘rinmas haqiqatlarga ishonadi, bu esa ishonch (imon) tushunchasi bilan bog‘liq. Ko‘rinib turibdiki, bu nomoddiy olamda sodir bo‘ladigan hodisa va jarayonlardir. Noaniqlik va ishonch Hayzenbergning noaniqlik prinsipiga ko‘ra, ayrim narsalarni aniq bir vaqtda to‘liq bilib bo‘lmaydi. Bu holatni ba’zilar hayotdagi ishonch (imon) tushunchasi bilan bog‘lashadi - hamma narsani to‘liq anglab bo‘lmasligi mumkin. Biroq insonda iymon bo‘lsa, bu ishonch orqali amaga oshadi.

Uchinchidan, bular moddiy va nomoddiy olam o‘rtasidagi o‘xshashlikni o‘zida ifoda etadi. Ikkalasida ham ko‘rinmas olam tushunchasi mavjud. Kvant fizikasi moddiy olamning chuqur, ko‘zga ko‘rinmas qonunlarini ochadi. Ibodat esa insonning nomoddiy (ruhiy) dunyosini tarbiyalaydi.Chunki Kvant fizikasida ko‘zga ko‘rinmas jarayonlarni o‘rganadi. Ibodatda esa insonning ruhiy, nomoddiy dunyosi bilan bog‘liq holat sodir bo‘lishini o‘rganadi. Shu jihatdan ular inson bilimining turli, ammo chuqur qatlamlarini qamrab oladi.

Ko‘rinib turibdiki, kkala nazariyada ham bir-biriga o‘xshash jihatlar mavjud. Biroq ushbu hodisa va jarayonlarga kimning qaysi ko‘z va tafakkur bilan qarashi va idrok etishiga bog‘liq bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida ilmiy va dinni aralashtirish muammosini keltirib chiqaradi. Shu tufayli bunda bir-birini to‘ldirish uchun shu ikki yo‘nalishda qaraladi.

Ayrim hollarda kvant fizikasi tushunchalari orqali diniy aqidalarni “isbotlash”ga urinishlar kuzatiladi. Ammo bu yondashuv ilmiy jihatdan noto‘g‘ri hisoblanadi. Chunki, Kvant fizikasi hodisa va jarayonlarga baho berishda eksperiment va matematik modellarga asoslanadi. Ibodat va e’tiqod esa insonning

ma’naviy-ruhiy tajribasiga tayanadi. Agar shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, shu ikki sohaning metodologiyasi va maqsadlari tubdan farq qiladi. Shu sababli ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lash ilmiy asosga ega emas, balki faqat falsafiy mulohaza sifatida qaralishi mumkinligiga amin bo‘linadi.

Ko‘rinib turibdiki, ibodat, ya’ni ruhiy-diniy amallar bilan kvant fizikasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy bog‘liqlik yo‘q, degan xulosaga kelish mumkin. Lekin ayrim jihatlarda ularni falsafiy nuqtayi nazardan taqqoslash mumkinligidan dalolat beradi.

Avvalo, Kvant fizikasi - tabiatning eng kichik zarrachalari, ya’ni atom va subatom darajasi qanday harakat qilishi va o‘zaro ta’sir qilishini o‘rganadigan fan sifatida tan olingan. Chunki bu aniq qonunlar, tajribalarga (eksperiment) va matematik modellarga asoslanadi.

Ibodat esa - insonning Yaratganga bo‘lgan ishonchi, ruhiy poklanish va ma’naviy kamolotga erishishga qaratilgan amallar majmuasi sifatida qaraladi. Bu soha ko‘proq **teologiya** (ushbu atamaga quyida alohida izoh keltirilgan) va falsafa bilan bog‘liq. Shu bilan birga, yuqorida ko‘rganimizdek, ayrim umumiy qarashlar ham mavjud:

Shunga alohida ahamiyat berish joizki, keyingi paytlarda “kvant fizikasi ibodatni isbotlaydi” yoki “fikr energiyasi bilan voqyelikni o‘zgartirish mumkin” kabi da’volar ko‘p uchraydi. Ilmiy jihatdan bu fikrlar hali asoslanmagan. Kvant fizikasi - fizik jarayonlarni tushuntiradi, din va ibodat esa ma’naviy hayotga tegishli ekanligini e’tirof etgan holda qarash lozim bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ibodat va Kvant fizikasi turli sohalarga mansub bo‘lib, biri ma’naviy, ikkinchisi tabiiy-ilmiy yo‘nalishni ifodalaydi. Ular o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy bog‘liqlik mavjud emas, ammo inson dunyoqarashini boyitish nuqtayi nazaridan falsafiy o‘xshashliklar mavjud. Ilmiy yondashuvni saqlagan holda, har ikki sohani alohida va mustaqil o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Demak, ibodat va kvant fizikasi - ikki turli sohalar bo‘lib, biri ilm, biri e’tiqodni ifodalaydi. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan, lekin inson dunyoqarashini boyitish nuqtayi nazaridan falsafiy o‘xshashliklar topish mumkin ekan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, teologiya atamasiga izoh berishni lozim, deb topdik. Ushbu tushuncha dinni, uning ta’limotlari, aqidalari, muqaddas matnlari va inson hayotidagi o‘rnini o‘rganuvchi ilmiy-falsafiy soha. Oddiyroq aytganda, teologiya deganda Alloh (yoki ilohiylik), din va e’tiqod haqida chuqur o‘ylab, uni ilmiy va mantiqiy asosda tahlil qilishdir.

Teologiyada nimalarni o‘rganish mumkin degan savol tug‘uladigan bo‘lsa, unda Xudo (iloh) haqidagi ta’limotlar, diniy kitoblar (masalan, Qur’on, Bibliya), imon, ibodat va axloq masalalari, dinning jamiyat va inson hayotiga ta’siri o‘rganishini qayd etish mumkin.

Teologiya va dinshunoslikning aniq farqlari ham mavjud. Xususan Teologiya - ma’lum bir din nuqtayi nazaridan o‘rganadi (ichkaridan qaraladi). Dinshunoslikda esa, barcha dinlarni xolis, ilmiy tahlil qiladi (tashqaridan qaraladi). Xulosa qilib aytganda, teologiya - bu faqat ishonish emas, balki ishonchni tushunish, izohlash va asoslashga harakat qilishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Albert Einstein. Ideas and Opinions // https://archive.org/details/ideasopinions0000eins/mode/2up
2. Werner Heisenberg. Physics and Philosophy: // https://www.marxists.org/reference/subject/philosophy/works/ge/heisenb5.htm
3. Stephen Hawking. A Brief History of Time. - USA, Random House Publishing Group, 1998. - 240 pages.
4. Max Planck. Scientific Autobiography and Other Papers. Philosophical Library, 1949.
5. Barbour, I. Religion and Science: Historical and Contemporary Issues. HarperCollins, 1997. - 194 pp.
6. Polkinghorne, J. Science and Theology: An Introduction. SPCK, 1998. - 160 pp.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi. - Toshkent: Hilol nashr, 2022. - 632 b.
8. Abu Homid G‘azzoliy “Ihyou ulumid din”. Rashid Zohid tarjimasi. - Toshkent, “Matbaachi” nashriyoti, 2022. - 509 b.
9. Nasr, S.H. Knowledge and the Sacred. - Albany : State University of New York Press, 1989. - 352 pp. // https://archive.org/details/knowledgesacred0000nasr

ALISHER NAVOIY GUMANISTIK MEROSIDA IQTISODIY MUNOSABATLAR, IJTIMOIY HIMOYA, ADOLAT MAVZUSI TALQINI

Norov Toji Omonovich

TDIU “Falsafa” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori(DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning falsafiy qarashlar tizimidagi iqtisodga oid qarashlariga bag‘ishlangan. Uning iqtisodiy munosabatlari soliq, bojxona, bozor, etakchilik, savdo, sotiq, xayriya faoliyati misolida tahlil qilingan. Maqola uning “Mahbubul-qulub”, “Munshaot”, “Vaqfiya”, “Hayratul-abror”, “Saddi Iskandariy” kabi hikmatlari, amaliy ishlari va yozishmalariga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Adliya, iqtisod, soliq, bojxona, bozor, poyabzalchi, savdo, savdogar, xayriya, vaqf, muhtasib(soliq inspektori), tibbiyot, zakot, dehqonchilik.

Navoiy shaxsiga temuriy shahzodalar orasida juda katta hurmat va e’tibor

Bobur o‘zining “Boburnoma”sida Husayn Boyqaro hukmdorligi davrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar ta’rifiga to‘xtalar ekan, hukmdorning amalga oshirgan ishlarida uning yonida turgan sodiq kishilaridan eng mashhuri bu serg‘ayrat, obro‘li va shuhratli Alisher Navoiy bo‘lganligini qayd etadi. Uning ta’kidlashicha, Husayn Boyqaro davlatchiligini rivojlantirishda undagi tartib va tinchlikning saqlanishi, hayotning farovonlashuvida “Alisherbekcha tarbiya beruvchi va madadkor kishi hech bo‘lgan emas. Hirot kishilaridan biror kishi biror narsa ixtiro qilsa, uni Alisher nomiga qo‘yar edi, chunki, Navoiyning o‘zi juda ko‘p yangiliklar yaratar edi”[1],- deydi.

Masalan, Navoiyning mashhur shaxslar va temuriy shahzodalar, xususan, Sulton Husayn Boyqaro bilan olib borgan yozishmalaridan tashkil topgan “Munshaot” asarida quyidagi mazmundagi ko‘rsatmalarani ko‘ramiz: “Muhtasib haftada ikki qatla bozor ahlining narxlaridin vuquf topsalar”[2]. Ya’ni, muhtasib, haftada bozorlardagi ahvol, xususan, narx-navolardan voqif bo‘lishlari lozim deyiladi.

Navoiy huquqiy munosabatlarni tartibga solish, xalq va davlatning iqtisodiy hayotini farovonlik sari olib borish masalalarida hukm va mas’ullarga yo‘riqnomalar berganligi manbalardan ma’lum. Xususan, “Munshaot” da: “Zakotni shar’ va hukm yo‘suni bila zakotchilar alardin mustaxlas qilsalar. Zakotchilar ishidan tavochi moh-bamoh, balki hafta-bahafta vuquf topib, arzg‘a yetkursalar. Juzviy jarima qilg‘anini kulliy siyosat qililsa, bok yo‘qdur, to bu ovoza olam mamolikiga yoyilsa, tujjorning nuju’i ko‘prak bo‘lsa”[3].

Maktubning mazmuni quyidagicha: Navoiy chetdan kelgan savdogarlardan soliq olmaslik tarafdori. Ular ko‘proq bu yerga kelib savdo qilishga intilsin. Agar zakotchi kichik bir xatoga yo‘l qo‘ysa ham, unga katta jazo berilsin, toki buning ovozasi butun olamga yoyilsin-da, xorijiy savdogarlarning bu mamlakatga intilishi ko‘payaversin. Bu nasihatlari Navoiyning buyuk siyosatshunos, iqtisodchi

[1] Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча, 1989.
[2] Навоий Алишер. Муншаот. МАТ. 20 жилдлик. -Тошкент: ФАН, 1998. 14 жилд. -188 б.
[3] Навоий Алишер. Муншаот. МАТ. 20 жилдлик. -Тошкент: ФАН, 1998. 14 жилд. -191 б.

ekanligini bildiradi. Davlat va iqtisodiyot rivojida esa nazoratning, qonunchilikning ahamiyatini ham to‘g‘ri ko‘rsatadi.

Navoiyning “Mahbubul-qulub” asari, mutafakkirning umri davomida to‘plagan bilim va tajribalarining xulosasi sifatida yaratilgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan ilmiy-falsafiy asardir. Uning birinchi qismida 40 dan ziyod ijtimoiy guruhlarga ta’rif va tavsif beriladi. Jumladan, jamiyatni moddiy farovonligi xususida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Bu masalalar xususida gapirar ekan Navoiy iqtisodiy hayot bilan bog‘liq holatlarni achchiq tanqid ostiga oladi. Jamiyatdagi jirkanch illatlarni juda achchiq til bilan ochiq, xolis tanqid qiladi.

“Mahbubul-qulub”ning ***“Tijorat ahli zikrida” faslida:*** “Tijoratchilar sayyoh bo‘ladilar, u butun iqlimlar va o‘lkalar, shaharlardagi ahvoldan xabardor, u o‘lkalar haqida ajoyib va g‘aroyib xabarlar aytuvchi nodir kishilardir.

Ular foyda topish uchun, tog‘larlarni toshlariyu sahro qumlarida tuya yetaklab, daryo va dengizlar mavjlari tug‘yonida foyda-ziyon ko‘radi. Halol rizq topish uchun uzoq masofalarni kezadi, jamiyatni botin va zohir jihatlari ularga ayon.

Biri yuz bo‘lgunicha boshida ming xil savdo, bo‘zi katon bo‘lgunicha ko‘nglida necha xil orzu-havas. Ularni asl maqsadi faqat foyda topish bo‘lib, shu yo‘lda qattig‘ ranj chekadilar, savdo uchun dengizga kema suradilar, dur olish uchun nahangni og‘ziga qadam uradilar, pul va molni ko‘paytirish xayolida, o‘z tanalari salomatligi uchun chopon kiymaydilar, laziz taomlarni hidlab, quruq (qotgan)non yeydilar, foydalari orqasidan ko‘ngillari farog‘at, taskin topmaydi, safardan maqsadi azizlar suhbatiga yetish emas, shar’iy zakot bo‘ynida qoladi, molini aziz qilib o‘zini xor qilsa, molini boj to‘lashdan qochib yashirsa, unga zalolat yetadi, topganini faqat meros uchun yig‘sa, faqat foydani ketidan quvsa, aslda bunday kishi xoja(boy) emas, balki bir xizmatkorga, mardikorga o‘xshagan kishidir”, deydi[1].

Asarning ***“Shaharda olib sotquvchilar zikrida”*** bobida, - “Shahar savdogari o‘ziga foyda orttirish uchun musulmonlarni qaqshatadi. Elni ziyoni uning foydasi, u molni o‘zi hohlagan darajada arzon olib qimmat sotmoq uning maqsadi (molni yengil deb olib, og‘ir deb sotish illati, ya’ni tarozidan urish ham nazarda tutiladi). Oladigan moli katon (qimmatbaho mato) bo‘lsa bo‘z bahosida olib, bo‘zni ming xil maqtovlar bilan katondan qimmat bahoda sotadi. Sholni to‘rqa (qimmatbaho mato) o‘rnida o‘tkazadi, bo‘yrani zarbaft o‘rnida sotadi. Uning do‘konida insofdan boshqa hamma matoh bor. Mol olarda faqat molni nuqsonini aytib yerga uradi. Musofir tijoratchilar uni nayrangini jabrini tortadi. Uning ikki yonida yolg‘onchi, kazzob dallol xuddi xuddi zaifani qo‘riqlovchi askarga o‘xshab turadi"[2], deydi.

Shu asarning ***“Bozor kosiblari zikrida”*** bobida: “Bozorning kosibu-savdogari Tangriga xoin va’daboz kazzobdir. Birga arzimaydigan narsani yuzga

[1] Навоий. А. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ: 20 томлик. 14 т.. Т.: “Фан”, 1998. 34 б.
[2] Навоий. А. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ: 20 томлик. 14 т.. Т.: “Фан”, 1998. 35 б.

sotmoq ularga ming faxrdir, mingga tegarni yuzga olmoqqa ularda uyat yo‘q. Rostlik bilan savdo qilish ular nazdida ziyonkorlik, va’daga vafo qilish esa ularga gunoh o‘rnida. Foyda topish uchun o‘g‘li otasiga firibgarlik qiladi...”[1]

Asarning o‘ttizinchi bobi “dehqonchilik zikrida” - “Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar. ...Olam ma’murlig‘i alardin, olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayon qilsalar harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot.

Navoiy dehqonni zaxmatli mehnatidan nafaqat insonlar balki, hayvonot, qushlar, qurt-qumursqalar, umuman butun jonzotlar manfaatdor deb, dehqonni Odam Atoga o‘xshatadi: Shoh molin berurdin ibo qilmasa va zabun sherikka jafo qilmasa, to donosi durri saodat bar bergay va tuxm sochib, anjumi uluvvi rif’at tergay. Mundoq dehqon Odamning farzandi, xalafidur, balki marzuqlar anga farzand va ul Odami safiydur”[2].

Unda dehqonni hosilini orqasidan juda ko‘p kasb kor egalari manfaatdor ekanligi, mehnat taqsimotining zamonaviy nazariyalaridan mukammalroq iqtisodiyot nazariyasining badiiy uslubda yaratgan.

Navoiy bu haqda “Munshaot” asarida shunday yozadi: “*Yana ulkim, shahr dorug‘asidin beklar bila Xoja Falon andoq sohib vuquf bo‘lsalarkim, juzviy ishdin kulliy imdod tilamasalar*”[3]. Shahar dorug‘asi ishidan doim voqif bo‘lish kerak, u arzimagan bahonalar bilan oz bir ishdan ko‘p tamagirlik qilmasin.

Dorug‘a - tuman, shahar yoki viloyat soqchilar boshlig‘i. Ular raiyatni (aholini) ro‘yxatga olish, askar to‘plash, soliqlarni yig‘ish va podshoh saroyiga yetkazish, mahalliy hukmdorlarni nazorat qilishi va boshqalar bilan shug‘ullangan[4].

Shariat asosida ijtimoiy tarkibni nazorat qilish va ma’naviy buzuqchiliklarni oldini olishga mo‘ljallangan tarkib *muhtasiblar* deb atalgan. Ular bozorlardagi toshu tarozilardan urish va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olganlar, tartib saqlaganlar va o‘z vazifalaridan kelib chiqib jazolash ishlarini olib borganlar. Bu haqda “Mushaot” asarida quyidagi qaydlarni o‘qiymiz: “Muhtasib haftada ikki qatla bozor ahlining narxlaridin vuquf topsalar”[5].

Tarozi haqidan urish va ma’naviy buzuqliklarni jazolash uchun jazoni ijro etish mas’ul kishilar ihtisob ahli deb yuritilgan, ularga muhtasib boshchilik qilgan. Muhtasib beradigan jazo quyidagicha bo‘lgan: muhtasibning pahlavon bir navkari mujrim (aybdor)ni opichgan, ikkinchisi uning etagini ko‘tarib ishtonini tushirgan, uchinchisi dumbasiga rais aytgan miqdorda darra urgan. Shundan keyin mujrim o‘zini yig‘ishtirib olib, muhtasibga ta’zim bilan tavba qilib, ko‘zini ochib qo‘yganligi uchun unga minnatdorchilik bildirgan. Tavba va minnatdorchilik

[1] Навоий. А. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ: 20 томлик. 14 т.. Т.: “Фан”, 1998. 35 б.
[2] Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 14 т. Маҳбуб ул-қулуб . Т.: “Фан”, 1998. 34 б.
[3] Навоий Алишер. Муншаот. МАТ. 20 жилдлик. -Тошкент: ФАН, 1998. 14 жилд. -189 б.
[4] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: ФАН, 1983. Т.I. –505 б.
[5] Навоий Алишер. МАТ. 20 жилдлик. -Тошкент: ФАН, 1998. 14 жилд. -188 б.

muhim shartlardan bo‘lib, ado qilinmagan taqdirda jazoni davom ettirish ehtimoli bo‘lgan.

Navoiyda Bahromning o‘z xatolarini anglashi bilan bog‘liq holat boshqacharoq tarzda tasvirlangan. “Hayrat ul-abror”da ham ajoyib tarzda tasvirlangan. “Hayrat ul-abror”ning 59-bobi “Bahromning may ta’siridan baxtining ko‘zi uyquga ketib, mamlakatning binosi bu seldan yiqilgani va mazlumlar faryodidan uyg‘onib, buning chorasini ko‘rgani”[1] bayon qilinadi. Bu yerda gap, aynan soliqchilar elga o‘tkazgan sitamlardan, mamlakat fuqarolari boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketganligi aytiladi.

Ulug‘ mutafakkir insonparvarlikning oliy ko‘rinishini o‘zining hayotiy faoliyatida, xayriya faoliyati orqali amaliy namuna ko‘rsatadi. O‘zi faqirona, so‘fiyona hayot kechirgan holda asosiy mol-mulkini vaqf sifatida xalq foydalanishiga bag‘ishlaydi. Oddiy xalq foydalanishi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab imoratlar qurdiradi. Boshqacha aytganda, u o‘z umri va butun faoliyatini insonparvarlikning yorqin ko‘rinishi bo‘lgan ***xayriya*** ishlariga bag‘ishladi.

Shu o‘rinda “Vaqf” so‘ziga ham qisqacha izoh berib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz: “Vaqf” arabcha so‘z bo‘lib, din yo‘lida ajratilgan mol-mulkdir. Islom dini an’anasida davlat va ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjid madrasa va boshqalarga ajratilgan mol-mulk[2].

Xondamirning qayd qilishicha, XV asrning 80-yillari davomida Alisher Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ko‘prik, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan yoki ta’mirlagan. Ular orasida Hirotdagi “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, “Xolosiya” xonaqosi, “Shifoiya” shifoxonasi, Qur’on tilovot qiluvchilar uchun “Dorul-huffoz” binosi, Marvda “Xusraviya” madrasasi va Mashhadda “Dorul-huffoz” xayriya binosi va bir qator noyob ijtimoiy binolar qurdirgan bo‘lib, ular hozirgacha betakror memorchilik inshooti sifatida ham tarixiy qimmatga ega[3].

“Vaqfiya”da mol-mulklar, yerlarning, taqsimoti va nazorati tizimini quydagicha tavsiflash mumkin:

- vaqf qilingan yerlar va mulklar;
- vaqf qilingan binolar, inshootlar;
- ularni idora qilish uchun belgilangan vazifalar;

[1] Навоий Алишер. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. (20 жилдлик) . -Тошкент: “фан”, 7 жилд –Б. 316-1-317. яна “Ҳайрат ул-аброр” (насрий баёни) . –Тошкент, 1975. –Б. 132-133.

[2] Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий Энциклопедия ДИН. “Вақф” мақоласи. - 79 б. Яна; Ислом (справочник) М.А.Усмонов таҳрири остида. –Тошкент., 1989. -79 б. “Вақф” мақоласи.

[3] Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. Т.: Ғ. Ғулом, 1973. 233-239 б. Яна: Интернет маълумотлари.

- vazifalar uchun tayin qilingan maoshlar;

- vaqflar taomili uchun aniqlangan ashyolar;

- bino va yodgorliklar ta’miri;

- xalq uchun, xususan kambag‘allar uchun o‘tkaziladigan xayriya marosimlar va ularga tortiladigan taomlar miqdori;

- mudarris va talabalar uchun joriy qilingan qoidalar;

- vaqflarni saqlash, idora etish va nazorat qilishning qoida va shartlari;

- vaqf shart va qoidalarining daxlsizligi[1].

Navoiyning vaqf qildirgan yerlarining o‘lchov miqdori 460 jeribga[2] teng bo‘lganligi manbalarda va “Vaqfiya”da aytib o‘tilgan. E’tiborli jihati shundaki, mutafakkir o‘ziga tegishli bo‘lgan hamma mol-mulk, yerlarini vaqfga beradi. Faqat bir oddiy odam yeyish-ichishi va kiyishi darajasidagisini o‘z ehtiyoji uchun qoldiradi[3].

“Vaqfiya”da tayin etilgan vazifalar va ularga tayinlangan maosh hamda don-dun miqdori aniq ko‘rsatilgan. Masalan, ikki mudarris, ularning har biriga o‘n bittadan tolibi ilm bo‘lishi kerak bo‘lgan. Mudarrislarga yiliga 1200 oltin (tanga) naqd pul, 24 yuk (ayrim manbalarda xarvor ham deyilib, bir eshakka yuk bo‘ladigan darajadagi og‘irlikdagi yuk, taxminan 80-120 kg atrofida) oshlig‘ (arpa, bug‘doy) berilishi belgilangan. Navoiy talabalarni o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha 3 toifaga bo‘lgan:

- a’loga o‘qiydigan talabalarga oyiga 24 oltin naqd 5 yuk oshlig‘;

- o‘rtaga o‘zlashtiradigan talabalarga oyiga 16 oltin naqd, 4 yuk bug‘doy;

- past o‘zlashtiruvchi talabalarga 12 oltin pul va 3 yuk oshlig‘ berilgan[4].

“Yana shart ulkim, har o‘ttuz yilda mutavalli “Vaqfiya”ni muqarrar yangi bitgan va asl bila muqobila qilg‘ondin so‘ngra quzot sijillot bila muqobala qilg‘ay to ayyom mururi bila churumagay. Yana shart ulkim, hech zamonda sadr gumashtalari va mutavallilar bu sarkorda madxal qilmag‘aylar. Modomiki, sharti voqif bila muvofiq amal qilg‘aylar - bu sarkor amalasidin jam’ va xarj nusxasi tilamagaylar va hech nav’ nima alardin olmag‘aylarkim, alarg‘a halol va muboh emas”[5].

---

[1] Ўзбек адабиёти тарихи (IV томлик) II том -Тошкент, 1977. -402-403 б. яна қаранг :А.Навоий “Вақфия” МАТ (20 томлик) -Тошкент., 1998 14 том -Б. 260-269.

[2] Жериб- ер ўлчови бирлиги , тахм 1 таноб ер. Жерибни, шунингдек 1 жериб дон экиш мукин бўлган ер бўлагини ҳам айтишган. Е.Э. Бертельсни изоҳлашича турли даврларда жерибни миқдори турлича белгиланган - (100 дан 200 м.га қадар).

[3] Навоий Алишер. Вақфия. МАТ. (20 томлик) -Тошкент, 1998 14 том -Б. 255-256.

[4] А.Навоий “Вақфия” МАТ (20 томлик) -Тошкент, 1998 14 том –Б. 260-269; яна қаранг: Ўзбек адабиёти тарихи (IV томлик) II том -Т., 1977, - 403 б.

[5] Навоий Алишер. Вақфия. МАТ. (20 томлик) - Тошкент, 1998 14 том. –Б. 256-270

Islom dini va ajdodlarimizning insonparvarlik tamoyillariga asoslangan vaqf tizimini yo‘lga qo‘yish va amaliyotga keng qo‘llanishini O‘zbekiston Prezidentining Farmoni misolida ko‘rishimiz mumkin.

“Vaqf” xayriya jamoat fondi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5416-son Farmoniga muvofiq tashkil etilgan bo‘lib u o‘z oldiga masjidlar va diniy ta’lim muassasalarining binolarini qurish, ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, diniy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari, mutaxassislari va o‘quvchi-talabalarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator ishlarni maqsad qilib qo‘ygan[1].

“Saddi Iskandariy”ning XIX bobida: “Soliq yozuvchi amaldor, xalqqa sitam qilsa, soliq yozuvchi qo‘lini qalamdek qalam qilsin (tilsin, kesilsin)”[2]. Agar soliqchi o‘zining qiyshiq qalami, ya’ni, buzuq nafsi bilan soliqni oshirib yozgan, shu orqali elga sitam qilgan bo‘lsa, uni qo‘li ham qalamdek kesilsin.

“Saddi Iskandariy”ning XXXI bobida: “Agar Doro ikkidan birini berib, uning ham yarmini xalqdan undirib kelgan bo‘lsa, biz buni (maoshni) ikki baravar oshiramiz. Xazinadan ikki hissadan maosh bering, dedi. 14. Shunday qilib, el ranjdan qutuldi. Hamma xazinadan maoshini oldi, shoh o‘ziga tobelarni shunday rozi qildi”[3], degan fikrlarni o‘qiymiz. Zero, Iskandar, Navoiyning orzusidagi hukmdor obrazi edi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy o‘z asarlarida ko‘tarilgan teran falsafiy qarashlar tizimida, amaliy faoliyatida esa, temuriy shohlarni, shahzodalarni adolatga, qonunchilikka rioya yetishga Qur’oni karim, hadislar, fiqh ilmi, “Temur tuzuklari” va “Zafarnoma” kabi manba’larni o‘qib, ular saboqlaridan o‘z faoliyatlarida holis adolatli foydalanishga chaqiradi.

- shohning o‘zi shariat talablariga amal qilishi va boshqalardan ham shuni qat’iy talab etishi lozim;
- raiyatning ahvolidan doimo xabardor bo‘lib turish, adolat istab kelganlarning arzini muntazam ravishda eshitib, zolimlarni jazolash, shoh va fuqaro orasida o‘zaro ishonch va muhabbatni qaror toptirish;
- devonda ish yuritishni qat’iy intizom asosida yo‘lga qo‘yish, ta’magirlik, poraxo‘rlik, sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik.

[1] “Вақф” хайрия жамоат фонди ташкил қилинди http://www.vaqf.uz/uz
http://muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/7487-va-f-khajriya-zhamoat-fondi-tashkil-ilindi
[2] Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 11 т. Хамса: Садди Искандарий . Т.: “Фан”, 1993. 106 б.
[3] Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 11 т. Хамса: Садди Искандарий . Т.: “Фан”, 1993. 208-209 б.

Bu holni mustaqil O‘zbekistondagi qonun ustuvorligi, qonunlarga hammani birdek amal qiliishi, uning asosi bo‘lgan Konstitusiya va qonunlarni mukammallshtirish, sud-huquq sohasini izchil isloh qilish ustuvor siyosat darajasiga qo‘yildi. Hozirgi bosqichdagi islohotlar jarayonida aynan shu adolat tamoyilini amalyotda ta’minlash nazarda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild. - Toshkent: Fan, 1998.
3. Alisher Navoiy. Munshaot. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 13-jild. - Toshkent: Fan, 1997.
4. Alisher Navoiy. Vaqfiya. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 2001.
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 7-jild. - Toshkent: Fan, 1991.
6. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 11-jild. - Toshkent: Fan, 1996.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - Toshkent: Sharq,2002. - 368 b.
8. Xondamir. Makorim ul-axloq. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. - 224 b.
9. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. - Toshkent: Yozuvchi, 2005. - 320 b.
10. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2002. - 286 b.
11. Hayitmetov A. Navoiy ijodining ijtimoiy-falsafiy asoslari. - Toshkent: Fan, 1993. - 248 b.
12. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
13. Temur tuzuklari. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. - 184 b.
14. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2019.
15. “Vaqf” xayriya jamoat fondi faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. - Toshkent, 2020.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK ONG VA MAS'ULIYATNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Alikulov Xusniddin Akbarovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kasb mahoratini oshirish markazi sektor mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: husniddinbest@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ekologik ong va mas'uliyat masalasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar ekologik muammolarni anglash, boshqarish va targ'ib qilish vositasi sifatida baholanib, raqamli iste'mol, elektron chiqindilar va texnologik begonalashuv kabi xavflar ochib berilgan. Maqolada ekologik mas'uliyatni raqamli etika va "yashil iqtisodiyot" qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, ekologik ong, ekologik mas'uliyat, yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli etika.

XXI asrda insoniyat taraqqiyoti ikki yirik jarayon bilan belgilanmoqda: ekologik barqarorlikka o'tish va raqamli transformatsiya. Bir tomondan, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va ekologik xavfsizlik muammolari insoniyatni "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga murojaat qilishga majbur qilmoqda. Ikkinchi tomondan, sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data), raqamli platformalar, elektron hukumat va aqlli boshqaruv tizimlari jamiyat hayotining barcha sohalarini o'zgartirmoqda.

Bunday sharoitda asosiy masala shundan iboratki, raqamli texnologiyalar ekologik ong va mas'uliyatni kuchaytiradimi yoki insonni tabiatdan yanada uzoqlashtirib, ekologik muammolarni faqat raqamlar va texnik ko'rsatkichlar darajasiga tushirib qo'yadimi? Ushbu savol mavzuning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini belgilaydi.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasi xalqaro miqyosda kam uglerodli, resurs tejamkor va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiy model sifatida talqin qilinadi [1]. Demak, yashil iqtisodiyot faqat ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash emas, balki insonning tabiatga, iste'molga va kelajak avlodlar oldidagi burchiga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishni ham anglatadi.

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda muhim normativ asoslar shakllanmoqda. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan [4]. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi esa iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvining raqamli rivojlanishini ta'minlashni maqsad qiladi [5]. 2030 yilgacha aholining ekologik

madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi ekologik bilim, ekologik tarbiya va mas’uliyatli xulq-atvorni kuchaytirishga yo‘naltirilgan [6].

Raqamli transformatsiya ekologik ongni shakllantirishda kuchli vosita bo‘lishi mumkin. Raqamli xaritalar, ekologik monitoring tizimlari, ochiq ma’lumotlar bazalari, sun’iy intellektga asoslangan tahlil vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ekologik muammolarni keng jamoatchilikka tez yetkazadi. Masalan, havo sifati, suv resurslari, chiqindilar, energiya iste’moli yoki yashil hududlar haqidagi raqamli ma’lumotlar insonning ekologik muammoga munosabatini aniq faktlar asosida shakllantiradi.

Biroq ekologik ong faqat axborotga ega bo‘lish bilan cheklanmaydi. Falsafiy nuqtayi nazardan ekologik ong insonning tabiatni qanday qadriyat sifatida qabul qilishi bilan bog‘liq. Agar tabiat faqat iqtisodiy resurs sifatida ko‘rilsa, raqamli texnologiyalar ham faqat resurslarni samarali ekspluatatsiya qilish vositasiga aylanadi. Agar tabiat hayotiy muhit, axloqiy mas’uliyat va kelajak avlodlar omonati sifatida anglanca, raqamli texnologiyalar ekologik madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu bois raqamli transformatsiyani texnologik determinizm asosida talqin qilish yetarli emas. Texnologik determinizm texnologiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy va deyarli yagona omili sifatida ko‘radi. Ammo ekologik muammolar shuni ko‘rsatadiki, texnologiya o‘z-o‘zidan insoniy qadriyatlarni yaratmaydi. U qanday maqsadga xizmat qilishi ijtimoiy institutlar, axloqiy me’yorlar, ta’lim tizimi va fuqarolik mas’uliyatiga bog‘liq.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlarida ham raqamli transformatsiyaning yangi bosqichi faqat texnologik imkoniyatlar bilan emas, balki ishonch, boshqaruv, innovatsiya va xavfsizlik masalalari bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi [2]. Bu holat ekologik mas’uliyat uchun ham muhim. Chunki, raqamli ekologik boshqaruv tizimlariga ishonch bo‘lmasa, fuqarolar va biznes subyektlari ekologik talablarni ongli ravishda emas, faqat majburiy tartib sifatida qabul qiladi.

Ekologik mas’uliyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni shundaki, u insonning o‘z harakati oqibatlarini kengroq makon va vaqt doirasida anglashini talab qiladi. Mas’uliyat faqat bugungi foyda yoki shaxsiy manfaat bilan emas, balki jamiyat, tabiat va kelajak avlodlar manfaatlari bilan bog‘liq. Shu ma’noda ekologik mas’uliyat axloqiy ong, huquqiy madaniyat, ilmiy dunyoqarash va fuqarolik pozitsiyasining birligidir.

Raqamli texnologiyalar bu mas’uliyatni kuchaytirishi mumkin. Masalan, raqamli ilovalar orqali energiya iste’molini nazorat qilish, chiqindilarni saralash, jamoat transportidan foydalanish, suv va elektr resurslarini tejash, ekologik aksiyalarda ishtirok etish imkoniyati kengayadi. Raqamli platformalar ekologik

xulq-atvorni ko‘rinadigan, baholanadigan va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadigan jarayonga aylantiradi.

Ammo raqamli transformatsiyaning ekologik xavflari ham mavjud. Data-markazlar katta energiya talab qiladi. Elektron qurilmalar tez eskiradi va elektron chiqindilar hajmini oshiradi. Onlayn savdo va raqamli reklama esa iste’molni yanada jadallashtirishi mumkin. Demak, raqamli jamiyat ekologik mas’uliyatni kuchaytirish bilan birga, yangi ekologik xavflarni ham yuzaga chiqaradi.

Bu yerda asosiy falsafiy ziddiyat ko‘rinadi: raqamli texnologiyalar ekologik muammoni hal qilish vositasi ham, uni chuqurlashtiruvchi omil ham bo‘lishi mumkin. Natija texnologiyaning o‘ziga emas, balki uning qanday qadriyatlar, institutlar va maqsadlar asosida boshqarilishiga bog‘liq.

Sun’iy intellekt etikasi ham ushbu masalada muhim ahamiyatga ega. UNESCO tavsiyalarida sun’iy intellekt inson huquqlari, inson qadr-qimmati, adolat, shaffoflik va inson nazorati tamoyillari asosida rivojlanishi kerakligi qayd etilgan [3]. Ekologik nuqtayi nazardan bu shuni anglatadiki, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar faqat iqtisodiy samaradorlik uchun emas, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat uchun ham xizmat qilishi zarur.

O‘zbekiston sharoitida bu masala yanada dolzarb. Bir tomondan, mamlakat “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, ekologik madaniyatni oshirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha strategik hujjatlarga ega [4; 5; 6]. Ikkinchi tomondan, ushbu yo‘nalishlar o‘zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi kerak. Aks holda “yashil iqtisodiyot” alohida, raqamli transformatsiya alohida, ekologik tarbiya esa alohida jarayon sifatida qolib ketadi.

Shuning uchun ekologik ong va raqamli mas’uliyatni yagona ijtimoiy-falsafiy tizimda tushunish zarur. Raqamli texnologiyalar insonni tabiatdan uzoqlashtirmasligi, aksincha, uni ekologik haqiqatga yaqinlashtirishi kerak. Buning uchun raqamli ma’lumotlar qadriyatga, ekologik axborot ongli xulq-atvorga, texnologik imkoniyat esa ijtimoiy mas’uliyatga aylanishi lozim.

Raqamli transformatsiya ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirishda muhim imkoniyatlar yaratadi. U ekologik muammolarni ko‘rinadigan, o‘lchanadigan va boshqariladigan jarayonga aylantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ekologik mas’uliyatni avtomatik ravishda shakllantirmaydi. Ular faqat axloqiy, aksiologik, institutsional va ta’limiy asoslar bilan uyg‘unlashganda ekologik barqarorlikka xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, “yashil iqtisodiyot” va raqamli transformatsiya strategiyalari o‘zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi zarur. Raqamli texnologiyalar

iqtisodiy samaradorlik bilan birga ekologik mas’uliyat mezonlari asosida baholanishi kerak.

Ikkinchidan, ekologik ta’lim va raqamli savodxonlikni alohida yo‘nalish sifatida emas, balki yagona “raqamli-ekologik madaniyat” konsepsiyasi doirasida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va raqamli platformalardan foydalanishda ekologik etikaga oid mezonlar ishlab chiqilishi lozim. Texnologik qarorlar inson, jamiyat va tabiat manfaatlari uyg‘unligi asosida baholanishi kerak.

To‘rtinchidan, ekologik monitoring, chiqindilarni boshqarish, energiya tejamkorligi va yashil iste’molni rag‘batlantirishda ochiq raqamli platformalar imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya sharoitida ekologik ong va mas’uliyatni kuchaytirish zamonaviy falsafaning muhim muammolaridan biridir. Chunki bugungi texnologik taraqqiyotning haqiqiy mezoni faqat tezlik va samaradorlik emas, balki uning inson, tabiat va kelajak oldidagi mas’uliyat bilan uyg‘unlashuvidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. UNEP. Green Economy. United Nations Environment Programme // https://www.unep.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/supporting-resource-efficiency/green-economy

2. OECD. Digital Economy Outlook 2024, Volume 2: Strengthening Connectivity, Innovation and Trust. OECD Publishing, 2024 // https://www.oecd.org/en/publications/oecd-digital-economy-outlook-2024-volume-2_3adf705b-en.html

3. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence // https://www.unesco.org/en/articles/recommendation-ethics-artificial-intelligence

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. 2019- 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida // https://lex.uz/docs/-4539502

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmoni. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // https://lex.uz/docs/-5030957

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qarori. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida // https://www.lex.uz/uz/docs/-7528761

Bahromjon G‘ofurov,
Guliston davlat universiteti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b.,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
baxromjongofurov7@gmail.com
Maftuna Mirzakarimova,
GulDU “Falsafa” yo‘nalishi 60-24 guruh, II kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat axborot jamiyati sifatida ko‘rib chiqiladi. Siyosatshunoslarning fikriga ko‘ra, jamiyatning postindustrialistik, axborotshunoslik va postmodernist talqinlarini taxminan ajratish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamlashtirish, robototexnika va sun’iy intellektning yanada rivojlanishi axborot sivilizatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Kalit so‘zlar: axborot jamiyati, postindustrializm, postmodernizm, raqamlashtirish, global axborot makoni, sun’iy intellekt, To‘rtinchi sanoat inqilobi.

Ma’lumki, zamonaviy jamiyat axborot jamiyatidir, chunki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy oqibatlar texnosferadan ancha tashqariga tarqaldi va zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalariga ekstrapolyatsiya qilindi, ishlab chiqarish usullarini, ijtimoiy-madaniy voqelikni, insonni va uning madaniyatini o‘zgartirdi. Bugungi kunda axborot zamonaviyligining ajralmas xususiyati - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan yaratilgan global axborot makoni bo‘lib, uning virtual muhitida zamonaviy insonning mavjudligi qisman sodir bo‘ladi, aloqa virtualizatsiya qilinadi, asosiy faoliyat turlari o‘zgartiriladi, antropologik bo‘ladi va raqamli komponent bilan to‘ldiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi va keng qo‘llanilishi, virtualizatsiyaning faol jarayonlari, hayotni raqamlashtirish, mediatizatsiya, axborotni qayta ishlash, uzatish va saqlashning analog usullaridan raqamli usullariga o‘tish - bularning barchasi va boshqa ko‘p narsalar yangi axborot tartibli jamiyatining shakllanganligidan dalolat beradi.

Zamonaviy texnologik o‘zgarishlarning ko‘lami va tezligi shunchalik yuqoriki, XX asrda axborot jamiyati nazariyotchilari tomonidan bashorat qilingan kelgusi axborot tsivilizatsiyasining konturlari allaqachon ancha aniq bo‘lib bormoqda. Tezkor texnologik o‘zgarishlar ushbu yangi turdagi ijtimoiylikni tavsiflash va aniqlashga urinishlarda o‘z aksini topdi: "postindustrial jamiyat" (D. Bell), "superindustrial jamiyat" yoki "uchinchi to‘lqin jamiyati" (E. Toffler), "texnotron jamiyat" (Z. Bjezinski), "axborot jamiyati" yoki "tarmoq jamiyati" (M. Kastells), "iqtisodiyotdan keyingi jamiyat" (V. Inozemtsev), "axborot-kompyuter

jamiyati" (Y. Masuda), "postmodernist jamiyat" (A. Etzioni), "universal kommunikatsiya jamiyati" (G. Vattimo) va boshqalar.

Industrializmning kashshoflaridan biri 1960-yillarda amerikalik sotsiolog Deniel Bell edi. Amerika kapitalizmining yangi turini tavsiflashda u "postindustrial jamiyat" atamasini kiritdi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini, masalan, ijodiy intellektual mehnatning keng qo‘llanilishi va ommaviy tarqalishi, ilmiy bilim va axborotning hajmi va ahamiyatining ortishi, kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi va iqtisodiy tuzilmada sanoat va qishloq xo‘jaligidan ustun bo‘lgan xizmatlar sohasining, fan, ta’lim va madaniyatning ustunligi kabi xususiyatlarni aniqladi. Bellning fikricha, postindustrial rivojlanishning belgilari axborot, telekommunikatsiya va kompyuterlar bo‘lib, axborotni qayta ishlash sohasidagi inqilob insoniyatni axborot sivilizatsiyasiga aylantiradigan keyingi ilmiy va texnologik taraqqiyotni belgilaydi [1;330]. Ko‘rinib turibdiki, uning bu bashorati to‘g‘ri bo‘lib chiqmoqda.

Keyinchalik, yangi turdagi sotsializmni aniqlashda ko‘plab tadqiqotchilar sanoatgacha bo‘lgan, sanoat va postindustrial davrlarni ajratib ko‘rsatuvchi uch bosqichli modeldan, shuningdek, "post" prefiksidan foydalanganlar, bu esa davom etayotgan ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning to‘liq emasligini va shuning uchun bu jarayonlarni yanada tadqiq qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Yangi turdagi jamiyatni tushunishga yapon olimlari tomonidan axborotlashtirish doirasida boshqacha yondashuv taklif qilindi. "Axborot jamiyati" atamasi Yudziro Xayashi tomonidan kiritilgan, axborot jamiyatiga o‘tish sabablari esa Yonedzi Masuda asarlarida aniqlangan, u barcha faoliyat shakllarini axborotlashtirish va yangi intellektual shaxsning paydo bo‘lishi zamonaviy jamiyatni kollektivizm va raqobatga asoslangan polisentrik global jamiyatga aylantiradi, deb ta’kidlagan [10].

Amerikalik sotsiolog M. Kastellsning ishi axborot jamiyati nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. U yangi turdagi iqtisodiyot, ya’ni axborot iqtisodiyoti, asosan, iqtisodiy omillar/agentlarning bilimga asoslangan axborotni yaratish, qayta ishlash va samarali foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi, degan fikrni asoslab berdi, uning global tabiati esa iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari global miqyosda iqtisodiy agentlarni bog‘laydigan keng tarmoq yordamida tashkil etilganligidadir [9, b.338]. Kastellsning fikriga ko‘ra, zamonaviy jamiyat axborot yoki tarmoqqa ulangan jamiyatdir.

Yangi turdagi sotsializmni postmodernistik tushunish taxminan bir vaqtning o‘zida, 1960-yillarda paydo bo‘ldi. U asosan madaniy ustunlikka asoslangan edi va madaniyatda postmodernizm hodisasining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq edi. Yevropa tafakkurida paydo bo‘lgan bu hodisa sanoat jamiyati tomonidan yaratilgan birlashish, ommaviylashtirish va standartlashtirishni rad etish va xilma-xillik,

markazsizlashtirish, individualizatsiya va atomizatsiyaga intilish bilan yangi dunyoqarash, yangi falsafa va yangi madaniyat - postmodernizmning tug‘ilishiga olib keldi.

J.-F. Lyotarning fikriga ko‘ra, bunday ijtimoiy-madaniy o‘tish faqat kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi tufayli mumkin bo‘ldi, uning muvaffaqiyati asosan insonning axborotgacha bo‘lgan davrni mexanizatsiyalashtirish natijasida hosil bo‘lgan bir xillik kishanlarini sindirish istagi bilan belgilanadi. Lyotar jamiyatning postmodern davrga kirishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamma narsani qamrab oluvchi axborotlashtirish jarayonlari bilan bog‘ladi, bu esa, boshqa narsalar qatori, bilimning o‘zgaruvchan holati va o‘ziga xos postmodern dunyoqarashining paydo bo‘lishining sabablaridan biriga aylandi. Faylasuf bugungi jamiyatni yagona boshqaruv markazi bo‘lmagan va shaxslar atrofdagi axborot makonida bir nechta axborot oqimlarida ishtirok etadigan tarmoqqa qiyoslaydi [4, b.14-23]. Elektron texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, bu esa postindustrial rivojlanishga, axborot jamiyatiga o‘tishni belgilaydi va postmodern madaniyat uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy inson qanday jamiyatda - postindustrial, axborot yoki postmodern - yashaydi degan savolga javob berish hali ham ancha qiyin. V. Inozemtsevning fikriga ko‘ra, "axborot jamiyati" atamasi juda tor; u sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning to‘liq ko‘lamini qamrab olmaydi. Shuning uchun, "post" prefiksidan foydalanish zamonaviy sotsiologiyaning yangi ijtimoiy holatni yetarlicha ta’riflay olmasligini va u to‘liq shakllanmasdan oldin qarama-qarshi munosabatlarning barcha doirasini qamrab olmasligini ko‘rsatadi [3, b.22]. Shu bilan birga, yuqorida aytib o‘tilgan yondashuvlar: postindustrializm, axborotlashtirish va postmodernizm, turli asoslarga asoslangan zamonaviy jamiyat turini talqin qilish, bizga uning ajralmas g‘oyasini shakllantirishga imkon beradi: bir vaqtning o‘zida iqtisodiy jihatga asoslanib, postindustrial sifatida, agar texnologik komponentni asos qilib olsak, axborot sifatida va madaniy determinantlardan kelib chiqsak, postmodern sifatida.

20-asr oxiridagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning ko‘lamini ta’kidlagan E. Toffler, ular texnik va telekommunikatsiya innovatsiyalari doirasida cheklanmaganligini, balki ulardan ancha tashqariga chiqib, yangi madaniyat, ishga, jinsga, millatga, bo‘sh vaqtga, hokimiyatga va boshqalarga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishiga olib kelishini ta’kidladi [7].

Shu munosabat bilan, zamonaviy ijtimoiylik turini, axir, asosan axborot deb ta’riflash mumkin degan xulosaga kelish kerak. Texnologik rivojlanish darajasi butun madaniyat binosi qurilgan poydevorni belgilaydi va bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi ulkan taraqqiyot bilan bog‘liq texnologik o‘zgarishlarni haqli ravishda zamonaviy madaniyatning, hatto allaqachon axborot

yoki raqamli deb atalayotgan butun bir davrning poydevori deb hisoblash mumkinligini inkor etish juda qiyin, bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ustuvor rolini va ular keltirib chiqaradigan raqamlashtirish va virtualizatsiya jarayonlarini ta’kidlaydi.

Raqamlashtirish hozirda misli ko‘rilmagan ko‘lamlarga yetdi va nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy rivojlanish uchun ham asosiy tendentsiyaga aylanib bormoqda. V.V. Mironovning so‘zlariga ko‘ra, "bugungi kunda madaniyat "texnologik yakkalik", ya’ni madaniyat va inson ongini butunlay o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan ilmiy va texnologik taraqqiyotning portlovchi tezlashuvini boshdan kechirmoqda" [5, b.183].

Bugungi kunda global axborot makonining virtual muhiti allaqachon haqiqatga aylangan, juda tanish va talabga ega va zamonaviy odamlar unga to‘liq singib ketgan. Bu nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tarqatishning yangi kanali, balki ish, o‘qish, dam olish va muloqot amalga oshiriladigan jozibali yashash maydoni ekanligini isbotladi. Smartfonni allaqachon axborot zamonaviyligining ramzi va "boshini pastga qaratuvchi avlod"ning ajralmas atributi deb hisoblash mumkin [5, b.185]. Darhaqiqat, qo‘lida telefonsiz va ko‘zlari unga qaragan zamonaviy odamni tasavvur qilish qiyin. V.D. Yemelin ta’kidlaganidek, internetga ulangan smartfon insonning "kiyiladigan kompyuteri" bo‘lib, yuzma-yuz muloqotni masofa va yozishmalar bilan almashtiradi va ko‘plab funktsiyalarni bajaradi, musiqa pleyeri, musiqa pleyeri, navigator, kalkulyator, kamera, soat, budilnik, taqvim, daftar, chiroq, plastik bank kartasi, samolyotga chiqish taloni va boshqalarni almashtiradi [2, b.261].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat smartfon egalari, yoshidan qat’i nazar, ertalablarini telefonlari bilan boshlaydilar. O‘rtacha zamonaviy odam kuniga 2617 marta telefoniga tegadi va 2019-yilda mobil internetdan foydalanish statsionar internetdan foydalanishga nisbatan ustunlik qildi: mobil qurilmalar veb-saytlarga tashriflarning 63 foizini, ish stoli kompyuterlari va noutbuklar esa atigi 32 foizini tashkil etdi. Bugungi kunda bu ko‘rsatkichlar yanada ortib ketgan.

Turli xil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, tezkor xabar almashish tizimlari va boshqalarni qo‘llab-quvvatlaydigan mobil internet zamonaviy insonlarning eng dolzarb ehtiyojlaridan biridir. Shunday qilib, odamlar va kompyuterlarning to‘liq integratsiyasi allaqachon yaqqol ko‘rinib turibdi. Insonlar, texnologiya yaratuvchilari sifatida, o‘zlarini o‘zgartirayotgan kuchli "texnologik bosim" ostida topdilar. Insonlar sof jismoniy subyektlar bo‘lishdan to‘xtaydilar, chunki global axborot makonining virtual muhitida mavjud bo‘lish hayotning ko‘plab jabhalarini virtualizatsiya qilishni nazarda tutadi. Biologik, ijtimoiy va psixologikning ajralmas birligi raqamli - ijtimoiy media profillari, akkauntlar, avatarlar, taxalluslar va

boshqalar bilan to‘ldiriladi va axborot davridagi odamlarning ontologiyasi ularning onlayn mavjudligi orqali belgilanadi.

Shunday qilib, insoniyatning zamonaviy ijtimoiy-madaniy rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil rivojlanishi bilan shartlangan jarayonlarga mos ravishda sodir bo‘layotganini ta’kidlash mumkin, ularning tabiiy oqibatlari raqamlashtirish, robotlashtirish, virtualizatsiya, sun’iy intellekt tizimlarining joriy etilishi va boshqalar bo‘lib, bu nafaqat To‘rtinchi sanoat inqilobi yoki K. Shvab terminologiyasida 4.0 sanoatining boshlanishini [8], balki ushbu inqilob tomonidan qo‘zg‘atilgan global ijtimoiy-madaniy o‘tishni ham ko‘rsatadi, natijada jamiyat, iqtisodiyot, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir usullari, insonning o‘zi, uning antropologik xususiyatlari o‘zgarib bormoqda.

Ba’zi mutaxassislar zamonaviy axborot jamiyatini raqamli deb atashadi. Masalan, S.V. Orlov yangi jamiyatni raqamli deb ta’riflaydi va kompyuter mehnatini yangi raqamli jamiyatdagi faoliyatning asosiy shakli sifatida belgilaydi. Uning fikricha, kompyuter mehnati moddiy hodisalarning maxsus sohasini - kompyuter virtual realligini yaratadi [6, b.24], bu esa zamonaviy inson ontologiyasining boshqa parametrlarini belgilaydi.

2010-yillardan boshlab, startaplar va ayniqsa yirik Amerika va Xitoy texnologik guruhlari tomonidan boshqariladigan katta ma’lumotlar, raqamli platformalar va ijtimoiy medianing yuksalishi, ba’zan 21-asrning birinchi yarmidagi "texnologik inqilob" deb hisoblangan haqiqiy sun’iy intellekt "portlashiga" olib keldi. Sanoat inqilobi zamonaviy dunyoga kirib keldi va ikkinchi mashina davri ham ko‘z o‘ngimizda yangi dunyo yaratmoqda: barcha ijtimoiy tuzilmalar va iqtisodiy tamoyillar qayta aniqlanadi va texnologiya hayotimizning barcha jabhalarini tubdan o‘zgartiradi. [11, b.41]. Sun’iy intellekt rivojlanishda davom etar ekan, u kelajagimizni shakllantirishda tobora muhim rol o‘ynashi aniq bo‘lib bormoqda.

Insoniyat bugungi kunda tarixda burilish nuqtasini boshdan kechirmoqda, bu davrda kelajakdagi axborot sivilizatsiyasining keyingi ijtimoiy-madaniy rivojlanishi tamoyillari yaratilmoqda, yangi ma’naviyat, yangi ideallar va qadriyatlar paydo bo‘lmoqda. Biz bularning asrlar davomida saqlanib qolgan insoniyatning an’anaviy ideallari - gumanizm, mehr-oqibat, erkinlik va adolat ideallariga zid kelmasligiga umid qilmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Белл Д. Социальные рамки информационного общества // Новая технократическая волна на Западе. - М., 1986. - С. 330-342.

2. Емелин В.Д. Идентичность в информационном обществе. - М., 2017. 360 с.

3. Иноземцев В.Л. Перспективы постиндустриальной теории в меняющемся мире // Новая постиндустриальная волна на Западе. Антология. - М., 1999. - С. 7-70.

4. Лиотар Ж.-Ф. Состояние постмодерна. М., 1988.

5. Миронов В.В. Цифровая пещера как возможный вектор развития культуры // Мировое развитие: проблемы предсказуемости и управляемости: Материалы XIX Международных Лихачевских научных чтений. - СПб., 2019. - С. 183-186.

6. Орлов С.В. Переход к цифровому обществу: в чем качественный сдвиг? // Философия и культура информационного общества: Тезисы докладов IX Международной научно-практической конференции. - СПб., 2021. - С. 23-25.

7. Тоффлер Э. Элвин Тоффлер: Будущее труда. Интервью // Новая технократическая волна на Западе (сборник текстов). - М., 1986.

8. Шваб К. Четвертая промышленная революция. - М., 2016. - 208 с.

9. Castells M. The End of the Millennium, The Information Age: Economy, Society and Culture. Vol. III. Cambridge. Oxford, 1998.

10. Masuda Y. The Information Society as Postindustrial Society. Washington, 1983.

11. Принципы работы с ии, разработанные на асиломарской конференции// https://futureoflife.org/open-letter/ai-principles-russian/

TURIZM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA UNING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI

Xashimov Sheraxon Jo‘raxonovich

SamISI dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Bugungi kunda O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish, O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari turizm sohasini tashkil etish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Turistlarni O‘zbekistonga jalb etishdagi dastlabki bosqich ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to‘g‘risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi. Keyingi yillarda ekologik turizm, ziyorat turizmi, etnoturizm, agroturizm, ekstremal turizmi, tibbiyot turizmi, sport turizmi, madaniy turizm, ta’lim turizmi va turizmning boshqa turlarining rivojlanishi

sayyohlarning to‘laqonli axborot bilan ta’minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda.

Turistik soha zamonaviy axborot texnologiyalarini jalb etish uchun ideal ravishda moslashgan soha bo‘lib, uning uchun qisqa muddatda transport vositalari, turistik obyektlar joylashuvi, nomer fondi imkoniyatlari va shu kabilar haqida ma’lumot beruvchi tizim talab etiladi. Bu tez rezervlar yaratish, tuzatishlar kiritish, qisqa muddatda kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lish, turistik xizmatlar chog‘ida yordamchi vazifalarni hal etishni ta’minlaydi. SHu kabi axborot texnologiyalari vaqtni, ortiqcha xarajatni tejaydi[1].

O‘zbekistonda tarixiy-madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatiga ega 7 mingdan ortiq turistik obyektlar mavjud. Statistika ma’lumotlariga asosan ulardan 545 tasi arxitektura, 578 tasi tarixiy, 1457 tasi san’at yodgorliklari va 5500 dan ortig‘i arxeologik ahamiyatga ega obyektlardir. Undan tashqari, Respublikamizda 300 dan ortiq muzeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat obyektlarining miqdori Toshkentda 144 ta, Samarqandda 118 ta, Buxoroda 201 ta, Xivada 310 tani tashkil etadi. Bu esa, mamlakatimizda diniy turizm, tarixiy obidalar turizmi, ekologik turizm, arxeologik turizm, sog‘lomlashtirish turizmi, ekskursiya (tanishuv, ko‘rish) turizmi kabi turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari yuqoriligini ko‘rsatadi [2]. Ushbu turistik obyektlarning 3D formatda tasvirlarini yaratish, arxeologik yodgorliklarning tarixiy asl qiyofasini tiklash, tarixiy voqealar, janglarning onlayn tasvirlarini ko‘rsatish, sun’iy intellekt asosida tarixiy shaxslarning tasvirlarini yoritish masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda.

Turistik tashkilotlar tomonidan mehmonxonalardagi o‘rinlar telefon yoki faks orqali bronlanadi. Internetda www.booking/com, www.hotels.com va shunga o‘xshagan bir nechta bronlashga oid bo‘lgan veb saytlar yurtimizdagi mehmonxonalar va GDSlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi va bu xizmatlari uchun har bir mijozdan o‘z hissalarini olishadi. Agarda mehmonxonalarimiz to‘g‘ridan to‘g‘ri GDSlar bilan aloqaga chiqa olishmasa, ya’ni buning uchun ko‘p xarajat talab qilinsa, yuqorida aytib o‘tgan kabi bronlash veb saytlarini O‘zbekistonning o‘zida ko‘proq yaratish va taniqlilik darajasini oshirish kerak. Har bir mehmonxona o‘zida kompyuterda o‘rinlarni bronlash tizimini ishga tushiradi, veb saxifalarini yaratadi va bronlash veb saytiga a’zo bo‘ladi. Bu veb sayt o‘zida GDS terminalini o‘rnatadi. Bu bilan yurtimizga tashrif buyuruvchilarning soni ortadi, mehmonxonalarda ish unumdorligi oshadi va yanada ko‘proq daromad olib keladi [3].

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imidjini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari, internetning tutgan o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda. O‘zbekistonda elektron nashrlar, yangi-yangi veb-saytlar,

bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi saytlar kengayib, mamlakatning turizm sohasidagi xalqaro imidjining rivojlanishiga yordam bermoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlarini targ‘ib-tashviq qilish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda milliy turizm sohasini axborot bilan ta’minlash, turistik operatorlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari echimlari va kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, axborot bozori subyektlariga uyg‘unlashgan holda ishlash mamlakatimizning xalqaro imidjini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda turizm turlarini targ‘ib-tashviq qilishda axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Turizm reklamasini tashkil etish, internetda turizm reklamasi bo‘yicha portalni yaratish, ommaviy axborot vositalari orqali faol reklama targ‘ibotini olib borish zamonaviy turizm rivojlanishining muhim xususiyatidir.

O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish jarayonida mamlakatning turizm sohasidagi imidjini sifat jihatidan yuksaltirish, unga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Xorijiy va milliy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning yangi qiyofasi, uning obrazi, turizmni rivojlantirish sohasidagi imkoniyatlari, imidjini shakllantirishga qaratilgan xilma-xil maqola, sharh, suhbat va boshqa matbuot ma’lumotlari e’lon qilinmoqda. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekistonda milliy turizmning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, milliy-psixologik imidjining yuksalishiga xizmat qilib kelmoqda. Mamlakatimizga kelayotgan turistlarning O‘zbekiston xaqida bildirgan ijobiy fikrlari, ijtimoiy tarmoqlarga yuklagan ma’lumotlari yurtimizga keladigan turistlar sonining yanada ko‘payishiga olib keladi. Shuning uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari targ‘ibotini kuchaytirish masalasi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, O‘zbekistonning boy turistik imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi sifatli media kontentlarni tayyorlash, ularni mavjud barcha kommunikatsiya kanallari orqali jahon auditoriyasiga muntazam tarqatish yaxshi samara beradi. Ana shu maqsadda O‘zbekiston imidjini jahon maydonida ilgari surishni nazarda tutuvchi turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari uchun mamlakatimizning turizm sohasidagi sayyohlik salohiyatiga oid yuqori sifatli foto, video va bosma materiallarni muntazam tayyorlash va etkazib berish masalasiga ham bugungi kunda katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonning turistik imkoniyatlari targ‘ib qilingan kitoblar, ma’lumotnomalar va qo‘llanmalarni xorijda nashr etish masalasiga ham e’tiborni

kuchaytirish zarurdir. Ushbu tadbirlar mamlakatimizning xalqaro maydonda turizm sohasidagi imidjini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston imidjining o‘lchov mezoni sifatida turizmning tutgan o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda. O‘zbekistonning turizmni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari haqida chet el ommaviy axborot vositalarida va mediamakonida muntazam maqolalar chop etish va videokontent uzatish, shuningdek, turizmni rivojlantirish sohasida erishilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib qilish uchun brifinglar, davra suhbatlari, konferensiya va seminarlar o‘tkazish kutilgan natijalarni beradi.

Xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imidjini ilgari suradigan xorijiy PR-agentliklari, xalqaro axborot maydonida nufuzli va ta’sirga ega bo‘lgan xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari va yutuqlarini keng targ‘ib-tashviq etish mamlakatimizga keladigan turistlar sonining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlashda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining xalqaro miqyosdagi aloqalari muhim o‘rin tutib, mamlakatimizning turizm sohasidagi imkoniyatlarini targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish turizm sohasiga tegishli bo‘lgan fan, ta’lim, tarbiya va targ‘ibotni kuchaytirish asosida amalga oshiriladi. Buning uchun aholining ongi va madaniyatini yuksaltirish uchun ommaviy axborot vositalarida, internetda turizmga bag‘ishlangan ma’lumotlarni kengroq berib borish, turizmga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop, ommabop nashrlarni yanada ko‘paytirish zarurdir. Turizmni rivojlantirishni tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish, zarur infratuzilmani shakllantirish, turistik-rekreatsion erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishda innovatsion klasterlarni tashkil etish va faoliyatini kengaytirish talab etiladi. SHunday tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekistonning xalqaro maydonda turizm sohasidagi imidjining oshishiga, chet ellik sayyohlarning mamlakatimiz turistik imkoniyatlariga qiziqishining kuchayishiga olib keladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Norqulova D.Z., Jomonqulova F., Qilichova O.Z. Turizmda WEB saytlarning ahamiyati // “O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. (2019 yil 13-14 noyabr), Samarqand 2019 yil.

2. Abduvaliev A.A., Bozorova I.J. Tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanishda geoaxborot tizimlari va axborot kommunikatsion texnologiyalarni o‘rni. // “O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanish muammolari” mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. (2019 yil 13-14 noyabr), Samarqand 2019 yil.

3. Raximov Z.O., Talibova A.YU. Turizm sohalarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari // “O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. (2019 yil 13-14 noyabr), Samarqand 2019 yil.

4. Янги Ўзбекистон имижи халқаро майдонда қандай юксалади? // https://beruniyalimov.uz/archives/986

GLOBALLASHUV DAVRIDA TA’LIMNING AXBOROTLASHUVI VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING TRANSFORMATSIYASI

Xidirov Xoshim Ibodullaevich
Jizzax politexnika instituti professori v.b., falsafa doktori(PhD)
Yusupov Murodali Sunnatovich
Samarqand iqtisodiyot-servis institute dotsenti v.b.,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar tarbiyasining mazmuni va xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiylashuvi hamda shaxs sifatida shakllanishidagi o‘rni va ahamiyati yoritilib, ushbu jarayonning dolzarb jihatlari yuzasidan ilmiy mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, tarbiya, axborot, ta’lim, texnika, fan, rivojlanish, innvatsiya, texnologiya, sun’iy intellekt va h.k.

Hozirgi rivojlangan jamiyat muayyan intellektual salohiyatga ega bo‘lgan taqdirdagina axborot texnikasi ilmiy taraqqiyotga turtki berishi mumkin. Jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda ta’lim tizimi muhim rol o‘ynaydi. O‘z navbatida, fan ta’lim funksiyasini bajaradi. Binobarin, fan bilan ta’lim o‘zaro aloqa qiladi. Bu aloqa shunda namoyon bo‘ladiki, birinchidan, fan yangi bilim ko‘rinishidagi o‘z mahsulini ishlov berish va tarqatish uchun ta’limga taqdim etadi. Ikkinchidan, ta’lim tegishli tarzda o‘qitilgan va tayyorlangan kadrlarni fanga etkazib beradi.

Fan bilan ta’lim o‘rtasida uzviy aloqa mavjudligiga, ular bir- birisiz rivojlana olmasligiga qaramay, fan va ta’lim inson faoliyatining har xil sohalaridir. Xususan,

mazkur tafovut inson faoliyatining bu ikki o‘zaro bog‘langan, lekin har xil sohalarini axborotlashtirish jarayonida ham namoyon bo‘ladi.

Tarix o‘z ta’lim tizimidan kamdan-kam jamiyat qanoatlanganini ko‘rsatadi. Bu ta’limning klassik modeli eskirgan bugungi kunda, ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim paradigmasini inqilobiy o‘zgartirish, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta’lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta’lim tizimini vujudga keltirish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda.

Hozirgi ta’lim sohasida qarama-qarshi tendensiyalar - jamiyat hayoti va faoliyatida ta’lim rolining o‘sishi hamda ta’lim sohasida inqiroz kuzatilmoqda. Mazkur inqiroz faqat moliyaviy taqchillik bilan emas, balki industrial jamiyatga samarali xizmat ko‘rsatgan ta’lim tizimi axborotlashgan jamiyat talablariga javob bermasligi bilan ham izohlanadi. Darhaqiqat, axborotlashgan jamiyatda ta’lim butunlay boshqacha rol o‘ynaydi. D.Bell o‘zining kelajak jamiyati konsepsiyasida universitetlarni «postindustrial jamiyatning muhim instituti» deb ta’riflagani bejiz emas. So‘nggi yillarda vujudga kelgan ta’lim sotsiologiyasi S.Lipset, R.Nisbet, J.Furaste va boshqalarning shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi hozirgi jamiyatni ichdan qayta qurishiga umid bog‘lamoqda.

Ta’lim sohasidagi inqirozning mohiyati va undan chiqish yo‘llari haqidagi har xil qarashlar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, bu muammolarga nisbatan ikki asosiy yondashuvni qayd etishimiz mumkin. Birinchi yondashuv texnokratik xususiyatga ega. U shakllanayotgan axborot jamiyati yangicha tafakkurni, tez o‘zgarayotgan axborot-texnik borliqqa nisbatan munosabatning yangi tipini shakllantirishni taqozo etadi, degan fikrni ilgari suradi. Bu esa, ta’limning mazmuni va metodikasini o‘quvchilarda axborot bilan oqilona ishlash, kompyuter texnologiyalarini bilish, professional-pragmatik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirishni taqozo etadi. Hozirgi ta’lim tizimida hukm surayotgan inqirozdan chiqishga nisbatan ikkinchi yondashuvni insonparvarlikka asoslangan yondashuv deb nomlash mumkin. U inqiroz sabablari va mazmunini ta’limning noinsonparvarlashuvida, industrial va bozor munosabatlarining vositasiga aylanib qolganida ko‘radi. Mazkur konsepsiya nuqtayi nazaridan, ta’lim industrial texnokratizm va bozor utilitarizmi (manfaatparastligi) ta’sirida o‘z insonparvarligini yo‘qotadi va tor kasbiy bilim va ko‘nikmalarga manfaatparastlik nuqtayi nazaridan (utilitar tarzda) o‘rgatishga aylanadi. Ta’lim tizimini isloh qilish ta’limning mazmunini aktuallashtirish, o‘quv axboroti oqimlarini yaratish, pedagogik mehnatni taqsimlash va birlashtirishning mutlaqo yangi shakllarini amalga joriy etishdan tashqari, ta’limni insonparvarlashtirish va kompyuterlashtirishni nazarda tutgan holda: “Bugun ta’lim tizimida yangi gumanistik qadriyatlar, an’anaviy gumanitar fanlar joriy etilmoqda”[1;13]. Ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklari muhandislar tayyorlashda, ayniqsa yaqqol aks etadi. Ma’lumki, muhandislar mutaxassislarning

eng ommaviy guruhini tashkil etadi. Ular ma’lum sabablarga ko‘ra jamiyat hayotining deyarli barcha sohalari bilan bog‘liq. Muhandislik ta’limining haddan tashqari texnikaviylashuvi, uning insonparvarlik jihatiga kam e’tibor berilishi jiddiy kamchiliklardan biridir. Umuman olganda, “Inson shaxsini, uning qobiliyati va ehtiyojlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnik ta’limni noinsonparvarlashgan ta’lim deb bo‘lmaydi. Texnik faoliyat shaxsning insonparvarlashuvi, unda dunyoga faol ijodiy munosabatni rivojlantirish omili hisoblanadi” [2;45]. Texnik mutaxassis andozalarini shakllantiruvchi tashqi omillarning ta’lim tizimiga ta’siri muhandislik ta’limining noinsonparvarlashuviga, unda texnokratizm haddan tashqari kuchayishiga olib keldi.

Hozir fan va texnikaning ilg‘or tarmoqlarida sun’iy intellekt yaratish bo‘yicha ish olib borilmoqda. Ammo tabiiy intellekt nimaligini bilmay turib, sun’iy intellekt to‘g‘risida so‘z yuritish mumkinmi? Vaholanki, informatika sohasida ishlaydigan mutaxassislar bu savolga ko‘pincha to‘g‘ri javob bera olmaydilar. Holbuki, bunday javobni ijtimoiy bilim beradi. U tabiiy intellekt deganda Platon bir paytlar “nus” deb atagan narsa - inson ongining oqilona fikrlash qobiliyatini tushunadi. Tabiiy intellekt nimaligini tushunmaslik sun’iy intellekt mohiyati, tabiiy va sun’iy intellektlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar har xil tushunilishiga olib keladi.

Ta’limni axborotlashtirish jarayonining kengayishi natijasida muhandislik ta’limining ijtimoiylashuvi muammolari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu muhim va zarur jarayonning salbiy jihatlari ham yo‘q emas. Ta’limni axborotlashtirish bilimni axborotga aylantirib, bilimlarni o‘zlashtirishni inson ongining boshqa unsurlari - emotsiya va kayfiyat, intuitsiya va ko‘p ma’nolilikdan ajratadi, bilimni qat’iy bir ma’noli va rasmiy qilib qo‘yadi, dialektik fikrlash usuliga amal qilmaydi, “mashinali fikrlash” tarzini shakllantiradi. Bunday fikrlash tarzi tegishli xulq- atvorni shakllantiradi: odamlar bir-biri bilan kam aloqa qila boshlaydi, shaxslarning jamiyatdan ajralishi va, pirovard natijada, insonning virtual olamga kirib ketishi sodir bo‘ladi. Fikrlash va xulq-atvor shakllari, ularning mazmunidan ustunlik qila boshlaydi. Ta’lim sohasida bu uning insonparvarlik unsuri yo‘qolishiga olib keladi. Xullas, axborotlashtirishning salbiy oqibatlarini tugatish uni insonparvarlashtirishni taqozo etadi.Ta’lim oluvchilarda obrazli fikrlashni, muayyan qobiliyat va ko‘nikmalarni rivojlantirish ijtimoiy tayyorlashning muhim muammosidir. Shuni e’tiborga olish kerakki, muayyan qarorni qabul qilishda inson, nafaqat o‘z ilmiy bilimlarini, balki xohishi, istagi, qiziqishi, kafiyati, simpatiyalarini ham ishga soladi. “Mehnatni oqilonalashtirishning bu vositalarini ta’lim jarayonida ijodiy fikrlash tarzini, izlanuvchanlikni shakllantirish yo‘li bilan rivojlantirish zarur. Bu ta’limning muammoli, o‘yinli, talaba bilan o‘qituvchi o‘rtasida muloqot usullarini amalga joriy etishini taqozo etadi” [3;18]. Mutaxassislarni ijtimoiy qayta tayyorlash muammolarini hal qilishning ikkinchi jabhasi ijtimoiy fanlarni o‘qitish sohasidir.

Nafsilambrini aytganda, oliy texnika maktablarida bu fanlarga past nazar bilan qaraladi. Bunda ijtimoiy tayyorlash muammolarini ba'zan yaxshi tushunmaydigan texnika fanlari vakillarigina emas, balki muhandis uchun ijtimoiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini, uning professional hayotiy masalalar bilan aloqasini e'tiborga olmaydigan ijtimoiy fanlar o'qituvchilari ham aybdordirlar. Ijtimoiy fanlarning yangi mazmuniga muvofiq yangi ta'lim usullarini ishlab chiqish va ularni amalda qo'llashni bilmaslik holatlari uchrab turibdi. Ayni vaqtda, ijtimoiy fanlar o'qituvchilari talabalar o'rganayotgan tabiiy-matematika va texnika fanlari haqida hech bo'lmasa umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Kompyuter qanday tuzilganligi va ishlashi, axborot nima ekanligi va u bilimdan nima bilan farq qilishi, dasturiy ta'minlash, fayl yoki bit nimaligini bilmasdan informatiklarga falsafani o'rgatish mumkin emas.

Avtomatlashtirishning rivojlanish bosqichlarini, uning mohiyatini, robotlar avlodlarini va mexatronikaning rivojlanishini bilmasdan avtomatchi-muhandislarga tarixdan dars berish mumkin emas. "Inson-mashina" tizimining dialektikasini ochib bermasdan, mexanizm qismlardan, ya'ni, ma'lum erkinlik darajasiga ega detallardan tashkil topishini bilmasdan dastgohchi-muhandislarga dialektikani o'rgatish mumkin emas. Kompyuter madaniyatining shakllanishi, Internetning roli, virtual olam to'g'risida so'z yuritmasdan madaniyatshunoslikdan dars berish mumkin emas. Ijtimoiy fanlar shunday o'qitilishi kerakki, ijtimoiy bilimlar bo'lajak muhandisda kasbiy qiziqish uyg'otsin. Axborotlashgan jamiyat texnologiyasi ta'lim jarayoniga muayyan talablar qo'yibgina qolmasdan, balki bu jarayonni o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida to'g'ri va teskari aloqani ta'minlashga qodir zamonaviy axborot vositalari bilan ham jihozlaydi. "Ta'lim jarayonida kompyuterlarning roli shu qadar kattaki, kelajakda elektron mashinalar o'qituvchilar o'rnini to'liq egallaydi va ularning vazifalarini arzonroq, puxtaroq va samaraliroq bajaradi" [4;33], - degan fikrlar bildirilmoqda. Bunga teskari qarashlar esa, ta'limda kompyuterlardan foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi, chunonchi, bilimlarni formallashtiradi, o'qituvchini o'quvchi bilan jonli emotsional aloqa qilishdan mahrum etadi, boz ustiga, ta'limni kompyuterlashtirish, uning standartlashishi va o'qituvchilar orasida ishsizlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, degan fikrlarni ilgari surmoqda [5;15]. Bu turg'un fikrlaydigan o'qituvchilarning fikrlari bo'lib, u yangi emas, chunki ta'lim sohasida yangiliklar doim, hatto ma'rifatli odamlarning ham qarshiligiga duch kelgan. Masalan, buyuk faylasuf va pedagog Suqrot o'z vaqtida og'zaki nutqni ta'lim va tarbiyaning eng oqilona usuli deb hisoblagan va ta'lim sohasida yozuvning qo'llanishiga o'ta salbiy munosabat bildirgan, bu odamlarning xotirasini o'tmaslashtiradi, og'zaki nutq fikrlarning ma'nosini yozma nutqqa qaraganda yaxshiroq ifodalaydi deb hisoblagan.

Mavjud ta’lim tizimi informatika va avtomatika, robototexnika va mexatronikani qo‘llashga asoslangan ishlab chiqarish talablariga javob beradigan insonni shakllantirishga qodir emas. Vaholanki, ishlab chiqarishda ijodiy fikrlaydigan, an’anaviy echimlarga shubha bildira oladigan, yuqori malakali mutaxassislarga talab kuchayib bormoqda. Davr ta’limni ishlab chiqarish jarayonining sharti deb tushunishdan unga ishlab chiqarishning maqsadi deb qarashga o‘tishni taqozo etmoqda. Bunday o‘tish jarayonida ta’limni axborotlashtirish - uning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan yangi axborot texnologiyalarining dasturiy va apparatli vositalari majmuini va ulardan foydalanish metodikasini ta’lim jarayoniga joriy etish katta rol o‘ynashi lozim.

Ta’limni kompyuterlashtirish, keng ma’noda esa axborotlashtirish o‘rganish uchun zarur axborotni tanlash, uni ta’lim shakliga solish, bu axborotni o‘quvchilarga o‘zlashtirish, tushunish va eslab qolish uchun berish maqsadida axborot texnologiyasidan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma’lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish demakdir.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’limning mazmuni, shakllari va usullari o‘zgarishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlarning natijalarini quyidagicha ta’riflash mumkin:

Ma’lum fanlar to‘plami bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar olishni nazarda tutuvchi an’anaviy yondashuv o‘rnini, ta’limga integratsion yondashuv egallamoqda.

Dunyoni bilish an’anaviy o‘rganish yo‘li bilan emas, balki uning modelini tuzish orqali amalga oshiriladi. Shunchaki bilim va ko‘nikma olish emas, balki bilim va ko‘nikma olish jarayonida o‘quvchining shaxsini shakllantirish ta’limning maqsadiga aylanadi.

O‘rtacha shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘rnini o‘quvchiga nisbatan individual psixologik yondashuv egallaydi.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyasidan foydalanish sur’ati, darajasi va samaradorligi bu texnologiyadan ta’lim jarayonida oqilona foydalanishga o‘qituvchilarning tayyorligiga hamda o‘quvchilarning kompyuterni bilishiga, bilim olish, uni tushunish, o‘zlashtirish va eslab qolish uchun informatikadan foydalana olish intellektual imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim tizimini qayta qurish, eng avvalo, ta’lim xodimlarini, o‘qituvchilarni “qayta qurish”ni taqozo etadi. Axborotlashgan jamiyatga o‘tilishi bilan o‘qituvchilar faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etadi. Axborotlashgan jamiyatning asosiy boyligi - bilimning ahamiyati, qimmati uning amalda qo‘llanilishiga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi. O‘zining amalda qo‘llanilishi uchun jamiyat a’zolari uni

egallashi, o‘zlashtirishini taqozo etadi. Bilimlarni o‘zlashtirish ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash lozimki, jamiyatning axborotlashish jarayoni qanchalar rivojlanib borar ekan, bunda inson va texnikaning mujassamlashuvi alohida ahamiyat kasb etib boraveradi. Xususan, hozirda ayni dunyo masalalari axborotlashib borayotgan bir vaqtda yangidan-yangi atamalar va tushunchalar kirib kelmoqdaki, bu borada yoshlarning tarbiyasini asrab-avaylash va ularni etuk insonlar qilib tarbiyalashda ushbu holatlarning oldini olish bevosita muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Ответственность образования в предупреждении ... - Т.: Янги аср авлоди, 2003. - С.13.
2. Шульман Е. А. Активность социального реагирова ния на информацию. - Сб науч. тр. Ташк. пед. ин-та, 1977. - С.45.
3. Ахлиддинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования (на матер. Национ. Программы по подготов. Кадров) 13.00.01.-Теория и история педагог. Автореферати дисс. На соиск. Ученой-степ. док.пед.наук.-Т.:2002. - С.18.
4. Sultonov M. Ilmning yangi yo‘li.// Tafakkur. -1996. №1. - B.33
5. Иззетова Э.М. Проблема взаимоотношения научного знания и гуманистических идеалов. Автореф. дисс. ... докт. филос наук. - Ташкент. 2002. - С.15.

YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING VIZUAL-ESTETIK JOZIBADORLIGI VA IQTISODIY FAOLLIKNING ESTETIK ME’YORLARI

Aliqulov Kuvat Xaqnazarovich,
Zarmed universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri,
falsafa doktori(PhD), dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror taraqqiyot modellarining ijtimoiy-falsafiy va estetik-ekologik jihatlari tadqiq etiladi. "Yashil" energiya texnologiyalarining vizual-estetik jozibadorligi, zamonaviy jamiyatda eko-madaniyat va "yashil" turmush tarzining shakllanishi hamda iqtisodiy faollikning estetik me’yorlari o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik yoritilgan. Tadqiqot yakunida

barqaror rivojlanishning iqtisodiy-estetik triada modeli mualliflik yondashuvi sifatida taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Ekologik estetika, yashil energiya, vizual jozibadorlik, yashil turmush tarzi, iqtisodiy faollik, barqaror taraqqiyot, texno-estetika, ekologik imperative.

Kirish. Insoniyatning XXI asrdagi iqtisodiy faoliyati faqat moddiy resurslarni o‘zlashtirish yoki yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish bilan o‘lchanadigan utilitar (sof foydaga yo‘naltirilgan) bosqichdan o‘tib bo‘ldi. Bugungi kunda globallashuv va ekologik inqiroz sharoitida barqaror taraqqiyot modellari nafaqat texnologik va iqtisodiy, balki kuchli estetik-falsafiy poydevorga ehtiyoj sezmoqda.

Yashil energiya texnologiyalarining (quyosh panellari stansiyalari, shamol generatorlari komplekslari, "aqlli" va ekologik arxitektura) urbanistik va agro-landshaftlarga kirib kelishi ekologik estetikaning yangi me’yorlarini shakllantirmoqda. Shu bois, yoshlarning iqtisodiy faolligini ekologik va estetik tamoyillar sintezida tadqiq etish muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqlim o‘zgarishlari, ekologik barqarorlik va "yashil" iqtisodiyotga o‘tish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Xususan, global iqlim inqirozining Markaziy Osiyoga ta’siri va bu boradagi dolzarb vazifalar haqida davlatimiz rahbari shunday degan edi: "Bugungi kunda ekologik muammolarni global iqlim o‘zgarishlaridan ayri holda ko‘rib chiqib bo‘lmaydi. Global isish sur’atlarining tezlashishi davom etmoqda, Markaziy Osiyo mintaqasida esa harorat ikki barobar tezroq ko‘tarilmoqda. Mintaqa muzliklarining qariyb uchdan bir qismi yo‘qoldi, yog‘ingarchilik tartibining beqarorligi kuzatilmoqda, suv resurslari tanqisligi ortib bormoqda."

Prezident o‘z nutqlarida deklaratsiyalardan amaliy harakatlarga o‘tish zarurligini va bu jarayonda "yashil" energetika ulushini oshirish mamlakatning strategik maqsadi ekanini doimiy ravishda ta’kidlaydi:

"Generatsiya quvvatlarimizda “yashil” energetika ulushi allaqachon 30 foizga yetdi, joriy o‘n yillikning oxiriga borib esa 50 foizdan oshadi. Biz Parij bitimi bo‘yicha zararli chiqindilarni 35 foizga kamaytirish majburiyatini muddatidan oldin bajardik."[1.]

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida tizimlilik, qiyosiy-falsafiy tahlil, obyektivlik tamoyillari hamda **ekologik imperativ** (A.Pechchei, N.Moiseev) konsepsiyasiga tayanildi. Shuningdek, iqtisodiy faoliyatning estetik qonuniyatlarini ochib berishda ekologik estetika (E.Breydi, Y.Saito) metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Natijalar va tahlil

1. Texno-estetika: Yashil texnologiyalarning vizual jozibadorligi

An’anaviy industrial jamiyat arxitekturasi va sanoat obyektlari (tutun burqsayotgan zavod quvurlari, issiqlik elektr stansiyalari) o‘z davrida insonning tabiat ustidan g‘alabasi, subyektiv qudrati timsoli sifatida estetiklashtirilgan edi. Biroq postindustrial sivilizatsiyada bu manzara vizual inqiroz (antiestetika) sifatida idrok etilmoqda. Yoshlar o‘rtasida "yashil" iste’mol madaniyatini shakllantirish muammosi xalqaro estetik tadqiqotlarda ham o‘zining konseptual yechimini topgan. Xususan, professor Yuriko Saito o‘zining "Everyday Aesthetics" (Kundalik estetika) asarida ta’kidlaganidek, chiqindilarga munosabat, ekologik iste’mol va energiyani oqilona tejash shunchaki axloqiy majburiyat emas, balki insonning kundalik turmush tarzini belgilovchi toza va barqaror muhitga bo‘lgan estetik ehtiyojidir [2.214]. Demak, iqtisodiy faollikning estetik me'yori bevosita kundalik ekologik madaniyat bilan xarakterlanadi.»

Aksincha, zamonaviy muqobil energiya manbalari yangi "texno-estetika" paraddigmasini yaratdi:

- Landshaft garmoniyasi: Moviy ufq fonida aylanayotgan simmetrik va oq rangli shamol generatorlari parraklari yoki cho‘l ekotizimlariga o‘rnatilgan geometrik aniqlikdagi quyosh panellari maydonlari tabiat arxitekturasini buzmaydi, balki uning futuristik davomiga aylanadi. "Ekologik funksiyaga ega bo‘lgan landshaftlar inson madaniyati tomonidan vizual jihatdan jozibador deb tan olinishi va estetik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi shart" [4.231]. Aynan zamonaviy muqobil energiya obyektlari landshaftdagi ekologik barqarorlik bilan vizual uyg‘unlik (estetika) o‘rtasidagi mazkur muloqotni ta’minlab beradi.
- Vizual-psixologik qulaylik: Toza va ekologik texnologiyalar inson ongida tushkunlik (ekologik xavotir) tuyg‘usini haydab, kelajakka nisbatan optimistik estetik kayfiyat va vizual qoniqish hosil qiladi.

2. Iqtisodiy faollikning estetik me’yorlari va "yashil" turmush tarzi

Iqtisodiy faollikning estetik me’yori - bu ishlab chiqarish va iste’mol jarayonida ekologik muvozanat, go‘zallik va ratsionallikning o‘zaro mutanosibligidir. Bu tushuncha amaliyotda "yashil" turmush tarzida moddiylashadi:

- Ekologik ratsionallik estetikasi: Energiyani tejash, chiqindilarni minimallashtirish va qayta ishlash, ekologik toza mahsulotlarni tanlash - yoshlar o‘rtasida shunchaki tejamkorlik emas, balki "madaniyatli va zamonaviy inson" imijining estetik komponentiga aylanmoqda.
- Etik va estetik simbioz: Iqtisodiy faoliyatda tabiatga nisbatan mas’uliyat (etika) vizual muhit tozaligi va turmush madaniyati (estetika) bilan birlashadi. Professor Emili Breydi o‘zining fundamental tadqiqotida ta’kidlaganidek, "Atrof-muhit estetikasi nafaqat tabiatni shunchaki kuzatish, balki insonning kundalik faoliyatida tabiat bilan axloqiy va estetik munosabatlar muvozanatini saqlashidir" [3. 112]. Bu esa qadimgi falsafadagi (Xususan, Aristotel etikasidagi) me’yor,

mutanosiblik va simmetriya qonuniyatlarining ekologik tafakkurdagi zamonaviy reinkarnatsiyasidir.

3. Barqaror taraqqiyotning Iqtisodiy-Estetik Modeli

An’anaviy barqaror rivojlanish modellari asosan ikki ustunga - Iqtisodiyot va Ekologiyaga tayanar edi. Bizning tadqiqotimiz iqtisodiy faollikni yuksaltirishda uchinchi muhim komponentni - Estetik me’yorni tizimga kiritishni taklif etadi.

[BARQAROR TARAQQIYOT MODELI]



Model mohiyati: Iqtisodiy o‘sish (Ekonomika) va Tabiiy muvozanat (Ekologiya) faqat o‘sha jarayon jamiyat va shaxs tomonidan go‘zallik, uyg‘unlik va vizual jozibadorlik (Estetika) sifatida qabul qilingandagina barqaror ijtimoiy qadriyatga aylanadi.

Rim klubi asoschisi Aurelio Pechchei o‘zining fundamental asarida insoniyat kelajagi faqat texnik yechimlarga emas, balki ichki qadriyatlarga bog‘liqligini ta’kidlab, shunday yozgan edi: “Muammo tizimning o‘zida emas, balki insonning o‘zida, uning madaniyati va insoniy sifatlaridadir. Agar biz o‘z qadriyatlarimizni o‘zgartirmasak, hech qanday texnologiya bizni qutqara olmaydi” [5.45-b.]. Demak, biz taklif etayotgan modeldagi “Estetika” mezoni aynan insonning iqtisodiy faoliyatiga madaniy va insoniy tus beruvchi asosiy sotsiomadaniy omil hisoblanadi.

Xulosa. Yashil energiya texnologiyalari faqatgina energetik xavfsizlik yoki iqtisodiy dividendlar manbasi emas. Ular insoniyatning atrof-muhit bilan munosabatlarini estetik jihatdan transformatsiya qiluvchi kuchdir. Iqtisodiy faollikning estetik me’yorlarini yoshlar ongiga singdirish - ekologik madaniyatni shakllantirishning eng ta’sirchan sotsiomadaniy mexanizmi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasi (COP) sammitidagi nutqi //

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (www.president.uz) va O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (www.uza.uz) materiallari.

2. Saito, Y. (2007). Everyday Aesthetics. Oxford University Press, 288 p.

3. Brady, E. (2003). Environmental Aesthetics: Essays on the Aesthetics of Nature. University of North Texas Press, 288 p.

4. Nassauer, J. I. (1995). *Messiness or Mindfulness: Culture and Landscape Ecology*. Landscape Journal, 14(2), 229-237.

5. Pechchei, A. (1980). Insoniyat kelajagi haqida (Rim klubi hisobotlari asosida). - Toshkent, 160 b.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Raxmonova Nigina Tolibovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Falsafa” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya va jadal axborotlashuv sharoitida yoshlar o‘rtasida ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda virtual makondagi ma’naviy tahdidlar, global tarmoqlarning shaxs qadriyatlar tizimiga ta’siri hamda ijtimoiy barqarorlikni saqlash mezonlari falsafiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, raqamli muhitda yoshlarning mediaimmunitetini shakllantirish va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashda ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlarning o‘rni aniqlangan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, ma’naviy barqarorlik, ijtimoiy falsafa, globallashuv, yoshlar, ma’naviy mezonlar, mediaimmunitet, virtual makon, qadriyatlar integratsiyasi.

XXI asrning birinchi choragi insoniyat taraqqiyoti tarixiga fundamental texnologik burilish - raqamli transformatsiya davri bo‘lib kirdi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarini raqamlashtirish, sun’iy intellekt, katta hajmli ma’lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalarning shiddatli integratsiyasi nafaqat ishlab chiqarish yoki iqtisodiy munosabatlarni, balki ijtimoiy borliqning eng nozik sferasi hisoblangan ma’naviy-axloqiy tizimni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda virtual makon (cyber space) an’anaviy ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, ta’lim muassasalari) bilan bir qatorda shaxs dunyoqarashini shakllantiruvchi, uning qadriyatlar iyerarxiyasini belgilab2 beruvchi determinat omilga aylandi. Ushbu global ijtimoiy-madaniy evrilishlar sharoitida jamiyatning eng dinamik, intellektual

va ayni paytda tashqi ta’sirlarga beriluvchan qatlami bo‘lgan yoshlarning ma’naviy barqarorligini ta’minlash muammosi ijtimoiy falsafaning eng dolzarb obyektlaridan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Chunki, raqamli muhit yoshlar uchun cheksiz bilim, innovatsion imkoniyatlar va global muloqot maydonini taqdim etishi bilan bir vaqtda, ularning ongi va ruhiyatiga qaratilgan tizimli ma’naviy tahdidlar, g‘oyaviy manipulyatsiyalar hamda "post-haqiqat" (post-truth) tendensiyalarining tarqalish manbaiga ham aylanib ulgurdi.

Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan yondashganda, raqamli transformatsiya sharoitidagi ma’naviy barqarorlik - bu shunchaki o‘tmishdan qolgan an’anaviy qarashlarni konservativ tarzda saqlab qolish yoki tashqi dunyodan izolyatsiya bo‘lish mudofaa reaksiyasi emas. Aksincha, u shiddatli axborot oqimlari, kognitiv urushlar va qadriyatlar simulyatsiyasi asrida yosh shaxsning o‘zligini, milliy va umuminsoniy muvozanatini yo‘qotmaslik, axborotni filtrlash hamda ma’naviy-axloqiy o‘zakni mustahkam saqlash qobiliyatini ifodalaydi.

Hozirgi davrda yoshlar ma’naviy barqarorligining mazmuni o‘zgarmoqda, uning yangi qirralari va baholash mezonlari shakllanmoqda. Agar ilgari ma’naviy barqarorlik faqatgina ma’lum bir axloqiy normalarni o‘zlashtirish bilan o‘lchangan bo‘lsa, bugungi raqamli voqelikda u mediaimmunitet, kiber-etika va kognitiv mustaqillik kabi yangi parametrlarni talab etadi. Shu sababli, raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar ma’naviy barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tizimli tadqiq etish, uning zamonaviy mezonlarini aniqlash va mustahkamlash imkoniyatlarini ilmiy asoslash ushbu maqolaning bosh maqsadi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy falsafa va ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixida jamiyat barqarorligi va uning ma’naviy-axloqiy poydevori muammosi doimiy ravishda markaziy o‘rinlardan birini egallab kelgan. Sharq falsafiy an’anasida, xususan, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning minerallogi va sotsiologik qarashlari, Alisher Navoiyning gumanistik konsepsiyalarida jamiyatning inqirozlarga qarshi barqarorligi (immuniteti) bevosita shaxslarning, ayniqsa, o‘sib kelayotgan avlodning axloqiy komilligi va adolati bilan bog‘langan. Sharq mutafakkirlari ma’naviyatni jamiyat tizimini birlashtiruvchi va uni ichki hamda tashqi parokandalikdan asrovchi bosh ijtimoiy kuch sifatida talab qilganlar.

G‘arb falsafiy va sotsiologik maktablarida ijtimoiy barqarorlik dinamikasi mutlaqo boshqacha metodologik usullarda tahlil qilingan. T. Parsons o‘zining strukturaviy funksionalizm nazariyasida jamiyatning barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun qadriyatlar tizimining integratsiyalashuvi (latency - namunani saqlash funksiyasi) eng birlamchi shart ekanligini isbotlashga uringan. E. Dyurkgeym esa jamiyatda an’anaviy qadriyatlar tizimining zaiflashishi va o‘tish davridagi

me’yorlarning yo‘qolishi jarayonini “anomiya” (me’yorsizlik) tushunchasi orqali tushuntirib, bu holat shaxs ruhiyati va ijtimoiy barqarorlikka halokatli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan.

Raqamli jamiyat va virtual voqelikning inson ongiga ta’siri XX asr oxiri va XXI asr boshlarida postmodern falsafaning yirik vakillari tomonidan tizimli tadqiq etila boshlandi. M. Kastels o‘zining “Axborotlashgan jamiyat” trilogiyasida tarmoqli tuzilmalar an’anaviy ijtimoiy institutlarni siqib chiqarishini va bu muhitda yangi "tarmoq madaniyati" shakllanishini bashorat qilgan edi. J. Bodriyard esa raqamli makonda real voqelikning o‘rnini simulyakrlar (soxta obraz va belgilar) egallashini va bu holat insonning ma’naviy-axloqiy mo‘ljallarini chalkashtirib yuborishini ilmiy asoslab berdi. E. Toffler o‘zining “Uchinchi to‘lqin” asarida axborot oqimining shiddatliligi insonda "kelajak zarbasi" (future shock) ya’ni kognitiv va ma’naviy adaptatsiyaning qiyinlashuvini keltirib chiqarishini ko‘rsatgan.

Mustaqillik davri O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy fanlarida ma’naviy barqarorlik va g‘oyaviy immunitet masalalari milliy taraqqiyot strategiyasining tarkibiy qismi sifatida tadqiq etilmoqda. Mahalliy faylasuf olimlarning ishlarida global tahdidlar sharoitida milliy o‘zlikni anglash va yoshlar ongini yot g‘oyalardan asrash muammolari nazariy jihatdan yoritilgan. Biroq, bugungi kunda raqamli transformatsiyaning mutlaqo yangi bosqichi - ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari, neyromarketing, kiber-makondagi qadriyatlar inqirozi va sun’iy intellekt muhitida yoshlarning ma’naviy barqarorlik mezonlarini yangilash masalasi ijtimoiy falsafada alohida, maxsus tadqiqot obyekti sifatida chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli transformatsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u ijtimoiy hayotning moddiy va ma’naviy sohalarini bir vaqtda qamrab oladi. Shu sababli, virtual makonda yoshlar ma’naviy barqarorligining mazmuni va mezonlarini tadqiq etish murakkab, ko‘p o‘lchovli metodologik yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqolada obyektivlik, tizimlilik va tarixiylik prinsiplariga tayanilgan holda, quyidagi ijtimoiy-falsafiy va gumanitar metodlar majmuasidan foydalanildi:

- tizimli-strukturali yondashuv: Mazkur yondashuv raqamli muhit, axborot oqimlari, ijtimoiy institutlar va yoshlarning ma’naviy dunyosini o‘zaro uzviy aloqadorlikdagi yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Bunda raqamli transformatsiya tashqi determinat omil, ma’naviy barqarorlik esa ushbu omilga nisbatan tizimning ichki mutanosiblik va o‘z-o‘zini asrash reaksiyasi sifatida o‘rganildi.

- aksiologik yondashuv: Mazkur metod vositasida an’anaviy ijtimoiy-madaniy qadriyatlar (milliy o‘zlik, axloqiy me’yorlar, oilaviy muqaddasliklar) va

raqamli platformalar tomonidan taqdim etilayotgan yangi "virtual qadriyatlar" (kiber-submadaniyat, individualizm, pragmatizm) o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik hamda ziddiyatlar falsafiy jihatdan baholandi. Yoshlar ongida qadriyatlar transformatsiyasining yo‘nalishi aniqlandi.

- komparativistik tahlil: Bu metod yordamida real ijtimoiy borliqdagi ma’naviy munosabatlar shakli bilan virtual makondagi xulq-atvor me’yorlari, shuningdek, global raqamli tendensiyalarning milliy ma’naviy muhitga ta’sir darajasi qiyosiy o‘rganildi. Bu esa ma’naviy barqarorlikning umuminsoniy va milliy jihatlarini farqlashga xizmat qildi.

- sinergetik yondashuv : Bugungi axborotlashgan jamiyat chiziqli bo‘lmagan va o‘ta dinamik tizim hisoblanadi. Sinergetika metodologiyasi raqamli makondagi axborot xaosining (tartibsizlikning) yoshlar ongiga ta’sirini, undagi fruktozalar (kichik axborot ta’sirlari) qanday qilib yirik ijtimoiy-ma’naviy o‘zgarishlarga (attraktorlarga) olib kelishi mumkinligini falsafiy tushunishga yordam berdi.

Ushbu metodologik prinsiplar uyg‘unligi muammoni shunchaki yuzaki bayon etishdan qochishga va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar ma’naviy barqarorligini ta’minlashning ichki qonuniyatlarini kashf etishga zamin yaratdi.

Tahlil va natijalar. Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar ma’naviy barqarorligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etish obyektiv voqelikning ikki yoqlama xarakterini ochib berishni taqozo etadi. Bir tomondan, raqamlashtirish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, global ilm-fan yutuqlarini tezkor o‘zlashtirish va kreativ fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ikkinchi tomondan esa, virtual makon an’anaviy ijtimoiy nazorat mexanizmlari (oila, mahalla, ta’lim tizimi) ta’sir doirasi past bo‘lgan g‘oyaviy va sotsiomadaniy xaos muhitini yuzaga keltirmoqda. Ushbu sharoitda yoshlar ma’naviy barqarorligini baholash va uni mustahkamlash uchun an’anaviy yondashuvlarning o‘zi yetarli emas. Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, raqamli muhitda ma’naviy barqarorlik dinamikasini belgilovchi uchta asosiy zamonaviy mezon va ularning ijtimoiy-falsafiy mazmunini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1.Kognitiv-axborot filtra mezoni. - Bugungi kunda ma’naviy barqarorlikning birlamchi mezoni - bu shaxsning cheksiz axborot oqimi ichida destruktiv, yot va manipulyativ g‘oyalarni mustaqil ajrata olish va ularga qarshi ichki psixologik-g‘oyaviy himoya to‘sig‘ini shakllantira olish qobiliyatidir. Raqamli makonda "feyk" (soxta) xabarlar, kiberbulling (virtual tazyiq) va ma’naviy qadriyatlarni qadrsizlantirishga qaratilgan kontentlar yoshlar ongini maqsadli manipulyatsiya qilishga yo‘naltirilgan. Kognitiv barqarorlik yoshlarga har qanday raqamli axborotni ratsional tahlil qilish, subyektiv hissiyotlarga berilmaslik va g‘oyaviy immunitetni saqlash imkonini beradi.

2.Kiber-etika va virtual muloqot madaniyati mezoni. Ma’naviy barqarorlikning amaliy namoyon bo‘lishi yoshlarning tarmoqdagi xulq-atvori (kiber-etika) orqali o‘lchanadi. Anonimlik va virtual erkinlik hissi ko‘pincha an’anaviy axloq me’yorlarining zaiflashishiga olib keladi. Shu sababli, real hayotdagi milliy qadriyatlarni, o‘zaro hurmat, andisha va mas’uliyat tuyg‘ularini raqamli muloqot jarayoniga ham ko‘chira olish - ma’naviy barqarorlikning oliy mezonlaridan biridir. Yoshlarning raqamli makonda o‘z milliy va madaniy o‘zligini namoyon eta olishi, yot madaniy sivilizatsiyalar ta’siriga ko‘r-ko‘rona berilmasligi uning ma’naviy yetukligidan dalolat beradi.

3.Ma’naviy-ekzistensial muvozanat mezoni. Raqamli tobelik, virtual dunyoga haddan tashqari sho‘ng‘ish insonni real ijtimoiy munosabatlardan uzib qo‘yadi va unda ma’naviy bo‘shliqni keltirib chiqaradi. Natijada shaxs ijtimoiy loqaydlik, individualizm va egoizm girdobiga tushib qoladi. Ma’naviy barqarorlik shaxsdan virtual hayot va real ijtimoiy majburiyatlar o‘rtasidagi oltin balansni topishni talab qiladi.

O‘tkazilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya tahdid emas, balki to‘g‘ri yo‘naltirilgan taqdirda ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashning yangi platformasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Buning uchun yoshlarda faqatgina texnologik ko‘nikmalarni emas, balki tizimli falsafiy dunyoqarash, ma’naviy-axloqiy mas’uliyat va tanqidiy fikrlash kabi yumshoq ko‘nikmalarni shakllantirish davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar.

Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar ma’naviy barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat ma’naviy hayotining tuzilishi va dinamikasini tubdan o‘zgartirdi. Virtual makon shunchaki texnik vosita bo‘lishdan to‘xtab, yoshlar dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvor me’yorlarini shakllantiruvchi yetakchi ijtimoiy-madaniy muhitga aylandi.

2. Zamonaviy sharoitda ma’naviy barqarorlik tushunchasi o‘zining konservativ chegaralaridan chiqib, yangi mezonlar bilan boyimoqda. Yoshlar ma’naviy barqarorligini belgilovchi bosh ko‘rsatkichlar sifatida *kognitiv-axborot filtri kiber-etika va virtual muloqot madaniyati* hamda *ma’naviy-ekzistensial muvozanat* kabi yangi falsafiy-ijtimoiy parametrlar aniqlandi va tizimlashtirildi.

3. Raqamli makon faqatgina ma’naviy-axloqiy tahdidlar manbai emas, balki to‘g‘ri va tizimli strategiya belgilangan taqdirda, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga innovatsion usullar bilan singdirishning samarali platformasi hamdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2022). *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent: "Tasvir" nashriyoti.
2. Karimov, I.A. (2008). *Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch*. Toshkent: "Ma’naviyat" nashriyoti.
3. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society, and Culture*. Wiley-Blackwell.
4. Toffler, A. (1980). *The Third Wave*. Bantam Books.
5. Baudrillard, J. (1994). *Simulacra and Simulation*. University of Michigan Press.
6. Saifnazarov, I., & Muhtarov, A. (2021). Socio-philosophical analysis of the development of youth spiritual stability in New Uzbekistan. *Journal of Philosophy and Life*, 3(12), 45-58.
7. Rakhmonova, N. T. (2025). The criteria of spiritual stability in the context of global information flows. *Scientific Progress*, 6(2), 112-119..

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕФОРМЫ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКОГО КУРСА

Мулладжанова Хосият Яздоновна
Старший преподаватель кафедры «Социальные науки»,
Самаркандский институт экономики и сервиса
Иванян Михаил Михайлович
Студент 1 курса Факультета Экономика,
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье анализируются ключевые направления социально-экономического и внешнеполитического развития Республики Узбекистан в 2020- 2025 гг. в рамках стратегии «Новый Узбекистан». На основе Посланий Президента Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису (2020, 2023, 2024), его выступления на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН, а также данных Комитета по статистике и научных публикаций ВАК/РИНЦ за 2019-2026 гг. рассматриваются результаты макроэкономических преобразований, либерализации внешнеэкономической деятельности и формирования многовекторного внешнеполитического курса. Особое внимание уделяется динамике ВВП, росту внешнеторгового оборота, стратегическому партнёрству а также институциональным изменениям, направленным на повышение инвестиционной привлекательности и интеграцию Узбекистана в мировую экономику. Делается вывод о переходе страны от фазы стабилизации к этапу устойчивого развития, что подтверждается как макроэкономическими показателями, так и возросшим международным авторитетом республики.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Ш. М. Мирзиёев, макроэкономические реформы, внешняя торговля, Центральная Азия, многовекторная дипломатия, Стратегия Узбекистан-2030.

С 2016 года в Республике Узбекистан под руководством Президента Ш.М. Мирзиёева начался этап коренных реформ, получивший концептуальное обозначение «Новый Узбекистан». Этот период характеризуется переходом от модели государственного протекционизма к открытой экономике, либерализацией валютной политики, масштабными антикоррупционными мерами и переформатированием внешнеполитического курса с изоляционистского на многовекторный и добрососедский. Если первоначальный этап (2016- 2019 гг.) был связан преимущественно со стабилизацией и снятием наиболее острых системных ограничений, то к 2020 г. Узбекистан приступил к системной реализации долгосрочных стратегий,

подтверждением чему стало программное Послание 2020 г., объявившее год Годом развития науки, просвещения и цифровой экономики.

Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью научного осмысления итогов преобразований последних пяти лет, в течение которых была не только налажена статистическая отчётность, но и запущен механизм обратной связи с обществом - принцип «Служение народу». Цель статьи - проанализировать динамику макроэкономических показателей, структурные изменения во внешней торговле и эволюцию внешнеполитических приоритетов Узбекистана за период 2020- 2025 гг. Методологическую основу составляют системный и компаративный анализ, изучение официальных документов (посланий президента, законов), статистических сборников и научных статей.

Хронологические рамки исследования охватывают наиболее насыщенный реформами период от Послания 2020 г. (Год науки, просвещения и цифровой экономики) до Послания 2024 г. и первого квартала 2025 г., когда были подведены промежуточные итоги реализации государственных программ. Территориальные рамки ограничены Республикой Узбекистан с учётом её регионального влияния в Центральной Азии.

Одним из наиболее наглядных результатов «Нового Узбекистана» стала устойчивая положительная динамика валового внутреннего продукта. Согласно официальным данным Комитета по статистике, номинальный ВВП страны демонстрировал последовательный рост: в 2022 г. он составил 1 041 878 млрд сумов, в 2023 г. достиг 1 261 806 млрд сумов, в 2024 г. увеличился до 1 535 432 млрд сумов, а по итогам 2025 г. превысил 1 849 650 млрд сумов. За 2025 г. реальный темп прироста ВВП составил 7,7%, а по итогам первого квартала 2026 г. - уже 8,7% к аналогичному периоду предыдущего года, при этом объём ВВП за январь- март 2026 г. достиг 447,9 трлн сумов.

Важно подчеркнуть, что данный рост сопровождался не только количественным увеличением, но и качественными преобразованиями в структуре экономики. В Послании Олий Мажлису на 2023 г. Президент Ш.М. Мирзиёев поставил задачу по оптимизации государственного аппарата: поэтапное сокращение численности госслужащих на 30- 35% с перенаправлением сэкономленных средств на решение социальных вопросов. Это решение, будучи непопулярным в бюрократической среде, было воспринято экспертным сообществом как шаг к повышению эффективности управления.

Серьёзные сдвиги произошли в промышленности и экспортно-ориентированных секторах. Так, доля промышленной продукции в структуре

ВВП по итогам 2024- 2025 гг. устойчиво росла, что подтверждается не только официальной статистикой, но и аналитикой международных организаций. По оценке Всемирного банка, Узбекистан вошёл в тройку самых быстрорастущих экономик Европы и Центральной Азии в 2024 г.

Кроме того, в 2024 г. был принят Закон «О конфликте интересов», создавший правовые основы для предотвращения коррупционных проявлений. Этот документ стал логическим продолжением антикоррупционной линии, начатой ещё в Послании 2020 г., где предлагалось создать отдельный антикоррупционный орган, подотчётный парламенту и президенту. К 2024 г. системная работа в этом направлении позволила стране повысить свои позиции в международных рейтингах восприятия коррупции.

Кардинальные изменения затронули и внешнеэкономическую деятельность. Ключевым событием стала отмена в 2017 г. множества валютных ограничений, что, однако, дало свои плоды именно в последующие годы за счёт адаптации бизнеса к новым условиям и расширения экспортных возможностей.

Согласно данным Комитета по статистике и аналитическим обзорам, внешнеторговый оборот Республики Узбекистан в 2023 г. составил 63,5 млрд долл. США, а в 2024 г. увеличился до 65,9 млрд долл. США, что на 3,7% больше по сравнению с 2023 г.. При этом объём экспорта вырос на 8,4%, до 26,9 млрд долл., тогда как импорт показал скромный рост в 0,8%, составив 38,9 млрд долл..

Ещё более впечатляющая динамика наблюдалась в 2025 г. Так, по итогам восьми месяцев 2025 г. экспорт достиг 22,98 млрд долл., что означало рост на 31,3% по сравнению с аналогичным периодом предыдущего года, а импорт вырос на 11,8%, до 28,45 млрд долл.. Благодаря опережающему росту экспорта отрицательное сальдо торгового баланса начало сокращаться, что свидетельствует о повышении конкурентоспособности узбекских товаров.

В товарной структуре экспорта 2024 г. доминировали золото - 9,66 млрд долл. США (в первую очередь за счёт увеличения физических объёмов добычи и благоприятной ценовой конъюнктуры), пряжа хлопчатобумажная - 1,21 млрд долл.. За последние пять лет (2019- 2024) объём экспорта Узбекистана вырос с 14 млрд до 23 млрд долл. США, что позволило стране переместиться на 76-е место в мире по объёму экспорта.

В 2025 г. Узбекистан уже осуществлял торговые операции с 206 странами мира, причём в структуре экспорта промышленные товары составляли 10,7%, продовольственные товары - 7,7%, химическая продукция - 5,7%. Такая диверсификация указывает на постепенный отход от сырьевой специализации.

Внешнеполитическая концепция «Нового Узбекистана» базируется на принципах добрососедства, взаимной выгоды и неприсоединения к военно-политическим блокам. Именно это позволило республике в период 2023- 2025 гг. стать инициатором и площадкой для исторических договорённостей и саммитов, изменивших политический ландшафт Центральной Азии.

Знаковым событием стал первый саммит в формате «Центральная Азия - Китай», состоявшийся в Сиане в 2023 г., положивший начало регулярным консультациям на высшем уровне. В Послании 2024 г. Президент Ш.М. Мирзиёев подчеркнул важность дальнейшего углубления этого партнёрства, предложив создать многостороннюю торговую платформу «Электронный шёлковый путь» в рамках инициативы «Цифровой пояс и путь». Товарооборот между Китаем и Узбекистаном достиг 12,4 млрд долл. с планом его увеличения до 20 млрд долл. к 2030 г.. С 2024 г. был отменён визовый режим между странами, что дополнительно стимулировало гуманитарные и деловые контакты.

Российская Федерация остаётся одним из ключевых торгово-экономических партнёров Узбекистана. По опросам, проведённым Свободным альянсом евроазиатских социологов в конце 2024 г., более 21% респондентов именно отношения с Россией назвали наиболее полезными для страны. Традиционные производственные кооперационные связи в машиностроении, энергетике и аграрном секторе продолжают укрепляться, что особенно важно в условиях изменяющейся глобальной конъюнктуры.

В отношениях с Соединёнными Штатами Узбекистан делает акцент на привлечении инвестиций в сферу критически важных полезных ископаемых и развитие возобновляемой энергетики, включая атомную. Эта прагматичная линия демонстрирует способность Ташкента извлекать выгоду из конкуренции глобальных держав, сохраняя при этом политическую самостоятельность. Как отмечается в аналитических обзорах, Узбекистан проводит многовекторную политику, диверсифицируя связи в треугольнике «Россия, Китай, США», что в полной мере отвечает национальным интересам страны.

На многосторонних площадках, включая Генеральную Ассамблею ООН, узбекская дипломатия последовательно отстаивает необходимость реформирования глобальных институтов управления. Так, на 80-й сессии ГА ООН в сентябре 2025 г. Президент Ш.М. Мирзиёев выступил за трансформацию и расширение состава Совета Безопасности ООН с целью более эффективной защиты интересов развивающихся государств.

Ключевым программным документом, интегрирующим экономические и внешнеполитические приоритеты, стала Стратегия развития

«Узбекистан-2030», принятая в 2023 г. Она определила ориентиры для устойчивого роста, среди которых - удвоение ВВП, вхождение в число стран с доходом выше среднего и укрепление позиций республики в качестве регионального центра для транспорта, логистики и инноваций.

Динамика 2024- 2025 гг. подтверждает выполнимость поставленных целей. В 2024 г. в стране было принято более десяти нормативно-правовых актов, направленных на правовое обеспечение реформ, включая уже упомянутый Закон «О конфликте интересов». В том же году была запущена реформа судебно-правовой системы, расширены полномочия Сената Олий Мажлиса (количество исключительных полномочий доведено с 14 до 18), а также впервые в истории страны поставлен вопрос об активизации парламентской оппозиции как инструмента политического плюрализма.

Следует особо отметить Послание 2024 г., в котором Президент Ш.М. Мирзиёев заявил о необходимости превратить парламент в «дом народа», а его нижнюю палату - в «генератор идей, арену здоровой конкуренции и дебатов». Это заявление отражает эволюцию политической системы Узбекистана от сугубо исполнительной вертикали к более сложной, многоголосой системе сдержек и противовесов.

Заключение. Проведённый анализ позволяет сделать ряд выводов. Во-первых, экономическая политика «Нового Узбекистана» в 2020- 2025 гг. привела к устойчивому росту ВВП (с 1 041 878 млрд сумов в 2022 г. до 1 849 650 млрд сумов в 2025 г.), сокращению доли государственного сектора и повышению прозрачности фискальных процедур. Во-вторых, либерализация внешней торговли дала ощутимые результаты: экспорт вырос с 14 млрд долл. в 2019 г. до 26,9 млрд долл. в 2024 г., а число стран-контрагентов достигло 206. В-третьих, многовекторная внешняя политика, сочетающая прагматичное сотрудничество с Россией, Китаем и США при одновременном укреплении регионального лидерства в Центральной Азии, доказала свою эффективность и позволила Узбекистану повысить международный авторитет, включая инициативы по реформированию ООН.

Вместе с тем, остаются нерешённые проблемы. Характерно, что, несмотря на опережающий рост экспорта, импорт по-прежнему превышает экспортные поставки (38,9 млрд против 26,9 млрд долл. в 2024 г.), что указывает на сохраняющуюся зависимость от импортных комплектующих и технологий. Кроме того, борьба с коррупцией, несмотря на институциональные успехи, требует дальнейших усилий по правоприменению.

Тем не менее, с 2020 по 2025 г. Узбекистан совершил переход от фазы начальной стабилизации к этапу системного и устойчивого развития. Это

подтверждается не только статистикой, но и признанием со стороны ведущих международных организаций, а также качественными изменениями в общественных настроениях, зафиксированными социологическими опросами. «Новый Узбекистан» становится не просто политическим лозунгом, но реально работающей моделью государственного управления, способной адаптироваться к вызовам XXI века.

Список литературы и источников

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. 24 января 2020 года. // Официальный сайт Президента Республики Узбекистан. URL: https://president.uz (дата обращения: 11.05.2026).
2. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. 20 декабря 2022 года (основные положения на 2023 год). // UZA.uz. URL: https://uza.uz (дата обращения: 11.05.2026).
3. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. Декабрь 2024 года (ключевые тезисы). // Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2024.
4. Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН. 19 сентября 2017 года. // UN Web TV. URL: https://media.un.org (дата обращения: 11.05.2026).
5. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Официальный сайт. Динамика ВВП и внешнеторгового оборота 2020- 2026 гг. - Ташкент, 2026. URL: https://stat.uz (дата обращения: 11.05.2026).
6. Зиядуллаев Н. С. Либерализация во внешнеэкономической деятельности Нового Узбекистана и Центральной Азии // Российский внешнеэкономический вестник. - 2025. - № 3. - С. 24- 38. - DOI: 10.24412/2072-8042-2025-3-24-38.
7. FACTORS AND FUTURE TASKS IN SHAPING A PROSPEROUS LIFESTYLE IN THE PEACE AND STABILITY OF NEW UZBEKISTAN // Zenodo. - 2025. - DOI: 10.5281/zenodo.14639280.
8. SHAVKAT MIRZIYOYEV AS AN INNOVATIVE LEADER OF NEW UZBEKISTAN // InLibrary.uz - International Scientific Journal. - 2025. - Vol. 2, No. 6. - С. 45- 53.
10. УПРАВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫМ ДОЛГОМ И УСТОЙЧИВОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ // Zenodo. - 2025. - DOI: 10.5281/zenodo.15244256.
11. Об итогах внешнеторговой деятельности Республики Узбекистан за 2024 год // Пресс-релиз Агентства статистики при Президенте Республики

Узбекистан. - 2025. - 15 января. URL: https://my.stat.uz (дата обращения: 11.05.2026).

12. Доклад о человеческом развитии «Новый Узбекистан: инклюзивный рост и социальная защита» // Программа развития ООН (ПРООН) - Представительство в Узбекистане. - Ташкент, 2024. - 112 с.

“YASHIL IQTISODIYOT” VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR FALSAFASI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Sattarov Inomjon Odilbay o‘g‘li
Samarqand davlat pedagogika instituti milliy g‘oya va falsafa kafedrasi assistenti
E-mail: inomjonsattarov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada “yashil iqtisodiyot” va raqamli texnologiyalar integratsiyasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadqiq etilgan. Zamonaviy texnologiyalarning resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi roli, shu bilan birga, ularning yuqori energiya sarfi hamda elektron chiqindilar bilan bog‘liq ekologik-falsafiy muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli tafovut va insonning tabiatdan begonalashuvi kabi ijtimoiy xavflar yoritilib, yashil raqamlashtirishni amalga oshirishning falsafiy va amaliy istiqbollari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, ekologik inqiroz, raqamli tafovut, ekologik adolat, yashil raqamlashtirish.

Raqamli texnologiyalar shunchaki vosita emas, ular yashil iqtisodiyotning falsafiy g‘oyalarini - tabiatni asrash va adolatli jamiyat qurishni amaliy voqelikka aylantiruvchi yagona mexanizm hisoblanadi. Raqamli tafovutni qisqartirish va texnologik ekologiyani yaratish ushbu istiqbolning eng muhim ijtimoiy talabidir. “Yashil iqtisodiyot” va raqamli texnologiyalar falsafasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan - inson, tabiat va texnika o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlovchi barqaror taraqqiyotning metodologik asosidir. Bu jarayon ekologik muvozanatni saqlash hamda raqamli transformatsiyalar vositasida ijtimoiy adolat va resurslar samaradorligini oshirishni maqsad qiladi.Yashil iqtisodiyot ilm-fandagi singari siyosatda ham, asosan ekologik muammolarni kuchayishi va barqaror rivojlanish zarurati tufayli muhim yo‘nalishga aylandi. U insoniyat ehtiyojlarini atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg‘unlashtirishga va uzoq muddatli asosda iqtisodiy tizim barqarorligini ta’minlashni ilgari suradi[1]. Yashil iqtisodiyotda tabiatga va uning cheklangan resurslariga hurmat doirasida iqtisodiy o‘sish va inson farovonligiga

yerishiladi[2;9]. Biroq raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan birga, ularning yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar ham ortib bormoqda. Jumladan, kiberxavfsizlikka tahdidlar, texnologik moslashuvdagi qiyinchiliklar, axborotga asoslangan noto‘g‘ri qarorlar, shuningdek, raqamli tengsizlik va ijtimoiy nomutanosibliklar yashil iqtisodiyot barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish imkoniyatlari bilan birga, bu jarayondagi innovatsion xavfxatarlar va ularni samarali boshqarish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Maqola natijalari, nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar orqali, yashil iqtisodiyot sohasida raqamli transformatsiyani barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar o‘zaro kesishuvchi ikkita ilg‘or soha bo‘lib, ularning uyg‘unlashuvi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar soni so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortdi. Xalqaro tashkilotlar, ilmiy muassasalar va mustaqil tadqiqotchilar ushbu yo‘nalishda turli nazariy va amaliy yondashuvlarni ilgari surmoqdalar. Schwab (2016) [3] o‘zining “To‘rtinchi sanoat inqilobi” nomli asarida sun’iy intellekt, IoT, robototexnika va boshqa ilg‘or texnologiyalarning iqtisodiyotga ta’siri, jumladan, ekologik sektor uchun imkoniyatlarini tahlil qiladi. Uning fikricha, texnologiyalar yordamida resurslardan yanada tejamkor foydalanish imkoniyati tug‘iladi. Zhang va boshqalar (2019) [4] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda IoT texnologiyasining chiqindilarni boshqarish va energiya iste’molini nazorat qilishdagi ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Ular yashil shahar (green city) konsepsiyasida raqamli infratuzilmaning o‘rni yuqoriligini ta’kidlaydi. Innovatsion xavf-xatarlar masalasiga oid adabiyotlarda esa Beck (1992) [5] tomonidan ishlab chiqilgan “Risk jamiyati” nazariyasi alohida o‘rin egallaydi. Unga ko‘ra, texnologik taraqqiyot bilan birga kutilmagan xavflar ham ortib boradi va bu xavflarni boshqarish uchun yangi yondashuvlar zarur. Shuningdek, Gartner (2021) [6] tahlillarida kiberxavfsizlik, ma’lumotlar ishonchliligi va texnologik integratsiya muammolari raqamli iqtisodiyotda asosiy xavf omillari sifatida ko‘rsatilgan. Ular yashil texnologiyalarni joriy qilishda bu xavflarni oldindan aniqlash va boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishni tavsiya etadi. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda dastlabki tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va atmosfera monitoringi bilan shug‘ullanuvchi markazlar tomonidan olib borilgan ishlarda raqamli texnologiyalar yordamida ekologik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish bo‘yicha loyihalar mavjud [7]. **“Yashil iqtisodiyot” va raqamli texnologiyalar falsafasi** o‘rtasidagi aloqadorlik zamonaviy texnosfera va biosfera to‘qnashuvidagi eng dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammolardan biridir. Raqamlashtirish (AI, Big Data, IoT) ekologik inqirozni

bartaraf etish quroli sifatida taqdim etilsa-da, uning o‘zi ham antropogen yuklamani oshiruvchi yangi ekologik va ekzistensial xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar sinerziyasi shunchaki texnik vazifa emas, balki **insoniyat dunyoqarashini o‘zgartirishni talab qiluvchi sivilizatsiyaviy transformatsiyadir**. Raqamli vositalar ekosotsial adolat va tabiat bilan garmoniya (uyg‘unlik) tamoyillariga bo‘ysundirilgandagina barqaror kelajakni ta’minlash mumkin. "Yashil va raqamli" texnologiyalar boy davlatlar iqtisodiyotini gullatmoqda, lekin ularning ekologik zarari kambag‘al davlatlar zimmasiga tushmoqda. Raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyot uchun **maqsad emas, faqat vositadir**. Agar raqamlashtirish falsafiy jihatdan ekologik adolat va insonparvarlik mezonlariga bo‘ysundirilmasa, u yashil dunyo yaratish o‘rniga ekologik inqirozni yanada tezlashtiruvchi yuqori texnologiyali tuzoqqa aylanadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun uzoq muddatli, barqaror va ta’sirchan strategiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan mexanizmlarini joriy etishni ustuvor darajaga olib chiqmoqda. Yangi O‘zbekistonda turizm sohasini sifat va miqdoriy jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda qisqa muddatdagi tanaffusdan so‘ng turizm sohasida barqaror tiklanish tendensiyalari kuzatildi. Bugungi kunda yurtimizda turizm bo‘yicha iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi va ko‘magini shaklantirishning muhim shartlaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Сивкова А.И. Концепция зеленой экономики: сущност понятия. Ҳуман Прогресс. 2023;9(2):13. ДОИ: 10.34709/ИМ.192.13.
2. М. Е . Кузнетсов. Возможности и риски развития зеленой экономики. Мир новой экономики. 17(3): 2023.С. 6- 17.
3. UNEP. (2022). Digital Technologies for a Sustainable Future: Green Digital Action. United Nations Environment Programme. Retrieved from https://www.unep.org/resources/report/digital-technologies-sustainable-future
4. Zhang Y., Zheng Q., & Liu X. (2019). The application of IoT in green smart cities: A systematic review. Journal of Cleaner Production, 235, 1292- 1309. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2019.07.034
5. Beck U. (1992). Risk Society: Towards a New Modernity. SAGE Publications
6. Zhang Y., Zheng Q., & Liu X. (2019). The application of IoT in green smart cities: A systematic review. Journal of Cleaner Production, 235, 1292- 1309. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2019.07.034
7. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar

YASHIL IQTISODIYOT SARI: YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA EKOLOGIK USTUVORLIK MASALALARI

Toshpo‘latov Nurbek
SamISI ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Mamarajabova Noila
SamISI Iqtisodiyot fakulteti talabasi
noilamamarajabova07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ekologik ustuvorlik va „yashil“ iqtisodiyotga o‘tishning strategik yo‘nalishlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda iqtisodiyotning energiya sig‘imini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy-mexanik asoslari yoritilgan. Undan tashqari iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror o‘sishni ta’minlash hamda ishlab chiqarishga ekologik toza texnologiyalarni tatbiq etish masalalarini ilmiy asoslab beradi. Maqolada xalqaro standartlar va rasmiy ko‘rsatkichlar asosida „yashil“ transformatsiyaning milliy iqtisodiyot nufuzini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Xulosalar iqtisodiy samaradorlik va tabiat muhofazasi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga qaratilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kirish so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologiya, energiya, barqarorlik, quyosh panellari, resurs, suv tejamkorligi, innovatsiya, iqlim o‘zgarishi, chiqindilar, toza havo, strategiya, tabiat, shamol energiyasi, xavfsizlik.

Kirish

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar sharoitida iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash har bir davlatning strategik ustuvor vazifasiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni milliy taraqqiyotning muhim yo‘nalishi sifatida belgilab oldi.Ushbu islohotlarning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni[1] bilan tasdiqlangan “2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatda iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlash choralari qat’iy belgilangan. Shuningdek, iqlim o‘zgarishiga moslashish va resurs tejovchi iqtisodiyot modeliga o‘tish masalalari Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan[2]. Ilmiy nuqtayi nazardan, iqtisodiyotning energiya sig‘imini

[1] https://lex.uz/ru/docs/-5841063

kamaytirish va huquqiy-mexanik asoslarni takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlik hamda tabiat muhofazasi o‘rtasidagi mutanosiblikka erishish mumkin[3].Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan „yashil“ transformatsiya jarayonlari xalqaro standartlar va rasmiy statistik ko‘rsatkichlar bilan mustahkamlanib bormoqda. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston strategiyasida belgilangan ekologik maqsadlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi va sohani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli fundamental asarida mamlakatning yaqin va o‘rta muddatli rivojlanish konsepsiyasi bayon etilgan bo‘lib, unda iqtisodiy islohotlarning markaziga ekologik barqarorlik masalasi qo‘yilgan. Muallif iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda energiya sarfini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini keskin oshirishni milliy xavfsizlik darajasidagi muhim vazifa sifatida tahlil qiladi. Mazkur kitob maqolaning "yashil" transformatsiya bo‘yicha nazariy-konseptual qismini asoslashda bosh manba bo‘lib xizmat qiladi [1]. Tadqiqotchi Ergashev Raxmatulla Yoqubovich, "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish" - Ushbu o‘quv qo‘llanmada "yashil" iqtisodiyotning nazariy maktablari va ularning barqaror taraqqiyotdagi o‘rni akademik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Olim iqtisodiyot tarmoqlarini ekologik toza texnologiyalarga o‘tkazishning huquqiy-mexanik tizimi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash metodikasini batafsil yoritgan. Mazkur qo‘llanma maqolaning ilmiy-nazariy tahlilini boyitishda va sohadagi xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini baholashda asosiy manba hisoblanadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi ekologik ustuvorlik masalalarini zamonaviy „yashil“ iqtisodiyot tamoyillari bilan bog‘lash va ularning amaliy ahamiyatini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot metodlari sifatida tizimli-tahliliy yondashuv qo‘llanib, Shavkat Mirziyoyevning asarlari, sohaga oid farmonlar va milliy iqtisodiyotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichlari tadqiq etildi. Shu bilan birga, taqqoslash metodi yordamida an’anaviy iqtisodiy yondashuvlar hamda „yashil“ transformatsiya jarayonlari, resurslarni tejash va qayta tiklanuvchi energiya tizimi o‘zaro solishtirildi. Analitik yondashuv yordamida R.Y. Ergashevning ilmiy qarashlari kontekstida tarixiy va zamonaviy tajribalarni bugungi iqtisodiyotga tatbiq etish imkoniyatlari o‘rganildi

Tahlil va natijalar

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ekologik ustuvorliklar va „yashil“ iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari bugungi kunda milliy

iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida qabul qilingan strategik hujjatlarga muvofiq, iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish davlat siyosatining bosh yo‘nalishi etib belgilandi.[6] O‘zbekiston Respublikasining „yashil“ iqtisodiyotga o‘tishining asosiy vazifalari sifatida davlat investitsiyalariga „yashil“ mezonlarni kiritish, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda kadrlarni qayta tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish belgilab olindi [1]. Shuningdek , O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun energetika sohasiga so‘nggi yillarda 20 milliard dollar investitsiya jalb etilib, 9,6 gigavattlik yangi quvvatlar ishga tushirildi. Bugungi kunda xorijiy hamkorlar bilan birgalikda qiymati 26 milliard dollardan ortiq bo‘lgan 50 ta yirik loyiha doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini barpo etish ishlari jadal davom etmoqda.” Strategik maqsadimiz - 2030-yilga qadar mamlakatimiz energiya balansida “yashil” manbalar ulushini 54 foizga yetkazishdan iborat. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida “yashil” taraqqiyot g‘oyasi mamlakatimizda umummilliy harakat darajasiga ko‘tarilib, ekologik barqarorlikni ta’minlashning bosh omiliga aylandi. Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish orqali Markaziy Osiyoni nafaqat energiya iste’molchisi, balki dunyoning yirik “toza energiya” va “yashil” iqtisodiyot markazlaridan biriga aylantirishni niyat qilganmiz.[2]” Shavkat Mirziyoyev o‘zining „Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi“ asarida ta’kidlaganidek, energiya samaradorligi nafaqat iqtisodiy foyda, balki kelajak avlodlar uchun toza atrof-muhitni saqlashning kafolatidir [1].

Hozirgi paytda „Yashil iqtisodiyot“ texnologiyalari barcha sohalarga faol joriy etilib, havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda . Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, quvvati 5 ming megavattdan ortiq bo‘lgan shamol, quyosh va suv elektr stansiyalarini ishga tushirish orqali yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash choralari ko‘rilmoqda [1]. Raxmatulla Ergashevning „Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish“ o‘quv qo‘llanmasida keltirilgan metodologiyaga asosan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy samaradorligi bevosita suv tejamkor texnologiyalar bilan bog‘liqdir [3]. O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish va boshqa suv tejovchi usullarning joriy etilishi natijasida suv sarfi 30 foizgacha tejalayotgani rasmiy manbalarda qayd etilgan. Strategiyada belgilanganidek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash va hududda „yashil qoplamalar“ yaratish loyihalari global iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan muhim qadamdir [3]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik toza transport vositalari, xususan, elektromobillar importi va Toshkent shahrida 320

[1] https://lex.uz/ru/docs/-5841063
[2] https://nsdg.stat.uz/uz/news/91

ta elektrobus qatnovini yo‘lga qo‘yish kabi tadbirlar shaharlarda havo sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda [1]. Oxirgi ikki yilda elektromobillar importi 10 baravardan ziyod oshgan, bu esa aholining ekologik ongi va iqtisodiy tanlovi o‘zgarayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Yangi O‘zbekistonda „yashil“ iqtisodiyotga o‘tish shunchaki ekologik talab emas, balki chuqur o‘ylangan iqtisodiy zaruriyatdir. 2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi doirasida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va iqlim o‘zgarishiga moslashish masalalari ustuvor yo‘nalish etib belgilandi [6]. Xususan, „Yashil iqtisodiyot“ni rivojlantirish bo‘yicha maxsus jamg‘arma tashkil etish hamda eksportchi korxonalarni „Yangi O‘zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti“ g‘oyasi asosida qo‘llab-quvvatlash rejalashtirilgan [1]. Xalqaro standartlar asosida binolarning energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan yangi mezonlar kommunal sohada energiya isrofini 25-30 foizga kamaytirishga xizmat qilmoqda. Tahlillar natijasida aniqlanganidek, iqtisodiyotni „yashillashtirish“ barqaror ish o‘rinlari yaratishga va ilm-fan hamda ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga turtki bermoqda. Shuni aytish kerakki, ekologik barqarorlik iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismidir [3]. O‘zbekistonning xalqaro iqlim kelishuvlaridagi majburiyatlarini bajarishi hamda milliy miqyosda „Yashil makon“ umummilliy loyihasining izchil amalga oshirilishi ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Maqolada o‘tkazilgan tahlillar yakunida shuni ta’kidlash lozimki, „yashil“ transformatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashning eng maqbul yo‘lidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Yangi O‘zbekistonning „yashil“ iqtisodiyot strategiyasi shunchaki texnologik yangilanish emas, balki milliy taraqqiyotni tabiat qonuniyatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi yangi sivilizatsiyaviy bosqichdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishning barqarorligi endilikda faqat yalpi ichki mahsulot hajmi bilan emas, balki ekologik xavfsizlik va resurslarni asrash darajasi bilan o‘lchanmoqda. „Yashil“ transformatsiya jarayonlari davlatning iqtisodiy qudrati hamda aholi salomatligi o‘rtasidagi adolatli muvozanatni ta’minlovchi bosh omil bo‘lib, u Parij bitimi va milliy strategiyalarda belgilangan maqsadlarga erishishning yagona yo‘lidir . Agar bugungi iqtisodiy munosabatlar „tabiatga zarar yetkazmasdan rivojlanish“ tamoyiliga tayanmasa, erishilgan yutuqlar uzoq muddatli istiqbolda o‘z qiymatini yo‘qotadi. Shunday ekan, „yashil“ iqtisodiyot - bu milliy iqtisodiyotimizning kelajakdagi raqobatbardoshligini va xalqimizning farovon hayotini kafolatlovchi strategik qalqondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. „O‘zbekiston“ nashriyoti, kitob, 2022.
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston - taraqqiyot, adolat va barkamollik sari. „Tasvir“ nashriyoti, kitob, 2023.
3. Ergashev Raxmatulla Yoqubovich. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish. „IQTISOD-MOLIYA“ nashriyoti, o‘quv qo‘llanma, 2021.
4. —YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH TAMOYILLARI XUSUSIDAI Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. „O‘zbekiston“ nashriyoti, 2022.
5. https://stat.uz/uz/
6. https://lex.uz/docs/-4539502

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH TARIXI

Toshpo‘latov Nurbek,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o`qituvchisi
Toshtemirova Nozima,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari, iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati va ularning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlari, milliy iqtisodiy modelning shakllanishi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, bank-moliya tizimi, investitsion siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalardagi o‘zgarishlar tarixiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy modernizatsiya, raqamli iqtisodiyot, “yashil iqtisodiyot” va innovatsion rivojlanish istiqbollari ochib beriladi. Maqolada mustaqillik davridagi iqtisodiy islohotlar milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti, modernizatsiya, investitsiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi, bank tizimi, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, eksport, iqtisodiy strategiya, Yangi O‘zbekiston.

1991-yilda O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakat oldida mutlaqo yangi iqtisodiy tizimni shakllantirish vazifasi paydo bo‘ldi. Sobiq ittifoq davrida respublika iqtisodiyoti markazlashgan reja tizimiga bo‘ysungan bo‘lib,

asosan paxta va boshqa xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashtirilgan edi. Sanoat korxonalarining aksariyati markazga qaram bo‘lib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi past darajada qolgan. Shu sababli mustaqillikning ilk davrida iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish strategik vazifaga aylandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat iqtisodiyoti murakkab inqiroz holatini boshdan kechirdi. Sobiq ittifoq parchalanishi natijasida ishlab chiqarish aloqalari uzildi, sanoat mahsulotlari hajmi keskin kamaydi va inflyatsiya darajasi yuqori ko‘rsatkichlarga yetdi. 1992- 1994-yillarda iqtisodiy pasayish aholining turmush darajasiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu sharoitda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar “o‘zbek modeli” asosida amalga oshirildi. Ushbu model Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish tamoyillariga asoslandi[1].

Mazkur iqtisodiy modelning asosiy maqsadi keskin “shok terapiyasi”dan voz kechgan holda iqtisodiyotni izchil isloh qilishdan iborat edi. Natijada mamlakatda ijtimoiy barqarorlik saqlab qolindi va iqtisodiy tizim asta-sekin bozor munosabatlariga moslashtirildi. 1994-yilda milliy valyuta - so‘mning muomalaga kiritilishi iqtisodiy mustaqillikning muhim belgilaridan biri bo‘ldi[2]. Bu mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish, milliy moliya tizimini shakllantirish va ichki bozorni tartibga solish imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida sanoat tarmog‘ini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ayniqsa, avtomobilsozlik, energetika, metallurgiya, neft-gaz, kimyo va to‘qimachilik sanoati rivojlantirildi. 1996-yilda UzAuto Motors (sobiq UzDaewooAuto) faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi mamlakat sanoat tarixidagi muhim voqealardan biri bo‘ldi[3]. Asaka avtomobil zavodi nafaqat sanoat ishlab chiqarishini kengaytirdi, balki minglab yangi ish o‘rinlarini yaratdi. Keyinchalik avtomobilsozlik sanoati eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o‘ynadi.Energetika tizimida ham muhim modernizatsiya jarayonlari amalga oshirildi. Yangi issiqlik elektr stansiyalari qurildi, gaz qazib chiqarish va qayta ishlash hajmi oshirildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston energetika sohasida asosan ichki ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, keyinchalik energiya eksport qiluvchi davlatlardan biriga aylandi. Neft va gaz sanoatining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamladi.Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlar ham iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘ldi. Sobiq sovet davrida paxta yakkahokimligi mavjud bo‘lib, bu oziq-ovqat

[1] O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 36–42.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoboti. – Toshkent, 1995. – B. 12–16.
[3] UzAuto Motors faoliyati bo‘yicha iqtisodiy tahlil. – Toshkent, 2021. – B. 22–27.

xavfsizligi muammolarini yuzaga keltirgan edi. Mustaqillikdan so‘ng fermer xo‘jaliklari tizimi joriy etildi va agrar munosabatlar bosqichma-bosqich isloh qilindi[1]. G‘alla yetishtirish hajmini oshirish natijasida mamlakat g‘alla mustaqilligiga erishdi. Shu bilan birga, bog‘dorchilik, sabzavotchilik va chorvachilik tarmoqlari ham rivojlantirildi.2000-yillardan boshlab mamlakat iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o‘sish kuzatildi. World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2005- 2015-yillarda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining yillik o‘sish sur’ati o‘rtacha 7- 8 foizni tashkil etdi[2]. Bu davrda eksport hajmi oshdi, sanoat ishlab chiqarishi kengaydi va transport-kommunikatsiya infratuzilmasi rivojlantirildi.Xususan, temir yo‘l va avtomobil yo‘llarini modernizatsiya qilish, xalqaro logistika yo‘laklarini rivojlantirish iqtisodiy integratsiyani kuchaytirdi. Angren- Pop temir yo‘li va Qamchiq tunneli kabi yirik loyihalar mamlakat transport tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu loyihalar hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qildi.Bank-moliya tizimini rivojlantirish ham iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo‘ldi. Tijorat banklari faoliyati kengaytirildi, kreditlash tizimi takomillashtirildi va tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yaratildi. Soliq tizimining isloh qilinishi iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qildi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dasturlar iqtisodiyotning muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.Bugungi kunda kichik biznes mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmidan ortig‘ini shakllantirmoqda. Bu esa xususiy sektor iqtisodiyotdagi yetakchi omillardan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Tadbirkorlik faoliyatiga yaratilgan imkoniyatlar yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. 2017-yildan boshlab iqtisodiyotning liberallashuvi, valyuta bozorini erkinlashtirish va investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi[3].

Valyuta konvertatsiyasining erkinlashtirilishi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi.Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati kengaytirilib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari takomillashtirildi. Energetika, kimyo, farmatsevtika, axborot texnologiyalari va qurilish sohalarida yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakat iqtisodiyotining xalqaro raqobatbardoshligi oshib bormoqda.

So‘nggi yillarda “raqamli iqtisodiyot” konsepsiyasi ham iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishiga aylandi. Elektron hukumat, elektron tijorat,

[1] Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar tarixi. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 51–58.
[2] World Bank. *Uzbekistan Economic Report 2016*. – Washington DC, 2016. – P. 18–23.
[3] Yangi O‘zbekiston strategiyasi – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 95–103.

raqamli bank xizmatlari va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda. Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi va biznes tizimining zamonaviy modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.Bundan tashqari, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi asosida ekologik barqaror rivojlanish masalalariga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining yangi bosqichini boshlab bermoqda[1].Pandemiya davrida ham mamlakat iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim choralar ko‘rildi. Aholi va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berish va ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlash iqtisodiy barqarorlikni сақлаб qolishga xizmat qildi. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyotining tashqi inqirozlarga nisbatan barqarorligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. - 36- 42-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoboti. - Toshkent, 1995. - 12- 16-betlar.
3. UzAuto Motors faoliyati bo‘yicha iqtisodiy tahlil. - Toshkent, 2021. - 22- 27-betlar.
4. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar tarixi. - Toshkent: Fan, 2018. - 51- 58-betlar.
5. World Bank. Uzbekistan Economic Report 2016. - Washington DC, 2016. - 18- 23-betlar.
6. Yangi O‘zbekiston strategiyasi - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - 95- 103- betlar.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”. - Toshkent, 2019. - 11- 18-betlar.
8. Rasulov A. Iqtisodiy modernizatsiya va barqaror taraqqiyot. - Toshkent: Ma’naviyat, 2021. - 72- 80-betlar.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. - Toshkent: O‘zbekiston, 1997. - 144- 152-betlar.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hisobotlari. - Toshkent, 2023. - 34- 40-betlar.

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”. – Toshkent, 2019. – B. 11–18.

RAQAMLI MAKONDA YOSHLAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI

Maxammatov Otabek Saydaalievich
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi (DSc),
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy raqamli makon texnologik vositalar orqali shakllanadigan kommunikativ muhit sifatidagina emas, balki ijtimoiy ong, shaxsiy va jamoaviy identitet, qadriyatlar tizimi hamda xavfsizlik mezonlari konstruksiyalanadigan murakkab ijtimoiy-madaniy, diskursiv va gnoseologik makon sifatida tahlil qilinadi. Maqolada raqamli kommunikatsiyaning yoshlar dunyoqarashi, axborotni idrok etish jarayonlari va xavfsizlik madaniyatining shakllanishiga ta’siri ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, raqamli muhitda yuzaga kelayotgan yangi kommunikativ amaliyotlar, axborot tahdidlari va ularni bartaraf etishning konseptual asoslari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli makon, raqamli jamiyat, yoshlar xavfsizligi, axborot xavfsizligi, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy ong, identitet, diskursiv amaliyotlar, gnoseologik yondashuv, media madaniyat, axborot tahdidlari, kiberxavfsizlik, raqamli madaniyat, kommunikativ makon, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Raqamli makonda yoshlar xavfsizligining ratsional mezonlari va diskursiv determinantlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tahlil uchun o‘ta dolzarb kontseptual maydonga aylanmoqda. Bu kontekstda xavfsizlik faqat texnik himoya vositalari bilan cheklanmay, balki yoshlar ongining shakllanishi, identitetning barqarorligi, axborotga nisbatan tanqidiy yondashuv va diskursiv normativlik bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy hodisaga aylanadi. Chunki raqamli makon – bu nafaqat axborot almashinuvi maydoni, balki yoshlar tafakkurini ijtimoiy konstruktsiyalovchi, ongiga diskursiv yuklamalar beruvchi, ko‘rinmas xavf omillari bilan to‘yingan semiosferadir. Shunday qilib, xavfsizlik ratsional mezon darajasiga ko‘tarilishi uchun u epistemik, aksiologik va semantik jihatdan tahlil qilinmog‘i lozim. Ushbu nuqtayi nazardan J. van Dijkning fikri alohida e’tiborga loyiq: “Raqamli makonda xavfsizlik faqat parollar, shifrlashlar va texnik vositalar orqali emas, balki kommunikativ tenglik, axborotga egalik va ijtimoiy ishonch muvozanati orqali ta’minlanadi”[1;174]. Bu yondashuv yoshlar xavfsizligini ratsional mezonlar asosida tahlil qilishda sotsiokommunikativ va madaniy determinantlarga urg‘u berishni talab qiladi. Shuningdek, xavfsizlikni nafaqat tahdidga nisbatan reaksiya,

balki jamiyatdagi yoshlar subyektligining aks ettirish mexanizmi sifatida ko‘rish zarur.

Raqamli makondagi xavfsizlik mezonlari yoshlar uchun ongni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ma’lumotni mustaqil tahlil qilish qobiliyatlari bilan bog‘liq. D. Buckingham ta’kidlashicha, “Media savodxonlik – bu raqamli makonda yashovchi yoshlar uchun xavfsizlikning eng asosiy indikatoridir, chunki u ularga faqat axborotni iste’mol qilish emas, balki uni tahlil qilish, shubha qilish va baholash imkonini beradi”[2;56]. Demak, ratsional mezon sifatida xavfsizlik — bu yoshlarning axborot oqimida yo‘naltirilgan emas, balki ongli ishtirokini ta’minlaydigan bilim va savodxonlik darajasidir. Diskursiv determinantlar esa raqamli maydonlardagi ijtimoiy normalar, gender stereotiplari, diniy va etnik identifikatsiyalar, algoritmik cheklovlar orqali xavfsizlikni shakllantiradi.

Ratsionallik konsepsiyasining axborot makonida xavfsizlik bilan bog‘liq falsafiy rekontekstualizatsiyasi zamonaviy tafakkur paradigmasining keskin burilishi natijasida shakllangan bo‘lib, u insoniyat tarixiy taraqqiyotida ratsionallikni yangi kontekstda, ya’ni axborot dominantligidagi sivilizatsiyada qayta talqin etish zaruratini yuzaga keltiradi. Klassik Yevropa falsafasida ratsionallik aql, isbot, sabab-natija aloqasi va empirik tekshiruv bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, raqamli muhitda u algoritmik boshqaruv, kognitiv avtomatizm va ehtimoliy xavfsizlik tizimlari orqali namoyon bo‘lmoqda. A. Nussbaum bu borada shunday deydi: “Yangi ratsionallik insonning axloqiy javobgarligi va fikriy avtonomiyasini emas, balki funksional samaradorlik va texnologik ishonchlilikni ustun qo‘yadi” [3;37]. Bu esa xavfsizlik paradigmasini gumanistik mezonlardan chetlashtirgan holda, uni texnokratik va boshqaruvchan struktura doirasiga joylashtiradi.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida virtual makon faqatgina aloqa, axborot tarqatish yoki ijtimoiy interaktivlik muhiti bo‘lib qolmay, balki chuqur falsafiy, g‘oyaviy va ontologik ziddiyatlar mujassam topgan murakkab sivilizatsion maydonga aylangan. Axborot maydonida shakllanayotgan tahdidlar, xususan dezinformatsiya, madaniy unifikatsiya va identitet yo‘qolishi, inson ma’naviy borlig‘i, ong konstruktsiyasi va jamiyatning ijtimoiy ko‘lamdagi epistemologik muvozanatiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu tahdidlar ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar darajasida yangicha metodologik yondashuvni, diskursiv tafakkurni va konseptual tahlilni talab qiladi.

Madaniy unifikatsiya esa, garchi global axborot almashinuvining tabiiy oqibati sifatida ko‘rilsa-da, aslida “raqamli kolonializm” shaklidir. Virtual makondagi asosiy axborot oqimlari G‘arb markazli madaniyat asosida shakllanib, boshqa madaniy tizimlarni periferiyaga suradi. J. Tomlinson bu jarayonni “madaniy imperiyachilik” deb ta’riflab, quyidagicha yozadi: “Global madaniyatning kengayishi – bu har xil madaniyatlarning o‘zaro integratsiyasi emas, balki ularning

G‘arbiy semantik standartlar asosida qayta ramzlanishidir” [4;83]. Bu esa milliy madaniyatlarni turistik folklorga, etnik ko‘rinmalarga va vizual kontentga aylantiradi, ularning aksiologik yadro elementlarini zaiflashtiradi.

Identitet yo‘qolishi esa virtual makondagi eng murakkab ontologik jarayondir. Chunki identitet endilikda ijtimoiy tarixiylikka emas, balki algoritmik profilga asoslanmoqda. Platformalar foydalanuvchini u kimligini emas, balki nima xarid qilgani, qanday postlarni ko‘rganini yoki nimalarni yoqtirganiga qarab aniqlaydi. S. Turkle shunday deydi: “Virtual muhitda identitet bu – qat’iy ijtimoiy maqom emas, balki ko‘p martalik interaktiv transformatsiyalar natijasida yaratilgan simulyativ ko‘rinishdir” [5;255]. Bu esa identitetning ijtimoiy tajriba va madaniy xotiraga asoslangan tabiiy shaklini sun’iy, mexanikaviy va statistik identifikatsiyaga aylantiradi. Dezinformatsiya haqiqat tushunchasining manipulatsiyasi orqali ongni boshqaradi; madaniy unifikatsiya esa xilma-xillikni “foydalanuvchi qulayligi” nomidan bartaraf etadi; identitet yo‘qolishi esa subyektivlikning sun’iy algoritmik o‘zlashtirishga bo‘ysunishidir. Bu tahdidlar jamiyat uchun faqat axborot xavfsizligi emas, balki madaniy, epistemik va ontologik mustaqillik muammosini yuzaga keltiradi. Virtual makonda real tahdidlar — bu texnik emas, semantik va madaniy o‘zlikni tanib olishda yuzaga kelayotgan chuqur krizislaridir.

Virtual makonda tahdidlar diskursining falsafiy tahlili — dezinformatsiya, madaniy unifikatsiya va identitet yo‘qolishi kabi murakkab hodisalarni chuqur ontologik va epistemologik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Raqamli makon — bu nafaqat axborot almashinuvi muhiti, balki zamonaviy ijtimoiy ongning diskursiv konfiguratsiyasi, madaniyatlararo dominatsiya maydoni va subyektivlikning texnologik rekonstruksiyasidir. Bu makon doirasida yuzaga kelayotgan tahdidlar inson tafakkurining haqiqatga, o‘zlikka va qadriyatlarga nisbatan munosabatini radikal tarzda o‘zgartirmoqda. Dezinformatsiya bugungi virtual makonda haqiqat bilan yolg‘on o‘rtasidagi klassik farqlarni buzuvchi, haqiqatni suverenlikdan mahrum qiluvchi hodisaga aylangan.

Raqamli makonning murakkab diskursiv tuzilmasi va uning yoshlar ongida hosil qilayotgan kognitiv-axloqiy transformatsiyalari ijtimoiy-falsafiy tafakkur uchun yangi ontologik va gnoseologik muammolar maydonini yuzaga keltirmoqda. Raqamli voqelik endilikda oddiy texnologik interfeyslar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy ongda reallik, xavfsizlik va identitet tushunchalarini qayta ishlab chiqishga majbur qiluvchi semiotik makondir. Ayniqsa, yoshlar bu makonda bilim, qadriyat, orientatsiya va madaniy kodlarni qabul qiluvchi passiv subyekt emas, balki faol konstruktor, doimiy semantik konvertatsiya holatida mavjud bo‘lgan subyektiv ong sifatida shakllanmoqda. Shu bois, yoshlar xavfsizligi endilikda statik, tashqi tahdidlarga qarshi yo‘naltirilgan konsepsiya sifatida emas, balki dinamik, ongiy va

axborotiy jihatdan barqarorlikni ta’minlovchi ratsional-individual strategiya sifatida qayta talqin qilinmoqda.

Birinchidan, axborot makonidagi xavfsizlikni ratsionallik bilan bog‘lash, klassik epistemik yondashuvlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Raqamli diskurslarda ratsionallik endilikda bilishdan ko‘ra ko‘proq “yo‘nalish topish”, tanlash, axborot oqimlarida yo‘qolmaslik, o‘z nuqtayi nazarini barqaror saqlash va subyektiv pozitsiyani ijtimoiy diskurslar ichida konstruktiv tarzda ifoda eta olish qobiliyatidir. Yoshlar bu jarayonda axborot iste’molchilari emas, balki axborot agentlari sifatida axborot muhitining shakllanishida ishtirok etadi. Bu esa ularning raqamli makondagi xavfsizligini ratsional refleksiya, ongiy tanlov va intellektual filtrlash asosida tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, raqamli makonning asosiy xavf manbai sifatida dezinformatsiya, madaniy unifikatsiya va identitet erishmasligi ko‘rinishidagi tahdidlar yoshlar ongida diskursiv shakllarda joylashgan. Bu tahdidlar ontologik jihatdan tashqi kuchlar tomonidan emas, balki ichki epistemik noaniqlik, semantik yotlashuv va identifikatsion shubhalanish orqali subyektiv ongda shakllanadi. Dezinformatsiya, shu ma’noda, faqat noto‘g‘ri axborot emas, balki ijtimoiy haqiqatni simulyatsiyalovchi ideologik apparatdir. Madaniy unifikatsiya esa yoshlarning lokal madaniy kontekstlari va tarixiy xotirasini erkalashtirib, ularni global diskurslar ichida normativlashtirilgan va konformistik identitetlarga aylantiradi. Bu esa o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy tan olinganlik va madaniy xavfsizlik o‘rtasidagi dialektik muvozanatni buzadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Van Dijk J. The Network Society: Social Aspects of New Media. – London: SAGE Publications, 2012. – 360 p. – P. 174.
2. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003. – 219 p. – P. 56.
3. Nussbaum M. C. Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities. – Princeton: Princeton University Press, 2010. – 178 p. – P. 37.
4. Tomlinson J. Globalization and Culture. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. – 160 b. – B. 83.
5. Turkle S. Life on the Screen: Identity in the Age of the Internet. – New York: Simon & Schuster, 1995. – 347 b. – B. 255.

BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARIDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich.
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti.
E-mail: djumaniyazovfarhod@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish metodikasi yoritilgan. Tarixiy tafakkurni shakllantirishda SI vositalarining tahliliy, interpretatsion va rekonstruktiv imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarixiy tafakkur, sun’iy intellekt, metodika, raqamli ta’lim, tanqidiy tahlil.

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayoni pedagogikadan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, tarix fanini o‘qitishda an’anaviy metodlar o‘rnini interaktiv va texnologik metodlar egallamoqda. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun tarixiy tafakkur nafaqat bilimlar majmuasi, balki o‘tmishni tahlil qilish instrumentidir [1]. Tarixiy tafakkur — bu voqealarni vaqt va makon kontekstida ko‘ra olish, manbalarga tanqidiy yondashish va sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatishdir. (ChatGPT, Claude, Midjourney) katta hajmdagi ma’lumotlarni soniyalar ichida qayta ishlab, talabalarga turli nuqtayi nazarlarni taqdim eta oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun dars jarayonida quyidagi metodik modelni qo‘llash tavsiya etiladi:

- Evristik suhbat metodi: SI orqali tarixiy personajning “raqamli egizagi” bilan muloqot qurish. Masalan, “Nizomulmulk” boti bilan “Siyosatnoma” asari bo‘yicha bahslashish [2].
- Vizual rekonstruksiya: Arxeologik ma’lumotlar asosida yo‘qolgan yodgorliklarni SI yordamida tiklash.
- Gipotetik modellashtirish: “Agar...” ssenariylari orqali tarixiy jarayonlarning muqobil yo‘nalishlarini tahlil qilish.

Sun’iy intellektga asoslangan ta’lim vositalari (AI-powered educational tools) — bu o‘qitish va o‘rganish jarayonini optimallashtirish, shaxsiylashtirish va avtomatlashtirish uchun sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanadigan dasturiy ta’minot va platformalardir. Oddiy qilib aytganda, bular shunchaki ma’lumot beruvchi dasturlar emas, balki foydalanuvchining bilim darajasi va ehtiyojlariga qarab moslasha oladigan “aqlli” tizimlardir. Ushbu vositalarni asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Adaptiv (moslashuvchan) ta’lim platformalari. Bu tizimlar talabaning bilim darajasini tahlil qilib, unga mos ravishda dars materialini taqdim etadi. Agar talaba mavzuni tez o‘zlashtirsa, tizim murakkabroq topshiriq beradi; agar qiynalsa, sodda tushuntirishlarga qaytadi. Misollar: *Khan Academy, Duolingo, Coursera* (shaxsiylashtirilgan tavsiyalar qismi).

2. Generativ SI (Matn va g‘oyalar yaratuvchilar) Foydalanuvchi bergan so‘rov (prompt) asosida matnlar yozadi, murakkab mavzularni soddalashtiradi, kod yozadi yoki xorijiy tillarga tarjima qiladi. Misollar: *ChatGPT, Google Gemini, Claude, Perplexity AI.*

3. Vizual va multimedia yaratuvchi vositalar. Tarixiy voqealarni vizuallashtirish, dars uchun taqdimotlar tayyorlash yoki matnni videoga aylantirish uchun ishlatiladi. Misollar: *Midjourney* (tasvir yaratish), *Canva Magic Design* (taqdimotlar), *HeyGen* yoki *Synthesia* (virtual o‘qituvchi videolarini yaratish).

4. Aqlli repetitorlik tizimlari (Intelligent Tutoring Systems). Talabaga 24/7 rejimida yordam beruvchi virtual repetitorlar. Ular xatolarni tushuntirib beradi va to‘g‘ri javobga yo‘naltiradi. Misollar: *Q-Chat (Quizlet), Socratic (Google tomonidan).*

5. Avtomatlashtirilgan baholash va tahlil tizimlari. O‘qituvchilar uchun vaqtni tejaydigan vositalar. Ular testlarni tekshiradi, talabalarning insholaridagi mantiqiy xatolarni topadi va ularning o‘zlashtirish grafigini chizib beradi. Misollar: *Gradescope, Turnitin (plagiat va SI matnini aniqlash).* Ushbu vositalarning asosiy afzalliklari: individual yondashuv. Har bir o‘quvchining o‘z sur’atida o‘qish imkoniyati. Vaqtni tejash: O‘qituvchini monoton ishlardan (tekshirish, hisobot tuzish) xalos qiladi. Interaktivlik: Zerikarli matnlarni jonli suhbat yoki vizual modelga aylantiradi. Tarixiy ta’limda SIning eng katta xavfi — noto‘g‘ri ma’lumot (hallusinatsiya) berishidir. Metodik jihatdan bu kamchilikni afzallikka aylantirish mumkin: talabalarga SI tomonidan berilgan matndagi xatolarni topish topshirig‘i beriladi. Bu ularning manba bilan ishlash ko‘nikmasini oshiradi [3]. Zamonaviy ta’lim paradigmasida axborotni shunchaki yetkazib berish o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Ayniqsa, tarix fanida faktlarni yodlashdan ko‘ra, ularni tahlil qilish — tarixiy tafakkur birinchi olinga chiqmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida ta’limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa qilib belgilangan [1]. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun sun’iy intellekt (SI) nafaqat yordamchi vosita, balki murakkab tarixiy jarayonlarni modellashtirish, manbalarni qiyoslash va talabalarda fanga nisbatan qiziqishni uyg‘otishning strategik instrumentidir. Tarixiy tafakkur — bu insonning o‘tmish voqealarini tahliliy anglash, ularning bugungi kun bilan bog‘liqligini ko‘ra olish qobiliyatidir. SI (masalan, Large Language Models - LLM) ushbu jarayonda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Sintezlash: Minglab sahifalik arxiv hujjatlarini soniyalar ichida tahlil qilib, asosiy tezislarni chiqarib beradi.

2. Interpretatsiya: Bir xil voqeaga turli tarixiy maktablar (masalan, marksistik, sivilizatsiyaviy) nigohi bilan qarash imkonini beradi [2].

3. Personalizatsiya: Talabaning bilim darajasiga mos ravishda materialni soddalashtiradi yoki murakkablashtiradi.

Quyidagi metodlardan foydalanish ham samaralidir. ’’Raqamli personajlar bilan muloqot’’ metodi. Ushbu metodda ChatGPT yoki xarakter-botlar orqali tarixiy shaxslar bilan interaktiv suhbat tashkil etiladi.

- Amaliy topshiriq: Talabalarga Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari asosida tuzilgan bot bilan “Davlat boshqaruvida adolat mezonlari” mavzusida debat o‘tkazish topshiriladi.
- Natija: Talaba shaxsning ichki dunyosini va o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitini yaxshiroq anglaydi [3].

Vizual rekonstruksiya va generativ san’at. Midjourney yoki DALL-E kabi neyrotarmoqlar yordamida talabalar arxeologik tavsiflar asosida yo‘qolgan shaharlar yoki jang maydonlarini vizuallashtiradi. Masalan: Ilk Renessans davridagi Samarqand rasadxonasi qiyofasi. Vizual xotira va tarixiy rekonstruksiya ko‘nikmasi rivojlanadi.

Tadqiqot doirasida pedagogika yo‘nalishidagi 100 nafar talaba o‘rtasida "Tarix darslarida SIdan foydalanish samaradorligi" mavzusida so‘rovnoma o‘tkazildi.

1-jadval. Talabalarning SIdan foydalanish bo‘yicha fikrlari

Ko‘rsatkichlar	Ijobiy (%)	Neytral (%)	Salbiy (%)
Mavzuni tushunish darajasi oshishi	78	15	7
Manbalarni tahlil qilish tezligi	85	10	5
Ma’lumotlarning haqqoniyligiga ishonch	32	48	20
Mustaqil izlanishga motivatsiya	72	20	8

Tahlil: Jadvaldan ko‘rinadiki, talabalar SIni tezlik va tushunish uchun yuqori baholashadi, biroq ma’lumotning haqqoniyligi (fakt-cheking) masalasida shubha saqlanib qolmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchidan yuksak tanqidiy tafakkurni talab qiladi [4].

2-jadval. O‘qitish metodlari solishtirmasi

Mezon	**An’anaviy metod**	**SI-integratsiyalashgan metod**
Ma’lumot izlash	Kutubxona va darslik (sekin)	Algoritmik qidiruv (tezkor)
Tahlil shakli	Standart savol-javob	Ko‘p variantli modellashtirish
Talaba roli	Tinglovchi (passiv)	Tadqiqotchi (aktiv)
Xatolar bilan ishlash	O‘qituvchi tuzatadi	Talaba SI xatosini o‘zi topadi

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari SIdan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilishlari lozim:

1. Faktlarni verifikatsiya qilish: SI tomonidan berilgan har bir sana va ismni akademik manbalar (arxiv, ensiklopediya) bilan solishtirish [5].

2. Etik tamoyillar: Talabalarga SIni insho yozdirish uchun emas, balki g‘oyalar olish va struktura tuzish uchun ishlatishni o‘rgatish.

3. Prompt-muhandislik: Tarixiy savollarni to‘g‘ri shakllantirish (masalan: “1917-yilgi inqilobga iqtisodiy nuqtayi nazardan baho ber”) ko‘nikmasini egallash.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt bo‘lajak tarix o‘qituvchilari qo‘lida kuchli intellektual quroldir. U darslarni zerikarli ma’ruzalardan interaktiv tadqiqot laboratoriyasiga aylantirish imkonini beradi. Biroq, SI hech qachon o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi; u faqat tarixiy haqiqatni izlashda samarali ko‘prik vazifasini o‘taydi. Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda SI vositalaridan foydalanish metodikasi talabalarning nafaqat bilimini, balki dunyoqarashini ham kengaytiradi. SI ta’lim vositalari o‘qituvchini almashtirish uchun emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish, darslarni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi: Ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish”. – Toshkent, 2024.
2. Bender, E. M., & Gebru, T. “On the Dangers of Stochastic Parrots: Can Language Models Be Too Big?”. – AI & Society, 2023.
3. Karimov A. “Raqamli tarix: o‘tmishni o‘rganishning yangi ufqlari”. Monografiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2024.
4. UNESCO. “Guidance for generative AI in education and research”. – Paris, 2023.
5. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat va texnologiyalar”. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2024.
6. Russell, S., & Norvig, P. “Artificial Intelligence: A Modern Approach”. 4th Global Edition. – Pearson, 2023.
7. Ziyodov Sh. “Tarixiy manbashunoslikda sun’iy intellekt texnologiyalari”. – Samarqand, 2025.

JAMIYAT KONSOLIDATSIYASIDA FUQAROLIK MAS'ULIYATI MASALASI

Berdikulov Chingiz Dusmuradovich
Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat konsolidatsiyasini ta'minlashda fuqarolik mas'uliyatining o'rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Fuqarolarning jamiyat va davlat oldidagi burch hamda majburiyatlarini anglash darajasi ijtimoiy hamjihatlik, birdamlik va barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida yoritiladi. Maqolada fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik mas'uliyati, jamiyat konsolidatsiyasi, ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy birdamlik, fuqarolik burchi, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy ishonch, hamkorlik, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy taraqqiyot, konsolidatsion jarayonlar.

Jamiyatda ma'naviy kollaboratsiyaning konsolidatsion potensialidan oqilona foydalanish, ya'ni jamiyat a'zolarini ma'naviy hamkorlikka chorlash orqali ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash uchun ijtimoiy muloqot samarasini oshirishning o'zi kamlik qiladi, albatta. Ijtimoiy muloqot ma'naviy kollaboratsiyaning eng muhim vositasi, xolos. Ayni paytda jamiyat a'zolarining mas'uliyatini ham yuksaltirish zarur. Chunki fuqarolar o'zlarining jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarini chuqur his qilgan, uni ijro etishga intilgan mamlakatdagina kishilar umumijtimoiy maqsadlar yo'lida hamkorlik qila oladilar. Binobarin, ma'naviy kollaboratsiyaning ijtimoiy konsolidatsion potensialidan oqilona foydalanish imkoniyatlarini topish masalasini kun tartibiga qo'yar ekanmiz, jamiyat a'zolarining mas'uliyatini yuksaltirish masalasini chetlab o'ta olmaymiz.

"Mas'uliyat" tushunchasi "mas'ul" so'zidan olinganining o'zi uning mazmunini kundalik ong darajasida anglab olish imkonini beradi. "O'zbek tilining izohli lug'atida" qayd etilishicha, "mas'ul" javob beruvchi, javobgar ma'nolarini anglatadi [1;555]. "Javobgarlik" terminining o'zidayoq ijtimoiy mas'uliyatli munosabatlar iyerarxiyasining dastlabki negizi o'z ifodasini topgan. Kimning oldida javobgarlik: Xudo oldidami, yuqori ijtimoiy instansiyalar oldidami, xalq oldidami, tarix oldidami yoxud kelajak avlodlar oldidami? Nima uchun javobgarlik: qabul qilingan qarorlar uchunmi, xatti-harakatlar uchunmi, bildirilgan fikrlar uchunmi, xulq atvor uchunmi? Nima bilan javobgarlik: O'z boshi bilanmi, o'z ijtimoiy maqomi bilanmi yoki ishlari bilanmi?"[2].

Biroq tushunchaning ilmda e’tirof etilgan ta’rifi kundalik hayotdagi talqinidan bir qadar murakkabroq va serqirraroq. Ilmda mas’uliyat deganda “ma’naviy, ijtimoiy va ma’muriy-huquqiy sohalarda keng qo‘llaniladigan tushuncha” [3;720] nazarda tutiladi. *Mas’uliyat - “ma’naviyat nuqtayi nazaridan yondashilganida burch; ijtimoiy ma’noda jamiyat va boshqalar oldidagi ma’naviy qarzdorlik; ma’muriy jihatdan ijtimoiy tartibga solishning turli me’yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo‘lishi; huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma’noli kategoriyadir*” [3;720]. Biz o‘z mulohazalarimizda “mas’uliyat” tushunchasini birinchi va ikkinchi ma’nolarda qo‘llamoqdamiz.

Mas’uliyatning shakllanganligi darajasi qator omillarga borib taqaladi. Bir tomondan, u shaxs erkinligi me’yoriga mutanosib ravishda qaror topadi. Shaxs erkinligi oshgani sayin uning mas’uliyati doirasi ham kengayadi. Masalaning bu jihatiga, masalan, fransuz faylasufi J.P.Sartr e’tiborni qaratadi. U inson mas’uliyatini uning erkin tanlovi bilan bog‘laydi. Boshqacha aytganda, erkinlikka ega bo‘lgan shaxs o‘z burch va majburiyatlari doirasini o‘zi belgilaydi hamda ularning ijrosini mustaqil ta’minlaydi. Uning erkinligi kengayishi bilan zimmasiga olgan mas’uliyatlari ham ortadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, erkinlik inson uchun nafaqat tuhfa, balki og‘ir yuk, sinov hamdir [4]. Ikkinchi tomondan esa, “mas’uliyat ijtimoiy ongning qay darajada rivojlanganligi, ijtimoiy munosabatlar holati, jamiyatda faoliyat ko‘rsatayotgan ijtimoiy institutlar, jamoat tashkilotlarining ishi bilan bog‘liq” [5;248]. Ijtimoiy ong rivoj topgani, ijtimoiy munosabatlar takomillashgani, ijtimoiy institutlar faoliyati intensivlashgani sayin mas’uliyat darajasi ham yuksala boradi.

Insonda mas’uliyat hissining shakllanganligi darajasi bilan ma’-naviy kollaboratsiya darajasi bir-biri bilan bevosita aloqador. Chunki o‘z burchlarini yaxshi bilgan, jamiyat oldidagi ma’naviy qarzini ado etishga intilgan kishilargina umumijtimoiy ma’naviy maqsadlar yo‘lida o‘zaro hamkorlik qila oladilar. Mas’uliyatsizlik avj olgan jamiyatda ma’naviy hamkorlik bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolarning Vatan taqdiri, mamlakat mustaqilligi uchun mas’uliyati ortdi. Kishilar o‘z ona diyorlari kelajagi, barqarorligi, taraqqiyoti uchun mas’ul ekanliklarini tobora chuqur his qilib bormoqdalar. Bu mas’uliyat jamiyat a’zolari o‘rtasidagi ma’naviy hamkorlikni takomillashtirish uchun muhim manba vazifasini o‘taydi. Shuning bilan bir qatorda mas’uliyat ko‘p qirrali fenomen ekanligini ham yodda tutmoq darkor. Uning barcha ko‘rinishlarini uyg‘unlikda takomil toptirmasdan turib, ma’naviy kollaboratsiya sifatini tubdan o‘zgartirib, uni ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlovchi omilga aylantirib bo‘lmaydi. Bu borada qator ijtimoiy vazifalarga mas’uliyatning turli ko‘rinishlarini rivojlantirish,

uning rivojiga xalal berib turgan omillar, holatlar, muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish masalalariga diqqatni jamlash zarur bo‘ladi.

Birinchidan, ma’naviy kollaboratsiyaning konsolidatsion potensialidan oqilona foydalanish uchun jamiyat a’zolarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish kerak. Shaxsiy mas’uliyat o‘z hayoti, faoliyati, hatti harakatlarining natijalari uchun javobgarlikni zimmasiga olishga asoslangan axloqiy tamoyildir. U asosan o‘z hayotini oqilona tashkil etish, uni muayyan hayotiy maqsadlarga yo‘naltirish, real vaziyatni chuqur tahlil qilgan holda qarorlar qabul qilish, rejalashtirilgan ishlarni tugal amalga oshirish, sa’y harakatlarining oqibatlari uchun javob berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shaxsiy mas’uliyat hissining ijtimoiy ahamiyati baland bo‘lgani bois barcha davrlarda mutafakkirlar va mutaxassislaruning mohiyati, mexanizmi bilan bog‘liq masalalarga jiddiy e’tibor berib kelganlar. Masalan, shaxsiy mas’uliyat bilan bog‘liq ijtimoiy falsafiy muammolar ayniqsa ekzistensial falsafa namoyondalarining asarlarida keng tahlil qilinadi. O‘z hayoti va faoliyati uchun mas’ul bo‘lgan inson g‘oyasi talqinini ekzistensializmning yirik vakillari S. Kyerkegor, J.-P. Sartr, M. Xaydegger asarlarida ko‘rish mumkin [6]. Keyinchalik ushbu g‘oyalar gumanistik va ekzistensial psixologiyaning rivoj topishiga zamin yaratdi [7;73].

Umumijtimoiy ma’naviy maqsadlar yo‘lidagi ma’naviy hamkorlik samarasi ko‘p jihatdan jamiyat a’zolarida shaxsiy mas’uliyatning rivojlanganligi darajasiga borib taqaladi. Shaxsiy mas’uliyat hissiga ega bo‘lgan jamiyat a’zolari, bir tomondan, ushbu maqsadlar sari astoydil intiladilar, unga erishish uchun boshqalar bilan mas’uliyatli tarzda hamkorlik qiladilar, ikkinchi tomondan esa, mazkur maqsadlarga erishishga xalal beradigan sa’y harakatlardan o‘zlarini tiya biladilar. Lekin, shuni ham aytib o‘tish kerakki, jamiyat a’zosining bunday mas’uliyati o‘z-o‘zidan shakllanaveradigan fenomen emas, albatta. Uning qaror topishiga ta’sir ko‘rsatadigan turfa obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Jumladan, jamiyat a’zolarining shaxsiy mas’uliyati ko‘plab iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy omillar ta’sirida shakllanadi. Shuningdek, shaxsning tarbiyalanganligi darajasi, uning madaniy saviyasi, intelleutual salohiyati va shu kabi qator subyektiv omillar ham undagi mas’uliyat hissida iz qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Т.2.- Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашр., 2006.- Б.555.
2. Мишурова О.И. Основа социальной ответственности личности.// Сервис в России и за рубежом, 2017, №1.- 156-с. -11-1-14
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Ж.1.- Т.:Ўзб. файл. миллий жам. нашр., 2019.- Б.720.

4. Сартр Ж.-П. Тошнота.// Избранные произведения.- М.: Республика, 1994.
5. Чориев А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс.Иккинчи китоб.- Т.: Чинор, 2002.- Б.248.
6. Кьеркегор С. Наслаждение и долг.- Киев: AirLand,1994; Сартр Ж.-П. Экзистенциализм – это гу-манизм // Сумерки богов.- М.: Политиздат,1989; Хайдеггер, М. Время и бытие.- М.: Республика, 1993.
7. Панькина Е.В. К вопросу о понимании личностной ответственности в гуманистической психологии.// Педагогика и психология образования, 2011, №3.- с.72-78.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MADANIY MAKONNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Temirov Akmal Zokirovich
SamDPI tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonining zamonaviy madaniy makon shakllanishi va rivojlanishiga ko‘rsatayotgan ta’siri ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada globallashuv sharoitida milliy madaniy identifikatsiyani saqlash, madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash hamda umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishi bilan bog‘liq tendensiyalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, madaniy makon, madaniy transformatsiya, madaniy identifikatsiya, madaniyatlararo muloqot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, transmilliy madaniyat, madaniy integratsiya, madaniy xilma-xillik, umuminsoniy qadriyatlar, glokallashuv, ijtimoiy taraqqiyot.

Globallashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanib, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqaro integratsiya jarayonlarining kuchayishi hamda madaniyatlararo aloqalarning kengayishi natijasida madaniy makonning shakllanishi va rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda madaniy makon nafaqat muayyan hudud yoki jamiyatning madaniy qadriyatlari majmui, balki turli xalqlar, millatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, muloqot va hamkorlikning murakkab tizimi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuv sharoitida madaniy makonning rivojlanishi bir tomondan umuminsoniy qadriyatlarning keng yoyilishiga, madaniyatlararo muloqotning kuchayishiga va zamonaviy madaniy tendensiyalarning shakllanishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan milliy madaniy identifikatsiyani saqlash,

tarixiy merosni asrash va madaniy xilma-xillikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli madaniy makonning globallashuv jarayonidagi transformatsiyasi, uning rivojlanish qonuniyatlari va istiqbolli tendensiyalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Odamzod qalbining asosiy vazifalaridan biri hayot va umumbashariy axloqiy qarashlarni shakllantiruvchi barometrdir. Chunki alohida inson axloqi umuminsoniy ong va aql, uning aksiomalari asosida shakllanadi. Shuning uchun inson axloqi, axloqiy tartib madaniyati va butun dunyodagi axloq-odobi xalqlar o‘rtasidagi ko‘prik hisoblanadi. Barcha axloqiy harakatlarning yagona maqsadi – insonga ezgulik, yaxshilik, mehr-muruvvat yo‘lini ko‘rsatishdir. Agar axloqiy illatlar ko’payib tubanlashsa, inson erkinlikdan yiroqlashadi. Bizning nazarimizda, axloqqa rostlik, haqlilik, sotilmaslik, to‘g‘rilik va qalbning axloqiy darajasidagi aniqlik xos hisoblanadi. Ammo inson tabiati gumrohlikka va tubanlikka moyil bo‘lib, bu sifatlarni to‘laligicha qabul qila olmaydi. Ishonch bilan tasdiqlanib turadigan, muhabbat bilan oziqlantiriladigan axloq sof, ezgulikka, poklikka qarab to’ldirilib boradi[1]. Inson xatti-harakatlarining sifati axloqiy-madaniyat yuksak darajasini ko‘rsatadi. Axloq qo‘rquv orqali bilinadi. Axloqni saqlashning o‘zi katta qadriyat bo’lib, vijdonni, soflikni, mukammalikni, sabrlilikni mahsuli sifatida qarash mumkin. Inson ongli ravishda tanlagan yo‘li, maqsadlari sari boradi, ichki niyatlarni baholash qobiliyatini o‘zlashtirib, chunki aynan u qaror qabul qilishida namoyon bo’ladi. Axloqsizlik, g‘azab, boylikka o‘chlik, hasad, shuhratparastlik, g‘urur bilan bir qatorda baholanadi. Va buning teskarisi bo‘lgan axloq-odob esa insonning shohona kuchi va qobiliyatidir. O‘z davrida Epikur “Yoqimli yashash aqlli yashashsiz bo‘lmaydi, axloqiy va adolatli hayot, va teskarisi, aqlli yashash mumkin emas, axloqiy va adolatli, yoqimli yashashsiz”[2] degan fikrlarni yozib qoldirgan edi.

“Madaniyat”[3] tushunchasining Sharq va G‘arb xalqlaridagi talqinlariga kirishar ekanmiz, avvalo madaniyatshunoslikka bag‘ishlangan maxsus ishlarda lotincha lug‘aviy ma’nosi “ishlov berish”ni anglatuvchi bu tushunchaning 1000 ga yaqin ta’rifi mavjudligini ta’kiblab o‘tishimiz joiz. Ushbu talqinlar labirintida adashib qolmaslik uchun esa ,avvalo, ularning birqancha tiplari mavjudligiga e’tibor berish kerak va doim yodda saqlab qolishimiz lozim. Ular quyidagicha:

Birinchidan, tavsifiy talqin. Ushbu talqinda madaniyat tushunchasi inson faoliyatining barcha xillarini, ularning turli namunalarini, turli jabhalarini o‘z ichiga

[1] Геффдинг Г. Этика, или наука о нравственности: Изложение этических принципов и их применение к различным житейским отношениям. – М.: Изд.3 Издательство ЛКИ, 2012. - 400с.

[2] Ахелис Т. Этика. История этики и критика ее систем. Явления нравственности. Принципы нравственности. Этика Либроком 2011. - 112с.

[3] Биз бу ерда моддий маданият ҳақида эмас, маънавий маданият ҳақида фикр юритамиз. Зеро моддий маданият маънавий маданиятнинг махсули бўлгани учун ва , қолаверса, у маънавий маданиятнинг конкретлашган, айримликдаги ифодаси бўлгани учун, бизнинг таҳлилимизда шу маънавий асосини таҳлил этиш етарлидир.

oladi: turli tillar, kitoblar, tasviriy san’at asarlari, urf-odatlar, turli madaniy birlashmalar,dinlar singari.

Ikkinchidan, tarixiy talqin. Bu talqinda madaniyat deyilganda, insoniyat tomonidan yaratilgan barcha narsa va hodisalar, umuman olganda inson qo’li bilan yaratilgan yaratiqlar kiradi, ya’ni suniy tabiat nazarda tutiladi.

Uchinchidan, normativ talqin. Bunda madaniyat qadriyatlar majmuasidan tashkil topadi.

To‘rtinchidan, mafkuraviy talqin. Bunda madaniyat avloddan avlodga o‘tib keladigan , avlodlar ongiga singib keladigan g‘oyalar oqimini tashkil etadi.

Madaniyat talqinlarining bunchalar ko‘pligi ushbu hodisaning juda murakkabligini anglatadi. Yuqoridagi talqinlar tipologiyasida shu murakkab hodisaning muayyan biron tomoni yokida talqini oldinga surilgan, umumiy va yagona talqin esa yo‘q. Falsafaning asosiy vazifalaridan biri esa shu talqinlar orasidan eng umumiy va to‘g‘risini ajratib ko‘rsatishdan iborat bo’lib keladi. Lekin, yuqoridagi terminlar orqali ko‘rganimizday, hozirgi davr falsafasining krizis xolatida ekani uning bu vazifasiga tayanish qiyinligini ko‘rsatib beradi. Shunga qaramay, bu borada falsafiy tafakkurda oldinga surilayotgan asosiy g‘oyalarni iloji boricha chuqurroq tahrir etib va chuqurroq yondashib, ular orasidan o‘z yondoshuvimizni ajratib olishga harakat qilish joiz va zarur vazifa bo’lib qoladi.

G‘arb dunyoqarashida shu kungacha madaniyatga XVII- XVIII-asr marifatparvarlik davrida shakllangan shaxs hamda jamiyatning tabiat ustidan hukmronlik qilish ko‘rsatkichi sifatida qarashning natijasi bo’lgan. Tabiat ustidan hukmronlik qilish imkonini beradigan asosiy vosita esa shu kungacha fan va texnika bo‘lib keldi. Shuning uchun ham madaniyatni G‘arbcha tushunish mazmunida vijdon, haqiqat, ezgulik, vafo, sadoqat, mehr-oqibat, hamdardlik, fidoyilik, muhabbat, ruhiyat(ma’naviyat) kabi sof sharqona qadriyatlarga o‘rin yo‘q. Ular asosan dinga va o‘tmish madaniyatiga ko‘proq xos tushunchalarga aylangan. Shuning uchun G‘arbda ma’naviy madaniyat deyilganda asosan intellektuallik, texnika va texnologiya bilan qurollanganlik nazarda tutiladi. Shu sababli hamhozirgi davrda G‘arbda ko‘pchilik insonlar o‘zlarini Sharq insonlaridan ancha madaniyatli deb bilishadi. Vaholanki, G‘arb davlatlarida ham ilgari madaniyatga ayni Sharqniki kabi qarash mavjud bo‘lgan va shu qarashlarni saqlash, himoyalashga intilishlar hozir ham mavjud.Biroq, ilmiy dunyoqarash, fan texnika taraqqiyotining keyingi davrlari mobaynida bunday yondashuv tobora cheklanib bordi.

Milliy madaniyat tushunchasining falsafaga kiritilishi esa barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan yagona madaniyat mavjud bo‘la olmasligi, har bir millatning faqat o‘zigagina xos madaniyati mavjud ekanini ta’kidlovchi, masalan, N.Ya. Danilevskiy, O. Shpengler, A. Toynbi konsepsiyalarning shakllanishi bilan bog‘liq.

Har ikki tushunchaning ham madaniyatni xarakterlashda o‘z o‘rni bor. Birinchisida (“xalq madaniyati” tushunchasida) madaniyatning eng umumiy, muallifsiz tarixiy ildizi borligi nazarda tutilayotgan bo‘lsa, ikkinchisida uning xalqlar, millatlarga ajralganidan keyingi differensiallashgan, o‘ziga xoslik kasb etgan tarixiy shakllari vujudga kelgani inobatga olinmoqda. Shu ma’noda bularning ikkisi ham madaniyatning umumiy ta’riflari emas, balki uni evolyusiya jarayonida tushunishga xizmat qiluvchi asosiy tushunchalardir. Va milliy madaniyatlarda internatsional taraflarning mavjudligi, bir tomondan, barcha millatlarning bir vaqtlar hali millatlarga ajralmagan tarixiy davrdagi umumiy, differensiallashmagan, muallifsiz tarixiy ildizi mavjudligi tufayli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, millatlar madaniyati taraqqiyoti mobaynida ularning o‘zaro bog‘lanib, aloqa qilganlari natijasida shakllangan yangi umumiyatlarning yuzaga keliganligi tufaylidir.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayoni zamonaviy madaniy makonning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiy etishi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida turli xalqlar va millatlar o‘rtasidagi madaniy muloqot yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayon bir tomondan madaniy qadriyatlarning o‘zaro almashinuvi, ilm-fan va san’at yutuqlarining ommalashuviga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan milliy madaniy o‘ziga xoslikni saqlash masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shuningdek, globallashuv sharoitida madaniy makon ko‘p qirrali va dinamik tizim sifatida rivojlanmoqda. Unda integratsiya va differensiallashuv jarayonlari bir vaqtning o‘zida kechadi. Raqamli madaniyatning shakllanishi, virtual kommunikatsiyaning kengayishi hamda ommaviy madaniyat ta’sirining ortishi madaniy rivojlanishning asosiy tendensiyalari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, milliy madaniy merosni asrab-avaylash, yosh avlodda tarixiy xotira va madaniy identifikatsiyani mustahkamlash globallashuvning salbiy ta’sirlarini kamaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

MILLIY MADANIYATLARNING O‘ZARO TA’SIRI VA MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYANING IJTIMOIY-MADANIY JIHATLARI

Temirov Akmal Zokirovich
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va madaniyatlararo kommunikatsiyaning ijtimoiy-madaniy jihatlari zamonaviy globallashuv sharoitida ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot jarayonlari, madaniy

almashinuv mexanizmlari hamda ularning jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy integratsiya va madaniy identifikatsiya shakllanishiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy madaniyat, madaniyatlararo kommunikatsiya, madaniy almashinuv, madaniy identifikatsiya, ijtimoiy integratsiya, madaniy xilma-xillik, bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot, globallashuv, umuminsoniy qadriyatlar, madaniy hamkorlik, ijtimoiy-madaniy taraqqiyot.

Madaniyat har bir xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, urf-odatlari, tili va ma’naviy merosini o‘zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Turli madaniyatlarning o‘zaro aloqasi natijasida yangi g‘oyalar, qadriyatlar va ijtimoiy tajribalar shakllanadi, bu esa jamiyatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Madaniyatlararo kommunikatsiya esa turli madaniy muhit vakillari o‘rtasidagi muloqot, hamkorlik va o‘zaro tushunishni ta’minlaydigan muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Uning samaradorligi jamiyatda bag‘rikenglik, tolerantlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda madaniyatlararo kommunikatsiyaning rivojlanishi bir tomondan xalqlar o‘rtasidagi yaqinlashuvni kuchaytirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan milliy o‘zlikni saqlash, madaniy identifikatsiyani mustahkamlash va madaniy xilma-xillikni asrash kabi vazifalarni ham kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va internet tarmoqlarining keng tarqalishi natijasida madaniy axborot almashinuvi misli ko‘rilmagan darajada tezlashdi. Bu holat madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ayrim hollarda madaniy standartlashuv va ommaviy madaniyat ta’sirining kuchayishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Sharqda buyuk olim va faylasuf Forobiy o‘z bilimi, ma’naviyati, ilmining yuksakligi, fikr doirasining kengligi, hayotiy tafakkurning yuksaklig bilan Sharqda katta shuhrat qozongan bo’lib, unga Arastudan keyingi yirik mutafakkir – “muallim as-soniy” – “ikkinchi muallim” degan sharafli unvon berilgan. Qomusiy olim Forobiy “Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob”, “Siyosat al-madaniya” (“Shaharlar ustidan siyosat yurgizish”) va boshqa shu kabi asarlarida axloqiy fazilatlar haqida o‘z fikr-mulohazalarini, ilmiy jihatdan qarashlarini bayon qilgan. Xususan, baxt-saodat tushunchasi haqida teran fikr yuritib, u “faol aqlga eng yaqin turgan narsadir”[1], va: “uning ma’no-mohiyati faol aql bilan qo‘shiluvida yashiringandir”[2], - deb bot-bot ta’kidlaydi. Shuning barobarida Forobiy o’z qarashlari orqali baxt-saodat fazilatga tashqaridan yopishtirilgan yoki yuklangan

[1]Қаранг: Форобий. Рисолат фи ал-ақл (“Ақл ҳақида рисола”), –Байрут, 1939. –Б.31. (араб тилида)

[2] Қаранг: Форобий. Фалсафату Аристотелис ва ажзои фалсафата ва маротиб ажзоиҳо (“Арасту фалсафаси ва фалсафанинг қисм ва босқичлари”). Мухсин Маҳди таҳрири остида “Матнлар силсиласи”. –Байрут, 1-жилд, 1961. –Б.128. (араб тилида).

amal bo‘lmasdan, balki uning o‘z jinsidan va zotning umumiyligidan chiqqan sifatiy holati ekanligini isbotlashga harakat qiladi, ilmiy dalilar ila asoslash bo’yicha ilmiy xulosalar berib boradi. Zero, baxt – insonning o‘z ichki borligidan qoniqish hissi, hayotdan zavqlanishi va insoniyligidan mamnun bo‘lishdir[1]. Bundan ko‘rinadiki, inson o‘zini qanchalik o‘rgansa, qanchalik tushunib yetsa, idrok qilsa,aqlan anglab borsa, shunchalik axloqan poklanib boradi, ilmiyatda, xulqi go’zallikda ham yuksaklikka ershib boraveradi. Darhaqiqat, axloqiylik bilan uzviy bo‘lmagan bilim qancha kuchli bo‘lsa, uning zarali tomoni ham shunchadir. Chunki axloqsiz inson o‘z bilimidan boshqalar va jamiyat zarariga tegadigan tarzda foydalanadi, foydalanib boraveradi va bu zarar bilimsiz kishinikidan ko‘p marta ortiq bo‘ladi, jamiyatni halokatga eltuvchi illatlardan biri biri sifatida qaraladi. Buni quyidagi holatda ko’rishimiz mumkin: oddiy kissavur o‘g‘ri bilan kompyuterni yaxshi bilish orqali bankni o‘maradigan odamning jinoyatlari darajalari orasidagi farq. Mashhur va barchamizga tanish bo’lgan, o’z asarlari orqali ulkan bilimlar berib ketgan yunon donishmandi Arastu aytganiday, “Kimki bilimda ilgarilab, axloqda oqsaydigan bo‘lsa, bilingki u oldinga emas katta tezlik bilan tubanlik sari ketipti”[2]. Axloqning bu kungurador vazifasi nemis klassik falsafasining taniqli namoyandasi bo’lmish I.Kant oldinga surgan “kategorial imperativ” g‘oyasida o‘z ifodasini topgan edi. Dinlarda esa ketegorial imperativ g‘oya hurofiy qarashlarda aks etadi.

Axloqiy fazilatlarni tarbiyalash barcha zamon va makonlarda barcha fazilatlarning sarchashmasidir. Axloqning amaliy ko‘rinishi esa axloqiy madaniyat sanaladi.. Axloqiy madaniyat konteksti shaxsning olamga, voqea va hodisalarga, o‘zgalarga va ularning faoliyatiga, o‘z umri va uning mazmun-mohiyati, ba’zi hollarda esa o’zgalar hayotini yaxshilash kabi ko‘pdan ko‘p tushunchalarga munosabati bo‘lib, ularni anglashi, tushunishi, his qilishi va qadrlashi oqibatida o‘z faolligini oshirishga e’tibor sifatida qarash nazariy jihatdan uning mazmun-mohiyatini yanada rivojlantirib boyitib borishda muhim ahamiyatga kasb etadi. Shuning uchun, axloqiy madaniyat va shaxs faolligini mustaqillik bergan imkoniyat va sharoitlarni e’tiborga olib, ular bilan baqamti yashash va o‘rganib chiqish kelajagi buyuk davlatning yetuk insonlarini tarbiyalashda, buyuk allomalar kabi yoshlarni rivoshlantirb berishda alohida o‘rin tutadi.

Sivilizatsiyaning axloqiy mezonlari tegishli ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq ekani bot-bot ta’kidlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi dunyoqarash prinsiplari ham, u bilan bog‘liq axloqiy mezonlarning va kategoriyalarning o‘zgarishiga olib keladi deb uqtiriladi. Masalan, sivilizatsiya shakllanishining ilk davrlarida ruhoniylardan tashkil topgan iyerarxiya qatlamidan,

[1]Абулла Шер. Ахлоқшунослик. Ўқув қўлланма . – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 208-214 б.
[2] Қаранг: Иодль Ф. История этики в новой философии: Кант и этика в девятнадцатом столетии. Пер. с нем. Либроком 2011. 528 с.

ehromlar, muqaddas davlatchilik urflari, jamiyatni bu dunyodan, tabiatdan yuqori turuvchi olam tomonidan boshqarilishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan tashkillanish strukturalari intizomi kabilar. Sivilizatsiyaning keyingi yuqoriroq bosqichlarida esa ma'lumotli yuqori qatlam tomonidan maxsus tartibga solingan axloqiy meyorlar ishlab chiqilgan. Jamiyat strukturasida sodir bo'lgan yangi o'zgarishlar natijastda yangi axloqiy qadriyatlar, axloqiy kontekstlar yaratilib boraveriladi.

"Madaniyat"[1] tushunchasining Sharq va G'arb xalqlaridagi talqinlariga kirishar ekanmiz, avvalo madaniyatshunoslikka bag'ishlangan maxsus ishlarda lotincha lug'aviy ma'nosi "ishlov berish"ni anglatuvchi bu tushunchaning 1000 ga yaqin ta'rifi mavjudligini ta'kiblab o'tishimiz joiz. Ushbu talqinlar labirintida adashib qolmaslik uchun esa ,avvalo, ularning birqancha tiplari mavjudligiga e'tibor berish kerak va doim yodda saqlab qolishimiz lozim. Ular quyidagicha:

Birinchidan, tavsifiy talqin. Ushbu talqinda madaniyat tushunchasi inson faoliyatining barcha xillarini, ularning turli namunalarini, turli jabhalarini o'z ichiga oladi: turli tillar, kitoblar, tasviriy san'at asarlari, urf-odatlar, turli madaniy birlashmalar,dinlar singari.

Ikkinchidan, tarixiy talqin. Bu talqinda madaniyat deyilganda, insoniyat tomonidan yaratilgan barcha narsa va hodisalar, umuman olganda inson qo'li bilan yaratilgan yaratiqlar kiradi, ya'ni suniy tabiat nazarda tutiladi.

Uchinchidan, normativ talqin. Bunda madaniyat qadriyatlar majmuasidan tashkil topadi.

To'rtinchidan, mafkuraviy talqin. Bunda madaniyat avloddan avlodga o'tib keladigan , avlodlar ongiga singib keladigan g'oyalar oqimini tashkil etadi.

Madaniyat talqinlarining bunchalar ko'pligi ushbu hodisaning juda murakkabligini anglatadi. Yuqoridagi talqinlar tipologiyasida shu murakkab hodisaning muayyan biron tomoni yokida talqini oldinga surilgan, umumiy va yagona talqin esa yo'q. Falsafaning asosiy vazifalaridan biri esa shu talqinlar orasidan eng umumiy va to'g'risini ajratib ko'rsatishdan iborat bo'lib keladi. Lekin, yuqoridagi terminlar orqali ko'rganimizday, hozirgi davr falsafasining krizis xolatida ekani uning bu vazifasiga tayanish qiyinligini ko'rsatib beradi. Xalq madaniyati (ingliz tilida "folklor") deyilganida, odatda madaniyatning o'z ildizlari bilan xalq o'tmish tarixi bilan tutashib ketadigan, o'tmishda shakllangan qadriyatlarga tayanadigan, milliy xarakterni aks ettiradigan jihati nazarda tutiladi. Xalq madaniyatining o'ziga xosligi shunaki, uni yaratgan konkret mualliflarning

[1] Биз бу ерда моддий маданият ҳақида эмас, маънавий маданият ҳақида фикр юритамиз. Зеро моддий маданият маънавий маданиятнинг махсули бўлгани учун ва , қолаверса, у маънавий маданиятнинг конкретлашган, айримликдаги ифодаси бўлгани учун, бизнинг таҳлилимизда шу маънавий асосини таҳлил этиш етарлидир.

yo‘qligida, ularning rivoyat (mif), asotir, afsona, epos, ertak, ashula, raqslar, hatto latifalar, ommaviy bayram va urf-odatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Xalq madaniyati an’anaviyligi (traditsiyaviyligi), jamoaviyligi, teran ildiz otgani va barqarorligi bilan e’tiborlidir.

Xulosa qilib aytganda milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va madaniyatlararo kommunikatsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, xalqaro hamkorlikning kengayishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar yanada faollashib bormoqda. Bu esa madaniy qadriyatlar, an’analar va tajribalarning o‘zaro almashinuvi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri jamiyatlarning ma’naviy boyishiga, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Madaniyatlararo kommunikatsiya turli madaniy muhit vakillari o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlab, ijtimoiy hamjihatlik, tinchlik va barqarorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, u insonlarning dunyoqarashini kengaytiradi, yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi ayrim hollarda milliy madaniy o‘ziga xoslikning susayishi, ommaviy madaniyat ta’sirining ortishi va madaniy standartlashuv kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli milliy madaniy merosni asrab-avaylash, tarixiy qadriyatlarni kelajak avlodlarga yetkazish hamda milliy identifikatsiyani mustahkamlash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Madaniyatlararo muloqot jarayonida umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarur.

AMIR TEMUR FAOLIYATIDA DAVLATCHILIK G‘OYASI VA AMALIYOTI BIRLIGI EVOLUTSIYASI

O‘rozov Shahobiddin Ziyadullayevich,
SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada xarizmatik legitimlik qobiliyatiga ega bo‘lgan Amir Temurning milliy davlatchilik asoslarini yaratish va takomillashtirish faoliyatida mantiqiy ratsionallik tamoyilini mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek maqolada Markaziy Osiyoda XIV asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy beqarorlik Amir Temurdek xarizmatik legitimlik qobiliyatiga ega bo‘lgan siyosiy rahbarning yetishib chiqishi va milliy davlatchilik g‘oyasini xususiyati tarixiy asarlarning komparativistik tahlili asosida tadqiq etiladi.

Kirish. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida geosiyosiy ziddiyatlar taranglashib, turli mintaqalarda qurolli to‘qnashuvlar oqibatida mamlakatlar suverenitetiga jiddiy xavflar kuchaymoqda. Odatda bunday tahlikali vaziyatda har bir davlat fuqarolariga milliy davlatchilik an’analarining ilg‘or yutuqlarini targ‘ib etish orqali o‘z milliylik xususiyatini saqlab qolishga harakat qiladi. Yurtimizning hozirgi rivojlanish jarayonida tarixiylikni manbalarga tayanib o‘rganishga va shu asosda ma’naviy merosga nisbatan munosabatni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu maqolada xarizmatik legitimlik qobiliyati tufayli Amir Temur tomonidan jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishni ta’minlagan qonun ustuvorligi tamoyilini ishlab chiqilishi va ijtimoiy munosabatlarda to‘liq joriy etilishi Movarounnahrni qudratli saltanatga aylanishi, fuqarolarning farovon turmush tarzini yuzaga kelishi hamda madaniy-ma’naviy yuksalishning falsafiy mohiyati yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temurning tarixiy-madaniy va ma’naviy merosiga oid masala doimo davlat rahbarlari, tarixshunos mutaxassislar, faylasuflarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Xususan, bu masalani o‘rganishda xorijlik olimlardan F.Shlosser, H.Hukhem, A.Shampdor, V.Furniye, L.Keren, J.Ru, X.Lemb, B.Mans va boshqalar Amir Temurning dunyo siyosatida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda tutgan o‘rnini tadqiq etishga e’tibor qaratishgan. Ingliz olimasi Hilda Hukhem Amir Temur o‘z yurtida davlatchilik va madaniyat an’analarining davomchisi bo‘lganligini, turli sohalarda benazir asarlar yaratgan buyuk allomalar vatanidan yetishib chiqqanligini, mazkur allomalarning yirik asarlari bir necha yuz yillar davomida Yevropadagi Uyg‘onish davriga katta ta’sir ko‘rsatib, unga poydevor bo‘lib xizmat qilganligini haqqoniy ravishda aytib o‘tgan[1-320]. Jumladan, Lyusen Keren ko‘plab tadqiqotlarida Amir Temurning tarixdagi buyuk xizmatlari, uning davlatida adolat va qonun ustuvorlik qilganligi, “rahbar bo‘lishdek tug‘ma, ammo aqlga sig‘maydigan tabiiy va sinoatli xislat sohibi” bo‘lganini manbalardagi ma’lumotlar, tarixiy faktlar orqali ochib bergan [2-169-170]. Amir Temurning hayoti, ma’naviy merosi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari bo‘yicha O‘zbekistonda I.Mo‘minov, B.Ahmedov, N.Ahmedov, E.Rtveladze, U.Uvatov, J.Yaxshilikov, A.Ziyo, Z.Muqimov, A.Saidov, H.Dadaboyev, Sh.O‘ljayeva va boshqalar o‘z asarlarida ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni keltirganlar.

Mazkur olimlar asarlarida Amir Temurning ratsional xarizmatik liderlik qobiliyati va ma’naviy merosiga oid yangi manbalarda keltirilgan ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy qarashlari to‘liq o‘rganilmagan. Busiz Sohibqiron faoliyatidagi insonparvarlik g‘oyalarining yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashga oid ijtimoiy-siyosiy va falsafiy jihatlari yaxlitlik kasb etmaydi. Hozirda jahonda yuz berayotgan

ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglashda Amir Temur ma’naviy merosi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Amir Temurning ratsional xarizmatik liderlik qobiliyati va ma’naviy merosiga oid ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy qarashlari ahamiyatini yoritishda obyektivlik, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, qiyosiy tahlil va shu kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida, ayniqsa mustamlakachilik va parokandalik, siyosiy boshboshdoqlik hukm surgan vaziyatda jafokash xalq manfaatlarini himoya qiladigan yetakchilar – milliy qahramonlar siyosat maydoniga chiqadilar.

Markaziy Osiyoda siyosiy parokandalik, o‘zboshimcha amirlar o‘rtasidagi boshboshdoqlikka barham berish, jabrdiyda xalqini, vatandoshlarini mo‘g‘ullar zulmidan ozod etish hamda qisqa fursat ichida Markazlashgan buyuk bir imperiyani tashkil etish bu Amir Temurning xarizmatik liderlik qobiliyati bilan bog‘liqdir. Biz quyida Sohibqironning xarizmatik liderlik qobiliyati va siyosiy yetakchilik faoliyatidagi ratsionallik tamoyilining mohiyatini yoritib berishga harakat qilamiz.

Tadqiqotchilar Amir Temur hukmdorlik faoliyatini ikki davrga bo‘ladilar: Birinchi davri ona Vatanni bosqinchilardan ozod etish, mustaqil milliy davlatchilik asoslari yaratish. Ikkinchi davri mustaqil Vatani sarhadlarini daxlsizligini ta’minlash, mudofaa salohiyatini yuksaltirish va zafarli yurishlarini o‘z ichiga oladi [3-368]. Amir Temur 1370-yilda Movarounnahrni mo‘g‘ullar zulmidan ozod etib mustaqil davlatga asos soladi va 10 yil davomida saltanati hududini markazlashgan davlatga aylantirdi. Bu vazifalar osonlik bilan amalga oshmasligi aniq edi. Undagi xarizmatik qobiliyati tufayli bir-biri bilan murosasiz bo‘lgan barcha beklarni birlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik istibdodidan xonavayron bo‘lgan yurtida keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni boshlab yubordi. Amir Temur faoliyatida legitimlik, ya’ni qonun ustuvorligi tamoyili jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi va olib borilgan barcha islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minladi. Sohibqironning maqsadi sharoit taqozosi bilan vaqtinchalik hukumat yaratish emas, balki xavfsizligi ta’minlangan, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari mantiqiy ratsional tarzda yaratilgan istiqbolli davlatchilik asoslarini yaratish edi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda legitimlik asosiy tamoyil ekanligini Sohibqiron teran anglaydi.

Hukmronligining dastlabki davrlaridanoq davlat boshqaruvini ijtimoiy adolat hamda qonun ustuvorligi tamoyillari asosida boshqardi. Aynan mana shu tamoyil va Amir Temurdagi ratsional faoliyat qisqa muddat ichida Movarounnahrning yuksalishiga, iqtisodiy va harbiy salohiyatining o‘sishiga olib keldi.

Amir Temur olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni natijasida mamlakatdagi farovonlikka guvoh bo‘lgan Klavixo o‘z taassurotlarini quyidagicha

bayon etadi: “Bu yurt don-dun, may, meva-cheva, parranda go‘shti, (boshqa) har xil go‘sht, qo‘yingki, hamma narsaga boy mamlakatdir.

...Nonni suv tekin desa bo‘ladi, guruch esa hamma yoqni bosib ketgan edi. Samarqand va uning atrofidagi yerlar hayratomuz darajada mo‘l-ko‘l boy edi” [4-199]. Klavixo o‘z kundaliklarida mamlakat qudratini e’tirof etish bilan birga aholining farovon turmush tarzini alohida ta’kidlab o‘tadi. U mamlakatning qudratini va farovonligini faqat oziq-ovqat mahsulotlarining serobligida emas balki ishlab chiqarish va savdo-sotiq va servis xizmatlarining yuqori darajaligi bilan belgilanishini quyidagicha bayon etadi: “Shaharning boyligi oziq-ovqatlarning mo‘l va arzonligidagina emas. Bu yerda ko‘plab ishlab chiqiladigan atlas, kimxob, sandal, tafta va tersenal singari shohi gazlamalar, mo‘yna va shohidan tayyorlangan astarliklar, upa-elik va (boshqa) pardoz mollari, ziravor-dorivorlar, zarhal va ko‘k-lojuvard bo‘yoqlar, boshqa narsalar ham mo‘l-ko‘l edi. Podshoh shaharning shuhratini oshirish niyatida shu qadar ko‘p sa’y-harakatlar qildiki, u qaysi bir mamlakatni zabt etgan va bo‘ysundirgan bo‘lsa, ularning hammasidan (hunarmand) odamlarni olib kelib, Samarqand va uning tevarak-atrofidagi yerlarga joylashtirdi. Podshoh har xil kasb egalarini to‘plashga, ayniqsa, ko‘p harakat qildi” [4-199]. Amir Temur mamlakat qudratini yuksaltirishga ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan birga ma’naviy taraqqiyotga ham jiddiy e’tibor qaratadi. Musulmon Sharqida II Uyg‘onish davri tamal toshini qo‘ygan ham aynan Amir Temur edi. XIV asrda Markaziy Osiyoda islom dinini rivojlantirishda ham Amir Temurning xizmatlari katta edi. Temur va Temuriylar hukmronligi ulamolari tomonidan hanafiya mazhabi doirasida fiqh, aqoid ilmlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Tasavvufning yassaviya, naqshbandiya tariqatlari bo‘yicha ko‘plab asarlar yaratiladi.

Amir Temur mamlakatda savdo-sotiqni rivojlantirish masadida Buyuk Ipak Yo‘lining xavfsizligini ta’minlashga katta e’tibor qaratish bilan birga Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy integratsiya aloqalariga yo‘l ochadi.

Amir Temur Fransiya Qiroli Sharl VI ga yo‘llagan xatida shunday deydi: “Siz o‘z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni iliq qarshi olib izzat-ikrom ko‘rsatamiz. Biz ham o‘z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo‘llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko‘rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo‘l qo‘ymang” [5-583-584].

O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda yagona savdo-iqtisodiy muhitining vujudga kelishi Temur va uning vorislari davrida milliy davlatchiligimizning yutug‘i edi. Buyuk Ipak Yo‘li xavfsizligini ta’minlanishi, xorijiy savdogarlar uchun to‘xtash joylari, mehmonxonalar, ya’ni rabot va karvonsaroylar qurish shart-sharoitlari yaratilishiga davlat siyosati darajasida ahamiyat beriladi. Amir Temur mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligini ta’minlamasdan turib ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib bo‘lmas edi. Sohibqiron tomonidan uyushtirilgan har bir

yurishlar ham aynan mana shu maqsadga – ya’ni mamlakat xavfsizligini ta’minlashga bog‘liq edi.

U o‘z davlatini dunyo miqyosida tan olinishini istab dastavval davrning eng yuksak bilimiga asoslangan harbiy va davlatchilik sohasida muhim islohotlarni amalga oshira oldi, zamonasiga mos davlat boshqaruv tizimlarini ishlab chiqdi. Buning natijasida O‘rta Osiyoda qariyb ikki asrga yaqin mo‘g‘ullarning beboshligi natijasida bosqinchilik, zo‘ravonlik, adolatsizlik va vayronagarchilik hukm surgan feodal tarqoqligiga barham berildi, o‘lka xalqlarining o‘z huquqlari, mustaqilligi qayta tiklandi. Iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy turg‘unlik girdobidan olib chiqildi. Uning buyuk ishlari va salobatli davlati o‘z davrida nafaqat Sharqda balki, dunyo, ayniqsa Yevropada ham tan olingan edi.

Amir Temur o‘zining milliy davlatchilik g‘oyalarini amaliyotda ham namoyon eta oldi. Hatto Yevropa qirollari ham uni buyuk hukmdor ekanligini, saltanatini esa eng farovon va qudratli imperiya sifatida tan oladilar. Bunday natijaga esa Sohibqiron avvalo o‘zidagi aql-tafakkur, matonat va shijoat orqali erishadi. Bu xususida Sohibqiron shunday deydi: “Saltanat to‘nini kiygach, o‘z to‘shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim” [6-175].

Amir Temur faoliyati yoritib berilgan va tadqiqotchilar orasida keng tarqalgan asarlardan biri bu Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asari hisoblanadi. Asar hajmi jihatidan kattaligi, voqea va hodisalarning batafsil bayon etilishi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Shuningdek bu asarning qimmatliligi, muallifning Amir Temur bilan bevosita uchrashganligi va muloqot qilganligi bilan xarakterlanadi.

Ibn Arabshoh Amir Temur jang qilmasdan burun doim sulh taklif qilganligi va doim adolatli so‘zga tolib bo‘lganligini ham tinimsiz qayd etib boradi. Shu ma’noda Ibn Arabshoh rivoyatlarining ustki qatlami bir ma’noni ifodalasa, ostki qatlamlari – teranliklari boshqa bir ma’nolarni anglatadi.

Ibn Arabshoh Damashq uchun bo‘lgan og‘ir janglarning g‘oyat qiziqarli tafsilotlariga to‘xtalarkan, Misr qo‘shinlarining chekinib, Damashq a’yonlari Temur qoshiga omonlik tilab kelganlari haqida yozadi va shunda Temur bilan mashhur arab allomasi Valiuddin Abdurahmon ibn Xaldun o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ajoyib suhbatni tasvirlaydi. Ibn Xaldun, chunonchi, Temurga qarata shunday deydi: “Men o‘z huzurim bilan insoniyat podshohlarini musharraf etdim va o‘z tarixlarim bilan ularning o‘chib ketgan kunlarini barhayot qildim: arab podshohlaridan falon va fulonni ko‘rdim, falon va fulon sultonlar huzurida bo‘ldim, yerning mag‘ribiyu mashriqini mushohada etdim, yerning har burchagida men uning amiriyu noibi bilan munosabatda bo‘ldim. Lekin Tangridan minnatdormanki, u mening kunlarimni uzaytirdi va meni qaytadan tiriltirdi va muruvvat ko‘rsatdiki, nihoyat, men haqiqiy podshoh kim ekanini ko‘rib, saltanat shariatida to‘g‘ri siyratli maslakni raiyat etdim...” Shu gaplardan so‘ng Temur Ibn Xaldun boshqalardan butunlay o‘zgacha

iqtidor va mavqega ega ekanligini anglaydi. O‘rtalarida kishi sezmas yaqinlik paydo bo‘ladi. Temur Ibn Xaldundan arab podsholari, ularning qanday davlat tutishlari va siyosat yuritishlari haqida hikoya qilishni so‘raydi. Temur Ibn Xaldun rivoyatlaridan hayratga tushadi va ularga maftun bo‘ladi. Ana shu yerda Ibn Arabshoh ham qarab turmaydi. Amir Temur haqida bitta ulug‘ javohirini o‘rtaga tashlaydi. Shu yerda u yozadi: “Temur esa podshohlar va xalqlar siyratlarida bilimdon, Sharqu G‘arb tarixining otasi va onasi edi” [7-227].

Ibn Arabshoh Temurning o‘ta adolatli va haddan tashqari qattiqqo‘l podshoh bo‘lganligini har qadamda ta’kidlab boradi. Mironshohning o‘z otasiga qarshi bosh ko‘tarishini, bunga sabab bo‘lgan omillarni, Mironshohni chalg‘itgan shaxslarni yozarkan, dong taratgan “bevafo zamonning mo‘jizasi, musiqa va qo‘shiqlar ilmida ustoz” Qutb al-Mosuliy haqida to‘xtaladi. Va Mosuliy Mironshohni fasod ishlarga boshladi, deydi.

Keyin shu yerda muarrix Temur haqida juda qimmatli bir tafsilotni yozib ketadi: “Temur bo‘lsa, ajib narsalardan ajablanmas, o‘yin-kulgi va musiqa uni o‘ziga maftun etmasdi” [7182].

Ibn Arabshoh asari sahifalarida Amir Temur o‘z strategik salohiyati va undan ham yuksakroq dahosining qudrati bilan ko‘zga tashlanadi. Temur qilgan har bir jangning sirli daqiqalari bor. U sir Xudoga va Temurning o‘ziga ayon. Ibn Arabshoh dahoning ana shu sirlariga ham ko‘z qirini tashlaydi. Garchi ularni tahlil qilib o‘tirmasa-da, lekin albatta qayd etib o‘tadi. Kutilmaganda yengilganday yoki qo‘rqqanday bo‘lib orqaga chekinish, keyin kutilmagan tomondan dushmanni tamomila o‘rab olish, dushmanni to‘xtovsiz chalg‘itish, bir dushman ustiga yurayotganday bo‘lib boshqa dushmanga qarshi bostirib borish, zarbaning asosiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash, yovga doim xavf solib turish, uni esankiratish, ba’zan esa o‘z holiga tashlab qo‘yish va boshqa ming turli harbiy mahorat sirlari Temurning turli janglarida namoyon bo‘ladi.

Biroq Ibn Arabshoh Amir Temurga nisbatan ko‘p hollarda tanqidiy yondashadi va uning shaxsiyatini kamsitishga harakat qiladi. Asar ayniqsa Yevropa olimlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, ba’zi tadqiqotchilar uni obyektiv manba sifatida qabul qiladilar. Ammo yana bir arab olimi Muhammad Amin Shayxu aynan Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asaridagi ayrim fikrlariga raddiya sifatida o‘zining “Buyuk Temurlang haqida haqiqat” asarini yaratdi.

Shayxu o‘z asarida Amir Temur shaxsiyatiga oid salbiy fikrlar asossiz ekanligini bayon etadi. Ibn Arabshohning tanqidiy fikrlari bilan birga uning Amir Temur haqidagi ijobiy qarashlarini ham ta’kidlash zarur. Bizning fikrimizga ko‘ra Muhammad Amin Shayxuning “Buyuk Temurlang haqida haqiqat” asari Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asariga qaraganda obyektiv va haqiqatdir. Biroq

Shayxuning asari o‘zbek tadqiqotchilariga tanish emas, asar o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur saltanatining tashkil topishi tasodifiy bir hol bo‘lmasdan, butun XIV asr ijtimoiy-siyosiy voqealari rivojlanishidagi tarixiy jarayonning shakllanishi hamda Markaziy Osiyoda xarizmatik liderning yetishib chiqishi edi. Xarizmatik liderning shaxsiy fazilatlari haqida yuqoridagi tadqiqotchilarning hamma xulosalari yosh, navqiron, jasur, bilimli va iymonli Amir Temurda mujassam edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hookham H. Timurlaine the concueror. - London, 1962; Хукхэм Х. Властитель семи созвездий / Пер. с англ. Хидоятова Г. –Т.: “Адолат”, 1995. –С.320.
2. Kehren L. Tamerlan, le Seiqneur de fer. - Neuchatel, 1978. –P.260; Keren L. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan tarj. va izohlar muallifi B.Ermatov. –T.: “O‘zbekiston”, 2016. – Б.169-170.
3. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: “Шарқ”, 2000. –Б.368.
4. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат (1403-1406 йиллар). –Т.: “O‘zbekiston”, 2010. –Б.199.
5. Ахмедов Б. Амир Темур. –Т.: “Мерос”, 1995, -Б.583-584.
6. Темур тузуклари. –Т.: “O‘zbekiston”, 2013. –Б.75.
7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. I жилд. –Т.: «Меҳнат», 1992. - Б.227.

ULGURJI SAVDODA TOVARLAR SOTISH HISOBINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

G‘ulomiddinov Jamoliddin G‘ulomiddinovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ulgurji savdo korxonalarida tovarlar sotish hisobini tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada ulgurji savdo faoliyatida tovarlar harakati ustidan samarali nazoratni ta’minlash, moliyaviy natijalarni ishonchli aks ettirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisob axborotlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari ulgurji savdo korxonalarida tovarlar sotish hisobini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish hamda xo‘jalik faoliyati samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ulgurji savdo, tovarlar sotish hisobi, buxgalteriya hisobi, tovar aylanmasi, realizatsiya jarayoni, moliyaviy natijalar, daromadlar hisobi, xarajatlar hisobi, tovar-moddiy zaxiralar, hujjatlashtirish, ichki nazorat, moliyaviy hisobot, savdo korxonalari, hisob siyosati.

Bugungi kunda ulgurji savdoda tovar operatsiyalarini hisobga olishning muhim vazifasi tovarlarni ilgari surish, shartnoma majburiyatlarini bajarish, etkazib beruvchilar va mahsulot xaridorlari, inventarizatsiya holati, moddiy boyliklarni jo‘natish va sotish jarayoni va ularning xavfsizligini nazorat qilish to‘g‘risida o‘z vaqtida ma'lumot olish imkonini beruvchi ishonchli hisob-kitob tashkiloti hisoblanadi. Ulgurji savdo bozor infratuzilmasining eng muhim elementi sifatida har qanday davlat iqtisodiyotida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi va ulgurji savdo tovar aylanishining zaruriy bo‘g‘ini hisoblanadi, chunki u xalq xo‘jaligi tarmoqlari, respublikaning iqtisodiy mintaqalari va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida tovar almashinuvini amalga oshiradi. U korxonalarning iqtisodiy aloqalarini o‘rnatish, savdo assortimentini shakllantirish, chakana savdo tarmog‘iga tovarlar yetkazib berish va boshqalar uchun muhim vositachilik funksiyalarini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi ulgurji savdo iqtisodiy va tashkiliy tamoyillarga asoslanadi,(1-jadval) bu korxonalarga tovarlarni yetkazib beruvchilarni, savdo bozorlarini, ulgurji xaridorlarga xizmatlarni va boshqalarni mustaqil ravishda aniqlashga imkon beradi.

1-jadval. 2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ulgurji savdo aylanmasi

Ko‘rsatkichlar	2022/01	2022/02	2022/03
Ulgurji savdo aylanmasi, *mln. so‘m*	8 987 855,2	18 959 394,3	32 706 227,3
O‘sish sur’atlari, *% da*	111,3	112,2	114,9

Respublikamizda qabul qilingan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ga muvofiq barcha tarmoq va sohalarda tub o‘zgarishlar nazarda tutilgan. Ushbu o‘zgarishlar bevosita xizmat ko‘rsatish sohasiga, uning barcha tarmoqlariga, chunonchi ulgurji savdoga ham dahldordir. Shu munosabat bilan bozor munosabatlari sharoitida ulgurji savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining ahamiyati ortib bormoqda. Bu buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etish va tovar operatsiyalarini nazorat qilish samaradorligini oshirish, makro darajada tovar harakatining uzluksizligi uchun sharoit yaratish zarurati bilan bog‘liq [1].

Savdo operatsiyalari deyarli barcha tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi, shu bilan birga, har bir tashkilot savdo natijalarni to‘g‘ri aks ettira olmaydi va soliqlarni hisoblashda, moliyaviy natijani aniqlashda xatolarga yo‘l qo‘ymaydi. Ulgurji savdo-bu bozor subyektlari o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni o‘rnatishda tijorat vositachiligini ta’minlaydigan va tovarlarni ishlab chiqarish assortimentini savdoga aylantirishda ishtirok yetadigan, shuningdek murakkab ta’minot uchun mavsumiy, joriy, sug‘urta va boshqa zaxiralarni yaratishni ta’minlaydigan tovar aylanishining

to‘liq siklidagi mustaqil bo‘g‘in chakana savdo tarmog‘iga tovarlar va tovarlarni xaridorlarga ishlab chiqarish, moliyaviy va tijorat va uslubiy xarakterga ega. Respublika bo‘yicha “2021-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 249 493,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 44 705,9 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 113,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 184 243,5 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 110,7 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 20 543,9 mlrd. so‘m (o‘sish sur’ati 123,2 %)ni tashkil etdi” [2].

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarni sotishdan tushgan tushumga tovarlarni ommaviy sotishdan tushgan daromad (ulgurji savdo aylanmasi) kiradi. Masalan, “Respublika bo‘yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 157 897,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 17,5 % ga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 44 239,4 mlrd. so‘mni (15,0 % ga ko‘paydi) tashkil etdi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga ega yirik korxonalar Toshkent shahri (128,0 %) va Namangan (121,3 %), Sirdaryo (116,2 %) viloyatlarida kuzatildi” [2].

Tovarlarni sotishdan tushgan tushum qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan sotish narxlarida hisobga olinadi. Ulgurji korxonalarda tovarlarni sotishdan olingan yalpi daromad sotilgan tovarlarning sotish va sotib olish qiymati o‘rtasidagi farqdir. U olingan daromadlardan, muomaladagi xarajatlar va savdo faoliyatidan olingan foydadan soliq va soliqsiz to‘lovlarni qoplashga mo‘ljallangan. “O‘zbekistonda innovasion iqtisodiyot sharoitida ulgurji savdo faoliyatini rivojlantirish, ulgurji tovar aylanmasini oshirish sanoatda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar va diversifikasiya bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham ulgurji savdoning rol va o‘rni yanada ortib bormoqda. Bugungi kunda ulgurji savdo faoliyatini zamonaviy bozor mexanizmlariga mos ravishda sanoat va chakana savdo bilan aloqalarni tashkil etishning yangi shakllarini hamda ulgurji savdo xizmatlarini diversifikasiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi”[3;129].

Ulgurji savdoda tovarlarni hisobga olishning maqsadi zaxiralarning xavfsizligini, oqilona va samarali ishlatilishini nazorat qilish; daromad va yalpi daromaddan hisoblangan soliqlar va soliqsiz to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tovar aylanmasi, etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitoblarning holati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni o‘z vaqtida olish, hamda asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir.

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlar, konteynerlar hamda tovar aylanmasi hisobini tashkil etish va yuritish quyidagi asosiy vazifalarni qamrab oladi:

- tovarlar va konteynerlarning qabul qilinishi hamda chiqarilishi bilan bog‘liq hujjatlarni o‘z vaqtida va belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini nazorat qilish;

- tovarlar va konteynerlarning omborlarga joylashtirilishi, saqlanishi hamda hisobdan chiqarilishining to‘liqligi va to‘g‘riligini ta’minlash;

- tovar operatsiyalarining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligini nazorat qilish;

- moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobotlarning belgilangan muddatlarda taqdim etilishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish;

- tovarlar, konteynerlar, tovar aylanmasi va tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushum hisobining ishonchliligi hamda haqqoniyligini ta’minlash;

- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan jamlama hisob ma’lumotlarini o‘z vaqtida olish va umumlashtirish;

- tovarlar va konteynerlar inventarizatsiyasini sifatli tashkil etish hamda uning natijalarini buxgalteriya hisobida o‘z vaqtida va to‘liq aks ettirish;

- tovarlarni sotishdan olingan yalpi daromad ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobida ishonchli va haqqoniy aks ettirish;

- tovarlarni realizatsiya qilish natijasida shakllangan yalpi daromadning aniq va ishonchli hisobini yuritish hamda uning tahliliy ko‘rsatkichlarini shakllantirish.

Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi ulgurji savdo korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar harakati ustidan nazoratni kuchaytirish, moliyaviy natijalarning ishonchliligini ta’minlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ulgurji savdo faqatgina ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida tovar hamda moddiy resurslar harakatini tashkil etuvchi taqsimot mexanizmi sifatida emas, balki iqtisodiyotning muhim institutsional bo‘g‘ini sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning funksional ahamiyati tovar oqimlarini samarali boshqarish bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiyot tarmoqlari, ayniqsa, ishlab chiqarish sanoati subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularning xo‘jalik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, zamonaviy ulgurji savdo tizimi iqtisodiy resurslarning uzluksiz aylanishini ta’minlovchi, ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlovchi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik iqtisodiy institut sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni, // https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2. Chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi. 2021- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra dastlabki ma’lumot // https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/internal-trade-2
3. Xolmamatov D.H. Ulgurji savdo rivojlanishining dolzarb masalalari: xorij va o‘zbekistonda // Journal of marketing, business and management. – Samarqand, 2023. - Vol. 2, no. 1, 2023. - pp.127-136.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.05.2001 yildagi “Ulgurji va birja savdosini tashkil etish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 198-son qarori // https://lex.uz/docs/-322611
5. Tulaxodjayeva M.M. O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”,. 1998. – B.19.

ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA YOSHLARNING MAFKURAVIY ONGINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Safarov Akbar Isoqulovich,
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
Haqqulov Nabijon Qahramonovich,
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy axborot makonining yoshlar mafkuraviy ongini shakllantirish va rivojlantirishga ko‘rsatayotgan ta’siri ijtimoiy-falsafiy hamda madaniy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada axborotlashuv va globallashuv jarayonlarida mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash, yoshlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, axborotni saralash madaniyatini shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashning dolzarb masalalari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: axborot makoni, yoshlar, mafkuraviy ong, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, axborotlashuv, globallashuv, mafkuraviy xavfsizlik, media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, ma’naviy qadriyatlar, axborot madaniyati, milliy identifikatsiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Ijtimoiy taraqqiyotning kechishi moddiy omilga qay darajada bog‘liq ekanligini baholay olsak, ushbu jarayonning nechog‘lik ezgu maqsadlar sari yo‘naltirilganligi, insoniyat istiqboli bilan uzbiyligi ko‘p hollarda ma’naviy omilning ustuvorligi bilan bog‘likligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Keng qamrovli intellektual, texnik va texnologik muvaffaqiyatlar, ijodiy faoliyatimizning misli ko‘rilmagan yutuqlari va natijalari bilan kechayotgan

zamonamizni globallashuv davri deb ta’rif berayotirmiz. Darhaqiqat, tezkorlik va shiddat, uzviylik va hyech bir istisnosiz umumiy bog‘liqlik, to‘siq bilmas axborotlar almashinuvi imkoniyatlarining aql bovar qilmas darajada kengayib borishi globallashuvning muhim xususiyati hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar”[1], degan jumlalari bizni zamonga yanada ravshanroq qarashimizni undaydi.

Xo‘sh, bu tarzda kechayotgan globallashuv omili yuqorida biz ta’kidlab o‘tganimiz moddiy va ma’naviy turmush sohalariga qay tarzda va qay darajada ta’sir ko‘rsatadi?

Yoki masalani birmuncha soddaroq tarzda qo‘yadigan bo‘lsak, globallashuv jarayonining qaysi soha uchun ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari kengroq-mi?

Tanlagan mavzumiz mazmunidan kelib chiqqan holda globallashuv va iqtisodiy o‘sish borasida fikrimizni umumiy tarzda bayon qilamiz. Moddiy turmush taraqqiyoti, iqtisodiy o‘sish avvalo real daromad manbaiga e’tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Globallashuv esa iqtisodiy o‘sish ikoniyatlari sari yo‘l ochadi. Innovasion g‘oyalar, zamonaviy texnologiyalar, modernizasiya jarayonlari ushbu imkoniyatlarning amaliy zaminlaridir.

Shu tariqa fikrimizcha muammoning biryoqlama yechimiga qisman izoh berildi deb hisoblash mumkin.

Galdagi vazifa globallashuv va ma’naviy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish. Bu bir muncha jiddiy va nozik masala. Chunki aynan shu soha-yo‘nalishida globallashuvning ijobiy ta’siri barobarida uning salbiy oqibatlariga ham alohida va jiddiy e’tibor qaratiladi.

Zero, ma’naviy yangilanish, yuksalish va o‘sish miqdoriy baholash, yoki raqamlar hajmi bilan emas, balki sifatiy yangilanish, dunyoqarash ko‘lami, fikr erkinligi va tafakkur madaniyati bilan belgilanadi. Bu o‘rinda gap real daromad ustida emas, aksincha, sog‘lom tarbiya muhiti, ishonch-e’tiqod, ma’naviy-ruhiy birlik borasida ketmoqda.

Mana, nima uchun biz globallashuv borasida fikrlashar ekanmiz, albatta unga faqat bir yoqlama yondashuvdan o‘zimizni tiyamiz. Darhaqiqat, dunyo qarama-qarshiliklar birligi va kurashdan iborat. Bu falsafiy aksioma.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/649

Endi bugungi kun qiyofasiga nazar soladigan bo‘lsak, unda manfaatlar, maqsad-muddaolar to‘qnashuvi, rejalar va amaliy harakatlar zidma-zidligining, bir so‘z bilan aytganda, g‘oyalar kurashining guvohi bo‘lamiz. Guyoki tabiatning ayovsiz qonuni ijtimoiy-madaniy tus olgan “Kimning g‘oyasi kuchli bo‘lsa – u g‘olibdir”. Mantiqan olib qaraganda, asli shunday. Lekin gap qaysi g‘oya kuchliroq, yoki g‘oyaning kuchi nimada ekanligidadir.

Shu o‘rinda oddiy bir haqiqatni eslatib o‘tmoq joiz. Har qanday g‘oya halq ishonchi va e’tiqodidan kuch-quvvat oladi. G‘oyaviy e’tiqod sobitligi xalq ommasini yagona kuch sifatida birlashtiruvchi va uni aniq maqsad sari boshlab boruvchi muhim omildir. O‘tgan davr maboynida biz mustaqillik g‘oyalarini har bir fuqaroning ongu-shuuriga olib kira oldik. Vatan ravnaqi-ezgu saodat ekanligini, yurt tinchligi-buyuk ne’mat, xalq faravonligi-insonparvarlik tantanasi ekanligini anglagan holda ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik g‘oyalarini o‘z faoliyatining ustuvor maqsadiga aylantirgan barkamol avlod tarbiyasi biz uchun jamiyat ma’naviy ruhiy birligini, g‘oyaviy e’tiqod yaxlitligini yanada mustahkamlash, hamda O‘zbekiston taraqqiyotini yuqori cho‘qqiga olib chiqishning muhim garovidir.

Tabiiyki, ijtimoiy-taraqqiyot, millat va xalq kelajagini yangi avlod tarbiyasi bilan uzviy birlikda ko‘rish har bir tarixiy davrning dolzarb muammosi hisoblanib kelgan. Qolaversa, har bir davr komil inson hislatlarini belgilovchi mezon va talablarni qo‘yadi. Vaqt o‘tishi barobarida bunday talablar o‘zgarib, mukammallashib, yoki mazmunan boyib boradi. Shu bois komillik belgilari faqat ma’lum bir tarixiy davrda mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum manfaatlariga mos kelib, hukmron mafkuraviy maqsadlarni aks ettiruvchi talablar bilan o‘lchanmasligi lozim. Aksincha, avlod barkamolligi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini o‘zida aks ettiruvchi mezonlar bilan o‘lchanmog‘i lozim.

Bunday talab bugungi kunda, qaysiki, globallashuv hodisasi tufayli mafkuraviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari tabora kengayib, g‘oyaviy bosim o‘tkazishning zamonaviy usullari va vositalari yagona yo‘nalishda harakatga kelirilganligi natijasi o‘laroq ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar tinchlik va taraqqiyot uchun jiddiy xavf tug‘dirayotgan paytda ayniqsa dolzarb masalaga aylanib qoldi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq biz iqtisodiy yangilanish jarayonlari bilan bir vaqtda jamiyatning ma’naviy yangilanishi masalasiga ham jiddiy yondashdik. Har ikkala holatda ham asosiy e’tibor inson omiliga qaratildi. Xalqimiz, xususan, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitini yaratish barobarida ularning dunyoqarashi va tafakkur tarzida mustaqillik g‘oyalarining mustahkam o‘rin egallashi uchun kuch-quvvatimzni ayamadik. Maqsad – xalqimiz qalbi va ongida biz tanlagan yo‘lning haqqoniyligiga va abadiyligiga, hyech qanday kuch bizni bu yo‘ldan qaytara olmasligiga ishonch va e’tiqodni shakllantirish edi.

O‘tgan davr maboynida biz erishgan natijalar, amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bu vazifani qay darajada uddalay olganligimiz belgisidir. Balki dunyo bugun bizni tan olib, tanlagan yo‘limizda erishgan yutuqlarimizga yuqori baho berayotgan ekan, demak bu bizning millat, xalq va davlat sifatida ma’naviy-ruhiy, g‘oyaviy-mafkuraviy birligimizni, hamfikrliligimiz va e’tiqodimiz mustahkamligining belgisidir.

Ana shunday birlik va g‘oyaviy sobitlikning muhim manbai hayotiy dasturimizga aylangan mustaqillik g‘oyalarining vatanparvarlik va insonparvarlik ruhiyati bilan uyg‘unlashtirilganligidadir. Yoshlarimiz qalbiga va ongiga Vatanga hurmat, mehr-muhabbat, Vatan qadrini muqaddas deb bilish, O‘zbeiston deb atalmish bu muqaddas maskan har birimiz uchun yagona ekanligi, uning ravnaqi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini shakllantirib, bu tuyg‘uning mustahkamlanishi uchun butun imkoniyatlarimizni safarbar etdik.

Dunyoda kechayotgan voqealarni tahlil qilar ekanmiz, ogohlik va hushyorlik har bir qadamda bizni tark etmasligi zarurligiga amin bo‘lamiz. Yoshlarimiz ma’naviy dunyosiga chetdan bo‘layotgan ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar ma’naviy hushyorlikni biron bir lahzaga bo‘lsin, aslo susaytirmaslikni talab etadi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo‘lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar toboro kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo‘lishga da’vat etishi tabiiydir.

Shu sababli yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta’sirlardan, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e’tiborimizdan chetda qolmasligi darkor”[1].

Biz mustaqil dunyoqarash, tafakkur erkinligi va sog‘lom fikrni qaror toptirishni tarbiyaviy faoliyatimiznining muhim vazifasi deb bilar ekanmiz, so‘zsiz, ushbu yo‘nalishda yoshlarimizning yuqorida ta’kidlangan turli zararli g‘oyalarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo‘ymog‘imiz kerak. Bu borada quyidagi vazifalarni birlamchi deb hisoblash ma’qul bo‘lar edi:

-birinchidan, tarbiyaviy ishlarimiz samaradorligining muhim sharti sifatida sog‘lom-ma’naviy muhitni shakllantirish;

- ikkinchidan, mustaqillik g‘oyalarining mazmun-mohiyatini, maqsad-muddaolarini yoshlarimiz ongiga to‘la singdirgan holda, bizning turmush tarzimizga, qadriyatlarimizga, milliyligimiz va diniy e’tiqodimizga mutlaqo zid

[1] Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлда хизмат қилиш – энг олий саодатдир. - Т.: “Ўзбекистон”, 2015, 267-бет.

bo‘lgan yot va buzg‘unchi g‘oyalarning zararli ta’siri haqida to‘liq tasavvur hosil qilishga erishish;

- uchinchidan, o‘tmish madaniy-tarixiy merosimizni chuqur o‘rganish orqali milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini tarbiyalash;

- to‘rtinchidan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, ilm-fan, madaniyat va sprot sohasida o‘zining qobiliyati va mahoratini namoyon qilish sari yo‘llash.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning alohida e’tibor qilish lozim bo‘lgan jihati bu mustaqillik g‘oyalarining milliylik ruhiyatini, tarixiy ildizlarini va falsafiy manbalarini aniq-ravshan bayon qilish orqali g‘oyaviy e’tiqodni va mafkuraviy sobitlikni shakllantirishdan iboratdir. Pirovard natija esa ushbu mafkuraning har bir insonning hayotiy dasturiga aylanishi bilan baholanadi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy g‘oyani yoshlarimiz ongiga va qalbiga singdirar ekanmiz, g‘oya e’tiqodga aylanmog‘i uchun bizning o‘zimiz avvalo shu vujudga yorib kirib, bilim va mahoratimiz, ishonchimiz bilan uni zabt etmog‘imiz lozim. Shundagina bu g‘oya kuch–qudratga ega bo‘ladi va hayot sinovlariga bardosh berib, har qanday to‘siqni yengib o‘tishi mumkin. So‘zsiz, bunday imkoniyat va kuch-qudrat manbai milliy o‘zligimizni anglash, milliy g‘urur, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘usi bilan sodir bo‘layotgan jarayonlarga oqilona va xolisona baho berishdir.

MUNDARIJA:

T/r	Maqola muallifi	Maqola va tezis mavzusi	bet
1.	**ZAMON LAHZALARIDA UMR AKS-SADOSI**		3
I SHO‘BA. PROFESSOR S.K.KARIMOVNING TASHKILOTCHILIK, ILMIY, IJTIMOIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATI HAQIDA			
2.	**Sharipov T.S., Azizkulov A.A.**	Milliy ma’naviyatimizning fidoiy targ‘ibotchisi	21
3.	**Pardayev M.Q.**	Ibrat makabining sohibi - Sayimnazar Karimov ijodiga bir nazar	24
4.	**Shodmonov K.B.**	Ilmiy izlanishda toblangan olim	28
5.	**Samadov A.R.**	Fidoyi olim va zahmatkash ustoz	30
6.	**Isaqova Z.R.**	“CHIN OLIM YOSTUQIN TOSHTIN YARATTI ...”	32
7.	**Bozorov M.J.**	Samimiy inson va ilm fidoiysi	39
8.	**Qo‘shaqov Sh.S.**	Professor Sayimnazar Karimov faoliyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili va uning zamonaviy ahamiyati	41
9.	**Xandamova M.A.**	Ustozlik, ilm va ma’naviy kamolot timsoli	44
10.	**Qodirov D.H.**	Ilm yo‘lidagi hidoyatchi va ixlos sohibi (Mehridaryo ustoz Sayimnazar Karimov siymosiga chizgilar)	46
11.	**Samatov X.U.**	Ilmga baxshida umr	48
12.	**Isomiddinov Yu.Yu.**	Professor S.K.Karimov faoliyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili va uning zamonaviy ahamiyati	49
13.	**Alimov A.N.**	Ma’naviyat va ma’rifat targ‘ibotchisi	51
14.	**Haqqulov N.Q.**	Ustozlik maqomiga yetishgan umr	53
15.	**Abdivohidov S.N.**	Ustozlik va donishmandlik timsoli	56
16.	**Qo‘chqarov B.**	Sinfdosh do‘stimiz bilan faxrlanamiz	57
17.	**G‘aybullayev O‘ral**	Sayimnazar Karimovga !	60
II-SHO‘BA. GLOBAL TRANSFORMATSIYALAR DAVRIDA ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB MUAMMOLARI			
18.	**Pardayev M., Pardayev O.**	Falsafiy va iqtisodiy kategoriyalar va ularning o‘zaro bog‘liqliklari	61
19.	**Bozorov M.J.**	Migratsiya jarayoni evolyusiyasi: tarixiy va falsafiy tahlil	54
20.	**Xatamov F.F.**	Korrupsiya tushunchasining mohiyati va uning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri	69

21.	**Yazdonova S.K.**	Feminizm va mizandriya o‘rtasidagi munosabat: ijtimoiy tasavvurlar va gender diskursi	73
22.	**Xashimov SH.J.**	Milliy turizm rivojlanish tendensiyasi va uning O‘zbekiston xalqaro imidji yuksalishida tutgan o‘rni	77
23.	**Ro‘zimurodov S.M.**	Mahalla ma’naviy barqarorligini ta’minlashda sog‘lom turmush tarzining o‘rni	83
24.	**Absattorov B.M.**	Yangi O‘zbekistonda raqamli ma’naviyat tushunchasi va uning rivojlanish yo‘nalishlari	86
25.	**Mirzayeva M.K., Raximova D**	O‘zbekistonda Buyuk Ipak yo‘li transkommunikasiyasining global - ijtimoiy madaniy taraqqiyoti	91
26.	**Xudoyberdiyev D.M.**	Ekologik adolat va ekologik mas’uliyat konseptlarining falsafiy evolyutsiyasi	96
27.	**Pulatova M.E., Qalandarova S.A.**	Global raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning kiber-madaniyatini shakllantirish va kognitiv xavfsizligini ta’minlash strategiyalari	100
28.	**Xashimov Sh.J.**	Etnoturizm milliy turizmning muhim turi va yo‘nalishi sifatida	105
29.	**Ro‘zimurodov S.M.**	Jamiyatda oilaviy munosabatlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning o‘rni	108
30.	**Xashimov SH.J.**	Oila turizmi milliy turizm rivojlanishining muhim omili va vositasi sifatida	113
31.	**Xidirov X.I.**	Mustaqillik yillarida ma’naviy merosning tiklanishi	116
32.	**To‘xtayev H.M.**	Agrar madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning falsafiy masalalari	119
33.	**Davronova Yu.**	Sirdaryo viloyati aholisining dindorlik darajasi (Islom dini misolida)	123
34.	**Ro‘zimurodov S.M.**	Milliy qadriyatlarning inson va jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rni	127
35.	**Xasanova Sh.**	Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarga yo‘naltirilgan davlat siyosati va uning natijalari	131
36.	**Djurayev J.E.**	O‘zbekistonda elektro-energetika tizimidagi islohotlarning rivojlanishi	137
37.	**Ismoilov S.**	Adolat haqida	141
38.	**Xashimov SH.J.**	Milliy turizmning rivojlanishi tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida	144
39.	**Latipov R.M.**	Keksalar - millat ma’naviyati tayanchi	151
40.	**Quvvatov S.I.**	Nafosat tarbiyasi - barkamol hayot mezoni	154
41.	**Мажидов Ш.Ф**	философия регионального сотрудничества в условиях Нового Узбекистана	156
42.	**Jurayev S.X.**	Ichki ishlar xodimlarining shaxsiy va professional faoliyatini rag‘batlantirish orqali ma’naviy-ruhiy inqirozni bartaraf etishning ijtimoiy- falsafiy jihatlari	160
43.	**Karayev N.A.**	Ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan munosabatlarida kasbiy axloqiy madaniyatni oshirish masalalari	164
44.	**Boboqulov Z.R.**	Ichki ishlar organlarida ilmiy salohiyatli muhitni yaratishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	167

45.	**Maxmudov F.T.**	Yangi O‘zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlari va mahalla institutlari o‘rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning falsafiy-huquqiy xususiyatlari	170
46.	**Maxsumov X.V.**	Ichki ishlar xodimlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmatni yuksaltirib borish mexanizmlari	173
47.	**Odilov N.O.**	Yangi O‘zbekiston sharoitida mehnat shartnomalari va ularning falsafiy-huquqiy ahamiyati	176
48.	**Mavlonov F.O.**	Inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari	180
49.	**Ismatova G.J.**	Global transformatsiyalar davrida korrupsiya muammosining ma’naviy-falsafiy tahlili	190
50.	**Minorov D.D.**	Jamiyat ma’naviy hayotida axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy talqini	193
51.	**Mavlonov F.O.**	O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlari va fuqarolarning burchlari	197
52.	**Quyliyev S.S.**	Globallashuv davrida yoshlarda: zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari	206
53.	**Raxmonova N. T.**	Ma’naviy ishlab chiqarish tizimida ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari	208
III- SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ILMIY VA MA’NAVIY-MA’RIFIY MEROSIDA ONTOLOGIK, EPISTEMOLOGIK, AKSIOLOGIK VA AXLOQIY QARASHLARNI AKS ETISHI MASALASI			
54.	**Karimov S.**	Markaziy Osiyo falsafasining zamonaviy yo‘nalishlari	213
55.	**Berdiyev R.B.**	“Avesto” - “adolatli jamiyat”, “ma’rifat, axloq va ma’naviyat” kategoriyalarining targ‘ibotchisi sifatida	216
56.	**Turatov Sh.B., Xidirov X.I.**	“Avesto” - ma’naviy merosimiz sifatida	222
57.	**Azizkulov A.A.**	G‘azzoliy ustozning axloq-odobi xususida	225
58.	**Abdurahmonov I.**	Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida adolat kategoriyasining talqini	230
59.	**Orzukulov A.O.**	“Qutadg‘u bilig” asarida komil inson konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	233
60.	**Bektemirov Sh.X.**	“Devonu lug‘atit-turk” asarida hunarmandchilik sohalarini yoritilishi	239
61.	**Quvvatov S.I.**	Ibn Sino falsafaida borliq va mavjudlik kategoriyalari	243
62.	**Quvvatov S.I.**	Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolat kategoriyasi	246
63.	**Raximova Y.D.**	“Orifnoma” asarining falsafiy-irfoniy mazmuni va yoshlar ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati	250
64.	**Karimov S., Qarshiyeva R.R.**	Tasavvuf falsafasining mohiyati	254
65.	**Samatov X.U.**	Zamonaviy tasavvuf tariqatlari va ularning faoliyati	259
66.	**Qodirov D.H.**	Kalom va tasavvuf ontologiyasi: transsendentlik va immanentlik dialektikasi	261
67.	**Hamdamov I.A.**	Mirzo Ulug‘bek maktabida fanlar integratsiyasi	265
68.	**Alimov A.A.**	Temuriylar harbiy tafakkurida strategiya va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligi	269

69.	**O‘rozov Sh.Z.**	Temuriylar davri mashhur faylasufi Mas’ud Taftazoniyning ontologik qarashlari	273
70.	**Jumayev A. H.**	Bahouddin Naqshband g‘oyalarida mehnat konsepsiyasi	278
71.	**Zoyirov E.X.**	Ya’qubi Charxiy ta’limotida axloqiy poklanish va qanoat falsafasi	281
72.	**Ravshanov A.M.**	Ya’qub Charxiy ta’limotida komil inson konsepsiyasi va uning falsafiy tahlili	284
73.	**Aliyev B.**	Alisher Navoiyning islom dini, madaniyati, falsafasi tarixida tutgan o‘rni	287
74.	**Norov T.O.**	Alisher Navoiy ontologik falsafasida vahdatul vujud masalasi	292
75.	**Uraqov N.B.**	Mahdumi A’zamning “Risolai zikr” asarida ontologik, epistemologik, aksiologik, axloqiy hamda bag‘rikenglik qarashlarning aks etishi	302
76.	**Alimov A.A.**	Koshifiyning axloqiy-falsafiy qarashlari va ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati	311
77.	**Alimov A.A.**	Husayn Voiz Koshifiy asarlarida axloqiy tarbiya masalalari	315
78.	**Mavlyanov U.N.**	Ali Safiyning ma’naviyat xususida fikrlari tahliliga doir	319
79.	**Alimov M.N.**	Globallashuv jarayonida ajdodlar ma’naviy merosining o‘rni masalasi (Mavlono Muhammad Qozi misolida)	323
80.	**Yakubova M.B.**	Nemis sayyoh va tadqiqotchisi Arved Shuls tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tabiatshunosligining tavsifi	328
81.	**Raximov B.E.**	Turkiston general-gubernatorligi Kaspiyorti viloyatidagi xorijiy tadbirkorlar faoliyatidan	334
82.	**Jurakulov V.N.**	Jadidchilik ta’limotida axloqiy qadriyatlar talqinining inson qadri bilan uyg‘unlashuvi	341
83.	**Pirmamarov R.H.**	Jadid maktablari va ularda xotin-qizlar ta’limi masalasi	349
84.	**Yuldashev A.A.**	Mahmudxo‘ja Behbudiy falsafiy merosida gumanistik g‘oya va qarashlar tahlili	353
85.	**Alimov A.N.**	Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy siyosiy ta’limotida axloqiy madaniyat va jamiyat barqarorligi	356
86.	**Ro‘zimurodov U.**	Mahmudxo‘ja Behbudiyning axloqiy qarashlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni	360
87.	**Haqqulov N.Q.**	Siddiqiy-Ajziy qarashlarida ma’naviy tarbiya va ijtimoiy taraqqiyot dialektikasi	364
88.	**Nurboyev Q.A.**	XX asrning 20-30-yillarida Samarqand ta’lim tizimidagi o‘ziga xos jihatlar (Samarqand eroniylari misolida)	368
89.	**Shotemirova A.U.**	Qayta qurish davrida Samarqand viloyati sanoatining rivojlanish xususiyatlari	372
IV- SHO‘BA. IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARINI O‘QITISHNING METODOLOGIK MASALALARI			
90.	**G‘aniyev K.G‘.**	Tarix fanining ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyati va uni rivojlantirish yo‘llari	378
91.	**Karimov S.K., Qarshiyeva R.R.**	Global muammolar falsafasini o‘qitish zaruriyati	381
92.	**Shodiyev J.J.**	Zamonaviy jamiyatda falsafiy tafakkur madaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari	385

93.	**Zakirova F.G.**	Tibbiyot pedagogikasi va ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalardan foydalanish imkoniyatlari	388
94.	**Rustamova M.M.**	Mamlakatimizning eng yangi tarixida yangi davr milliy uyg‘onish va mustaqil rivojlanish	392
95.	**Alimov A.A.**	Yangi O‘zbekistonda yoshlar ma’naviy kamolotida milliy merosning аҳамияти	398
96.	**Xashimova S.X.**	Inklyuziv ta’lim va uning imkoniyati cheklangan o‘smirlar psixologik tarbiyasida tutgan o‘rni	400
97.	**Abdullayev Sh.A.**	Yangi O‘zbekistonda maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasining modernizatsiyasi (Samarqan viloyati misolida)	406
98.	**Burxanova M.B.**	Ota-ona va farzand kommunikativ munosabatlarining bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishidagi o‘rni	412
99.	**Abdurashidova R.F.**	Ta’lim jarayonida mnemonik texnikalardan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	415
100.	**Xashimov SH.J.**	Ta’lim turizmi milliy turizmning muhim omili va vositasi sifatida	419
101.	**Yusupov M.S.**	Tibbiyotning fan sifatida falsafiy asoslari	423
102.	**Yusupov M.S.**	Tibbiyotda manaviy va axloqiy tamoyillar: Bioetikaning zamonaviy muammolari	427
103.	**Abdilakimova U.B.**	Nofilologik oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishning integrativ-aralash yondashuv asosidagi metodikasi	430
104.	**Ergashev N.J.**	Maktab o‘quvchilarida yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish bo‘yicha axloqiy madaniyatni shakllantirish tamoyillari	435
V-SHO‘BA. “YASHIL IQTISODIYOT” VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR FALSAFASI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR			
105.	**G‘ulomov S.S., Pardayev M.Q.**	Ibodat va kvant fizikasi: ilmiy va falsafiy tahlili	439
106.	**Norov T.O.**	Alisher Navoiy gumanistik merosida iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy himoya, adolat mavzusi talqini	442
107.	**Alikulov X.X.**	Raqamli transformatsiya sharoitida ekologik ong va mas’uliyatning ijtimoiy-falsafiy tahlili	450
108.	**G‘ofurov B., Mirzakarimova M.**	Axborot sivilizatsiyasi yoki axborotlashtirishning jamiyatga ta’siri	454
109.	**Xashimov SH.J.**	Turizm sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish va uning ijtimoiy-falsafiy masalalari	460
110.	**Xidirov X.I., Yusupov M.S.**	Globallashuv davrida ta’limning axborotlashuvi va yoshlar dunyoqarashining transformatsiyasi	463
111.	**Aliqulov K.X.**	Yashil energiya texnologiyalarining vizual-estetik jozibadorligi va iqtisodiy faollikning estetik me’yorlari	469
112.	**Raxmonova N.T.**	Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar ma’naviy barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	472
113.	**Мулладжанова Х., Иванян М.М.**	Новый Узбекистан: экономические реформы и трансформация внешнеполитического курса	478
114.	**Sattarov I.O.**	“Yashil iqtisodiyot” va raqamli texnologiyalar falsafasi: muammolar va istiqbollarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	484

115.	**Toshpo‘latov N.B., Mamarajabova N.**	Yashil iqtisodiyot sari: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ekologik ustuvorlik masalalari	487
116.	**Toshpo‘latov N.B., Toshtemirova N.**	Mustaqillik yillarida O`zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish tarixi	491
117.	**Maxammatov O.S.**	Raqamli makonda yoshlar xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy omillari	495
118.	**Djumaniyazov F.U.**	Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirishda sun’iy intellektga asoslangan ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasi	499
119.	**Berdikulov Ch.D.**	Jamiyat konsolidatsiyasida fuqarolik mas’uliyati masalasi	503
120.	**Temirov A.Z.**	Globallashuv jarayonida madaniy makonning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari	506
121.	**Temirov A.Z.**	Milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va madaniyatlararo kommunikatsiyaning ijtimoiy-madaniy jihatlari	510
122.	**O‘rozov Sh.Z.**	Amir Temur faoliyatida davlatchilik g‘oyasi va amaliyoti birligi evolutsiyasi	514
123.	**G‘ulomiddinov J. G‘.**	Ulgurji savdoda tovarlar sotish hisobini tashkil etishning o‘ziga xosligi	520
124.	**Safarov A.I., Haqqulov N.Q.**	Zamonaviy axborot makonida yoshlarning mafkuraviy ongini rivojlantirish tendensiyalari	525

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, falsafa fanlari doktori S.K. Karimovning 70-yillik yubileyiga bag‘ishlangan

“ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB MUAMMOLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

(2026-yil 05-iyun)

2026-yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 31.37
Buyurtma № 0113A/26. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, falsafa fanlari doktori S.K. Karimovning 70-yillik yubileyiga bag‘ishlangan

“ZAMONAVIY FALSAFANING DOLZARB MUAMMOLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

(2026-yil 05-iyun)

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2026

ISBN: 978-9910-225-99-4

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)

© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2026 y.

1354

2026-yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 33.5
Buyurtma № 0113A/26. Adadi 30 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.